

Elman QULIYEV

**TURKIY  
XALQLAR  
ADABIYOTI**



821 (0)  
Q 75

ELMAN QULIYEV

# TURKIY XALQLAR ADABIYOTI

*Ozərbaycan Respublikası Təlim vəzirlığının  
2011-yil 28-apreldəgi 676-sonlu buyruğu ilə  
dərslük sifətində təsdiqlənən.*



Toshkent  
"Renessans press"  
2022

UO'K 51(075.8)  
KBK 22.1ya73

**Quliyev, Elman**

Elman Quliyev. Turkiy xalqlar adabiyoti [Matn]: – Toshkent: Renessans press, 2022. – 456 b.

**Loyiha rahbari:**

**Samir ABBOSOV**

*O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi  
Ozarbayjon Madaniyat Markazi rahbari*

**Tarjimon:**

**Shohista KAMRANLI**

**Mas'ul muharrir:**

**Shuhrat SIROJIDDIN**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti  
universiteti rektori, Filologiya fanlari doktori, professor*

**Maslahatchi va taqrizchi:**

**Nurboy JABBOROV**

*Filologiya fanlari doktori, professor*

**Muharrir:**

**Gülbahar ASHUROVA**

**Nashrga mas'ul:**

**Nodir ALMIRZOYEV**

*Turk xalqlari adabiyoti darsligi oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga muvofiq yozilgan. Kitobda turkiy xalqlar (Turkiya turki, o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz, tatar, iroq-turkman) adabiyotining ijodiy bosqichlari, turli atoqli ijodkorlarning hayoti va ijodi keng o'rganilib, tahlil etilgan. Turkiy xalqlar adabiyotini o'qitish jarayonida kitobdan nafaqat Ozarbayjonda, balki turkiy davlatlarning qator universitetlarida ham foydalaniladi. Kitob O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi loyihasi va taniqli o'zbek olimlari tavsiyasiga ko'ra o'zbek tiliga tarjima qilingan. Kitobning mutaxassislar va filologiya fakulteti talabalari uchun foydali bo'lishiga ishonamiz.*

**Kitob O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi loyihasi asosida chop etildi.**

**ISBN 978-9943-7868-2-0**

© **Elman QULIYEV,**

© **O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi  
Ozarbayjon Madaniyat Markazi**

**Abdulla Qodiriy nomidagi**

**viloyat AKM**

**INV № 2023/32-10**

## TURK DUNYOSIGA XIZMAT QILUVCHI KITOB

Jahon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan turkiy xalqlar o'zlarining boy madaniyati bilan doimo haqli ravishda faxrlanib kelganlar. Bu turkumda ming yillar davomida bizning zamonamizgacha yetib kelgan, jahon adabiy-badiiy tafakkurining yangi yo'nalishini belgilab bergan turkiylarning boy va ayni paytda rang-barang adabiyoti alohida o'rin tutadi. Afsuski, sovet mafkuraviy tizimi o'nlab yillar davomida biz ega bo'lgan madaniy merosni o'rganish va targ'ib qilishga taqiqlar qo'ydi, tarixiy yodgorlikka o'yib yozilgan va tarix bezagiga aylangan madaniyatni xotiramizdan o'chirishga harakat qildi. Sovetlarning qulashi natijasida qo'lga kiritgan siyosiy mustaqilligimiz madaniy merosimizga ega bo'lish imkonini berdi va bu merosni keng o'rganish va targ'ib qilish sohasida bir talay ishlar qilindi. Uning asosini Umummilliy rahbar Haydar Aliyev qo'ygan va uning munosib vorisi, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirilgan milliy-madaniy siyosat natijasida bugungi kunda Ozarbayjonda turkiy xalqlarning madaniyati va adabiyotini o'rganish, o'qitish va targ'ib qilish ustuvorlik kashf etmoqda. Ozarbayjonda turkiy xalqlar adabiyoti va madaniyatini o'rganish va o'qitish sohasida salmoqli ishlar amalga oshirildi va asrlar davomida biz yaratgan madaniy meros namunalaridan milliy istiqloq bergan imkoniyatlardan keng foydalanildi. Shu o'rinda Ozarbayjon Davlat Pedagogika Universiteti professori "Turkshunoslik" va "Turk odasi" ning mudiri Elman Guliyevning ishini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Professor Elman Guliyev o'tgan o'ttiz yil mobaynida turkiy xalqlar adabiyoti va madaniyatini o'rganish sohasida muvaffaqiyatli natijalarga erishgan ko'plab tadqiqotlar muallifidir. U Ozarbayjon universitetlarida o'qitiladigan "Turkiy xalqlar adabiyoti" fani bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari, darslik va monografiyalar muallifi. Uning keng ko'lamlı turkologik tadqiqotlari nafaqat Ozarbayjonda, balki turkiy dunyoda ham katta qiziqish uyg'otmoqda va ilmiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholanmoqda. Turkiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston va Qirg'iziston rasmiy organlari tomonidan uning ishiga beriliyotgan baho biz aytayotgan so'zlarning jonli isbotidir.

O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi sifatida Professor Elman Guliyevning "Zamonaviy o'zbek adabiyoti tarixi" (1999) va "O'zbek adabiyoti" (2009) kitoblari hamda umuman turkologik tadqiqotlari uchun o'zbek adabiyotiga oid asarlarini alohida qadrlaymiz. Professor Elman Guliyevning turkiy xalqlar adabiyotini qa-



dim zamonlardan to hozirgi kungacha o'rganish, tahlil qilish va targ'ib qilishni o'z ichiga olgan, o'zbek tiliga tarjima qilingan va O'zbekistonda nashr etilgan "Turkiy xalqlar adabiyoti" kitobini nashr etishdan asosiy maqsad, turkiy xalqlar adabiyotini O'zbekistonda keng targ'ib qilishni amalga oshirish, hamda, o'zbek ilmiy jamoatchiligini olimning turkologik tadqiqotlari bilan tanishtirishdir. Kitobda turkiy xalqning qadimiy madaniy merosi namunalari bilan bir qatorda turk, o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz, tatar, eron-turkman adabiyotining yetakchi adabiyotshunoslari hayoti va ijodi keng tahlil qilingan va har bir millat adabiyotini qamrab olgan sharhlar alohida yozilgan. Kitob Ozarbayjon universitetlarida turkiy xalqlar adabiyotini o'qitishni qamrab olgan yagona darslikdir. Kitob Ozarbayjon Respublikasi Ta'lim Vazirligining "Turkiy xalqlar adabiyoti" fani bo'yicha o'quv dasturi asosida tuzilgan. Shuning uchun ham, barcha davrlarda Ozarbayjon universitetlarida Ozarbayjon adabiyoti keng o'qitilib kelgani sababli Ozarbayjon adabiyoti vakillari bu kitobga kiritilmagan. Professor Elman Guliyevning "Turkiy xalqlar adabiyoti" kitobi buyuk va ayni paytda mashaqqatli mehnat mahsulidir. Turkiy xalqlar adabiyotini turli bosqichlarda, ko'plab adabiyotshunoslarning hayoti va ijodi doirasida o'ziga xos badiiy fazilatlar va badiiy xususiyatlari jihatidan tahlil qilish har bir tadqiqotchidan yuksak professionallikni talab etadi. Professor Elman Guliyev yuksak ilmiy bilimdonlikni namoyish etib, turkiy xalqlarning atoqli adabiyot namayondalari hayoti va ijodini keng tadqiq va tahlil qildi. Shu sababli A. Yassaviy, Y. Bolasogunlu, J. Rumiy, Y. Imra, A. Navoiy, Maxtumquli, A. Kunanboyev, N. Kamol, R. N. Guntekin, O. Seyfaddin, J. Dagji, I. Gaspirali, N. Hikmat, M. Jalil, A. Bandaro'g'li, H. Olimjon, G' G'ulom, M. Oybek, Zulfiya va boshqalar kabi turk adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi o'ziga xos ijodiy uslubga ega bo'lgan ijodkorlar bilan tanishishimiz mumkin.

O'zbek tiliga tarjima qilingan ushbu kitob turkiy xalqlar madaniyati va adabiyotini o'rganish hamda targ'ib qilishda, jumladan, ularning adabiy-madaniy aloqalarini kengaytirishda muhim ro'l o'ynashiga ishonamiz

**Samir Abbosov,**  
*O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi  
Ozarbayjon Madaniyat Markazi direktori,  
Faxriy madaniyat xodimi*

## KIRISH

Jahon xalqlarining madaniyati tarixan bir-biridan ayri holda emas, balki o'zaro ta'sirlashuv natijasida rivojlanib, yuksak ma'naviy qadriyatlarga erishgan. Shartli ravishda bo'lsa ham dunyo madaniyatining ikki qutbi sifatida tasniflangan Sharq va G'arb madaniyatlarining bir-biriga ta'sir ko'rsatishi oqibati o'laroq bugungi zamondagi bosqichga yetib kelgan. Har bir xalqning madaniyati o'sha millat yashaydigan hudud, mintaqa, muhit va boshqa omillarga bog'liq bo'lsa ham, uning jahon madaniyati taraqqiyotidagi o'rni, ana shu madaniyatga yaqinligi bilan ahamiyatlidir. Turkiy xalqlar madaniyati va adabiyoti shu ma'noda dunyo madaniyati va adabiyotining alohida tarmog'i va bosqichi bo'lishi bilan birga asosiy tarkibiy qismi hamdir.

Turkiylar dunyoning qadimiy va qudratli xalqlaridan biridir. XX asr turk adabiyotining mashhur namoyondasi Aziz Nesin aytganidek: "Har bir millatning buyukligi aholisining ko'pligi va maydonining kattaligiga qarab belgilanmaydi. Har bir xalqning buyukligi uning tarixi va madaniyatining qadimiyligi va boyligi bilan aniqlanadi". Shu nuqtai nazardan turkiylar tarix va madaniyatining qadimiyligi, boyligi bilan dunyo xalqlari orasidagi buyukligi hamda yetakchiligini tamomila isbotlay olishgan. Turkiy xalqlarning bundan taxminan 4 ming yil avval Oltoy-Sayan tog'lari bo'ylab yashagani tarixiy fakt sifatida tasdiqlangan. Lekin turkiylar bundan ham qadimiyroq tarixga ega ekaniga shubha yo'q. Turkiylar 3500 yillik siyosiy tuzilma (ilk turkiy hukmdor Turgitay mil. av. 1500-yilda yashagan), 2700 yillik adabiyot, 2500-3000 yillik yozuv tarixiga ega ekanliklari bu ma'lumotning haqiqatga yaqin ekanini isbotlaydi.

Turkiy yozuv tarixi 2500-3000 yil avvalga borib taqalsa ham, turkiylarning ilk yozma matnlari VIII asrga tegishli bo'lgan O'rxun-Enasoy obidalarini hisoblanadi. Lekin 2500-3000 yillik yozuv tarixi bo'lgan millatning ilk yozma obidasi deyarli 2000 yildan so'ng yaralishi ishonarli ko'rinmaydi. Chunki Xitoy manbalarida miloddan avvalgi davrga tegishli turkiy matnlar (masalan, turkiydan tarjima qilingan she'r bandi) va Xitoy saroyiga Hunlar tomonidan yuborilgan matnlar (masalan, Metening Xitoy davlatiga yuborgan maktublari) mavjudligi, Saxa imperiyasi davrida rasmiy maktub almashinuvining olib borilishi, shuningdek, boshqa tarixiy hujjatlarda Hunlar va Ko'kturklar davrida turkiy yozuvlarning mavjudligi, Xazar va Avar xoqonligida turkiy yozuvdan foydalanilgani, Atilla kotiblarining hujjatlari turkiy yozuv tarixining qadimiyroq ekanligini tasdiqlaydi. Shu sababli qayd etishimiz joizki, O'rxun-Enasoydan avvalroq ham turk yozma matnlari bo'lgan, faqat ular bugungacha yetib kelmagan.

Tarixda "turk" so'zi ilk bor Ko'kturklar tomonidan ishlatilib, mansubiyatni ifodalovchi nom sifatida qabul qilingan. Lekin "turk" so'zining boshqa ma'nolariga ham ega bo'lishi (kuch-quvvat, ko'payish, hurmoq, go'zal va h.) turkiy xalqning o'ziga xos sifat va xususiyatlarini har to-

monlama aniqlash jihatdan xarakterli hisoblanadi.

Hozirgi davrda turk madaniyati va adabiyoti ma'lum bir turkiy xalqlar zamini (masalan, qozoq, qirg'iz, turkman va h.) doirasida emas, balki umumturkiy tushunchalar darajasidan kelib chiqib, uning adabiy-badiiy hamda estetik prinsiplarini anglagan holda o'rganilishi zarur.

Turkiy xalqlarning nafaqat boy ma'naviy olamidan uzoq mudatga chetlashgani, balki tarix davomidagi muayyan siyosiy talab va bosimlar sharoitida mazkur ma'naviy meros ular uchun "ahamiyatsizlashtirilganligi"ni afsus bilan qayd etish joiz. Mazkur davrda asosiy e'tibor tarixni unuttirish, uni xotiradan butkul o'chirishga qaratilgan. Ayniqsa, Sovet hukumati davrida turkiy xalqlar adabiyoti tarixiy-milliy va umumturkiy nuqtai nazaridan emas, balki sovet mafkurasi ostida boshqa nom bilan (SSSR xalqlari adabiyoti va madaniyati sifatida) o'qitilgan. Natijada turkiy adabiyotning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, uning paydo bo'lishi va shakllanishi, ming yillik shonli tarixga molik turkiylarning madaniy, iqtisodiy, siyosiy geografiyasining bugungi kungacha bosib o'tgan yo'li, erishgan muvaffaqiyatlari chetda qolib ketavergan. Shu sababdan ham ko'p yillar mobaynida turkiy xalqlar vujudga kelgan ma'naviy bo'shliqning to'ldirilishiga ichki ehtiyoj seza boshlashgan va uning amalga oshishini ko'zlashgan.

Dunyo yangilanib, Sovet tuzumi qulagan va alohida mustaqil davlatlar tashkil topgandan keyin boshqa xalqlar qatori turkiylar ham o'zining madaniy va siyosiy tarixini bilish (hamda yozish), obyektiv yoritish, targ'ib etish imkoniyati va huquqiga ega bo'lishdi.

Ozarbayjon o'z Milliy mustaqilligiga erishgach, oliy ta'lim muassalarining filologiya fakultetlarida ilk bora fan sifatida kiritilgan "Turkiy xalqlar adabiyoti" ham yuqorida qayd etilgan zarurat natijasi bo'lib, ma'naviy o'zini anglash ehtivojini qondirishga xizmat qilgan. Bu fan nafaqat sobiq sovet makonida yashaydigan alohida turkiy xalqlar, balki boy merosga ega Turkiya turklari adabiyotini ham o'rganish imkonini bergan. Shubhasiz, turkiy xalqlarning boy badiiy adabiyoti namunalari umumturkiy konsepsiya asosida milliy turk adabiyotining o'ziga xosligi, individual ijodiy xususiyatlar yoshlarga fan sifatida o'rgatib borilishi lozim. Shu bilan birga bu fanni o'qitishda turkiy xalqlarning madaniyati boshqa jahon xalqlaridan ajratmagan holda o'zaro aloqa va munosabatlar vositasida yondashilishi kerak. Chunki turklarning qadimiy folklori Misr, Yaqin va O'rta Sharq adabiy merosi bilan doimiy aloqada bo'lganini inkor etib bo'lmaydi. Yozma adabiyotda ham bu kabi aloqa, an'anaviy yaqinlik namoyon bo'lgan va bo'lib kelmoqda.

"Turkiy xalqlar adabiyoti" fanining o'qitilishida yuqorida qayd etilgan masalalarning barchasi e'tiborga olingan va kurs imkoniyatlariga mos ravishda har bir milliy adabiyotning mashhur namunalari, turli davrlarga xos bo'lgan asarlar, yorqin ijodiy ishlari bilan adabiyotda iz qoldirgan ijodkorlar hayoti va ijodiga to'xtalib o'tilgan.



**TURKIY  
XALQLAR  
DOSTONLARI**



Ergenekon yurdun adı  
Börteçine kurdun adı  
ört yüz sene durdun haydi  
lık ey yüz bin mızrağımız



## TURKIY XALQLAR DOSTONLARI

Yer yuzida biror-bir xalq yo'qki, tarixi bo'lmasa. Lekin xalqlar bir-biridan qadimiy tarixi, boy madaniyati bilan farqlanadi. Turkiy xalqlarning bashariyat tamadduni taraqqiyoti, dunyo ijtimoiy-siyosiy modeli hamda adabiy-badiiy mulohazasining shakllanishida tutgan o'rnini hisobga olsak, bu xalqlar o'ziga xos tarix va madaniyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shubhasiz, dostonlar har bir xalq uchun tarix va madaniyat ko'rsatkichi hisoblanadi. Dostondagi hodisalar tom ma'noda tarixiy dalillarga asoslangan bo'lmasa-da, ular dunyoning yaralishi, tarixiy voqeahodisalar, insoniyat hamda jamiyat taraqqiy topishida turli xalqlarning o'ziga xos hayotiy qarashlari to'g'risidagi tasavvurni paydo qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni doston millat tarixi, yashash joyi, urf-odati, an'anasi, psixologiyasi, e'tiqodi, hayotga qarashi to'g'risida ma'lumot beruvchi ilk manbalardan biridir. Zero dostonlarning yaratilishi va ruhiyati tarixga borib taqaladi va uni aks ettiradi. Har bir millatning o'ziga xos tarixi bo'lsa ham yer yuzida shunday millatlar borki, ularga tegishli dostonlar mavjud emas. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, doston yaratilishining ikki muhim sharti bor:

1. Millat afsonalar va boy mifologik ijod namunalariga egaligi bilan ajralib turishi kerak. Buning uchun esa mazkur millat ibtidoiy davrlardan mavjud bo'lmog'i darkor.

2. Millat tarixi jang, kurash, qahramonlikka boy bo'lishi va tarixan muhim ahamiyat kasb etgan bo'lishi shart.

Turkiy dostonlar mifologik-epik qarashlarining natijasi sifatida paydo bo'lishi va shakllanishi jihatidan ikki davrga bo'linadi:

I. Islomdan avvalgi turkiy dostonlar

II. Islomdan keyingi turkiy dostonlar

Birinchi bosqichga tegishli qadimgi turkiy dostonlar asosan miloddan avvalgi I mingyillik o'rtalaridan milodiy I mingyillik o'rtalarigacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Bu dostonlar Saka, Hun, Ko'kturk, Uyg'ur tarixlariga tegishli dostonlardir.

Eski turkiy doston namunalari turli manbalardan olingan. Bularning bir qismi Yevropa, Xitoy, Eron, arab manbalarida, ikkinchi qismi esa turkiy xalqlarning og'zaki va yozma adabiy namunalarida saqlangan.

"Dunyoning yaralishi haqida" dostoni turkiy mifologik-falsafiy qarashlarning in'ikosi sifatida xarakterlidir. Shubhasiz, dunyoning yaralishi va boshqarilishi bilan bog'liq turkiy e'tiqod bunday tasavvurlar markazida turadi.

"Bir zamonlar faqat Tangri Qoraxon va suv bor edi. Qoraxondan boshqa ko'ruvchi, suvdan boshqa ko'rinuvchi yo'q edi. Oq Ona ko'rindi. U Qoraxonga "yarat" deb, qayta suvga sho'ng'idi. Buni eshitgan Qoraxon

bir Erkak yaratdi". Bu parchada dunyoning va insonning yaralishi haqida turk mifologik qarashlari diqqatni jalb etadi. Doston mazmunidan ma'lumki, inson (Erlik-shayton) Tangri bilan birga uchayotganda undan yuqori ko'tarilgani uchun jazolangan va Tangri dunyoni yaratish maqsadida unga suv tubiga tushib, u yerdan tuproq olib kelishni buyuradi. Lekin Erlik bu yerda ham o'z hislatini yashirmay, o'z dunyosini yaratish uchun olib kelgan tuproqdan bir chimdimini bo'g'zida olib qoladi. Tangri tuproqqa "kattalash" deb buyruq berganda dunyo paydo bo'ladi, ayni paytda Erlikning bo'g'zidagi tuproq ham kattalashib, og'ziga sig'may qoladi va birin-ketin yerga to'kila boshlaydi. Natijada Tangri yaratgan bir tekis dunyoning muvozanati buzilib, tog'lar va tepaliklar paydo bo'ladi. Bu dostonda Qoraxonning dunyoga ega bo'lishi, uning nizomini yaratishi, odam naslining vujudga kelishi, dunyoga tarqalishi va boshqa jihatlar eski turkiy mifologik tasavvur va e'tiqodlarga xos ravishda tasvirlangan. Dostonda Tangri Qoraxon timsolida ko'hna turkiylarning yagona Tangri haqidagi tasavvurlari aks etadi. Voqealar esa Nur, Zulmatlar va Yer yuzi deb nomlangan uch olamda sodir bo'ladi. Nur olami osmonda joylashadi. Bu olamning hukmdori Tangri Qoraxondir. Yer yuzi o'rta tabaqa hisoblanadi. Bu yerda Tangri yuborgan malaklar yashaydi. Zulmat olami esa yer ostida bo'ladi. Ushbu makonda yomon ruhlar, jinlar yashaydi va unga Erlik (shayton) hukmronidir. Dostonda Tangri Qoraxon ko'kning eng yuksak tabaqasi bo'lgan o'n yettinchi qavatda o'tirib, dunyoni boshqarishi haqida berilgan fikrlar dunyoga egalik qiluvchi yagona Tangri ilohiy e'tiqod vazifasiga mos tushadi.

"Bo'zqurt", "O'g'uz xoqon", "Shu", "Ergenekon", "Ko'chish" va boshqa dostonlarining matnlari butunligicha bizgacha yetib kelmagan bo'lsa ham, mazkur dostonlar turkiy epos boyligining, estetik g'oya mukammalligining tasdig'i ekanligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida sanab o'tilgan dostonlar ayni paytda turkiy xalqlarning etnogenezi, siyosiy boshqaruvchanlik mahorati va diniy qarashlari, milliy o'ziga xosligini aks ettirishi bilan katta rol o'ynaydi.

"Bo'zqurt" dostonlari Ko'kturklarning yangi nasli vujudga kelishi va shakllanishi to'g'risida 3 variantdagi rivoyatlardan iborat. Boshqalar kabi bu dostonning ham to'liq matni topilmagan. Doston kichik parchalar shaklida Xitoy manbalarida saqlangan. Taxmin qilinishicha, doston dunyoning yaralishi haqidagi turkiy xalqlarning mifologik-badiiy g'oyalaridan keyingi davrlarda shakllangan. Chunki bu yerda dunyoning ilk odamlaridan emas, dushmanning vahshiyliги natijasida butkul qirib tashlangan (oyoqlari kesilgan 10 yoshli boladan boshqa) Ko'kturklarning keyingi nasli haqida so'z boradi. Bu ko'payishda bo'z qurt (bo'z bo'ri) Ona bo'ri vazifasini bajaradi. Dostonning qisqa mazmuni shunday: Lin nomli dushman xalq turkiylarni mag'lub etadi. 10 yoshli o'g'il boladan boshqa



hammani qatl qilishadi. Haligi bola o'z ajali bilan o'lishi uchun oyoqlarini kesib, botqoqlikka tashlashadi. Bir urg'ochi bo'ri bolani go'sht bilan boqadi, undan homilador bo'ladi. Dushman bolaning sog' qolganini bilib, uni o'ldiradi. Bo'ri qochib yashirinadi. Bir g'orda 10 ta o'g'ilni dunyoga keltiradi. Ular katta bo'lgach, boshqa urug'dan bo'lgan qizlarga uylani-shadi. Yangi dunyoga kelgan bolalar g'orga sig'magani uchun Oltoy tog'larining etaklarida qo'nim topishadi.

Ko'rinib turganidek, "Bo'zqurt" dostonlarida Ko'kturklarning ajdodlari, ularning xalq sifatida shakllanishi o'z aksini topib, turkiy xalqlarining doston tafakkuridagi ajdodlarining bo'ridan tarqagani haqidagi tasavvurni tasdiqlagan.

Taxminan I mingyillik o'rtalarida shakllangan "Ergenekon" dostonidagi hodisalar muayyan ma'noda "Bo'zqurt" dostonlari bilan uyg'unlashadi. To'g'rirog'i, bu dostonda turkiy xalqlarning shajarasi, qabila guruhlari shaklida birlashishi, qadimgi hayot tarzlari to'g'risida berilgan ma'lumotlar deyarli "Bo'zqurt" dostonlaridagi fikrlarga yaqin. "Ergenekon" dostonida O'g'uzxon shajarasidan bo'lgan Mo'g'ul xoni Ilxon bilan Tatar xoni Sevinchxon o'rtasidagi kurash natijasida mo'g'ullar o'ldiriladi, asirlar esa dushmanlar shajarasini qabul qiladilar. Ilxonning o'g'li g'iyon va jiyani Nukuz o'z ayollari bilan qochib, tog'lar orasida joylashgan qadam yetmas joyga borishadi. Ular bu yerning nomini Ergenekon (baland tog' yonbag'ri, vodiy, dovon va b. ma'nolarda) deb qo'yishadi va uzoq vaqt shu yerda yashashga majbur bo'lishadi. "Bo'zqurt" dostonlarining qahramonlari g'orga sig'a olishmaganidek, bu dostonda ham 400 yildan so'ng Ergenekon ularga torlik qilganini ko'ramiz. Mo'g'ullar hukmdori Bo'rte Chine xalqni yig'ib, ularga shunday deydi: "Ey, muqaddas Bo'z bo'ri onaning jasur o'g'illari va farzandlari! Ota-bobolarimizga qadim zamonlardan beri Ergenekon yurti muqaddas makon bo'lgan. Oradan ancha yillar o'tdi. Ko'ktangri bizni asradi, ulg'ayib, ko'paydik. Buning uchun muqaddas Ergenekon yurti oldida barchamiz boshimizni egib, hurmat bajo keltiraylik. Faqat biz ulug'bobolarimizning qabrlari joylashgan muqaddas vatanimizning mana shu yuksak tog'lar ortida ekanligini unutmasligimiz lozim. Ortiq otlarimizni ota vatanimiz tomon choptirish vaqti keldi. Tatarlarni vatanimizdan quvib chiqaramiz. Shu tariqa intiqomimizni olib, tuproqlarimizni qaytarib olaylik." Ular Ergenekondan chiqish uchun yo'l topa olishmaydi. Bir temirchi ularga bu yerda temir koni borligini aytadi. Tog'ni (temirni) eritish uchun 70 bosqon tayyorlashadi. Bir tuya o'ta oladigan o'lchamda tog'ni eritib, u yerdan xalos bo'lishadi. Vatanlariga qaytib tatarlardan qasos olishadi.

"Alp Er To'nga" qahramonlik dostonidir. Alp Er To'nga mil.av. VII asrda Sakalar davrida yashab, taxminan mil.av. 624 yoki 625-626-yillarda forslar tomonidan hiyla bilan o'ldirilgan Turk xoqonidir. Alp Er

To'nga Turon hukmdori Beshangning o'g'lidir. Uning Barsxon, Qoraxon, Shida va Alak ismli 4 o'g'li bo'lgani haqda ba'zi ma'lumotlar mavjud. Manbalarda u mardligi bilan dovrug' taratgan, bilimdon, axloqli turkiy hukmdor sifatida taqdim etiladi. Alp so'zi qadimgi turkiylarda "kuchli", "bahodir", "qahramon", "jasur" va b. ma'nolarda keladi. Alp Er To'nga muayyan davrlarda Movarounnahr, Yettisuv, Savran, Shosh (Toshkent), Sayram, Talas, Shu viloyatlarida hukmronlik qilgan, ushbu hududlarda bunyodkorlik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan, yangi shaharlar insho etgan. Abu Rayhon Beruniyning "Jahon iqlimlari tasviri" asariga asoslanib, Xonbaliq (Bolosog'un), Romiton va Afrosiyob (Samarqand) shaharlarini Alp Er To'nga insho ettirganini aytishimiz mumkin. "Alp Er To'nga" dostoni hajm jihatdan katta bo'lsa ham, asarning to'liq matni yetib kelmagan. Bu dostonning qisqacha matni asosan Firdavsiyning "Shohnoma" Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atut-turk" asarlari asosida barpo etilgan. Lekin bular bilan birga Rashididdin Fazlullohning "Jome ut-tavorix" ("Tarixlar to'plami") va Abu Rayhon Beruniyning "Jahon iqlimlari tasviri" asarlarida doston haqida berilgan ma'lumotlar o'rganilib, ushbu ma'lumotlardan kerakli darajada foydalanilgan. Ba'zi manbalarda, ayniqsa, Firdavsiyning "Shohnoma" asarida Alp Er To'nga Afrosiyob nomi bilan ataladi. Bu fakti Yusuf Bolasog'un 1069–1070-yillarda yozgan "Qutadg'u bilig" asarida shunday tilga oladi:

**Endi boqib ko'rsang bu turk beglari,  
Bu turk beglarining yanada yaxshilari.  
Turk beglari orasida oti belgilik,  
To'nga Alp Er edi, quti belgilik.  
Bilimi – buyuk, hunari – talay,  
Bilimli zakovatli, xalq orasida sarasi.  
Tojiklar uni Afrosiyob deb ataydilar,  
Bu Afrosiyob ellarni o'z tasarrufiga olib tutdi.  
Tojiklar uni kitobda yozib qoldirganlar,  
Kitobda bo'lmasa, uni kim bilardi<sup>1</sup>.**

Alp Er To'ngaga Afrosiyob nomi forslar tomonidan berilgan. Qizig'i shunda-ki, qadimgi forslar bergan bu nom "Turk qizil kitobi"da (Boku, 1994, 37-bet) "yomonlik ilohi", Ne'mat Kalimbatovning "Turkiy xalqlarning mushtarak adabiy asarlari" (Istanbul 2010, 22-bet) kitobida esa "juda kuchli", "dovyurak" ma'nolarida izohlangan. "Shohnoma"da Afrosiyob (Alp Er To'nga) qudratli hukmdor, fidokor inson sifatida tasvirlansa ham, ko'proq Eron va forslarning dushmani deb urg'u berilgan. Bu

<sup>1</sup> Balasaqunlu Yusuf "Qutadqu bilik", Boku, 1994, 35–36.

esa “Shohnoma” muallifining turkiylarga boʻlgan bevosita manfiy munosabatidan yuzaga kelganini koʻrsatadi. Sulton Mahmud va Firdavsiy ziddiyatlari ildizidagi sabablardan biri ham shu boʻlgan. Firdavsiyning “Shohnoma”sida Turon oʻlkasining sarkardasi Afrosiyob (Alp Er Toʻnga) bilan bogʻliq oʻnga yaqin boʻlim bor. (“Afrosiyobning yomon tush koʻrishi”, “Afrosiyobning Siyovushga maktub yozishi”, “Afrosiyobning Siyovush bilan ovga chiqishi”, “Afrosiyobning forsarlarga magʻlub boʻlishi” va b.). Taxmin qilinishicha, Firdavsiy “Alp Er Toʻnga” dostonining toʻliq matni bilan tanishib chiqib, “Shohnoma”da bu matnlardan ustalik bilan foydalangan.

“Alp Er Toʻnga” dostonining mavzusi Eron-Turon urushlari bilan bogʻliq. Turon hukmdori Beshangning “forslar bizga koʻp zulm qilishgan, turkning oʻch olish vaqti yetib keldi” degan murojaatidan soʻng uning oʻgʻli Alp Er Toʻnga “oʻch olish” uchun Eronga hujum qiladi. Alp Er Toʻnga Eron hukmdorini asir oladi. Afsonaviy sarkarda Zalning Eron qoʻshiniga yordami turk qoʻshinlariga katta ziyon beradi. Bundan gʻazablangan Alp Er Toʻnga asir olgan Eron hukmdorini oʻldiradi. Zev hokimiyatga kelgandan soʻng Eron bilan Turon orasida sulh tuziladi. Zevdan soʻng Eron taxtiga chiqqan Kaykovus davrida qayta urush boshlanadi. Eron-Turon urushlari Kaykovusning nabirasi Kayxusrav hokimiyati davrigacha davom etadi. Biroq janglarning birida Alp Er Toʻnga magʻlub boʻladi. U gʻorda yashirilib yashay boshlaydi. Uning joyini aniqlab, qoʻlga olmoqchi boʻlishadi. Alp Er Toʻnga oʻzini daryoga tashlaydi. Hiyla orqali uni qutqarish nomi bilan suvdan chiqarib oʻldirishadi. Ammo bir qator tarixiy manbalar Kayxusravning Alp Er Toʻngani aldab, ziyofatga taklif qilganda oʻldirganini tasdiqlaydi. Alp Er Toʻnganing oʻlimi Turonni motamga burkagan, uning dafnida qoʻbiz chaluvchi oʻzonlar marsiyalar aytishgan:

**Alp Er Toʻnga oʻldimi?  
Yomon dunyo qoldimi?  
Falak oʻchin oldimi?  
Endi yurak dogʻlanar.**

**Zamon fursatin kutdi,  
Yashirin qurol uzatdi,  
Beglar begin chalgʻitdi,  
Qochsa qanday qutular?**

**Erlar qurt kabi uvlashar,  
Yoqa yirtib baqirar,  
..... kabi faryod chekar,  
Yigʻidan koʻzi yopilar.**

“Shu” dostoni haqidagi dastlabki ma’lumotlar M. Koshg’ariyning “Devonu lug’atit turk” asaridan olingan. Lug’atda doston arab tilida berilgan. M. Koshg’ariyning “Devonu lug’atit turk” asariga kiritilgan bu doston parchasida Iskandarning ismi Zulqarnayn sifatida ifodalanadi. Shu mil.av. IV asrda yashagan Saka hukmdoridir. Dostonda Shuning Iskandar qo’shinlariga qarshi jang tayyorgarligi, dushmanga qarshi turk qo’shinining kurashi o’z aksini topgan. Dostonning yakunida Iskandar ortga chekingach, Shu Bolosog’unga kelgani va Shu shahrini qurgani tasvirlanadi. Dostonda berilgan bu ma’lumotda turkning o’z tuprog’iga, yurtiga sadoqati, unga egalik qilish istagi va azmi o’z aksini topgan va har bir turkiyda g’urur tuyg’usini uyg’otadi.

“O’g’uz xoqon” Hun turkiylarining dostonidir. Doston XIII asrda Uyg’ur yozuvi va Uyg’ur turkiychasi bilan qalamga olingan.

O’g’uz xoqon dostonning bosh qahramonidir. Taxmin qilinishicha, O’g’uz xoqon Metening timsoli sanaladi. O’g’uz xoqon Oy xoqonning o’g’lidir. Asar O’g’uzning tug’ilishi bilan boshlanadi: “Kunlardan bir kuni Oy xoqonning ko’zlari porladi, tug’ruq sanchiqlari boshlandi va bir o’g’il farzand dunyoga keldi. Bu bolaning yuzi osmondek porladi. Og’zi otashdek qizil, ko’zlari bo’zrang, sochlari va qoshlari qora edi”. O’g’uz tug’ilishi bilanoq onasining ko’krigidan bir bor sut emadi, xolos. So’ng esa xom go’sht yeb, sharob ichadi. Uning g’ayrioddiy zohiriy ko’rkami bor. Oyog’i ho’kiz oyog’i, qomati bo’ri qomati, ko’ksi ayiq vujudida, badani tukka to’la bu inson g’ayritabiiy qahramon sifatida taqdim etiladi. O’g’uz xoqon Tangriga iltijo qilganida, ko’kdan nur tushadi. Nur ichida o’tirgan bir qizga uylanadi va undan Kun, Oy, Yilduz ismli uch farzandi dunyoga keladi.

O’g’uz xoqon bir kuni daraxt kavagida ko’zlari osmondek moviy, sochlari soydek to’lqin, tishlari durdek qizni ko’radi. Unga uylanadi. Bu qizdan Ko’k, Tog’ va Dengiz ismli farzandlari dunyoga keladi. O’g’uz xoqon bir kuni to’y qiladi. To’yga xalqni taklif qiladi. To’y yakunida “men uyg’urlar xoqoniman, yerning to’rt burchagining xoqoni bo’lish lozim” deb, bu haqidagi farmonni dunyoning to’rt tomoniga yuboradi. Dostonda ifodalangan bu fikr turkiyning yagona dunyo uyi modeliga mos keladi. Atrofdagi hukmdorlar O’g’uz xoqonligini tan olishadi. Urum xoqon esa unga bo’ysunmagani uchun O’g’uz xoqon qo’shinini boshlab boradi. Yo’lda bir bo’ri ularga hamrohlik qiladi. Urum xoqon jangda mag’lub bo’ladi. Bundan tashqari O’g’uz xoqon bir qancha joylarga yurish qiladi va g’alaba qozonadi. U Jurjat xoqonni, Masar xoqonni mag’lub etib, ularning yeriga ega bo’ladi. O’g’uz xoqon ulkan xoqonlik yaratadi. Umrining oxirida bir qurultoy chaqirib, yurtini o’g’illari (Kun, Oy, Yilduz, Ko’k, Tog’ va Dengiz) orasida teng bo’lib beradi. Dostonda uning so’nggi so’zlari mana shunday ifodalanadi: “Ey, o’g’illarim, men uzoq yashadim, ko’p janglarni

ko'rdim, ko'p nayza, ko'p o'q otdim. Ayg'ir bilan ko'p yurdim. Dushmanlarni yig'latdim, do'stlarimni kuldirdim. Men Ko'k Tangri oldidagi burchimni bajardim. Yurtimni sizlarga berib ketyapman". Bunday xitob va murojaatlarni aksariyat turkiy qahramonlik dostonlarida uchratishimiz mumkin. Bu sahnalarda ko'kni chodir, quyoshni bayroq deb hisoblovchi turkiyning qahramonligi, adolati, dunyoda garmoniya yaratish istagi o'z aksini topadi.

"Bilgamish" Shumer (turkiy) dostonidir. Shumerlar qadimgi Sharqda boy madaniy merosga ega xalqlardan biri bo'lgan. Shumerlarning etnik kelib chiqishi, Dajla va Frot daryolari o'rtasida yashaguncha bu hududlarga qayerdan kelishgani, tili, madaniyati, maishati, boshqaruv tizimlari va boshqalar to'g'risida ilmiy manbalarda turli fikrlar mavjud. Shumerlar nafaqat qadimgi Sharqda, balki G'arbda ham fan va madaniyat, ekinchilik, bunyodkorlik, siyosiy boshqaruv va boshqa sohalar taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Ingliz olimi L. Bullin aytganidek, "G'arb madaniyati ham Shumerdagi asosiy o'choqdan uchqun olgan. Misr, Bobil, Ossuriya, Finikiya, qadimgi yahudiy va nihoyat, yunon madaniyatlarining manbayini ham Shumerda izlash kerak". Shumer tarixi va madaniyatining taniqli tadqiqotchisi Kramerning "tarix Shumerdan boshlanadi" fikri tasodif emas, tarixga, faktga tayangan holda katta haqiqatlarni tasdiqlaydi. Shumer tili Sharqning eng ahamiyatli madaniyat va siyosiy tili bo'lgan. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra tosh va gil lavhalar ustiga bu tilda 150 dan ortiq matn yozilgan. Shumer tili ayni paytda davlat tili sifatida qadimgi Sharqning yetakli tillari qatorida o'z joyini saqlab qolgan. Qo'lga kiritilgan matnlar, moddiy dalillar va b. tahlili shumerlar etnik jihatdan turklarga yaqinroq ekanliklarini ko'rsatadi. Shumer tili bilan turkiy tillarning so'z ildizlaridagi o'xshashlik, bir qator boshqa til xususiyatlarining bir xilligi, eski shumerlar mifologik matn, doston va qo'shiqlari bilan turkiy folklordagi syujet, fikr va b. tizimlari orasidagi yaqinlikning mavjudligi genetik jihatdan Shumer-turk aloqasini tasdiqlashga imkon yaratadi.

"Bilgamish" ham shumerlarning boshqa ijod namunalari bilan birga turkiylarning taxminan XVII–XVIII asrlargacha vujudga kelgan mifologik va doston turlari o'rtasida muayyan aloqalar mavjud bo'lgan.

"Bilgamish" (ba'zi manbalarda "Gilgamish", "Bilqamis", "Bilgamis") Shumer adabiyotining eng go'zal obidasidir. Asar taxminan bundan 5 ming yil avval Dajla va Frot daryosi havzalarida yashagan shumerlar tomonidan og'zaki shaklda yaratilgan, mil.av. II mingyillikda akkad tiliga tarjima qilinib, 12 gil bitigga ko'chirilgan. Asarning turli variantlari bo'lsa ham, barcha variantlarda Bilgamish (har narsani bilguvchi ma'nosida) mard va doyyurak inson sifatida taqdim etiladi. U mil.av. taxminan 2800–2700-yillarda yashab, Shumer shahri Urukning tamalini qo'ygan

va unga hukmronlik qilgan (kohin va sarkarda sifatida) tarixiy shaxsdir. Dostonning I lavhasida Bilgamish haqida mana shunday ma'lumot beriladi:

**Ey, aql-zakovat, bilimi bilan  
Siru asrorlarni ko'ra bilguvchi!  
Bizga to'fongacha bo'lgan kunlardan xabarni berdi,  
Uzoq safarga chiqdi, lekin xorib qaytdi u.  
Turmush mashaqqatin yozdi toshlarga.  
So'ng devor o'rab, nomini Uruk qo'ydi,  
U barcha insonlardan azamatli, ulug'dir,  
U insondir, yarmi esa tangridir faqat.  
Hech kim unga teng kelolmas, uning ko'rkamiga boq!  
Urukning devorini qurgan ham udir,  
Jo'shqinlikda, quvvatda o'xshaydi qizigan otga.  
Jangda unga bas kelar tengi topilmas aslo  
Uruk o'g'lonlarining kohini yolg'iz udir doimo,  
Azamatli, shuhratli, har narsaga qodir u.  
Qo'ymas onalarning kelinlari qolsin beva-bechora,  
O'g'lonlarning ortidan uzangan yo'l qolsin bo'sh-ovora.**

Bilgamish yovuzlik kuchlariga qarshi kurashgan, zakovati va kuchini birlashtirgan, dunyoda muvozanat yaratishga uringan, qo'rquv nimaligini bilmaydigan qahramon tipidir. Dostondagi mazmun lavhalar shaklida taqdim etiladi. Bu qismlarda Bilgamishning Uruk tamalini qo'yishi, Enkidu bilan do'stligi, Sidr o'rmonlariga sayohati, u yerda Humboboni o'ldirishlari, Humboboni o'ldirgani uchun Enkiduning Tangri g'azabiga duchor bo'lishi va Enkiduning o'limi, yakunda Bilgamishning abadiy hayot izidan uzoq ellarga ketishi, u yerda tiriklik gulini topib, mamlakatiga olib kelayotganda yo'lda ilonning haligi gulni o'g'rilashi va b. bilan bog'liq matnlar diqqatni jalb etadi.

"Bilgamish" dostonida o'ziga joy topgan yerusti va yerosti olam, o'limga qarshi kurash, abadiy hayot izlanishi, tush ta'biri, turkiy g'oyada xalq oqsoqoli va el qahramonining xalqqa munosabati hamda b. masalalarga bu yoki boshqa shaklda eski turkiy obidalar va yozma adabiyot namunalarida ham duch kelish mumkin.

"Alpomish", "Yusuf va Ahmad", "Shayboniyxon", "Orzugul", "Rustamxon" va b. o'zbek, "Satuq Bug'raxon" Qoraxonli, "Chingiznoma"lar silsilasiga kiruvchi "Chingizxon" keng ma'noda O'rta Osiyo turkiylari, "Maa-day Qora" Oltoy, "Urol botir" boshqird, "Qo'blandi botir", "Qanbar botir", "Ayman Sho'lpan" va b. qozoq, "Qirq qiz", "Bo'z yigit", "Esabay botir", "Cho'ra botir" va b. tatar (Qozon va Qrim tatarlari), "Layli va Majnun",

“Farhod va Shirin”, “Orzu-Qambar”, “Ko‘ro‘g‘li” va b. Iroq-turkman, shu jumladan, boshqa turkiy xalqlar yaratgan dostonlar turkiy madaniyatning tamal tashuvchilaridan biri bo‘lish bilan birga (umumturkiy va milliy turk ma‘nosida), alohida ravishda ushbu xalqlarning milliy shaxsiyatlarining tasdig‘i, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va epos tafakkurining ko‘rsatkichi bo‘lishi jihatidan katta ahamiyatga ega. (Kitobda o‘zbek, qozoq, tatar, Iroq-turman adabiyotlari bo‘yicha yozilgan maqolalarda nomlari sanab o‘tilgan dostonlarning bir nechta haqida ma‘lumotlar berilgan.)

“Kitobi Dada Qo‘rqud” estetik mukammalligi, yuksak falsafiy idrok tarzi, shakl alvonligi va b. xususiyatlari bilan farqlanuvchi eposdir, turkiylarning asosiy kitobidir. Dostonda mifik tasavvurning real tasavvurlarga aylanishi, to‘g‘rirog‘i, ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy va b. masalalarning ustunligi turkiy epos tafakkuridagi yangi bosqichga o‘tishning boshlang‘ichi sifatida xarakterlanishi mumkin. Ya‘ni “Dada Qo‘rqud”dagi bu almashinuv aslida turkiyning bir mukammal tafakkurdan (mifologiya davridan) boshqa mukammal tafakkurga (tarixiy davrga) qadamining yangi formasidir. “Dada Qo‘rqud” turkiy xalqlar yaratgan milliy madaniyat obidalari ichida eng boy va eng ulug‘vor san‘at asaridir. Mashhur tadqiqotchi olim M.F. Ko‘pruluzoda aytganidek, “turk adabiyotining barcha asarlari tarozining bir pallasiga, “Dada Qo‘rqud” esa ikkinchi pallasiga qo‘yilsa, baribir “Dada Qo‘rqud” pallasini o‘g‘ir bosadi”. “Kitobi Dada Qo‘rqud” o‘g‘uz ellari hayotidan, o‘g‘uz bahodirlarining shijoatlaridan hikoya qiluvchi qahramonlik dostonidir. Shu tufayli doston muqovasini ko‘chirgan kotib kitobni “Kitobi Dadam Qo‘rqud ala lisoni-toifayi o‘g‘uzun” deb nomlagan.

Dada Qo‘rqudning Drezden va Vatikan kutubxonalarida saqlanayotgan 2 qo‘lyozma nusxasi bor. 1815-yilda nemis sharqshunosi Dits Drezden kutubxonasida saqlanuvchi qo‘lyozmani kashf etib, doston haqida ilk ma‘lumotni bergan. Vatikan nusxasini esa 1952-yilda Ettore Rossi nashr etgan. Dostonning Drezden nusxasi 1 muqaddima, 12 bo‘ydan, Vatika nusxasi esa 1 muqaddima, 6 bo‘ydan iborat. Mushtarak turkiy obida bo‘lish bilan birga “Dada Qo‘rqud” yaralgan jug‘rofiy hudud ko‘proq Ozarbayjon bilan, tili esa ozarbayjon tili bilan bog‘liq.

Dada Qo‘rqudning shaxsiyati, dostonning qaysi davrda paydo bo‘lgani, voqealar konkret qaysi davrda sodir bo‘lgani, doston matnlarining qachon yozuvga ko‘chirilgani bo‘yicha Qo‘rqudshunoslikda turli fikrlar mavjud. Lekin faktlar Dada Qo‘rqudning Muhammad payg‘ambarimiz davriga yaqin Bayot bo‘yida yashagan tarixiy shaxs bo‘lganini isbotlaydi. Doston VI–VII asrlarda shakllanishi, ushbu davr hodisalarini aks ettirishi, taxminan X asrdan avval yozilgani bilan bog‘liq fikrlar ortiq o‘z tasdig‘ini topgan.



“Dada Qo‘rqud” bilan unga qadar va undan keyingi turkiy eposlar o‘rtasida umumiy aloqa mavjud. Bu bir tomondan regional aloqa, boshqa tomondan esa milliy-etnik fikr va yondashuvda tasdig‘ini topa oladi. Turkistondan Kichik Osiyogacha bo‘lgan hududlarda yashagan turkiylar yaratgan “O‘g‘uz xoqon”, “Shu”, “Siyenpi”, “Ergenekon”, “Dada Qo‘rqud”, “Manas”, “Alpomish” va b. doston turlari o‘rtasidagi milliy-etnik g‘oya va estetik fikr ta‘sirini inkor etib bo‘lmaydi. Xususan, “Dada Qo‘rqud” dostonlari bilan boshqa turkiy dostonlar “Alp Er To‘nga”, “O‘g‘uz xoqon”, “Manas”, “Alpomish” va b. turli syujet va motivlardagi o‘xshashlikning mavjudligi faqat doston elementlari kabi emas, milliy-estetik fikrning tarixiy birligi hamda aloqa turi sifatida xarakterlanishi lozim.

“Dada Qo‘rqud” aslida turkiy-sharq ruhining (mo‘tabar hamda oliy insoniy hislarning) ma‘naviy tajassumidir, bevosita buning manbayida Islomga o‘tishning ta‘siri yotadi. “Rasul alayhissalom davriga yaqin” hodisalarning Bayot bo‘yi, Qo‘rqud ota va b. bilan aloqalantirish jarayonida berilishi, aynan Islomga o‘tish bosqichi bilan bog‘lanadi. Bu kabi tipologik (ham tarixiy, ham regional, ham milliy-etnik) o‘xshashlik “Manas” dostonida Manasning otasi Yoqubxonga qarata aytgan so‘zlarida ham o‘z tasdig‘ini topadi

**Oq soqolli bobojonim Yoqubxon,  
Men musulmon yo‘lini ochaman.  
Kofirlarning molini sochaman,  
Barini quvib solaman.**

“Dada Qo‘rqud” va “Manas”da Xizir (Xidir) muqaddasligi, unga ishonch xususiy o‘rin egallaydi. “Dirsaxon o‘g‘li Bug‘ach bo‘yi”da Bug‘achning onasiga aytgan “Ona, yig‘lamagil, manga bu yaradan o‘lim yo‘qdur, qo‘rqmagil! Bo‘z otliq Xizir manga keldi. Uch karra yaramni siladi” so‘zlari bilan “Manas”da bo‘lgan “Manasni Xizir qo‘riqladi, Manas yer chetida belandi” yoki yana “Manas”da aytilgan:

**“So‘l boshingni Xizir qo‘llasin, Bakay,**

**Xizir yoningda bo‘lsin, Bakay.”**

– so‘zlari o‘rtasidagi o‘xshashlikni milliy-etnik fikrning genetik funktsional tipi deb hisoblash mumkin.

Aslida turk dostonlarida genetik xotira yaratgan tipologik o‘xshashlik ko‘proq milliy tafakkur hodisasi sifatida ahamiyat kasb etadi; etnik-milliy g‘oyaning ifoda farqini tasdiqlaydi. Masalan, Dada Qo‘rqud nasihatlari bilan Manasning otasi Yoqubbekning nasihatlari muayyan jihatdan farq-

lansa ham el nuroniyi, dono inson nasihati sifatida bir-biriga o'xshaydi. Uni ham qayd etish joizki, har ikki nasihatda turkiy ruhi o'zini ko'rsatadi:

**Alloh taolo demaguncha ishlar unmas.**

**Qodir Tangri bermaguncha er boyimas.**

**Azaldan yozilmasa, qul boshiga qazo kelmas.**

**Ajal va'da ermaguncha hech kim o'lmas.**

(“Kitobi Dada Qo'rqud”)

**Shu Manas bolamga,**

**Qozon osib, otash yoqib**

**Yonida yo'ldosh bo'l, sen Bakay.**

**Ko'rmaganin ko'rsatib, Bakay**

**Orqasidan birga yur, Bakay.**

**Otam Atoning, Momo Havvoning**

**Tug'ilgan joyin birldir unga...**

(“Manas”)

Turkiy dostonlarda diqqatni jalb etuvchi yana bir masalalardan biri esa otlarga berilgan ism sanaladi. Ma'lumki, turkiy bahodirning eng yaqin hamrohi uning otidir. U otning yordamisiz to'liq shaklda taqdim etila olmaydi. Muayyan maqomlarda ot uning g'alabasi va xalosining asosiy sababchisidir. Bu ulug'vorlikning eng yorqin misolini biz “Ko'ro'g'li” dostonida ko'rishimiz mumkin. Tom ma'noda “Dada Qo'rqud”da Beyrakning Bo'z ayg'iri, “Manas”da esa Manasning Oqbo'zi turkiy dostonlarda kuza-tilgan o'xshash muqaddaslik tizimining mukammalligiga xizmat qiladi.

“Dada Qo'rqud”dagi Tepako'z bilan “Manas”dagi Yolg'izko'z obrazlari o'rtasida ham katta o'xshashlik mavjud. Bu o'xshashlik faqat zo-hiriy ko'rinish alomati emas, balki yovuzlik, yomonlik timsolidir. “Dada Qo'rqud”da Basat kabi, “Manas”da esa Almanbet va b. kabi bahodirlar bu kabi bir ko'zli maxluqlarni (Tepako'z va Yolg'izko'zni) ko'zlarini o'yib o'ldirishadi. “Manas” betakror turkiy dostonidir. Uch qismdan (trilogi-yadan) iborat bu qirg'iz dostoni Ch. Valixonov va Rodlov tomonidan aniqlanib, ilk bor 1885-yilda rus va nemis tillarida nashr etilgan. 12452 misradan iborat bo'lgan ushbu nashr doston asosini tashkil qiladi. Biroq manaschilar tomonidan vaqti bilan asarga qilingan qo'shimchalar bu asarning hajmini ancha orttirgan, natijada esa “Manas”ning 65 vari-anti yuzaga kelgan, doston misralarining umumiy soni esa bir necha yuz mingga yetgan. “Manas” hajm jihatidan jahon adabiyotining durdonalari sanaluvchi “Iliada” va “Odyssey”dan 20 barobar, “Mahobhorat”dan uch barobar katta. “Manas”, shuningdek, qirg'iz ruhining (tarixining) badiiy tasviridir. Dunyoga mashhur qirg'iz yozuvchi Ch.Aytmatov “Manas”ni

“qirg‘iz xalqining sinonimi” deb bejiz aytmagan. “Manas”ning doston sifatida shakllanishi IX-X asrlarga borib taqaladi. “Manas”ni kuylovchi shaxs manaschi deb nomlanadi. Manaschilar nodir iste‘dod sohibi hisoblanishadi. Deyarli, qirg‘iz xalqi ichida “Manas”dan ozgina bo‘lsa ham yoddan ayta olmaydigan odam yo‘q. Bu qirg‘iz xalqining o‘z tarix va madaniyatiga bo‘lgan muhabbatining namunasidir. Ko‘plab manaschilar qatorida Keldiboy Baribo‘z o‘g‘li, Toqoloq Moldo, Sag‘imboy O‘rozboyev, Sayaqboy Karalayev, Ibrohim Abdurahmonov, Baxish Sazanov, Jusup Mamay va b.ning alohida o‘rni bor. Lekin S.Karalayev va S.O‘rozboyevning “Manas” variantlari ko‘proq mumtoz versiya hisoblanadi.

“Manas” qahramonlik dostonidir. Asar uch bo‘limdan iborat. Birinchi bo‘lim Manasning, ikkinchi bo‘lim uning o‘g‘li Semeteyning, uchinchi bo‘lim esa nabirasi Seytekning kurashlarini hikoya qiladi. Manas dostonining bosh qahramonidir. Tadqiqotchilar uning tarixiy shaxs bo‘lganini tasdiqlashadi. Uch qismdan iborat dostonida epizoddagi yuzlab obraz bo‘lishiga qaramay, deyarli barcha hodisa va obrazlar bevosita yoki bilvosita shaklda Manasga borib taqaladi. Manas obrazi timsolida xalq o‘z ozodlik istajlarini, dushman ustidan g‘alaba qozonish, birlashish orzularini va b. aks ettirib, bu ideal obraz atrofida birlashtirgan. Dostonida Manas tavalludidan o‘limigacha bo‘lgan butun hayoti o‘z aksini topa olgan. Lekin uning o‘limidan so‘ng ham hodisalar o‘g‘li Semetey va nabirasi Seytek kurashlari fonida davom etgan.

Dostonning bosh qahramoni Manas g‘ayrioddiy qahramondir. Uning g‘ayrioddiyligi tug‘ilgan kunidan boshlab, umrining oxirigacha davom etadi. Manas hali tug‘ilmay turib, otasi Yoqub (Yakup) tush ko‘radi va xotini Chiyirdi xotinning beliga yoy bog‘lab, o‘g‘li tug‘iladigan kunni kutadi. Bola dunyoga kelgach, ismini Manas qo‘yishadi, ammo bu ismni sir saqlashadi. Chunki Chin (Xitoy) hukmdori Esen xonning koinlari Manas ismli bola dunyoga kelishini va dushmanlarining jazosini berishini avvaldan bashorat qilgan edilar. Shu tufayli ham dushmanlar hamma joyda Manas ismli bolani izlar, uni topib o‘ldirmoqchi edilar. Manas beshikdaligida otasiga dushmanlardan qasos olishini aytadi. Ulg‘aygach u xon bo‘ladi, o‘q o‘tmas zirhini kiyib, hech bir ot o‘zib ketolmaydigan Oqbo‘zni minib, dushmanlar ustiga bostirib boradi. Qalmiq xoni Aloke xonning qirg‘izlarga ko‘rsatgan zulmga nuqta qo‘yish uchun kurashni davom ettiradi. Manas bu jangda yolg‘iz bo‘lmaydi. Qalmiq xoni Qoraxonning o‘g‘li Almambet va Ko‘ko‘toy Manasning eng yaqin hamrohlariidan biridir. Almambet otasidan yuz o‘girib, musulmon bo‘ladi va Manas tomonga o‘tadi. Manas o‘z bahodirlari bilan birga dushmanlardan qasos oladi, Ala-Tooga, Xitoyga va boshqa joylarga safar qiladi, Aloke xonni, Shooruk xonni mag‘lub qiladi. Manasning vafotidan so‘ng Semetey Talasga keladi va hokimiyatni qo‘lga oladi. U ham otasidek qirg‘iz xalqining

himoyachisi sifatida o'zini namoyish etadi. Semetey Ilyosxon tomonidan o'ldirilgach, hokimiyatga egalik qiladi. Shundan so'ng sodir bo'ladigan voqealar dostonning uchinchi qismiga tegishli.

Dostonda Manasning turmush o'rtog'i Kanikey xotin ideal obraz darajasida edi. Qizig'i shundaki, bu obraz Manasning vafotidan so'ng ham dostonning qolgan 2 qismida asosiy rolda namoyon bo'ladi. Masalan, u Manasning vafotidan so'ng davlat taqdirini o'ylaydi, o'g'li Semeteyni himoya qilish uchun rejalar tuzaldi, uni Temurxonning yoniga olib borib, xavfsizligini ta'minlaydi. Nabirasi Seytek davrida ham dushmanlarga nafratini yashirmaydi va shu tufayli dushmanlar tomonidan asir olinadi. Yakunda esa Seytek uni asirlikdan ozod qiladi. "Manas" betakror qahramonlik dostoni bo'lish bilan birga Islom dini g'oyalari, turkiylar axloqi, fikri, odat-an'analari, turmush tarzi va b. targ'iboti jihatdan ham ahamiyatga ega.

Umuman olganda, shakllangan zamon va makondan qat'i nazar turkiy dostonlar milliy-estetik tafakkur olamida rivojlanib, funksional aloqani ta'minlagan va epos madaniyatimizning yuksakligini isbotlagan.

## MAHMUD KOSHG'ARIY



**Mahmud  
Koshg'ariy  
(1008–1105)**

Mahmud Koshg'ariy (Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad al Koshg'ariy) turkiy tilning ilk lug'atini ("Devonu lug'atit turk"), ilk til ilmi kitobini ("Kitobu Javohirun-nahvi fi lug'otit turk") yozish bilan turkiy til, adabiyot, madaniyat, tarix, geografiya, jahon xalqlari orasidagi mavqeyi va boshqa sohalarda mufassal fikr shakllantirgan va bu yo'nalishda muhim darajada roli bo'lgan XI asrning taniqli shaxsidir. U 1008-yilda aslzoda oilasida dunyoga kelgan. Mahmud Koshg'ariyning shajarasi 932-yilda Islom dilini qabul qilgan ilk turkiy hukmdor Abdulkarim Satur Bug'raxonga bog'liq. Abdulkarim Satur Bug'raxon buyuk xoqon sifatida turkiy ijtimoiy-siyosiy olamda bo'lishi bilan birga diniy hadislarida ham o'z o'rniga egaligi bejiz emas. Rivoyat qilishlaricha, Muhammad payg'ambarimiz Me'roj safari vaqtida payg'ambarlar bilan bir qatorda o'tirgan shaxsning kimligini Jabroil alayhissalomdan so'raydilar. Jabroil alayhissalom bu shaxs 333 yildan so'ng Turkistonni Islom diniga olib kiruvchi Satur Bug'raxonning ruhidir deb aytadilar. Aslida Satur Bug'raxon tarixda faqat islom dinini qabul qilgan ilk turkiy hukmdor sifatida emas, ayni paytda mintaqadamukammal turk-islom adabiy-falsafiy, ma'naviy-ruhiy g'oya tizimini shakllantirgan shaxs sifatida ham taniladi. Mahmud Koshg'ariyning otasi Husayn ibn Muhammad Barsxon amiri bo'lgan. Husayn ibn Muhammad Abdulkarim Satur Bug'raxonning 992-yilda Buxoroni zabt etgan nabirasi Abul Hasan Horun Qilich Bug'raxonning nabirasidir. Mahmud Koshg'ariyning onasi Qoraxoniylar davlatining taniqli olimi Xo'ja Sayfiddin Buzurgvorning qizi Robiya xotun bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy turkiy ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim tarixiy o'ringa ega bo'lgan ulug'ota-bobolari bilan faxrlangan va mana shunday shajaraga mansub ekanligidan g'ururlangan. Uning yuksak tahsil olishi, go'zal nutq qobiliyatiga egaligi, iste'dodi, farosati bilan ajralib turishi va b.haqida aniq ma'lumotlar mavjud. Bu avvalo Mahmud Koshg'ariy haqida "Devonu lug'atit turk"dagi bir qator ma'lumotlarini qo'lga kiritish bilan bog'liq. Lekin uning tug'ilgan joyi haqida asarda aniq ma'lumotni uchratishning iloji yo'q. Bu esa tabiiy holda muayyan bahs-munozara predmetiga aylangan, Mahmud Koshg'ariy tug'ilgan joyi

bo'yicha turli versiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Ba'zilari uning otasi Husaynning Barsxonlik ekanligini nazarga olib, Mahmud Koshg'ariyning ham Barsxonda tug'ilganini ta'kidlashadi. Boshqa mulohazalarga qaraganda esa u Qoraxoniylarning madaniyat markazi hisoblangan Koshg'ardan biroz uzoqda joylashgan O'pal qishlog'ida tug'ilgan. Bu fakti tasdiqlovchilar uning O'palda Hamidiya va Sajiya madrasalarida tahsil olishiga alohida to'xtalib, aynan madrasada unga dars bergan Shayx Husayn ibn Xalaf al-Koshg'ariy nomining "Devonu lug'atit turk"da hurmat bilan tilga olinishini tasodif deb hisoblashmaydi. Uning bevosita Koshg'ar bilan bog'liqligi esa turli tarzlarda izohlanadi. Qayd etish joizki, u Koshg'arni madaniy madaniy markaz va tabiiy go'zalliklari bilan farq qiluvchi diyori deb ta'riflansa ham, bir qancha tadqiqotchilar aytganidek (masalan, Shukru Haluk Akalin), "o'zini Koshg'ariy, al-Koshg'ariy degan taxalluslar bilan qalamga olmagan". uning Koshg'ariy sifatida tilga olinishi bevosita Koshg'ar madaniyat markazida shakllanganidan kelib chiqqan. To'g'ri, "Devonu lug'atit turk" asarining boshida "Talifi Mahmud bin al-Husayn bin Muhammad al-Koshg'ariy" ifodasiga duch kelinsa ham, bu ifodaning asar asl nusxasida borligiga shubha bor. Lekin ushbu ifoda asarning yagona nusxasi muqovasini ko'chirgan Muhammad ibn Abubakr ibn Abulfath va asarga muayyan izohlar bergan Xatibzoda tomonidan ilova etilgani ma'lum emas.

Mahmud Koshg'ariy Qoraxoniylar davlatining madaniyat markazi Koshg'arga bog'langan bo'lsa ham bu shaharni tark etishining mag'zida saroy ziddiyatlarining borligini inkor etib bo'lmaydi. Mahmud Koshg'ariyning 1032–1057-yillarda hokimiyatda bo'lgan bobosi Muhammad Bug'raxon 1057-yilda hokimiyatni o'g'li Husayn Chag'ri Teginga (Shamsidavla Arslon Ilig) topshiradi. Muhammad Bug'raxonning ikkinchi xotini esa taxtning o'g'li Ibrohimga berilmagani uchun bundan norozi bo'ladi va taxtga chiqish marosimi vaqti taomlarga zahar solib, eri bilan birga bir qancha odamlarni ham zaharlab o'ldiradi. Zaharlanish natijasida Mahmud Koshg'ariyning otasi ham o'ladi. Hokimiyatga Muhammad Bug'raning ikkinchi xotinidan bo'lgan Ibrohim keladi. Qayd etish joizki, Ibrohim hokimiyatda uzoq vaqt qolmaydi, u onasining gapiga quloq solib, Barsxon amiri Yinal Teginga qarshi urush e'lon qiladi, buning oqibatida esa mag'lub bo'lib, jangda halok bo'ladi. Mahmud Koshg'ariyning ko'z o'ngida sodir bo'lgan shu kabi saroy nizolari va oila fojialari uning hayotida og'ir izlar qoldirib, 49 yoshli insonning tug'ilib-o'sgan diyoridan uzoqqa ketishiga sababchi bo'ladi. Shubhasiz, saroy yoki boshqa joylarda zaharlangan taomlarni aniqlash uchun Xitoydan olib kelingan daraxt ildizlaridan tayyorlangan malham haqidagi ma'lumotning "Devonu lug'atit turk"da o'z aksini topishiga ham mana shu hodisalar turki bo'lgan.

1057-yilda vatanini tashlab ketgan Mahmud Koshg'ariy Pomir tog'larini oshib, atrofda joylashgan turkiy tuproqlarni har qarichini kezadi, fursatdan foydalanib, turkiylarning maishati, turmush tarzi, tili, madaniyati, adabiyoti va b.haqida aniq ma'lumotlar yig'ishga muvaffaq bo'ladi. Bular ham "Devon" uchun vojib manba rolini o'ynaydi. Bu yillarda Eron va Iroqqa safari borasida ham ma'lumotlar aytiladi. Boshqa tomondan, uning arab, fors, yunon tillarini o'rganishi, turk milliy-ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi namunalar ustida ishlashi, madrasalarda dars berishi Mahmud Koshg'ariyning qiyin, mashaqqatli, uqubatli umr yo'lini bosib o'tganidan dalolat beradi. Mahmud Koshg'ariyning Saljuqiy sultoni Malikshohning rafiqasi Jaloliya Terken xotun bilan bir urug'dan ekanligi uning Saljuqiy saroyidagi mavqeyiga katta ta'sir o'tkazgan. Hatto Mahmud Koshg'ariyning Bag'dodga Jaloliya Terken xotun bilan birga borgani bildiriladi. Qayd qilish kerakki, Sulton Malikshoh qizi Mohmalakni Bag'dod xalifasi Muktadi Biamrullohga (1059-1094) bergani tufayli Terken xotun Bag'dodga ora-chora bo'lib turgan va unga hamrohlik qilganlar orasida Mahmud Koshg'ariy ham bo'lgan. Ko'rinib turganidek, Mahmud Koshg'ariy xalifa bilan munosabatlarining yaxshilanishida, "Devonu lug'atit turk"ning unga armug'on etilishida va asarda xalifaning sharafi yuksak tutilishida bu omilning katta ta'siri bo'lgan: "Menga mangu obro', bitmas-tuganmas manba nasib etishi tilagi bilan bu kitobni yozdim va Tangri marhamati bilan nomini "Devonu lug'atit turk" qo'ydim. Muqaddas payg'ambar izida bo'lgan, Hoshimiy urug'idan va Abboso'g'illaridan kelgan Tangri xalifasi Abulqosim Abdulloh ibn Muhammadul Muktadi Biamrullohga armug'on etdim." Mahmud Koshg'ariyning Bag'doddan tug'ilib-o'sgan yurtiga qachon qaytgani noma'lum bo'lib, turli bahs-munozaralarni yuzaga keltirgan. Ammo u 1080-yilda Bag'doddan Koshg'arga kelgani, Koshg'arni qisqa muddatda tark etib, o'z qishlog'i bo'lgan O'palga ketgani haqida ham taxminlar mavjud. Mahmud Koshg'ariy bu yerda Mahmudiya madrasasini ochib, umrining oxirigacha muallimlik qilgan. Tug'ilgan qishlog'iga kelishidan maqsad bu yerda ham ishlash, ham o'layotganda shu tuproqda dafn etilishi bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy 1105-yilda vafot etgan. Uning qabri O'pal qishlog'ining shimoli-g'arbiy qismidan to'rt kilometr uzoqda joylashgan. "Mahmud Koshg'ariy qabri" so'zlari yozilgan qabrtoshi ustida tavallud sanasi 1008-yil, vafoti esa 1105-yil sifatida ko'rsatilsa ham, uning o'lim tarixi bo'yicha bir necha variantlar mavjud. Albatta, 1105-yil asosan Mahmud Koshg'ariyning o'lim yili deb qabul qilingan bo'lsa ham manbalarda boshqa variantlarni ham (1084, 1085, 1090) uchratish mumkin.



## “DEVONU LUG‘ATIT TURK”

Turkiy xalqlarning til xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi, turkiylarning tili, adabiyoti, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy tarixi, jug‘rofiyasi, maishati, fikr tizimi va b. to‘g‘risida tasavvur shakllantirgan, turkiyning ilk lug‘ati hisoblanuvchi “Devonu lug‘atit turk” kitobi turkning o‘zini tanish va Sharqda o‘zini tanitish yo‘lini yoritgan eng buyuk obidalaridan biridir. Arabcha yozilgan ushbu asar yigirma yil to‘plash, ikki yil esa yozish mehnatining mahsulidir. Bu borada Mahmud Koshg‘ariy mana shunday deydi: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim”<sup>2</sup>.

Mahmud Koshg‘ariy bu asarni 1072-yilda yoza boshlagan va 1074-yilda tamomlagan. Boshqacha qilib aytganda, “Turk lahjalari lug‘ati” ma‘nosini beruvchi, tariximizga, madaniyatimizga, ma‘naviyatimizga ming yillik hamroh (shuningdek, yo‘ldosh) bo‘lgan bu asar ulkan ma‘naviy xazina-dir. Asar taxminan ming yil (943 yil) avval yozib tugatilgan bo‘lsa ham, fan olamida juda kech ma‘lum bo‘lgan. “Devonu lug‘atit turk”dan ilk bor foydalanganlar qatorida Badriddin Mahmud, Shahobiddin Ahmad va Kotib Chalabiyning nomlari sanab o‘tiladi. Asarni qo‘lga kiritish bo‘yicha qayd etilishicha, o‘sha davrdagi Moliya vaziri Nozif Poshsho kutubxona-sida saqlangan bu qimmatbaho kitobni asrab-avaylash uchun o‘ziga yaqin bo‘lgan qarindosh ayolga beradi va unga faqat muhtoj bo‘lib qolgan taqdiridagina bu kitobni oltin pul bilan 30 liraga sotishini tavsiya qiladi. Bir muddat o‘tgach, ayol ushbu kitobni Burxonbeyning kitob do‘konida sotuvga chiqaradi. Maorif vaziri Amrulloh afandi bu kitobni olmoqchi bo‘ladi va baholash uchun uni Ilmiya Anjumaniga beradi. Anjumanlik kitobni 10 liraga baholaydi va qimmat bo‘lgani uchun uni olishdan bosh tortadi. Shoir, yozuvchi va ayni paytda kitobga oshufta Ali Amiriy (1857–1923) tasodifan Burxonbeyning do‘koniga keladi va bu kitobni oladi. Kitob bilan yaqindan tanishgach, “turk tilida bugungacha bunday kitob yozilmagan, bu kitobga haqiqiy baho berilishi kerak bo‘lsa, dunyo xazinalari kifoya qilmaydi” deb hayratini yashirolmaydi.


1914-yil boshlarida Ali Amiriy tomonidan qo‘lga kiritilgan bu nusxa katta shov-shuvga sabab bo‘ladi. Ziyo Go‘kalp, Kilismi Rifatbey, Sadra‘zam Tal‘at Poshsho, Adliya vaziri Ibrohimbey va boshqalar bu asarga katta qiziqish ko‘rsatishadi. Qayd etish lozimki, Ali Amiriy kitob do‘konidan olganida uning varaqlari tarqoq vaziyatda bo‘lgan.

<sup>2</sup>Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘atit turk”, I jild, Boku, 2006, 55-bet.

Varaqlarning betlari qo'yilmagani uchun uning ketma-ketlikda yig'ilishi qiyinchilik tug'dirgan. Kitob varaqlarining ketma-ketlikda tartibga solinishida Kilisli Rifatbeyning katta xizmati bo'lgan. Kitobni Ziyo Go'kalp nashr ettirishni xohlaydi. Lekin Ali Amiriy kitobni Ziyo Go'kalpga berishdan bosh tortadi. Sadra'zam Tal'at Poshshoning ishga aralashgani tufayli Ali Amiriy faqat Kilisli Rifatning nashr ishlariga rahbarlik qilishi sharti bilan uning chopiga rozilik beradi. Sadra'zam Tal'atbey Ali Amiriyga 300 lira pul mukofoti bersa ham u bu pullarni qaytarib beradi. Kilisli Rifatbey 1915–1917-yillarda “Devonu lug'atit turk”ning 3 jildini chop ettiradi. Shuningdek, kitob nashr qilingach, uning qo'lyozma variantini Ali Amiriy Milliy kutubxonasiga taqdim etadi.

“Devonu lug'atit turk” kitobi hozirgi kunga kelib turk, qozoq, o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, ingliz, fors, xitoy tillariga tarjima qilinib, shu tillarda chop etilgan. Ozarbayjon tilida esa bu asar 2006-yilda Bokuda 4 jildda nashr etilgan.

O'z ijodiga ega bo'lish va bularni dunyo jamiyatiga taqdim etish tashabbusi bu asarning asosiy maqsadidir. Bulardan tashqari asarning yana bir maqsadi arablarga turkiy tilni o'rgatish va bu tilning arab tili-chalik boy til ekanligini isbotlashdir.



*Mahmud Koshg'ariyning “Devon”ga kiritgan dunyo xaritasining lotin alifbosi bilan berilgan varianti*

XI asrda turkiy ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot yangi muvaffaqiyatli bosqichga qadam qo'yganini e'tiborga olishimiz kerak. Geografik doiraning kengayishi, siyosiy boshqaruv va diplomatik tajribaning kuchayishi, harbiy kuchning ortishi natijasida turkiy qo'shinning g'alaba qozonishi (Malazgird g'alabasi va b.), yangi hududlarning zabt etilishi va hozirgi kabi vaziyatlar ko'plab sohalarda bo'lgani kabi madaniy sferada ham turk ishqi bozligining yuksalishiga, ayni paytda uning namoyishiga ham turki bo'lar, ham katta ta'sir o'tkazardi. Yusuf Bolasog'uniyning "Qutadg'u bilig" (1069–1070) asarining yozilishida bo'lganidek, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" (1072–1074) asarining yuzaga kelishida ham yuqorida sanab o'tilganlar keltirib chiqargan ruh, g'urur va tug'yonlarning ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Bu ma'noda "Devonu lug'atit turk"da turkiy shajaralar, turkiy qabilalar, turkiy xaritalar, turkiy til, adabiyot, madaniyat va h. to'g'risidagi ma'lumotlarda ochiq yoki pardali rag'bat maqomlarining mavjudligi ham maqsadga muvofiqdir. Quvonarlisi shundaki, Mahmud Koshg'ariyning turkiy rag'bat (turkiychilik) g'oyasi butun turk dunyosi bo'ylab vaqti-vaqti bilan turli san'atkorlarda turfa shaklda o'zini namoyon qilgan. Dohiy Ozarbayjon shoiri M.Shahriyorning "turkiy tili yolg'iz sevgi, istak tili bo'lmas..." misrasi ifodalagan ma'noni (shuningdek, maqsadni) turkiy til muxlisligi yo'nalishida XI asrda boshlagan yo'lning davomi, XX asr Eron muhiti uchun yangi bosqichning cho'qqisi deb hisoblash mumkin. Bu mantiqqa asoslangan holda asarning boshlarida Tangri oldida turkning aziz ekanligi g'oyasining muallif tomonidan xoh ifodalanishi, xoh bo'rttilishi maqsadga muvofiq deyishimiz mumkin. "Endi hamdu salotdan so'ng bu kamina, Muhammad o'g'li Husaynning farzandi Mahmud so'zlarini tinglangiz: Xudo davlat quyoshini turklar burjida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning hoqonlari qilib ko'tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo'lga topshirdi, xalqqa bosh qildi, bularni to'g'ri yo'lga yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g'olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning (turklarning) o'qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo'lish uchun eng asosiy yo'l – ularning tillarida so'zlashishdir, chunki ular bu tilda so'zlashuvchilarga yaxshi quloq soladirlar, o'zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o'z panohida yurgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar."<sup>3</sup> Mahmud Koshg'ariy agar turk Tangriining aziz va go'zal bandasi bo'lsa, demak, uning ijodi ham, amallari ham go'zal bo'lishi darkor deb hisoblaydi. Shu qatorda

<sup>3</sup>Mahmud Koshg'ariy. "Devonu lug'atit turk", I jild, Boku, 2006, 54-bet. .

Mahmud Koshg'ariy turkning yaratganlari orasida uning tilining ustunlik va go'zalliklaridan so'z ochar ekan, Hazrat Muhammadning turk tiliga bergan ahamiyati o'zida aks etuvchi fikrlarini Buxoro va Nishopur irshodlariga tayangan holda ifodalashi tasodif emas: "Turklarning tilini o'rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi". Qayd etilganidek, Mahmud Koshg'ariy turk diyorlarini 20 yil kezgani uchun bu muddatda ushbu hududlarda yashovchilarning – uyg'ur, o'g'uz, qirg'iz, yog'ma, chigil, qipchoq, turkman va b. turkiy qabilalarning til, adabiyot va madaniyat namunalarini yig'ib o'rgangach, kitob yozgan.

"Devonu lug'atit turk"da til masalalariga sakkiz turli bo'limlarda izoh berilib, qiyoslangan. Hamza, Salim, Muzaaf, Kitobul-misol, Kitobi zavotis-salosa, Kitobu zavotil-arba'a, Kitobul-gunna, Kitobul-jam baynas-sakinayn nomli bo'limlarda asosan turkiy tilning leksik-grammatik xususiyatlariga, o'ziga xos nozikliklariga, o'zak, qo'shimcha, harf tizimi to'g'risidagi ma'lumotlarga ko'proq joy berilgan. Qayd etganimizdek, Mahmud Koshg'ariy o'z asarida turk tarixiga real tarixiy, ayni paytda afsonaviy nazar tashlab, turk nomining Alloh tomonidan berilgani, Turkning Nuh payg'ambarning o'g'li ekanligi, Muhammad payg'ambarning turkka mehr va umid bilan yondashishi to'g'risida alohida so'z ochgan. Bularning barini o'z asariga kiritayotganda muallif bir tomondan o'z millatining Tangriga yaqinligi, bog'liqligidan kelib chiquvchi muqaddasligini ta'kidlagan, boshqa tomondan esa uni tarixiy qahramon tipida taqdim etgan.

"Devonu lug'atit turk" asarida adabiyot namunalariga joy ajratilishi turk badiiy tafakkurining, so'z-ibora imkonlarining yuqori darajasidan dalolat beradi. Chunki Mahmud Koshg'ariyning o'z so'zlari bilan aytganki, "Devonu lug'atit turk" hikmat, saj, maqollar, she'r, razaj, nasr kabi adabiy parchalar bilan "bezalgan" kitobdir. Bu namunalarni ayni paytda turk badiiy didining namoyishi va taqdimoti deb hisoblash mumkin. Kitobga kiritilgan maqolalar, eski she'r, doston namunalarini muallifning qaysi manbalardan (og'zaki shaklda to'plash yoki yozma manbalardan olish) olgani tadqiqotchilar orasida ziddiyatlarni keltirib chiqarsa ham, deyarli ilk adabiyot antologiyasi tuzish sohasida Mahmud Koshg'ariyning turk madaniyati oldidagi katta xizmatidir. Faqat "turk ellarini birma-bir kezib chiqqan M.Koshg'ariy turk shoirlariga duch kelib, ular bilan ko'rishmagan, ijodlarini bu yoki boshqa darajada o'rganib chiqmagan bo'lishi mumkin emas."<sup>4</sup> "Devonu lug'atit turk"da uch yuzga yaqin maqollar joy olgan. Tadqiqotchilar ushbu namunalarni turkiylarning eng qadimiy maqollari deb hisoblashadi. Bu namunalarda turkiylarning dunyoqarashi, insonga, hodisalarga va hokazolarga munosabati diqqatni jalb etadi va natijada

---

<sup>4</sup>Nizomiy Ja'farov. Turkiy xalqlar adabiyoti, I jild, Boku, 2006, 38-bet.

turkiy ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy qarash modelining nimadan iborat bo'lishi to'g'risida keng tasavvur uyg'otadi. Masalan, "Bir qarg'a bilan qish kelmas", "Yig'a-yig'a mo'l bo'lur, toma-toma ko'l bo'lur", "Qonni qon bilan yuvmaslar", "Suv bermaganga sut ber", "Tog' tog'ga qovushmas, inson insonga qovushar" va h. Ko'rinib turganidek, bu kabi maqollar ming yil avval kitobga kiritilgan bo'lsa ham xalq ijodi bo'lgan hikmat namunalaridan zamonaviy davrda ham foydalaniladi. Ming yildan so'ng ham tarovatini yo'qotmagan hikmatlar turk tafakkurining oliy ekanligidan dalolat beradi.

"Devonu lug'atit turk"da joy olgan she'rlarning (to'rtliklar) mavzu doirasi turfa xildir. Allohning ta'rifi, tabiat tasviri, qahramonlik va muhabbatning tarannumi va boshqa mavzularni qamrab olgan bu she'r satrlari tilimizdagi poetik imkonlarning yuksakligi to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytiradi. Aslida ana shunday namunalar turk tilining poetik turlari shakllarining rangbarangligini ko'rsatish bilan uni mensimay, faqat uy, ko'cha, bozor tili shaklida baholovchilarning fikrlarini inkor qiladi, bu tilning fan va adabiyot tili sifatidagi obro'sini isbotlaydi.

Turli mavzudagi she'r bandlariga nazar solganimizda buni ochiq shaklda ko'rishimiz mumkin. Masalan:

*Idimni oger men  
Biligni yuger men  
Ko'ngilni tuger men  
Erdem uze turlunur*

*(Tangrini maqtayman  
Bilimni to'playman  
Nafsimni bog'layman  
Fazilat ustiga tizilar)*

Turkning tabiatga bo'lgan sevgisi hamisha yuksak bo'lganini qayd etishimiz lozim. Yuqorida ko'kni, pastda yerni muqaddas deb bilgan, yer bilan ko'k orasida bo'lgan butun borliqlarni Tangri omonati deb hisoblagan turkning badiiy tafakkur va izlanishlarida tabiatga mehr masalalari alohida ahamiyatga ega. Turkning qadimiy poetik namunalarida tabiat Quyosh, Tuproq, Gul, Dengiz, Tog' va hokazo elementlar shaklida vasf etilsa ham bularning fonida tabiatning yagona obraz tipi ko'proq bo'rttiriladi.

*Yag'mur yag'ub sachildi,  
Turluk chechak suchuldi,  
Yinju qapi achildi  
Chindan yinar yug'rushur.*

*(Yong'ir yog'ib sochildi,  
Har xil gullar ochildi.  
Inju qopi ochildi,  
Haqiqatan ham ipor hidlari burqiraydi)*

*Turluk chechak yarildi,  
Barchin yazim karildi,  
Uchmaq ueri ko'ruildi,  
Tumluq yana kelgusuz.*

*(Har turli chechak ochildi, xuddi ipak gilamlar yozildi.  
Jannat yeri ko'rildi,  
Go'yo qish qaytib kelmaydi)*

Axloqiy-didaktik mavzular bo'yicha berilgan namunalarda ham turkning hayotiy qarash, ijtimoiy-falsafiy tafakkur va yondashuvi o'z aksini topadi:

*Bermish sening bil  
Yolnguk topar qarinch,  
Qolmish tovar adhinning  
Kirs<sup>a</sup> qora o'runka.  
(Bil, berganing seningdir,  
Inson topar gavgaga.  
Qolgan mol o'zganingdir,  
Kirs<sup>a</sup> qora tuproqqa.)*

Zafar va qahramonlik sharafi turk tarixida ahamiyatli o'rin egallaydi. Turklar tarix bo'yi adolat tarafdori bo'lib, urushlarda zafar qozongan va o'z qahramonlari bilan faxrlanganlar. "Devonu lug'atit turk"da turk qahramonlik tarixida o'rni bo'lgan Alp Er To'nga, Shu va b.ga bog'liq poetik namuna va ma'lumotlatning o'z aksini topishi millat vaqti bilan o'z tarixini avaylaganini, qahramonlari sha'nini doim ko'kka ko'targanini isbotlaydi. (Darslikning "Turkiy xalqlar dostonlari ijodi" bo'limida bu to'g'risida so'z borgani uchun qo'shimcha izoh berib o'tmadik.)

"Devonu lug'atit turk"da Alp Er To'nganing o'limiga bag'ishlangan she'r xalq qalbidagi g'am, hayajon, qayg'u hislarining aksi jihatidan ahamiyatga molikdir. Bu parchalarda mazmun yuksak fikr-g'oya darajasida taqdim etiladi. Namunalarda qofiyalanish, hijo bo'linishi, misra tizimining yagona poetik tizimga mos ravishda olib borilishi ushbu she'rning shakl go'zalligini ta'minlaydi, eng qadim davrlarda turk she'rida mavjud bo'lgan mazmun va forma birligi to'g'risida fikr bildirishga yetarlicha asos beradi:

*Alp Er To'nga o'ldimu?  
Esiz, ajun qaldumu?  
O'zlak o'chin aldumu?  
Emdi yurak yirtulur.  
(Alp Er To'nga – Afrosiyob o'ldimi?  
Esiz, dunyo (undan ayrilib) qoldimi?  
Falak (zamon) o'chini oldimi?  
Endi yurak yirtilur.)*

Muayyan sonda “Devon”ga kiritilgan bu namunalar hozircha soni va mualliflari aniqlanmagan qadim turkiy she'riyatning shakl-mazmun xususiyatlari, g'oya-estetik boyligi to'g'risidagi tasavvurlarning kengayishida muhim rol o'ynaydi. Faqat mualliflar noma'lum bo'lsa ham ushbu namunalar ham she'riyatimizning tarixi, ham Chuchudan tashqari kitobda nomlari sanab o'tilmagan Aprinchur Tigin, Kul Tarkan, Ki-Ki, Oshiq Tutung, Buyan Kaya Kal, Siliq Tigin, Chusuya Tutung, Kunchuk Iduk Kut va b. qadimiy turkiy shoirlarining kimligi, uslublari to'g'risida mulohazalarning shakllanishida, tadqiqotlar olib borilishida, izlanishlarga moyillikning kuchayishida ahamiyatli manbaga aylanadi.





# TASAVVUF TA'LIMOTI





## TASAVVUF TA'LIMOTI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Diniy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy jarayon hisoblanuvchi tasavvuf Sharq nazariy fanlar qatorida joy olmasa ham, uning ildizida din va diniy ilmlar mavjud. Tasavvuf dinning botiniy va ma'naviy tomoni bilan shug'ullanuvchi islomiy fanlar bilan chambarchas bog'liq.

Qur'on esa ushbu ilmlarning asosiy manbasidir. Bizga ma'lumki, islomiy ilmlar VIII asrgacha butunlik tarkibida, VIII asrdan so'ng esa mustaqil shaklda (tafsir, hadis, fiqh, kalom, axloq va h.) rivojlana boshlagan. Tasavvufni ushbu ilmlarning har biriga bog'lash mumkin. Bu jihatdan tasavvuf manbayi Islom ideologiyasi bo'lgan diniy-falsafiy jarayon va tafakkur tizimi hisoblanadi. Nihod Sami Banorli tasavvufni "bir imon, bir fikr va irfon jarayoni hamda bir ishq hodisasi"<sup>5</sup> deb hisoblaydi. Faqat hech qachon tasavvufga bir tomonlama munosabat bo'lmagan. Ba'zi mulohazalarga ko'ra tasavvuf nazariy, boshqa mulohazaga ko'ra esa amaliy (tatbiqiy), yana bir mulohazaga ko'ra esa Islom mistizmidir. Ilk so'fiy laqabi bilan tanilgan Jobir bin Hayyon (VIII asr) yoki Abu Hoshim sanaladi.

Tasavvufning manbayi islomiy qadriyatlar bo'lsa ham Qur'onda tasavvuf va so'fiy so'zlari uchramaydi. Bu esa o'z-o'zidan tasavvufning dinga aloqasi borligi jihatidan turli fikrlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Ba'zi din olimlari Islomning tasavvufga hech qanday aloqasi yo'qligini ta'kidlaydilar. Qur'onda ham so'fiy va tasavvuf so'zlarining uchramasligi sababini shunga bog'liq deydilar. Faqat shuni nazarga olish kerakki, tasavvuf bir ta'limot sifatida Qur'ondan so'ng shakllangan. Lekin ulardan farqli o'laroq tasavvufning Islomga aloqasini tasdiqlovchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ma'lumki, Islomda ilm faqat fan emas, balki ibodat va imon hodisasi, ayni paytda Islom madaniyatining tamal chiziqlaridan biri sifatida qabul qilinadi. Tasavvufda ham ibodat, imon, madaniyat va b.

jihatlariga bir xil munosabatning bo'lishi diniy-falsafiy hodisa sifatida tasavvufning islomiy asoslar ichida shakllanishini tasdiqlaydi. Islom dini bilan tasavvuf o'rtasida aloqa borligini tasdiqlovchilar bu jihatni alohida ta'kidlashadi. Qayd etish lozimki, Islomda mavjud bo'lgan Allohga muhabbat, ibodat, taqvo, tavba, zikr, ixlos, sabr, tavakkal, shukr, zuhd, qanoat va boshqa jihatlar tasavvufda ham joy oladi, bu esa uni Qur'onga bevosita bog'laydi. Bundan tashqari Qur'onning Hadid, Hashr, Niso, Baqara, Moida, Fajr, Ali-Imron suralarida joy olgan Allohga muhabbat, Allohni o'ylash, ilohiy bandalikka qo'shilish, ibodatning shartlari va b. diniy-falsafiy qarashlar tasavvufdagi shu kabi

<sup>5</sup> Banorli N.S. Rasmi turk adabiyoti tarixi, Istanbul, 1998, 115-bet.

fikrlarning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Adabiyot tarixlari va falsafa kitoblarida "Islom tasavvufi" ifodasining ishlatilishi ham tasavvufning Islomdan kelib chiqqanining tasdig'i jihatidan muhimdir.

So'fiy va tasavvuf so'zlarining ildizi haqida turli mulohazalar mavjud. Qushayriy, Hujviriy va boshqa mualliflarning fikricha, tasavvud va so'fiy so'zlarining arab so'zlari bilan hech qanday aloqasi yo'q va bu so'zlar arab tilidagi so'zlardan kelib chiqmagan. Boshqa mualliflar esa bu so'zlarning ildizi arab tiliga bog'liq ekanligini asoslashga uringanlar. Ushbu fikr tarafdorlari tasavvuf so'zining ildizini ilm va ibodat bilan shug'ullanuvchi ilk 400 nafar mo'minga ishora sifatida ishlatilgan "as'hobi-suffa", cho'l o'simligining nomi bo'lgan "so'fona", tozalik, poklik ma'nosini beruvchi "safa", "safvet", islomdan avval yashagan va o'zlarini haqqa va xalqqa xizmatda ko'rgan qabila nomini bildiruvchi "benush-sufe", sochlariga va liboslariga e'tibor bermaydigan so'fiylarning uzun sochlariga ishora sifatida ensa sochi ma'nosini ifodalovchi "sifatul-kafa", yunoncha faylasuf, hikmat ma'nosini bildiruvchi "sofiya", yung va ayvon ma'nolarini ifodalovchi "suf" va h. so'zlar bilan bog'lashadi. Tadqiqotchilarning aksariyat qismi tasavvuf va so'fiy so'zlarining ildizini "suf" so'ziga olib borib taqashadi. Tadqiqotchilar bunda "suf" so'zining Payg'ambar namozdan so'ng makon sifatida moiza etgan joylardan biri o'laroq ayvon ma'nosiga emas, Payg'ambarning, avliyo va sahobalarning yung matolardan tayyorlangan libosi ma'nosiga ahamiyat berishadi. Lekin tasavvuf diniy-ma'naviy tizim bo'lgani uchun unga bir ma'noli yondashish to'g'ri emas. G'azzoliyning "Saodat yo'li"da, Qushayriyning "Risola"sida, Attorning "Tazkirat-ul avliyo"sida, Jomiyning "Nafohat-ul uns"ida, J.Rumiyning "Masnaviy"ida aks etgan so'fiy qarashlarda tasavvufning 100 ga yaqin ma'nosini (shuningdek, ta'rifini) aniqlash mumkin. Ularni qisqacha quyidagidek sanab o'tish mumkin:

1. Tasavvuf zuhddir (Alloh muhabbatiga to'sqinlik qiluvchilarni qalbdan chiqarib Allohga yo'nalish)

2. Tasavvuf go'zal axloqdir.

3. Tasavvuf qalb pokligidir.

4. Tasavvuf nafs bilan kurashdir.

5. Tasavvuf kitobga (Qur'on ma'nosida) mehr qo'ymoqdir.

6. Tasavvuf Allohga mutlaq shaklda tobelikdir.

7. Tasavvuf Haqqa vuslatdir. (Allohga qovushmoq)

8. Tasavvuf Islomning ruh hayotidir.

9. Tasavvuf botiniy, ichki dunyo ilmidir (Hukm va amrlarga ham zo'hiriy, ham botiniy jihatdan ibodat va itoat).

10. Tasavvuf savfdir (Allohdan boshqa hamma narsadan yuz o'girmoq) va h.

Buyuk mutasavviflardan Abu Muhammad Ruvaymning (X asr)

“tasavvuf Alloh bilan birga bo‘lib, nafsdan qo‘l tortmoqdir”, Abu Husayn Muzayyinning (X asr) “tasavvuf Haqqa bo‘yin egmoqdir”, Abu Ali Ro‘zboriyning “tasavvuf insonning quvilsa ham Rabbning eshigida tiz cho‘kib kutishidir”, G‘azzoliyning “tasavvuf qalb va a‘zolarining ko‘ngilli ibodatidir”, “tasavvuf tamannosis ibodat va ko‘ngilli yo‘qsillikdir” va h. fikrlarida tasavvufning ko‘pgina mohiyati aniq shaklda o‘z aksini topadi.

Tasavvufda nafs bilan kurash birlamchidir. Hazrati Payg‘ambarimiz ichimizdagi dushman bilan (nafs bilan) kurash olib borishni buyuk jihod deb hisoblar edilar. Nafs bilan kurashda ilohiy axloq vojib shartlardan biri hisoblanadi. Agar inson “ilohiy axloq bilan axloqlanmasa” undagi moddiyat hirsini mahv etish mumkin emas.

Tasavvuf so‘fiyning ruhida, ichki dunyosida mavjud bo‘lgan bir “sifat”dir, bu sifat haqiqat jihatidan Haqniki, zohiriy jihatdan esa insonning o‘zinikidir.

Tasavvufning mavzusi Alloh, borliq va inson bilan bog‘liq. Junayd al-Bag‘dodiyning qayd etishicha, “tasavvuf so‘fiyona hayotning vasfidir”. Ko‘pgina ma‘naviy maqom va shartlar – ruh, ishq, sevgi, nafrat, kin, boylik, nafs, ibodat va shu kabi tuyg‘ular tasavvufning mavzu doirasiga kiradi.

Tasavvufning g‘oyasini esa insoniy yovuzliklardan, yomon axloqdan uzoqlashtirish, ma‘naviy ulug‘likni yuksaltirish, uni asl Alloh bandasi va Payg‘ambar ummati darajasiga ko‘tarish, qisqacha qilib aytganda, komil inson maqomiga yetkazish tashkil etadi. Tasavvuf vahdati-vujud falsafasiga asoslanadi. Bu falsafada Yaratganning buyukligi va yaratilish sirlari to‘g‘risida fikrlar dolzarblikni tashkil etadi. Vahdati vujud masalasiga ko‘ra borliq yagona, yagona bo‘lgan esa Allohdir. Atrofdan ko‘rinib turgan boshqa borliqlar Allohning idroki, tasdig‘i va isboti uchundir. Shuni ham qayd etish joizki, tasavvufda bilinadigan yagona haqiqat Alloh idrokidir. Faqat Allohni his etib, bilinishi yolg‘iz irfonga bog‘liq. Chunki irfon ham ilm, ham tuyg‘u tizimidir. Shu tufayli ham Alloh borliqda eshituvchi, o‘ylovchi va ishonuvchi maxluqqa ehtiyojini nazarga olib, insonni yaratgan. Alloh Dovud payg‘ambarning “insonni nega yaratding?” savoliga “men yashirin zot edim, bilinishni sevdim, bilinish uchun insonni yaratdim” degan javobni bergan. Vahdati-vujud falsafasida inson Allohdan ajralgan ruh hisoblanadi. Alloh tomonidan ko‘kdan yerga tushirilgan ruh o‘tkinchi vaqt uchun badanga aylanib, inson jildiga solingan. Ular eg-nilarida kafan bilan har doim Allohga yetish orzusida yashaydilar.

*Dunyo do‘stning dushmanidir,  
Maqsad u jonlar jonidir,  
Bil-ki, bu dunyo foniydin,  
Dunyoni sen tark et, ko‘ngil.*

(A. Yassaviy)

*Bu dunyoda qolmaylik, kel,  
Foniydir aldanmaylik, kel,  
Bir ekan ayrilmaylik, kel,  
Kel, do'stga ketaylik, kel, ko'ngil.*

*(Yunus Emro)*

Tasavvufda insonning vahdatdan ajralib yerga kelishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Uning Haqqa yetishishi esa to'rt bosqichdan o'tadi: Shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat. Shariat hukmlarga ibodat, tariqat his qilib, o'ylab yo'l ni aniqlash, ma'rifat Haqni o'z ruhiga hokim etish, haqiqat esa Haqqa yetishish bosqichlaridir. Bu yerda barcha bosqichlar asos va vojibdir. Bir bosqichni o'tmay turib, keyingi bosqichga qadam qo'yishning iloji yo'q:

*Tariqatga shariatsiz kirganlarning,  
Shayton kelib imonini olar emish...*

*(Ahmad Yassaviy)*

*Shariat, tariqat yo'ldir borganga,  
Haqiqat mevasi undan ichkari.*

*(Yunus Emro)*

Tasavvufda insonga vahdatdan ajralib, Haq tomon borgan borliq sifati munosabat bildiriladi. J. Rumi aytganidek:

*Men menda emas, Senda-da ham Sen, ham men,  
Men ham meningman, hamda sening, Sen ham mening.  
Shunday g'arib holga bu kun keldim-ki,  
Sen menmisan, bilmayman, menmi Senman.*

Tasavvufda tariqat va takka vojib shartlardan biri sifatida o'rin egalaydi.

Tariqat tasavvufning o'rgatish maktabidir, his qilib va o'ylab yo'l aniqlashdir. Alloh tomon boruvchi yo'lda tariqat muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Murshid va murid omilining bu yerda muhim o'rni bor:

*Tariqatga siyosatli murshid kerak,  
U murshidga ikki bora murshid kerak,  
Xizmat qilib, bir rizoni topmoq kerak,  
Bunday oshiq Haqdan nasib olur emish.*

*(Ahmad Yassaviy)*

Tariqatlar ko'proq Xuroson, Iroq, Turkiston, Onado'li va Bolqon hududlarida yuzaga kelgan. Mavlaviya, Yassaviya, Shifo'iya, Haydariya, Bektoshilik, Naqshbandiya va boshqa tariqatlar ushbu hududlarda so'fiylikning yoyilishiga xizmat ko'rsatgan.

Takka tasavvufning ijtimoiy tashkiloti hisoblanadi. Takkalar ko'pincha ijtimoiy jamiyat bo'lishga qaramay, ular adabiyotning rivojiga ham o'z hissalarini qo'shishgan. Ilk tasavvuf adabiyoti namunalarini takkalar yig'ilgan tariqatchilar yuzaga chiqargan. Sharqda takkalar son e'tibori bilan madrasalardan ko'p bo'lgan. Agar madrasalar asosan klassikani, klassik ilmlarni o'rgatgan bo'lsa, takkalarda Allohga yetishish yo'llari o'qitilar edi. Shu sababdan madrasalar bilan takkalarining bir-biriga bo'lgan munosabati ma'lum darajada zid bo'lgan. Qayd etishimiz kerakki, takkalarda sunniy mazhablar shialar bilan solishtirganda ko'pchilikni tashkil qilgan. Shunga qaramay, ular o'zaro hurmat sharoitida faoliyat ko'rsatganlar.

Ko'p hollarda tasavvufni mistizm bilan bir qatorga qo'yishadi. Lekin ularning o'rtasida muayyan farqlar bor. Qayd etishimiz kerakki, mistika yunoncha so'z, bu so'z yunon tilida "tilsiz bo'lish, gapirmaslik, lablarni va ko'zlarni bog'lamoq" ma'nolarini ifodalaydi.

Tasavvuf bilan mistizmning farqini quyidagicha sanab o'tishimiz mumkin:

- Mistizmda aql emas, zavq hokimdir;
- Mistizmda foniylilik falsafasi ilk qatorda turadi;
- Tasavvufda inson ruhi yuksaklikka ko'tariladi, mistizmda esa ruhiy yuksaklikka erishish emas, o'tkinchi lazzat bor;
- Tasavvufda ma'naviy yuksalish uchun individual harakat asosiy sanaladi, mistizmda esa yo'q;
- Tasavvufda ruh ajralib, Haqqa yetadi, mistizmda esa ruh jasadga hokim bo'lib, undan ayrilmaydi;
- Tasavvufda inson ham vajd, ham ilm ahlidir, mistizmda esa yolg'iz vajd ahlidir;
- Tasavvufda inson badani arz (hudud), suyaklari tog', iliklari mineral ma'dan, tomirlari oqar suv, muloqot va aloqa tuyg'usi madaniyat, nafasi shamollarning esisihi, so'zlari momaqaldiroqdek ma'no beriladi. Mistizmda esa bunday o'xshatishlar bo'lmaydi va h.

Tasavvuf islomiy asoslar bilan shakllanib, Sharq-musulmon diniy-falsafiy, ayni paytda adabiy-badiiy tafakkurning rivojida ahamiyatli rol o'ynagan ta'limotlardan biridir.



# UMUMTURKIY YOZMA ADABIYOT







## YUSUF BOLASOG'UNIY

Yusuf Bolasog'uniy XI asr turk-islom madaniyatining ilk buyuk mutafakkiridir. U 1017-yilda

Qoraxoniylar davlatining (840–1212) madaniyat markazi hisoblangan Bolasog'un shahrida tavallud topgan. Lekin Y. Bolasog'uniyning tavallud sanasi bo'yicha turli fikrlar mavjud. Turli manbalarda uning tug'ilgan sanasi 1010, 1015, 1019, 1025 va b. deb ham ko'rsatiladi. Yusuf Bolasog'uniy turkiy adabiy til va madaniyatning shakllanishi, ayni paytda taraqqiyotida ahamiyatli rol o'ynagan Qoraxoniylar hokimiyati davrida yashab ijod qilgan. Qayd etish lozimki, Qoraxoniylar davlati Ko'kturk va Uyg'ur xoqonlaridan so'ng Turkiston hududida tashkil topgan ilk turk musulmon imperiyasi sifatida tarixda qolgan. Qoraxoniylar davlatining asoschisi, islomni



YUSUF  
BOLASOG'UNIY  
(1017-1077)

qabul qilgan ilk turk hukmdor Abdulkarim Satur Bug'ra Qoraxonning hokimiyatga kelishi bilan mintaqada badiiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy tafakkur tarzi turkning foydasiga hal bo'lgan. Bu davrdan boshlab turk tili va madaniyatining tamali qo'yila boshlangan desak ham bo'ladi. Bir rivoyatga ko'ra, Muhammad payg'ambar Me'roj safari paytida payg'ambarlar bilan bir qatorda o'tirgan shaxsni Jabroil alayhissalomga ko'rsatib, uning qaysi payg'amvar ekanligini so'raydilar. Jabroil alayhissalom esa bu shaxs payg'ambar emas, 333-yildan so'ng Turkistonni dinimizga olib kiruvchi Satur Bug'raxonning ruhidir deb aytadilar. Bu rivoyat turkiy tafakkur tarzining islomga yaqin va bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Aslida Qoraxoniylarning hokimiyatga kelishi va islomni qabul qilishi natijasida turkning Ko'ktangri e'tiqodining yagona Alloh e'tiqodiga o'tishi yuz berdi va bu tufayli mukammal turk-islom adabiy-falsafiy, ma'naviy-psixologik tafakkuri shakllana boshladi. Turk va Islom ideologiyalarining sintezi yangi madaniyat bosqichining asosini qo'ydi va shu tarzda dunyo madaniyatiga integratsiyalashgan.

Bolasog'uniyning qayerda, kimdan va qachon tahsil olgani noma'lum. Bu to'g'risida ko'pgina bahs-munozarali fikrlar mavjud. Lekin dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-adabiy va shu kabi fikrlari mukammal tahsil olganini ta'kidlashga asos bo'ladi. Bir taxminga ko'ra uning ustozlari Ibn Sino (980–1037) bo'lgan. Taxmin qilinishicha, u umrining ko'p qismini Bolasog'un shahrida yashagan. Y. Bolasog'uniy "Qutadg'u bilig" asarini

ham shu shaharda yoza boshlagan (1069). U asarni 18 oydan so'ng Qoraxoniylar davlatining siyosiy markazi Koshg'arda tamomlab (1070), hukmdor Tabg'aj Bug'raxonga taqdim etgan. Asar ma'qul bo'lgan hukmdor Y.Bolasog'uniyga Xos Hojiblik unvonini bergan. Bu borada asar muqaddimasida shunday deb yoziladi: "Bu kitobni tasnif etuvchi Bolasog'uniy shahrida tug'ilgan dindor va mo'min shaxsdir. Ammo bu kitobni Koshg'ar elida tamomlab, Tabg'aj Bug'raxon huzuriga olib chiqdi. Malik Bug'raxon ham uni kutib olib, hurmatini joyiga qo'yib o'z Xos Hojibligini unga berishni lutf qildi. Shuning uchun ham Yusuf Xos Hojib nomi va taxallusi dunyoga taraldi." Ma'lumki, hojiblik hukmdorning ideologik mashvaratchi sifatida saroyda vazir va qo'shin qo'mondonidan so'ng uchinchi vazifa sanaladi. U aqli, axloqi, ma'naviy, jismoniy va boshqa jihatdan ajralib turishi, xalqning ko'ruvchi ko'zi, o'ylovchi miyasi bo'lishi lozim. Hojiblik uchun 10 fazilat vojib sanalgan: o'tkir ko'z, sof ko'ngil, hassos quloq, til, nurli yuz, amal, ilm, idrok, pok qo'l. Shubhasiz, Y.Bolasog'uniy bu sifat-larning barini o'zida mujassam etgan va xalqning suyuklisiga aylangan. Yusuf Bolasog'uniy 1077-yilda vafot etgan.

### **"QUTADG'U BILIG" asari**

Yusuf Bolasog'uniyning "Qutadg'u bilig" asari (1069–1070) turkiy xalqlarning badiiy tafakkur kuchini o'zida aks ettiruvchi, turkcha qadimga olingan asarlar ichida ilk bor so'z Allohning nomi bilan boshlangan ilk (XI asr) yozma san'at obidasidir. "Qutadg'u bilig" masnaviy formasida yozilgan manzuma didaktik asardir. Asar 6645 baytdan iborat. Lekin asarga 77 baytlik manzuma va kichik mansur muqaddima ham ilova qilingan. Bu parchalarning kim tomonidan yozilib, asarga qo'shilgani to'g'risida aniq ma'lumot bo'lmasa ham ushbu parchalar muallifning o'ziga tegishli deb taxmin qilinadi. Ehtimol, Y.Bolasog'uniy asarga ushbu ilovani umrining oxirida yozgan. O'quvchiga bevosita murojaat qilingan 75 va 76-baytlarda bu hol o'zini tasdiqlaydi:

*Bu turkcha qo'shuqlar tuzattim senga,  
O'qisang, duo qil mening haqimga.  
Men dunyodan o'taman, seng o'zing eshit,  
Kitobdan ibrat olgin, ko'zingni ochgin.*

Shuni ham qayd etish lozimki, bu qo'shimchalarning xoh nasr, xoh nazm qismida asarning atrofdagi mamlakatlarga yoyilishi va muallifiga shuhrat olib kelishi to'g'risida ma'lumot beriladi. Muallif kitobning Xi-toyda "Adab ul-mulk", Mochinda "Anisul mamolik", mashriqda "Ziynat ul-umaro", Eronda "Shohnomayi turki", Turonda "Qutadg'u bilig" nomi

bilan shuhrat qozonganini iftixor bilan qalamga oladi. Ehtimol, asar muallifi tirikligiga qo'lyozma shaklida nomi aytib o'tilgan o'lkalarga yoyilgan va buning natijasida Y.Bolasog'uniy buni fakt sifatida asarga kiritgan.

“Qutadg‘u bilig” mutaqorib bahrida (faulun faulun faulun faul) yozilgan. Lekin bu fikrga tadqiqotchilarning munosabati ham bir xil emas. Masalan, asar milliy she'riy vazni hijoda yozilganini tasdiqlovchi fikrlar ham mavjud. Qayd etishimiz lozimki, asarda 173 to'rtlik bor, bular esa islomdan avvalgi moniy turk she'r shakliga mos. Ushbu to'rtlik-moniy tuzilishida jinosli qofiyalanish tizimi mavjud, manbalarda bu jarayon keyingi davrlarda milliy turkiy she'r tuyuq shaklining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan omil sifatida tasdiqlanadi. Yangi adabiy til bo'lgan Koshg'ar-Xoqoniyasi Qoraxoniylarning davlat tili edi.

“Qutadg‘u bilig” asarining uch qo'lyozma nusxasi mavjud: Vena, Qohira va Farg'ona nusxasi.

1439-yilda Hirotda Hasan Qora Shams tomonidan uyg'ur alifbosi bilan ko'chirilgan nusxa Istanbulga olib kelingan. Ushbu nusxa sharqshunos olim Hammer tomonidan sotib olinib, Vena saroy kutubxonasiga sovg'a qilingan. Vena nusxasi “Qutadg‘u bilig”ning fan olamiga ma'lum bo'lgan ilk nusxasi sanalsa ham tadqiqotchilar uni noqis deb hisoblashadi. Ushbu variant ilk bor 1870-yilda nashr etilgan.

“Qutadg‘u bilig”ning arab alifbosi bilan yozilgan ikkinchi nusxasi 1896-yilda Qohirada topilgan. Qohira saroy kutubxonasida saqlangan bu nusxaning materiallari ilk bor 1943-yilda chop etilgan. Asarning arab alifbosi bilan ko'chirilgan to'liq nusxa deb tan olingan Farg'ona varianti esa fan olamiga 1913-yilda ma'lum bo'ladi. Z.Valizoda va Fitrat tomonidan oshkor etilgan bu nusxa ilk bor 1934-yilda nashr etilgan. Hozirda Farg'ona nusxasi Viloyat kutubxonasida saqlanadi.

Y. Bolasog'uniy asarga “Qutadg‘u bilig” nomini berishi tasodif emas. “Saodat”, “baxtli taqdir” va b. ma'nolarini bildiruvchi “qut” so'zining leksik o'zgarishi va “bilig” so'zi bilan yonma-yon ishlatilishi natijasida kelib chiqqan ma'no “Saodatga eltuvchi bilim” asarning nomi to'g'risida muallif maqsadini ifodalaydi:

*Kitab ati urdum “Qutadg‘u bilig”,  
Qutadsu oqug‘liqa tutsu elig.  
(Kitob otini “Qutadg‘u bilig” qo‘ydim,  
O‘quvchiga baxt keltirsin, qo‘lidan tutsin).*

Yusuf Bolasog'uniy “Qutadg‘u bilig”ni juda qadrlı kitob deb baholaydi va “qimmatli bilimlar bilan bezatilgan” bu kitobni “chanqoqlar uchun ilm daryosi” deb hisoblaydi. Kitobning eng chuqur hikmat va durdona

chambaragi ekanligi alohida ta'kidlanadi. Shuning uchun ham muallifning o'quvchiga qarata aytilgan "bu kitobni har o'qib-yozuvchi anglamas, uni faqat o'qib-his etgan tushunadi" so'zlari tasodif emas.

"Qutadg'u bilig" avvalo Tangri, Muhammad payg'ambar va uning 4 sahobasi Abubakr, Umar, Usmon va Alining, shu jumladan, o'sha davr hukmdori Bug'raxonning ta'rifi bilan boshlaydi. Ulardan so'ng keluvchi taxminan 270 baytlik turli sarlahvali parchalarda koinotning yaralishi, 7 sayyora, 12 burj va inson haqida ma'lumot beriladi. Kitobda joy olgan bundan keyingi (taxminan 6000 bayt) masalalar 4 ulug' va mustahkam tamal borasida ketadi: a) adolat; b) saodat; c) aql; d) qanoat va oqibat. Asarda Kuntug'di adolat, Oyto'ldi saodat, O'gdulmish aql, O'zg'urmish esa oqibat ramzidir. Asar davomida barcha masalalar turkcha nom bilan ifodalangan obrazlarga bog'langan holda taqdim etiladi. Muallif bu obrazlarning faoliyati doirasida bir tomondan davlat, jamiyat, ijtimoiy huquq, maishat, boshqa tomondan esa oxirat va dunyo muammolarini diqqat markaziga tortadi. Shu tufayli ham asarda "dunyoga kelgan kundan nomini olib, otini mingan, manzil-manzil o'limga yaqinlashgan", "o'zi emas, nomi abadiy bo'lgan" insonning "foniy dunyo bilan" "abadiy olam" chizig'idagi joyi va mavqeyi butkul muayyanlashadi, uning nafsi qurolsizlashadi. Muallif Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish va O'zg'urmishning amal, faoliyat, dunyoqarash va hayotga qarashlarini keng doirada taqdim etadi. Mana shu taqdimotda hukmdor va jamiyat, inson va dunyo, inson va abadiy olam muammolari qalamga olinib, adolatli jamiyat boshqaruvi to'g'risida tasavvur kengaytiriladi. Shu jumladan, bu dunyo va oxiratda saodatga erishish yo'llari ko'rsatiladi. Kuntug'di Elik adolat ramzidir. Uning xarakteri quyoshning alomatlariga mos ravishda taqdim etiladi. Quyosh shaklini, nurini o'zgartirmaganidek, Kuntug'dining ham adolatli "nuri va yorug'ligi" o'zgarmas, quyosh koinotga nur va issiqlik baxsh etganidek, uning ham adolati insonlarga tinchlik va xotirjamlik baxsh etadi, quyoshning burji va tamali sobit bo'lganidek Kuntug'di ham adolatli hukmda, qarorida sobit va qarorlidir va h. U uzoq umr ko'rgan hukmdor bo'ladi. So'zi but, ko'zi, ko'ngli to'q, amali to'g'ri insondir. Lekin asarda uning musbat jihatlarining taqdimi bu bilan tugamaydi. Kuntug'di Elik jasur, axloqli, bilimli, aqlli, shaxsiy istaklardan uzoq va boshqa xususiyatlar bilan ham taqdim etiladi. U asarda hokimiyatni yolg'iz boshqarishga qarshi chiqadi. Shuning uchun ham boshqaruvda o'ziga yordam bera oladigan aqlli yordamchi izlaydi. Kuntug'di Elik asl hukmdor sifatida sergak va ehtiyotkorligi bilan ajralib turadi. U siyosiy xodim sifatida davlat ishida ehtiyotlik va sergaklik davlatning umrini uzatishini, qonun bilan boshqariluvchi jamiyatda xalq baxtiyor yashashini anglab yetadi. Yusuf Bolasog'uniy Kuntug'di Elik siyomosida adolatli hukmdor



obrazi yaratish bilan turk davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy qarashlari to'g'risida kompleks tasavvur yaratgan.

Asarda bunday tasavvurlar Oyto'ldining shaxsida muayyan miqdorda aniqlashadi, fikrlar o'zaro suhbatda (Hojib-Oyto'ldi va Kuntug'di-Oyto'ldi uchrashuvlarida) taqdim etiladi. To'g'rilikni o'ziga shior qilib olgan Oyto'ldi benuqson xizmati bilan taniladi. Asarda ismining ma'nosi oy bilan muqoyasada izohlanadi: "Oy ko'kda ilk kun kichik ko'rinadi, kunlar o'tgani sari kattalashadi, porlab dunyoni yoritadi, kattalashib eng yuksak cho'qqiga erishadi, yana kichrayib qaytadan kattalasha boshlaydi". Aynan Oyto'ldi saodat va davlatning ramzi bo'lgani uchun bu izohda saodatning, mol-davlatning adabiy emasligiga, o'zday joyini va shaklini o'zgartirgani uchun unga ishonmaslik, oshufta bo'lmaslikni tavsiya qiladi. Oyto'ldi davlatning ikkinchi mas'ul odami vazir sifatida jamiyatda obro'ga ega. Lekin muallif uning obro'si sababini vazifasi bilan emas, ko'proq "ko'nglini Tangriga bog'lashi", "hayotda hamma narsani sinovdan o'tkazib qaror qilishi", "bilim bilan hunarga ega bo'lishi", "dunyو molini ortiqcha yuk deb bilishi", "hamma narsaning chorasini to'g'rilikda izlashi" va b. bilan bog'liq deydi.

"Qutadg'u bilig" asarida Oyto'ldining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma'naviy, psixologik qarash va boshqa hayotiy fikrlari Kuntug'di va o'g'li O'gdulmish bilan suhbatlarida diqqatni jalb etadi. Bu suhbatlar aslida turk tafakkuri yondashuvida davlat, jamiyat, adolat va b. muammolarga qarashning o'lchov va me'yorlarini muayyanlashtirish jihatdan ahamiyatlidir.

"Qutadg'u bilig" asarida "faoliyat doirasiga" ko'ra o'zgacha obrazlardan biri O'gdulmishdir. U asarda aql ramzi sifatida aks etadi. Otasining o'limidan so'ng Kuntug'di uni voniga chaqiradi va suhbat vaqtida O'gdulmishning aqli hukmdorni hayratga soladi. Shuning uchun Kuntug'di unga saroyda lavozim beradi. Xizmati vaqtida O'gdulmish muvaffaqiyatga erishadi, xalqni saodatga, davlatni esa taraqqiyotga boshlaydi. O'gdulmishning fikrlari moddiy dunyo bilan adabiy olam tarozisida muvozanatlashga xizmat qiladi. O'gdulmish aql va bilimni insonning bu dunyoda erisha oladigan eng buyuk ne'mat deb biladi. U har qanday saodatning sababi aql va bilim nomli "kalit" deb baholaydi. Asar davomida uning oshpazlikdan, tabiblikdan, ovchilikdan, tarbiyadan tortib davlatni boshqarish qoidalarigacha bo'lgan fikrlari asl aql egasining qarashlari shaklida taqdim etiladi. Shu tufayli ham o'quvchi bu taqdimotda ijtimoiy muhit va maishatda nimani qanday qilish qoidalarini o'rganadi, birgalikda hayotda yashash va harakat qilish madaniyatining turk tafakkuridan chiqqan nizomi bilan tanishadi.

"Qutadg'u bilig"da asosiy obrazlardan biri esa O'zg'urmishdir. U oqibat ramzidir. O'zg'urmish butun borlig'i bilan abadiy olam jozibasida

bo'ladi. Hech qanday kuch-quvvat uni bu jozibadan "xalos" eta olmaydi. Shu tufayli uning qarindoshi O'gdulmish necha bor uni saroyda ishlashga taklif qilsa ham u bu taklifni qabul qilmaydi. Chunki O'zg'urmish dunyo ne'matlariga ko'z yumib, saroyda xizmat qilishni emas, oxiratga (oqibatga) tayyorlanishni hamma narsadan ustun ko'radi. Shu sababli ham u zohidlikni saroyga borishdan sharafliroq deb biladi. Uning aqidasi asarda qayta-qayta takrorlangan fikrlarda o'z tasdig'ini topadi:

*Dunyo bevafo dir, qilmishi jaf o,  
Ey oqil, undai o'zing tutgin ayro.  
Dunyoga sen behad mehr qo'ygansan,  
Undan tezroq ko'ngil uzib, bo'l ayro.*

Biz asarda O'gdulmish va O'zg'urmish o'rtasidagi bir necha bor bo'lgan uchrashuvga guvoh bo'lamiz. Bu qarashlar deyarli hayot va oxirat masalalariga bag'ishlangani uchun muayyan shartdan uzoqlashmaydi. Shu sababli ma'naviyat dunyosining ikki buyuk siymosi bir necha bor yuzmayuz fikr almashishlari matlabning yana kenglikda, butun tafsilotlari bilan ochilishiga xizmat qiladi.

Muallif O'zg'urmishning fikrlarini moddiy va abadiy dunyo kontekstida taqdim etish bilan islomiy tasavvurlar haqidagi bilimlarni namoyish etadi.

"Qutadg'u bilig" asari Yusuf Bolasog'uniyning o'ziga nasihatlari bilan tugallanadi. 40 baytlik bu nasihatda muallif bilimning inson hayotidagi roli, bilimli insonlar bilan savodsizlarning farqi, so'zlarining to'g'riligini, bu dunyoning o'tkinchi ekanligini, har ikki dunyoda mavqega erishish, asarning 18 oyda tamomlagani va b. haqida bahs qiladi.

"Qutadg'u bilig" XI asr turk adabiy tilining mukammal namunasi sifatida til, uslub va fikrning badiiy imkonlari jihatdan ham diqqatni jalb etadi. Aynan shu tilning shakllanishi va rivojlanishida Yusuf Bolasog'uniyning alohida xizmatlari bo'lgan bu fikr asarda o'z ifodasini topadi:

*Ayo, bu kitobni qabul etguvchi,  
Bu turkcha asarga ajablanguvchi,  
Shundayin kitob bu, ko'llanma erur,  
Xususan shohlarga, ki el-yurt so'rur.*

"Qutadg'u bilig"da ifoda go'zalligi jihatdan e'tiborni tortuvchi yuzlab namunalariga duch kelish mumkin:

"Kamolning bezagi til, til bezagi so'z, inson bezagi yuz, yuz bezagi esa ko'zdir", "har kimning harakati uning asliga shohid, harakati ne esa, asli ham udir", "insonning o'zi abadiy emas, nomi abadiydir", "bilimsiz ki-

shi doim betob bo'lar", "aql qorong'u kechada chiroqdir", "hirs bilan ish ko'rgan pushaymon bo'lar", "kimda aql bo'lsa u asil bo'lar" va h. Bu kabi iboralar asarning til va uslub jihatdan boyligini, turkiy tildagi ifoda imkoniyatlarining kengligini tasdiqlaydi.

## AHMAD YASSAVIY



**AHMAD  
YASSAVIY**  
(1103-1166)

Turk tasavvuf adabiyotining ilg'or siymolaridan biri bo'lgan Xo'ja Ahmad Yassaviy ha-yoti haqida manbalarda aniq ma'lumot yo'q. -

Bu buyuk turk so'fiysining tarjimai holi va qisman ijodi haqidagi fikrlar xalq orasida keng tarqalgan rivoyatlar asosida shakllangan. Ahmad Yassaviy XII asr boshlarida (taxminan 1103) G'arbiy Turkistonning Sayram qishlog'ida tavallud topgan. Bu qishloq hozirda Qozog'istonning Chimkent shahridan 7 km. narida joylashgan. Ahmad Yassaviyning otasi Shayx Ibrohimning Hazrat Alining naslidan bo'lganligi taxmin qilinadi. Onasi Oysha xonim

taniqli din xodimi Shayx Musoning qizi bo'lgan. 7 yoshida Ahmad Yassaviyning otasi vafot etadi. Oradan biror vaqt o'tgach, onasi ham hayotdan ko'z yumadi. Ota-onasidan ayrilgach, Ahmad Yassaviy opasi Gavharshohnoz bilan birga Yassa (hozirgi Turkiston) shahriga boradi. Yassaviy taxallusi shu shaharning nomi bilan bog'liq. Ushbu shaharga Hijozdan kelgan Arslon Bobo ismli muqaddas shaxs Ahmad Yassaviyga ma'naviy ota bo'lib, uning ta'lim-tarbiyasini o'z zimmasiga oladi. Bu borada "Devonu hikmat"da shunday deb yozilgan:

*Yetti yoshda Arslon bobom izlab tobt,  
Har sir ko'rub, parda birla bukub yobti,  
Bihamdilloh, ko'rдум, dedi, izim ubti.*

Rivoyatga ko'ra, ochlikdan aziyat chekkan sahobalar Muhammad payg'ambarimizning huzuriga kelib, undan ovqat so'raydilar. Payg'ambarning duosi bilan Jabroil alayhissalom insonlarga jannatdan xurmo olib keladi va ularga tarqatadi. Bu vaqt bir xurmo yerga tushadi va Jabroil alayhissalom "bu xurmo sizning Turkiston ummatingizdan bo'lgan Ahmad Yassaviyning qismatidir" deydi. Hazrati Muhammad Arslonbobni yoniga chaqirib, xurmoni unga beradi va Ahmad Yassaviyga



yetkazishini bildiradi. Rivoyat qilishlaricha, Arslon bobo Muhammad payg'ambarimizning duosi bilan uzoq yil yashab, Ahmad Yassaviyni ko'rish uchun Yassiga boradi. Arslon bobo ilk bor u bilan maktabga ketayotganda uchrashadi. Ahmad Yassaviy uni ko'rish bilan omonatini so'raydi. Arslon boboning taajjublanganini ko'rib: "Alloh menga xabar qildi" deydi va uning hayratiga nuqta qo'yadi. Arslon bobo Ahmad Yassaviyning uzoq muddat murshidi bo'lib, unga diniy ilm sirlarini o'rgatadi (Ba'zi manbalarda esa Arslon Boboning unga xurmo bergandan bir yil o'tgach vafot etgani qayd etiladi). "Devonu hikmat" da Arslon boboning o'limiga tegishli bir necha parcha bor. Ushbu parchalarda hurlarning ipakdan unga kafan tayyorlashlari, 70 ming malakning namoz o'qib, tobutini yerdan ko'tarishlari va ruhini jannatga olib ketishlari aks etgan.

*Kobiz kelib Arslon bobom jonin oldi,  
Hurlar kelib harir to'ndin kafan qildi,  
Yetmish ming farishtalar yig'ilib keldi...  
Janozasin o'qub, yerdin ko'tardilar,  
Bir fursatda ujmo ichra yetkurdilar,  
Ruhin olub, illiyiga kirgizdilar...*

Ahmad Yassaviy murshidining o'limidan so'ng Buxoroga boradi, ta-niqli din mutafakkiri Shayx Yusuf Hamadoniyning talabasi bo'ladi. Shayx Yusuf Hamadoniydan Islom asoslarini o'rgangan Ahmad Yassaviy o'z murshidining 3-xalifasi sifatida 1160-yilda irshod unvoniga ega bo'ladi. Qayd etishimiz kerakki, Shayx Yusuf Hamadoniyning o'limidan so'ng bu unvonni 1-xalifa sifatida Shayx Abdulla Barkiy, 2-xalifa sifatida esa Shayx Hasan Andakiy egallagan. Ahmad Yassaviy irshodligi davrida "Yassaviya" tariqati keng tarqaladi. Rivoyat qilishlaricha, bu tariqatni O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston, Onado'li, Bolqonlar va b. joylarda yoyish uchun 99 ming darvesh faoliyat ko'rsatgan. Bulardan tashqari A.Yassaviy yashagan shaharda tariqatni yoygan darveshlarning soni 12 mingga yetgan.

Ahmad Yassaviy yashagan davr Abbosiylar xalifaligining hokimiyatda bo'lgan yillarga to'g'ri keladi. Bu davrlarda Suriyadan boshlab Shimoliy Afrika, Ispaniya, Volga daryosi sohillari, Xitoy va Hindistongacha bo'lgan yerlarda musulmon hokimiyat va uning obro'si kuchaygan edi. Bunday davrda Islom ideologiyasining targ'ibiga katta ehtiyoj tug'ilgandi. Albatta, Islom ideologiyasining targ'ibida tariqatlarning muhim o'rni bor edi. A.Yassaviyning "Yassaviya" tariqati musulmon dunyosida tezlik bilan yoyilib, katta rag'batga sazovor bo'lgan. Ahmad Yassaviy ko'p sonli muridlari orasida ilk xalifa nomini olgan Arslon boboning o'g'li Mansur ota bo'lgan. 1197-yilda Mansur otaning vafotida so'ng o'g'li Abdulmalik

ota, nabirasi Tojxo'ja, evarasi Zangi ota bir-birining o'rniga o'tib, irshod unvonini olishgan.

Ahmad Yassaviyning bir o'g'li, ikki qizi bo'lgan. O'g'li Ibrohim kichik yoshda o'ladi, Yassaviy nasli qizi Gavharshohnozning farzandlari bilan davom etgan. Ahmad Yassaviydan besh asr keyin yashagan Avliyo Chalabiy bu naslning eng taniqli namoyandalaridan biri bo'lgan. A. Yassaviy 1166-yilda vafot etgan. Uning o'limi haqida qiziq ma'lumotlar bor. U 63 yoshga yetganda "biz uchun yer osti yer ustidan foydaliroqdir" deb o'z muridlariga yer ostida bir xona (chillaxona) tayyorlashni topshiradi. Bunga Muhammad payg'ambarni tushida ko'rgani va hayotda undan ortiq yashashni istamagani sabab bo'lgan. Ma'lumki, Muhammad (s.a.v.) 63 yoshida vafot etganlar. Ahmad Ahmad Yassaviy ham payg'ambar (a.s.) dan ko'p umr ko'rishni o'ziga ravo ko'rmagani tufayli shunday qilgan. "Devonu hikmat"da A. Yassaviyning bu tanlovi mana shunday ifodalangani:

*Ayo do'stlar, quloq soling aydug'umga,  
Na sababdin oltmish uchta kirdim yerga,  
Me'roj uzra haq Mustafo ruhum ko'rdi,  
Ul sababdin oltmish uchta kirdim yerga.*

*Oltmish uchda nido keldi, qul, yerga kir,  
Ham joning men, jononing men, joningni ber,  
Hu shamshirin qo'lg'a olib nafsingni qir,  
Biru borim, diydoringni ko'rarmannu?*

Ahmad Yassaviyning chillaxonaga kirgandan so'ng qaysi sanada vafot etgani noma'lum. Uning chillaxonaga kirgach, 1, 5, 10, 20, hatto 50 yildan so'ng o'lgani aytilsa ham hozircha Ahmad Yassaviyning o'lim sanasi aniqlanmagan. A. Yassaviyning qabri Yassa (hozirgi Turkiston) shahrida joylashgan. Rivoyatga ko'ra, A. Yassaviy Amir Temurning tushiga kiradi va unga jangdan avval g'alaba xushxabarini beradi. Jangda g'alaba qozongan Amir Temur Yassaga kelib, uning qabrini ziyorat qiladi va 1398-yilda Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara kompleksini qurdiradi. A. Yassaviy maqbarasi keyingi davrlarda o'zbek xoni Abdullaxon, Shayboniyxon va b.tomonidan ta'mirlangan. Insonlar hozir ham A. Yassaviyning maqbarasini muqaddas dargoh sifatida ziyorat qilib, ruhiga duo o'qishadi.

## IJODI

Xo'ja Ahmad Yassaviy XII asr turkiy tilli tasavvuf adabiyotining ilk buyuk namoyandasidir. O'rta Osiyoda uning siyomosida shakllangan, yuksak cho'qqiga yetgan xalq tasavvuf she'riyati faqat Turkiston tomonlarda

emas, barcha musulmon Sharqda keng yoyilgan, uning ijod an'analari qisqa vaqt ichida Sharqda adabiy harakat va adabiy maktabga aylandi. Shu tufayli Turkistondan Old Osiyoga, Yaqin va O'rta Sharqqacha joylashgan turk-musulmon dunyosida tubida Islom ideologiyasi bo'lgan "Yassaviylik" tariqati, to'g'rirog'i Ahmad Yassaviyning diniy-ma'naviy "uslub" va Islomiy tafakkur tizimi keng yoyilib, Sharqning mutafakkir irfon sohiblarining qarashlariga ta'sirsiz qolmagan, ularning ijodlarida muayyan alomatlar shaklida o'z aksini topgan. A.Yassaviy ilohiy ishq kuychisi sifatida axloqiy-ma'naviy, diniy-falsafiy jihatdan ahamiyatli ijodi bilan turk-islom tafakkurining rivojida alohida o'rin egallagan. Uning "Nasibnoma" nomli asari bo'lganligi taxmin qilinsa ham, qo'limizda bo'lgan "Faqirnoma" risolasi namunalarning unga maxsusligi to'g'risida fikrlar bo'lsa ham, Ahmad Yassaviy adabiyot va diniy-falsafiy fikr tarixlarida "Devonu hikmat" muallifi sifatida mashhurdir.

"Devonu hikmat" tasavvuf she'rlari kitobidir. Kitobdagi she'rlarning nomi yo'q. She'rlar hikmat nomi bilan taniladi. Tadqiqotchilar "Devonu hikmat"da to'plangan she'rlarning barchasi A.Yassaviyga tegishli emas degan fikrga ega. Taxmin qilinishicha, turli zamonlarda Yassaviy tarzida yozilgan she'rlar ham Yassaviyga tegishli deb, "Devonu hikmat" tarkibiga qo'shilgan. Ularning fikricha, aruz bilan yozilgan she'rlarning Yassaviyga tegishli ekanligiga shubha bor.

XV asrgacha "Devonu hikmat"ning hech qanday nusxasi topilmagan. Asarni keyingi davrlarda darveshlar to'plab barpo qilgan va "Devonu hikmat" nomi ham ular tomonidan berilgan. "Devonu hikmat" she'rlari til, vazn, shakl jihatdan ko'proq xalq she'ri an'anasiga uyg'undur. Hikmatlar (she'rlar) turli sondagi to'rtliklardan iborat. Bularning aksariyati  $4+3=7$  va  $4+4+4=12$  hijoda yozilgan. A.Yassaviy she'rlari XII asr O'rta Osiyo adabiyotida urf bo'lgan Koshg'ar-Xoqoniya lahjasida yozilgan. Ushbu hududlarda Islom-turk adabiyotining ilk namunalari aynan shu tilda yozilganini va keng doirada yoyilganini qayd etishimiz lozim.

O'z hikmatlarining Tangri kalomlariga va Qur'onga tayanganini bildirgan A.Yassaviy Allohning buyukligini idrok etib, u tomonga intilish va Haqqa qovushishni eng buyuk hikmat (yo'l) deb hisoblaydi. Shuning uchun hikmatlarda islomiy asoslardan, Allohning qudrat va jalolidan, jannat va do'zaxdan, ibodatning butunligidan, nafsga berilishning zararlardan, yaxshi amal sohibi bo'lishning foydalaridan va h. lardan so'z borishi bejiz emas. "Yassaviylik" tariqatida Allohga qovushish, haqiqat bosqichiga yetish vojib shart sanaladi. Ahmad Yassaviy insonning qalbi ish otashi (Alloh sevgisi) bilan yonmasa, inson o'z dunyosidan ayrilib "sevgi bog'ining mehmoni" bo'lmasa, u Alloh oldidagi qarzini qaytara olmaydi, o'z nafsining qurboni bo'lib, abadiy hayot ne'matidan mahrum bo'ladi deb hisoblaydi:

*Biruborim saboq berdi parda ochib,  
Yeru ko'kda turolmadi shayton qochib,  
Ishrat qilib, vahdat maydin to'yo ichib  
Lomakonda Haqdin saboq oldim mano.*

*Nafsing seni oxir damda gado qilg'ay,  
Din uyini g'orat qilib, ado qilgay,  
Ular vaqtda imoningdin judo qilgay,  
Oqil ersang, nafsni baddin bo'lgil bezor.*

*Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,  
Yo'ldin ozib, toyib, to'zub, gumroh bo'lur,  
Yotsa-qo'bsa shayton bila hamroh bo'lur,  
Nafsni tebgil, nafsni tebgil, ey badkirdor.*

Ahmad Yassaviy inson qalbiga hokim bo'lgan ilohiy ishqni Alloh bilan inson o'rtasidagi aloqa deb hisoblaydi. Yassaviyga ko'ra, hukmlarni bajarmay turib (shariat), ularni tafakkur va e'tiqod tizimida idrok etmay turib (tariqat) va islomiy sirlarni chuqur anglagan holda amalga tajassum etmay turib (ma'rifat) haqiqatga yetishning (Allohga yetish) iloji yo'q. Yassaviy insonga oddiy maxluqdek qaramaydi. Uning mazarida inson Allohdan ajralgan nur va qudrat parchasidir. Qur'oni Karimning "Nur" surasida shunday deb yozilgan: "Alloh osmonlar va Yerning "nuri"dir... Alloh nur ustiga nur (bo'lur). Alloh o'zining (bu) nuriga o'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur." Ahmad Yassaviy Qur'on mantiqining davomi sifatida barcha bosqichlarda (shariat, tariqat, ma'rifat) idrokining Allohga qovushish yo'lidagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Yassaviy inson yaralishi evaziga shukur qilishini (ibodatni) Allohga qovushishning vojib shartlaridan biri deb baholaydi:

*Sahar vaqtda ko'pub yig'lab nola ayla,  
Nolishing'din yeru ko'klar navo qilsun,  
Haqqa sig'nib kuz yoshingni jola ayla,  
Ondin so'ngra Haq dardingga davo qilsun.*

"Devonu hikmat"ning II–VII hikmatlarida A. Yassaviyning 63 yillik umr yillarining sanab o'tilishi ilk qarashda tarjimayi holga o'xshasa ham, aslida "shariat", "tariqat", "ma'rifat", "haqiqat" ketma-ketligining irfoniy xislatiga xizmat qiladi. Bu yerda "ishq yo'lining" bosqichma-bosqich ma'naviy komillashuviga ta'siri va Allohga qovushishda o'ynagan be-takror rol nazarga olinadi, bularning har bir banda uchun vojibliigi o'z tasdig'ini topadi:

*Bir yoshimda arvoq menga ulush berdi,  
Ikki yoshda payg'ambarlar kelib ko'rdi,  
Uch yoshimda chiltan kelib holim so'rdi,  
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga.*

*...O'ttuz ikki yoshda. yetti Haqdin farmon,  
"Bandalikka qabul qildim, qilma armon,  
Jon berurda bergum senga nuri imon!"  
G'arib jonim shodmon bo'lub kuldi, do'stlar.*

*... Oltmish ikki yoshda Alloh partav soldi,  
Boshdin-oyog' g'aflatlarim raho qildi,  
Jonim, dilim, aqlim, hushim Alloh dedi,  
Biru borim, diydoringni ko'rarmanmu?*

Ahmad Yassaviyning Turkistonda asos solgan "Yassaviylik" tariqati Turkiston chegaralaridan o'tib, Sharq-islom dunyosining aksar markazlarida Boboiy, Bektoshi, Naqshbandiy, Haydariylik va boshqa tariqatlarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan. Yassaviy ta'siri ushbu tariqatlarning namoyandalari bo'lgan shaxslarning dunyoqarashlari shakllanishidan va ijodlaridan chetlab o'tmagan. A. Yassaviy bilan Sharq so'fiy adabiyotining keyingi davrlaridagi atoqli namoyandalar J. Rumi, Y. Emro, S. Valad, Sh. Tabriziy va b. orasida bo'lgan aloqa hamda bog'liqlikning asosiy sababini ham aynan shunda izlash lozim. Bu ta'sir va aloqa asosan ularning ijodlari g'oya-mazmunida o'zini namoyon qilgan. Masalan, J. Rumiyaning "Masnaviy", Y. Emroning "Risolat un-nusxiya", S. Valadning "Maorif" va b. asarlarida A. Yassaviy bilan boshlangan so'fiy qadriyatlar u yoki bu shaklda o'z aksini topib, o'rta asrlar turk-islom falsafiy fikrining rivojida namuna vazifasini o'tagan. Diqqat qilganimizda klassik Sharq adabiyotida dunyo sirlarining "Alloh siri va mo'jizasi" shaklida baholanishining mukammal ifoda va ibora tarzi Ahmad Yassaviy bilan boshlanishini ko'ramiz. Bu jihatdan Alloh yaratganlarining eng sharaflisi, haq yo'lchisi bo'lgan insonga munosabatda Yunus Emro ham A.Yassaviydek uni jonli borliq shaklida taqdim etmaydi, insonni ruh, nur tashuvchisi deb hisoblaydi. Ahmad Yassaviyning Turkistonda asosini qo'ygan so'fiy-tasavvuf qarashlarini taxminan 150 yildan so'ng Y. Emro Old Osiyoda davom ettirgan desak bo'ladi.

Ahmad Yassaviydagi bo'lganidek Y. Emroda ham Alloh sevgisi, ilohiy ishq yetakchidir. "Yassaviylik"da "vahdati vujud" falsafasiga mos zar-raning (insonning) butunlikka (Allohga) qovushish orzusi Yunus Emro poeziyasida ham o'zini ko'rsatadi va ilohiy ishq tub zamirida o'ziga xos ifodasini topa oladi. Har ikki irfon sohibi Allohni "ko'ngil" va tuyg'u "bi-

limida” idrok etish mumkin deb hisoblaydi. Shu tufayli ham Allohga, payg‘ambarga, mo‘tabar sahobalarga, ibodatga, mavjudlikka muhabbat qo‘yish, shukur qilish, moddiylikdan, nafs quli bo‘lishdan, “boshqa muhabbatlardan” va hokazolardan uzoqlashishdek irfoniy qarashlar A.Yassaviy bilan Y.Emroni ayni “nur ko‘prigidan” o‘tkazib, Alloh dargohiga olib boradi. Biz har ikki so‘fiy timsolida “Allohdan oshiqlikni so‘ragan”, “ish o‘tida yonayotgan”, “dunyoni harom deb hisoblovchi”, ishq dardlariga davo bo‘lmagan” Rabning sodiq bandalarini ko‘rib, ularning Alloh dargohiga “xitoblari”ni eshitamiz. Masalan, Yunus Emroning

*Ishq maqomi oliydir, ishq qadim, azaliydir.  
Ishq so‘zini so‘ylagan qudrat tilidir.  
Degan bo‘l, eshitgan bo‘l, ko‘rgan bo‘l, ko‘rsatgan bo‘l,  
Har so‘zni so‘ylagan bo‘l, surat jon manzilidir.*

– misralarida ifodalangan ma‘no A. Yassaviyning

*Ishq maqomi turlik maqom aqling yetmas,  
Boshdin-oyoq jabru jafu, mehnat ketmas,  
Malomatlar, ihonatlar qilsa o‘tmas,  
Lomakonda Haqdin saboq oldim mano.*

– fikrlariga mos keladi.

Har ikki tasavvuf shoiriga ko‘ra ichida ruh bo‘lgan, qalbi Alloh nuri bilan to‘la bo‘lgan inson ezgu amal sohibi bo‘lishi kerak, shunda Alloh marhamatiga sazovor bo‘lib, adabiy olamning loyiq yashovchisiga aylanadi:

*Ishq bog‘ini mehnat tortib ko‘kartmasang,  
Xorliq tortsa, shum nafsingni uldurmasang,  
Alloh debon ichga nurni to‘ldurmasang,  
Valloh-billoh, senda ishqni nishoni yo‘q.*

(A. Yassaviy).

*Nafs orzusidan kechib, ishq qadahindan ichib,  
Do‘st yo‘luna er kabi turmagan oshiqmidir?*

(Y. Emro)

Ahmad Yassaviy bu fikrning davomi sifatida marhamat va rahmdillikni “Alloh deb ichiga nur to‘ldirish”ning asosiy shartlaridan deb hisoblaydi. Chunki inson marhamatli va rahmdil bo‘lgan Allohning tashuvchisi bo‘lgan taqdirda o‘zida marhamat hisini yashata oladi va bu

holda inson Alloh dargohining “mahram” bandasiga aylanadi. Dovud payg‘ambarning “Allohim, insonlarni nega yaratding?” savoliga Alloh Taoloning “Men yashirin xazina edim, bilinishni sevdim, bilinmoq uchun insonlarni yaratdim” javobi bilan aslida Allohning insonga bergan missiyasining mohiyati ochiladi. Hadislarning birida aytilganidek, “Allohning insonni o‘z rahmon suratida yaratishi” uning yovuzliklardan uzoqlashi-shi va xayrixohligi uchun zamin yaratadi. Bu ma’noda ham Ahmad Yassaviy, ham Yunus Emro ayni mavqeda turganining guvohi bo‘lamiz. Ahmad Yassaviy ham, Y.Emrodek Allohga yetishish yo‘lida inson idrokining ahamiyatini yuksak baholaydi, aynan inson idroki vositasi bilan hamma narsani anglab, uni tatbiq yo‘li orqali insonligini ta‘minlashini alohida ta’kidlaydi:

*Qayda ko‘rsang, ko‘ngli sinuq marham bo‘lg‘il.  
Andog‘ mazlum yo‘lda holsa, hamdam bo‘lg‘il.  
Ro‘zi mashhar dargohiga mahram bo‘lg‘il,  
Movumanlik xaloyiqdin qochtim mano.*

(A. Yassaviy)

Ahmad Yassaviyning “Devonu hikmat” asari kabi Y.Emroning “Risolat un-nusxiya”si ham bir axloq kitobi bo‘lishdan tashqari din bilan tasavvufning vahdati hamdir. Shu sababli ham asarlardagi she‘r parchalarida Qur‘on hikmatlarining faqat sanab o‘tilishi emas, balki ularga so‘fiy yondashuv ham bor. Masalan bu jihatning A.Yassaviy ijodida aksi quyidagi-cha:

*Bismilloh deb bayon aylay hikmat aytib,  
Toliblarg‘a durru gavhar sochtim mano.  
Riyozatni qottig‘ tortib, qonlar yutub,  
Men daftari soniy so‘zin ochtim mano.*

(A. Yassaviy)

“Devonu hikmat” boshdan oxirigacha insonning Allohga bo‘lgan muhabbatini oldingi planga olib chiqadi. Shuning uchun ham Ahmad Yassaviy o‘z hikmat xazinasida insonning o‘rni, roli, vazifalaridan so‘z ochish bilan uni doimiy ibodatga chorlaydi. Qizig‘i shundaki, A.Yassaviy ibodatni faqat namoz o‘qish va duo qilishdan iborat deb hisoblamaydi. U riyokorlikni insonlikka xos bo‘lmagan ahvol deb baholaydi. Ro‘za tutish, namoz o‘qishni o‘zining yomon amallariga parda qiluvchilarni imondan uzoq deydi. “Yassaviylik” tariqati Islom dinining qonunlari asosida shakllanganidan A.Yassaviy bu qarashlarda o‘z qanoatlarini diniy hukmlarga uyg‘unlashtiradi va hamma uchun vojib maqomlarni sanab o‘tadi:

*Ro'za tutub, xalq'a riyo qilganlarni,  
Namoz o'qub, tasbeh qo'lg'a olganlarni,  
Shayxmen teyu o'zga bino qo'yganlarni,  
Oxir damda imonidin judo qildim.*

Shoirlarga ko'ra inson ham amaliy, ham o'y-fikri bilan ibodat qiladi. A. Yassaviy faqat bu yo'lni tanlaganlarning ibodati butun bo'ladi deb hisoblaydi. Inson unga berilgan umr vaqtini to'g'ri sarflashi lozim. Agar u ko'nglini Allohga taslim qilsa, uning yo'lida "jon berishga" tayyor bo'lsa asl oshiqqa aylanadi, oxiratiga erishadi:

*Oshiq ermas jononiga jon bermasa,  
Dehqon ermas ketmon chobib non bermasa,  
Munda yig'lab, oxiratda jon bermasa,  
Yo'lda qolg'an bo'yi Xudo olg'oni yo'q.*

yoki

*Ey bexabar, ishq ahlidin bayon so'rma,  
Dard istagil, ishq dardig'a darmon so'rma,  
Oshiq bo'lsang, zohidlardin nishon so'rma,  
Yo'lda qolg'an bo'yi Xudo olg'oni yo'q.*

Bu holatni biz Y.Emro ijodida ham uchratishimiz mumkin. Qizig'i shundaki, A.Yassaviy oshiqlik maqomining muayyan o'lchovlarini yaratadi va buni "otashda yonmoq", "parvona kabi jondan kechmoq", "telba bo'lmoq", "dardga tushmoq", "g'am ila to'lmoq" va boshqa shaklda xarakterlab, fikrning poetik ifodasini ta'minlaydi:

*Ishqqa tushtung, o'tqa tushtung, kuyub o'ldung,  
Parvonadek jondin kechib, axgar bo'ldung,  
Dardga to'ldung, g'amga so'ldung, telba bo'ldung,  
Ishq dardini so'rsang xargiz darmoni yo'q.*

(A.Yassaviy).

Yunus Emroda ham masalaga mana shunday yondashuv bo'lishi A. Yassaviy ijodida o'zini ko'rsatgan so'fiy g'oyalar o'zidan keyingi adabiyotga, adabiy tafakkurga ta'siri bo'lganini va bu adabiyotda an'ana rolini o'ynaganini ko'rsatadi.

*Jonin ishq yo'lina bermagan oshiqmidir?!  
Jahd aylab ul do'stga erishmagan oshiqmidir?!*

(Y.Emro)



Ahmad Yassaviyning hikmatlardan iborat bo'lgan mashhur asarida barcha masalalarga islomiy tafakkur yondashuvida munosabat bor. Alloh, payg'ambar, shariat qoidalari, ibodat yo'llari va b. to'g'risida yozilganlarning tub zamirida, shubhasiz, muqaddas Qur'on bor:

*Meni hikmatlarim farmoni Subhon,  
O'qub bilsang hama ma'noyi Qur'on.*

Shu sababli ham asarda ishq, aql, ruh, nur, jon, badan, nafs va b. masalalar aynan diniy qadriyatlarga uyg'un qalamga olingan.

XII asr Sharq adabiyotining turk-islom tafakkur va qadriyatlari bilan boyitgan Ahmad Yassaviy "Devonu hikmat" asarida vahdati vujud falsafasining talablari ichida borliqning yagonaligidan, Allohga boruvchi yo'lni shartlovchi jihatlardan alohida bahs qiladi. Ahmad Yassaviyda tariqat Allohga boruvchi yo'lning boshlang'ichi hisoblanadi. Tariqat ma'naviy qudrat va ma'naviy holat ustunligining ta'minotidir. Tariqat asosida shaytonni qalbdan quvish, pir bo'lish, Haq Taolodan nasib olib, unga yaqinlashish va h. bor:

*Tariqatg'a shariatsiz kirg'anlarni  
Shayton kelib imonini olur ermish,  
Ushbu yo'lni pirsiz da'vo qilganlarni  
Sarson bo'lub, aro yo'lda qolur ermish.*

*Tariqatga siyosatlig' murshid kerak,  
Ul murshidga e'tiqodlig' murid kerak.  
Xizmat qilib pir rizosin topmoq kerak,  
Mundog' oshiq Haqdin ulush olar ermish.*

*Pir rizosi Haq rizosi bo'lur, do'stlar,  
Haq ta'olo rahmatindin olur, do'stlar,  
Riyozatda sir so'zidin bilur, do'stlar,  
Ondog' qullar Haqqa yovuq bo'lur ermish.*

(A. Yassaviy)

Diqqat bilan qaraganda bu g'oya va fikrlarning Y. Emro ijodida ancha sodda va ta'sirli shakldagi davomini uchratish mumkin.

*Shariat, tariqat yo'ldir  
Haqiqat mevasi undan ichkari...*

*Mumsiz boldir shariat, tortusiz yog'dir tariqat  
Do'st uchun bolni yog'ga ne uchun qorishmaslar...*

*Haqiqat dengizdir, shariat onin kemasi,  
Choqlar kemadan chiqub dengizga tolmadilar.*


*(Yunus Emro)*

Xo'ja Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf adabiyotining ulug' namoyandasi sifatida faqat turk dunyosida emas, barcha musulmon sharqida boy an'analar yaratib, o'zidan keyingi adabiyotning taraqqiyoti va shakllanishida muhim rol o'ynagan.



# TURKIYA ADABIYOTI





## TARIXGA QISQACHA NAZAR

Dunyoning qadimiy aholisi bo'lgan turkiylar katta tarixiy epoxa yaratgan, Miloddan avvalgi VIII asrda Xitoydan Yevropaning o'rtalarigacha katta hududda hukmronlik qilgan Saxa imperiyasi ilk katta turk siyosiy tashkiloti hisoblanadi. Keyinchalik buyuk siyosiy qudrat va kuchga ega bo'lgan Hun imperiyasi (m.a. 318-m.a. 58) turk siyosiy va madaniy tarixida eng muhim o'rinni egallay olgan. Turk tarixchilari Hun imperiyasini Usmonlidan keyin turklar qurgan eng katta va uzoq muddatli davlat deb hisoblashlari tasodif emas. Milodiy III-IV asrlarda Buyuk Turk xoqonligini Tabg'ach hukmronligi boshqargan. Avarlar bu hokimiyatni tugatishsa ham 443-yilda Ko'kturklar Avar hokimiyatini ag'darib, sharqda Koreyadan tortib g'arbdagi Qrimgacha bo'lgan hududlarni o'zida birlashtiruvchi Ko'kturk imperiyasini tuzishgan. VIII asrda To'qqiz O'g'uz-O'n uyg'urlar Buyuk Turk xoqonligining davomchilariga aylanganlar. Bundan keyin xoqonlikni musulmon bo'lgan Qoraxoniylar qo'lga olishadi (940) va uzoq muddat boshqarishadi. Hun imperiyasi parchalangach, katta tarixiy jarayonlar sodir bo'lganini qayd etish lozim. To'g'rirog'i bu parchalanishdan so'ng turklarning turli yo'nalishlarga qaytadan tarqalish jarayoni boshlaydi. Turklar uzoq Hindistonda o'zlarining Kushonlar davlatini tuzadilar. Onado'li va Bolqonlarda joylashishadi. Hozirgi Vengriyaga o'z nomlarini (Hungariya) berishadi. Lekin keyinchalik bu jarayonlar muayyan muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanadi. Ya'ni bu yerda yashagan turklarning hokimiyati vaqtinchalik bo'ladi, Bolqon turklari esa butkul xristianlikni qabul qiladi. Hunlarning G'arb yurishlari vaqtida bir qancha Hun qabilalari avvalgi davrlardagidek asosan Kavkazdan Onado'liga kirib, IV asrdan boshlab Anqara va Adanada yashay boshlashgan. 1071-yilda Saljuqiy hukmdori Sulton Alparslon Malazgird jangida Vizantiya qo'shinini mag'lub etadi va turklarning O'nado'lida xavfsiz yashashlarini ta'minlaydi. Lekin Vizantiya imperiyasi Onado'liga erishish umididan voz kechmasdi. 1176-yilda Vizantiya qo'shinlarining ayanchli mag'lubiyati ularning Onado'liga egalik qilish umidlarini butkul puchga chiqardi. Onado'li Saljuqiy hokimiyati davrida iqtisodiy, madaniy va ilmiy jihatdan yetarlicha rivojlangan edi. 1243-yilda mo'g'ul qo'shinlari Saljuqiy hukmdori II G'iyosiddin Kayxusravning qo'shinini mag'lub qiladi, Onado'lidagi hokimiyat asta-sekin Elxoniylar qo'lga o'ta boshlaydi va 1303-yilda Onado'li Saljuqiy hokimiyati qulaydi. Onado'lidagi turk xonadonining barqaror bo'lishida katta hissasi bo'lgan Ertug'ul G'oziyning o'g'li Usmon G'oziy 1299-yilda Usmonlilar davlatini tuzadi. Oq kigiz ustida taxtga chiqqan Usmon G'oziyning katta hokimiyat tajribasi natijasida o'lkada ilm, san'at rivojlanib, davlatning siyosiy va iqt-

sodiy qudrati ortgan. XIII–XIV asrlarda Usmonli davlatining hududi ham kengayib, 95 ming kvadrat kilometrdan 500 ming kvadrat kilometrga yetgan.

1402-yilda Amir Temur bilan Yildirim Boyazid qo‘shinlarining Anqara atrofidagi jangi Usmonlining mag‘lubiyati bilan yakunlanadi. Yildirim Boyazid asir tushadi, Onado‘li esa kichik beklklarga bo‘linib ketadi. Parchalangan Usmonli II Mehmetxon tomonidan qayta birlashtiriladi. U tufayli 1453-yilda Istanbul zabt etiladi va u bu shaharni Usmonlining poytaxti deb e‘lon qiladi. Keyingi bosqichlarda turklarning Yevropaga muvaffaqiyatli hujumlari boshlanadi. Muvaffaqiyatlarning bir sababi turklarning kuchli qo‘shinga ega ekanligi bo‘lsa, boshqa sababi tomir-larida turk qoni oqayotgan Yevropaning xristianlashgan xalqlarining turklarga bo‘lgan rag‘bati edi.

XVI–XVII asrlar Usmonli tarixining yangi zafarlar davri deb nomlanadi. Bu davrlar turklarning faqatgina muvaffaqiyatli Yevropa yurish-lari bilan emas, Misrdan tortib butun Shimoliy Afrikaning fathi bilan diqqatni jalb etadi. Ortiq Usmonli saltanatining ta‘sir doirasi shimolda Polsha va Rossiyaning markaziy qismiga, janubda taxminan ekvatorga yaqinlashgan edi. Qiziqarli fakt shuki, Usmonli mamlakatining hududi XVII asrda 20 million kvadrat kilometrga yetgan edi. Shu jumladan, dunyo aholisining katta qismi Usmonli imperiyasining tarkibida yashar edi. Bu bosqichda Usmonli turk davlati Oq va Qora dengizlarga ega bo‘lib, o‘zining katta flotini yarata olgan edi. Kiprning zabti esa XVII asrning ikkinchi yarmidagi II Salimxon davriga to‘g‘ri keladi. II Salim Usmonli davlatining manfaat va dunyoga ta‘sir mexanizmini tezlashtirish uchun ikki katta loyihani amalga oshirishga tashabbus ko‘rsatar edi. Loyihalardan biri Turkiston bilan aloqa yaratish uchun Qora dengiz va Kaspiy dengizi o‘rtasida kanal qazish edi. Bu kanal orqali turklar Volga daryosi bilan Rossiyaning shimoliga o‘zlarining harakatlarini ta‘minlay olishardi. Ikkinchi loyiha esa keyinchalik Yevropa davlatlari tomonidan amalga oshirilgan (1869) Suvaysh kanalining inshosi edi. Lekin Usmonli davlati loyihalarning hech birini amalga oshira olmadi.

XVII asr oxirlaridan boshlab Usmonlining zafar tarixida ortga chekinish, boshqacha qilib aytganda to‘xtash va turg‘unlik davri boshlanadi. Bu asrning oxirlarida Yevropa davlatlari bilan Rossiya turli ittifoqlar tuzib, Usmonli davlatini Yevropadan uzoqlashtirishga harakat qilishadi. Endi bu bosqichda Yevropa-Rossiya ittifoqi ba‘zi natijalarga erishadi. Masalan, 1699-yildagi Karlofcha shartnomasiga ko‘ra Usmonli Vengriyani yo‘qotadi, Yevropa davlatlari Usmonliga soliq to‘lamaydi.

XVIII asrning ilk davrlaridan turklar bu muvaffaqiyatsizliklardan qutulishni xohlashsa ham Rossiya-Yevropa ittifoqi kuchli bo‘lgani uchun barcha harakatlar zoye ketadi. 1783-yilda ruslar Qrimni bosib olisha-

di. Aholi Qrimdan Onado'liga ko'cha boshlaydi. 1787-yilda ruslar bilan turklar orasida jang boshlanadi. Ushbu urush 1792-yildagi bitim bilan nihoyasiga yetadi.

XIX asr Usmonli davlatining eng og'ir davri sifatida xarakterlanadi. Turkarga qarshi rus, fransuz, ingliz ittifoqi butun Usmonli davlatini zai-flatish rejalari to'g'risida o'ylar edi. Ushbu ittifoq Yevropada isyon qilish uchun fursat kutayotgan xalqlarga yordam berib, kutilgan isyonlarning vaqtini tezlashtiradi, miqyosini kengaytiradi. Ayni paytda arab mam-lakatlarida ham isyonlar kuzatilayotgan edi.

1839-yilda Turkiyada Tanzimot islohoti va 1856-yilda Islohot farmoni e'lon qilinadi. Bu islohotlarning muayyan moddalariga ko'ra Usmonli imperiyasi xristian aholiga bir qator imtiyozlar beradi, ularning musul-monlardek davlatning siyosiy hayotida ishtirokini ta'minlaydi, lavozim-ga ega bo'lish huquqlarini barpo etadi.


Aslida bu islohotlarning boshqa jihatlarini chetga surib qo'ysak, sanab o'tilgan moddalar usmonli davlatining tobeligidagi davlatlar old-idan chekinish degani edi. 1869-yilda Suvaysh kanali ochiladi. Yevropa xristian davlatlari Sharq manfaatlarining amalga oshishi yo'lida muhim qadamlaridan biri tashlanadi. 1876-yilda II Abdulhamid taxtga chiqadi. Ilk Usmonli konstitutsiyasi e'lon qilinadi. Bu davrda Bolqon xalqlari om-maviy isyon ko'tarishadi. Usmonli davlati duch kelgan vaziyatga bosh egmasa ham vaziyatdan chiqib ketolmaydi. 1912-yilda Bolqon urushida Usmonli davlati 158 tumanni qamrab olgan 33 viloyatni yo'qotganini qayd etishimiz lozim.

# TÜRK DÜNYASI XƏRİTƏSİ





# TÜRKİYƏ XƏRİTƏSİ



# TÜRKLERİN DÜNYASI






1914-yilda Birinchi jahon urushi boshlanadi. Siyosiy ekspertlar va tarixchilar Turkiyaning ushbu yillardagi vaziyatini "betob odam"ga o'xshatishar edi. Turkiya Germaniya bilan ittifoq tuzsa ham urushda mag'lub bo'ladi. Ingliz-fransuz ittifoqi kuchlari Istanbulni bosib olishadi. Bu yillarda turk millati eng og'ir kunlarni boshdan o'tkazadi. Millat qaramlikda yashash, davlat esa tarixdan, xaritadan o'chib ketish xavfi bilan yuzlashadi. I jahon urushida mag'lub bo'lishlariga qaramay, katta qahramonliklar ko'rsatgan Anvar poshshoning qo'shini qurollarni tashlashadi va tarqab ketishadi.

Xalqning va millatning taqdirini o'ylovchilarning barcha umidi Mustafa Kamol Poshshosdan edi. U Izmir bosib olingan kuni kema bilan Istanbuldan Samsunga yo'l oladi. 1919-yil 19-mayda Samsunga keladi va yashirin faoliyatini boshlaydi. Arzurum va Sivasga boradi. Qo'shin guruhlarini tayyorlaydi. Mudros va Sevr bitimlari bo'yicha barcha davlat huquqlarini yo'qotgan Usmonli davlatining turk ko'ngillik kuchlari qayta kurashga qo'shila boshlaydilar. 1920-yil 23-aprelda Anqarada Buyuk Millat Majlisi ochiladi. Otaturk majlisning raisi etib saylanadi, ayni pastda u bosh qo'mondon etib tayinlanadi. Istilochi ingliz, fransuz va yunonlarga qarshi kurash olib boriladi va xalq bu kurashda g'olib bo'ladi. Turkiyaning hozirgi chegaralarini qabul qiluvchi Lozanna sulh bitimi imzolandi. 1923-yil 29-oktyabrda Turkiya Jumhuriyati e'lon qilinadi. Albatta, Turkiya Jumhuriyati turkchilik an'analariga sodiq qolib, bugungacha buyuk tarixiy yo'lni bosib o'tadi va hozirda dunyoning eng demokratik mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Turkiya dunyo mamlakatlari orasida o'zining siyosiy qudrati va iqtisodiy potentsiali bilan birga, madaniy darajasiga ko'ra yuqori o'rinni egallaydi.

## MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY

Turk-musulmon madaniyatining yirik namoyandasi bo'lgan Muhammad Jaloliddin Rumi 30-sentyabr 1207-yilda hozirgi Afg'oniston hududida joylashgan Balx shahrida tavallud topgan. Ba'zi manbalarda esa Mavlononing tavallud sanasi 1200, 1201 va 1203-yil deb ko'rsatiladi. Mavlononing asl ismi Muhammaddir. Jaloliddin uning taxallusidir. Lekin ayni paytda solnomalarda u "Xudovandigor" (hukmdor) nomi bilan yod olinadi. "Bizning afandimiz va og'amiz" ma'nosida ishlatiluvchi Mavlono esa ko'proq avliyolarga, xalq sevgan insonlarga bergan nomdir. Rumi nomiga kelsak, bu nom hayotining katta qismi o'lgan Rumdiyori (Onado'li) bilan bog'liq. Lekin shu bilan birga u Jaloliddin Balxiy va Jaloliddin Ko'naviy nomlari bilan ham tanilgan. Shuni qiziqki, Jaloliddin Rumi "Shams Tabriziy" taxallusi bilan she'rlar yozgan, nodir hollarda buni "Xomush" taxallusi bilan almashgan.



**MAVLONO  
JALOLIDDIN  
RUMIY  
(1207-1273)**

Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad nomi bilan tanilgan Husayn Muhammad o'z davrining eng katta so'fiy olimi sifatida "Sultonul ulamo" (olimlar sultoni) laqabini olgan. Rivoyat qilishlaricha, Muhammad payg'ambar (s.a.v.) Bahouddin Valadning tushiga kirib, bu laqabni bergan ekanlar. Faqat olimlar va ilmning emas, balki ma'naviyat sultoni bo'lgan bu shaxs islomiy ilmlar taraqqiyotida katta xizmat ko'rsatadi, ayniqsa, "Maorif" asarida mutlaq borliqqa, Allohga yetish falsafasining original nazariy muddaolaridan bahs qiladi. O'sha davrning katta olimi bo'lgan Faxriddin Roziy bilan Bahouddin Valad orasida bo'lgan ilm va mazhab raqobati Mavlononing otasini Balxdan ko'chishga (ba'zi manbalarda bu fakt asossiz hisoblanadi) majbur qilgan. Sanasi noma'lum bo'lgan ko'chish vaqti Bahouddin Valad Xorazmshohlar xonadoniga mansub bo'lgan Mo'mina xotun, katta o'g'li Alouddin Muhammad, kichik o'g'li Jaloliddin Muhammad (Rumi) va eng yaqin muridlari bilan birga Balx shahrini tark etishadi. U avval Bag'doddan o'tib, Haj ziyoratiga boradi, bir necha shaharni aylangach, Lorandaga (Turkiyaning Qoraman shahri) boradi. Shahar hokimi Amir Musodan katta hurmat ko'rgan olim 7 yil bu yerda yashaydi. Bahouddin Valad 18 yoshli J.Rumiyni sa-



marqandlik Xo'ja Sharofiddinning qizi Gavhar xonimga uylantiradi. Bu nikohdan J.Rumiyning ikki o'g'li – Sulton Valad va Alouddin dunyoga keladi. Qayd etishimiz lozimki, Gavhar xonimning o'limidan so'ng J.Rumiya Ko'nyada ikkinchi marta Karra xonimga uylanib, undan bir o'g'li va bir qizi dunyoga keladi. Bahouddin Valad Saljuqiy hukmdori Alouddin Kayqubodning taklifi bilan taxminan 1229-yilda oilasi bilan birga Ko'nyaga boradi. Ko'nyaning eng azamatli joyi bo'lgan "Sulton ko'shki"da unga atab madrasa quriladi. Jaloliddin Rumiyning irfoniy qarashlari shakllanishida otasining hissasi katta bo'lgan. U otasidan islomiy ilmlarni chuqur o'rganib, otasining vafotidan so'ng (1231-yil) uning muridi Said Burhoniddin Termiziy Rumiyni shogirdlikka oladi. Buyuk olimlarning mo'tabar ilmiy-diniy manbalari, xususan, otasining "Maorif" nomli asarining ta'siri Jaloliddin Rumiyni davrining irfon sohibiga aylantirib, so'fiylik maqomiga yetkazadi. Lekin Rumiyning Shams Tabriziy bilan uchrashuvi, u bilan yaqin munosabati boshqacha ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir unga kitoblardan boshqa matnablardan ogoh etib, "dunyo sirlari joylashgan makonning eshigi"ni ko'rsatadi. Hatto vaziyat shu darajaga boradiki, Jaloliddin Rumiya muridlariga dars berishdan bosh tortib, o'zi Shams Tabriziyning muridiga aylanadi. "Bu ikki inson o'rtasidagi ruh kelishuvi va ko'ngil uchrashuvi shu darajaga borgandi-ki, Mavlono butun hayotini, hayajonini Shamsning borlig'ida yig'adi, bu hayajon bilan she'r ayta boshlaydi va bu hodisa jahon tasavvuf adabiyotiga Mavlonodek buyuk shoirni tuhfa etadi." Rumiya va Shams Tabriziy o'rtasidagi yaqinlik Rumiyni muridlaridan uzoqlashtirgani uchun muridlarining va bir guruh Ko'nyaya ahlining Shams Tabriziyni g'araz uyg'onishiga sabab bo'ladi. Buni his qilgan Sh.Tabriziy Ko'nyani tark etib, Shomga ko'chadi. Sh.Tabriziyning Ko'nyadan ketishi Mavlononi parishon qilib, uning hayotida g'am-anduhga aylanadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Mavlononing bu holidan muridlari ham parishon bo'ladi, shoirning katta o'g'li Sulton Valad Shamsni qaytarish uchun Shomga yo'l oladi. Sulton Valadning iltimosi va Mavlononing g'amli maktublarining ta'siri natijasida Sh.Tabriziy Ko'nyaga qaytadi. Lekin yana Sh.Tabriziy dushmanlarining paydo bo'lishi va bularning boshida Rumiyning kichik o'g'li Alouddinning borligi uni butkul Ko'nyadan ketishiga majbur qiladi. J.Rumiya buyuk irfon egasi Sh.Tabriziyni izlab topish, u bilan ko'rishish umidida ikki marta Shomga borsa ham, izlanishlari samarasiz bo'lib, uni qayta ko'rolmaydi. Rivoyatga ko'ra Sh.Tabriziyni J.Rumiyning kichik o'g'li 7 nafarlik to'da bilan o'ldirib (1247-yil) quduqqa tashlaydi, bundan xabar topgan Sulton Valad kechasi uning mayitini quduqdan olib chiqib, eski Mavlono madrasasi yaqiniga dafn qiladi. Qayd etishimiz kerakki, Sulton Valad bu hodisani insonlardan yashiradi, faqat umrining oxirida Sh.Tabriziyning qabri qayerda ekanligi to'g'risida sirni ochadi. J.Rumiyning Shams Tabriziydan

ayrilishi uning hayotida g'amga aylanadi va bu hol shoirning ijodida qayg'uli misralar shaklida namoyon bo'ladi:

*Ey Tabrizlik Shams,  
Dinim ishqdir manim.  
Sening yuzingni ko'rdim, ko'rgali  
Manim dinim sening yuzingdan o'qinur, ey suyukli  
Kel, ne bo'lar ortiq, kel  
"Kel" demoqdan qutqar mani.*

Bundan keyin J. Rumiy o'z umrini unga yaqin bo'lgan ikki muridi Salohiddin Zarkub va Chalabiy Husamiddinga bag'ishlaydi, Shams Tabriziyda ko'rgan "ilohiy hollarni" ularda izlaydi. Qayd etishimiz lozimki, J. Rumiy bilan Chalabiy Husamiddin o'rtasidagi ruhiy yaqinlik kuchliroq bo'lib, unga "Masnaviy" yozish g'oyasini aynan Chalabiy Husamiddin bergan va "Masnaviy"ni ham uning o'zi qog'ozga tushirgan.

Jaloliddin Rumiy umrining 40 yildan ortig'ini Ko'nyada yashab o'tkazgan, Sharqning eng katta mutafakkir olimlar bilan shu yerda ko'rishib, dunyoni hayratga solgan asarlarini shu yerda yozgan. Mavlono Jaloliddin Rumiy 1273-yilda Ko'nyada vafot etadi. Vaqti bilan Saljuqiy hukmdori Alouddin Kayqubodning Rumiyning otasi Bahouddin Valadga in'om qilgan Ko'nya qal'asining sharqidagi saroyga, "Gul bog'i"da otasining yoniga dafn qilingan.

## IJODI

Mavlono Jaloliddin Rumiy XIII asr turk tasavvuf adabiyotining eng buyuk shoiridir. Asarlarini fors tilida yozgan dohiy so'z ustasining ijodida turkiycha namunalar son jihatdan juz'iy o'rin egallaydi. Lekin Mavlono Jaloliddin Rumiy ijodida ona tilida yozgan she'rlar oz bo'lsa ham u yashagan hududda XIII asrning ilk turk tilli shoiri sifatida tanilgan. Rumiy san'atida bu holatning sababi Onado'lida fors tilining badiiy til sifatida joy egallagani edi. Ma'lumki, Qoramano'g'li Mammadbekning "Bu kundan e'tiboran devon, dargoh va bargohda, majlis va maydonda turkchadan boshqa til ishlatilmaydi" degan 1277-yil 15-maydagi farmoni bu holatni turk tili foydasiga hal qiladi, natijada turk tilida yozish an'anasi shakllanadi. Masalan, Onado'lida boshqa ijodkorlar bilan birga J. Rumiyning o'g'li Sulton Valadning (1226–1312) ijodida turk tilli poeziya namunalarining paydo bo'lishi buning natijasi sifatida baholanadi. Sulton Valad ijodiga tegishli quyidagi parcha turk tilida yozilgan she'rning sodda va go'zalligini yana bir marta tasdiqlaydi:

*Sanin yuzing quyoshdir, yo'qsa oydir  
Jonim oldi ko'zing, daxi na eydir  
Manim ikki ko'zim, bilgil jonimsan,  
Mani jonsiz qo'yasan sen bu keydir.  
Ko'zimdin chiqma kim bu uy sanindir.  
Tomosha chun bari kel kim ko'rarsan,  
Necha ko'zim yoshi irmog'i soydir  
Valad yo'qsildir sansiz bu jahonda  
Seni topdi, bu ko'zdan bayu boydir.*

Mavlononing turli vaqtlarda yozgan "Masnaviy", "Devonu kabir", "Fihi Mahif", "Majolisi Sabo" va "Maktubot" asarlari nafaqat turk, balki sharq va g'arb xalqlari adabiyotining bezagiga aylangan, dunyo adabiy-badiiy fikrining, insonlarda yuksak darajadagi ma'naviyatning shakllanishida muhim rol o'ynagan.

J. Rumiyl din olimidir. Uning asarlarining asosiy manbayi Qur'on va Hazrat Payg'ambar kalomlaridir. Bu borada J. Rumiyl mana shunday deb yozadi:

*"Bu jon bu tanda ekan men Qur'onning quliman,  
Men tanlangan Muhammadning oyog'inin to'ziman".*

J. Rumiyl buyuk so'fiy va tasavvuf ahlidir. Samoviylik alohida tariqat yo'li sifatida uning ijodida muhim o'rin egallaydi. Rumiylga ko'ra samo etuvchi haqiqat martabasiga yetadi. Samo etmoq go'zal ovoz eshitish va zavq olish deganidir. So'fiylar samoni zikr qilishni nurlanishning manbayi deb qabul qilishadi. Mavlonodan avval Suhraberd, G'azzoliy, Junayd Bag'dodiy samo haqida so'z yuritganlar. Samoviy raqslar Hazrati Payg'ambar zamonida ham bo'lganini ta'kidlashadi. Hadislarda qayd etilishicha Hazrati Payg'ambar majlisida raqs etuvchi habashlarni ko'rganda ularga e'tiroz bildirmagan.

Mavlono Jaloliddin Rumiyl lirikasi butunlikda insonni Alloh ishqiga, Allohga yetishga qanotlantiruvchi irfoniy tafakkur manbayidir. U Allohga yetishning yagona yo'li o'laroq his va muhabbatni oldinga olib chiqadi. Uning san'ati doim ishq to'lqinlaridan sel bo'lib, insonni og'ushiga olgan ko'z yoshi kabi sokin va top-toza dengizga o'xshaydi. Bu san'atning markazida vahdati vujud, Islom panteizm falsafasi turadi:

*Yo'qlikla qovush, borliqni, dunyoni qo'y.  
Vuslat esa yo'lin oxiri uqboni qo'y.  
Tanri esa murodin, o'ylama chuqur,  
Dunyoni unut, moddani, ma'noni qo'y.*



“Devoni Kabir” Mavlono Rumiy ijodida muhim o‘rin egallaydi. Devonda she‘rlar aruzning 24 qolib yoki o‘lchovida alifbo bo‘yicha yozilgan. Qizig‘i shundaki, devondagi g‘azal, qasida, ruboiy va boshqa she‘r janrlari Shams Tabriziy taxallusi bilan yozilgan, shuning uchun “Devoni Kabir” ayni paytda “Devoni Shams Tabriziy” deb ham nomlanadi.

“Mavlono yer yuziga samolardan yuborilgan ruhlarning takror samolarga qaytishi uchun boshlangan ko‘ngil jangining sardoridir” (N.S.Banorli). Shuning uchun ham Rumiy asarlarida (shaklidan qat‘i nazar) ilohiy borliqning azamatli poetik taqdimotda yarim emas, butun xususiyatni ifodalaydi.

*Sevgilim, butun jahondan sirlidir,  
Tuyg‘udan har turli zandan sirlidir.  
Oshikor ko‘nglimdadir bir oy kabi  
Jon va tandir, tan va jondan sirlidir.*

*Yashirin sirlarni so‘ylamakda jahonin,  
U yoniq ne, u yoniq ne, u yoniq ne.  
Ne nedir? Ul bo‘sasi go‘zal jononin,  
O‘pgani ne, o‘pgani ne, o‘pgani ne!*

Mavlono Rumiy ijodida asosiy yo‘l haqiqatni bilish va idrokni unga taslim etishdir. Buyuk turk shoiri Y. Emroning – bir man bordir manda mandan ichari – so‘zlaridan avvalroq yozilgan Mavlononing quyidagi so‘zlari buni yana bir bor tasdiqlaydi:

*Men menda emas, senda-da ham sen, ham men,  
Men ham meningman, ham sening, sen ham mening.  
Bir shunday g‘arib holga bu kun keldim-ki,  
Sen menmisan, bilmayman, menmi senman?*

Olti jilddan, 25618 baytdan iborat “Masnaviy” asari J. Rumiy san‘atining cho‘qqisi hisoblanadi. Asarning yozilish sanasi Shams Tabriziyning o‘limidan (1247) keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Bu asar haq va Alloh yo‘lini idrok etishga, insonlarning qalbida Alloh ishq, otashini uyg‘otishga va b. xizmat ko‘rsatuvchi muqaddas fikrlar majmuasidir. “Masnaviy”ning I jildiga Mavlono Jaloliddin Rumiy yozgan so‘z boshida kitobning asl mohiyati nimadan iborat ekanligini izohlaydi va bu asarning ruhiy-ma‘naviy, irfoniy jihatlarini haqida shunday yozadi: “Bu “Masnaviy” kitobidir. Bu kitob din usullari usulining usuli, Haq taologa va Haqiqatga yetishish sirlarining kashshofi... U misoli bir chirog‘dondirki, undagi porloq chiroqning partavi va shu‘lasi bomdodlar nuridan nurliroqdir. Unda shunday buloqlar bordirki, bu yo‘l va maromning shogirdlari uni Salsabil deb ata-

ganlar. Balandmaqom ashoblar va karomat sohiblari nazdida bu ko'ngil bog'i eng go'zal, eng barakatli manzildir. Yaxshilar undan taomlanadilar, o'z chanqoqlarini qondiradilar, havo va havasning bandidan ozod bo'lganlar undan shodmon va bahravardir. Bu kitob Misr sarzaminidagi Nil daryosi baayni Haq hukmiga bo'ysunganlar va sabrni pesha qilganlar uchun sharob; firavniylar va kofirlar uchun hasrat va nadomatdir. Chunchi, Haq taolo buyurmushdir: "Ko'plarni yo'ldan ozdiradi va ko'plarni haq yo'liga boshlaydi". Bu kitob ruhiy bemorlar uchun shifo, g'ussalarni ketkizuvchi, rozlar hamrozi, sirlar kashshofi, Qur'oniy haqiqatlarni ochguvchi, rizq-ro'zlarini, inchunin, ma'naviy rizqni ham kengaytiruvchi, axloqni har turli qabohat va palidlikdan asraguvchidir. Bu kitob kitobat qilguvchi farishtalar va oliy martabali xat bitguvchi malaklarning qo'li bilan. Ular tuban kimsalarning kitobning asror va haqiqatlariga yovuq kelmagiga izn bermaydi."

"Masnaviy"ning I jildidagi ilk 18 baytini J. Rumi o'zi yozgan, qolgan 25600 baytni esa uning muridi Husamiddin Chalabiy qog'ozga tushirgan. Shubhasiz, asar manbayi Qur'oni Karimdir. Lekin Rumi H. Sanoiy, F. Attor va b. kabi Sharqning eng mutafakkir faylasuflarining ham ijodlaridan bahralangan. Asar manzuma hikoyalar shaklidir. Muallif maqsadli ravishda hikoya ichida hikoya berib, maqsadini to'liq yetkazib berishni ta'minlaydi. Asarda tariqat bilimlari asosiy o'rinni egallasa ham realizmga tayangan hayotiy hodisalarga ham muayyan joy berilgan. Shuning uchun "Masnaviy"da payg'ambarlar, avliyolar va boshqa mo'tabarlar bilan birga astrologiya, tibbiyot, falsafa va b. fanlar, shu jumladan, aniq hodisalar haqida ma'lumotlar ham uchraydi. "Masnaviy"ning I jildining boshlang'ichidagi "Nayning ayriliqdan shikoyati" vahdatdan ajralgan vujudning asliga qaytishi yo'lidagi fikr tizimini aks ettiradi. Bu parchada Nayning nolali ovozida ayriliqdan shikoyat motivi aks etadi. Nay o'z shikoyatini "...qamishzordan kesilgan kunimdan beri g'amimning chekchegarasi yo'q. Har kuni ingrab yig'layman. Ammo quloq osguvchilar meni tushuna olmaydi. Meni ayriliq iltirobini chekuvchilar, hassos insonlar anglay oladi" deb izohlaydi.

*Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay,  
Ayriliqlardan shikoyat aylagay.  
Kim nayistondan meni to kesdilar,  
Hasratimdan mard-ayol dod etdilar.*

*Tan va jon ham jonu tan mastur emas,  
Kimsaga jon ko'rmagi dastur emas.  
Nay sadosi otashedur bod emas,  
Kimda otash yo'q – u odamzod emas.*

Ko'rinib turganidek, bu yerda Nay komil insonning simvoli sifatida taqdim etilmoqda. Ya'ni Nay ilk vatani bo'lgan qamishzordan uzoqqa ketgani uchun faryod qiladi. Ortiq u ruh olamidan chetlashgan, ilma-teshik qilinib, moddiy olamning a'zosi bo'lgan, lekin o'z azaliy dunyosiga, Allohiga qovushishni istagan insonning komil obraziga aylanadi, uning ruhiy istaklarini bayon qiladi. Biz Nay ovozidagi otashni ishq otashi sifatida idrok qilamiz. Qalblarda yonuvchi tangri ishqidan so'z yurituvchi hikoyalarda bu hol turli shakllarda, lekin bir g'oyaga xizmat shaklida diqqatni jalb etadi. Bulardan biri ham "Cho'ponning Parvardigorga munojoti va Muso alayhissalomning buni eshitib g'azablanishi" deb nomlanadi. Bu yerda avvalo Allohni izlayotgan, qalbi nurga to'la bo'lgan, o'z muhabbatini Tangriga bayon etgan bandaning – haq yo'lchisining Yaratganga murojaati beriladi:

*Ey Xudojon, qaydasan, kelgin,*

*Sening g'uloming bo'lay, chorug'ingni tikayin,  
Sochlaringni tarayin, kiyimlaringni yuvayin,  
Bitlaringni tozalayin, Senga sut olib kelayin,  
Qo'llaringni o'pib, oyoqlaringni uqalayin,  
O'rningni yig'ishtirib qo'yayin,  
Barcha echkilarim Senga fido...*

Bu so'zlarni eshitgan Muso payg'ambar "Allohga bunday so'zlar bilan duo qilmaydilar" deb cho'ponni kufrda ayblaydi. Muso payg'ambarning so'zlari cho'ponni qayg'uga solib, sahroga ketib qolishiga sabab bo'ladi:

*Yoqasin yirtib, cho'pon oh-fig'on etdi,  
Yuz burdi biyobonga, bir onda ko'zdan itdi.*

Keyingi qismlarda Haq taoloning Muso payg'ambarga "cho'ponning so'zlariga emas, qalbida yongan Tangri otashiga boq" hukmi bilan murojaati banda timsolida o'z aslidan uzilib, lekin asliga qaytishni istaganlarning istagi aks etiladi. Bu istak xuddi dengizda otilib, suvsizlikda tipirchilagan baliqning dengizga yetish hasratining ta'sirini bag'ishlaydi.

"Masnaviy"da inson Yaratganning shoh asari hisoblanadi. Bu yerda malaklar bilan insonlarning farqi mana shunday taqdim etiladi: "Malaklarni yaratgan Alloh ularga aql berdi, insonlarga esa ham aql, ham shahvat berdi. Kimning aqli shahvatidan ustun bo'lsa, u malaklardan ham ustun turadi". Umuman olganda, J. Rumiya insonning kimligi, uning borlig'i, ruhiy-masnaviy qadriyatlarining ilohiy mohiyati butun ijodida diqqat markazida turadi. O'g'li Bahouddinga atab yozgan hikmatda bunga yana bir bor guvoh bo'lamiz:

*Agar doim jannatda bo'lishni istasang, do'st  
bo'l, yuragingda hech kimga kin saqlama!  
Ko'p narsa so'rama va hech kimdan ham ortiq bo'lma!  
Malham va mum kabi bo'l!  
Igna kabi bo'lma!  
Agar hech kimdan senga yomonlik  
kelishini istasang,  
Yomon so'zlovchi,  
Yomon o'rgatuvchi,  
Yomon o'ylovchi bo'lma!  
Chunki bir odamni do'stlik bilan xotirlasang,  
Har zamon sevinch ichida bo'lursan.  
O'sha sevinch jannatning o'zidir.  
Agar kimnidir dushmanlik ila xotirlasang,  
Har doim qayg'u ichida bo'lasan,  
O'sha qayg'u jahannamning o'zidir.  
Do'stlaringni xotirlaganing dam ko'ngil bog'ingda  
gullar ochar, atirgul va rayhonlar ila to'lar.  
Dushmanlaringni xotirlagan vaqting ko'ngil bog'ing  
tikan va ilonlar ila to'lar, yuraging siqilar,  
ichingga pajmurdalik kelar.  
Barcha payg'ambarlar va valiyalar shunday qildilar,  
Ichlaridagi xislatni yuzaga chiqardilar.  
Xalq ularning bu go'zal xususiyatiga maftun bo'ldi,  
hamma ko'ngil xotirjamligi bilan ularning  
ummati va muridi bo'ldi.*

Mavlononing fikricha, inson Allohning kitobidir. U boshdan oyoq ma'no dengizidir. Inson gavhardir, har narsaning g'oyasi, maqsadi insondir. Shu tufayli aql ham, fikr ham insonga tobe sanaladi. J. Rumiy ta'limotiga ko'ra inson sir dunyosidir. U yashirin olamning zarrasi, shu jumladan tashuvchisidir. Shular bilan birga J. Rumiy "Masnaviy"da insonga individual yondashadi. Uning shakllanishida muhitning, jamiyatning va tarbiyaning ahamiyati va ta'siri to'g'risida qiziqarli fikrlar aytadi. Bu fikrlarda inson tarbiyasining asosidagi bilim, iroda, sabr, aql va b.komponentlarning ahamiyat va vojibligi yuqori o'rin egallaydi. Ma'lumki, nazariy jihatdan xoh pedagogik, xoh psixologik jihatdan irodaning tarbiya uchun kerakli faktorga aylanishi butkul isbotlangan. J. Rumiy Barcha xayrixoh ish va amallarining tamalida iroda faktorining turishini tasdiqlaydi. Mavlono agar insonda iroda bo'lganida, u gunoh qilmas, xatolardan uzoq bo'ladi deb hisoblaydi. Shuning uchun har bir ilmni, o'rgatish va o'rganish uchun mustahkam iroda talab qilinadi. J. Rumiy mulohazalarida bu fikr

shunday shakllanadi: "Iroda bo'lmaganida, muallimlar nima uchun talabalarni sabr bilan tarbiya qilmoqqa urinar edilar? Nima uchun turli usullarga qo'l urardilar?"

Jaloliddin Rumi "Masnaviy" da aqlning turli darajalaridan so'z ochadi. U quyosh kabi porloq, otash kabi yongan aqlni jamiyat uchun foydali, muvozanatdan chiqqan aql esa zararli deb hisoblaydi. Qizig'i shundaki, J. Rumi inson aqlining nuqsonli jihatlari shahvat, ochko'zlik, yuksak mavqelar ortidan yugurish va b. haqidagi fikrlarini ham alohida taqdim etadi. Muallif quyosh kabi, otash kabi porloq bo'lgan aqlni inson ruhining kuychisi, haq oshig'ining yo'l yo'ldoshi, nafsni esa hayvoniy hisning timsoli sifatida tavsiflaydi. Lekin asarda insonning oliy taqdimoti bilan birga, sabablar olamida uning shartli emas, haqiqiy formada faoliyat xususiyati ham aks etadi. Faqat bularga amal qilish bilan inson badan zindonda mahbus bo'lgan ruhning xalosiga noil bo'ladi. "Masnaviy" da xoh moddiy, xoh ma'naviy olamning o'ziga xos ranglari bor. Bu yerda hayot ham, inson ham, o'lim ham, qabr ham zohiriy emas, botiniy bo'yoqlarga ko'ra farqlanadi. J. Rumi irfon sohibi sifatida Allohning qudrati oldida hamma narsani hech deb hisoblaydi. Shuning uchun ham insonlarni dunyo go'zalliklari (ne'matlari) oldida emas, Alloh qudrati oldida sajda qilishga chaqiradi. "Mozorlikdagi xazina", "Ochko'z chumchuq", "Eng keksa kim?" va boshqa ko'pgina hikoyalar ma'naviyatning moddiyatdan ustunligining targ'ibi ta'siridadir. Oilasini boqishda qiyinchilikka duch kelgan, ochlikdan mashaqqat chekkan, farzandlari yoniga har oqshom qo'li bo'sh qaytgan Mustafoning muqaddas va xayrixoh Xizirni tushida ko'rgandan so'ng qiyinchiliklardan qutulishga umidi ortadi. Tushida unga aytilgan manzildan ishorali qog'oz topadi va qabristonga boradi. Lekin nafs unda qabristonlikdagi xazinaning uzoqroqda joylashgani haqida firak uyg'otadi. Mustaf o'sha mo'ljalga otgan o'q tushgan joyni qazisa ham xazinani topmaydi. Tushiga qayta kirgan Xizir xazina uzoqda emas, aynan uning oyoqlari ostida ekanligini aytadi. Ko'rib turganimizdek, bu yerda nafsning, inson xislatidagi ochko'zlikning tarki odat maqomi so'fiyona tarzda o'ziga joy topgan.

"Masnaviy" da tavba, sabr, iroda, zikr, duo, nafs va boshqa o'nlab masalalarning asl ma'naviy idroki o'z o'rnini egallaydi. Alloh taoloning inson tafakkuridagi lomakonlik konsepsiyasida konkret makon tushunchasiga savol kabi javob mana shunday topiladi: "Uning zahmat sifatleri qayerda bo'lsa, uning o'zi ham o'sha yerdadir. Kuch, quvvat, axloq sofliqi, poklik, tushunish, his qilish, tafakkur qayerda bo'lsa, u ham o'sha yerdadir".

Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" si irfon kitobidir. Rumi o'zi bu kitobni "ulug' Payg'ambarimizning javohirlar bilan, haqiqatlar bilan, sirlar bilan, bilimlar bilan to'la ma'no dengizidagi orolga" o'xshatishi tasodif

emas. Mavlononing ta'бири bilan aytganda "Masnaviy"ni o'qish emas, yashash kerak". Chindan ham "Masnaviy" g'oyalari bilan yashash insonni ilohiy hikmatlardan xabardor etadi, haqiqat martabasiga ko'taradi.

*Ey oshiq! O'zingga boq, insonlarning ishiga aralashma,*

*"o buni der", "bu buni der" deyaverma!*

*"Falonchi menga tikon deydi",*

*"falonchi yosuman deydi" fikriga cho'mma!*

*Har so'zga, har kimga ahamiyat berma, gul atri bermoqqa urin.*

*Falonchi senga kofir deydi, boshqasi din olimi deydi...*

*Voz kech bulardan, ko'zingni och!*

*Alloh senga basirat ko'zi, ko'ngil ko'zi beribdir.*

*Shunday ko'z bermishki,*

*Sening boqishlaringga qarshi Jabroilning*

*qanoti shunday sajda qilar.*

*Shakl va suratga boqma!*

*Ey Haq oshig'i, xushvaqt bo'!*

*Seni yuksaklarga uchiruvchi qanotlaring bo'lgach,*

*insonlardan senga ne g'am kel olar?*

*Ey o'zining nuqsonlarini ko'rmay, boshqa insonlar*

*yaxshisiga, yomoniga boqqan bechora!*

*Alloh senga madadkor bo'lsin.*

Mavlono Jaloliddin Rumiyl aslida bunday g'oyalarni boshqa asarlarda ham "Fihi ma fihi", "Majolisi Saboda"da aks ettirib, Tangri, inson, dunyo, oxirat va boshqalar haqida fikrlarni ilgari surgan. "Fihi ma fihi" ("Ichingdagi ichingdadir") 70 dan ortiq suhbat joy olgan mansur asardir. Bu asar katta ehtimol bilan Rumiyning o'g'li Sulton Valad va muridi Husamiddin Chalabiy tomonidan qalamga olingan. Diniy, falsafiy, axloqiy qarashlar bu asarning markazida turadi.

"Majolisi Sabo" asari ham g'oya bo'yicha "Fihi Mafih"ga o'xshaydi. Bu yerda ham diniy, falsafiy va axloqiy qarashlar pand-nasihatchilik shaklida berilgan.

Hayotidan ma'lumki, J. Rumiyl butun Onado'li hududida katta nufuzga ega bo'lgan, insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirilishida ahamiyatli darajada xizmat ko'rsatgan. Shu tufayli ham hudud aholisi har doim uning atrofida yig'ilib, ehtiyojlarini qondirishda yordam berishini iltimos qilishgan. Shuning natijasida J. Rumiyl insonlarga yordam berish maqsadida ularning turmush tarzini, ma'naviy va moddiy tuyg'ularini o'zida aks ettiruvchi ko'plab maktublar yozgan. Manbalardan ma'lumki, J. Rumiyl kunda 10-12 maktub yozgan, bu maktublarda insonlarning hayotidagi turmush tarzi aks etgan. Lekin J. Rumiyl yozgan maktubla-

rining ko'p qismi topilmagan. Ammo topilgan maktublar keyinchalik yig'ilib "Maktubot" nomi bilan asar sifatida chop etilgan. Qayd etishimiz kerakki, sharq olamida Beruniy va Ibn Sino o'rtasida misli ko'rilmagan maktublashish namunalari mavjud. Faqat J.Rumiyning maktublari ikki tomonlama maktublashish emas. Bu maktublar, asosan, xalq vaziyati bo'yicha mansabdorlarga, yaqin qarindoshlarga, oila a'zolariga, farzandlariga va boshqalarga yozilgan maktublardir. Rumiyning maktublari umumiy emas, konkret xarakterga ega. Va har maktubning sarlavhasi uning mazmuni bilan bevosita bog'lanadi:

1) Kuchi yetmaydigan odamning soliq qarzidan ozod etish uchun iltimosi (17-maktub);

2) Ishsiz qolgan erkakning farzandi uchun ish talab etishi (18-maktub);

3) Moli qo'ldan zulm bilan tortib olingan odamning vaziyati haqida tavsiya (62-maktub);

4) O'zidan najot so'ragan gunohkor uchun kechirilishini so'rashi (37-maktub);

5) Bog' sotib olgan Salohiddinning beradigan 500 dirham qarzi uchun yordam so'rashi (83-maktub) va h.

Umuman olganda maktublar ko'p bo'lganidek u yerda ko'tarilgan masalalar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan, maktublarning birida davlat xodimi Faxriddin Aliga murojaat qilib, Shamsiddin Yavtoshning beva ayoli bilan nikohini kechiktirmasligini iltimos qiladi. Boshqa maktubda yana Faxriddin Aliga jiddiy murojaat qilib, darveshlarning muammolari, ularga qilinayotgan zulmdan shikoyat qiladi. Boshqa maktubda "Ayollarning iftixori" nomi bilan tanilgan ayolga murojaat qiladi. Bu maktubda ayol "malak suratli", "go'zal axloqli", "Allohni bilguvchi", "podshoh naslidan" va boshqa so'zlar bilan madh etiladi.

Rumiyning "Maktubot" asarida oila a'zolariga yozilgan maktublar oila-maishat muammolarini aks ettirish, axloq, tarbiya tavsiyalari jihatdan ahamiyat kasb etadi. Masalan, maktublardan birida Shomda tahsil olayotgan o'g'illari Bahouddin Sulton Valad va Alouddinga murojaat qilib, ota va bobolarining vasiyatlariga amal qilishlarini maslahat qiladi.

O'g'li Sulton Valadga yozilgan boshqa maktubining mag'zida esa Sulton Valadning turmush o'rtog'i Fotima xotun bilan bo'lgan oila ziddiyatlariga nuqta qo'yish maqsadi yotadi, xususan, bu yerda u kelini Fotima xotunga bo'lgan rag'batiga urg'u beradi. Maktubda J.Rumi maktubning yozilish sababi va maqsadining nimadan iborat ekanligini mana shunday ifodalaydi: "O'g'limizning nikohida katta sinov sifatida bizga omonat topshirilgan podshohimizning qizi xotiriga rioya qilishingiz uchun bir necha satr yozildi... Farzandimdan tilagim shudir. Otasidan hech nimani yashirmasin, kimdan ranjisa aytsin. Agar aziz o'g'limiz Bahouddin sizni



ranjitishga mayl etsa, chindan ko'nglimni, muhabbatimni undan olgum. Salomiga ham alik olmayman. Janozamga ham kelishini istamayman”.

Ma'lumki, J. Rumiyning kichik o'g'li Alouddin bilan Shams Tabriziy o'rtasida ixtilof bo'lgan va buning natijasida Alouddin bir muddat shahardan chetda yashagan. O'g'liga yozgan maktubda Rumiyning ortga qaytishini, otasining qalbini shod etishini so'raydi: “Aziz o'g'lim otasidan salomni o'qisin... Alloh xotiriga otangning ko'nglini rozi etmoq istasang, uyingni unutmam”.

“Forscha yozishimga parvo qilmang, aslim turkdir” degan Jaloliddin Rumiyning ijodida turkcha yozilgan namunalarning soni haddan ortiq oz bo'lsa ham ahamiyati katta. Buning sababi, avvalo, J. Rumiyning Onado'lida turk she'riyatining tamalini qo'yish bilan bu tilda she'r yozish an'anasini shakllantirgan. J. Rumiyning bir tomondan forscha she'rlarida turk so'zlari ishlatilgan bo'lsa, boshqa tomondan bir baytning yarmini yoki butun shaklda turkcha berish bilan go'zal mulammolar yaratadi va fikrning poetik ifodasiga erishadi. Masalan:

*Men yoru bevafoyam bar men jafu qilar sen,  
Gar tu maro nogahi men hod seni tilarman*

Yoki:

*Sevdoyi ruhi Layli shud hasili ma xayli,  
Majnun begi va vayli o'ldum yana devona.*

J. Rumiyning turk tilining san'at imkonlarini faqat forscha she'rlarida turk so'zlari ishlatish bilan yoki mulammolar yaratish bilan emas, ayni paytda to'liq turkcha she'rlar yozish bilan ham namoyish ettiradi va tasdiqlaydi. To'g'ri, adabiyot tarixlarida shoirning turkcha she'r yozishi va turkcha she'rlarning soni to'g'risida bir-biridan farq qiluvchi munozarali fikrlar aks etsa ham, J. Rumiyning turk tilidagi bir necha she'ri borligi ma'lum. Manbalarda J. Rumiyning ushbu she'rlari umrining so'nggi yillarida yozgani haqida ma'lumot keltiriladi. Bu namunalar XIII asr Onado'li turk lahjasining xususiyatlarini o'zida aks ettirish jihatdan xarakterlidir. Shuning uchun ham Rumiyning turkcha she'rlari bir tomondan bi tilning poetik imkonlari, boshqa tomondan esa yashagan hududining timsolida XIII asr turk tilining leksik-semantik manzarasi to'g'risida katta tasavvur uyg'otadi:

*Yo'qsil esang sabr aylagil,  
Sar boy esang xayr aylagil,  
Har bir holga shukr aylagil,  
Haq do'ndirar holga holga.*

Shubhasiz, J. Rumiyning turkcha yozgan she'rlarida ham irfoniy qarashlariga suyanib, haq yo'li izlanishlarida davom etgan:



*Dunyo uning, oxirat uning,  
Ne'mat uning, mehnat uning.  
Tamu uning, jannat uning,  
Haqqa manga na mol kerak,  
Tilagim ayu hol kerak.  
Na qul kerak, na qol kerak,  
O'zini bilgan qulga.*

Diqqat qilganimizda samolarga yuksalib haqqiga sohib chiqqan, haq yo'lovchilarini dargohga chorlagan shoir sasining turk tarzidagi ifodasining o'quvchiga ta'siri eng yuksak saviyada yuzaga chiqadi.

*Chalabiydir g'amu dirlik,  
Chalabga kel, ne kezarsan?  
Chalabiy qullarin istar,  
Chalabiyni ne sonirsan?  
Ne o'g'urdur (saodat), ne o'g'urdur  
Chalab og'zida qig'irmoq (chaqirmoq).  
Qulog'in och, qulog'in och o'la kim anda to'larsan.*

J. Rumiyl turkchanning go'zal namunasi bo'lgan boshqa she'rida ham fikrlarini sodda, ayni paytda chuqur poetik tafakkurda ifodalaydi:

*Agar kaydir qarindosh, yo'qsa yovuz,  
Uzun yo'lda sana budur kilovuz,  
Agar Totsan va gar Rumsan va gar Turk,  
Zaboniy bizga bananra biyomuz.*

Aruzning turkchaga tatbiqida J. Rumiyning xizmatlari katta ekanligini qayd etish lozim. "Masnaviy" asarini aruzning ramal bahrida (failatun, failatun, failun) yozish bilan Onado'li va atrofdagi mintaqalarda yangi an'ana shakllantirgan J. Rumiyl turkcha she'rlarini ham bu bahrning talblarida qalamga olgan.

J. Rumiyl Sharq adabiyotini o'z ta'sirida saqlagan, devon adabiyotining yangi zaminda rivojiga yo'nalish bergan yo'l boshchidir. O'z g'oyalari bilan Gyoteni hayron qoldirgan, dialektik uslub nazariyasini ishlashda Hegelga ta'sir ko'rsatgan, Mahatma Gandining dunyoqarashining shakllanishida katta rol o'ynagan J. Rumiyl avliyo maqomini qozonib, muqaddas insonlar qatorida turishi, ijodi esa u yashagan davrdan bugungacha (800 yil davomida) Sharq va G'arb dunyosida muhabbat va zavq manbayi bo'lgani tasodif emas.

## SULTON VALAD

Sulton Valad turk adabiyotining taniqli siymolaridan biridir. U 1226-yilda Qoramanda (Loranda) tavallud topgan. Asl ismi Bahoiddin Muhammad Valad bo'lgan bu shaxs XIII asr turk adabi-yotida shoir, olim va oriflik cho'qqisiga yetgan Mavlono Jaloliddin Rumiyning katta o'g'lidir. Jaloliddin Rumiyni unga o'z otasi Bahoiddin Valadning ismini bergan. Lekin ba'zi manbalarda uning ismi Bahoiddin Ahmad ekanligi ham qayd etiladi. Sulton Valadning kichik yoshlardan boshlab ta'lim va tarbiyasi bilan otasi shug'ullangan. Aynan otasining muallimligi tufayli u arab tilini o'rganib, fiqhga doir eng mashhur asarlarni o'qiy olgan.



SULTON VALAD  
(1226-1312)

Jaloliddin Rumiyni Sulton Valadning diniy ilmlarni yanada chuqurroq egalashi uchun uni kichik o'g'li Alouddin bilan birga Shomga yuboradi. Uning ilmiy, falsafiy, diniy va adabiy qarashlarining tamalida otasi Mavlono'ning ta'limi tursa ham, u davrining turli olimlaridan ma'rifat va irfoni o'rganib, ularning ilmiy va diniy qarashlaridan foydalanadi. Xususan, Sulton Valadning Burhoniddin Termiziy, Shams Tabriziy, Chalabi Husamid-din, Shayx Karimiddin va b. oriflar atrofida bo'lishi, ulardan ko'pgina matblarni o'rganishi fikrlarini mukammallikka yetkazadi. Manbalarda qayd etilishicha, Sulton Valad Shams Tabriziyning ta'siriga tushishdan avval Burhoniddin Termiziyga bog'lanadi, undan tariqatchilikning sir-larini o'rganadi, Termiziyning o'limidan so'ng (1241) taxminan besh yil qaytadan otasidan ma'rifat darsi oladi. 1244-1247-yillarda esa u otasi bilan birga Shams Tabriziy ta'sirida bo'ladi. Shams Tabriziyning "g'oyib bo'lishi" dan so'ng Sulton Valad otasining maslahati bilan Shayx Salohid-dinni o'ziga murshid etib tanlaydi. J. Rumiyning o'g'liga "bundan keyin u podshohlar podshohi Salohiddinga quloq sol, Shamsiddin (Shams Ta-briziy) budir" deyishi S. Valadning murid mas'uliyatini orttiradi va uni murshidi Shayx Salohiddinga yurakdan bog'laydi. Sulton Valad otasining maslahati bilan Shayx Salohiddinning qizi Fotima xotun bilan turmush quradi. 1263-yildan 1284-yilgacha 21 yil muddatda Mavlono'ning muri-di Husamidin Chalabiy Sulton Valadga murshidlik qiladi. Husamidin Chalabiyning o'limidan so'ng u Shayx Karimiddinning shogirdi bo'ladi. Lekin davrining irfon sohiblaridan dars olsa ham Sulton Valad otasining yo'lini - Mavlono'likni asosiy yo'l deb tanlab, uni davom ettiradi, otasi-niing ilmiy-diniy zavq va qarashlariga hurmat bilan yondashadi. Sulton Valad 1312-yilda Ko'nyada vafot etadi.

## IJODI

Klassik turk adabiyotida J. Rumiyaning ilk davomchilaridan bo'lgan Sulton Valad bir devon, uch masnaviy va "Maorif" nomli mansur asar muallifi sifatida mashhurdir. U asarlarini arab, fors, turk va yunon tillarida yozgan. Lekin ijodida forscha namunalar katta ustunlikni tashkil etadi. Shu bilan birga tadqiqotchilarning hisoblariga ko'ra Sulton Valadning turkcha 14 g'azali, 238 bayti, arabcha 8 manzumi, 3 ruboiyi, 220 bayti, yunoncha esa 66 bayti bor. Ijodida forscha namunalarining ko'p qismi, shubhasiz, o'sha davrdagi adabiy jarayonda fors tilining yetakchi bo'lishi bilan bog'liq. Qayd etishimiz kerakki, Sulton Valad asosan fors tilida yozgan bo'lsa ham uning turk tiliga rag'batini katta bo'lgan. O'zigacha turk adabiyotida turkcha she'rlar yozgan J. Rumiyaning va Sayyod Hamza bilan muqoyasada ijodidagi turkcha namunalarining soni jihatdan Sulton Valad oldingi qatorda turadi.

Quyidagi g'azal va masnaviy Sulton Valadning turk tili nafosatidan foydalanish orqali go'zal poetik namunalar yaratganini tasdiqlaydi:

(g'azal)

*Sening yuzing quyoshdir, yo'qsa oydir,  
Jonim oldi, ko'ngil dag'i ne aytur?*

*Mening ikki ko'zim, bilgil, jonimsan;  
Meni jonsiz qoldirding, bil, bu qaytur.*

*Ko'zimdan chiqmagin, bu yer seningdir,  
Mening ko'zim senga yaxshi saroydir.*

*Ne o'qdir bu, ne o'qki tegdi sendin,  
Mening bo'ynim sundirdi; endi yoydir.*

*Tomosho-chun buyon kel va ko'rgil sen,  
Netay: ko'zim yoshi daryoyu soydir.*

*Bu kun ishqing o'tidan bahra oldik,  
Biz(g)a qayg'u emas, gar qoru loydir.*

*Valad yo'qsil edi sensiz jahonda,  
Seni topdi, demakki endi boydir.*

*Tangri dedi: "Sayru o'ldim" Musoga,  
"O'z do'stin kishi bu singari istaya".*

*Muso dedi: "Aslo sendan sayruluk  
Sen Xoliqsan, senga qonden sayruluk".*

*Yana dedi: "Sayru o'ldim kelmadim,  
Dedigim so'zi hisoba olmadung".*

*Muso dedi: "Bu sirri anglamazem  
Maqsadun nedur bu so'zden bilmazam".*

*Tangri dedi: "Sayru o'ldi bir valim,  
Dunyo ichra sayruluk tortdi dalim.*

*Kim ani ko'ra meni ko'rmushdir o'l,  
Kim ani so'ra meni so'rmishdir o'l*

*Meni anda, ani mende ko'runuz,  
Meni andan, ani mendan so'runuz."*

Klassik turk adabiyotida Mavlono ta'siri Sulton Valad bilan boshlaydi. J.Rumiy Sulton Valadning ruh otasi ham bo'lgan. O'zi ham ta'kidlaganidek, "otasi bergan bilimdan va valiylikdan boshqa Valadning na ma'lumoti, na valiyligi bo'lgan". Shu sababli J. Rumiy g'oyalarining bari Sulton Valad uchun muhim bo'lib, ruhiy-ma'naviy ko'priikka aylangan, otasining san'ati xoh shakl, xoh mazmun, xoh g'oya jihatdan uning ijodida namuna rolini o'ynagan. Shuning uchun ham shoirning devoni bilan J.Rumiyning devoni, "Valadnoma", "Rubobnoma" va "Intihonoma" masnaviyllari bilan J.Rumiyning "Masnaviy"si, va nihoyat, "Maorif" nomli asari bilan J.Rumiyning "Fihi ma fihi" asari o'rtasida yaqinlikni kuzatish mumkin. Masalan, "Valadnoma" masnaviysi bilan bog'liq Sulton Valad aytgan – "Bu kitobim butkul Qur'onning ma'nosi va siridir. Kim chin dildan ko'ngil bog'lasa, u Qur'on ma'nosi oldida o'zini unutadi. Bu masnaviydagi so'zlar faqat pand-nasihatdir" fikrlari bilan J. Rumiyning "Bu "Masnaviy" kitobidir. Bu kitob din usullari usulining usuli, Haq taologa va Haqiqatga yetishish sirlarining kashshofi... Balandmaqom ashoblar va karomat sohiblari nazdida bu ko'ngil bog'i eng go'zal, eng barakatli manzildir. Yaxshilar undan taomlanadilar, o'z chanqoqlarini qondiradilar, havo va havasning bandidan ozod bo'lganlar undan shodmon va bahravardir." kabi fikrlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy yaqinlikni

ko'rmaslikning iloji yo'q.

Sulton Valad avvalo devon shoiridir. Shubhasiz, shoirning devon tuzishida J. Rumiyning katta ta'siri bo'lgan. S. Valadning ilk masnaviysi bo'lgan "Valadnoma"sidan olingan quyidagi so'zlar bu fikrni tasdiqlaydi: "Mavlono turli vaznlarda devonlar yaratgan, ruboiylar aytgan. Men ham unga moslashib, devon tuzdim". Fors, arab, turk va rum tillarida turli she'r janrlaridan g'azal, qasida, ruboiy, qit'a, tarjiband, tarkibband, musammadan iborat devonida asosiy o'rinni forscha namunalari egallaydi. Devonda fors tilida bo'lgan she'rlar 826 g'azal, 32 qasida, 9 qit'a, 10 tarjiband, 23 musamma, 454 ruboiylar iborat. S. Valad devonida g'azal va ruboiylar ustunlikni tashkil etadi. Bu ham ilk navbatda sharq she'riy an'anasiga bog'liqlikning natijasi sifatida tavsiflanishi mumkin. Qizig'i shundaki, S. Valad g'azallarining katta qismini J. Rumiyning g'azallariga nazira sifatida yozgan. Bu g'azallarning barchasida Rumiyning maxsus uslub diqqatini jalb etadi. "She'rlarida ko'p hollarda qofiyaga unchalar ahamiyat bermasligi, fikr ifodasida konkretlikka amal qilishi va b. hollar Sulton Valad san'atining o'ziga xos xususiyatlaridandir." Sulton Valad bir shoir sifatida mas'uliyatni his qilib, san'atda o'zini "nuqsonli deb bilmagan". Buning uchun shoirning quyidagi fikrlariga nazar solish kifoya qiladi: "Aytgan so'zlarim ochiq va oydindir. Ma'nolar dengizidan minglab marvarid olib chiqdim va xalq uchun teshdim. So'zlarim jon kabidir. Barcha she'rlarim yangi va tekisdir. Valadning so'z jon! Valad so'zida xato va yanglishlik yo'qdir. Ey, Valad! Bundan so'ng ham chekinmay, hormay so'zla, zeo nazming va nasring go'zaldir". Bu so'zlar adabiy-nazariy fikr sifatida valadshunoslikning dastlabki tamali bo'lish bilan birga uning san'atiga to'g'ri baho berish jihatdan ham muhimdir.

Sulton Valad poeziyasi ko'proq irfoniy tafakkur ma'nosida haqning sirlarini "ochish va anglatish"ga xizmat qiladi. Tabiiyki, bu yondashuv va o'ziga xos badiiy ifoda tarzi uning ruboiylarini ham chetlab o'tmaydi. Sulton Valad ko'pgina ruboiylari bilan Sharq lirik-falsafiy fikrining rivojida o'ziga xos rol o'ynagan. Sulton Valadga ko'ra, inson ruh va jism degan

آن داری آن گهر بدانی آن را  
در حال لدا کنی نن وهم جان را  
ز الیس رحیم و نقر کالر برهسی  
در بر گبری صفان الرحمن را

ikki borliqdan iborat. Ruh ilohiy, jism esa moddiydir. Shuning uchun ham inson ruh tashuvchisi bo'lishi lozim, nafsiga g'olib kelib, Parvardigorga qovushishi kerak:

**Tarjimasi:** Ey, do'st! Agar uni bilsang va uni bag'ringga bossang, o'sha

چون دلبر مای تو و اندر خور ما  
آن به که چو جان در آیی اندر بر ما  
گر چرخ وزمین را ببرد سبیل فنا  
تواند برد عشق تو از سر ما

onda badaningni va joningni fido etarsan. Toshga bosilgan shaytondan va inkor etuvchi nafsingdan xalos bo'lib, Rahmon sifatlariga burkanarsan.

**Tarjimasi:** sen bizning suyuqlimiz va bizga loyiq bo'lganing uchun ruh kabi ko'nglimizga hokimliging yaxshiroqdir. Naqadar yo'qlik seli yerni, ko'kni vayron qilsa ham sening ishqingni boshimizdan ololmas.

Sulton Valad bu dunyo saodatini insonning Allohga ko'ngil berishi-

عشق آمد و کرد مست و دلنماد مرا  
وز بندگی زمانی آزاد مرا  
چون دید که من بیش حسش مردم  
بنواخت بلطف خویش و جان داد مرا

da, zamon quli emas, Tangri "quli"ga aylanishida, qalbini Haq nuri bilan to'ldirishida ko'radi. "Ilohiy may"ni ichib "mast" bo'lishni shoir inson hayotining "yangi" bosqichi deb baholaydi:

بر هر خاکی که سر نهیم مسجود اوست  
در هر جهدی که می کنیم معبود اوست  
ذکر گل و بلبل و سماع و شاهد  
زین جمله مرا در دو جهان مقصود اوست

**Tarjimasi:** Ishq keldi, meni mast ayladi va quvontirdi, zamonaga qullikdan meni xalos qildi. Sening go'zalliging oldida ekanligimni ko'rgach, shafqat bilan meni erkaladi va menga qayta hayot baxsh ayladi.

**Tarjimasi:** Bosh qo'ygan har tuproq ustida sajda qiluvchi Udir. Ibo-dat qiluvchi Udir. Gul, bulbul, samo va go'zalni xotirlamasman. Har ikki dunyoda maqsadim Udir.

"Valadnoma" Sulton Valad yozgan 3 masnaviyning birinchisidir. Shoir masnaviyning debochasida asarni "Masnaviyi Valad" deb nomlagan. Lekin adabiyot olamida Valadnoma nomi bilan tanilgan ushbu asar shoir-

ning ilk masnaviyi bo'lgani va "ibtidoiy" so'zi bilan boshlangani uchun "Ibtidonoma" deb ham ataladi. Asar 1291-yil mart-iyun oylarida nasr va nazm shaklida yozilgan. Fors tilida yozilgan bu asar 9007 baytdan va 165 sarlavhadan iborat. Qayd etishimiz lozimki, ushbu baytlarning 180 tasi arabcha, 76 tasi turkcha va 23 tasi rumcha yozilgan. "Valadnoma" Sanoiyning "Ilohiynoma"sining vazniga moslab, xafif bahrida (foilotun, mafoilun, foilun) qalamga olingan.

"Valadnoma"ni "Qur'onning ma'nosi va siri" hisoblagan, o'z o'quvchisiga murojaatida "Uni chin dildan o'qi va angla" degan shoirning asosiy maqsadi insonlarni ma'nolar dengizidan chiqargan marvaridlar bilan tanishtirish va makonsiz dunyoning pardasiz ko'ngil yuzini ko'rsatish bilan ularni "mo'ljalga" yo'naltirish edi. Shoir asarda bobosi Bahoiddin Valad, Shams Tabriziy, J.Rumiy, Shayx Salohiddin, Chalabi Husamiddin, Karimiddin va b. tarixiy shaxslardan so'z ochib, ularning hayot hikoyalaridan bahs etgan. Bir qator istisnolarni hisobga olmaganda "Valadnoma" to'liq irfoniy fikrlarni o'zida aks ettirib, muammo yagona bo'lgan borliq prinsipida o'z yechimini topgan.

Sulton Valad ikkinchi masnaviyi "Rubobnoma"ni 1301-yil aprel-avgust oylarida yozgan. Forscha yozilgan bu asar 8124 baytdan va debocha bilan birga 106 sarlavhadan iborat. Asarda baytlarning aksariyati fors tilida bo'lsa ham, bu baytlardan 162 tasi turk, 36 tasi arab va 22 tasi rum tilida yozilgan. Turk tadqiqotlarining ba'zilar (masalan, Veys Deyirmanchay) ushbu baytlarni vazn va qofiya jihatdan nuqsonli deb hisoblaydilar, fors tilidagi baytlar bilan qiyoslaganda mukammal emasligini ko'rsatishadi. Sulton bu asarga aniq nom qo'ymaganini ham qayd etishimiz joiz. Shuning uchun ham asar "Rubobnoma" va "Masnaviy Ma'naviy" nomlari bilan tanilgan. "Masnaviy Ma'naviy" nomining asarga berilishi ikki sababdan kelib chiqadi. Birinchidan Sulton Valadning Rumiy merosiga uning "Masnaviy" asariga bog'liqligi, "Masnaviy" bahrida (ramal) unga o'xshash asar yozishi, ikkinchidan esa debochada "Rubobnoma"ning "Masnaviy Ma'naviy" so'zlari bilan boshlashi tadqiqotchilarga asar nomining mana shunday nomlanishiga asos bo'lgan. Boshqa tomondan asarning debochasida "rubobning yig'lab-ingrashi"dan so'z boruvchi baytlarning bo'lishi, asarning rubob bilan davom etishi bu masnaviyga "Rubobnoma" deb nom berilishiga sabab bo'lgan. Asar ko'proq "Rubobnoma" nomi bilan tanilib, tadqiq etilgan.

"Rubobnoma" nasr va nazm bilan yozilgan asardir. "Mening nazmim va nasrim hikmatning yuksak maqomidir" deb maqtangan shoir "Rubobnoma"da so'fiy hikmatlaridan bahs etib, insonlarning Alloh oldidagi burchlari, itoat va amallari to'g'risida pand-nasihati beradi. Sulton Valad asarda insonlarning Qur'on atrofida birlashishlarini, Qur'on

yog'dusida Haq tomonga borishlarini insonlikning vojib sharti sifatida ilgari suradi. Shuning uchun ham Sulton Valad asarni o'qigan insonning osmonga Alloh tomonga ko'tarilishini ishonch bilan ta'kidlaydi. Asarda Haq sirlarini bayon etgan shoir Alloh amriga, Payg'ambar qonunlariga amal qilishni inson uchun vojib bo'lishi bilan birga, insonning sharaf va layoqati deb hisoblaydi, har kimni bu sharofatdan uzoqlashmaslikka chorlaydi. Ibodatdan tortib amalgacha har ishning ahamiyati to'g'risida fikrlarning joy olishi "Rubobnoma"da irfoniy fikrlarning yetakchiligini tasdiqlaydi. Qizig'i shundaki, Sulton Valad asarda Shams Tabriziy va Mavlono sarguzashtlari to'g'risidagi ma'lumotga joy berib, alohida qismlarda ikki mashhur shaxsga bo'lgan kuchli rag'bati va muhabbatini izhor qilgan.

Sulton Valadning uchinchi, ayni paytda so'nggi masnaviysi "Intihonoma" deb nomlanadi. Nasr va nazmdan iborat bo'lgan "Intihonoma" taxminan 1300–1312-yillar orasida fors tilida yozilgan. "Intihonoma" avvalgi ikki asarning davomi sifatida yozilsa ham ulardan farqli o'laroq bu masnaviyda turkcha, arabcha va rumcha baytlar yo'q. Boshqa masnaviyларdek bu asarga ham S.Valad nomi berilgan. So'nggi masnaviy bo'lgani uchun asar "Intihonoma" deb nomlanadi. Muallif asarni "Rubobnoma"ning bahriga uyg'un (ramal) yozgan. Masnaviydagi baytlarning soniga kelsak, baytlarning soni Tehron nusxasida 7085, Ko'nya nusxasida 7000, Istanbul nusxasida esa 8313 ekanligini aytishimiz kerak.

Sulton Valad kitobning yozilish sababini shunday deydi: "Jimjilik olamida mashg'ul ekanligimda Haq-taolodan pand-nasihatlar bilan mashg'ul bo'l va insonlarga foyda ber degan nido keldi". Alloh amrini bajarishni o'ziga sharaf deb bilgan shoir "Valadnoma" va "Rubobnoma"da joy olgan hikmatlarni izohlab, fikrlariga Qur'on yog'dusini tushiradi. Sulton Valadga ko'ra insonni yomon amallardan, tuhmat va bo'htondan asrovchi, xalqni to'g'ri yo'lga boshlovchi muqaddas Qur'onidir. Shuning uchun shoir Qur'onning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini yuksak baholab, muqaddas kitobning yog'dusiga ergashishni maslahat beradi. Bular bilan birga asarda boshqa dinlarga ham hurmat bilan yondashilgan. Allohning kitobi sifatida Qur'on bilan birga Injil va Zaburdan ham foydalanish ahamiyatli ekanligi ko'rsatilgan: "Bizning masnaviyimiz Vahdat do'konidir. U rahmat ishidagi rahmatdir. U yerda ko'ngil ahlining sirlari ko'p. Qur'on, Injil, Zabur sirlarining izohidir. Uni bilgan har kim Haq tomonga boradi".

Asarda mavlonolik, samoviylik va boshqalar bo'yicha ahamiyatli masalalar to'g'risida so'z boradi. Shams Tabriziy va Mavlono aloqalaridan, ta'sir doirasidan bahs qiluvchi bandlar ham qiziqish uyg'otadi. Ma'lumki, J.Rumiy Ko'nyada Shams tabriziy bilan ilk uchrashuvidan so'ng (1244)



undan ta'sirlanadi, "dunyo sirlari joylashgan makon eshigi"ni unda ko'rgani uchun Shamsning muridiga aylanadi. Bu hol Mavlono muridlarini va Ko'nya ahlining bir qismini g'azablantirgani uchun Sh.Tabriziy Ko'nyani tark etib, Shomga ko'chishga majbur bo'ladi. Shams Tabriziyning Shomga ko'chib ketishi Mavltoni tushkunlikka tushiradi va buni sezgan Sulton Valad otasining hasratiga nuqta qo'yish uchun Shomga yo'l oladi. Sulton Valadning iltimosi va Mavltoning g'am to'la maktablari Shams Tabriziyi qaytadan Ko'nyaga qaytishiga majbur qiladi. Lekin yana muridlarning hasadini ko'rgan Shams Tabriziy Ko'nyadan ketishga qaror qiladi. J. Rumi Shams Tabriziyi izlab topish umidi bilan Shomga borsa ham u bilan uchrasha olmaydi, noumid bo'lib, Ko'nyaga qaytadi. Rivoyatga ko'ra, J.Rumiyning kichik o'g'li Alouddin 7 nafarlik guruh bilan Shams Tabriziyi Ko'nyada o'ldirib, quduqqa tashlashgan. Buni bilib qolgan Sulton Valad Shams Tabriziyning jasadini quduqdan chiqaradi, uni Mavlono madrasasi yoniga dafn qiladi va bu sirni umrining oxirigacha hech kimga aytmaydi. Sulton Valad Shams Tabriziy bilan otasi J.Rumi o'rtasidagi munosabatlarga bevosita guvoh bo'lgani, undan irfon ilmi olgani va unga kuchli mehr qo'ygani uchun boshqa masnaviy-lari bilan bir qatorda "Intihonoma"da ham Mavlono va Shams Tabriziy aloqalarini qalamga olgan. Bu yondashuv badiiy jihatdan emas, ayni paytda tarixiylik nuqtayi nazaridan ham muhim hisoblanadi.

Sulton Valadning so'fiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi ahamiyatli asarlaridan yana biri "Maorif"dir. Bu asar mansur shaklda yozilgan va 56 bo'limdan iborat. Asarda muammoning qo'yilishi shariat, tariqat va b. ichida yechimini topgan. To'g'rirog'i, Sulton Valad "Valadnoma", "Rubobnoma" va "Intihonoma" masnaviy-larida masalalarga qaysi tomondan yondashgan bo'lsa, "Maorif" asarida ham xuddi shu yo'lni davom ettirib, mavzuga qaytgan. Qayd qilish joizki, "Maorif" asari shakl, mazmun va g'oya jihatdan ko'proq J.Rumiyning "Fifi Mahif" asariga o'xshaydi. Shu sababli 1954-yilda Eronda "Maorif" asarini J.Rumiyning "Fifi Mahif" asarining ikkinchi jildi sifatida chop qilgan bo'lishlari mumkin.

"Maorif" asarida barcha masalalarga Alloh va unga muhabbat matnida munosabat bildiriladi. Shuning uchun ham asarning boblarida shariat qoidalari va bu qoidalarga amal faqat diniy jihatdan sharhlanadi, har ikki olamda amaliga qarab, insonga Allohning muhabbat va marhamat ko'rsatishi ta'kidlanadi, ro'za tutish, Hajga borish va b. savoblar sanab o'tiladi. Amalning zohiriy va botiniy tomonlari haqida yetarlicha sababli izohlar yoziladi. Masalan, asarning I fasli boshlanishidagi bandga nazar solaylik: "Biri: "Asil bo'lgan narsa amaldir" dedi. Bu xususda so'zlanuvchi so'z bundan iborat emas. Amalni haqqi bilan anglatish uchun bir kimsaning yuzaga chiqqan amali qanday anglashing mumkin?"

Sen amal deb namoz o'qishni, ro'za tutishni, hajga borishni, tunlari uxlamay yig'lab ingrashni va parhez qilishni tushunasan. Holbuki bu-larning hech biri amal emas. Bular shunchaki amal sabablaridir. Ham-masini bajarganing zamon bularning senda ta'siri bo'lishi mumkin. Ana o'shanda sen ibodat qilgan va boringdan boshqacha bo'lishing mumkin.

Qur'onda: Namoz seni gunohdan, gunoh qilishdan, yomonlikdan nuq-son va qusurlardan, isyondan asraydi, poklaydi, deb buyurilgan. Mana shularni qilmaganing va bulardan tozalanganing amaldir. Agar o'zingni ulardan qutqarmasang, namoz o'qimagan hisoblanasan. Bular uchun Payg'ambar sallallahu alayhi vasallam namoz o'qigan odamga: "Namoz o'qimading, tur, namoz o'qi" (H.) deb buyurdi. Shundan so'ng u odam turib namoz o'qidi. Yana: "Namoz o'qimading, tur, namoz o'qi" deb buyurdi. U odam yana turib, namoz o'qidi. Payg'ambar bu safar ham "namoz o'qimading" dedi va nihoyat: "Qalb huzuri bo'lmay namoz o'qish to'g'ri emas" (H.) deb buyurdi.

U holda aytilgan bu ruku, sajda va qiyomni bajarish bilan haqiqiy amal bajarilgan sanalmaydi. Ya'ni dinda belgilangan bu tashqi harakatlarni bajarish bilan amalni bajargan bo'lmaydi."

Shoir "Intihonoma"dagidek, bu asarda ham Allohning amriga itoat qilib, "o'git va nasihatlariga joy ajratgan holda insonlarga foydasi tekkan".

Sulton Valad "Maorif" asarida haq o'laroq bu dunyoni imtihon dunyosi deb hisoblaydi. Va bu dunyoda bo'lgan so'ngsiz jonli-jonsiz farqlarni shakl farqi sifatida qabul qilsa ham, jismoniy (shakl) farqi keskin farq hisoblanadi. Bu ma'noda insonlar o'rtasidagi farqni ham jismiga ko'ra (badan) emas, ruhiga qarab muayyanlashtiradi.

Sulton Valadning "Maorif" asarida ilmga va ilm odamlariga munosabatda tutgan mavqeyi diqqatni jalb etadi. U ilmni boyish, mavqega ega bo'lish, nimagadir erishish uchun o'rganganlarni tanqid etadi, lekin ilmni Alloh rizosi uchun o'rganib foydaga yo'naltirganlarni asl olim va Alloh suygan banda sifatida ta'riflaydi. Sulton Valadning hayoti bilan tanishganimizda u Burhoniddin Termiziy, Chalabiy Husamiddin, Shams Tabriziy, J. Rumi, Shayx Karimiddin, Shayx Salohiddin kabi davrining mashhur orif shaxslari bilan aloqada bo'lgani, ulardan ko'p narsalarni o'rgangani ma'lum bo'ladi. Bu jihatdan otasi Jaloliddin Rumiyning va Shams Tabriziyning Sulton Valadga ta'sirini alohida qayd etish lozim. Manbalarda yozilishicha, Rumiyning Shams Tabriziy ta'siriga tushishidan so'ng beixtiyor bu ta'sir Sulton Valadni ham chetlab o'tmagan, u ham Shams Tabriziyning majlislarida ishtirok etgan. Sulton Valadning eng ko'p qatnashgan majlislaridan biri esa samo majlislari bo'lgan va muayyan vaqtdan so'ng uning bu majlislarga rahbarlik qilishi ham tarixiy fakt sifatida tasdiqlanadi. Umuman olganda samoviylik shoir nazarida

nafsdan, kufrdan, jismdan uzoqlashib, ruhga yaqinlashishdir. Samoviylik ruhoniy tuyg' u va hislarning amalda tatbiqidir. U ishq va vajdga borishdir. Sulton Valad Samoni eng oliy maqom deb hisoblaydi. Bu maqom Alloh maqomi – o'limsizlik maqomidir. Shuning uchun ham Alloh maqomida inson moddiy jihatdan nafaqat o'zini unutadi, balki butkul "yo'q" bo'ladi. Ko'rinib turganidek, Sulton valad "Maorif" asarida badiiy-falsafiy ifoda tarzida tasavvuf asosli fikrlarni izoh qilgan va buni "ma'nolar dengizidan chiqqan durdonalar" shaklida xalqqa yetkazgan.

Sulton Valadning bir devon, uch masnaviy va bir mansur asaridan tashqari ilmiy manbalarda "Ishqнома" va "Risolayi e'tiqod" nomli asarlari bo'lgani haqida ham ma'lumot beriladi. Lekin ushbu asarlarning Sulton Valadga tegishli ekanligi hali aniqlanmagan.

## YUNUS EMRO



**YUNUS EMRO**  
(1240(41)-1320)

XIII asr turk soʻfiy sheʼriyati rivojida muhim rol oʻynagan, xalq adabiyoti zaminida goʻzal ijodiy merosini ya-ratgan Yunus Emro umumturkiy adabiyot va mada-niyat tarixining yirik siymolaridan biridir. Afsuski, uning hayoti (qisman ijodi) aniq ilmiy faktlar asosi-da emas, koʻproq taxmin va rivoyatlarga asosan oʻrganilgan. Ammo shoir haqidagi rivoyat va afsonalarning oʻzida muayyan haqiqat tasvirlari borligini nazarga olish zarur.

Yunus Emro 1240 (41)-yilda Sivrihasar yaqinida joylashgan Sarikoʻyda tavallud topgan.

Boshqa ehtimolga koʻra, Yunus Emro mansub boʻlgan oila Oʻnadoʻliga Xurosondan koʻchib kelgan. Ushbu oila avval Qaramanda joylashganda

Yunus Emro shu yerda tugʻiladi, soʻng esa butun oila Sakarya hududida joylashgan Sarikoʻyga koʻchishadi. Mavlono Jaloliddin Rumi, Hoji Bektosh Valining Onadoʻliga aynan Xuroson tomonlardan koʻchganini nazarga olsak, Yunus Emro ajdodining ham Onadoʻlining tasavvuf markazi sifatida shakllanishi uchun bu yerga kelganliklari yangi versiya sifatida taxmin qilinishi mumkin. Lekin Hoji Bektosh Vali "Viloyatnoma"da Y.Emroning Sarikoʻyda tugʻilganini qayd etadi. Y. Emro J. Rumi, Ahmad Faqih, Kiyikli Bobo, Oʻrxon Gʻoziy va boshqa shaxslarning zamondoshi boʻlgan, baʼzi joylarda ular haqida soʻz yuritgan.

Yunus Emroning nima ish bilan shugʻullangani, qaysi kasb egasi boʻlgani haqida turli fikrlar mavjud. Baʼzi manbalar uning dehqonchilik, chorvachilik bilan, baʼzi manbalar esa oʻtinchilik bilan shugʻullanganini tasdiqlaydi. Rivoyatga koʻra, Yunus Emro Shayx Topdiq Emroning dargohiga borib, oʻtinchilikka tayinlanadi va 40 yil oʻsha yerda oʻtin tashiydi. Turkman qalandari hisoblangan Yunus Emro muayyan vaqtlar sayohatlarda boʻlgan, oʻz soʻfiy qarashlarini targʻib qilgan. U XII asrda A.Yassaviyning Oʻrta Osiyoda yoygan tasavvuf gʻoyalari taxminan 150 yildan soʻng Old Osiyoda tarqatgan.

Soʻfiy shoir uzoq muddat sayohatda boʻlgan. Baʼzi fikrlarga koʻra Yunus Emroni sayohatga Topdiq Emro tashviq qilgan. Yunus Emro Koʻnyada madrasa taʼlimi olgan. Uning bu yerda J. Rumi bilan uchrashganligi taxmin qilinadi. Buni Y.Emroning "Mavlono majlisida soz bilan ishrat boʻldi" misrasi ham tasdiqlaydi. Toʻgʻri, baʼzi manbalar Y.Emroning tahsil olmaganini, savodsiz boʻlganini daʼvo qiladi. Hazrat Muhammadning tahsilsizligi bilan solishtirib, sheʼrlarining unga Allohning vahiyi yoʻli

bilan kelganini bildirib, Emro muqaddasligini tasdiqlagan bo'lishadi. Y. Emroning oila hayoti haqida ham qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Xususan, uning Shayx Topdiq Emroning qiziga uylangani, bir versiyada farzandi bo'lmagani, boshqasida esa bir o'g'li va bir qizi bo'lgani bildiriladi. Y.Emro devoniga kiritilgan she'rda uning ikki farzandi bo'lganligi quyidagicha o'z tasdig'ini topgan: "Bunda yana berding bizga o'g'ilni, qizni juft halol".

Yunus Emroning bir o'g'li va biri bo'lgani she'rdan ham ma'lum bo'ladi, hatto o'g'lining ismi Ismoil ekanligi ham manbalarda o'z aksini topadi. Bu yerda bir maqomga ham nazar solish kerak. Qaraman beklarining Y.Emroga bo'lgan cheksiz mehri natijasida unga bu viloyatda yer beriladi va ushbu yer ulushi Y.Emro vafotidan so'ng o'g'liga qoladi. Y.Emro 1320(21)-yilda vafot etgan. Hozirda uning mozori Eskishaharda (hozirgi Yunus Emro qishlog'i). Qayd etish lozimki, Onado'lida Y.Emroning 10 joyda qabri bor. Ushbu qabrlar Qaramanda, Bursada, Ispartada, Ko'nyada, Sivasda, Arzurumda va b. joylarda joylashgan. Lekin uning Eskishaharda – Sariko'yda (hozirgi Yunus Emro) joylashgan qabri unga tegishli haqiqiy qabr ekanligi tasdiqlangan. Bu qabr Istiqlol urushi davrida yunonlar tomonidan vayron qilingan bo'lsa ham 1948-yilda uning qabri atrofida ba'zi ishlar qilinishi uchun hukumatga murojaat qilingan. Muayyan barpo ishlaridan so'ng 6-may 1949-yilda tantanavor tarzda uning tovuti qayta qurilgan maqbara kompleksiga qo'yilgan.

## IJODI

Yunus Emro Old Osiyoda turk tasavvuf adabiyotining ilk yirik namoyandasi. O'rta Osiyoda Ahmad Yassaviy bilan boshlangan xalq tasavvuf she'riyati hozirgi Turkiya qismida uning siymosida nafaqat davom ettirilgan, balki yuksak cho'qqiga yetkazilib, adabiy maktab darajasiga olib chiqilgan. Y.Emro ijodining asosiy qismi turk milliy she'riyat vazni bo'lgan hijoda (qisman aruzda) yozilgan. Bu vaznda u ko'proq to'rtliklardan foydalangan. U she'rlarini, asosan, Oshiq Yunus, Yunus Emrom, Yunus Amro, Miskin Yunus, Darvesh Yunus, Keksa Yunus, Yunus, Qul Yunus ismlari bilan yozgan. Yunus Emroning adabiyot olamiga hijo va aruz vanida yozilgan "Devon"i, masnaviy shaklida yozilgan "Risolatun Nus'hiya" ("Nasihathnoma") nomli didaktik asari ma'lum. Lekin boshqa ma'lumotga ko'ra, Yunus Emroning 2 ming she'ri yo'qolib, bugungi kungacha yetib kelmagan. Bu to'g'risida shunday rivoyat bor: 3 ming she'rdan iborat daftar Mulla Qosim ismli odamning qo'liga tushadi, she'rlarni o'qiy boshlagan bu shaxs boshqa aqidaga mansub bo'lgani uchun she'rlari yoqtirmay, 1000 she'rni yoqib yuboradi, 1000 she'rni esa suvga tashlaydi. Navbatdagi she'rlarning birida Mulla Qosim o'z ismini ko'radi, yoqqan va su-

vga tashlagan she'rlarining oqibati haqida Y.Emroning avvaldan aytgan ma'lumotga duch kelib, qilgan ishidan afsuslanadi, qolgan 1000 she'riga tegmaydi. 3000 she'rdan sog' qolgan 1000 she'r keyinchalik xalqqa yetkazilgan.

Yunus Emro ijodida "Devon"ga kirgan namunalar ustunlikka ega. G'azal, masnaviy, ilohiy, nafas va b. she'r janrlari joy olgan Y.Emro devoni hijo va aruz vaznida yozilgan. "Fateh", "Qaraman", "Bursa" va b.nusxalar Y.Emro devonining eng qadimiy, nisbatan eng to'g'ri nusxasi hisoblanadi. Yunus Emro devonida barcha she'rlarining unga tegishli ekanligini aytish qiyin. Y. Emro ismi va san'ati yashagan kundan so'nggi asrlargacha shunchalar aziz va muqaddas bo'lganki, ham Emro taxallusi bilan (mas., Said Emro, Tolibi Emro), ham taxallussiz Y.Emro tarzida she'rlar yozilgan, so'nggi davrlarda bu namunalar uning devoniga kiritilgan. N.S. Banorlining so'zlari bilan aytsak: "Ismi Yunus bo'lmaganlarning ham aytganlari she'rlarga o'z nomlarini emas, sevganlari va ishonganlari bu eng buyuk so'fiy shoir nomini berishlari mumkin".

Yunus Emro Tangri shoiridir. Uning she'rlari insonlarni Alloh tomon qanotlantirib, ko'ngillarda zarraning (inson) butunlikka (Alloh) "birlashish" umidlarini orttiradi:

*Sensiz yo'lga kirar esam,  
Choram yo'q qadam otmoqqa.  
Gavdamda quvvati sensan,  
Boshim olib ketmoqqa.*

*Ko'nglim, jonim, aqlim, ilmim,  
Senin ila qaror etar.  
Jon qanoti ochiq kerak,  
Uchubon do'stga ketmoqqa.*

*Tutulmadi Yunus joni,  
Kechi tomidan, uchmog'i.  
Yo'lga tushib, do'stga ketar,  
Bo'l asliga uyarmoqqa.*

Yunus Emro vahdati vujud falsafasiga uyg'un o'laroq zohiriy (maqrassa) va botiniy (irfon, haqiqat) ilmlar qatorida ikkinchining Allohni anglash ilmining vojibligini ilgari suradi:

*Ilm elni bilmoqdir,  
O'zin idrok etmoqdir.  
Sen o'zingni bilmasang,  
Ilm nega kerakdir.*

*O'qiding na ma'nosi,  
Agar haqni bilmasang.  
Haqni ki, bilmading sen  
Quruq mehnat demakdir.*

Shuning uchun ham Y.Emro bu yo'lining qismatini Allohga yetishni ilmiy bilimda emas, ko'ngil, tuyg'u "bilimida" bo'lishi mumkin deb hisoblaydi:

*Ilm bilan, hikmat bilan  
Kimsa bu sirga yetmas.  
Bu bir ajoyib sirdir  
Ilmga, kitobga sig'mas.*

yoki

*Ey, ko'p kitoblar o'qigan,  
Holiman sendan, menga boq!  
Sirni oshkor istar esang  
Kel, ishq kitobin o'qiylik!*

Ko'rinib turganidek, so'fiy san'atkor "ko'ngil ko'zining ochilishini oshiq, ma'shuq" holida izlashda haqdir. Y.Emroning ishq majoziy (insonga) emas, haqiqiy (Allohga) ishqdir. Y.Emro Tangri ishq bilan nafas olmagan ko'ngilni vayronaga o'xshatadi. "Bir man bordir mandan ichari" degan Y.Emroning oshiqligi sabablari va ishqqa muhtalo "men"ning Tangri tomonga uzangan yo'lda so'nggi maqomga yetish orzulari ma'lum bo'ladi:

*Ishqing oldi mandan mani,  
Manga san keraksan, san!  
Jismim yonur kecha-kunduz,  
Manga san keraksan, san!*

Yunus Emro she'rlarida insonga bo'lgan sevgi va muhabbat asosida inson Allohning bir parchasi ekanligi g'oyasi turadi. Allohga nisbatan "borlig'im sendadir" degan shoir haqqa sig'ingan har insonga qalandar muhabbatini ifodalaydi. Shoirning haqiqiy oshiqligi butun maqomlarda ruhiga hokim, harakatlari ko'r-ko'rona emas, ongli ravishda bo'lishini tasdiqlaydi:

*Ishq maqomi oliydir, ishq qadim, azaliydir,  
Ishq so'zini so'zlagan jumla-qudrat tilidir.  
Degan bo'l, eshitgan bo'l, ko'rgan bo'l, ko'rsatgan bo'l,  
Har so'zni so'zlagan bo'l, surat jon manzilidir.*

Yunus Emro bu hayotda insonni “g‘arib”, “vatansiz” deb hisoblaydi. Har bir insonning o‘z vataniga “Alloh diyori”ga borish istagini oliy maqsad sifatida poetik shaklda mana shunday tasvirlaydi:

*Bu dunyoga kelgan kishi oxir yana ketsa kerak,  
Musofirdir, vataniga bir kun safar etsa kerak.  
Va‘da quldir, ul do‘st ila bir bu jahonga kelmadik,  
Bas, ne qadar aylanaylik, ul va‘damiz yetsa kerak.*

Yunus Emro o‘ylagan insonning fikrlarida Allohga yetishning yo‘llarini aks ettiradi. Bu yerda sevgi, istak shunchalar kuchliki, inson sevgi yaratgan “cheksizlik”ka tushadi, ba‘zan o‘zini unutib, dunyodan ketish va‘dasini ham kuta olmay nolishga o‘tadi.

Yunus Emro bu dunyoni haqdan uzilib haqqa qaytgan insonning “o‘tish bosqichi” deb hisoblaydi. Allohdan shuur ulushini olgan insonning bu bosqichda ibodatni unga berilgan mukofotning shukri sifatida baholanadi. Alloh-islom e‘tiqodining insonda ibodatga moyillik yaratgani uchun Yunus Emro hammani shu yo‘lga da‘vat qiladi:

*Musulmondan degan odam,  
Sharti nadir bilsin kerak.  
Tangri buyrug‘ini tutib  
Besh vaqt namoz o‘qisin kerak.*

*Har kim bu so‘zdan olmadi,  
Besh vaqt namoz o‘qimadi,  
Biling, musulmon bo‘lmadi,  
Jahannamga kirsin kerak.*

Yunus Emro vahdati vujud nazariyasining talablariga mos ravishda insonning o‘z shuuriga hokim bo‘lgan “o‘tish bosqichi”da nafsga berilishini Alloh ishqiga to‘siq bo‘luvchi dahshatli holat deb hisoblaydi. Chunki “nafs modda, moddaga bog‘lanish, modda ishq, modda ehtirosidir” (N.S. Banorli). Muhammad payg‘ambarning hodisalarining birida ifodalangan “chetdagi dushman bilan kurashib, uni mag‘lub qilishimiz bizning kichik urushimizdir. Faqat nafsimiz bilan kurashib, uni yengishimiz bizning katta jehodimizdir” fikrlarida nafsni yengishning ahamiyat darajasi aniqlanadi. Bu yerda faqat moddiy ne‘matlardan emas, balki ko‘p yashash iddolaridan ham bosh tortiladi. Asl hayotga talpingan Yunus Emro o‘limni ham imtihon, ham bayram deb hisoblaydi.

*Bu dunyoga aldanmaylik,  
Foniydir, adashmaylik*



*Bir ekan, ayrilmaylik,  
Kel, do'stga boraylik, ko'ngil!*

*Kel bu jahondan ko'chaylik,  
Ul do'stning eliga uchaylik.  
Orzu havasdan kechaylik,  
Kel, do'stga boraylik, ko'ngil!*

Yunus Emro bir irfon egasi o'laroq payg'ambarga, avliyolarga, mo'tabar shaxslarga Allohning nuri sifatida qaragan, xususan, Muhammad payg'ambar (s.a.v.) ga bag'ishlangan she'rlarda uni "Haq payg'ambari", "farishtalar mulkingi sultoni", "Tangri elchisi", "nur manbayi" va h. tarzda madh etgan:

*Oshiq Yunus netar dunyoni sensiz,  
Sen haq payg'ambarisan shaksiz, gumonsiz,  
Senga ergashmaganlar ketar imonsiz,  
Nomi go'zal, o'zi go'zal Muhammad.*

Hazrati Muhammadga shoirning muhabbati shunchalar kuchli-ki, Alloh rasulini ko'rish, unga qovushish niyati, hasrat otashi shaklida ifodalalanadi.

*Izlab, axtarib topay izingni,  
Izingning to'ziga surtay yuzimni,  
Haq nasib aylasa ko'ray yuzingni,  
Yo Muhammad, ko'ngil orzular seni.*

Hasratiga nuqta qo'ygan, Muhammad huzurida bo'lgan shoirning so'fiyona tilaklari mana shunday izohlanadi:

*Yuzimni yerga uribon,  
Dargohga to'g'ri turibon,  
Shukr ila jonimni beribon,  
Sendan tilarman ummatim.*

*Ishq dengizi manam, man,  
Dengizlar hayron manga,  
Daryo manim qatramdir,  
Zarralar ummon manga!*

– deb o'z "men"ligining intihosizliklaridan bahs qiluvchi Y. Emro bu "men"ligining mutasavvif-ruhiy, hissiy jihatlarini bilan birga uning orqa-

sida turgan haqiqiy g'urur va mutaassiblik omillariga ham joy beradi:

*Manim tilim qush tilidir,  
Elim manim do'st elidir,  
Men bulbulman, do'st gulimdir,  
Biling, gulim so'lmas manim.*

Axloqiy-didaktik mavzuda yozilgan "Risolatun nusxiya" ("Nasihat-noma") 1307-yilda yozilgan. Asar 563 baytdan va "Aql ta'rifi" ("Fi tarifil aql") nomli nasr bilan yozilgan kichik qismdan iborat. Bu asarning ilk 13 bayti bir (Failatun, failatun, failun), 550 bayti esa boshqa (Mafoilun, mafoilun, failun) bahrida yozilgan. "Risolatun nusxiya" asarining ilk 13 baytida o't, suv, tuproq va shamoldan so'z yuritiladi. Kichik parchada to'rt unsurдан yaralgan inson, Tangri (Podshoh) tomonidan jon berilgan ilk maxluqning – Odamning tuproqdan, suvdan, o'tdan, shamoldan va jondan olgan sifatlar (xarakter) haqida ma'lumot beriladi:

*Podshohning hikmati ko'r ne ayladi,  
O't, suv, tuproq va suvga so'yladi.*

*Bismilloh deb, keltirdi tuproqni,  
Ul orada hozir bo'ldi ul dag'i.*

*Tuproq ila suvni bunyoq ayladi,  
Unga Odam demagni ot ayladi.*

*Yel kelib ortidan dab etdi uni,  
Undan o'ldi jismi Odam, bil buni.*

*O't ham teshganda qizdirdi uni,  
Chunki qizdi, jismga birlashdi joni.*

Asarning kichik nasr qismida aqlning ta'rifi jannat va jahannam, shu jumladan, 4 unsur – tuproq, suv, shamol, o't haqida so'fiyona fikrlar o'ziga joy topadi. Y.Emrning bu qismida inson xarakterlari, kimlarning jannat va do'zax mezboni bo'lishi borasidagi fikrlari ham juda qiziq. Asarda qayd etilishicha, tuproq bilan suv jannatniki, o't bilan shamol jahannamning alomatidir. Shuning uchun ham tuproq va suv bilan kelganlar jannat, o't va shamol bilan kelganlar do'zax mezboni bo'ladilar. Asarning 550 baytlik asos qismi esa "Ruh, aql va ularga bog'liq ahvolning dostoni", "Qanoat dostoni", "G'azabning dostoni" va "Aql dostoni" nomi bilan 4 ga bo'linadi. Bu qismlarda allegorik ifoda tarzida axloqiy-didaktik ma-

vzu yetakchilik qiladi. Bu yerda ruh, imon, nafs, g'azab va b. jihatlardan, ularning xususiyatlaridan so'z boradi, yaxshiliklar qilish, yomonliklardan qutulish yo'llari ko'rsatiladi:

yoki

*Nimani sevar esang, umganing uldir,  
Qanday sevmaysan, sultoning uldir.*

*Qadimdan nafsdir sultonga osiy,  
Bir o'rnakdir endi uning bahosi.*

“Qanoat dostoni” qismi qiziqarli mazmunga ega. Qanoatning hokimligi davrida yo'lto'sarlarning, qaroqchilarning ko'payishi Aqlni bezovta qiladi. Aql maslahatlari hamma narsaga ravshanlik keltiradi. Bu qismda taxt-tojning, boshqaruvchilikning timsolida insonlarga ehtiyot bo'lish, xayrixohlik qilish, imonni ko'rsatish, haq yo'lini yo'qotmaslik va b. jihatlarning foydasidan gapiriladi. Shu jumladan, takaburning, nafsning inson, umuman, jamiyatning balosi, yomonliklar ildizi ekanligi to'g'risida ham Aqlning gaplari eng ta'sirli o'g'it sifatida diqqatni jalb etadi.

*Takabburli kishining foydasi yo'q,  
Qo'ymasa kibrini, pushaymon bo'lar xo'p.*

“Risolatin nusxiya” asaridagi g'oyalar insonlarni poklikka, soflikka, haq yo'lga chorlaydi va ularni yomonlikdan, takabbur bo'lishdan uzoqlashtiradi.

## **XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ADABIY HARAKAT VA UNING ASOSIY BOSQICHLARI**

Necha asrlik tarixga ega Turkiya turk adabiyoti boy an'analar zaminida rivojlangan, dunyo adabiy-badiiy tafakkurining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Lekin har bir xalq adabiyotida bo'lganidek Turkiya adabiyotida ham o'ziga xos jihatlari va turli xususiyatlar bor ekanligini nazarga olish kerak. Tabiiy holda bu yerda birinchi navbatda milliy san'at muammolarining oldida turgan masalalar va uning hal yo'llari ahamiyat kasb etadi. Turkiya adabiyotshunoslarining aytganidek (mas., Nihod Samiy Banorli) Turkiya adabiyotining maxsus sifati ham shundan iboratki, bu adabiyot “Bir qancha millatlarning adabiyotlari kabi bir vatanda, so'nggi besh-olti asr ichida emas, turkiylarning turli vatanlarida”, “27 asr davomida” shakllanib rivojlangan. To'g'ri, bunchalar keng jug'rofiy makonda umumturkiy adabiyot va san'at an'alarining ta'siri o'zini ko'rsatsa ham Turkiya adabiyoti milliy adabiyot bo'lish sifatida saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiya turk adabiyotining yetarlicha sermahsul, ayni paytda ziddiyatli va nizoga to'la adabiy jarayonlar zaminida shakllangan bosqichi hisoblanadi. Ma'lumki, XIX asr dunyo uchun yangi davr deb tavsiflanadi. Bu asrdan boshlab dunyo siyosati va iqtisodiyoti yangi bosqichga qadam qo'ygan, ko'proq xalqaro olamda parchalanishlar, siyosiy nizolar, iqtisodiy manfaat to'qnashuvlari kuzatila boshlagan. Buyuk Usmonli imperiyasining parchalanishi tamali, Yevropa siyosiy-iqtisodiy kuchining Sharqqa hokimligi va b. bu asrga to'g'ri keladi. Lekin XIX asr tarix zarvaraqlarida faqat siyosiy-iqtisodiy jarayonlar sifatida qolmagan. XIX asr tarix xotirasida ilmiy, madaniy taraqqiyotning yuksalish bosqichi sifatida ham qolgan. Bu davrda tabiiy ravishda butun sohalarida taraqqiyot markazida Yevropa turardi. Shu sababli Kichik Osiyodan Yaponiyagacha o'zlarining milliy-madaniy taraqqiyot strategiyasini muayyanlashtirishni istagan xalqlarning yevropalashish mayli tasodif emas edi.

Yevropa o'zining siyosiy kuchi va iqtisodiy potensialiga ko'ra dunyoda oldingi qatorda turardi. XIX asr oxirlarida Suvaysh kanalini (1869) o'tkazish bilan iqtisodiy-siyosiy jarayonlarni o'z foydasiga hal qilgan va Sharqdagi obro'sini tezlashtirgan yevropa ilmiy-madaniy jihatdan ham bu regionga ta'sir ko'rsata oldi. Bu bir tomondan siyosiy kuch bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan Kantning "aqlni ishlatib kuchingni ko'rsat" nazariyasidagi aqlning, ilmi kuchi bilan bog'liq. Albatta, Yevropa ilmiy-madaniy nufuzining ildizida ko'p asrlik an'analarining ta'siri turganligini inkor etib bo'lmaydi.

Yevropa uyg'onish davri keyingi asrlarda ilm, madaniyatning dadil taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratdi. Cherkov bilan ilmning birlashishi, yangi uslubli maktablarning ochilishi, matbaa va teatr tarmoqlarining kengayishi Yevropa ilmiy-madaniy manzarasining o'zgarishida alohida rol o'ynadi. Xv asrda Yevropada 1700 matbaaning bo'lishi va matbaalardan 20 million kitobning chop etilishi Yevropaning madaniy-ilmiy jihatdan qaysi darajada turishini namoyish qildi. Yevropaning Volt-er, Russo, Monteskyo, Kant va boshqa daholarining aql kuchiga tayanishi uning taraqqiyotiga kuchli turtki berardi. Lekin Sharq va uning timsolidagi Turkiyada esa jarayonlar boshqacha edi. Avvalo Usmonlining ko'p asrlik imperiya statusi XIX asrda butkul qulashi xavfi bilan yuzlashgandi. XVI–XVII asrlarda dunyoning eng katta siyosiy qudratiga ega Usmonli imperiyasi ortiq XVIII asrdan siyosiy yengilishlarni tan olishga majbur bo'ldi. 1699-yilda Karlovitsa bitimiga ko'ra Usmonli davlati Vengriyani, Ukrainani, Azovni va boshqa hududni yo'qotadi. Karlovitsa bitimi Usmonli imperiyasining parchalanishi uchun zamin yaratdi. Keyingi davrlarda Ruminiyada, Bolqonlarda, arab mamlakatlarida yuz bergan isyonlar Usmonli hokimiyatida siyosiy inqiroz va muvaffaqiyatsizlikning navbat-

dagi sahifasi bo'ldi. Boshqa tomondan Qora dengiz sohillarida turk-rus urushlari ushbu muvaffaqiyatsizlik sahifalarida joy oldi. Bu vaziyatda Usmonlining kelajak taqdiri ziyolilarni tashvishlantirardi. Ular Yevropa siyosiy, iqtisodiy va madaniy tajribasidan foydalanishni munosib bilardilar. Parallel sifatida Yevropa bilan diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, 1719-yilda Venaga, 1721-yilda Parijga elchilarning yuborilishi va h. tad-birlar Turk-G'arb aloqalarining o'rnatilishida yangi qadamlardan biri edi. III Ahmad hokimiyati davrida ba'zi saroy mansabdorlari va ziyolilarining G'arbga yaqinlashuvi va undan foydalanish ehtiyojidan foydalan-gan Lola davrida (1718–1730) kutilgan natijaga erishilmadi. U Yevropa saroy dekoratsiyasi va bog'-park tashkil etilishi shaklidagi ahamiyatsiz ijtimoiy xarakterga ega bo'lishdan uyog'iga o'tmadi. Lola davri 1730-yil 28-sentyabrda Patrona Xalil isyoni bilan barham topdi.

1773-yilda "Maktabi riyoziya", 1776-yilda "Handasa xonasi", 1783-yil-da "Muhandisxonayi Bahri Humoyun", 1827-yilda "Maktabi tibbiya", 1831-yilda "Musiqayi Humoyun", 1834-yilda "Maktabi harbiya" mak-tablarining ochilishi, shu jumladan, kema muhandislari tayyorlash uchun Yevropa maktablari bilan aloqalarning o'rnatilishi yevropalashish uchun tamalga aylandi. Lekin yevropalashishning rasmiy asosi 1839-yil 3-noyabr yakshanba kuni "Tanzimot" farmonining e'loni bilan qo'yildi. Bu farmon II Mahmudning o'limidan so'ng taxtga chiqqan Abdulmajid-ning tashabbusi bilan qabul qilindi. Sulton Abdulmajid Yevropaga moyil bo'lgani uchun tashqi ishlar naziri Rashid posho tomonidan tayyorlan-gan farmonni qo'llab-quvvatlaydi. Farmon sultonning a'yonlarining, xorijiy elchilarning, xalq namoyandalarining ishtiroki bilan Gulxona parkida e'lon qilindi. Shuning uchun "Tanzimot" farmoni "Gulxona Hatti Humoyuni" nomi bilan ham yaxshi tanish. 1839-yilda Usmonli davlatining qabul qilgan Tanzimot islohoti bevosita Yevropa ta'sirlariga bog'liq edi. Aniqroq ifodalasak, Tanzimot islohot Usmonli davlati tomonidan Yevropa, shuningdek, Rossiya oldida "o'z boyligini asrash uchun amalga oshirgan siyosiy, ijtimoiy, madaniy harakat edi". Tanzimot farmoni ilk navbatda siyosiy hujjat edi. Bu farmonning tatbiqi Usmonli davlatining ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zgarishlar yaratish bilan birga uning yangi madaniyati shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham tadqiqotchilar Tanzimot davri hodisalarini tavsiflayotganda uni ham siyosiy, ham madaniy jihatdan karakterlaydilar. Masalan, N.S. Banorli Tanzimotni "Usmonli Turkiyasining madaniyat o'zgartirishi va davlat qo'li bilan amalga oshirilgan inqilob", A.H. Tanpinar "musulmon sharq tarixida davlat poydevorini yangi asoslar ustida tashkillashtirishga chorlovchi va davlat bilan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni yangi rejaga o'tkazgan, ... boshqa madaniyat doirasiga kirganini e'lon qilgan aksiya", A.Kabakli esa "Usmonli davlatining g'arbga yuz tutishini milliy shaxsiyat va mustaqil-

likdan ham qaysidir ma'noda uzilib, Yevropaga ma'naviy jihatdan yengilishini bir dastur holida ifodalovchi ilk rasmiy hujjat" deb hisoblardi.

1839-yil 3-noyabrda Tanzimot farmoni huquqiy farmoni edi. Bu farmonga ko'ra Usmonli davlati o'z zimmasiga katta mas'uliyat olar edi. Taxminan 3 kitob sahifasi hajmida bo'lgan farmonda yangiliklarga davlat dasturi talabi sifatida joy berilgandi. Ilk navbatda, davlat tobeligidagi bo'lgan barcha fuqarolar qonun oldida barobar edilar. Bu esa Usmonli davlatining tobeligidagi xristian va yahudiy diniga e'tiqod qiluvchilar bilan musulmonlar o'rtasida davlat hech qanday farq qo'ymaydi degani edi. Ayni paytda ushbu xalqlarning moli, davlati joni, nomusi davlat tomonidan himoya qilinadi. Bundan tashqari farmonga ko'ra hammadan soliq imkonlariga qarab olinadi, pora olinmaydi, mansabdor shaxslar davlatdan maosh oladi, sud qarori bo'lmay hech kimga jazo berilmaydi, mulki musodara qilinmaydi, qonunlar ijrosining javobgarligi podshoh, vazirning zimmasida bo'ladi va h. 1956-yilda Sulton Abdulmajid Fransiya, Angliya, Avstriya ittifoqining talablari bilan "Islohot farmoni"ni e'lon qildi. Bu farmonga ko'ra 1839-yil farmonida sultonning javobgarlik va mas'uliyati, bergan ta'minoti yanada kuchaytirilishi va asoslanishi kerak edi. Ortiq inson haqlari nuqtayi nazaridan ishlab chiqilgan yangi qoidalar Usmonli davlatida yangi ijtimoiy-siyosiy muhit shakllanishiga olib keldi. Ilk qarashdan demokratiya ob-havosini yaratuvchi ushbu farmonlar Usmonlidan ko'ra ko'proq Yevropa davlatlari uchun foydali edi. Chunki Usmonli har qanday vaziyatda Yevropaning ta'siri ostida qolar, ijtimoiy fikr Yevropaning foydasiga hal bo'lar edi. Aynan Yevropa davlatlarining maqsadli ta'siri bilan Usmonli tobeligidagi xalqlar o'z haqlarini talab qila boshladilar. Usmonli davlatining tobeligidagi g'ayrimusulmon xalqlar tenglik imtiyozlaridan foydalanish, hokimiyatda qatnashish da'volarini kuchaytirdi, ozodlik haqlarini talab qila boshladi. Natijada Usmonli davlatining qudratiga ta'sir qiluvchi nizolar, milliy harakatlar boshlandi. Bolqonlarda boshlagan milliy ozodlik aksiyalari, o'lkada va arab mamlakatlarida yuz beruvchi noroziliklar Usmonli davrlarida siyosiy manzaraning o'zgarishiga kuchli turtki bo'ldi, Tanzimotning siyosiy ta'siri avval boshladi. Uning adabiy, madaniy, ilmiy, falsafiy ta'siri esa keyinchalik yuzaga chiqdi. Yangi uslubli maktablar, teatrlar, matbaalar ochilib, gazeta va kitoblar nashri tezlashtirildi.

Shubhasiz, amalga oshirilgan islohotlar adabiyotga ta'sir o'tkazmay qolmadi. Shuning uchun ham Tanzimotni Yevropa madaniyatini Usmonli xalqi uchun qabul qildirish yo'lida davlatning tashlagan qadami sifatida baholash mumkin. Natijada Yevropa adabiyotining turk adabiyotiga ham shakl, ham mazmun jihatdan ta'sirini o'zida aks ettiruvchi Tanzimot adabiyoti shakllandi. Tanzimot adabiyoti Yevropa adabiy modelining Turkiyada qabuli va rivoji degani edi. Turkiyada Tanzimot adabiyoti

1860-yilda Shinosiy bilan boshlangan va 1895-yilda "Sarvati funun" adabiy maktabining yaratilishi bilan yakunlangan edi.

Tanzimot farmonidan so'ng Turkiyada ketma ket "Jaridayi havodis" (1840), "Tarjimoni ahvol" (1860), "Tasviri afkor" (1862), "Muxbir" (1867), "Hurriyat" (1868), "Ibrat" (1871), "Tarjimoni haqiqat" (1878) gazetalari va "Majmuayi funun" (1862), "Ma'lumot" (1893) va b. jurnallari chop etila boshladi. Asosan, bu gazeta va jurnallar Tanzimot harakatining uchqunlari bo'lgani tufayli asosan Yevropadan ilhomlanar, Yevropa madaniyatiga tegishli maqolalarga ko'proq joy berilardi. Faqat jarayonlarning ilk davrlarida N.S.Banorli aytganidek, Yevropa ta'siri "bosim" ko'rinishida o'zini ko'rsatardi. Bu bosim xuddi Sharqda hech nima yo'qdek hamma narsani qayta boshlash faoliyatini davom ettirishni xohlardi. Albatta, buni Yevropa manfaati talab qilardi. Faqat ming yillar davomida madaniyat obidalarini bilan maqtangan Sharq tarixiga bezak bo'lgani bilan faxrlangan, vaqti kelganda dunyo madaniyatiga ta'siri bilan farqlangan edi. Falsafa astrologiya, matematika va b. fanlarning taraqqiyotida Sharq hissasining kattaligi inkor qilib bo'lmaydigan fakt hisoblanadi. Hegelning quyidagi fikrlari bahs-munozara predmeti bo'lishi mumkin emas: "Osiyoda ruh uchqun sochdi va bu bilan dunyo tarixi boshlandi".

Sharq va ayni paytda uning tarkibi bo'lgan turk falsafiy-madaniy tarixiga nazar solganda aynan qadimgi va o'rta asrlarda yashab ijod qilgan Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Abu Hanifa, G'azzoliy, Faxriddin Roziy, Ibn Sino, N. Tusi, U. Hayyom, M. Ulug'bek, Suhraberdi va b. shaxslar Sharq ilmi taraqqiyotida katta xizmat ko'rsatishganini ko'rishimiz mumkin. Lekin Sharqning xoh siyosiy, xoh iqtisodiy, xoh ilmiy-madaniy an'analari bo'lsa ham XIX asrda Yevropa bu an'analardan o'zib, barcha sohalarda o'zini dunyo uchun model sifatida singdira oldi. Abu Turxonning ta'biri bilan aytganda: "Bugun Sharq o'zining chuqur genetik qatlamida uxlayotgan buyuk ilohiy kuchning qaytishiga muvaffaq bo'la olishi uchun o'zini G'arbning yordamiga muhtoj deb hisoblaydi". Tanzimot qonunlariga mos "yevropalashish ehtiyoji" sabablarining bu yo'nalishida haqiqat bor. Lekin bu shunday haqiqatki, G'arb yetakchi davlatlarining manfaati doirasida 1856-yilda Usmonli davlati qabul qilgan Islohot farmoni Yevropaning Usmonliga (keng ma'noda Sharqqa) bosimi, ayni paytda Usmonlining tazyiqlarga chidolmay Yevropa qarshisidan ortga chekinishi edi.

Tanzimot adabiyoti davrida adabiyot yangi muammolarga duch kelgan va butkul yangi usulda rivojlangan. Bu davrda eski turk adabiyoti bilan yangi turk adabiyoti o'rtasida katta kurash boshlangan edi. Birinchi tomon adabiy maydondan chiqmaslik, ikkinchi tomon esa g'olib kelib, o'z mavqelarini mustahkamlash maqsadini ko'zlar edi. Tanzimot adabiyotining asosiy tarafdorlari yangi adabiyotni butkul himoya qilish bilan birga klassik adabiyotning ayrim xususiyatlariga bo'lgan qiziqishlarini



yashirmas edilar. Shinosiy, Ziyu Posho, Namiq Kamol, R. Akram, A. Hamid va boshqa ijodkorlar eski adabiyotning til, shakl va b. jihatlariga hurmat bilan yondashar, hatto uni himoya qilardilar. Turk adabiyot tarixchilari bu jihatni ushbu adiblar shakllantirgan klassik she'r didi va qiziqishining ta'siri, ayni paytda bu adabiyotning ular nazarida buyuk va go'zal bo'lishi bahosi bilan bog'lardilar.

XIX asrning 2-yarmida paydo bo'lgan Tanzimot adabiyotining shakl, mavzu va g'oya jihatdan shakllanishida davriy matbuotda chop etilgan maqolalarning katta ta'siri bo'lgan. I. Shinosiy, N. Kamol, Ziyu Posho, R. Akram va boshqa tanzimotchilarning adabiyot bo'yicha davriy matbuotda chop etgan maqolalari yangi adabiyotga tegishli fikr shakllantirishda ahamiyat kasb etar edi. I. Shinosiyning "Jaridayi havodis" va "Tasviri afkor"da til va san'at to'g'risidagi qarashlari yangi nazariy tafakkur tarixida alohida qiziqish uyg'otardi.

N. Kamolning "Tasviri afkor" gazetasida "Lisoni Usmoniy adabiyoti to'g'risidagi ba'zi mulohazasi shomildir", Ziyu Poshoning "Hurriyat" gazetasidagi "She'r va insho" maqolalarida adabiyotning yangi yo'nalishlari, an'ana va novatorlik masalalari muzokara obyektiga aylangan edi.

Tanzimot adabiyotining vujudga kelishi bilan Turkiyada poeziya, nasr va dramaturgiya yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. XIX asrning birinchi yarmi oxirlarida yozilgan "Voqeayi Ajiba va Havodisi g'aribayi kashfgar Ahmad" va Xayrulla Afandining "Hikoyayi Ibrohim Posho be-Ibrohim Gulshaniy" (1844) nomli drama namunalari bo'lsa ham, I. Shinosiyning 1859-yilda yozgan, lekin 1860-yilda "Tarjimoni ahvol" gazetasida chop ettirgan "Shoirning uylanishi" asari yevropaga xos ilk drama sanalar edi. M.F. Oxundov Ozarbayjon adabiyotidagi yangi tipli komediyaning asosini I. Shinosiydan 9 yil avval qo'ygani qayd etish lozim.

N. Kamolning "Vatan yoxud Silistra", "Gulnihol", "Akifbey", "Jalolidin Xorazmshoh", R. Akramning "Vuslat yoxud davomsiz sevinch", "Atala yoxud Amerika vahshiyarlari", "Ko'p bilgan ko'p adashar", A. Hamidning "Mojaroyi ishq", "Sabru sabot", "Hind qizi", "Nastarin", "Ashbar" va b. drama asarlarida muayyan originalliklar bo'lsa ham Fransiya teatr an'analari, xususan, Molyer va Kornel ta'sirini ochiq shaklda ko'rish mumkin. Masalan, I. Shinosiyning "Shoirning uylanishi" komediyasi xarakter yaratish, voqealarga ijtimoiy baho berish, obrazlarning mansub bo'lgan tabaqasi tili bilan gapirish, ham haqiqat, ham kulgi obyekti bo'lishning bu ifodalar bilan tomoshabingga yetkazishi va b. jihatlardan Molyer komediya tiplariga mos keladi.

Tazminot adabiyotining talab va o'lchovlari nasrning janr imkonlari kengayishida ahamiyatli rol o'ynardi. Avvalo nasrning xarakter yaratishda an'anaviy poeziya bilan qiyoslashda ustunliklari bu janrning adabi-



yotga kelishiga ham ehtiyoj yaratdi, ham kuchli turtki berdi. Turkiyada nasr taraqqiyotiga G'arb namunalari tarjimalarining katta ta'siri bo'ldi. 1864-yilda "Jaridayi havodis" da V.Hyugoning "Xo'rlanganlar" keyinchalik D. Defoning "Robinson Kruzo", Teodor Kasarning "Monter Kristo", Lesagening "Oqsoq shayton" va b. asarlarning Usmonli turkchasiga tarjimai Tanzimot adabiyotida nasrning yangi talablar ichida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Turkiya adabiyotida Yevropa ta'siridagi ilk nasriy asar Ahmad Midhat Afandining 1870-yilda yozgan "Latoifi rivoyat" bilan boshlangan. Bu yo'nalishda ikkinchi asar esa Emin Nihodning 1873-yilda qalamga olgan "Musomaratonoma" hisoblanadi. Qayd etish lozimki, Ahmad Midhat Afandining "Yanicharlar" romani ilk tarixiy roman sifatida baholanadi.

Yevropa nasr an'anasining Turkiya adabiyotiga ta'sirini Namiq Kamolning "Intiboh" (1876), "Jazmi" (1880), Rajoizoda Akramning "Mashina savdosi" (1889), Samiy Poshozodaning "Mayda narsalar" (1890), Xolid Ziyoning "Namida" (1889) va b. asarlarida ham ko'rish mumkin. Faqat nomi aytib o'tilgan Tanzimot yozuvchilarining ijodida G'arb ta'siri kuzatilsa ham, ularning asarlarida milliy o'ziga xoslik ham bo'lgani yaqqol ko'rinib turardi. Qayd etishimiz lozimki, bu ijodkorlar shakl, mazmun, uslub va b. jihatdan turli guruhlariga bo'linar edilar. Masalan, Namiq Kamol, Rajoizoda Akram, Samiy Poshozoda Sazo'iy o'z asarlarida ko'proq ziyoli tabaqani tanlagan bo'lsa, Ahmad Mithat Afandi, Shamsiddiy Shomiy, Nabizoda Nozim oddiy ommaga murojaat qilardi.

Tanzimot davrida G'arbning kattaroq ta'siri poeziyada sezilardi. Ilk navbatda Sharqda poeziyaning ham tarixi qadim bo'lganini, ham an'analari kuchli bo'lganini nazarga olishimiz kerak. XIX asrgacha Sharq-Turk poeziyasi bosib o'tgan ko'p asrlik tarixiy yo'lda Nizomiy, Xoqoniy, J.Rumiy, Y. Emro, Nasimiy, Fuzuliy, Farog'iy va b. shaxslari bilan faxrlanib kelgan. Lekin devon she'r an'anasining Yevropa she'r an'anasi bilan almashishiga majbur qilgan Tanzimot davrida katta an'anasi bo'lgan bu poeziya beixtiyor G'arb she'riyatidan ko'p narsalarni namuna olishga majbur bo'ladi. Shinosiy bilan boshlangan, Ziyu Posho bilan mustahkamlangan, N.Kamol bilan chuqurlashgan G'arb she'riyat an'anasi Turkiya poeziyasida yangi shakl va yangi mavzularning tatbiqini shart qilib qo'ydi.

Tanzimot davrida eski she'r bilan yangi she'rga munosabat o'rtasida nizolar kengayadi. Tanzimot adabiyotida she'rdagi ijtimoiy borliq va ijtimoiy tafakkur birinchi o'rinda turardi. Eski she'rda o'zini ko'rsatgan hayajon endi "millat uchun his qilingan yoki his qilishga urinilgan foydali hamda inqilobchi hayajon"ga aylanar edi. Yangi she'r "yalang'och tabiat go'zalliklari oldida to'lqinlangan, individual va jamiyat ichidagi inson sarguzashtlari bilan bog'langan, falsafiy misralar bilan aks ettiril-

gan” namunalar shaklida o‘z aksini topgan. Ziyu Posho “She’r va insho” va “Xotiro” maqolalarida, Namiq Kamol “Tahrifi xarabot” va “Lisoni Usmoniyning adabiyot haqida” maqolalarida, Rajoizoda Akram “Ta’limi adabiyot”ning kirish so‘zidagi devon she’ri bilan yangi she’rga bo‘lgan munosabatlarni izohlaydilar. Tanzimot she’rida ilk o‘zgarish she’rning shak o‘zgarishi hisoblanadi. Ortiq bu davrdan boshlab she’rda aruz bilan birga hijoga ham joy beriladi.

1860–1895-yillarni qamrab oluvchi Tanzimot adabiyoti asosan ikki bosqichga bo‘linadi: 1860–1880-yillarni qamrab oluvchi birinchi va 1880–1895-yillarni qamrab oluvchi ikkinchi bosqich. Tanzimotning birinchi bosqichi namoyandalari bo‘lgan I. Shinosiy, N. Kamol, Z. Posho, Ahmad Mithat Afandi, Shamsiddin Samiy va boshqalari “san’at jamiyat uchun” prinsipi bilan faoliyat ko‘rsatishar edi. Adabiy jarayonni san’at va jamiyat muammolari ichida rivojlantirgan I. Shinosiy, N. Kamal, Z. Posho va boshqalari davlat hamda jamiyat ishlariga aralashish bilan adabiyotda yangi ideologiyani shakllantira olishdi. Madaniyatchilik, usmonlichilik va islomchilik ideologiyasi aynan bu adiblar himoya qilgan yangi ideologiya hisoblanardi.

Tanzimotning II avlodiga Rajoizoda Akram, Abdulhaq Hamid, Sazoiy, Muallim Naji, Nabizoda Nozim va boshqalar kiradi. Asosan R. Akram – A. Hamid, P. Sazoiy maktabi hisoblangan II avlod tanzimotchilar “san’at uchun” prinsipini maqsad sifatida tanlagan edilar. “San’at san’at uchun” tamoyilining “san’at jamiyat uchun” adabiy tamoyilidan farqi ularning siyosiy-ijtimoiy ideologiyalardan biroz uzoq bo‘lishlarida edi. Lekin bu “san’at san’at uchun” degan shoirlar siyosat va ideologiyalarini rad etishadi degani emas edi. Ular siyosat masalalariga qisman bo‘lsa ham aralashardilar. Tabiiy ravishda Tanzimot adabiyoti keng qamrov doirasiga ega. Avvalo, Tanzimot adabiyoti muhim ahamiyat kasb etuvchi yangi ijtimoiy va ideologik masalalarga munosabatda bo‘lgan ijtimoiy adabiyotdir. Bu adabiyotda XVIII asr fransuz mutafakkirlarining fikrlari asos qilib olingan, Yevropaning eski va yangi san’at xususiyatlarining tatbiqiga alohida e’tibor berilgan. Tanzimotchilar mamlakatda faqat istibdod rejimini emas, eski va yangilik talablaridan uzoq deb hisoblagan butun san’at va adabiyot tushunchalarini ham ag‘darishga urinishar edi. To‘g‘ri, Tanzimot davrida eski turk adabiyotining til, shakl va b. jihatlari ba’zi ijodkorlar tomonidan ba’zi san’atkorlar tomonidan muayyan hollarda himoya qilinsa ham Yevropa adabiy modelining tatbiqi oldingi qatorda chiqarilgan. Adabiy yangilanish davrida she’rning yetakchiligi tugallanib, nasr va dramaturgiyaning ustunligi ta’minlangan. Yangi turk adabiyotida xalq, vatan, millat, hurriyat uchun tilga olingan g‘oyalar G‘arb adabiyotining namunalarida tayangan edi. Oila muammolari, ijtimoiy masalalar ham yangi g‘oya jihatdan o‘ziga joy topa olgan. Shuni

ham qayd etish lozimki, yangi turk adabiyoti fransuz romantik va qisman realist maktablarining ta'sirida edi.

Tanzimot davrida she'r, nasr va dramaturgiyada shakl, mazmun, g'oya, fikr va b. jihatlarda yangilik tom ma'noda o'zini ko'rsatardi. 35 yillik mavjudligi davrida Tanzimot adabiyotining bir qator nuqsonlarini hisobga olmaganda, bu adabiyot Turkiya adabiyotining yangi mazmun va yangi shaklda rivojlanishida katta rol o'ynagan.

1895-yilda Turkiya adabiyoti hayotida yangi davr "Sarvati funun" bosqichining tamali qo'yiladi. Tavfiq Fikrat, Janob Shahobiddin, Faiq Ali, Husayn Johid, Mehmet Rauf, Sulaymon Nazif, Ismoil Safo va boshqa ijodkorlar a'zo bo'lgan adabiy harakat adabiyotning yangi modeli paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. "Sarvati funun" adabiyotining manbaya XIX asr ikkinchi yarmida shakllangan fransuz adabiyoti bo'lgan. Bu davrdan keyin turklarning ta'biri bilan aytganda, Turkiya adabiyotida "yangi va katta g'arblashish bosqichi" boshlangan. Yosh adabiyotchilar tomonidan yaratilgan bu adabiy harakat uslub va shakl jihatdan fransuz realistlarining yo'lidan borish bilan birga, boshqa tomondan "mahalliy va ijtimoiy romantizmning" ta'siridan ham chetlab o'tmas edi. Bu adabiy harakatda fransuz adabiy ta'siri kuchli bo'lgani uchun fransuz realistlarining "san'at uchun san'at" maylli adabiyot jarayoni yuzaga keldi. "Sarvati funun"chilar Sharq adabiyotidan ko'ra ko'proq G'arb adabiyotini bilardir, uni ilgari surar, hatto shunday munosabatlari bilan faxrlanishar edi. Yangi adabiy harakat tarafdorlari G'arb nazm shakllarini Turkiya adabiyotiga olib kelar, hikoya va roman janriga Yevropa hikoya va roman tushunchalari ko'zi bilan yondashar edilar.

Shuni ham qayd etish joizki, Turkiya adabiyotida aruz vaznida yozgan erkin nazm "Sarvati funun"chilar bilan boshlangan. "Sarvati funun" she'riyatiga kuchli musiqa tili hokimdir. Bu jihat uni Tanzimot she'ridan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir. "Sarvati funun"chilar Yevropa tipli asarlar yozish jihatdan tanzimotchilardan ancha oldinlab ketishgan edi. "Sarvati funun" adabiy harakatiga bog'liq bo'lgan ijodkorlar o'z asarlarida xalq ommasiga murojaat qilishdan uzoqda edilar. Bu adabiyot milliy, ijtimoiy, estetik ehtiyojlarni kamroq ko'rsatib, faqat oliy tabaqa yoki yevropalashgan odamlarning hayotini san'atda aks ettirgan.

XX asrda Turkiyada adabiy harakatlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bevosita o'zaro aloqa va munosabatlar sharoitida rivojlanar edi. O'tgan asr boshlarida Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy hayoti "qaynayotgan qozon"ni eslatardi. Mamlakatni siyosiy inqiroz burkab olgandi.

Sulton Abdulhamidning 1908-yilda e'lon qilgan ikkinchi konstitutsiyasi kutilgan natijani bermagan va oz vaqtdan so'ng Sulton Albulhamid taxtdan tushirilgan edi. Hokimiyat davomchisi V Mehmetning rahbarligi natijasi bo'lmagan oqibat bilan yakunlandi. Asrning ilk yillarida mam-

lakatda sodir bo'lgan o'zgarishlar adabiy jarayonlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bu yillar adabiy faoliyatning harakatsiz davrlari hisoblanadi. Lekin 1908-yildagi qizg'in hodisalardan so'ng adabiyotda ilk jonlanish boshlandi. XX asr Turkiya adabiyotining taraqqiyotida milliy adabiyot jarayoni holiga aylanishida adabiy harakatlarning katta roli bo'lgan. "Fajri Ati" Turkiyada 1908-yil konstitutsiyasidan so'ng tashkil topgan ilk adabiy tashkilot sanaladi. Bu adabiy tashkilot 1909-yilda 20–30 yoshli yosh adiblar tomonidan yaratilgan. Emin Bulent, Ahmad Hoshim, Hamdulloh Subhi, Rafiq Xolid, Shahobiddin Sulaymon, Ali Suho, Fozil Ahmad, Fuat Ko'prulu, Yoqub Qadriy va boshqa adiblar yig'ilgan "Fajri Ati" adabiy tashkiloti yangi faoliyat dasturi bilan maydonga chiqdi. "Fajri Ati"chilar "Sarvati funun" majmuasining 1909-yil 12-martdagi sonida o'z bayonnomalarini chop ettirishdi. Ushbu bayonnoma bu tashkilotning xususiyatlarini aks ettirish jihatdan muhimdir. Bayonnomada adabiyotning muammolari ham, tadqiqiy masalalariga ham munosabat bildirilgan, unga keng ijtimoiy qamrovda yondashilgan. Chop etilgan bayonnomada Namiq Kamolning "adabiyotsiz millat tilsiz insonga o'xshaydi" mashhur so'ziga asoslanish orqali yangi avlodning yangi tafakkur tarziga ega bo'lishi talab sifatida ilgari surildi. Tashkilot a'zolari o'zlarining adabiyotsevar va azmkor ekanliklarini, Yevropa adiblariga o'xshashni istashlarini, "G'arbning nurlarini Sharq ufqlariga ko'chirish orzularini" ifodalar, faoliyatlarini bu yo'nalishda olib borishni muhim deb hisoblashardi. Ular butun mamlakatda mavjud bo'lgan jirkanchliklarning asosiy sababi sifatida istibdodni ko'rsatishar va bunga qarshi kurashni ilgari surishardi. Hatto adabiy hayotda yuz berayotgan sukut va qoloqlikning sababini ham shunda izlardilar. Lekin "Fajri Ati" harakati "Sarvati funun"ga ko'pgina jihatdan yaqin edi. Boshqacha qilib aytganda "Sarvati funun" "badanida" shakllangan tashkilot edi. Shuning uchun ham turk adabiyotshunoslari asosli ravishda "Fajri Ati"ni "Sarvati funun"ning davomidan boshqa narsa emas" deb ko'rsatar edilar.

"Fajri Ati"chilar katta jasorat va jo'shqinlik bilan yuzaga chiqib, adabiyotda yangi o'zgarishlar qilish niyatida bo'lsalar ham qisqa vaqt ichida tarqaladi (1911) va faoliyatlarini to'xtatishadi.

1908-yil konstitutsiyasidan so'ng (Milliy adabiyot (1908–1930) va Yangi adabiyot (1930-yildan keyingi davrlar) bosqichlarida) Turkiyadagi milliy adabiy jarayonda jonlanish kuzatila boshladi. Bu davrda san'atda nufuzi va o'rni bo'lgan ayrim shaxslar kuchayib borayotgan milliy-adabiy harakatlarga rahbarlik qilar, turk millatchilarining rivojlanishida muhim rol o'ynardi. Ortiq 1908-yildan keyin yangi majmualar chop etilar, milliy aqidasi, ilmiy potensiali yuksak bo'lgan shaxslar bu majmualarning atrofiga yig'ilishar edi. "Turk to'garagi" adabiy jamiyati va bu jamiyatning organi bo'lgan shu nomdagi majmua birinchi navbatda turk tilini sod-

dalashtirish va boy til holiga olib kelishni oldiga maqsad qilib qo'ygandi. Turkiyada yangi boshlangan adabiy harakatning qizg'in shaklda borishi yangi adabiy jamiyat va tashkilotlarning vujudga kelishi bilan mushohada qilinardi. 1911-yilda "Turk yurti", 1912-yilda "Turk o'chog'i"ning paydo bo'lishi shakllangan turkchilik g'oyalarining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yishi va mustahkamlanishidan xabar berardi. Paydo bo'lgan jamiyatlar turk tilini soddalashtirish, uni xorijiy so'zlardan, g'ayrimilliy qoidalaridan tozalash va b. bo'yicha keng ish olib borilar edi. Yuz bergan hodisalar san'atda va ma'naviyatda milliy hayajon signali bera boshlaganini aytishga asos bo'ladi. Umar Sayfiddin, Ziyo Go'kalp kengayib borayotgan harakatning oldida borar edilar. 1911-yilda "Yosh qalamlar" majmuasida yangi til qoidalarining hokimligi masalasi bilan bog'liq maqolalar chop etila boshladi.

Ilk salobatli, muammo xarakterli maqolaning mualliflaridan biri bo'lgan Umar Sayfiddin adabiyotda arab, fors va fransuz so'zlarining ishlatilishiga qarshi chiqar, turk adabiy tilini o'zlashgan so'zlar bilan to'ldirgan adiblarni tanqid qilar va bugungi talab mohiyatining nimadan iboratligini izohlardi: "Hozir yangi hayotga, yangi intiboh davriga kirgan turklarga yangi, tabiiy til, ya'ni o'z tillari lozim. Milliy adabiyotni vujudga keltirish uchun avvalo milliy til lozim. Eski til betob va bu betoblikning sababi ham ichidagi keraksiz va xorijiy qoidalardir".

"Yosh qalamlar" majmuasi atrofiga yig'ilgan mutafakkir shaxslar yangi fikrlarni ilgari surar ekan, besh maxsus modda bilan (qoliqlashgan ba'zi tarkiblardan tashqari (mas., sadra'zam, savki tobe, darbi masal) adab va fors tarkiblarining tildan chiqarib tashlanishi; turkcha jamlovchi qo'shimchalaridan boshqa ajnabiy jamlovchi qo'shimchalaridan voz kechish (mas., makotib – maktablar, ma'murin – ma'murlar); yozma tilda faqat milliylikning va soddalikning saqlab qolinishi; arab-fors tarkiblarining xalq so'zlashuv tiliga mos variantlaridan foydalanilishi (mas., shams o'rniga quyosh, qamar o'rniga oy); so'zlashuv tilining Istanbul turkchasi bo'lishi taklifi bilan chiqib, yozma va og'zaki tilda milliylikka alohida e'tibor berardilar. Bularning barchasidan so'ng adabiyotda yangilanish boshlandi. Umar Sayfiddin, Ali Janib, Ziyo Go'kalp, Fuat Ko'prulu, Mehmet Akif va b. adiblar tufayli turk adabiyotida milliy adabiy yo'nalishlar kengaydi.

## IBROHIM SHINOSIY

Shinosiy XIX asr yangi turk adabiyotining adiblaridan biridir. U ayni paytda Turkiyada jurnalistlikning yetakchi namoyandalaridan, fransuz tilidan bo'lgan manzuma tarjimalarining, ilk sahna asarlarining mualliflaridan biridir.

Ibrohim Shinosiy 1824-yilda Istanbul atrofida joylashgan To'pxonada tavallud topgan. Otasi 1828-yilda rus-turk urushida halok bo'lgan. Bundan keyin oilaning barcha tashvishi Shinosiyning onasiga qoladi. U o'g'lining tahsiliga alohida e'tibor qaratadi. Shu tufayli u

Ibrohimni To'pxonadagi mahalla maktabiga beradi. Tahsilini yakunlagach, otasining do'stlari Shinosiyi To'pxonadagi davlat idoralardan biriga yozma ishlar byurosiga

ishga kiritib qo'yishadi. Bu yer yevropacha joy edi. Xodimlarning aksariyati fransuzlar edi. Shinosiy bu yerda yuqori mansabli davlat va madaniyat xodimlari bilan tanishadi, ulardan ko'p narsa o'rganadi. Masalan, u Ibrohim Afandining yordami bilan Sharq ilmiy-falsafiy qadriyatlarini va madaniyatini chuqur o'zlashtira oladi. Shinosiy ayni paytda G'arb madaniyatiga ham ijobiy qaraydi, xususan, fransuz tili va adabiyotini o'rganishga qiziqadi. Bir fransuz zobiti unga fransuz tilini o'rgatadi. Ushbu zobit keyinchalik musulmonlikni qabul qiladi va Turkiyada Rashidbey nomi bilan taniladi. Qayd etish lozimki, saroyda mas'ul vazifada ishlaydigan Rashid Poshoning ham Shinosiy hayotida muhim roli bo'lgan. Shinosiy Rashid Poshodan doim mehr ko'rgan, unga bag'ishlagan qasidasida Rashid Poshoga bo'lgan mehrini o'ziga xos shaklda izhor qilgan. 1848-yilda Shinosiy fransuz tilini va madaniyatini yaqindan o'rganish, ayni paytda tahsil olish maqsadida Parijga ketishni rejalashtiradi. Rashid Posho Sulton Abdulmajiddan rozilik oladi va Shinosiy 1849-yilda Parijga yo'l oladi. Shinosiy turk imperiyasining Parijga yuborgan ilk talabalaridan edi. U taxminan 5 yil davomida Fransiya hayoti bilan tanishib, Yevropa iqtisodiy va madaniy modelining bu mamlakatdagi tatbiqini kuzatgan. Shinosiy keyinchalik moliya ishlarini o'rganish uchun Istanbuldan rasmiy ko'rsatma oladi. Tahsil olish bilan birga moliya vazirligida ham ishlaydi.



**IBROHIM  
SHINOSIY**  
(1824-1871)

U 1854-yilda Turkiyaga qaytadi. Ilk yillar To'pxonada, so'ng esa Majlisi



Maorifda ishlaydi. Shinosiy Yevropadan qaytgandan so'ng yangi uslubda yozgan badiiy asarlarini chop ettiradi. 1859-yilda fransuzchadan tarjima qilgan manzuma asarlardan iborat to'plam chop etiladi. Bu asarlar uning Yevropa adabiyotiga tashlagan ilk qadami hisoblanadi.

Shinosiy Turkiyada keng qamrovda faoliyat ko'rsatadi. U Turkiyada Yevropa standartlariga javob bera oladigan gazetani chop qilishni xohlardi. U ilk yangi turk gazetachiligining asosi hisoblangan "Tarjimoni ahvol" (1860) gazetasida maqolalar chop qiladi. Gazetaning 24-sonidan so'ng bu gazeta bilan aloqani uzadi va yolg'iz "Tasviri afkor" (1862) nomli gazeta chiqaradi. "Tasviri afkor" gazetachilik sohasida o'zidan avvalgi "Tarjimoni ahvol" dan ko'proq ish bajaradi va katta muammolarga to'xtalib o'tadi. Gazeta yangi turk ijtimoiy fikr va adabiyoti tarixida yangi bosqich deb hisoblanadi. Bir nechta ijtimoiy va boshqa masalalarning jiddiyligi, ziddiyat va bezovtaliklarning oshib ketishi Shinosiyning gazetani Namiq Kamolga topshirib, Parijga ketishiga sabab bo'ldi. 1864-yilda Parijga kelgan Shinosiy qalamni yerga qo'ymasdan, katta turk lug'atini tayyorlash bilan shug'ullanadi. Namiq Kamol Parijga ketganidan so'ng esa "Tasviri afkor" gazetasini Rajoizoda Akram chop ettiradi. Sulton Abdulazizning 1867-yilda Parijga safari chog'ida Shinosiyning do'sti va homiysi Fuat Posho u bilan uchrashadi va Shinosiyning Turkiyaga qaytishiga ko'ndiradi. Shinosiy Turkiyaga qaytsa ham yana ikki marta Parijga qaytib boradi.

Bu yillarda u faoliyatida badiiy adabiyot bilan birga gazetachilikka ham alohida o'rin beradi. Shinosiy 1871-yilda vafot etgan.

## IJODI

Shinosiy Tanzimot adabiyotining asosiy namoyandalaridan biridir. U turk adabiyotiga ko'proq realist nosir va yangi she'riyat namoyandasi sifatida kirib kelgan. Shinosiy Parijda o'qiyotganda, onasiga yozgan maktublardan birida "din, davlat, vatan va millat yo'lida o'zimni fido qilishni xohlardim" deb qayd etgan. Turk adabiyot tarixlarida yozilganidek "Shinosiy na porloq uslubga, na yuksak ijodkorlikka molik emas edi". Faqat uning turk adabiyotida oldingi qatordan joy olishi yangilik tarafdori bo'lishi va bu yangiliklarni yuqorida aytilganidek, vatan, millat va b. yo'lida tatbiq etilishiga bog'liq. Chunki Shinosiy, avvalo, istibdod rejimini tanqid qilar, xalq taraqqiyotini bu rejimning yo'qolishida ko'rar edi. Shinosiy yangilikning tatbiqini istibdodga qarshi asosiy kurash vositasi sifatida qabul qilardi. O'z ijodida sanab o'tgan muammolari bevosita xalqning ijtimoiy-siyosiy shuurini uyg'onishiga, yangi g'oyalarni singishiga ta'sir ko'rsatardi. Shubhasiz, Shinosiy xalqqa uning o'z tili bilan murojaat qilishni muhim deb bilardi. U yangi turk adabiyotida sodda til, oson ifodalar tarafdori sifatida o'zini ko'rsatardi. Shinosiy va unga o'xshagan

bir qancha adiblarning eski adabiyot namunalari bilan farqli o'laroq sodda tilda yozishlariga sabab yangi paydo bo'lgan gazetachilikning rivojlanishi bo'lgan. Chunki bu davrda nashr qilingan gazetalarning katta qismi "sof turkcha" yoki "avom lisoni" deb atalgan tilda edi:

*Tengi yo'q bir go'zalni sevdi, suydi ko'nglim.  
Qizg'anar o'z ko'zidan yana o'z ko'nglim.*

*...Jondan ulfat etgali unday yosh dilbar ila,  
Istamam, g'ayrisini huri malak bo'lsa ham.*

*Mast bo'lur, zavqi muhabbat ila u ko'zlar suzilar,  
Sepilgach yuziga ko'z yoshim, ammo ochilar.*

*O'z husnidan uyalib, qizaribdi yonog'i,  
Yuzin yopib, o'rtibdi sochlari boshdan oyog'i.*

Yoxud:

*Zulfig tushganda gardai barrak ustiga  
Billur ichida sunbuli sirobni eslatar.*

Shinosiyning hayoti bilan tanishganda Rashid Posho uning hayotida muhim rol o'ynagani, qisqa qilib aytgansa, shoirning katta xayrixohi bo'lgani ochiq-oydin ko'rinadi. Shu sababli Shinosiy unga doim rag'bat ko'zi bilan boqib, ijodida alohida o'rin ajratgan.

Shoir bir qasidasida Rashid Poshoni ma'rifatparvar sifatida baholaydi, uni xalqining saodat armug'oni deydi:

*Qalbi milodga vujuding ulug' bir mo'jizadir,  
Bu fahm aylamagan mudrikayi ojizadir.  
Etding ozod bizni, bo'lmish ekan zulmga asir,  
Jahlimiz go'yo edi o'zimizga bir zanjir.*

*Bir bitik nomadir, insonga sening qonuning,  
Bildirar haqqini sultonga sening qonuning.  
Sen kabi aqli bo'lgan qon to'kib, kun surarmi?  
Vajhi nomusiga ul qon ila chin surarmi?*

Shinosiy original uslubga molik ijodkor bo'lib, san'atida soddalik bilan birga, aniqlik ham o'zini namoyon qiladi. Uning ijodida bu jihatdan diqqatni jalb etuvchi asarlardan biri ham "Shoirning uylanishi"dir (1859).



Asar Yevropa san'at o'lchovlariga mos ravishda yozilgan ilk sahna asari-dir. "Shoirning uylanishi" bir pardali komediya bo'lib, asar yevropacha modelga mos yozilsa ham, milliy teatr namunasi sifatida qabul qilinga-nini qayd etish lozim. Asarning mavzusi oddiy hayotdan olingan. Bu yer-da maishat muammolari diqqat markazida bo'ladi. "Shoirning uylanishi" komediya uslubida yozilishiga qaramay, bu yerda muayyan dramatism ham bor. Avvalo, turk adabiyotshunoslari Shinosiyning bu asari bilan "Molyer komediyalari o'rtasida yaqinlik va aloqa"ni ko'rishadi. Molyer komediyalarining fojia yonidan o'tishi fikrining aniq va to'g'riligiga aso-slansak, unda "Shoirning uylanishi" komediyasida maishat muammolari ichida o'zini ko'rsatuvchi dramatism darajasining kattaligi shubhasizdir. Asarning asosiy obrazi Mushtoqbeydir. Shoirlik qiluvchi ushbu shaxs mahalladagi Qumri xonim ismli bir qizni sevadi. Shinosiy Mushtoqbey-ni Qumriga bo'lgan muhabbatini, unga qalban bog'langanini shunday ifodalaydi:

*Bir Qumrisan sen,  
Ta'bga muvofiq.  
Qursam uyingni,  
Siynamda loyiq.  
Jon ila ko'ngildan  
Men bo'ldim oshiq.  
Qursam uyingni  
Siynamda loyiq.*

Lekin ularning muhabbatiga to'sqinlik qiluvchilar bor. Mahalla imomi, Zebo va Habiba ismi ayollar shunday odamlardan bo'ladi. Mahalla imo-mi Mushtoqbeyga sevgan qizi Qumrining yoshi kichikligini bahona qilib, uni yoshi katta bo'lgan boshqa ayol bilan nikohlaydi. Mushtoqbey-ni do'sti Hikmat afandi imomga pora bergandan so'ng hamma narsa o'zgaradi. Mahalla imomi "men katta qizning nikohini o'qiganman, faqat yoshda katta bo'lganini emas, bo'yi katta bo'lgan Qumri xonimni" deydi. Shunday qilib, Mushtoqbey o'z sevgilisiga yetadi. Muallif bu yerda zo-hiran oddiy, botinan esa jiddiy muammolarni qisqa shaklda bera olgan, davrning, jamiyatning ziddiyatlariga aralasha olgan. Shinosiy adabiyot-da "gapni cho'zmay" fikrini bildirgan adib sifatida tanilganini aytib o'tish lozim. Ushbu komediyada ham bu jihat o'zini namoyon qilgan.

Shinosiy ijodida asosiy o'rinni she'rlari egallaydi. To'g'ri, uning sanoq jihatdan uncha katta bo'lmagan badiiy ijodi ichida she'rlari ham kam hisoblanadi. Shoirning barcha she'rlari ilk bor 1862-yilda "Devoni Shi-nosiy" deb nomlangan kichik kitobchada chop etilgan. Kitobda klassik Sharq devon she'r shakllarida yozilgan lirik namunalar bilan birga bir qator hajv, satirik manzumalar ham bor. Shuni ham ta'kidlash lozimki,

Shinosiy Sulton Abdulmajidga rag'batini bo'lgani uchun unga madhiyalar yozgan. Aksincha, Sulton Abdulazizga esa boshqacha nuqtayi nazar bilan yondashgan. To'g'rirog'i, ijodida Abdulazizga begona va o'gay munosabatini ko'rsatgan.

Shinosiy G'arbga moyil adib bo'lgani uchun Yevropa tillariga, xususan, fransuz tillariga katta rag'bat ko'rsatgan. Shu sababli Shinosiy turk adabiyotida ilk bor fransuz tilida she'r yozgan shoir hisoblanadi. Shinosiy ijodida folklorga katta qiziqishni ko'rish mumkin. U Usmonli maqollaridan iborat kitob tuzib, turk xalq og'zaki ijodi namunalarining boyligini namoyish qilgan.

Shinosiy turkcha she'rlar yozib, ularning ba'zilarini fransuzchaga tarjima qilganidek, fransuzchadan ham turkchaga she'rlar tarjima qilgan. Fransiyaning mashhur shoirlari bo'lgan Rassini, Lamartin, Lafonten, Jilbert, Fenelon va b. she'rlarini turkchaga o'g'irgan Shinosiy ularning asarlarini ilk bor 1859-yilda "Tarjimai manzuma" nomi bilan chop ettirgan.

Bu yo'l bilan Shinosiy ham fransuz she'r tilini turk tiliga yaqinlashtiradi, ham yevropa she'riyatining Turkiyaga kirib kelishini tezlashtiradi.

## ABDULHAMID ZIYO POSHO

Turkiya turk adabiyotining Yevropaga moyil namoyandalari-dan biri Abdulhamid Ziyó Poshodir.

Ziyó Poshó ayni paytda siyosiy fikrlar jihatdan ham Yevropa maylli shaxslardandir. U 1829-yilda Istanbulda tug'ilgan. Otasi Farididdin afandi o'z davrining taniqli arbobi bo'lgan. Ziyó Poshó bolalikdan ilm egallashga alohida e'tibor qaratgan, bir qator tillar bilan birga fors tilini ham o'rgangan. U, avvalo, mahallada maktabida o'qigan, so'ng esa tahsilini "Maktabi adabiya"da davom ettirgan. "Maktabi adabiya" 1839-yilda davlat idoralariga xodim tayyorlash maqsadida ochilgan.

Ziyó Poshó bu maktabda eng taniqli o'quvchilardan biri bo'lgan. O'qituvchilardan No'mon va Iso afandilar Ziyó Poshoning o'zgacha qobiliyatga ega ekanligini sezib, unga mehr bilan qarashgan. Iso afandi Ziyó Poshoga fors tilining nozik jihatlarini o'rgatib, uning fors adabiyoti va madaniyatini egallashida katta rol o'ynagan. Ziyó Poshó bu maktabda arab adabiyotiga ham vaqt ajratgan.

Ziyó Poshó 17 yoshdan boshlab taniqli yozuvchi va shoirlar jamiyatiga bog'langan, ayniqsa, devon adabiyoti namoyandalari bilan yaqin bo'lgan. Keyinchalik u Orif Hikmatbeyning uyida tashkil topgan "Anjumani shuaro" jamiyatiga kiradi. "Anjumani shuaro" 1861-yilda devon she'rini rivojlantirish maqsadida yaratilgan birlik hisoblanardi. O'sha davrning ko'pgina shoirlari shu jamiyatda taqdim etilar edilar. Hatto keyinchalik devon she'riyatiga keskin hujumlari bilan tanilgan Namiq Kamol ham "Anjumani shuaro"da faoliyat ko'rsatgan. Ziyó Poshó bu yerda o'z qobiliyatini namoyish qilib, ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb etadi. Uning iste'dodli odam ekanligi "qobiliyatni ko'rishda mutaxassis bo'lgan Mustafo Rashid Poshoning ham nazaridan qochmagan". U Ziyó Poshoni saroyga olib borib, uni davlat kotibligiga ishga kirgizib qo'yadi. Ziyó Poshó saroyda fransuz tilini o'rganadi. Natijada Yevropa adabiyoti, xususan, fransuz adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. Ziyó Poshó xayrixohi Rashid Poshoning o'limi saroyda qiyinchiliklar bilan yuzlashishiga sabab bo'ladi. Saroy ziddiyatlari Ziyó Poshoning saroydan uzoqlashtirishiga olib keladi. Siyosiy nizo va qarama-qarshiliklar Ziyó Poshoning Turkiyada qolishiga imkon bermaydi, u 1867-yilda Yevropaga ketishga



ABDULHƏMİD  
ZIYA PƏŞƏ  
(1829-1880)

majbur bo'ladi. Shoir avval Parijga joylashadi. Sulton Abdulazizning Fransiya safari uning Parijdan Londonga ketishiga sabab bo'ladi. Turk adabiyot tarixlarida ko'rsatilganidek, Sulton Abdulazizning Fransiya safari bu davlatning, bilvosita Ziyo Poshoning o'lkada keskin munosabatlarga dush kelishiga olib keladi. Shuning uchun ham shoir yashash uchun Londonga ketishga majbur bo'ladi. Ziyo Posho bu shaharda keng faoliyat ko'rsatadi. 1867-yilda "Muxbir", 1868-yilda "Hurriyat" gazetalarini chop ettiradi. "Hurriyat" gazetasining asosini Namiq Kamol qo'ygan va uning 64-sonidan so'ng Namiq Kamol bu matbaa organidan ixtiyoriy ravishda uzoqlashadi, gazetasining bundan keyingi faoliyati esa Ziyo Poshoning zimmasiga tushadi. Ziyo Posho "Hurriyat" gazetasida Turkiya siyosiy rejimini tanqid qiluvchi maqolalarni chop ettiradi, u hokimiyatga bo'lgan nafratini yashirmas edi. Shuning uchun ham u sudga beriladi. Ta'qib va ayblovlardan qutulish maqsadida Ziyo Posho Parijga boradi, u yerdan esa Jenevaga qochadi. "Hurriyat" gazetasi bundan keyin Jenevada chop etiladi. Gazeta 1871-yilda faoliyatini to'xtatadi.

Ziyo Posho II Abdulhamidning hokimiyati davrida bir qator ishlardan so'ng 1877-yilda Suriya hokimligiga ishga yuboriladi. U 1878-yilda Ko'nyaga, u yerdan esa Adanaga hokim etib tayinlanadi. Ziyo Posho 1880-yilda 51 yoshida Ko'nyada vafot etadi.

## IJODI

Ziyo Poshoning ijodi juda boy va qiziqarlidir. U Tanzimot adabiyotining asosiy siymolaridan biridir. Shoir Tanzimot adabiyotining namoyandasi bo'lish bilan birga devon she'riyatining ham rivojida xizmati bo'lgan shoirlardandir. Ziyo Posho "Tarjiband", "Tarkibband", "Zafar-noma sharhi", "Ro'yo", "Varosati saltanati saniya", "Arzi hol" va b. asarlarning, ko'pgina tarjimalar va til-adabiyot to'g'risidagi maqolalarning muallifidir. Ziyo Poshoning "Kulliyoti Ziyo Posho" nomli she'riy to'plami 1924-yilda Istanbulda chop qilingan. Devon deb nomlangan ushbu she'rlar to'plamiga Shayx G'olib, Fuzuliy, Nadim, Nabi kabi klassik she'r ustozlari uslubida yozilgan munojot, na't, marsiya, qasida, g'azal va b. namunalar ham kiritilgan. Lekin Ziyo Posho ijodida klassik she'r an'anasi kuzatilsa ham, bu she'rlarning ko'p qismi mavzu va g'oya jihatdan Yevropa adabiyoti namunalariga yaqin edi. Chunki bu namunalar shakl jihatdan eski, mazmun jihatdan esa yangi she'rlar hisoblanardi. Ziyo Posho qasidalarida Eron, g'azallarida esa turk she'r an'alariga rioya qilgani aytilsa ham, tanzimotchi sifatida ijodidagi ustunlik G'arb adabiy an'alarining foydasiga rivojlanardi. Ziyo Posho g'azalga olib kirgan yangi ma'no va ifodalar shoirning Yevropa adabiy qadriyatlariga ustunlik berganidan dalolatdir. Aniqrog'i, Ziyo Posho avvalambor g'azaldagi

lirik tuyg'u ifodasini ijtimoiy-siyosiy tafakkur bilan alishtira oldi. Shu sababli shoir ijodida ijtimoiy-siyosiy xarakter keng aks eta boshladi

Ziyo Posho devon adabiyotidagi mahalliy lashuv jarayonining faol a'zolaridan biri sifatida tanilgan. Devon adabiyotidagi mahalliy lashuv jarayoni oshiq tarzi bilan devon tarzining birlashishidan paydo bo'lgan adabiy harakatdir. Shuning uchun ham Ziyo Poshoning bu uslubda yozilgan she'rlari til jihatdan sodda va tushunarlidir:

*Tog'larni tuman bosdi, ag'yor bilinmas,  
Ovchi qurdi tuzog'ini yorga borilmas.  
Vafosizning majlisida boda ichilmas,  
Kir suruvga bo'ri yemasin, kel, qo'zichoq.  
So'ngra yordan ajralarsan, oh, bo'taloq!*

Ziyo Poshoning ko'pgina she'rlari til va ifoda jihatdan xalq ijodi an'anasiga mos ravishda ko'proq diqqatni jalb etadi:

*Nechun nolondasan bunday,  
Ko'ngil, darding nadir so'yla,  
Seni men istamam unday,  
Ko'ngil, darding nadir, so'yla.*

*Havolanding bu kunlarda  
Na yel esdi ajab sarda.  
Davo bo'lmasmi bu dardga?  
Ko'ngil, darding nadir, so'yla.*

Yoxud:

*Oshiqlarni ishontirar,  
Yolg'on va'da bilan aldar,  
Bu fe'l seni uyaltirar,  
Ko'p noz oshiqni bezdirar.*

Ziyo Poshoning adabiy qarashlarida Yevropaga xos qadriyatlar aks etgach, asarlari ideologik jihatdan yangi mohiyat kasb eta boshladi. Bu esa bevosita Tanzimotning hurriyat, konstitutsiya istagi va talabi bilan bog'liq edi.

Lekin bu yerda nozik maqomga diqqat qilish lozim. Ziyo Posho Tanzimot adabiyotining namoyandasi sifatida Yevropa qadriyatlariga hurmat bilan yondashar, Yevropa adabiyotining o'rganilishini targ'ib qilardi. U Yevropa tillarining o'rganilishiga zaruriy ehtiyoj borligini alohida ta'kidlar edi. Ammo Ziyo Posho bular bilan birga ona tilga, o'z adabiyoti-

ga o'gay munosabat ko'rsatishga qarshi edi. To'g'rirog'i, uning nazarida Yevropa madaniyatiga yaqinlashish, barcha milliy ma'naviy qadriyatlarini kamsitish emas, aksincha uni yanada rivojlantirish edi.

***Istar esang, anglamoq dunyoni,  
O'rganish shart Ovro'pa lisoni.  
Bilmoq kerak undagi fununni,  
Tark ayla taassubi jununni.  
Taqli ila aslini unutm,  
Millatingni xokisor qilma.***

Ziyo Posho ijodida masalalarga har tomonlama munosabat bildiriladi. Avvalo shuni qayd etish lozimki, shoir ijodida hayotning ko'p muammolari o'ziga joy topgan. Ushbu muammolarga ba'zan usti yopiq, ba'zan esa bevosita, aniq munosabat bildiriladi. Ziyo Posho Yevropaga ketishdan avval devon she'riyat tarzida "Tarjiband" nomi bilan 3 mashhur asar yozadi. Bu asarlar mazmun va g'oya jihatdan bir xil bo'lsa ham, ifoda tarziga, bayt va band sonlariga ko'ra farqlanadi. 1859-yilda yozilgan "Tarjiband" diniy-tasavvufiy qarashlarni aks ettiruvchi hikmatga boy asardir. 12 banddan iborat bo'lgan bu asarda shoirning koinot to'g'risidagi o'ylari, tabiat sirlari oldida insonning o'zligi, yer yuzida mavjud bo'lgan nizomsizlik, nohaqlik, adolatsizlik va b. muammolar o'rin egallagan. Ziyo Poshoning "Tarjiband" asarida klassik Islom falsafasi bilan modern G'arb falsafasi, shu jumladan, Kopernik tafakkur tizimi solishtiriladi. Professor Mehmet Kaplan Ziyo Poshoning bu kabi yondashuvini yuksak baholaydi va "eski adabiyotimizda koinot va hayot haqida bunchalar keng, bunchalar tizimli yozilgan manzuma yo'q" deydi. 12 bandlik bu asarda jamiyat haqida bir qator muammolarga aniqlik kiritish, ularni izohlash asosiy maqsad bo'lsa ham, bularning izohida inson tafakkuri va aqlining o'zligi bildiriladi. Chunki koinotda mavjud bo'lgan barcha sabab va natijalar Allohga xos. Allohga xos bo'lganlarni inson aqli idrok qilolmaydi. Shuning uchun ham asarda dunyo mo'jizaviy darsxonaga, makonga o'xshatiladi va u falokat charxi atrofida aylanuvchi tegirmon sifatida taqdim etiladi. Muallif dunyoda yuz berayotgan adolatsizliklar, ochko'zliklar, falokatlar, manmanlik, dono insonlarning nodonlarga, savodlilarning savodsizlarga muhtoj bo'lishi ildizida turgan sabablarni o'rganishga harakat qiladi.

***Yo Rab, nedir bu kashmakashi dardi ehtiyoj,  
Insonning ehtiyoji-ki bir luqma nonidir.***

***Yo Rab, nedir bu dahrda har mardi zufunun  
Bo'lmish baloyi aql ila oramdan ma'sun.***

***Yo Rab, nechun bu arsada har shaxsi orifin  
Miqdori fazliga ko'ra dardi bo'lur fuzun.***

Bu savollarga javob topmaguncha, biz asarda dunyoning tengsizligi, adolatsizligi va b. to'g'risida sanab o'tilgan fikrlarga duch kelamiz. Shoir dunyoning johil insonlar nazoratida bo'lishi, ko'ngil sohiblarining, bilimli insonlarning ma'naviy zarbaga duchor bo'lishi, insonlarda boyish nafsining ko'payishi, yomonning yaxshini yengishi va b. fikrlar bilan jamiyatdagi yomonliklarning umumiy manzarasini yarata oladi. Ziyo Posho "Tarjiband" da buning sababini yurak qayg'u bilan jahonda aqlli va telbani, haq va nohaqni ajratadigan tarozi yo'qligini ko'radi. Shoir Sharq dunyosining o'ziga xos nuqsonlarini tilga olar ekan, musulmonlarda avvalgi g'ayrat, harakat, nomus va poklikning qolmaganini, insonlarda milliy g'urur, davlatga sadoqatning kamayishini ma'naviy jirkanchlik deb hisoblaydi va asarda bularni bezovtalik bilan quyidagicha qalamga oladi:

***Millati islomda avvalgi g'ayrat qolmadi,  
Eski iffat, eski nomus, eski himmat qolmadi.***

***Eski majnunlardagi g'ayrat, hamiyat qolmadi,  
Endi hamma oqil bo'ldi, u jinnat qolmadi.***

***Hech kimda avvalgi ikdom, u sadoqat qolmadi,  
Hosili axloq bitdi, mulki millat qolmadi.***

Lekin Ziyo Posho ma'naviy jirkanchliklardan bezovta ekanligini bil-dirsam ham, insonlarga "nomus va insoniylikni aslo orzu qilib o'ylama" deyish bilan Allohning irodasidan chetda hech nimaning bo'lmasligini ta'kidlaydi. Shoirga ko'ra, dunyo faqat go'zalliklari bilan emas, balki butun ma'naviy azoblari bilan ham Allohga xos. Chunki bu dunyoning ayblarini ham, go'zalliklarini ham Alloh yaratgan. Faqat bularni Alloh yaratsa ham, Allohning o'zi har qanday nuqson, ayb va kamchiliklardan uzoqdir, buyuk qudrat egasidir:

***Subxona men tahayyora fi sunihil ukul,  
Subhona men bi qudratihi ya juzul fuhul.***

(Ulug' qudrati bilan Allohni tasbeh etaman. Uning har qanday qusur, ayb va nuqsonlardan uzoq ekanligini qabul qilaman va aytaman). Asarda ilgari surilgan g'oya shu: koinotda hamma narsa Allohning qo'lida va inson irodasi Alloh yaratgani oldida o'jizdir. Bularning bari Ziyo Posho bir



islohotchi sifatida yangi hukumat tuzish, jamiyatda o'zgarishlarni amalga oshirish, xalqni saodatga qovushtirish uchun tashlangan qadamlarning befoyda ekanligini ko'rganidan so'ng yozishga majbur bo'ladi. Shoir bularni mavjud bosqichda insonning hanuz nimagadir erishining iloji yo'qligini anglagach, qalamga oladi. Lekin bular Ziyo Posho asarda ilgari surgan g'oya bilan jamiyatda inson tashabbuskorligi oldida devor quradi, uning hayotdagi faoliyat va rolini ahamiyatsizlashtiradi degani emas. Chunki modern adabiyotning namoyandasi sifatida Ziyo Posho ijodida jamiyat o'zgarishi g'oyasi oldinda bo'lib, inson jamiyatda yetakchi va aktiv rolda taqdim etilgan.

Ziyo Poshoning 1870-yilda Shvetsariya yozgan "Tarkibband" manzumasi Ruhi Bag'dodiyning (XVI asr) "Tarkibband"iga naziradir. Shoirning bu asari bilan 1859-yilda yozgan "Tarjiband" o'rtasida mavzu, g'oya va shakl jihatidan muayyan yaqinlik bor (Ziyo Poshoning narigi ikki "Tarjiband" va "Tarkibband"i mavzu va g'oya jihatdan bir xil bo'lsa ham, band soniga ko'ra farqlanadi). Har ikki asar haqiqiy hayot haqiqatlarini aks ettiruvchi yarimsatirik uslubda yozilgan 12 bandlik hikmatli she'r parchalaridan iborat. She'r Yevropada yozilgani uchun bu yerdagi G'arb ta'siri boshqa asarlardan farq qiladi. Shuning uchun ham asardagi axloqiy-didaktika va estetika kuchliroq ekanligi seziladi. "Tarjiband" dagidek "Tarkibband"da ham Alloh qudratlidir, u kulli-ixtiyor sohibidir, deyiladi. Quyoshning paydo bo'lishi, Oyning nur sochishi, ko'kdagi qushlarning uchishi, daryolardagi baliqlarning suvda yashashi va b. Allohning hikmatidir. Shoir yer yuzida, dengizda va osmonda bo'lgan hamma narsaning Alloh amri bilan yaralganini qayd etadi. Shu sababli u yer yuzidagi fitna va ig'volarning ham Alloh hukmida ekanligini bildiradi. "Tarkibband"ning 2-bandida bu borada shunday deyiladi:

***Sendadir Ilohiy yana bu makru bu fitna,  
Bu makru, bu fitna yana sendadir, Ilohiy.***

"Tarkibband"da axloqiy-didaktik fikrlarga alohida o'rin ajratilgan. Bu fikrlarda Ziyo Poshoning diniy-tasavvufiy qarashlari bilan birga ijtimoiy qarashlari ham o'z aksini topadi. Asardagi aqlli inson bilan nodon insonning farqi mol-davlatning vaqtinchalik boylik bo'lishi, boylik egalarining qalbi emas, yuzi kulishi, insoniylikning asosiy maqsadi xayrixohlik bo'lishi, davlat va saltanatning insonga abadiy berilmastligi, aslida yomon bo'lganlarning fe'l-atvori sharob majlisida bilishi va h. kabi fikrlar ham reallikni aks ettiradi, ham inson tasavvurida ta'sirli iz qoldiradi.

"Tarkibband"dagi saroy mansabdorlari, zolimlar, pora olganlar va b. haqidagi namunalarda ijtimoiy-siyosiy mazmun kuchliroqdir. Masalan, shoir xalqiga azob beruvchi hokimning bu dunyoda ham, oxiratda ham tortadigan azoblariga ishora qilib yozadi:



***G'addorlik etsa raiyatiga hokimi ayolat,  
Dunyoda va oxiratda na zillat, na razolat.***

Yevropada kapitalizmning taraqqiyot sur'atining oshishi uning iqtisodiy yuksalishi bilan birga, siyosiy kuchini ham orttirardi. Rivojlangan Yevropaning Sharqqa qiziqishi uning bir qator maqsadlarining reallashishiga xizmat ko'rsatar edi. Usmonli imperiyasini parchalash va Sharqda yangi mustamlakalarga erishish Yevropaning Sharq manfaatlari qatorida birinchi o'rinda turardi. XIX asrdan boshlab Yevropaning Usmonli davlatiga siyosiy va iqtisodiy jihatdan tazyiq va ta'siri kuchaya boshladi.

Tanzimot islohoti (1839) va Tanzimot farmonidan (1856) keyin Usmonli davlatining siyosat va iqtisodiyotida yevropacha nizomlash uchun keng sharoit yuzaga keldi. Yevropacha nizomlashning muvaffaqiyatlari bilan birga nuqsonlari ham bor edi. Bu to'g'risida kitobning Tanzimot adabiyoti xususiyatlari keltirilgan qismida ma'lumot berilgan. Lekin Tanzimotning madaniy va iqtisodiy pardasi orqasida Yevropaning siyosiy makri yashiringan edi. Yevropadan kelgan barcha siyosiy g'oyalarga shubhasiz yondashgan va uni Turkiyada tatbiq qilishga uringanlar aslida bu makrlar mohiyatini anglamas, parda ortida yashiringanlarni ko'ra olmasdilar. Aynan mana shunday kuchlar Turkiyaning, umuman, Sharqning qoloqligini Islom diniga bog'laydi, G'arbga uchib, milliy-ma'naviy qadriyatlarga behurmatlik qilishar edi. Ziyo Posho asarda shunday fikrovchilarni tanqid qilar, insonlarni o'z ildiziga milliylikka bog'lanishga chorlar edi:

***Islom emish davlatga pabandi taraqqiy,  
Avval yo'q edi ish, bu rivoyat yangi chiqdi.***

***Millati nisyon etib, har ishimizda  
Askori firanga tobeyat yangi chiqdi.***

***Eyvoh, bu o'yinlarda bizlar yana yondik,  
Zero-ki, ziyon o'rtada, bilmam ne qozondik.***

"Arzi hol" Ziyo Poshoning realist nasr uslubida yozgan tarjimai hol xarakterli asaridir. Asar 1867-yilda yozilgan va Parijda safarda bo'lgan Sulton Abdulazizga taqdim etilgan. Asarda Usmonli mamlakatining o'sha davrdagi holati to'g'risidagi qiziqarli fikrlari diqqatni jalb etadi. Shu bilan birga asarda Ziyo Poshoning nima uchun saroydan haydaliishi, Yevropaga ketishi va h. tarjimai hol xarakterli ma'lumotlar ham o'rin olgan.

Maktub shaklida yozilgan "Varosati saltanati saniya" (1868) asari ko'proq "Varosat maktublari" nomi bilan taniladi. Asar iki maktubdan iborat. Yevropada yozilgan bu maktublar Mustafa Fozil Poshoning

huquqlarini himoya qilishni asosiy maqsad qilgan. Shoir go'yo mak-tublarni Yevropadan Istanbuldagi do'stiga yuboradi. Maqsad Fozil Posho huquqlarining himoyasi bo'lsa ham, Sulton Abdulmajidning ukasi Abdul-lazizni taxtdan uzoqlashtirishi va o'g'li V.Murodni valiahd etib tayinlashi masalasi ham asarda joy olgan.

Ijodini mutolaa qilgan sari o'quvchi Ziyo Poshoni goh pandgo'y, goh kinoyachi, goh zamonani ayblovchi shaxs sifatida ko'radi. Taxminiy ket-ma-ketlikni kuzatganimizda esa Ziyo Poshoning nasihati so'nggi lahza-da g'azabga, e'tirozga, isyonga aylanishini ko'ramiz.

*Bir yerda yo'q nag'mani olqishlovchi go'sh,  
Tazyiyi nafas aylama, tabdili maqom et.  
Ayol kabi mag'lubi havo bo'lma, er bo'l, er!  
Nafsing seni rom etmasin, sen nafsingni rom et.*

Ko'rinib turganidek, Ziyo Posho har bir shaxsning jamiyatda o'z o'rnini bilishga, mavqeyini aniqlashga chorlaydi. Lekin Ziyo Posho saroydaligi-da ziddiyatli siyosiy parokandalik sharoitida yashaganini, muayyan gu-ruh saroy rasmiylari bilan to'qnashganini, natijada esa qarshisidagi to-monning kuchli tazyiqlari bilan saroydan haydalganini qayd etish lozim. U sadra'zam kabi davlatda katta lavozimni egallash niyati bo'lsa ham, bu niyatiga yeta olmagan qiziqarli faktidir. Albatta, bu jarayonlar un-ing ijodidagi siyosiy va ideologik xususiyatlarini ortishiga ta'siri kam bo'lmagan.

Ziyo Posho she'rlarida zamondan shikoyat, davrga qarshi e'tiroz o'ziga xos iboralarda o'z aksini topishi mumkin. Aslida bu kabi iboralarda zulm ostida ingraganlar hayotining umumiy manzarasi e'tiborni tortadi.

*Bebaxt bo'lganning bog'iga bir qatrasi tushmas,  
Yomg'ir o'rniga duri gavhar yog'sa samodan,  
Arbobi kamoli chekmas noqis bo'lganlar,  
Ranjida bo'lur diydayi huffosh ziyodan.*

Ziyo Posho ma'rifatchi va demokratik qarashli shaxs sifatida jami-yatda hukm surgan ijtimoiy adolatsizliklarga bosh egmay, doimo zah-matkashlarning haqini himoya qildi. Lekin zolimning haqiqatga parvosi-zligini, insonlarga beshafqat munosabatini ko'rganda Allohga yuzlanib, haqiqatning g'alaba qozonishini so'raydi:

*Zolimlarni adling ne zamon haq edar?  
Mazlumlarning chiqmoqda ko'klarga ohi.*

Shoir jamiyatdagi har qanday ayb va nuqsonlarni beayov o'qqa tutadi. Ziyo Posho nafaqat o'z mamlakatida, butun dunyoda zulm ijrochisi bo'lgan zolimlarning yo'q bo'lishiga ishonchini namoyish etadi.

*Zolim yana bir zulmga giriftor bo'lur oxir,  
Albatta bo'lur, uy yiqqanning xonasi vayron.*

Boshqa she'rida esa shoirning bu masalaga munosabati boshqa uslubda aks etadi:

*Toshlar yedirdi non o'rniga bir zamon falak,  
Non berdi endi oh-ki, dandona qolmadi.*

*Nikubad har kas topur olamda, bir kun etganin,  
O'zi tortmasa jazo meros qolur farzandiga.*

Ziyo Posho bu ishonchning davomi sifatida hanuz mavjud bo'lgan, sodda va mehnatkash xalqning boshiga tushgan sanoqsiz musibatlarni vaqtincha deb hisoblaydi. U hayotda har narsaning umri tugaganidek, zulmning ham, zolimning ham mavjud bo'lish muddati tugashiga ishonadi. U naqadar "faoliyatda" bo'lsa ham, "tashlagan qadami bilan" o'z oqibatiga boradi.

*Ko'p muqbilni ko'rdim-ki, kular, ichi qon yig'lar,  
Xandon ko'ringan har kimni xurram bilasanmi?*

Ziyo Posho asarlarida xalqning haq ishi g'olib bo'lishiga ishonch bilirsam ham, mavjud vaziyat uni doim bezovta qilib, zulmdan azob tortganlarning holiga achingan, xarobazorga aylangan viloyatlarning manzarasiga, musulmon dunyosining taraqqiyot va takomillashishi jihatdan "Kufr diyori" deb hisoblagan Yevropadan ortda qolishiga nadomat bilan boqqan.

*Diyori kufri kezdim, saroylar, koshonalar ko'rdim,  
Aylandim mulki islomni, butun vayronalar ko'rdim.*

Boshqa she'r namunalarida ham "mulki Islom" davlatlari qatorida Usmonli davlatining vaziyati shoirni bezovta qilgani aks etgan va Ziyo Posho o'z vatanining parishonligini aks ettiruvchi ijtimoiy-siyosiy o'ylarini quyidagicha qalamga olgan:

*Emas edi davlatning avvalda holi garchi xo'p yaxshi,  
Sho'rliklar, oh kim bo'ldi yomonlardan yomon endi.*

Hayotidan ma'lumki, Ziyo Posho davlat ichidagi ijtimoiy-siyosiy ja-

rayonlarning yevropacha takomillashining tarafdori bo'lib, saroydagi muayyan shaxslar bilan kurashishining yana bir sababi ham shu bo'lgan. Uning jiddiy raqibi bo'lgan shaxs sada'zam Ali Posho edi. Qayd etilishicha, shoir uning bu vazifadan ozod etilishi va o'zining sadra'zam bo'lishini xohlasa ham, bunga erisha olmagani.

Shoir hayotining va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarning muayyan jihatlari aks ettiruvchi asarlardan biri "Tush"dir. Asar 1869-yilda Londonda yozilgan va o'sha yili "Hurriyat" gazetasining 68, 69-sonlarida chop etilgan. Ushbu mansur va fantastik asar uydirma shaklda yozilgan. Lekin asarning asosiy xususiyati shaxsiy masalalar emas, aynan Ziyo Poshoga aktual ko'ringan Turkiyaning muammolarini aks ettirilishi edi. Asarda ko'rsatilishicha, Londonda musofirlikda bo'lgan shoir bog'da kezib yuradi va charchab, o'rindiqlikda uxlab qoladi. Tushida vatanini ko'radi. O'zi ishlagan saroyini ko'radi. Tushida Sulton Abdulaziz bilan uchrashadi. Turkiyaning muammolarini sanab o'tadi. Turkiyaning vaziyati og'irligi, sababchilari kim ekanligi to'g'risida Sultonga ma'lumot beradi. Shoir Sultonga bu sabablarning bir nechtasini sanaydi va asosiy sabab Turkiyadagi mansabdorlarning davlatga xiyonati deb ko'rsatadi. Bu masalada Ziyo Posho Sultonga Ali Poshoning aybi ko'p ekanligini aytadi. Chiqish yo'li uni sadra'zamlikdan ozod qilib, Kiprga hokim etib tayinlanishida ekanligiga ishora qiladi. Sulton Abdulaziz Ziyo Poshoning gapiga qo'shiladi va uning Kiprga hokim etib tayinlanishi to'g'risida farmon beradi. Endi Ali Poshi muhrni topshirib, Kiprga yo'l olishi amalga oshgan edi.

Ziyo Posho muhrni Sulton Abdulazizga olib keladi. Uni Sultonga topshirayotganda, uni uyqudan uyg'otishganini ko'radi. Va asar shu shaklda tugaydi. Mazmunidan ko'rinib turibdiki, asar fantastik hamda noreal uslubda yozilgan bo'lsa ham, sof va real fikrlarni ifodalagan. Aslida shoir tush jarayonidan vosita sifatida foydalanadi. U hodisalarga o'z manfaatlarini bilan aralashadi. Lekin bu manfaatlar davlat manfaatlarini o'laroq o'ziga joy topgan, uni butunlashtiruvchi manfaatlar ekanligini e'tiborga olish kerak. Shu sababli asarda Turkiya-Yevropa, Turkiya-Rossiya munosabatlariga, Turkiyaning obro'si ortishi masalasiga keng joy ajratilgan. Krit oroli va Misrda Turkiyaga qarshi ko'tarilgan isyonlarning bostirilishi, ularga yordam bergan xorijiy davlat va ichki josuslarga qarshi rejalar muzokarasi ko'proq manfaatlarini tug'diradi. Ziyo Poshoning Sulton Abdulaziz bilan suhbatida Yangi Usmonlilar jamiyatining tuzilishi va uning oldiga qo'ygan maqsadi ham muzokaradan chetlab o'tmaydi. Aslida Turkiya duch kelgan muammolar va ulardan qutulish maqsadi bilan tuzilgan ushbu jamiyat Turkiya hayotida muhim ishlar ko'rmagan bo'lsa ham demokratik tashkilot edi.

Yangi Usmonlilar jamiyati rejalarining shoir tomonidan hukmdorga yetkazilishi shaxsiy emas, ijtimoiy xususiyatga ega.

Ziyo Posho ijodida vatanparvarlik motivi asosiy o'rinni egallaydi. Turkiyaning zafar tarixi bu ijod uchun doimo yetakchi mavzuga aylangan va shoirning hodisalarga bevosita aralashuvi shaklida o'z aksini topgan. To'g'ri, bu kabi namunalarda ham shoirning ijodiga xos bo'lgan tanqid-dan chetlab o'tilmaydi, ba'zi shaxslar tanqid obyektiga aylanadi. Masalan, mavzusi 1866-yilda Krit isyoni vaqtida sodir bo'lgan hodisalardan olingan "Zafarnoma" ana shunday asarlardandir.

Tarixdan ma'lumki, Rossiya va Yunonistonning ko'mak va himoyasi natijasida 1866-yilda Krit orolida Turkiyaga qarshi isyon ko'tarilgan, ularga muxtoriyat berilgandan so'ng isyon bostirilgan edi. Albatta, buni turk tarixida aqlli va muvaffaqiyatli siyosat sifatida qabul qilish mumkin. Chunki Angliya, Fransiya, Rossiya, Yunoniston va boshqa davlatlarning antiturk ittifoqi Krit isyonining boshqacha uslubda bostirilishiga to'sqinlik qilardi.

Asarga berilgan nom avvalo insonda "Zafarnoma"dagi Turkiyaning katta muvaffaqiyat va g'alabasi o'z badiiy aksini topgan degan tasavvurni uyg'otadi. Lekin Ziyo Posho bu asarda o'z ijodiy uslubiga mos ravishda satira janrini oldinga olib chiqqan, Krit oroliga muxtoriyat berish rejasi va loyhasining me'mori bo'lgan sadra'zam Ali Poshoni tanqid obyektiga aylantirgan. Bu ma'noda qabul qilingan qaror muallif nazarida qo'shtirnoq ichidagi g'alaba ekanligini ifodalaydi. Tilga olingan jihat asarda muallifning qiyosi va munosabatida ochiq shaklda namoyon bo'ladi:

*Kimsalar bo'lmadi bu fathi mubinga mazhar,  
Na Iskandar, na Hulokiy, na Sezar-u Anibal.  
Kritni qaytib oldi savlati sayfu qalami,  
Xalqiga kelmish ekan doyayi istiqbol.  
Bu na g'ayrat, na hamiyat, na jasoratdir bu,  
Hech ko'rilmishmi tavorixi salafda amsol.*

Ziyo Posho lirikasida falsafiy chuqurlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham uning poeziyasida oddiy lirika o'zgacha rangbaranglik komponentiga aylanadi.

Shoir nazarida inson hech qachon mansab va boyligiga, yoshlik va sog'lig'iga ishonmasligi lozim. Bularning bari o'tkinchi. Inson o'z ezgu amallariga suyanmog'i darkor.

*Bir kun kelajak sen ham parishon bo'larsan,  
Ey g'uncha, bu jamiyatni ham dam deb o'ylaysanmi?*

Ziyo Posho asl insoniylik shartini dunyo molidan yuz o'girish, sodda, tabiiy bo'lish bilan birga ezgulik qilish deb biladi. Shuning uchun ham

shoir bu g'oyalarining targ'ibi sifatida yozgan bir qancha she'ri inson muammolari, uning jamiyatdagi o'rni va roli masalalariga falsafiy munosabat bildirish jihatdan ahamiyatlidir:

*Hur bo'lmoq istar esang, bo'lma jahonning  
Zavqida, safosida, g'amida, qayg'usida.  
Oyinasi ishdir kishining, gapga boqilmas,  
Shaxsin ko'rinur rubtayi aqli asarida.  
Insonga sadoqat yarashar, ko'rsa ham ikroh,  
Madadkoridir to'g'rilarining hazrati Alloh.*

Ziyo Posho umrini faqatgina xalqining farovonligiga bag'ishlagan va ijodida ham bu yo'lda davom etgan. Shoir bu yo'lda katta mashaqqatlar chekib, xalqqa qarshi bo'lgan kuchlarning ta'qiblariga duchor bo'lgan. Lekin u o'z yo'li haq bo'lgani uchun ishonchini yo'qotmay, kurashdan qaytmagan:

*Bir zamonlar men ham tushdim baloyi g'ayratga,  
To'g'rilikla uchradim ming xil dardi zahmatga,  
Goh vatandan ayrilib, ketdim diyori g'urbatga,  
Oqibat bo'ldim giriftor, ushbu muhlik illatga.*

Yoxud:

*Xonumonim torumor bo'ldi hamiyat yo'lida,  
Barku borim xo'p parishon bo'ldi g'ayrat yo'lida,  
Nafsima zulm ayladim xalqqa adolat yo'lida,  
Jismu jon etdim fido bu mulku millat yo'lida.*

Qayd etish joizki, Ziyo Posho devon adabiyoti uslubida yozgan she'rilarida ham klassik an'ananing murakkab so'z va iboralaridan uzoqlashib, nisbatan sodda iboralardan foydalangan.

*Aksar kishining suratiga surati bo'lmas,  
Yo Rab, bu ne hikmatdir, ilohiy, bu ne holat.*

Yoxud:

*Dardga uchrar kim sadoqat etsa, albat, davlatga,  
Istiqomat mahzi jannatdir bu mulki millatga.*

Ziyo Posho XIX asrning zabardast shoirlaridan biri hisoblanadi. U o'z ijodida xoh klassik, xoh Tanzimot adabiyoti xususiyatlarini parallel ravishda takomillashtirib, adabiyotda muvaffaqiyat qozongan.

## NAMIQ KAMOL



**NAMIQ KAMOL**  
(1840-1888)

XIX asr turk adabiyotining zabar-dast namoyandasi, "Yangi Us-monli jamiyati"ning faol a'zosi, asarlarida xalqqa ozodlik, vatan, millat sevgisini singdirgan Namiq Kamol 1840-yil Tekirdag' qishlog'ida mansabdor va dindor oilada dunyoga kelgan. Namiq Kamol 6 yoshidan boshlab tahsil olishni boshlagan. Uning ilk tahsili bilan otasi Mustafo Osimbey va maxsus murabbiylar shug'ullangan. Namiq Kamol 8 yoshida onasi Zahro xonim vafot etgach, bobosi Abdulatif Posho bolani o'z qaramog'iga oladi. Abdulatif Posho Istanbulda ekanligida Namiq Kamol Boyazid rushdiyasida tahsil oladi. Abdulatif Posho

Qars va Sofiyada rais bo'lib ishlayotganida, Namiq Kamol arab va fors tillarini maxsus murabbiylar yordami bilan o'rganib, bu xalqlarning adabiyoti bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo'ladi. U Qars va Sofiyada ruslarga qarshi turklarning qahramonlik kurashiga guvoh bo'lib, turk xalqining kurash azmi buyukligini o'z ko'zlari bilan kuzatadi. Bu kuzatuvlar, shu jumladan, arab va fors tildagi manbalardan foydalanish qobiliyati keyinchalik unga Sharq-Isлом madaniyati va Usmonli tarixini o'rganishi va tadqiqi uchun yetarlicha faktlar beradi.

Namiq Kamol 13-14 yoshlaridan boshlab she'r yozgan. To'g'rirog'i uning ilk she'r yozishi Qarsda yashagan yillariga to'g'ri keladi. U 1856-yilda 16 yoshida bobosi va buvisining qistog'i bilan uylanadi. Uylangach, Istanbulga ko'chadi. Istanbulda Tarjima markazida ish boshlagan Namiq Kamol 10 yil shu yerda faoliyat ko'rsatadi. Lekin uning faoliyati bu markaz bilan cheklanmay, ayni paytda u Mol-mulk bojxonasi idorasida ham ishlagan. Istanbulda Namiq Kamol Sharq adabiyoti va tarixi bo'yicha bilimni oshirishga bel bog'lab, Qars va Sofiyada yozgan she'rlar asosida devor. tuzgan. Sharq tillarini bilish bilan bir qatorda, u g'arb tillarini va madaniyatiga ham qiziqadi va Tarjima markazida Mehmet Mansur afandining yordami bilan fransuz tilini o'rganadi. Mehmet Mansur Namiq Kamolning xotirasida chuqur iz qoldirgan, Fransiyadan otasiga yozgan maktublarda uni hurmat bilan yod olgan edi. Fransuz tilini o'rganish orqali Namiq Kamol G'arb madaniyati bilan yaqindan tanishadi. Xususan, Shinosiyning ta'siri shoirda G'arb madaniyatiga bo'lgan ishtiyoqi ortadi. 1865-yildan boshlab Namiq Kamolning jurnalistlik faoliyati kengayadi. Turli mavzularda chop ettirgan maqolalar unga bo'lgan qiziqish va e'tiborni oshiradi, davlat idoralarining yonida obro'sini ko'taradi.



Masalan, Namiq Kamol Istanbulning yong'in muammolari to'g'risida yozgan maqolasi sadra'zam Ali Poshoga yoqadi va shoirga hukumat mukofoti taqdim etiladi. Namiq Kamolning jurnalistlik faoliyati uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol munosabatini ta'minlagan, shoirning mutlaq rejimga ochiqchasi e'tiroz bildirishiga sabab bo'lgan. Namiq Kamolning istibdodga qarshi e'tiroz va kurashining birinchi sababi jamiyatdagi adolatsizlik va nohaqlik edi. Ayni paytda "ularning naslida sadra'zamlar, katta sarkardalar, shoirlar, olimlar bo'lgan. Lekin hammasi sultonlar g'azabiga uchrab, ba'zilarining boshi tanasidan judo qilingan, ba'zilarining mol-mulki musodara qilingan, og'ir moddiy vaziyatda yashaganlar. Shubhasiz, ajdodlariga ko'rsatilgan zulmlar ham Namiq Kamolning sulton istibdodiga isyonchi ruhda ulg'ayishiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan" (Rustam Huseynov). Ammo Namiq Kamolning hokimiyatga qarshi e'tirozlari avvaliga yashirin shaklda bo'lgan. 1865-yilda "Ittifoqi Hamiyat" nomi bilan shakllangan tashkilot keyinchalik "Yangi Usmonlilar jamiyati"ga aylandi va oldiga kattaroq maqsadlar qo'ydi. "Yangi Usmonlilar jamiyati"ning asosiy maqsadi Turkiyada Konstitutsiya tuzishdan iborat edi. "Yangi Usmonlilar jamiyati"ning ilk asoschilaridan bo'lgan Nuribey, Rashodbey, Mehmetbey, Oyatullohbey va boshqalar Turkiyaning ushbu vaziyatiga ko'z yummay, uning yangi faoliyat mexanizmini o'rtaga tashlashadi.

1867-yilda Namiq Kamol Sharq masalalari to'g'risida maqolalar yozdi. Hukumatning siyosatiga to'g'ri kelmagan ushbu maqola tufayli muallifga ham, bir qator davriy matbuot organlariga ham bosim o'tkazila boshlandi. Sadra'zam Ali Poshoning buyrug'i bilan matbuot jiddiy nazorat qilindi. 1867-yil 18-maydan Namiq Kamol hayotining Fransiya davri boshlaydi. "Yangi Usmonlilar jamiyati" nomiga Parijda nashriyot ochish taklifini olgach, Namiq Kamol Ziyosho bilan birga Fransiya boradi. Turkiya sulton Abdulazizning Fransiya safari vaqtida Namiq Kamol muayyan ta'qiblariga duchor bo'ladi va Londonga ko'chadi. Namiq Kamol Yevropada jurnalistlik faoliyatiga ustunlik berar edi. U Yevropada eng mashhur turk gazetasi bo'lgan "Hurriyat"ni nashr ettiradi, u yerda yangi Usmonli va konstitutsion g'oyalarga alohida joy ajratardi. Bu gazetaning 64 soni (avvalgi 3 sonidan tashqari) Namiq Kamol rahbarligida chop etildi va yangi g'oyalarning targ'ibida muhim rol o'ynadi. 1870-yilda u Istanbulga keladi. Sadra'zam Ali Poshoga bergan va'dasiga amal qilib, gazeta chop qilish tugul gazetalarga (bir necha maxfiy imzolar bilan yozilgan maqolalar bundan mustasno) maqola ham yozmaydi. Namiq Kamol Ali Poshoning o'limidan so'ng "Istiqbol" nomli gazeta chiqarishga bel bog'laydi. Ruxsat olmagan uchun "Ibrat" gazetasida ishlaydi. Bu gazetada chop etilgan maqolalari tufayli u yana diqqat obyektiga aylanadi. Hukumatga qarshi yozilgan maqolalarning keskinligi 1872-yilda "Ibrat" gazetasi-



ning yopilishiga olib keladi. Namiq Kamol va uning do'stlari markazdan uzoqlashtirilish maqsadida viloyatlarda vazifalarga tayinlanishsa ham u yerlarda jiddiy nazorat ostida yurardilar. Bu davrda Namiq Kamol Geliboluga viloyat hokimi etib tayinlanadi. Geliboluda uch oy ishlagach, yana Istanbulga qaytib keladi. 1873-yil aprelida inqilobchi shoirning "Vatan yoxud Silistra" pyesasi uyg'otgan ta'sirini bahona qilib, uni Magos oroliga surgun qilishadi. O'zi aytganidek, Magosda "qabr azobi"ni boshidan o'tkazsa ham u yerda yashagan 38 oy davomida ijod bilan keng shug'ullanib, bir nechta drama, nasriy asarlar yozadi. "Akifbey", "Gulnihol", "Bechora bola", "Tush", "Intiboh" va b. pyesa hamda romanlarni yozadi, ayni paytda bu yerda qalamga olgan maqolalarini chop etish uchun Istanbulga yuboradi. 1876-yilda Sulton Abdulaziz taxtdan ag'dariladi, hokimiyatga kelgan V Murod Yosh turklar bilan yaqin bo'lgani uchun ularning iltimosiga ko'ra Namiq Kamolni zindondan ozod etadi va Istanbulga qaytishiga ruxsat beradi. 1877-yilda Namiq Kamol Midilli oroliga viloyat hokimi etib tayinlanadi. U 1884-yilda Rodos, 1887-yilda esa Sakiz orollarida hokim vazifalarida ishlaydi. Yuragi doim xalq muhabbati va vatan sevgisi bilan urgan Namiq Kamol 1888-yilda Sakiz orolida vafot etadi.

## IJODI

XIX asrning II yarmidan yevropacha yangi turk adabiyotining shakllanishi va rivojlanishida xizmati bo'lgan san'atkorlardan biri Namiq Kamoldir. U ijodini she'r bilan boshlagan. Ilk davrlarda devon she'ri ta'siri bilan yozgan bo'lsa ham qisqa muddatda u Tanzimot adabiyotining talablari zaminida asarlar yozib, bu adabiyot ruhiga mos ravishda xalq ozodligi masalalariga alohida e'tibor qaratgan. To'g'ri, Namiq Kamol 25 yoshigacha ko'proq devon she'riyati ta'sirida yozgan bo'lsa ham, 25 yoshidan keyin uning ijodida tanzimotchilikka bo'lgan mayl kuchaygan. Lekin u ijodining so'nggi davrlari devon adabiyotidan butkul voz kechmagani ham bor haqiqatdir. Namiq Kamol poeziyasini shakl va mazmunga ko'ra taxminan quyidagi shaklda guruhga ajratish mumkin:

1. Devon adabiyoti uslubida yozilgan she'rlar.
2. Shakl jihatdan eski, mazmun jihatdan yangi she'rlar.
3. Shakl va mavzu jihatdan yangi uslubda yozilgan she'rlar.

Namiq Kamol yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy muammolar, ziddiyat va mashaqqatlar bevosita ijodiga ta'sir ko'rsatib, san'atida mansub bo'lgan xalqning, vatandoshi bo'lgan o'lkasining hayotiga xos bo'lgan jihatlar o'z aksini topa olgan edi. Bu davr Turkiyaga ko'proq Yevropa ta'siri bilan tavsiflanardi. Avvalo, Turkiyada yevropacha matbuot organlarining nashri, Yevropa yozuvchi va shoirlari asarlarining turk tiliga tarjimasi

keng tarqalgandi. Tanzimot adabiyotining boshqa namoyandalari kabi Namiq Kamol ham Yevropa adabiyotining ta'siri bilan yangi shakllangan turk adabiyotini eski manzuma shaklidan uzoqlashtirishga urinadi, yangi rivojlanish bosqichida adabiyot oldida turgan vazifalarni bajarish muhim masala sifatida ilgari surardi.

Namiq Kamol ijodi o'zining siyosiy hajmi jihatdan boy hisoblanadi. Otaturk Namiq Kamol ijodidagi ijtimoiy-siyosiy ta'sirni yuqori baholaydi va fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: "Vatan ozodligi va istiqloli uchun jon berishni bugungi avlodlarga Namiq Kamol o'rgatdi. Namiq Kamoldan kelgan ovoz sehriga maftun bo'lgandik. Bu ovoz ruhimizni chaqmoqdek larzaga solardi. Bu ovoz shu kungacha o'qigan she'rlarimdagi ovozga hech o'xshamasdi".

Namiq Kamol "turklarning uch inqilobchi shoirlaridan biri" deb tavsiflanishi, avvalo, uning vatan ishq, vatan muhabbati bilan jo'shgan ijodining g'oya-badiiy xususiyatlarini to'g'ri muayyanlashtirilishi va baholanishidan kelib chiqqan. U "baland ovozli vatan shoiri"dir. "Vatan ishqini, hurriyat zavqini, nohaqlikka qarshi kurashish tuyg'usini she'rlar bilan millatga singdirgan Namiq Kamol nafaqat buyuk adib, qudratli shoir, balki zehnlarda o'zgacha fikr uyg'otgan, yuraklarni hayajon bilan urishga o'rgatgan inqilob va g'oya insonidir". Aslida bir inqilob, g'oya insoni bo'lgan Namiq Kamol ijodi XIX asr oxirida yangi shakl va mazmunga ega bo'lgan turk adabiyotida yangi hodisa deb baholanardi. Yahyo Kamol uni "umri davomida jarandor va tiyrak ovozi bo'lgan va bizni Sharf she'riyatining ayolsifat ishvasidan qutqargan inson" deb taqdim etishi tasodif emas. Namiq Kamol vatanga, tuproqqa, dinga, millatiga, uning o'tmishiga bog'langan san'atkordir. Shu tufayli Namiq Kamol ijodida millatchilik (islomchilik va usmoniychilik), hurriyatchilik, konstitutiychilik va boshqa g'oyalarning joy olishi tabiiy hol. Avvalo, Namiq Kamol ruhiga va ijodiga hukmronlik qiluvchi vatan mavzusi o'ziga xos va original shaklda diqqatni jalb etadi. Namiq Kamolga ko'ra, Vatan tuprog'i, tog'i, dengizi va shu kabilar shunchaki makon emas, sevgiga loyiq muqaddas dargohdir. Namiq Kamol vatanni insonlar orasidagi til, sevgi va birodarlikni birlashtiruvchi tuproq deb hisoblaydi. Uning fikricha, birligi bo'lmagan tuproq dushman nishoniga aylanadi.

***Jumlamizning validamizdir Vatan,  
Har kimni lutfi ila udir asragan,  
Bosdi adu ko'ksina biz sog' ekan  
Arsh yigitlar Vatan imdodiga.***

Namiq Kamol ilgari surgan g'oya muayyan jihatdan o'xshash aqidaga ega bo'lgan Shinosiyning "barcha millatlar uchun yagona vatan" fikridan

keskin farq qilardi. Namiq Kamol "bitta vatanda bir-biriga qarshi bo'lgan shaxs va tabaqalar borligini" nazarga olgani uchun bu fikrlarning haqiqatga hech qanday aloqasi yo'q degan xulosaga keladi. Uning fikrlari usmoniychilik, islomchilik va turkchilik g'oyalari shaklida o'z aksini topadi.

***Turing, ey ahli vatan, biz ham shodon bo'laylik,  
Dini millat yo'lida, qani, qurbon bo'laylik.  
Shon kuni bugundir, bu millat arslonlari,  
Olaylik qilichlarni, to'kaylik ol qonlarni.***

Lekin u yuqorida aytilgan "til birligi, fikr va sevgi birodarligi" prinsipiga bog'liq ekanligini namoyish ettirgani tufayli usmoniychilik va islomchilikni turkchilikka nisbatan shartli ravishda va zohiriy shaklda oladi, barcha g'oyalarni turkchilikka xizmat shaklida qabul qiladi. Shuning uchun ham Namiq Kamolning millatchilik tushunchasi uning usmonchilik va islomchilik fikrlarini to'ldiradi, kesishuvchi va bir-birining davomi ta'sirida ko'rinadi:

***Izzi dorayni didodir maqsadim Islom uchun  
Xalqni ta'min aylaram dinimla, imonla, man.***

Namiq Kamolning hurriyat, vatan, millat ishqini, xalqning ozodlik kurashini o'zida mujassam etgan asarlaridan biri "Hurriyat qasidasi"dir. Poemada Sulton II Abdulhamid hokimiyati yillarida ezilgan, huquqi toptalangan xalqning istiqlol orzulari tarannumi asosiy o'rin egallaydi. Muallif asarda istiqlolning xalq uchun naqadar shirin ne'mat ekanligini, Tangrining bu ne'matni insonlar uchun yaratganini alohida ta'kidlaydi:

***Ne afsunkor emishsan oh, ey diydori hurriyat,  
Asiri ishqing bo'ldik, garchi qutuldik asoratdan.  
Seningdir endi jazbi qalbga qudrat, satr husn etma,  
Jamoling to adab dur bo'lmasin anzori ummatdan.  
Ne yori jon emishsan, oh ey umidi istiqbol,  
Jahoni sensan ozod aylagan har yasu mehnatdan.***

Namiq Kamol ijodida hurriyat xalqning yagona xalos yo'li kabi tavsiflanadi va bu yo'ldan borishga xalqning haqqi bor deb ko'rsatiladi. Shoirning poemada aks ettirilgan hurriyat tushunchalari Londonda nashr etilgan "Hurriyat" gazetasida chop etilgan bir maqolasidagi fikrlari bilan o'xshab ketadi. Maqolada "xalqning hokimiyat haqqi tasdiqlangan taqdirda jumhuriyat etmoqqa ham haqqi bo'lishini" ilgari surgan Namiq Kamol zulm va asoratga qarshi siyosiy kurashda xalqning qat'iy va dadil qadam tashlashga haqqi borligini ta'kidlaydi.

Shoir "Hurriyat qasidasi" asarida xalq haqqini ularga bergan shaxslarni yuqori baholaydi, insonlarni faqat va faqat xalqqa xizmat qilishga chorlaydi:

*Charchamas o'zini inson bilganlar xalqqa xizmatdan,  
Muruvvatmand bo'lgan, mazlumga el tortmas ionatdan.  
Muini zolimin dunyoda arbobi danoatdir,  
Ko'pakdir zavq olgan sayyodi beinsofga xizmatdan.*

Shubhasiz, Namiq Kamol "zolim", "beinsof" deb atagan shaxslarni ko'proq hukmron tabaqalar ichida izlaydi, ularning xalqqa begonaligini tanqid qilardi. U mamlakatining eng qiyin sharoitida ham, davlatning harbiy muvaffaqiyatsizliklarini ham shunday shaxslarning faoliyatiga bog'laydi. Shoir 1877–1878-yillar turk-rus urushida muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lgan Turkiyaning ahvoriga achinadi, mag'lubiyatning asosiy sababchisi sifatida Sulton Abdulhamidni tanqid obyektiga aylantiradi va bu og'ir vaziyatni quyidagicha tasvirlaydi:

*Vatanin poraladi siynasini dushman eli,  
Saryayi motam emish tolemizning to azali  
Karbaloda to'kilgan huni yetimoni Ali  
Vatanin bag'rina dushman tayadi xanjarini,  
Yo'q emish qutqaruvchi baxti qora modarini.*

Devona Hikmat bilan birga yozgan 26 bandlik "Vatan marsiyasi" nomli she'rining barcha misralarida qayg'u motivi hukm suradi. Muqaddas vatan tuprog'ining dushman toptashi, millatning dushman tazyiq va haqoratlari ostida bo'lishi she'rda faqatgina shoiming ichki tashvishi emas, balki dushmanga nisbatan g'azab va nafratining ifodasidir. Dushmanning beomonligi, beshafqatligi, millatning nochor qolishi, vatan tuprog'ining qon ichida bo'g'ilishining shoirda tug'dirgan tashvishi va tushkunligi uni hatto Alloh va Muhammad payg'ambarga yuzlanib, e'tiroz qilishdan qaytarmaydi:

*Oh Robbim, bor esa moili faryod bo'lding,  
Vatanni qahr ila tahqir ila mutod bo'lding.  
Hammamiz zolim esak, sen hammi jallod bo'lding...  
Yo'q emish qutqaruvchi baxti qora modarini.*

She'rda Namiq Kamolning dushman tajovuziga duchor bo'lgan millatning har bir namoyandasini Baytullohga tosh otgan Hajjoj bin Yusuf al-Sakofiy bilan qiyoslashi tasodif emas. Chunki bu vaziyatda u vatan sevgisiga qaramay ruhiy bezovtalikning unda yuzaga keltirgan milliy, ayni

paytda ruhiy-ma'naviy tuyg'ularning assosiatsiyasini namoyish etib, shoir-vatandosh mavqeyini ilgari suradi:

***Vatanning javhari nomusini biz sotaylikmi?  
Yo bini haqda Hajjoj bilan bir yotaylikmi?  
Xoliqqa qarshi borib Ka'baga tosh otaylikmi?***

Qizig'i shundaki, Namiq Kamolning hurriyat, istiqloq, turkchilik g'oyalari amalga oshishida katta xizmati bo'lgan, Turkiya Jumhuriyati asoschisi Mustafo Kamol Otaturk davlat tuzganidan so'ng Buyuk Millat Majlisining 1922-yil 1-martdagi majlisida Namiq Kamolning yuqoridagi misralarini real hayotga moslashtirgan holda quyidagicha o'qigan:

***Vatanin bag'riga dushman tirasin xanjarini,  
Topilur qutqaruvchi baxti qaro modarini.***

Namiq Kamol yashab faoliyat ko'rsatgan davrida Turkiya siyosiy chigalliklar ichida edi. Bu hol shoirning vatan va millat orzulari amalga oshishiga to'g'onoq bo'lar edi. To'g'rirog'i, bu jarayonlar girdobida shoir xalqi uchun tilagan kunlar hali uzoqligini anglar va ma'yus holda fikrlarini mana shunday ifodalardi:

***Sen bo'lding javrina, ey dil-shikan mahzun, men mahzun,  
Falak kulsin, sevinsin, endi sen mahzun, men mahzun.  
O'larsam millatimda ko'rmadim umid etganim fayzni,  
Yozilsin sangi qabrimda Vatan mahzun, men mahzun.***

Janubiy Ozarbayjon milliy-ozodlik harakati rahbari Sh.M.Xiyoboniy og'ir jarohat olganda Namiq Kamolning yuqoridagi misralarini aytib va-fot etganini qayd etish lozim.

Umuman Ozarbayjonda N.Kamol ijodiga katta e'tibor qaratilgan, uning islomchilik va usmonlichilik qarashlari bilan shakllangan g'oyalari alohida diqqat jalb etilgan. Islomchilik Namiq Kamolda diniy qarashdan tashqari, siyosiy mavqe ham sanaladi. Namiq Kamol dunyo Islom birligida usmonlilarning yetakchi mavqeda bo'lishlariga ahamiyat berar, Islom birligi mamlakatlarida ma'naviy-madaniy aloqalarning mustahkamlanishini muhim deb hisoblardi. Bu kabi holatlar Namiq Kamolga butun turk dunyosida bo'lganidek, Ozarbayjonda ham rag'batni orttirgan, asarlarining nashriga ehtiyoj tug'dirgan edi. Shoirning Ozarbayjonda "Dabiston" jurnalining 1907-yil 5-sonida chop etilgan "Vatan" she'ri siyosiy-diniy xususiyatga ega. Bu she'rda islomchilik-usmonlichilik qarashlari shoirning boshqa qarashlarini yengib o'tadi:

*Ket Vatan, Ka'bada qoraga burkan,  
Bir qo'ling ravzayi nabiga uzat.  
Birini Karbaloda Mashhadga ot,  
Koinotga ul hay'atingla ko'rin.  
U tomoshaga haq ham oshiq bo'lar,  
Ko'zga bir olam aylar izhor.  
Ki, jahonda buyuk latofati bor,  
Bu latofat bo'lsa agar inkor.  
Mazhamibda demak, muvofir bo'lur,  
Och vatan ko'ksingni, Allohingga och,  
Shuhadonni chiqar-da o'rtaga soch.  
De-ki, yo rabbi, bu Husayningdir.  
Shu muborak habibi zishoning,  
Shu kafansiz yotgan shahidoning,  
Kim badring, kim Nonabiningdir,  
Yangilansinmi qonli yaralar?  
May to'kilsinmi qabri sahoba?  
Yarasharmi sanam bu mehrobga?  
Xochmi qo'nsin badal shu mezobga?  
Diningning qolmasinmi bir asari?  
Odam avlodi bir guruh joni,  
Sendan olsin sor shaytoni?*

Lekin ba'zi umidsizlik va qayg'u motivlarini hisobga olmaganda, Namiq Kamol ijodida vatanning ertasiga, uning kelajagiga ishonch hurriyat va istiqbol tushunchalaridek kuchlidir. Turkiyaning dushman kuchlari bilan yuzlashgan eng og'ir holatlarda ham shoir kelajakka bo'lgan ishonchini yo'qotmagan, xalqining g'alaba qozonishini ta'kidlagan. Namiq Kamol ijodida yetakchi o'rin egallovchi, hozirda turk yoshlarining tillarida yod bo'lgan, milliy tuyg'u va hislarning tarannumi sifatida tengsiz namunaga aylangan "Nom olarmiz biz" she'ri shu tomondan ahamiyatlidir:

*Amalimiz, afkorimiz iqboli vatandir,  
Sarhadimiz qal'a bizning xoki badandir.  
Usmonlilarmiz, ziynatimiz qonli kafandir,  
Qovg'ada shahodatla buyun kom olarmiz biz,  
Usmonlilarmiz, jon beramiz, nom olarmiz biz.  
Qon ila qilichdir ko'ringan bayrog'imizda,  
Jon talvasasi kirmas uyimizda, tog'imizda,  
Har go'shada bir sher yotar turrog'imizda,  
Qovg'ada shahodatla buyun kom olarmiz biz,  
Usmonlilarmiz, jon beramiz, nom olarmiz biz.*

*... To'p portlasin, otashlari atrofga sochilsin,  
Jannat eshigi jon bergan qondoshlarga ochilsin,  
Dunyoda ne topdikki, o'limdan ham qochilsin.*

Namiq Kamol tuprog'ining "har go'shasida sher kabi yotgan" yigitlari bilan faxrlanadi, vatan uchun kurashlarda "jon talvasasi" nimaligini bilmagan dovyurak yigitlar bilan maqtanadi, shunday vatanning hech qachon bosib olinmasligiga ishonchi komilligini ifodalaydi. Shuning uchun ham shoir vatanning dushman xavfi bilan yuzma-yuz bo'lganda yagona umidi bo'lgan "ziyatlarini qonli kafan" deb biluvchi yigitlarga yuzlanadi, ulardan panoh so'raydi:

*Mana, yog'iy oldida hozir siloh,  
Arsh yigitlar, vatan imdodiga.  
Arsh ilgari, arsh biznikidir farah,  
Arsh yigitlar, vatan imdodiga.*

Shuni ham qayd etish joizki, "yangi turk adabiyotida go'zal ayol qi-yofasida tasavvur qilingan, aziz vatan va ona vatan tushunchasi ilk bor Namiq Kamol bilan boshlangan". Shuning uchun ham Mustafo Kamol Otaturk Namiq Kamol asarlaridagi vatan ishq va buning timsolida milliy ozodlik ruhini yuqori baholab, xalqning kurash azmini orttirishda Namiq Kamolning rolini alohida aytib o'tgan.

Namiq Kamol Tanzimot adabiyoti talablariga mos ravishda ijodida roman janriga ham joy bergan. Jami ikki roman – "Intiboh" (1876) va "Jazmi" (1880) yozishiga qaramay, uning romanlari turk adabiyotida o'zidan avvalgi va o'zidan keyingi romanlarga nisbatan originalligi bilan farq qiladi. Masalan, professor doktor Mehmet Kaplanning yozishicha, "Namiq Kamolning turk romaniga olib kelgan eng muhim unsurlaridan biri "Intiboh"dan turli namunalari bo'lgan ruh tahlillarining berilishi-dir".

"Intiboh" Namiq Kamolning ilk romani bo'lib, asarni Magosda ekanligida yozgan. Asar mavzusi oilaviy-maishiy va ijtimoiy muammolar zaminidadir. Muallif avvalo asarni "So'nggi pushaymonlik" nomi bilan qalamga olsa ham, keyinchalik asar "Intiboh" shaklida chop etiladi. Asarning bosh qahramoni Alibeydir. Hodisalar uning atrofida yuz beradi. Otasining vafotidan so'ng Alibey onasi bilan yolg'iz qoladi. Alibey tushkunlikka tushadi. Uni bu vaziyatdan qutqarish uchun ishga yuborsalar ham bu ish uning ma'naviy cho'kishiga nuqta qo'ymaydi. U tasodifan Mohpaykar ismli axloqsiz, buzuq ayol bilan tanishadi. Hiylagar Mohpaykar ilk daqiqadayoq uni o'z to'riga ilintiradi. Alibey duchor bo'lgan ma'naviy zarbalarga nuqta qo'yildi degan fikrga boradi va bu



ayolga uylanadi. Lekin do'stlarining yordami bilan bu ayolning kimligini bilgach, Ali onasining yoniga keladi. Mohpaykarning hiylasi natijasida uzoq vaqt onasini unutgan va uning yoniga kelmagan Alibeyning bu tashrifi ona uchun anchadan beri tuzib qo'ygan rejasini amalga oshirishiga sharoit yaratadi. Ona o'g'lini Mohpaykardan uzoqlashtirishning yagona yo'li sifatida uni boshqasi bilan uylantirishni ko'zlaydi. U o'g'lini Diloshub ismli joriyaga uylantiradi. Qasos o'ti bilan yonayotgan Mohpaykar Diloshubning, nomussiz, axloqsiz ekanligi haqida bo'htonlar to'qib chiqaradi. Yosh Alibey bularga ishongani uchun Diloshubdan uzoqlashadi. Diloshubni bir odamga sotishadi. Hamon qasos o'tida yonayotgan Mohpaykar Diloshubni o'sha odamdan sotib olib, unga chidab bo'lmas zulmlar beradi. Lekin metin irodali va beg'ubor qiz bularga chidaydi. Mohpaykar esa bu bilan kifoyalanmay, Alibeyni o'ldirishga qaror qiladi. Buni eshitgan Diloshub Alibeyning nohaq ayblovlari qurboni bo'lishiga qaramay, unga bo'lgan muhabbati va rag'bati tufayli erini – Alibeyni qutqarmoqchi bo'ladi. Mohpaykar tuzgan rejasiga ko'ra Alibey kechasi uyga ketayotganda o'ldirilishi kerak edi. Lekin Alibey hodisadan xabardor bo'lgani uchun u yerdan qochadi va u qochgan payti yerga tushgan paltosini kiyib olgan Diloshub maxsus yollangan qotil tomonidan Alibey o'rniga o'ldiriladi. Hodisa joyiga qaytgan Alibey Diloshubni bag'riga bosib, qilgan xatolarini anglaydi, lekin hammasi uchun kech bo'lganini ham tushunib yetadi. Darg'azab Alibey Mohpaykarni o'ldiradi. Hibsga olingan Alibey 6 oydan so'ng qamoqda vafot etadi.

Real hodisalarni aks ettirgan roman yuqori ta'sirga ega. Muallif Alibey timsolida o'z hayotini to'g'ri yo'lga qo'ya olmagan, qilgan xatolarini kech bo'lsa ham tushunib ketgach, yangi hayotga qaytayotganida badnom bo'lgan yoshlarning fojiasini ko'rsatgan. Ayni paytda muallif jamiyatda o'zini ko'rsatgan ijtimoiy tengsizlik, etik-axloqiy nuqsonlar va b. masalalarda o'z munosabatini bildirgan.

“Jazmi” tarixiy roman bo'lib, muallif asarni ikki jildda yozishni rejalashtirgan bo'lsa ham, faqat birinchi jildini tugallay olgan. Roman mavzusi Eron-Turk urushidan olingan. Asar boshida II Sulton Salim zamonida Eron bilan bo'lgan urush haqida so'z boradi. Bu urushda mardlik ko'rsatgan Jazmi qo'mondon Usmon Poshoning maqtoviga sazovor bo'ladi. Urushda Odil Giroy va uning ukasi G'oziy Giroy dushmanga asir tushadi. Eron shohining rafiqasi Shahriyor Odil Giroyga oshiq bo'ladi. Ayni paytda shohning singlisi Pari xonim ham Odil Giroyga muhabbat izhor qiladi. Pari xonimning ham go'zal, ham sunniy mazhabiga mansub ekanligi Odil Giroyning unga bo'lgan muhabbatini yanada orttiradi. Buni bilib qolgan Shahriyor vazir Sulaymon bilan ham Odil Giroyni, ham Pari xonimni o'ldirishni rejalashtiradi. Odil Giroy yordam maqsadida Jazmining Eronga kelishini istaydi. Jazmi darvesh qiyofasida Eronga keladi va



ularni xalos qilayotganda yaralanadi, Odil Giroy va Pari xonim qahramonlarcha halok bo'ladi. Jazmi bu jangda yaralansa ham ularni dafn etadi va Turkiyaga qaytadi.

Muallif asarda masalalarga qahramonlik, mardlik va b. mavzular bilan yondashib, oldiga qo'ygan muammolarning yechimini topgan, vatan sevgisi, yurt sevgisi hamma narsadan ustun ekanligiga e'tibor qaratgan. Namiq Kamol bu asarda o'zining "dunyoga kelish hunar emas" degan mashhur fikrini eslatib, asl hunar esa dunyoga kelib, nom qozonish, shijoat ko'rsatish ekanligini tasdiqlagan.

Namiq Kamol ijodida dramatik asarlarning alohida o'rni bor. Adib adabiy janr sifatida san'atda drama asarlarning o'rnini va ta'sir doirasini yuqori baholagan. Hali Parijda bo'lgan vaqtida Namiq Kamol otasiga yozgan maktublarining birida bu borada fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: "Bir millatning go'zal so'z qudrati adabiyotida, adabiyotning eng jonli ifodasi esa drama asarlarida ma'lum bo'ladi".

"Vatan yoxud Silistra" (1873), "Gulnihol" (1873), "Bechora bola" (1873), "Akifbey" (1874), "Jaloliddin Xorazmshoh" (1885), "Qora balo" (1885) kabi drama asarlari Namiq Kamolning dramaturgiya bilan jiddiy shug'ullanganini ko'rsatadi. Dramaturg bu asarlarda tarixiy hodisalarga, millat va vatan sevgisi muammolariga joy ajratgan, ilk navbatda milliy tafakkur prizmasidan hodisalarni baholagan. "Vatan yoxud Silistra" muallifning ilk drama asaridir. Asl nomi "Vatan" bo'lsa ham senzura tomonidan ruxsat berilmagani uchun asarning nomi o'zgartirilib, "Silistra" nomi bilan chop etilgan. Lekin keyinchalik "Vatan yoxud Silistra" shaklida nashr etilgan. Pyesa 4 pardadan iborat. Asarning mavzusi 1828 va 1853-yillar turk-rus urushlarida sodir bo'lgan hodisalardan olingan. Lekin pyesaning asosiy mavzusini 1853-yil Qrim yo'lida ruslar bilan turklar o'rtasidagi urush haqidadir. Silistra bugungi Bulg'oristonda Dobruja hududida joylashgan. 1388-yilda turklar tomonidan zabt etilgan bu hududlar 1853-yilda rus qo'shini hujumiga duchor bo'ladi. Namiq Kamol bu asar haqida shunday deydi: "Men yozgan asar Rumelida jannatmakon Sulton Mahmudxon davridagi Shumnu qamalida aytilgan hikoyani Qrim urushi paytida sodir bo'lgan Silistra urushiga ko'chirishdek gap. Buni yozishdan maqsadim millatdagi vatan hislarini tasvirlashdir". Tarixdan ma'lumki, 1853-yil turk-rus urushining eng qonli janglaridan biri Silistra qal'asida bo'lgan. Turklar Muso Hulusi Poshoning qo'mondonligi ostida Silistra qal'asini 6 minglik qo'shin bilan 41 kun himoya qilgan, janglarda 3 ming shahid bergan. Ruslar esa Silistra qal'asining mudofaasida 12 general, 15 ming askar yo'qotgan. Bu jangda, shuningdek, rus qo'shining 20 ming askari yaralangan, ko'pgina qurol-aslahalari yo'q qilingan edi. Turk qahramonlik solnomasida joy olgan Silistra urushida dovyuraklik ko'rsatgan, vatan uchun jonini o'tga otgan turk o'g'il va qizlarining madh

etilishi Namiq Kamolning "Vatan yoxud Silistra" asarida eng yuksak tarzda badiiy aksini topgan.

"Vatan yoxud Silistra" pyesasining bosh qahramonlaridan biri Islombeydir. Asardagi obrazlarning ko'pchiligi tarixda bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Masalan, tarixiy shaxs bo'lgan Mustafobey asarda Abdulla o'nboshi sifatida taqdim etiladi. Yoxud Silistra jangida 120 ko'ngilli bilan birga kelgan Islombeyning qahramonligi ham tarixiy haqiqatlar asosida aks ettirilgan. Shu jumladan, Namiq Kamol Qarsda bo'lganida qalig'ining ortidan urushga kelgan va shahid bo'lgan qizning janozasini ko'radi, ushbu qizning obrazini Zakiyaning timsolida jonlantiradi. Balki shu tufayli ham muallif asarda turkning qahramonlik va shijoatini faqat bir obraz – Islombeyga bog'lamaydi. Asardagi Sidqibey va Zakiya xonim obrazlarini ham dramaturg Islombeyning timsolidagi g'oyalarning tashuvchilari sifatida taqdim etadi. Asarning qiziqarli mazmuni bor. Vatanning og'ir kunida Islombey urushga ketadi va uni sevgan shaxsning ortidan kelishini istaydi: "Birodarlar! Men urushga ketyapman. Xohlovchilar yonimga kelsin. O'qdan, nayzadan qo'rqmayman, qo'rqadiganlar xotinlarining yonida o'tirsin. Iloji bo'lsa, barcha vatan birodarlarimga bu zaif vujudimni qalqon qilaman, ko'ksim tilka-pora bo'lmaguncha bir toshiga hech kimning qo'li tegmaydi. Biz vatanni qo'riqlaymiz... Alloh ham bizni asraydi..." Islombey Silistra yo'lida borgan hayot-mamot janglarining ishtirokchisi bo'ladi va dushmanga qon yuttiradi. Qahramonlik ovozi ilk kunlardan butun urush maydonlariga yoyiladi. Islombey jangga ketgach, Zakiya ham qiyofasini o'zgartirib, erkak libosida Silistraga boradi. Janglarda Silistraning qal'a qo'mondoni halok bo'ladi. Uning o'rniga Sidqibey keladi. Sidqibey bundan avval urushda o'limga mahkum qilingan do'stini o'ldirishdan bosh tortgani uchun vazifadan ozod etilgan, unvoni olib qo'yilgan edi. Shuning uchun ham u oilasining yoniga borishni o'ziga haqorat deb biladi, g'oyib bo'lgani haqida yolg'on xabar tarqatib, boshqa nom bilan oddiy askar sifatida qaytadan urushda ishtirok etish uchun Silistraga boradi. Bu og'ir kunda u xotini va o'g'lining o'limi, qizining esa g'oyib bo'lgani haqida xabar topadi. Bu xabar uni qattiq iztirobga soladi. Lekin bu uning jang azmini susaytirmaydi, aksincha dushmanga bo'lgan nafratini yanada oshiradi.

Navbatdagi amaliyot vaqti dushman qurol-aslaha omborini portlatishga ketgan Islombey, Abdulla o'nboshi, Zakiya, Sidqibey alohida qahramonlik ko'rsatishadi. Amaliyotdan so'ng Zakiyaning qo'llarida hushiga kelgan Islombey Zakiyani taniydi, shu bilan birga Sidqibey ham Zakiya uning qizi ekanligini bilib qoladi. Bu nihoyada muallif asarda sadodatini topgan shaxslardan ko'ra ko'proq dushmanga zarba berib zafar qozonganlarning obrazini jonlantiradi.

Namiq Kamol besh pardali "Gulnihol" dramasi 1873-yilda Magos-

da yozgan. Zulm va istibdodga qarshi yozilgan ushbu asarning asl nomi ko'ngildagi sir ma'nosini bergan "Rozi dil" bo'lgan. Asarda muayyan obrazlar silsilasida muallif ikki turli qutb – zulm va istibdodning, ozodlik va xayrixohlikning chiziqlarini aniqlaydi. Qoplon posho zulmning, Muxtorbey esa ozodlik va xayrixohlik ramzi sifatida jonlanadi. Zolimligi bilan dong'i taralgan Qoplon posho insonlarning barcha haqlarini toptab, ziyoli shaxslarga har qanday zulm o'tkazishdan hayiqmaydi. Vaziyat shu darajaga borib yetadiki, u amakivachchasi Muxtorbeyning sevgilisini tortib olishga urinadi va bu jirkanch maqsadini amalga oshirish uchun uni zindonga tashlashni buyuradi. Muxtorning qaylig'i Ismat bularga e'tiroz bildirsa ham foydasi bo'lmaydi. Lekin Gulniholning yordami hammasini o'zgartira oladi. U avvalo dono maslahatlari bilan Muxtorbeyni zindondan ozod qiladi. Muxtorbey viloyat markaziga boradi. Qoplonning qilg'iliqlari haqida ma'lumot beradi. Gubernator Qoplonni qatliga farmon beradi. Lekin haruz Muxtorning zindondan qochishi va gubernator bilan uchrashuvidan bexabar Qoplon o'z ishi bilan mashg'ul edi. Uning odamiylikdan uzoq harakatlariga e'tiroz bildirgan Gulnihol Qoplon tomonidan o'ldiriladi. Hodisa joyiga Muxtorbey keladi. U tumanga hokim etib tayinlanadi. Qoplon o'ldiriladi. Asar mana shu bilan nihoyasiga yetadi. Muallif xalq hokimiyati tarafdori sifatida xalqning istiqloq, saodat orzularini amalga oshirishini tarannum etadi. Shu maqsad bilan xalq tomonidan sevilgan va obro'ga ega bo'lgan Muxtorbeyning hokimiyati yillarida insonlarning hayoti yaxshilanishini, adolatli rahbarligini oldingi planda taqdim etadi. Oilaviy-maishiy mavzudadir. Shunga qaramay, muallif bu fonda ijtimoiy masalalarni qalamga olib, jamiyatda sodir bo'lgan ijtimoiy adolatsizliklar, pulning jirkanch roli va boshqalarni asosiy tanqid obyektiga aylantiradi. Namiq Kamol "Bechora bola" asarida 14 yoshli bechora Shafiqaning sevmagan, ko'rmagan odamiga turmushga berilishini tasvirlaydi va uning fojiasini ham ushbu hodisa bilan bog'laydi. Muallif asarda bir-biriga teskari bo'lgan obrazlar timsolida tasvirlagan voqea va hodisalarning mohiyatini tom ma'noda ochib bera olgan.

Shafiqani sevgan yosh yigit Ota ahd-u paymoniga sodiq qolib, tibbiyot maktabini bitirgach, turmush qurish umidi bilan qaytib keladi. Lekin Shafiqqa qarz evaziga otasining qarzlarini to'liq qoplagan odamiga turmushga berilganini ko'radi. Shafiqqa boshqasiga berilgach, sil kasaliga chalinganini, o'lim to'shagida ekanligiga chidolmagan Ota zahar ichib o'ladi. Bu hodisadan so'ng Shafiqqa ham dunyodan ko'z yumadi. Ikki yoshning sof muhabbat fojiasini ko'rsatish bilan dramaturg jamiyatda hukm surayotgan axloqqa zid normalarga, pul hukmronligiga e'tiroz bildiradi.

Namiq Kamolning "Akifbey" fojiasi ham deyarli oilaviy-maishiy mavzu sanaladi. Lekin muallif bu asarda "Bechora bola"dan farqli o'laroq axloqsiz ayilning jamiyatda ham, oilada ham buzuqlik roli tasvirini oldingi

planga olib chiqqan. Asar qahramoni Akifbey dengiz suvoriysidir. Vatani va xalqini jonidan ortiq ko'rgan bu yosh yigit katta orzular bilan yashaydi. U Dilruba ismli qiz bilan turmush quradi. Avvaliga go'zal va iffatli ko'ringan bu ayol aslida buzuq hayoti bo'lgan, nomus va iffatdan uzoq bo'lgan ayoldir. Rus floti va turk flotining dengiz janglari vaqtida Akifbeyning kemasi portlatiladi va u tasodifan kema taxtasida sohilga yetib borib sog' qoladi. Lekin uni hamma o'lgan deb o'ylaydi. Dilruba uning shahid bo'lgani haqida soxta hujjat tayyorlab, Asad ismli boshqa erkakka turmushga chiqadi. Akifbey o'z uyiga keladi. Barcha voqealarni batafsil eshitadi va Dilruba bilan Asadning uyiga borib, Dilruboni o'ldirmoqchi bo'ladi. O'q Dilruboni to'sib qolgan Asadga tegadi. Asad o'lishdan avval Akifni xanjarlaydi. Voqea joyiga kelgan Akifbeyning otasi Dilruboni o'ldiradi.

Asar mazmuni bilan tanishganda hodisalar orqali qahramonlik ruhi, vatan sevgisining buyukligi yana bir bor namoyish bo'ladi.

Namiq Kamolning tarixiy mavzuda qalamga olgan "Jaloliddin Xorazmshoh" dramasi Xorazmshohlar davlati hukmdori Jaloliddinning hayoti va siyosiy faoliyatidan bahs etadi. Faqat vatanparvarlik, qahramonlik ruhida yozilgan ushbu asarda Jaloliddin Xorazmshohning mo'g'ul istilosi davrida dushmanga qarshi kurashi asarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Namiq Kamolning "Qora balo" nomli so'nggi pyesasi olis Hindistonda Boburlar saroyida yuz bergan hodisalarni hikoya qiladi. Hukmdor qizi Bonu qaylig'i Xusrav bilan kelajak saodatlari to'g'risida o'ylaydi. Lekin bir zanjii Bonuning nomusiga tekkani uchun qiz zahar ichib o'zini o'ldiradi. Buni eshitgan Xusrav avval zanjini, so'ng esa o'zini o'ldiradi. Umuman, bu asarni turk adabiyotshunoslari Namiq Kamolning eng sayoz asari deb hisoblashadi va buning sababi sifatida asarni yozishi "N.Kamolning Magosdagi zindon azoblari ichida moddiy va ma'naviy jihatdan zaiflashgan vaqtga" to'g'ri kelganini ko'rsatishadi.

Namiq Kamol turk adabiyoti tarixida nafaqat kuchli shoir, nosir va dramaturg sifatida, balki katta tadqiqotchi-olim sifatida ham tanilgan. Uning tarixiy mavzuda yozgan "Buyuk Islom tarixi", "Silistra urushi", "Usmonli tarixi", "Afkori parishon" va b. asarlari turk hamda Islom tarixining tadqiqi va o'rganilishi sohasida bebaho anbadir.

## ABDULHAQ HAMID TARXON



ABDULHAQ  
TARXON  
(1852-1937)

Abdulhaq Hamid yangi turk adabiyotining rivojida mislsiz xizmati bo'lgan taniqli shoir va dramaturgdir.

U turk adabiyotini yangi shakl va mazmun bilan boyitgan nodir san'atkorlardan biridir.

Hamid 1852-yilda Istanbulda taniqli insonning oilasida tug'ilgan. Ajdodining qadim turkiy Tarxonlar nasliga mansub ekanligi uchun

"Tarxon" taxallusini olgan edi. Otasi Xayrulla afandi davrining taniqli ma'rifatli ziyolaridan edi. Onasi Muntaho xonim esa Kavkazdan olib kelingan cherkas qizi edi. Hamid ilk tahsilini mahalla maktabida olgan.

Otasi Xayrulla afandi Hamidning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini ko'rgani uchun uning xususiy murabbiylar yonida ta'lim olishi uchun sharoit yaratgan. 1862-yilda Hamid o'n yoshga to'lganda akasi bilan Parijga boradi. U yerda Yevropa turmushi bilan tanish bo'lasa, shuningdek, qisqa muddat Parij milliy maktabida o'qiydi. Bularning bari Hamidning dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qarashlarning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Fransiyadan qaytgach, u tahsilini Istanbuldagi xususiy fransuz va Amerika maktablarida davom ettiradi. Bu yillarda Abdulhaq Hamid Sharq tillariga qiziqadi, ustozlari Bahouddin afandidan fors va arab tillarini o'rganadi. Tahsil olish bilan birga u 13-14 yoshlarida Istanbuldagi tarjima markazida ishlaydi. 1865-yilda Hamidning otasi Tehronga elchi etib tayinlanadi. Shu davrdan so'ng Hamidning Eron hayoti boshlanadi. Bu yerda Hamid fors tilini bilgani uchun fors adabiyoti bilan tanishadi.

Eron adabiyoti bilan yaqindan tanishish unga Sharq dunyosining madaniyati va tarixi bo'yicha ko'p narsalarni o'rganadi. Lekin u Tehronda uzoq vaqt qola olmaydi. Otasining bevaqt o'limi Hamidning Tehronda jami ikki yil qolishiga sabab bo'ladi. Shundan so'ng Xayrulla afandining barcha oila a'zolari, shu jumladan, Abdulhaq Hamid Istanbulga qaytadi va moliya idorasida ishlaydi.

U 1871-yilda Edirnegaga boradi. Bu yerda Fotima xonim bilan tanishadi. 13 yoshli qiz bilan turmush qurgach, yana Istanbulga qaytadi. Abdulhaq Hamid diplomatik sohada ham faoliyat ko'rsatadi. Adib 1873-yilda Tehran taassurotlari asosida yozgan "Mojaroyi ishq" nomli pyesasini chop ettiradi. Bir muddatdan so'ng Hamid "Ichli qiz" va "Sabru sabot" asarlarini ham nashr qilishga muvaffaq bo'ladi. Abdulhaq Hamid bu davrda



mahsuldor ijod darajasiga chiqqan edi. Muallifning hanuz o'zi ko'rmagan Hindistondan hikoya qiluvchi, hind ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettiruvchi "Hind qizi" asari katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Abdulhaq Hamid faqat dramaturgiya sohasida emas, poeziya sohasida ham muvaffaqiyatlarini ko'rsata oladi. U 1876-yilda Turkiyaning Fransiyadagi elchixonasiga ikkinchi kotib vazifasiga tayinlanadi. Bu bosqichda Hamid fransuz adabiyoti va madaniyati bilan yaqinroq tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi va butkul fransuz adabiyoti ta'siriga tushadi. Parijga ishlashga ketayotganda turmush o'rtog'ini olib ketmasligi tadqiqotchilar tomonidan o'zligi bilan yolg'iz qolishi, ichki olamiga sho'ng'ishi deb tavsiflanadi. Adib 1878-yilda "Nastarin" asarini yozadi. Hodisalarni afg'on turmushiga bog'lagan Hamid aslida bu asarda II Abdulhamidning beshafqatliklariga ishora qiladi va buning natijasida hukmron idoralarning muallifga qarshi shubhali munosabatlar paydo bo'ladi. 1878-yilda Hamid ruxsat olib Istanbulga keladi. Ruxsat olishiga qaramay, shuni bahona qilib, uni ishdan bo'shatishadi. Bir muddat ishsiz qolgan Hamidga hokimiyat idoralari tomonidan yangi lavozimlar taklif qilinadi. Uni Belgrad va Berlin elchixonasiga yubormoqchi bo'lishadi. Hamid bu takliflarni rad qiladi va ruhan tushkunlikka tushgani uchun faoliyati yo'nalishini muayyanlashtira olmaydi. U 1881-1883-yillarda Rossiya va Yunonistonda joylashgan Turkiya konsulliklarida ishlaydi. Bu yillarda "Sahro", "Ashbar", "Tariq", "Bir qashshoqning vasfi holi" va b. asarlarini nashr ettiradi.

Abdulhaq Hamidning turmush o'rtog'i Fotima xonim sil kasalligiga chalilib, sog'lig'i yomonlashib boradi. U tabiblarning maslahati bilan ish joyini iqlimi nisbatan mo'tadilroq mamlakatga o'zgartirish borasida davlat rasmiylaridan iltimos qiladi. Hamid 1883-yilda Bombeyga konsul sifatida yuboriladi. Lekin Hindistonda Fotimaning kasalligi avvaliga yengillashsa ham, keyinchalik og'irlashadi va Hamid kema bilan Istanbulga qaytishga majbur bo'ladi. Yo'lda Fotimaning ahvoli yomonlashadi va Bayrut shahriga yetganda vafot etadi. Hamid turmush o'rtog'ini Bayrutda dafn qiladi. 40 kun o'sha yerda qolgach, Istanbulga qaytadi. Shuni ham qayd etish kerakki, suyuqli rafiqasining o'limi uni haddan ortiq ta'sirlantiradi va buning natijasida adib "Maqbar", "Marhum", "Hajla", "Bular o'sha" asarlarini yozadi. Lekin bu silsilaning shoh asari "Maqbar" (1885) hisoblanadi. "Maqbar" asarini yozgach, Hamid "Maqbar shoiri" deb tanilishi bejiz emas.

1885-yilda ikki farzandi bilan Istanbulga qaytgan Hamid taxminan bir yilga yaqin ishsiz qoladi. Yana ruhan tushkunlik davridan o'tadi. 1886-yilda Hamid London elchixonasida birinchi kotib etib tayinlanadi. Hamid 1887-yilda "Finten" va "Zaynab"ni yozadi. Har ikki asarni chop etilishi uchun Istanbulga yuboradi. Lekin asarlardagi siyosiy motiv, sul-ton rejimiga qarshi e'tiroz va isyon ruhiyatini bahona qilib, hukumat

muallifga qarshi jiddiy chora-tadbir ko'rishga qaror qiladi. Abdulhaq Hamid 1888-yilda lavozimidan ozod qilinib, chaqirib olinadi. Lekin biroz vaqt o'tgach, hukumatga qarshi bo'lgan g'oyalar ilgari surilgan "Finten" asarida ham bunday ruhiyat yo'qligini tasdiqlab, Hamidning maoshini oshirgan holda qayta Londonga yuboriladi. U 1890-yilda ingliz qiz Nelli xonimga uylanadi. 1895-1897-yillarda Hamid bir necha joylarda diplomatik ishlar bo'yicha ishlagandan so'ng yana Londonga qaytadi va 1908-yilgacha o'sha yerda ishlaydi. Hamidning Angliyadagi hayoti deyarli 22 yil davom etgan. Bu yillarda Hamid tanishib, chambarchas bog'langan G'arb dunyosiga yaqindan guvoh bo'lgan, kerakli xulosalarni chiqargan edi. Abdulhaq Hamid 1908-yilda Bryusselga elchi etib tayinlanadi. 1912-yilgacha o'sha yerda yashaydi va turmush o'rtog'i Nelli xonim o'lgach, Lusyen xonimga uylanishga qaror qiladi. 1912-yilda Turkiyaga qaytgan Hamid keng adabiy va ijtimoiy faoliyatini boshlaydi. Ketma-ket asarlar yozib, chop ettiradi. U 1918-yilda ingliz tajovuzi vaqtida Turkiyadan ketib, Venada yashashga majbur bo'ladi. To'g'rirog'i ingliz hukumatining tajovuziga qarshi chiqqani uchun ularning chora ko'rishlaridan hayiqib, bu yo'lni ma'qul ko'radi.

Abdulhaq Hamidning hayotidagi nisbatan yaxshi davr Turkiyada Jumhuriyat e'lon qilingandan so'ng boshlanadi.

1927-yilda tavalludining 75 yilligi munosabati bilan Galatasaroy litseyida tadbir o'tkaziladi va Hamid u yerda o'z she'rlarini o'qish bilan birga, ma'ruza qilib xalqni yangi turk hukumatining mustahkamlanishida yordam ko'rsatishga chorlaydi. U 1928-yilda Buyuk Milliy Majlisga a'zolikka saylanadi. 1928-yildan umrining oxirigacha turfa xil tashkilotlarda ijtimoiy-siyosiy faoliyatda bo'lib, bir nechta asarlar yozgan. Abdulhaq Hamid 1937-yilda Istanbulda vafot etadi, qabr toshiga "Marhum" poemasi ikki misra yozilgan.

*Bu tosh peshonamga o'xsharki, ayni maqbardir,  
Usti sukun ila zohir, ichi mahshardir.*

## IJODI

Abdulhaq Hamid boy adabiy merosga ega san'atkorlardan biridir. U yozgan she'r, nasr va drama asarlari G'arb va Sharq adabiy-estetik fikrlari asosida shakllangan ijodiy namunalari sifatida turk adabiyoti tarixida muhim o'rin olgan. Abdulhaq Hamidning adabiyot olamidagi yangiligi avvalo uning she'rlaridan boshlanadi. Shuni ham qayd etish joizki, Abdulhaq Hamid poeziya bilan umrining oxirigacha shug'ullangan. To'g'rirog'i, adabiyotga she'r bilan kirib kelgan Hamid keyinchalik boshqa janrlarda yozsa ham, hech qachon she'r yozishdan to'xtamagan. Uning "Devonliklarim yoxud Balda", "Sahro", "Bular o'shadur", "Ilhomi vatan" she'riy

to'plamlari turk adabiyotida yangi she'r an'anasining kuchayishi va taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etgani uchun an'anaviy she'r tarafdorlarining e'tiroziga sabab bo'lgan, shu yo'ldan borgani uchun uni kosmopolit shoir deb nomlaganlar. To'g'ri, shoir "Devonaliklarim yoxud Balda" kitobida to'plangan ba'zi asarlarida she'rning fransuzcha erkin shakliga rag'bat bildirish bilan fransuz shoirlarining yo'lidan borganini ochiqchasiga tasdiqlaydi. Lekin keyinchalik ijodiy jarayoni bu da'volarning asossiz ekanligini isbotlab, Hamid poeziyasini turk adabiyotida yangi hodisa sifatida baholaydi. Xususan, "Sahro" va "Bular o'shadur" she'riy kitoblarida o'ziga joy topgan she'rlarining san'at olamidagi muvaffaqiyati yosh yozuvchilar tomonidan ham, ustoz shoirlar tomonidan ham tan olingan.

Abdulhaq Hamid ijodida poema janri katta o'rin egallaydi. Tabiiy ravishda Tanzimot davrida bu janr yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. "Maqbar", "Marhum", "Hajla", "Qaram", "Boladan ovoz" va b. poemalari bilan Hamid Turkiya adabiyotidagi janrning zamonaviy talabiga mos namunalarini yarata oldi. Poemada Hamid ijodining cho'qqisi "Maqbar" (1885) hisoblanadi. Aruz vaznida yozilgan bu poema ham qofiya va til, ham mazmun va g'oya jihatdan qiziqish uyg'otadi. Hamid "Maqbar"ni turmush o'rtog'i Fotimaning o'limiga bag'ishlab yozgan. Ma'lumki, Hamid turmush o'rtog'i Fotimani jonidan ortiq sevib, uni juda ardoqlagan. 26 yoshida sil kasalligi tufayli olamdan o'tgan Fotima xonim o'zining zakovati, madaniyati, dunyoqarashi bilan ajralib turuvchi inson bo'lgani tufayli Hamidning qalbida chuqur iz qoldirgan. Hamid doimo Fotima xonimning fransuz va ingliz ayollarini tushuna olishi va ular bilan gaplashishini, hind mahalliy lahjasini o'rganishini olqishlab, xonimning bu xislati bilan faxrlanar edi. Ayni paytda Hamid Fotima xonimning ikki farzandini yoniga olib, pianino chalishini shirin xotira sifatida yod olar edi. Fotima xonimning o'limi Hamidning hayotida og'ir zarba bo'ldi, bu ta'sir unga bag'ishlangan asarda tom ma'noda o'z aksini topa olgan. Qizig'i faktlardan biri shu-ki, Hamid Fotima xonimning og'ir kasalligini tushunib, shifokorlardan uning tez kunda o'lishini eshitgan edi. Shuning uchun ham turmush o'rtog'ining hali tirikligida kutilgan fojia ta'siri ostida avvaldan Hindistonda muayyan misralar yoza olgan edi.

Muallif asarni Fotimaning qabri joylashgan Bayrut shahrida tugatgan. Shoir hayotida yuz bergan fojia uning butun borlig'ini o'rab oladi, unga dunyosining bema'noligini idrok ettiradi. O'lim oldida ruhan zaiflashgan shoir emotsional ravishda isyon ko'taradi. Emotsiyalarga berilgani uchun Allohga qarshi e'tirozini ham yashira olmaydi. O'limning Tangri haqiqati va qismati ekanligini anglash malol keladi. Shuning uchun ham poemaning ilk misralari shoirning o'lim fakti oldida tushkunlik va qayg'uning ochiq namunasi misolida yangraydi:



*Ey voh, na yer, na yor qoldi,  
Ko'nglim to'la oh-u zor qoldi.  
Shu yerda edi, ketdi eldan,  
Ketdi abadga, kelib azaldan.*

*Men ketdim, u xokisor qoldi,  
Bir go'shada tor-u mor qoldi.  
Boqiy ul enisi dildan, eyvoh  
Bayrutda bir mozor qoldi.*

Lekin asarda naqadar emotsionallik bo'lsa-da, shoirning o'lim oldidagi faryodlari butkul tabiiy ko'rinadi va o'quvchi uni tushunadi, dod-faryodini to'g'ri qabul qiladi. Hamid Fotimaning o'limini faqatgina turmush o'rtog'ining vafoti deb baholamaydi, uning nazarida bu o'lim hayotning o'limidir. Chunki shoir uni yaratilganlar ichida "bitta" deb qabul qiladi:

*Ketdi, nazarimdan oh, ketdi,  
Bemaqsadu begumon ketdi.  
Har fard jahonda birdir ammo,  
Bir dona emas, unday, aslo,  
Bir dona edi ul moh, ketdi,  
Oylarcha bo'lib, taboh ketdi.  
Ko'rsam yeridur seni zulmatda,  
Nurim manim, ey iloh, ketdi.*

Ushbu misralardan ko'rinib turganidek, asar o'lim, inson va Tangri muammolaridan bahs etuvchi falsafiy poemadir. Lekin asar markazidagi konkret o'lim va bu o'limning obykti sifatida inson va qabr turadi. Shuning uchun ham poemada muammo ham bu uchlikdan – o'lim, inson va Allohdan uzoqlashmaydi. Muallif aynan shu obraz va muammolar zaminida epizodlar tuza olgani uchun juda qiziqarli mazmun chiqarib bera olgan.

Shoir turmush o'rtog'i Fotimaning o'limidan so'ng uning qabri ustida dod-faryod qilsa ham, o'limni dildan tan ololmaydi. Uning nazarida yuragida ishq bo'lgan insonni hech nima, shu jumladan, o'lim ham yenga olmaydi. Bu maqomda uning fikrlari so'fiy ma'no kasb etadi. Lekin qabrda yotgan Fotimaning shoir faryodiga hech qanday javob bermaganini ko'rgach, u o'lim haqida o'ylaydi va uni butkul tushunib yetmasa ham, asta-sekin qabul qiladi. Hamid asarda o'zining ma'naviy-psixologik izlanishlarining mantig'i sifatida jahonda yuz beruvchi har narsaning Alloh irodasiga bog'liq ekanligini anglab yetadi. Uning ruhiga va qalbiga kurrayi zaminda Allohning irodasidan boshqa hech nima yo'qligi singib

boradi. Nima bo'lsa, uning qudrati va ixtiyoridadir. Shuning uchun ham shoir Allohga yuzlanadi va o'z tilagini quyidagicha tilga oladi:

*Sen xoliqimizsan, etdik imon,  
Bir senda topar bu aza poyon.  
Sen bor ekan bo'lurmi oxirat yo'q?  
Yo'q shubha-ki, senda ma'rifat ko'p.  
Sezdim, seni istar bu vijdon,  
Bildim, senga vasl bo'ldi jonon  
Takror buyur faqat hayotin  
Jon ber unga, bermasang darmon.*

Bulardan so'ng biror natijaga erishmaganini ko'rganda esa shoir e'tiroz yo'lini tanlaydi. Lekin butun falsafiy izlanishlarida chiqish yo'li topa olmagan shoir badbinlikka sho'ng'iydi. O'limning hikmati ma'lum bo'lib, uning hayot kabi ma'noli faktor ekanligini idrok etgach, hammasi butkul o'zgaradi. Faqat yana muhabbat tuyg'ularining kuchli ta'siri Fotima ruhini ko'klarga ko'tarib, abadiylikka yetkazish istagini yuzaga chiqaradi. Uning xayolini qalbida yashatishi bilan taskin topadi. Lekin u o'lishi va ko'milishini, Fotima xotirasi yashaydigan yuragining ham tuproq ostida chirishini bilgach, o'y-fikri ham o'zgaradi. Yana qalbiga asta sizib kirgan so'zlar hammasini o'zgartiradi va boshqa ko'rinishda yuzaga chiqaradi. Albatta, bu fikrlarining o'zgaruvchanligi murakkab va zid dunyoqarashidan kelib chiqadi.

Bularning bari shoirning Fotimani "o'lim changalidan olib, hayotga qaytarish ehtiyojidan paydo bo'ladi." Qayd etish lozimki, bu ziddiyatlar fonida asl haqiqat anglab yetiladi: Alloh buyuk qudrat egasidir, uni mutlaq ma'noda tasavvur etib bo'lmaydi, uning sirlari hech kimga ayon emas, o'lim ham uning sirlaridan biri, o'lim sir bo'lish bilan birga haqiqatdir, qochib bo'lmas manzildir.

Abdulhaq Hamid bu g'oyani o'zi belgilagan muammolarning davomi va izohi yo'lida yozgan "Marhum" (1885) poemasida ham aks ettirgan. Lekin "Hajla" (1885) poemasida esa muayyan o'lim va hayot muammolariga joy berilsa ham, xulosada yashashga, hayot ishqiga ustunlik beriladi.

Umuman, shoir "Qaram" (1876) va "Yuksakdan ovoz" (1911) asarlarida ham falsafiy qarashlarini aks ettiradi, Tangri, koinot, samo, ruh muammolariga ko'proq e'tibor qaratardi. Lekin bu bosqichda Hamidning ijodiga xos bo'lgan bir qancha ziddiyatli maqomlar yaqqol namoyon bo'lardi.

Abdulhaq Hamid poemalaridagi romantik-falsafiy izlanishlariga nisbatan vatan, millat, hurriyat va b. muammolarning ko'proq tasvir va

tarannumiga bag'ishlangan dramaturgiyasi faqat Hamid ijodi uchun emas, butun turk adabiyoti uchun qimmatlidir. Abdulhaq Hamid drama asarlarini ham nazm, ham nasr bilan yozgan. Nazm bilan yozgan asarlarini barmoq va aruz vaznida, nasr bilan yozganlarining ba'zilarini esa nazm bilan almashinuvi shaklida qog'ozga tushirgan. "Mojaroyi ishq" (1873), "Sabru-sabaot" (1874), "Sardanapal" (1875), "Hind qizi" (1876), "Nastarin" (1878), "Liberta" (1878), "Ashbar" (1880) va b. sahna asarlarida muallif qadimgi tarixiy hodisalardan tortib davrining ijtimoiy-siyosiy, real-tarixiy muammolari fonida davlat, hokimiyat, jamiyat huquqi masalalarining tasviriga keng o'rin ajratgan.

Abdulhaq Hamidning ilk dramatik asari bo'lgan "Mojaroyi ishq" oilaviy-maishiy, ishq mavzusi asosida yozilgan. Asarda hukmdor bolalari o'rtasidagi muhabbat diqqat markazida bo'ladi. "Sabru sabot" va "Ichli qiz" asarlari ham ishq va axloq, urf-odat mavzusida yoritilgan. Sevgi sarguzastlari haqida yozilgan "Sabru sabot"da o'z ishqiy yo'lida mashaqqatlar bilan yuzlashgan, yakunida visolga yetgan yosh yigitning taqdiri haqida so'z boradi. Asar qahramoni Mehmetbey onasining o'limidan so'ng amakisining yoniga boradi, bu yerda Raqsevar ismli joriyaga maftun bo'ladi. Lekin amakisi Munir poshsho Mehmetni qizi Zahroga unashtirmoqchi bo'ladi. Zahro ham Mehmetga turmushga chiqishga rozi bo'ladi. Munir posho Raqsevarni uydan uzoqlashtiradi. Mehmetbey qalandar qiyofasida uni izlab Parijgacha yetib boradi. Lekin qizni hech qayerdan topa olmaydi. Parijda amakivachchasi Zahroning eri Muyassarbey bilan tanishadi. Muyassarbey unga otasining Istanbulga og'ir kasallikka chalinganini aytadi. Mehmetbey ortga qaytadi. Lekin Istanbulda ko'rganlari uni hayratga soladi. Raqsevar endi uning otasi Munim afandining joriyasi bo'lib, og'ir ahvoldagi otasi unga uylanish niyatida edi. Lekin qiz bunga aslo rozi bo'lmaydi. Munim afandi o'ladi va Mehmetbey Raqsevarning visoliga yetadi. Mazmundan ko'rinib turganidek, Mehmetbey haq tarafdoridir. U o'z fikrida mustaqil bo'lib, haqiqatni har narsadan ustun tuta oladi. Shuning uchun ham muhabbatiga sodiqdir. Asl muhabbatini bironing istagiga qurbon qilmaydi. Aynan mana shu tufayli asarda o'z saodatini topa oladi.

Dramaturgiyada A.Hamidning eng muvaffaqiyatli asarlaridan biri "Hind qizi"dir. Asar mavzusi Hindistondan olingan. Lekin shuni qayd etish kerakki, adib bu asarni Hindistonga borishdan avval yozgan. Asarning yozilish sababi turlicha. Avvalo muallif Hindiston haqida ko'pgina manbalar o'qib, Yevropaning Sharq manfaatlarini oldida boshqa xalqlar kabi ezilgan, haqqi toptalgan hindlarning ahvoliga achinadi, ularning e'tirozini ifodalaydi. Albatta, A.Hamid G'arbning Sharq manfaatlarida Turkiyaga bo'lgan ishtiyoqini ham ko'rgan va romantizmning talabi sifatida hodisalarning boshqa joyga ko'chirilishi prinsipiga amal qilgan edi.

O'zining yozishicha Istanbulda bir do'kondan sotib olgan kichik hind raqqosasi haykalining unda uyg'otgan taassuroti bu asarning yozilishiga turtki bo'lgan. Muallif asarda hindlarga qarshi inglizlarning vahshiyliklarini, beshafqatliklarini tasvirlab, istibdod natijasida badbaxt bo'lgan xalq faryodini qalamga olgan. Qizig'i shunda-ki, Hamid bu jarayonlarni aynan hind xalqi timsolida bergan bo'lsa ham, ba'zi hollarda jarayonlarni umumiy tasvirlab, Sharq xalqlarining mushtarak dard va fojiasi shaklida aks ettiradi. Muallif ingliz og'aligining hind hayotida o'ynagan buzg'unchi rolini tasvirlab, hodisalarni keng makonda davom ettiradi. Deyarli makon chegarasi bo'lmagan "Hind qizi" asari ham qishloq, ham shahar hayotini o'z ichiga oladi. Har ikki makonda ingliz og'aligining, ingliz zulmining ijrochilari bo'lgan Bortel va Tomsonning siyomosida muallif umuman mustamlaka rejimining ma'naviy tubanliklarini ko'rsata olgan. Hamid asarda hind xalqining milliy-ozodlik ruhi yuksakligiga alohida joy ajratgan va bu ruh oldida kelgindi og'alarning egilganini, singanini yuqori darajada namoyish ettiradi. Ingliz zulmiga qarshi e'tirozlarning, milliy ozodlik harakatining rahbari Turrumtur muallif yaratgan qiziqarli obrazlaridan biridir. "Millatni bir oila", "bandalarni Vatan nomli onaning farzandi" deb hisoblaydigan Turrumtur xalqni birdamlikka chorlashda bebaho o'rin egallaydi, millat saodatini mustamlaka balosidan xalos bo'lishda ko'radi.

Asarda e'tiborni jalb etuvchi obrazlardan biri esa Surujuyidir. Muallif bu obraz orqali xalqning milliy-ma'naviy manfaatlarini suiiste'mol qilinishini yorqin aks ettiradi. Surujuyi butparastdir. U o'z saodatini izlaydi va uni hech nimaga qurbon qilishni istamaydi. Hatto bu yo'lda dinidan voz kechishga tayyor. Shuning uchun ham uning bu "ojizligidan" foydalangan Tomson soxta oshiq qiyofasida Surujuyining qalbini zabt etadi. Asarda keksa hindning hind qiziga uylanishi "milliy-ma'naviy" suiiste'molning oldini olinishi unga qarshi chora-tadbir sifatida rejalashtiriladi. Qizning eri to'satdan vafot etadi va hind odatiga ko'ra beva qolgan ayol ham o'lgan eri bilan birga gulxanda tiriklayin yoqilishi talabi yuzaga chiqadi. Lekin "bu vahshiy joylarga madaniyat olib kelish", "eski, vahshiy hind odatlariga qarshi chiqish" javobgarligini bo'yniga olgan hokim Tomson o'z gunohlarini yashirish uchun hind qizining gulxanda yoqilishiga e'tiroz bildirmaydi.

Abdulhaq Hamidning "Hind qizi" asarida ijtimoiy-siyosiy muammolar ahamiyati ko'rsatilsa ham, muallif qarashlarining muayyan ziddiyatlari o'zini ko'rsatgan. Albatta, bu vaziyatning yuzaga chiqishida Hamidning islohotchilik qarashlarining katta ta'siri bo'lgan.

Vatanparvarlik tuyg'ularining tarannumi, adolatsiz istilolarga qarshi kurash, tuproqlarning kelgindilardan himoya qilish g'oyasi "Ashbar" asarining markazini tashkil etadi. "Ashbar" manzuma shaklda yozilgan

tarixiy dramadir. Hodisalar Panjob viloyatida bo'lib o'tadi. Eronni bosib olgach, Makedoniyalik Iskandar Hindistonga yurish qiladi. Lekin Hindistonga boruvchi yo'l Panjobdan o'tar edi. Panjob yigitlari Ashbar boshchiligida vatanlarining Iskandar qo'shiniga oyoqosti bo'lmasligi uchun jang maydoniga otilishadi. Ularning ko'p sonli Iskandar qo'shiniga qarshi kurashish qarorlari vatanlariga bo'lgan cheksiz muhabbatlaridan kelib chiqadi. Bu holda muallif ham Ashbarning, ham Panjob yigitlarining vatanparvarlik qudratidagi barcha go'zallik va betakrorligini yuzaga chiqaradi. Ashbarning yagona g'oyasi vatanini himoya qilishdir. Bu yo'lda hamma narsani fido qilishga tayyor. U singlisi Sumru Iskandarning soxta muhabbati to'riga ilinganini, uning qurboniga aylanganini bilganda, o'z singlisiga ham shafqat qilib o'tirmaydi. Sumruning:

*Lozimmi bizga vatan va millat?*

*Biz bor bo'laylik, yetar bu davlat* – degan taklifiga Ashbar e'tiroz bildirib, qat'iy qadam tashlashdan chekinmaydi:

*Chiq tuprog'imizdan unda zero,*

*Sen o'limga loyiq emassan aslo* – deb Sumruni xanjar bilan o'ldiradi va boshqalarga saboq bo'lishi uchun Kashmir qal'asining oldida dorga osadi. So'ng esa Iskandar Panjobni yondirib, aholini qilichdan o'tkazadi. Muallif hodisalarning bu qismini juda ta'sirli bo'yoqlar bilan tasvirlagan. Butun shahar yonadi, faryodlar ko'kka ko'tariladi, har yon jahannamni yodga soladi. Ashbar qo'lga kishan urilgan holda Iskandarning huzuriga olib kelinadi. Lekin u shu ahvolda ham o'zini g'olib deb hisoblaydi. Chunki uning fikricha, haq yo'lidagi kurash o'lim bilan nihoyasiga yetsa ham, u yerda mag'lubiyat bo'lmaydi. Bu mantiq va iroda Iskandarni lol qoldiradi. Uning qo'llarini yechib, qilichini o'ziga beradi. Ashbar esa qilich bilan o'zini o'ldiradi.

Bu yerda Iskandar bilan Aristotelning dialogi bir fotih sifatida uning xarakterini yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynaydi:

*Iskandar:*

*Maqbar, maqbar jahon ochilmish,  
Gulshanlarga yashin sochilmish,  
Lashkar, lashkar yoyilmish murda!*

*Aristotel:*

*Hirsingdir etgan bu holdi ijob.*

*Iskandar:*

*Afkorimni sen ham etma notinch  
Risto, bu nadur?*

*Aristotel:*

*Zafar yoxud hech.*

Aslida asarning ikkinchi nomi sifatida baholangan “Zafar yoxud hech” iborasi fotih dunyoqarashi bilan faylasuf qarashlarining to‘qnashuvi va paradoksal holatning falsafiy ifoda formasidir. Ya’ni yoqilgan va vayron qilingan shaharlar, dunyoni larzaga solgan faryodlar fotih uchun zafar, faylasuf uchun esa hech nimadir.

Abdulhaq Hamid “Ashbar” asarida tarixiy mavzuga murojaat qilish bilan Panjob yigitlari timsolida insonlarning vatanparvarlik tuyg‘ularini tarannum etib, yangi davr, yangi adabiyot uchun xos bo‘lgan vatan yo‘lida sharaflı o‘lim g‘oyasiga urg‘u bergan.

## TAVFIQ FIKRAT



TAVFIQ  
FIKRAT  
(1867-1915)

Tavfiq Fikrat 1867-yilda Istanbul shahrida Husayn afandi ismli mashhur ziyoli oilasida dunyoga kelgan.

Onasi Xadicha Rafia xonim yunon millatidan bo'lsa ham, keyinchalik Islom dinini qabul qilgan. Shoirning asl ismi Mehmet Tavfiqdir. U 1895-yildan boshlab Tavfiq Fikrat nomi bilan tanilgan. Tavfiq Fikrat ilk tahsilini Oqsaroy Mahmudiya rushdiyasida olgan. Lekin rus-turk urushi boshlangani uchun u o'qigan maktab qochoqlarga beriladi va Tavfiq Fikrat Galatasaroy litseyida o'qishga majbur bo'ladi.

Tavfiq Fikrat 12 yoshida Makka ziyoratidan qaytgan onasi Rafia xonim vabo kasalligidan vafot etadi. Onasining o'limi unga katta ta'sir ko'rsatgan va shoir bir necha she'rida onani yo'qotish og'ir qayg'u ekanligini ifodalagan. Tavfiq Fikrat Galatasaroy maktabida eng a'lochi va intizomli o'quvchi sifatida taniladi. Bu maktabda ta'lim eski fransuz tizimiga mos ravishda olib borilgani uchun ta'lim sifati baland emas edi. Lekin Tavfiq Fikrat o'z qobiliyati tufayli gumanitar fanlarni o'zlashtiradi va yaxshi o'qigani uchun barcha o'qituvchilarining diqqatini o'ziga jalb etadi. U 14 yoshidan she'r yoza boshlaydi. Devon she'ri uslubida yozgan ilk she'rlarini "Tarjimoni haqiqat" gazetasida chop ettiradi. Galatasaroy litseyini muvaffaqiyat bilan tamomlagan Tavfiq Fikrat saroyning xorijiy ishlar devonxonasida kotib lavozimiga tayinlanadi. Shubhasiz, bu tayinlovda otasining davlat mansabdori ekanligining ahamiyati ham oz emas. Lekin u muayyan muddat bu lavozimda ishlagach, o'z xohishi bilan ishdan bo'shaydi. Buning asosiy sababi uning "saroy devorlari orasida yuragi siqilishi" edi. Lekin vaqt o'tib, yana avvalgi vazifasiga qaytadi. Shoir 1888-yildan boshlab Gedikposho Tijorat maktabida fransuz, turk va husnixat o'qituvchisi sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Bu arafada otasi Husayn afandi vazifasidan ozod etilib, Sulton Abdulhamidga muxolif bo'lgan Shayxulislom bilan uchrashuvini bahona qilgan holda Istanbuldan surgun qilinadi. Tavfiq Fikrat 1890-yilda tog'avachchasi Nozima xonimga uylanadi. Ilk davrda ishq va tabiat tasviridagi she'rlar yozgan Tavfiq Fikrat otasining g'urbatga surgun qilinishidan qayg'uga botib, hukumatga e'tirozini bildiradi. Lekin o'g'li Halukning dunyoga kelishi ijodida ish va muhabbat mavzusining yetakchiligini qayta barpo etadi.

Qayd etish joizki, Tavfiq Fikrat o'g'li tahsiliga alohida e'tibor qaratadi,



uni Londonga yuborib, u yerda texnik fanlar bo'yicha ta'lim olishiga sharoit yaratadi. London ta'limi yakunlangach, u tahsilini orttirish uchun Amerikaning Michigan Universitetiga kiradi, u yerni muvaffaqiyat bilan tamomlab, muhandislik diplomini oladi. Lekin Haluk negadir bu sohadan uzoqlashib, xristianlikni qabul qiladi va ruhoniyl bo'ladi. U 1943-yilda rohib yordamchisi, 1956-yilda esa bosh rohib vazifasiga tayinlanadi.

1894-yilda Tavfiq Fikrat Ismoil Safo muharririgidagi "Mirsad" jurnali bilan hamkorlik qiladi. O'sha yili jurnal yopiladi va shoir "Ma'lumot" jurnaliga muharrirlikka taklif etiladi. 1895-yilda esa Rajizoda Akramning qistog'i bilan "Sarvati funun" jurnalining muharriri bo'ladi. O'sha kungacha Mehmet Tavfiq taxallusi bilan she'rlar chop ettirgan shoir 1895-yildan keyin Tavfiq Fikrat sifatida taniladi va shuhratga erishadi. "Sarvati funun"dagi besh yillik faoliyatida Tavfiq Fikrat adabiyotning zamonaviy masalalarining yechimini topishga urinib, iste'dodli yoshlarning adabiyotga kirib kelishini ta'minlagan. Lekin 1900-1901-yillarda sarvati fununchilar o'rtasida yuz bergan kelishmovchilik va ziddiyatlar jurnal atrofida yig'ilgan muayyan kuchlarning parchalanishiga olib keldi. Tavfiq Fikrat bu hodisadan so'ng Robert kollejiga ketadi va 1908-yilgacha bu yerda o'qituvchilik qiladi. Kollejda ishlagan yillarda u shubhali va hukumatga muxolifat shaxs sifatida tanilgani uchun uyida tintuv olib borilib, qisqa muddatga bir necha marta hibsga olingan. Bu yillarda Tavfiq Fikrat Sulton Abdulhamid rejimini tanqid etuvchi mashhur "Tuman" va "Tarixi qadim" asarlarini yozgan. U 1910-yilda Galatasaroy litseyiga mudir etib tayinlandi. Tavfiq Fikrat litseyda ishlagan qisqa muddatda bir qancha tashabbuslar bilan chiqqan, ayniqsa, ta'limni sifatini ko'tarish, o'qituvchilar huquqlarining himoyasi bo'yicha jiddiy ishlar ko'rgan edi. Lekin Tavfiq Fikrat muayyan tazyiqlarga duchor bo'lgani uchun maktab mudirligi lavozimidan bo'shadi. Maktab mudirligidan chiqqandan so'ng uning badiiy adabiyotga bo'lgan mayli yanada ortadi. Galatasaroy maktabida ishlagan paytida u Istanbul Dorilfununida adabiyot o'qituvchisi sifatida ham ishlagan. Qizig'i shundaki, Galatasaroy maktabidan bo'shagach, Tavfiq Fikrat bu maktabdan ham ketadi. Shoir faqatgina Robert kollejida umrining oxirigacha ishlaydi. Va milliy turk maktablari o'rniga o'lkada kollej tizimining tatbiqini talab etadi.

Bu davrlarda uning hukumatga qarshi yozilgan she'rlari tanqidiy fikrlari bilan keskin ajralib turardi. Ijodining ilk yillarida diniy she'rlar yozgan shoir, keyinchalik ateistik ruhida yoza boshladi. Shu voqeadan so'ng Tavfiq Fikratga qarshi din xodimlari va hokimiyat vakillarining hujumlari boshlandi. Shu jumladan, milliy maktab tizimiga qarshi fikrlari tufayli milliyatchi yoshlar tomonidan ham g'arazli munosabat kuzatildi.

Lekin Tavfiq Fikrat 1911-yilda yozilgan "Xoliqning daftari" va 1914-yilda yozilgan "Sharmin" nomli asarlaridagi she'rlarda yoshlarga nasihat



yo'lida murojaat qilib, ularning mehrini qayta qozondi. Tavfiq Fikratning hayotdan umidi katta bo'lsa ham, qand kasalligi va revmatizm tufayli rejalarining amalga oshishi amrimahol edi. Turkiy dunyoning buyuk ozodlik va inqilobchi shoiri Tavfiq Fikrat 1915-yilda vafot etgan.

## IJODI

Tavfiq Fikrat san'atning turli sohalarida ishlab, muvaffaqiyatli va ayni paytda ziddiyatli ijodiy yo'lni bosib o'tgan turk shoiridir. U rassomlik va musiqa bilan shug'ullansa ham, san'at olamida zabardast shoir sifatida tanilgan. "Rubobi shikasta", "Xoliqning daftari", "Rubob javobi", "Sharmin", "To'qson besh tomon" nomli she'riy kitoblar uning boy adabiy me'rosiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tavfiq Fikrat ijodi ham mavzu, ham shakl jihatdan yangi sanaladi. Uning murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar davrida yashaganligi sir emas. Albatta, ushbu hodisalar uning ijodiga bevosita ta'sir ko'rsatgan va san'atida turli davrlar ko'rinishida o'z aksini topgan. Tavfiq Fikrat ijodining ilk davri 1888–1896-yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda yozgan ko'pgina she'rlarida devon adabiyoti bilan yevropacha adabiyotning paralelligi, shuningdek, Abdulhamid rejimiga munosabat kuzatilardi. Tavfiq Fikrat ijodining birinchi bosqichida nazira uslubi ko'p uchrab turardi. Ijodidagi "Sarvati funun" davri 1896–1901-yillarni qamrab oladi. Bu davr g'oya va aqida kurashlari davri sifatida xarakterlanadi. To'g'rirog'i, eski adabiyotga qarshi kurash, istibdodning parchalanishi, II Abdulhamid rejimini ag'darish jahdi va unga nafrat bu davrning asosini tashkil etardi. Turkiyada 1908-yil inqilobi Tavfiq Fikrat ijodi uchun keng sharoit yaratdi. O'zining inqilobchiligi va faolligi bilan ajralib turuvchi bu bosqichda davrning bevosita va keskin munosabati alohida o'rin egalari, ijtimoiy hayotning chidab bo'lmas sabablari ko'rsatilib, vaziyatdan chiqish yo'llari izlanar edi. Shu tufayli shoir ijodida vatan, ozodlik, urush va b. mavzulari yangi adabiyotning talablari zaminida badiiy yechimini topa olgan. Tavfiq Fikrat ijodining chuqur tahlili uning vatan shoiri deb nomlashga to'liq asos beradi. Qayd etish lozimki, vatanparvarlik Tavfiq Fikrat ijodida katta o'rin egallaydi. Uning nazarida vatan muqaddas va tengi bo'lmagan makondir:

*Tuprog'ing javhar, suving kavsar, bahoring bexazon,  
Bu dunyoda na tenging, o'xsharing yo'qdir inon.  
Mushfiq farzandin topar bag'ringda har kun, har zamon,  
Boshqa shavkat, boshqa ne'mat, boshqa quvvat, boshqa jon,  
Jon ham sen, shon ham sen, bari sensan, yasha,  
Ey vatan, ey muborak vatan, ming yasha!*

Tavfiq Fikratning 1902-yilda yozgan "Tuman" she'ri ijodining shoh asari hisoblanadi. Agar A. Hamid "Maqbar" poemasi uchun "Maqbar shoiri", M. Shahriyor "Haydarboboga salom" poemasi uchun "Haydarbobobo shoiri", Tavfiq Fikrat esa "Tuman" she'ri uchun "Tuman shoiri" nomini olgan edi. She'rning qiziqarli mazmuni bor. She'rdagi tasvirda Istanbul dahshatli, zulmatli tuman ichida hikoya qilinadi. Zulmat ramzi sifatida tasvirlangan tuman Istanbulning zulmda ezilayotganiga ishora qiladi. Bu vaziyat Istanbul timsolida butun Usmonliга taalluqlidir:

***Ustida jo'shgan marsiyalarga behis,  
Doim lavsi-riyo to'qinlanar zarralarida.  
Bir zarrayi safvat topmassan ichkarida  
Bari lavsi-riyo, lavsi-hasad, lavsi tanaffu.***

She'r avvalida faqat muayyan tasvirlar yo'li bilan og'ir turmush tarzi, achinarli sharoit tasvirlansa ham, keyingi qismda shoir davrga, zamonga, hokim tabaqaga nafrat va e'tiroz asosiy o'rin egallaydi. Tavfiq Fikrat ijodini tadqiq etuvchi ba'zi olimlar bu she'rda inqilobga chorlov g'oyasi yo'qligini ta'kidlasalar ham, aslida she'rda muayyan inqilob xarakterli chorlovni kuzatish mumkin. Chunki muallif kuchli tanqid va e'tiroz yo'lini tanlash orqali xalqni bu ahvolga solgan rejim va aybdor shaxslarning obrazini yaratadi, xalqning nafrat hisini jo'shtirib, ularda inqilobiy maylni orttirar edi.

"Tarixi qadim" (1905) she'rida ko'hna tarixning mushohada va murojaat obyektini tanlanishi, tasvir va munosabatlarning bu tanlovga moslashtirilishi qiziqarli shaklning kashf etilishiga turtki bo'ladi. Avvalo she'rda haykal diqqatni jalb etadi. Bu haykal bashariyat tarixining timsolidir. Keksa haykal tarixning barcha sahifalariga taalluqlidir. Tarixda ko'plab urushlar bo'lgan, nohaq qonlar to'kilgan, kuchlilar kuchsizlarni mag'lub qilgan va h. Tavfiq Fikrat she'rida insonlarning huquqi o'ldirish emas, yashash va yashatish ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham she'rda insoniyat istaklari tilga kiradi, Ular o'z hayot havaslarini bayon etib, qon to'kuvchi, qirg'in qiluvchi shaxslarga nafrat bilan murojaat qilishadi. "Tarixi qadim" she'rida yovuz kuchlar keskin shaklda nafrat obyektiga aylanadi, ularning xususiyatlari o'ziga xos uslubda tavsiflanadi:

***O'tgan yo'ling o'lim, alamga to'lsin,  
Na ekindan asar, na o't, na o'lat.  
Vayron bo'lsin uylar, xonadonlaring.***

"Tarixi qadim"da Tavfiq Fikrat xayoliy o'ylariga alohida joy beradi, Barcha yovuzliklar ustidan qalin parda tortiladi. Hamma narsa o'sha parda ostida qoladi. Shoir shoirning orzusidagi jamiyatda urush, o'lim, qa-

shshoqlik, yomonlik va beshafqatlikdan asar yo'q. Bunday jamiyatni esa muallif chin dildan orzu qilib, uning amalga oshishiga ishonib kelgan. Lekin bu asarda Tavfiq Fikrat dunyoqarashi uchun ziddiyat omili bo'lgan masala diqqatdan chetda qolmaydi. "Tarixi qadim" asarida muallif baxtiyor jamiyat, baxtiyor kelajak orzularida qahramonlik faktorini nafaqat unutadi, balki uni inkor qilishdan ham tap tortmaydi.

"Qahramonlik. Asosi qon, vahshat" degan Tavfiq Fikrat tanqidga uchrab, uning bu fikrlarini "to'rt tomoni dushman bo'lgan" millatning qahramonlik azmini zaiflatishga ta'sir etuvchi zararli omil shaklida tavsiflaganlar. Ayni paytda muallif ijodida dinga qarshi munosabatlarida ham muayyan qarama-qarshiliklar namoyon bo'lgan. Lekin har ikki holat Tavfiq Fikrat ijodida vaqtincha bo'lgan. Tavfiq Fikratning 1905-yilda yozgan "Tong otsa..." she'ri bevosita vatanining ertasiga bo'lgan ishonchini aks ettiradi. Shoir she'rda o'g'liga murojaat qilish orqali yoshlarga yuzlanadi, ularga vatanga bo'lgan muhabbat singdiriladi. She'rda yuksak ishonch hukm suradi. Bu ishonch vatan kelajagiga bo'lgan ishonchdir. She'r mazmunidan shoir orzu qilgan kunga hali yetmagani ma'lum bo'ladi. Faqat u baxtning yangi tongda quyoshdek porlashiga butkul ishonadi:

*Ha, tong otadi, yorqin bo'lar kechalar,  
Tuli hashrgacha bo'lmas, oqibat bu samo.  
Bu moviy ko'k bir kun yorishar, mal'ul bo'lma  
Kichik quyoshlari, ortiq birma-bir uyg'oning.  
Ufqarning abadiy ishtiyoqi bor nurga.*

She'rda qahramonlik ruhining tarannumi, vatan yo'lida o'lishning sharafti she'riy uslubda o'z aksini topadi:

*Tanavvur. Asrimizning butun ruhi a'moli,  
Haydang bulutlarni, silking ziloli ahvolni  
Ziyo ichra yuring bir xalosi mashkura  
Umidimiz bu: O'lsak-da biz, yashar mutlaq.  
Vatan siz ila shu zindon zulmatdan uzoq.*

"Bir lahzayi taahhur" she'ri Sulton Abdulhamidga qarshi yozilgan. Tarixdan ma'lumki, 1906-yilda Abdulhamidga bir arman terrorchisi tomonidan bomba otiladi. Lekin baxtli tasodif natijasida Sulton tirik qoladi. Turk adabiyoti tarixlarida bu jinoyatga to'g'ri munosabat bildirilib, II Abdulhamidga qarshi terror xalqni mustabiddan qutqarish, xalqqa saodat, ozodlik olib kelish maqsadida bo'lmagani ko'rsatiladi. Asosiy maqsad antiturk kuchlarining yordami bilan II Abdulhamidni o'ldirish orqali Usmonlini qulatish bo'lgan. Haqiqatan, II Abdulhamidga antipatiyasi

bo'lgan g'ayri milliy kuchlarning ishtiroki va ta'siri bilan amalga oshirilgan bu terrorni boshqacha baholash mumkin emas. Lekin Tavfiq Fikrat asarda terrorchining kimligi, shaxsi haqida ma'lumot bermasa ham, bu odamni ta'riflab, hodisani olqishlaydi. O'z navbatida II Abdulhamidning tirik qolishiga afsus-nadomat bildiradi:

***Ey shonli ovchi!  
Domingni behuda qurmading,  
Otding,  
Faqat ming afsuslar bo'lsin-ki nishon urmading.***

Qayd etish lozimki, "Bir lahzayi taahhur" she'rida milliy taassub jihatdan muayyan ziddiyatlar mavjud. Lekin bu hol Tavfiq Fikrat ijodi uchun xos emas, uning vatanparvarlik tuyg'ularining tarannumiga to'sqinlik qilmaydi.

Tavfiq Fikrat xalqiga, eliga cheksiz darajada bog'liq bo'lgan. Shu tufayli ijodining aksariyatida u mamlakatning achinarli ahvonga tushganidan xavotirda ekanligini bildirgan, sababchilarni keskin tanqid qilgan. Bu odamlar faqat zahmatkashlarning daromadini yemay, balki ularning hayotini ham o'zlashtirishini, qonini ichishini aytib o'tadi:

***Bu dasturxon afandilar ki iltiqomga muntazir,  
Huzuringizda titragan shu millatning hayotidir.  
Shu millat ki, muztarib, shu millat ki muhtazir,  
Faqat aslo chekinmanglar, yeng, yuting shapir-shupur.  
Yenglar, afandilar, yenglar, bu xoni ishtaho sizning  
To'yguncha, tiqilguncha, yorilgungacha yenglar.***

Muallif mol-davlat mastligidan ko'zi ko'r bo'lgan, ruhi o'lgan, insoniy hislardan mahrum bo'lgan boylarni nomardlikda ayblaydi, halol-haromni bilmasliklarini ta'kidlaydi. Tavfiq Fikrat bularni zulm, istibdod natijasi sifatida baholaydi. Shoirga ko'ra, mutlaq rejim hukm surar ekan, xalqqa hech qanday najot yo'qdir. Shuning uchun ham istibdod o'zboshimchaligidan foydalanib, mamlakatning barcha ne'matlarini o'zlashtirib olgan afandilarning ochko'zligini tasvirlash orqali xalqda nafratni uyg'otadi:

***Berar bechora mamlakat, berar ne bo'lsa, molini,  
Vujudini, hayotini, umidini, xayolini.  
Butun faroqi holini, bo'lsa shaqvi bolini,  
Darhol yuting, o'ylamang haromini, halolini.  
Yenglar, afandilar, yenglar, bu xoni ishtaho sizning,  
To'yguncha, tiqilguncha, yorilgungacha yenglar.***

Shoir bu ixtiyor egalariga yuzlanib, ularning qo'llarida yig'ilgan boylikning, o'z ixtiyorlaridagi saroylarning qachondir yo'q bo'lishiga amin bo'ladi:

*Bu xirmonning kelar oxiri, yopishtiring ketar chog'i,  
Ertaga, ko'rarsiz, so'nar bu kun chitirlagan o'choq.  
Bu kun me'dalar qalin, bugun paytava issiq,  
Oting, tiking, qarich-qarich, chanoq-chanoq.  
Yenglar, afandilar, yenglar, bu xoni ishtaho sizning  
To'yguncha, tiqilguncha, yorilgungacha yenglar.*

Shuni ham qayd etish lozimki, Tavfiq Fikrat boylar uchun "xirmonning oxirini olib keluvchi" hodisani inqilobga bog'laydi. Shoirning taxminan 1907-yildan keyin yozgan she'rlarining katta qismida isyonga chorlov ekanligi tasodif emas. 1908-yilda Tavfiq Fikrat "Tanin" gazetasiga muharrir etib tayinlangach, o'zining inqilobiy g'oyalarini aks ettiruvchi maqolalarini chop eta boshladi. Shu tufayli ham inqilobiy g'oyalari bo'lgan, xalq najotini inqilobda ko'rgan shoir butun turk adabiyotida aks-sado bergan "Millat qo'shig'i" nomli she'rini yozdi. Chuqur mazmun va inqilobiy g'oyaga ega bo'lgan bu asar turk yoshlarining murojaati va jo'shqin maydonlarda o'qigan she'r sifatida qimmatlidir. 1908-yilda yosh inqilobchi kuchlar Istanbul ko'chalarida Tavfiq Fikratning inqilob madhiyasini yoddan aytishgan.

"Millat qo'shig'i" shoirning vatan muhabbatidan yaralgan, vatanning kelajagini porloq ko'rish orzularini aks ettiruvchi namunadir. Shoir siynasi kuygan vatan uchun qayg'urib, uning faryodiga quloq tutadi. Millatni bu dardlarga davo izlashga chorlaydi:

*Chaynaldi, yetar, borlig'imiz jahd bilan qahrga,  
To'g'raldi muborak vatanning bag'ri sababsiz.  
Birga bu kun topmog'imiz lozim dardga chora,  
Jon do'sti, qon do'sti, shon do'stimiz biz.  
Millat yo'lidir, haq yo'lidir biz tutgan yo'l,  
Ey haq, yasha, ey suyakli millat, bor bo'l.*

She'rda eng o'tkir ibora va ifodalar o'z aksini topgan. Shoir nazdida asl davlat va uning qonunlari xalqqa xizmat qilishi lozim. Bu o'lkada esa buning aksini ko'rgach, haddan ortiq bezovtaligini namoyish etadi. Xalqni zulm va istibdodni ildizidan quritishga chorlaydi:

*Haqsizlikning anvoyini ko'rdik... Bumi qonun?  
Eng g'amli safolatlarga tushdik... Bumi davlat?  
Davlat esa, qon esa da ortiq bas bo'lsin,  
Ortiq bas bo'lsin bu dami zulmu jaholat...*

Muallifning she'rdagi inqilobiy qarashlarida deyarli hamma narsa obyektiv baholanadi. U zulmning, nohaqlikning yakson etilishi zarur deb hisoblasa ham, buning oson emasligini tushunib yetadi. Lekin so'nggi daqiqalarda haqning zulm ustidan g'alaba qozonishiga ishonadi, haqning barcha qurollardan ustun ekanligiga ishora qiladi:

*Zulmning to'pi-yu, zambaragi, qal'asi bo'lsa,  
Haqning ham bukilmaz qo'li, qaytmas yuzi bor.  
Ko'z yumma quyoshdan, naqadar nuri qolsa,  
So'nmas abadiy, har kechani kunduzi bordir.  
Millat yo'lidir, haq yo'lidir biz tutgan yo'l,  
Ey haq, yasha, ey suyuqli millat, yasha, bor bo'l.*

*Bir vaqtlar otang birovga qulluq qilarmidi?  
Yo'q, qolmadi aslo senga zillat padaringdan.  
Dunyoda sharafdir yashatgan millatni, fardni,  
Silking, shu mazallat to'zi uchsini ustidan.  
Insonlikni poymol etgan pastkashlikni yiq, ez,  
Billoh yashamoq o'rniga xor bo'lmoqqa arzimaz.*

Tavfiq Fikrat boshqa she'rlarida bo'lganidek "Porlagan quyosh" nomli she'rida ham inqilobdan umid qiladi, inqilobni har yonni yoritgan quyoshga o'xshatadi:

*Oqibat ufq ochildi sen chiqding,  
...Seni olqishlaydi, barcha ko'zlar,  
Senda, shavqing ila porlaydi har yer.*

Tavfiq Fikratning inqilobiy ruhdagi she'rlarida ayol ozodligi masalasi o'ziga xos o'rin egallaydi. Chunki bir Sharq o'lkasi o'laroq Turkiyada ayolga past nazar bilan qaralgan, ularning hayoti aziyatga aylangan edi. Tabiiy ravishda Tavfiq Fikrat ayollarning ahvoriga beparvo bo'lmay, she'rlarida ham, publitsistik maqolalarida ham ularning muammolarini ko'targan. Tavfiq Fikrat, avvalo, ayollarning ta'lim olishini muhim deb hisoblaydi. U "Qiz maktabi uchun", "Hamshira uchun", "Pul va hayot", "Volida", "Alla" va b. she'rlarida Sharq uchun xos bo'lgan ayol muammolaridan bahs etadi, ilk chora sifatida ayollarning bilim olishini targ'ib qilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, ham mavzu, ham shakl jihatdan yangi bo'lgan Tavfiq Fikratning ijodi "Tanzimot", "Sarvati funun", "Fajriati" va boshqa adabiy tashkilotlarning mavjudligi sharoitida turk adabiyotidagi jarayonlar bilan bevosita bog'liq edi. Tavfiq Fikrat ijodida nazirachilik, tantanavor so'zlar bilan birga, g'oya-aqida kurashi xarakteriga ega vatan,

ozodlik, kurash va b. mavzular ustunlikni tashkil etadi. Tavfiq Fikrat o'lka ichidagi ijtimoiy-siyosiy parokandalik va ziddiyatlar, xorijiy bosim va aralashuvlar mamlakatning, millatning kelajagiga xavf solib, mavjud siyosiy inqiroz Usmonli davlatining qudratini zaiflatayotgan davrda yashar edi. Shubhasiz, mamlakatning bunday og'ir davri ziyolilarni tashvishga solar, ularni chora yo'llarini izlashga majbur qilardi. Millatning porloq kelajagini goh "qonli", goh "qonsiz" kurashda ko'rgan Tavfiq Fikrat muayyan ma'noda "yagona chora"ni ta'kidlar edi: "Millatning madaniy saviyasini ko'tarish, ziyoli, ijodkor va hunarmand yoshlarni tarbiyalash". Yoshlarga mamlakatning kelajagi sifati qarovchi Tavfiq Fikrat, avvalo, yangi uslubdagi maktablarning ochilishini, bolalarning bu maktablarda milliy, vatanparvar ruhda tarbiya olishlarini, "faqat ilm odami emas, balki ish va hayot odami" sifatida shakllanishini istar edi. Shaxsan o'zi ishlagan Galatasaroy, Istanbul, Robert maktablarida shu maqsadda maxsus tashabbuslarni ilgari surib, yoshlarning vatan umidi bo'lgani uchun ta'lim sifatini ko'tarish yo'lida salmoqli ishlar ko'rgan.

Tavfiq Fikrat faqat pedagog sifatida emas, vatandosh sifatida bolalarga, yoshlarga xitob qilish orqali ularning "vatan oldidagi burch" nimadan iborat ekanligini tushuntirib, yoshlarda vatanparvarlik hisini ko'tarishga ta'sir etuvchi she'rlar yozardi. Shoirning 1911-yilda "Xoliqning daftari", 1914-yilda "Sharmin" she'riy to'plamida jamlangan she'rlar bevosita yoshlarga nasihat, ularda vatanparvarlik ruhining shakllanishiga xizmat qilgan.

Tavfiq Fikrat poeziyasida bolalar she'riyatining o'ziga xos o'rni bor. 1914-yilda chop etilgan "Sharmin" she'riy to'plami barmoq vaznida yozilgan bolalar she'rlaridan iborat. Bu she'rlarda, asosan, bola ruhi va bola psixologiyasining tasviri yetakchi o'rin tutadi.

"Sharmin" she'riy to'plami Tavfiq Fikratning pedagogik qarashlarini aks ettiruvchi asar hisoblanadi. Bu yerda darsga qiziqish, bugungi va erangi darslarga munosabat va ularni o'tish metodikasi va b. masalalar pedagogik prinsiplar jihatdan o'z yechimini topa olgan. Mehnatsevarlik, mehnatga munosabat masalalari Tavfiq Fikrat bolalar she'riyatining asosiy mavzusidir. U "Ish xonasida", "Duradgor", "Chigirtka va chumoli" va b. she'rlarida bolalarni mehnatni sevishga chorlaydi, ularda mehnatga chuqur muhabbat uyg'otadi. Shoirning bu turdagi she'rlarida inson shuhratga mehnat bilan yeta olishi ko'rsatiladi. Hayotda mehnat yenga olmagani hech nima yo'qdir:

***Mehnatkash har ishni qilar,  
Inson uchun kasb ko'pdir,  
Bo'lmaydigan ish yo'qdir.***



Tavfiq Fikratning bog'cha bolalari uchun yozilgan she'rlari ham bor. "Bag'ishlov" she'ri nomidan ko'rinib turganidek, bog'cha yoshidagi bolalarga bag'ishlangan. Bu kabi she'rlarda g'oya bola psixologiyasi ruhida singdirilsa-da, "uy" so'zida bog'cha nazarda tutilsa ham, masalalarga yondashuvda muayyan ma'noda falsafiy mohiyat oldinga o'tadi. "Uy" vatan, ona bag'ri ma'nosida ham keladi. Uyning ma'rifat, fazilat boshpanasi (makoni) sifatida taqdimi esa har bolada vatanga muhabbatni orttirib, milliy tarix haqida tasavvurni kengaytiradi:

*Uy mehr uyidir,  
Buvilardir uni qurgan...  
Qani, uyingga, bolajon,  
U ma'rifat uyidir.  
Va fazilat uyidir.  
U yerda fikring uyg'onar  
U yerda qanot ocharsan!*

"Hasbi hol" she'rida shoir qiziqarli mavzuga to'xtaladi. Bolalarga murojaat shaklida yozilgan bu she'rda ikki turli nasl namoyandalarining maktab hayoti solishtiriladi. Shoir hozirgi bolalarning maktab hayoti, maktab sharoiti, o'qish saviyalari bilan o'z davrini solishtirar ekan, farqlarga ko'proq joy ajratadi: Yaxshi darslik, toza maktab, parta-stul va b. Ammo Tavfiq Fikratning asosiy maqsadi o'tmish bilan bugunning maktab farqlarini ko'rsatish emas, balki yaxshi sharoitning tasviri orqali yaxshi o'qish, o'rganish, ilm bilan maqsadga yetish va b. targ'ib etish bo'lgan.

*O'qing, o'qiganlar  
Ko'p narsani bilar, ko'p ishni qilar,  
Murodiga ular yetar  
Jannatga ham ular kirar  
Ular chindan baxtiyor bo'lar...*

Muallif nazdida bilimga ega bo'lish bolalarning kelajak saodatining tamalidir. Shuning uchun ham Tavfiq Fikrat har bir o'quvchisiga mantiqan va shuuran o'qish talabi bilan murojaat qiladi.

*Inson o'rganganini,  
Yana o'rganmog'i kerak.*

Tavfiq Fikrat har bir bolaning kelajakda loyiq vatandosh sifatida shakllanishini uning to'g'ri tarbiyasida, vatanparvarlik hisining kuchli bo'lishida ko'radi. Shu tufayli shoirning bola she'riyatida vatanparvar-



lik, mehnatkashlik, qahramonlik, estetik did va b. masalalarga ko'proq to'xtalib o'tadi. Bu she'rlar ham ijtimoiy-siyosiy, ham axloqiy-didaktik, ham pedagogik jihatdan diqqatni jalb eta oladi. Tavfiq Fikrat "Sharmin" she'riy to'plamida bola dunyosining o'ziga xos jihatlariga joy ajratar ekan, real haqiqatlarni asos qilib olib, bolalarga ta'sirini real hayot fonida aks ettiradi. Bu kabi she'rlarda targ'ibot umumiy xarakterga ega emas. Masalan, "Alvasti" she'rida qiziqarli mavzuga murojaat qilgan. Bolalar biror nimadan cho'chitish uchun ularni "alvasti" bilan qo'rqitish barcha oilalarga xos hisoblanadi. Tavfiq Fikrat "Alvasti" she'rida bu masalaga to'xtalish bilan ham bola psixologiyasi, ham oila tarbiyasi, bolalarga ta'sirini aks ettirib, bola aqlining, bola ruhiyatining to'g'ri shakllanishida tarbiyaning rolini alohida baholagan. She'rda jindan, alvastidan emas, yomonlikdan qo'rqishga chorlov Sharmin timsolida barcha bolalarga yo'naltiriladi. Chunki shoir o'z ifodalarida jin va shaytonning real hayotda yo'qligini, ularning insonlarga ta'siri bo'lmasligining mohiyatini ochadi:

*Akasi deydiki "Sharmin,  
Seni titratgan shu xoin,  
Shu qo'rqinchli narsa qutidan  
Chiqdi, qo'zichoqdan  
Olingan bir hovuch yung,  
Bir oz qog'oz, bir oz kecha  
Senga bergan tolam bor-ku,  
Ana shundan iborat..."*

Shoir bu kabi ibora, ifoda va izohlari bilan bolalarni mif yaratgan qo'rqinchli ta'sirlardan uzoqlashtirib, ularning yoshiga mos hayotiy qarashlarni shakllantiradi.

She'rning so'nggi ikki misrasi esa har bir bolaning hayotdagi o'rni to'g'risidagi g'oya shaklida diqqatni jalb etadi:

*Farosati bo'lgan insonlar  
Faqat yomonlikdan qo'rqar!*

Didaktika Tavfiq Fikratning bolalar poeziyasida ahamiyati katta. Bu turdagi she'rlarda bolalarga muqaddas his va tuyg'ularning samimiyligi ko'proq e'tiborni tortadi. Umuman olganda, Sharq adabiyoti va adabiybadiiy tafakkur uchun muhim bo'lgan didaktika, pand-nasihat faqat bolalar mavzusi bo'lmagan. Sharq adabiyotida bu mavzu sharq-islom kontekstida o'z ta'sir doirasini kengaytirib, Y. Bolasog'uniy, N.Tusiy, S.Sheroziy, N.Ganjaviy, A. Jomiy va b. adiblarning ijodida axloqiy qadriyatlar rang-barang iboralar tarzida asrlar davomida ma'naviy xazina

manbayiga aylangan. Tavfiq Fikratning didaktik mavzuda yozgan bolalar she'rlari aslida Sharq an'anaviyligidan chetda qolmaydi. To'g'rirog'i, bu kabi she'rlarda mavzu va g'oya klassik Sharq an'anasi bilan bir bo'lsa-da, ibora va ifoda bolalar psixologiyasi va bolalar yoshiga mosdir. Shoirning "Ikki yo'lovchi" she'ri bu jihatdan e'tiborni tortadi. She'rning qiziqarli mavzusi bor: "Bir yoz tongida ikki yo'lovchi ketayotgan edi. Ulardan biri yerga tushgan yong'oq ko'radi. Yong'oqni bo'lishish uchun ikkovi janjal-lasha boshlaydi. Yo'ldan o'tib ketayotgan donishmand bo'lgan voqeani eshitgach, yong'oqni chaqadi, mag'zini o'zi yeb, po'stlog'ini esa ularga beradi. Ulushini mana shunday olgan ikki yo'lovchi nima qilarini bilmay qoladi".

*Donishmand yong'oqni chaqdi  
Po'stlog'ining birini  
Bir yo'lovchiga, birini  
Bir yo'lovchiga berdi-yu  
Ichini o'zi yedi So'ng esa  
"Qani, marhamat!" dedi.*

She'rdagi "ochko'zlik katta ziyon berar" degan misrasi g'oya sifati-da bolalarning dunyoqarashi shakllanishida ijobiy rol o'ynaydi, ularda do'stlik, sadoqat degan tushunchalarni kuchaytirib, ochko'zlikning in-sonlarga bergan zarari haqida tasavvurlarini kengaytiradi. Qayd etish lozimki, ijodining birinchi davridan (1888–1896) farqli o'laroq Tavfiq Fi-kratning keyingi davr ijodiyoti taxminan 1908-yildan boshlab, o'zining inqilobiyli-gi va faolligi bilan ajralib turuvchi bosqichga qadam qo'yan. Ushbu bosqichda davrning bevosita va keskin munosabati alohida aha-miyatga ega. Ijtimoiy hayotning chidab bo'lmas sabablari ko'rsatilib, bu og'ir ahvoldan xalos bo'lish yo'llari to'g'risida fikr yuritiladi. Shu sababli shoirning ijodida vatan, ozodlik, kurash va b. mavzular yangi adabiyot ta-blalari zaminida o'z yechimini topa olgan. Tavfiq Fikrat ijodining chuqur tahlili uning vatan shoiri deb nomlanishiga asos bo'ladi. Umuman ol-ganda vatanparvarlik Tavfiq Fikrat ijodida keng tushuncha sanaladi. Un-ing fikricha, vatan ajdodlarimizning bugungi va kelajak naslga omonat topshirgan abadiy muqaddas yurtidir:

*Jon ham sen, shon ham sen, bari sensan, yasha,  
Ey vatan, ey muborak vatan, ming yasha!*

Tavfiq Fikratning ijodi bilan yaqindan tanishganda, tashqi kuchlarn-ing Turkiyani parchalash, xaritadan o'chirib tashlash rejalariga qarshi vatanparvarlik g'oyalarining tarannumi ko'proq intensiv xarakter tashiy-di deyishga asos beradi. Bu hol, shubhasiz, shoirning bolalar she'riyatida

ham o'rin oladi. Lekin boshqa she'r janrlaridan farqli o'laroq bolalar she'riyatida Tavfiq Fikrat ularning yosh va psixologiyalarini nazarga olgan, fikrlarini nasihat, mehr, chorlov, qiziqtirish uslublarida targ'ib etgan.

Tavfiq Fikratning bolalar she'riyatida pand-nasihat model sifatida dono insonlarning bolalarga vatan kelajagi bo'lgan yoshlarga o'g'it xarakteriga ega. Albatta, bu o'g'itlar qatorida bolalarda vatanparvarlik hislarining kuchaytirilishi maqsadi yuqori sanaladi. Tavfiq Fikratning vatanparvarlik ruhi targ'ib etilgan she'rlarida shakl ustalik bilan tanlanadi. U bolalar ruhiyatiga mos ravishda bu hisni vatan go'zalliklari bilan singdiradi. To'g'rirog'i, vatanning tabiat go'zalliklari fonida bolalarning bu diyorga bo'lgan muhabbati orttiriladi, bolalar nazdida tengi bo'lmagan vatan obrazi jonlantiradi:

*Bahor bo'lsin, tomosha qiling,  
Qanday bezar tevarakni,  
Zumraddek tog' etaklarni...*

"Kichik askar" she'rida jajji bolakay siymosida vatanni asrovchi, qahramonlik yo'lidan o'tgan, qo'lida qurol tutib, dushmanga shafqat qilmagan bahodir tasvirlanadi. Bu she'rda vatanning ona, vatan uchun jonini fido qilishni burch deb bilishi singdirilib, bolalarning vatanga loyiq inson sifatida shakllanishiga, hayotdagi o'rniga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

*Kichik askar, qurol qo'lda  
qahramondek ilgarilar.  
Qarshisida butun el ham:  
"Qahramonim, yasha" deydi.  
Kichik askar, kichik askar!  
Vatan sendan xizmat kutar.  
Kichik askar, eshit meni,  
Kutgil, bekorga o'q otma.  
Qurolingni, o'qlaringni  
nohaqlikka qarshi asra.  
Kichik askar, kichik askar!  
Haq ham sendan quvvat istar.*

Tavfiq Fikratning bolalar poeziyasida tabiat tasvirining ahamiyati katta. "Moychechak", "Bahor xalfa", "Yoz buvi", "Xazon xola", "Qish bobo", "Yozda", "Qishda" va b. she'rlarda tabiat bilan bevosita aloqa, har faslning o'z rang va xususiyatlari bolalar dunyosiga mos tarzda tasvirlangan. Bu she'rlarda bahorning "g'uncha lab, kelin libosli" ("Bahor xalfa"),

yozning “o‘t sochuvchi qizg‘in quyosh” (“Yoz ona”), kuzning “bulutli, oltinrang” (“Xazon xola”) va b. taqdimi bolalar psixologiyasining talablari bilan bevosita bog‘lanadi, ularning har fasl to‘g‘risidagi ilk tasavvurlarini ham ta‘minlaydi, ham kengaytiradi. Masalan, shoirning ikki she‘rida ikki xil faslning (yoz va qish) o‘ziga xos xususiyatlari e‘tibordan chetda qolmaydi:

*Yopil, parda, yopil, parda,  
Tezroq yopil, derazadan  
Quyosh uyga mo‘ralaydi,  
Daftarimni so‘ldiradi...* (“Yozda”)

Yoxud:

*Ochil, parda, ochil qorda,  
Sen ochilding, quyosh qayda?  
Yoki bizni unutdimi?  
Yo‘q, uni bulut yutgandir.  
Kuchli ayoq bor  
Har tomon qor...* (“Qishda”)

Umuman, Tavfiq Fikrat ijodida tabiat tasviri ko‘p uchraydi. Uning turli mavzularda yozgan she‘rlarida tasvirning muammoga moslab ko‘rsatilishi diqqatni jalb etadi. Shuning uchun ham Tavfiq Fikratni rassom-shoir deb atovchilar adashmaydilar. Uning bir-birini to‘ldiruvchi shoir-rassom iste‘dod va qobiliyati asarlarida tabiat go‘zalliklarining, tabiat rangbarangliklarining butkul jonli berishini ta‘minlagan.

Ijodining turli davrlarida yozgan she‘rlarining deyarli ko‘p qismida tabiatning go‘zal manzaralari, inson hislarining tarannumi, odamlarning oddiy maishiy turmush tarzi rassom qalami bilan chizilgan ijtimoiy-psixologik lavha deb hisoblash mumkin:

*Sofi rakid... Qani oqshomgi jo‘shqin hayajon?  
Bir bola ruhi qadar endi munavvar, g‘uborsiz,  
Uxlamoqda moviy dengiz.  
...Senga boqqan sari tasalli topaman, aldanaman,  
Moviy ko‘z alamni qalbimga yig‘lar, chamasi.*

Tavfiq Fikratning bolalar she‘rlarida maktabga, darsga qiziqish, dars o‘tilishi metodikasidan tortib, mehnatga muhabbat, vatanga, ota-onasiga bo‘lgan mehrga targ‘ibi yosh naslning ta‘lim-tarbiyasida, ularning vatandosh sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

“Hasbi hol”, “Sharmin alifbosi”, “Sovg‘a”, “Farishtaning bolasi”, “Qish bobo”, “Arslon”, “Ikki yo‘lovchi”, “Chigirtka va chumoli” va boshqa she‘rlarida Tavfiq Fikrat sodda ibora, oson ifoda tarzini namoyish etib,

bolalar dunyosiga bevosita ta'sir yo'li bilan fikrlarini poetik shaklda yetkazib bergan. Tavfiq Fikratning bolalar adabiyotida tili sodda va tushunarli, mavzusi real va dolzarb, g'oyasi ijtimoiy-axloqiy xarakterdadir. Bu she'rlarda Tavfiq Fikratning ijodiga xos bo'lgan na mumtoz adabiyotga qarshi kurash, na kuchli siyosiy motivlar kuzatiladi. Bu she'rlarda bolalar dunyosi ruhiyatining barcha jihatlari mehnatsevarlik, vatanparvarlik, maktabga chorlov, tabiat tasvirlari timsolida yurtga muhabbatning singdirilishi va b. mavjud. Tavfiq Fikratning "shafqat, ma'rifat, fazilat uyi" ("Bag'ishlov") sifatida baholagan ta'lim muassasalarini yosh naslning kelajagi deb hisoblashi, Sharmin timsolida bolalarni shayton, ajinadan emas, yomonlikdan qo'rqishga chorlashi ("Alvasti"), bolalarda alifboga qiziqish, mehr uyg'otishi ("Sharmin alifbosi"), mehnatning inson hayotidagi ahamiyatini jonlantirishi ("Chigirtka va chumoli"), tabiat manzaralarini tasvirlash bilan bolalarga yurtga muhabbatni singdirish ("Qishda", "Yozda", "Qish bobo") va b. uning bolalar ruhiyatini chuqur bilishini ko'rsatib, bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi, ayni paytda shoirning bu yo'nalishdagi muvaffaqiyatlaridan dalolat beradi.

## MEHMET AKIF ERSOY

Istiqlol madhiyasi shoiri sifatida tanilgan, turk she'riyatiga yuqori sifat olib kelgan Mehmet Akif Ersoy 1873-yilda Istanbulda tavallud topgan. Otasi Tohir Afandi savodli bo'lgani uchun o'g'lining tahsiliga alohida e'tibor qaratgan. To'g'rirog'i, avval Mehmet Akif Ersoy tahsili bilan mustaqil shug'ullangan. U maktabga to'rt yoshida boradi. Mahalla maktabini tugallagach, o'rta ta'limini Mulkiyada tamomlaydi. Shu bilan birga uyda otasidan ko'p narsalar o'rgangan. Otasi mo'tabar dindor bo'lgani uchun islomiy falsafani o'g'liga o'rgatgan. U ona tilidek bilgan arab tilini ham otasining yordami bilan o'zlashtirib oladi.

Mehmet Akif Ersoy xotiralarida otasi haqida shunday yozadi: "U mening ham otam, ham us-tozimdir. Hammasini undan o'rgandim." Otasining vafotidan so'ng u tahsilini chala qoldirmay, Veterinarlik maktabiga kirib, u yerni yuqori baholar bilan tamomlaydi. Imtiyozli diplom olib, Ziroat nazorati idorasida xodim bo'lib ishlaydi. Bir muddat Rum, Onado'li, Arabiston, Edirne, Adana va b. joylarda ishlagan. Bundan keyin u Istanbulga kelib, viloyat veterinariya markazida direktor o'rinbosari lavozimida ishlaydi. Mehmet Akif Ersoy 1908-yilda Istanbul Dorilfununning umumiy adabiyot sho'basiga mudir etib tayinlanadi. Shundan so'ng Mehmet Akif ko'proq adabiyot bilan shug'ullana boshlaydi. Devon adabiyotini o'rganishga katta qiziqish bildiradi. Ayni paytda mukammal bilgan fransuz tilining yordami bilan Yevropa adabiyotini o'rganadi, bu adabiyotga o'z munosabatini bildirar edi. Yetakchi sharq va g'arb tillarini bilgani uchun Mehmet Akif har ikki dunyoning madaniyatidan ularni qiyoslaydigan darajada boxabar edi. Faqat Sharq va G'arb adabiyotlarini o'zlashtirish, ularning yaxshi jihatlari ko'rish Mehmet Akifda bu madaniyatlarga ishqibozlikni yuzaga keltirmadi. O'z millatini va adabiyotini sevuvchi shaxs sifatida u sanab o'tilgan adabiyotlarning, ayniqsa, G'arb adabiyotining yaxshi sifatlarini tanlab olib, uni Turkiyada tatbiq etishga intildi. Mehmet Akif Ashraf Adibning 1908-yilda chop etgan "Siyрати mustaqim" nomli majmuasida faol ishtirok etadi. 1908-yilda Turkiyada sodir bo'lgan inqilobiy o'zgarishlar ta'sirida yozgan maqolalarini bu yerda nashr qildirar edi. Bu maqolalarning mohiyati milliy va islomiy qarashlarni aks ettirgani uchun Mehmet Akifga bo'lgan rag'bat kun sayin ortib borardi. U 1913-yilda rasmiy ishdan bo'shaydi. Shundan keyin uning ozod, erkin



MEHMET AKIF  
ERSOY  
(1873-1936)

hayot davri boshlaydi. Misr va Madinaga sayohat qiladi. 1914-yilda nemis-turk do'stlik aloqalari bo'yicha Berlinga boradi. 1920-yilda Istiqlol urushi vaqtida Mehmet Akif Istanbulda edi. U Anqaraga borib, xaloyiq oldida nutq so'zlaydi va xalqni birlikka da'vat qiladi. 1921-yilda yozgan "Istiqlol madhiyasi" Buyuk Milliy Majlisda to'rt marta o'qiladi va qabul qilinadi. Qayd etish lozimki, uning she'ri madhiya uchun musobaqaga taqdim etilgan 724 ta she'r orasidan tanlab olingan edi. Yangi tashkil topgan Turkiya Respublikasi Mehmet Akifning ideali edi. Lekin islomiy qadriyatlarga munosabatda Respublika qonunlari bilan shoir munosabatlarida ba'zi qarama-qarshi hollar yuzaga chiqdi. Qayd etish lozimki, Mehmet Akif vatanparvarlik g'oyalariga sadoqat ko'rsatish bilan birga, islomiy qadriyatlarga ham qattiq bog'langan edi. Har ikki qadriyatlar g'oyasining ajralmas tarkibiy qismi edi. Ammo Respublikaning ilk yillarida islomiy qadriyatlarga munosabat shoirning qalbiga hukmron hislar shaklida o'ziga joy topmadi. Mehmet Akif shu sababdan Misrga ketdi. U yerda turk tili va adabiyotidan dars berdi. Misrda og'ir kasallikka duchor bo'ldi. O'limi yaqinlashganini his qilgani uchun Istanbulga keldi. Mehmet Akif 1936-yilda vafot etdi. Uning o'limiga rasmiy idoralar tomonidan hech qanday munosabat bildirilmasa ham, vatanparvar yoshlar istiqlol shoirining tobuti ustiga davlat bayrog'i yopib, xaloyiq bilan dafn marosimi tashkil etdilar.

## IJODI

Mehmet Akif Ersoy ijodi turk va islomiy g'oyalar zaminida shakllanib, takomillashgan san'atdir. Vahdat shaklida birlashgan bu g'oyalar Mehmet Akifning ijodiy falsafasining markazida turadi, keng ma'noda esa milliylikning ko'rsatgichiga aylanadi. Adabiyot va san'at olamida "Istiqlol madhiyasi shoiri" sifatida tanilgan Mehmet Akif muayyan adabiy jarayonlarda o'ziga xos uslubi va yo'li bo'lgan va ko'p hollarda adabiy jarayonning chegaralaridan oshib, butkul boshqacha shaklda ta'sir ko'rsatgan ijodkordir.

Mehmet Akif Ersoy ijodining asosiy qismi she'rlardan iborat. She'rlarining aksariyati "Safohat" nomi bilan chop etilgan yetti jildlik kitoblarda to'plangan. Albatta, har kitobning o'z nomi bor. "Safohat" so'zi "bosqich", "hayot bosqichi", "hayotiy qarashlar" degan ma'nolarda keladi.

11240 misradan iborat bo'lgan "Safohat"da 108 manzuma asar berilgan. Shoirning o'z dastxati bilan tayyorlangan bu kitoblar 1908-yildan umrining oxirigacha yozgan she'r namunalariidan tuzilgan. Shuni ham qayd etish lozimki, Mehmet Akifning 22 yoshidan 35 yoshigacha yozilgan she'rlarining hech biri, shu jumladan, keyingi ijod namunalarining



muayyan qismi "Safohat"ga kiritilmagan. "Safohat"ning I jildi shu nom bilan, II jildi "Sulaymoniya kursisida", III jildi "Haq saslari", IV jildi "Fath kursisida", V jildi "Xotiralar", VI jildi "Osim", VII jildi esa "Soyalar" nomi ostida chop etilgan. Bu kitoblardagi namunalar shoirning ijtimoiy-siyosiy muammolarga munosabatini va dunyoqarashini aks ettirish jihatdan diqqatni jalb etadi.

Mehmet Akif avvalo "Istiqlol madhiyasi shoiridir". "Istiqlol madhiyasi" she'ri 1921-yilda yozilgan. 1920-yilning oxirlarida Turkiya gazetalari "istiqlol madhiyasi" yozish uchun musobaqa e'lon qilinadi. Ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etilgan bu musobaqa shartiga ko'ra g'olibga 500 lira pul mukofoti berilishi nazarda tutiladi. Lekin ilk bosqichda musobaqaga taqdim etilgan hech qaysi she'r qabul qilinmaydi. Shuning uchun ta'lim vaziri Hamidulla Subhi Mehmet Akifga murojaat qiladi va uning musobaqaga qatnashishini so'raydi. Mehmet Akif esa "pul uchun she'r yozmayman" deb musobaqaga qatnashmaydi. Faqat hech qanday pul to'lanmasligi sharti bilan musobaqa talablari bo'yicha she'r yozishga rozi bo'ladi. Bundan keyin Mehmet Akif "Istiqlol madhiyasi"ni yozadi va she'r musobaqa komissiyasiga ma'qul bo'ladi. Turkiyaning davlat madhiyasiga aylangan bu asar aslida madhiya uchun musobaqaga taqdim etilgan 724 she'r orasidan tanlab olingan edi. Mehmet Akif avvaldan aytganidek, g'olibga beriladigan pulni qabul qilmaydi, uning Islom ayol va bolalar ehtiyojini to'lash uchun "Dorul-masoiy" nomli tashkilotga berilishini iltimos qiladi. "Istiqlol madhiyasi" Turkiyaning o'sha vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolini tavsiflash va mamlakatning ertasiga bo'lgan ishonchni namoyish ettirishda ahamiyatli hisoblanadi.

***Do'stim! Yurtinga olchoqlarni yo'latma lekin,  
Qalqon et gavgangni, darhol to'xtasin bu orsiz oqin.  
Kelajakdir senga va'da etgan kunlar Haqning...  
Kim bilsin, balki ertaga, balki ertadan yaqin.***

She'r Turkiyadagi aksariyat hududlarning Antanta kuchlari tomonidan bosib olingani va mamlakatning kelajak taqdirining Onado'li maydonida bo'lib o'tgan janglarda hal bo'ladigan davrda yozilgan. Shunday vaqtda Mehmet Akif Ersoy xalqining g'alabasiga ishonchini yo'qotmagan, uning mag'lubiyatdan qutulib qolishiga umidini namoyon etgan. Quyidagi namunadan ko'rinib turganidek, shoirning ishonchi juda uzoqda emas, uning ishonchi ertadan ham yaqin tarixga bog'lanadi:

***Kim bilsin, balki ertaga, balki ertadan yaqin.***

Shuning uchun ham she'rning birinchi bandidagi ilk so'z bo'lgan



“Qo‘rqma” ifodasi turk tadqiqotchilarining sharh etganidek, qo‘rquv, vahima ma’nosida emas, oddiy munosabat va murojaat shaklida keyingi ishonch va umidning boshlang‘ichiga aylanadi. Shoir bu bandda turkning ramzi bo‘lgan turk bayrog‘i hech qachon yakson bo‘lmaydi, dushman naqadar muvaffaqiyatga erishsa ham so‘nggi turk bahodiri tirik qolgan taqdirda turk o‘z g‘alabasini saqlab qoladi va dushmanni yo‘q qiladi.

*Qo‘rqma! So‘nmas shafaqlarda suzayotgan qizil sanjoq;  
So‘nmasdan yurtim uzra tutayotgan eng so‘ngi o‘choq.  
U mening millatimning yulduzidir, porlayajak;  
U meniki, millatimning mulki bo‘lib qolajak!*

“Istiqlol madhiyasi” she’rida kelajakka ishonch va umid tuyg‘usini singdirish bilan birga, birlikka, dushmanga qarshi beomon bo‘lishga chorlov ham bor. Bu chorlov niyati puch bo‘lgan dushmanga zarba berish, uning hech kimligini, turk yigitlari oldida o‘jizliklarini aks ettiradi. Shoir nazdida turkning “g‘arbiy”, “madaniyat” nomi bilan ma’lum bo‘lgan dushmani turk jasurligi oldida shunchalar zaif-ki, uning niyati vahshiylik bo‘lsa ham, “bir tishli bo‘ridek” niyatiga yetishi ehtimoldan yiroqdir.

*Uvlasin, qo‘rqma! Bunday kuchni yengolmagay zinhor  
“Madaniyat!” deganing bir tishi qolgan jonivor!*

Mehmet Akif she’rida turk shonli tarixini tavsiflab, tuproq, vatan, nomus yo‘lida jonini fido qilgan, so‘nggi tomchi qonigacha kurashgan turk yigitlarini yod etib, bugungi odamlarga namuna ko‘rsatar, ularning shahid ruhlarini ulug‘lardi. Shoirning ovozi vatanning har tomonidan eshitilar edi. Bu ovoz mamlakatni nomahram qo‘lidan asrashga chorlaydi:

*Kim bu jannat vatan uchun jonin aylamas fido?  
Pishqirajak tuproqni siqsang ne-ne shahid, ne shuhado!  
Mayli jonim, jononim, butun borim olsin Xudo,  
Etmasin yolg‘iz vatandan meni bu dunyoda judo.*

*Ruhimning sendan, iloho, shu tilagan amali;  
Tegmasin ma‘badimning ko‘ksiga yotlar qo‘li;  
Bu azonlarki shahodatlari dinning tamali -  
Abadiy yurtimning ustida manim yangramali.*

Vatan Istiqlolini orzu qiluvchi Mehmet Akif ozodlik dushmanlari bo‘lgan zolimlarga nafrat bilan qaraydi. U istiqlolni vatan uchun eng aziz ne‘mat deb sanaydi, vatan farzandlarining baxtli kelajagini shunda ko‘radi:

***Zulmni olqishlolmayman, zolimni sevolmayman,  
Kelganning ko'ngli uchun o'tmishni so'kolmayman,  
Biri ajdodimga tashlandimi, hatto bo'g'aman...  
Tug'ilganimdan beri oshiqman istiqloлга,  
Menga hech tasmalik etmish emas oltin lola.***

Milliy tuyg'ulari yuksak bo'lgan Mehmet Akif doim vatanining taraqqiyotini istab, dushman tajovuzlarining og'ir vaqtlarida bezovtaligini yas-hirmagan. Shoir Turkiyaga dushman ko'zi bilan qaragan xristian davlat-lar birligidagi mamlakatlarning har biriga nafratini namoyish etib, bu mamlakatlarning nomini konkret sanab o'tishdan chekinmaydi. Bu yo'l bilan Mehmet Akif ularning dushman niyatlariga o'z e'tirozini bildira-di. Ma'lumki, XX asr boshlarida Turkiyaga qarshi tajovuzkor rejalarining amalga oshirilishida alohida rol o'ynagan mamlakatlardan biri esa Ros-siya bo'lgan. Mehmet Akif boshqa mamlakatlar kabi Rossiyaning ham Turkiyaga qarshi kurashini muvaffaqiyatsiz deb hisoblab, turklarning kurash azmi oldida ruslarning ham yengilishiga ishonch bildirar edi:

***Qahramon millatni ko'rdingmi, biroz silkindi  
O'lik yegan qarg'alarining ovozlari birdan tindi.  
Eski savdolari qolgan bo'lsa unutsin ruslar!***

Lekin Mehmet Akif ijodiga xos jihat shuki, o'tgan asr boshlarida Tur-kiyaning qiyinchiliklar davrini aks ettiruvchi she'rlarida ishonch va umid bilan birga, umidsizlik ham namoyon bo'ladi Faqat b hol o'tkinchi ekan-ligini hisobga olish kerak. Masalan: "Noumidlik" she'rida shoirning hay-ajoni va bezovtaligi quyidagicha aks etadi:

***Men bunday kutib turmasdim qo'li bog'liq,  
Islomni uyg'otmoq uchun hayqirar edim.  
Hisi mo'l, iymoni mo'l zakovat jo'shar yolg'iz,  
Men zotan chuqur o'yg'a ketmoqdan uzoq edim.  
Hayqir! Kinga, lekin qani sohiblari yurtning,  
Yotlar edi yotganlar, o'ngga boqdim, so'lga boqdim.  
Faryodimni ortiq bo'g'ib jasadimni ushladim,  
Ming parcha etib she'ringa ko'mib qoldirdim.***

Shoirning bu uslubda yozgan "Bulbul" she'ridagi hodisalarga munosa-bat uning ichki kechinmalari va hayajonlaridan kelib chiqadi. She'ning yakunida nekbin ruh avvalgi badbinlikni yo'q qiladi:

***Tasallidan nasibim yo'q, xazon yig'lar bahorimda,  
Bu kun bir xonumonsiz devonaman o'z diyorimda.***

- degan shoir oxirgi misrada "mening haqqim, jim bo'l, bulbul, sening

haqqing emas motam” deb barcha dard-u alamni daf etadi.

Mehmet Akif ijodida shunday ruh bor-ki, egasi bo'lgan mamlakat hech qachon mag'lub bo'lmaydi. Mamlakatning, millatning og'ir kunlarida maydonda ko'ksini qalqon qilgan yigitlari bor ekan, u o'lkani bosib olishning iloji yo'q:

***Sohibsiz bo'lgan mamlakatning botishi haqdir,  
Sen uni asrang, bu vatan yiqilmaydi.***

Mehmet Akif ijodida turk armiyasining zafar tarixiga kirgan, faqat Turkiya uchun emas, butun turkiy dunyo uchun shonli tarixiy kun sifatida qabul qilingan Chanoqqal'a jangining badiiy aksi alohida o'rin olgan. “Chanoqqal'a shahidlariga” nomli she'rida bu tarixiy hodisa yot ellarning adolatsiz hujumlari, nohaq qon to'kkanliklari tasvirlanadi:

***Eski dunyo, yangi dunyo butun ayyomi bashar,  
Qaynaydi qum kabi, to'fon kabi, mahshar, mahshar.***

Mehmet Akif bu tajovuzning sababchisi bo'lgan yevropaliklarni yirtqich, vahshiy, qonxo'r deb tasvirlaydi, ularga bo'lgan nafratini ochiqchasinga bildiradi.

“Chanoqqal'a shahidlariga” asarida mardlik ko'rsatgan, qahramonona shahid bo'lgan yengilmas turk askarining vatan muhabbati madh etiladi. Shoir ularning shahidligida o'limsizlik izlaydi, qonlari to'kilgan tuproqning har qarichida ruhlari shod etilishiga ishonch bildiradi. Mehmet Akif bu yo'l bilan ularning nomi tarix zarvaraqlariga yozilganini, g'alabaning har bir turk uchun, vatanini sevgan har bir vatanparvar uchun zafar tarixi bo'lganini ta'kidlaydi:

***Sen-ki so'nggi ahli salbning sindirib savlatini,  
Sharqning eng suyukli sultoni Salohiddinni,  
Qilich Arslon kabi ijloingga etding hayron,  
Sen-ki Islomni o'rab bo'g'ar ekan hijron.  
Ul temir chambari ko'ksi bilan sindirib parchalading,  
Sen-ki ruhing ila barobar kezar ajrami noming,  
Sen-ki osarga ko'milsang tosharsan, hayhot,  
Senga kelmas bu ufqlar, seni olmas bu jahon,  
Ey shahid o'g'li shahid, istama mendan maqbar,  
Senga og'ushini ochib turibdi Payg'ambar.***

Ko'rinib turganidek, bu yerda “ey shahid o'g'li shahid” ifodasida turklarning qahramonlik tarixi aks ettiriladi, bu qahramonlikda bir naslning emas, nasllarning hissasi borligiga ishora qilinadi.

## ZIYO GO'KALP

XX asr boshlarida Turkiyada boshlangan milliy harakatlar ij-timoiy-siyosiy hayotning butun

sohalarida bo'lganidek, milliy-adabiy jarayonlarda ham jonlantirdi. Butun turkiy xalqlarni birlashishga chorlovchi turkchilik g'oyalari jamiyatga singiy boshlaydi, ularning bir g'oya atrofida yig'ilishini tezlashtirdi. Turkchilik g'oyalarining kuchli taraqqiyotida, uning harakat darajasi yuksalishida xizmati bo'lgan shaxslardan biri Ziyu Go'kalpdir. Ziyu Go'kalp 1876-yilda Diyorbakirda dunyoga keldi. Otasi Mehmet Tavfiq o'z davrining taniqli jurnalisti va ziyolisi edi. U yangi fikr va g'oya tarafdori sifatida zamonning oqimiga moslasha olgan shaxslardan biri hisoblanardi. Albat-



ZIYO  
GO'KALP  
(1876-1924)

ta, bunday shaxsning oilasida ulg'ayish, tarbiya olish Ziyu Go'kalpning kelajakda o'zgacha shaxs sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ziyu Go'kalp tahsilini Diyorbakir harbiy rushdiyasida tamomlagach, falsafiy bilimlarni o'zlashtira boshladi. Matematik falsafa, Islom falsafasi va boshqa sohalarini o'rganishga alohida ahamiyat berdi. Ziyu Go'kalpning chet tillarini o'rganishga ishtiyoqi baland bo'lib, bu ishtiyoq natijasida, u fors, arab, fransuz, kurd tillarini chuqur o'zlashtiradi.

Ziyu Go'kalpning qizg'in ishlari, hayotida sodir bo'lgan asabiy tarangliklar, horg'inlik va b. muammolar o'z joniga qasd qilishiga sabab bo'lgan. O'z chakkasidan otishiga qaramay, tasodifan tirik qoladi. U bu hodisadan so'ng hech nima bo'lmagandek yana o'z faoliyatini davom ettirib, Istanbulda tahsilini davom ettiradi. U yerda veterinariya maktabida o'qiyotgan paytda siyosiy faoliyatini boshlaydi. Lekin jamiyat ichida ko'rsatgan yashirin faoliyatini politsiya oshkor qiladi va u maktabni tugatishga bir yil qolganda qamoqqa olinadi. Ziyu Go'kalp bir yilgacha qamoqda o'tirgach, Diyorbakirga qaytadi. Diyorbakirda u ta'qib etiladi, jiddiy nazoratda ushlab turiladi. 1908-yil hodisalari uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatga qayta qo'shilishiga sharoit yaratadi. Ziyu Go'kalp Diyorbakirda "Ittihod" va "Taraqqiy" jamiyatlarini ta'sis etadi. 1910-yilda Selanikda kengash o'tkaziladi va bu kengashda Umar Sayfiddin, Ali Janib kabi millatparvar yoshlar ham ishtirok etdilar. 1910-yildagi kengash Ziyu Go'kalpning turkchilik g'oyalaridagi keng faoliyat imkonlarining shakllanishida katta roli bo'ldi. Endi Ziyu Go'kalp Turkiyada siyosiy faoliyatdagi faolligi bo'yicha birinchi qatorda turardi. Istanbul Dorilfununida ishlayotganda, turk yoshlariga katta ta'siri bo'lgan. Birinchi jahon uru-

shidan keyin chet el davlatlarining Turkiyaga nazorati orta boshladi. To'g'rirog'i, ular ba'zi sohalarda Turkiyadagi nazoratni o'z qo'llariga oldilar. Turkiyadagi milliy ruhdagi yoshlarning faoliyati ushbu davlatlarni bezovta qilardi. Shuning uchun ham bu kabi yoshlarning ta'qibi keskin ravishda kuchayib ketdi. Bu davrda Ziyó Go'kalp inglizlar tomonidan Maltaga surgun qilindi. 1921-yilda u Maltadan qaytib keldi, avval Istanbulga, so'ng esa Anqara va Diyorbakirga ketdi. Uning orzulari Turkiyada milliy davlat tashkil topgach amalga oshdi. Ziyó Go'kalpning allaqachon shakllangan turkchilik g'oyalariining amalga oshishi uchun keng imkoniyat yuzaga keldi. U Buyuk Millat Majlisiga a'zo bo'ldi. Turonchilik va turkchilik g'oyalariining targ'ibotchisi, taniqli shoir va faylasuf Ziyó Go'kalp 1924-yilda Istanbulda vafot etdi. Ziyó Go'kalp 48 yil yashasa ham, vatan va millati uchun ko'p ishlar ko'ra olgan.

### IJODI

Ziyó Go'kalp butun badiiy, ilmiy, falsafiy va publitsistik ijodida turkchilik g'oyalari bilan yashab ijod qilgan adibdir. Uning fikricha, turkchilik turk millatini sevish va uning qadrini ko'tarish deganidir. Shu tufayli ushbu g'oyalar uning nafaqat ijodiga, balki ruhiga va ma'naviyatiga ta'sir o'tkazgan edi. Ziyó Go'kalpning yangi g'oyalari ayni paytda katta ta'sir doirasiga ega. U Turkiyada voyaga yetayotgan sog'lom ruhdagi yoshlarning nasli shakllanishida ahamiyatli rol o'ynagan. Otaturk Ziyó Go'kalpni "Fikrlar otasi" deb atagani bejiz emas.

Ziyó Go'kalp iste'dodli shoir bo'lib, uning she'rlari sodda va tushunarlidir. Shoir she'rlarida turkchilik g'oyalariining ilk sharti va ko'rsatkichi sifatida turk tiliga muhabbatni shunday ifodalaydi:

*Go'zal til turkcha bizga,  
Boshqa til kecha bizga.  
Istanbulning lahjasi  
Eng sof, eng nozik bizga.*

Ziyó Go'kalp nazarida til millatning ko'zgidir. Til bo'lsa, demak millat ham bor. Bu tilni sevmalik, boshqa tillar oldida oyoqosti qilish yovuz niyatdan boshqa narsa emas:

*Turonning bir qo'li bor  
Va yolg'iz bir tili bor.  
Boshqa til bor deganning  
Boshqa bir amali bor.*

Turk tili, bu tilning o'rne, foydalanish imkonlari to'g'risida Ziyó Go'kalpning qiziqarli fikrlari mavjud. "Turkchilikning asoslari" kitobida Ziyó Go'kalp Turkiyaning milliy tili Istanbul lahjasi deb qayd etadi. U Istanbulda ikki turkcha bor deydi. Ya'ni birinchi turkchani gaplashilgan, lekin yozilmagan, ikkinchi turkchani esa yozilgan, ammo gaplashilmagan til deb nomlaydi. Albatta, bu yerda keskin farqlarning alomatlari sir bo'lib qolmaydi. Ziyó Go'kalpning Istanbul turkchasining asosiy deb hisoblashiga sabab shuki, xalq adabiyotining tamal vazifasini amalga oshiruvchi turk tilini milliy til deb qabul qilish mumkin. Qayd etish lozimki, Ziyó Go'kalp bir san'atkor sifatida ijodida xalq tili asosida shakllangan milliy adabiy tilga ustunlik berdi va bu yo'l bilan asarlarining sifatini ta'minladi.

Ziyó Go'kalp tasavvurida vatan mavhumi bepoyondir. U na shoirning tug'ilgan shahri Diyorbakirdir, na fuqarosi bo'lgan Turkiyadir. Uning nazdida vatan turklarning har biri uchun aziz va muqaddas bo'lgan Turondir. Masalan, "Vatan" she'rida ko'rsatganidek:

***Vatan na Turkiyadir turklarga, na Turkiston,  
Vatan buyuk va abadiy o'lkadir, Turon!***

Ziyó Go'kalp Turon ellariga mehri baland bo'lib, uning doim yashashi va yuksalishini orzu qilgan. Shoirning fikricha har bir inson vatan va millat yo'lida hamma narsani qurbon qilishi, uning ertasini o'ylashi darkor. Millat faqat vatanni o'ylasagina asl millat bo'la oladi. "Axloq" she'rida o'quvchi shoirning bevosita singdirishga uringan g'oyasi bilan tanishib, fikrlarini to'liq qabul qila oladi:

***Haq millatning, shon uning,  
Gavda sening, jon uning,  
Sen o'l-ki, u yashasin,  
To'kilajak qon uning.  
Millatga ber joningni,  
O'chog'ingni, shoningni.  
Bir oshiq bo'lsang hatto,  
Fido et jononingni.***

Ziyó Go'kalp hayotining butun davrlarida faoliyatini millatiga xizmat uchun sarflagan shaxsdir. Uning ijodi aslida millatini yuksaltirishning keng dasturidir. Bu dasturda, avvalo, milliy ong va milliy vijdon masalasini e'tiborga oladi.

Ziyó Go'kalp ijodida millat tushunchasi, millatga munosabat konsepsiyasi ham o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi. U har bir millatni til, din,

axloq, milliy-estetik tafakkur va b. jihatdan yakdil bo'lishga chorlaydi. Ziyο Go'kalp millatiga bog'langan, uni jonidan ham ortiq sevuvchi shaxs sifatida doim o'z xalqining farovonligini istab kelgan. Albatta, buning isboti sifatida ijodida turli konsepsiyalarning guvohi bo'lsak ham, bu konsepsiyalar orasida boshqa millatlar bilan o'zaro madaniy aloqa va munosabatning birinchi o'rinda turgani diqqatni jalb etadi. Lekin qizig'i shundaki, o'sha davrda Turkiyaga xos bo'lgan G'arbga mayl va ishqibozlikning keskin tanqidi Ziyο Go'kalp ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Ziyο Go'kalp G'arbdan ba'zi narsalarni o'rganish kerakligini tan olsa ham, g'arblashish, G'arb taqlidiga qarshi bo'lgan. Bu esa uning milliy qadriyat-larga, xalqining tarixiy an'analariga chambarchas bog'liqligi va yuksak baholashidan kelib chiqadi, milliy o'tmish bilan kelajakning o'rtasidagi rishtasini ta'minlaydi.

Ziyο Go'kalp turklar yashagan joylarni dunyoning eng go'zal go'shasi deb hisoblaydi. Uning nazarida bu go'shalar turklar yashagani uchun go'zaldir. Shoir turklarni dono, mard, insonparvar va h. xalq deb baholaydi. Bu xalq faqat mehnat bilan band bo'lib, hech kimning haqqini toptamaydi va hech kimning tuprog'iga ko'z tikmaydi.

*Bir o'lka-ki, tuprog'iga boshqa el ko'z tikmas,  
Har fardida mafkura bir, lison, odat, din birdir.*

Tarixdan ma'lumki, turklar yashagan ko'p makonlar XX asrda xristian kuchlari tomonidan tajovuzga duchor bo'lgan, natijada ushbu hududlarni yo'qotish xavfi yuzaga kelgan edi. Bu vaziyat shoirni, millatchi yosh yigitni bezovta qilgan, asarlarida bularni qayg'u bilan qalamga olgan. To'g'rirog'i, buyuk Turonchilik g'oyalarining targ'ibotchisi bo'lgan Ziyο Go'kalp Turon ellari turli davlatlarning hududiy obyektlariga aylanishiga keskin e'tiroz bildirib, buni mag'rur xalqining haqqi toptalishi deb baholaydi:

*Turk yurti uyquda, ey dushman, zinhor!  
Uyqudagi o'lkaga etilmas oqim.  
Ufq ham oqardi, yigitlar, turing!  
Qarang, yurt ne holda, vatan qayerda?  
Borib izlayin, yotgan qayerda?*

*Qrim qayda qoldi, Kavkaz ne bo'ldi?  
Qozondan Tibetga qadar rus to'ldi,  
Xitoyda onalar sochini yuldi,  
Shod yurtlar ne holda, vayron qayerda?  
Borib izlayin, Eron qayerda?*



Lekin Ziyo Go'kalp xalqining, millatining kuchiga, quvvatiga, irodasi-ga guvoh bo'lgani uchun ijodidagi g'am va badbinlik tuyg'ulari o'tkinchi xarakterga ega. Ziyo Go'kalp "Cho'pon bilan bulbul" she'rida qayg'u his-larini quyidagi shaklda ifodalaydi:

***Cho'pon sibizg'a chaldi, so'radi bulbuldan,  
Suruvlarim qani, qishlog'im qayda?  
Bulbul so'radi bo'yni bukik bir guldan,  
Qo'shiqlarim qani, inim qayerda?***

U parchada ifodalangan fikr ramzi xarakter tashiydi. Shartli ifoda va iboralarga ega ma'no yurt, tuproq va vatan bezovtaliklarining badiiy aksidir. Lekin keyingi parchalar bu shartlilik ichida biz nekbin ruhning she'rga hukmronlik qilganini ko'ramiz:

***Cho'pon dedi: Suruvlarim gar qochsa  
Bir suruvim bor, qochmas, nomi: Turk eli!  
Bulbul dedi: Qo'shiq o'lsin, yo'q bo'lsa  
Turkularim yashar, aytar xalq tili!***

Ziyo Go'kalp ijodida turk dunyosining kelajagiga bo'lgan ishonch doimo saqlanib qolgan. U Turon ellarining bo'linmasligini targ'ib etish bilan, aslida bu birlikni timsoliy emas, real shaklda jonlantira oladi. Ma-salan: "Men, sen yo'qmiz, biz bormiz" – misrasi Ziyo Go'kalp san'atida betakror namunadir. Ziyo Go'kalpning turk millatiga bog'liqligi, uning ertasiga bo'lgan ishonchi o'sha davrdagi bir qancha san'atkorlarning diqqatini jalb etgan va shoir-faylasufning ushbu sifati ilmiy-nazariy ba-hosini olgan. Ahmad Og'ao'g'lining bu boradagi fikrlari muhimdir. "Hech qachon, hech bir holda Ziyoning ruhini qayg'u, umidsizlik kabi tuyg'ular qamrab olmagan edi. Eng og'ir, eng mashaqqatli kunlarda u doim atrofiga ishonch va umid tarqatib yurgan. Bolqon urushining illatlari, jahon uru-shining falokatlarini asnosida uni kelajakka bo'lgan umidga bog'langanini ko'rdim. Turkning o'lmasligiga unchalar ishongan odamni avval uch-ratmagandim." Albatta, Ziyo Go'kalpning turkning o'lmasligiga, doim g'alaba va zafarlar qozonishiga ishonchi balandparvoz so'zlardan iborat emas edi. Ziyo Go'kalp mavjud bo'lgan xalq ishonchining manbayi bev-osita xalqining tarixi, kurash azmi, tuproq sevgisi, yurt istagi, dushman-ga qarshi nafrat va boshqalarga bog'liq edi.

Ziyo Go'kalpning turkchilik g'oyalari, uning tarixiy, ilmiy va falsafiy qadriyatlariga qarshi bo'lgan muammolarga bag'ishlangan asarlaridan biri "Turkchilik asoslari"dir. Asar turkchilikning to'liq dasturi sifatida baho olib, masalalarga tarixiy, ilmiy-falsafiy, huquqiy-axloqiy va b. jihat-

dan yondashgani tasodif emas. "Turkchilik tarixi" va "Turkchilik dasturi" shaklida tavsiflangan ikki bo'limda turkchilikning va turonchilikning mohiyati asos olinib, uning kelajagi va oldida turgan masalalarga ham munosabat bildirilgan.

Ziyo Go'kalp "ishingni bil, oshingni bil, yo'ldoshingni bil" maqoli fonida "millatini tani, ummatingni tani, madaniyatingni tani" deyish bilan asarda keltirib o'tgan mafkura va konsepsiyaning tafsilotlarini sharh etadi, xalq madaniyatiga va tarixiga ega bo'lishni, ayniqsa, xalqning o'zligiga qaytishi yo'llarini ko'rsatadi. Asar turk milliy modelining va ijtimoiy ishonchning asosiy yo'lini ko'rsatish jihatdan dolzarbdir. Ziyo Go'kalp ushbu asarda turk ijtimoiy aqida asoslaridan gapirar ekan, "ijtimoiy aqidamizning birinchi dasturi bu jumla bo'lishi kerak: Turk millatidanman, islom ummatidanman, G'arb madaniyatidanman" deb qayd etadi. Albatta, bu yerda G'arb madaniyati istilohi faylasuf-shoirning yuqorida qayd etilgan va u qarshi bo'lgan G'arb ishqibozligi fikrlari bilan ziddiyatni keltirib chiqarmaydi. Aksincha, unga batafsil sharh berishga, uni to'ldirishga sharoit yaratadi. Ziyo Go'kalp "G'arb madaniyatidanman" formulasini yaratish bilan dunyo madaniyatiga kirish, o'zaro aloqa va munosabatda turk millatining o'z joyini muayyanlashtirish, dunyo xalqlari o'rtasidagi nufuzini orttirish, asrab-avaylash, mintaqa taqiqlovlarini bekor qilish va b. jihatlarni ilgari surardi. Bu xususda Ziyo Go'kalpning keltirgan misollari fikrning tasdiq va qabuli uchun shartsiz faktga aylanadi. "Yaponlar dinlarini va millatlarini himoya qilish sharti bilan G'arb madaniyatiga kirib borishdi. Buning natijasida esa har jihatdan yevropaliklarga yetib olishdi. Yaponlar bu bilan dinlaridan, milliy madaniyatlaridan nimadir yo'qotishdimi? Aslo! Unday bo'lsa biz nima uchun ikkilanamiz? Biz ham turkligimizni va musulmonligimizni saqlab qolish sharti bilan G'arb madaniyati doirasiga qat'iy ravishda kira olmaymizmi?" Ko'rinib turganidek, Ziyo Go'kalp muayyan darajada subyektivlik va emotsionallik sharoitida muammo bo'yicha o'y va mulohazalarini bildiradi, fikrlarining milliy-ijtimoiy mohiyatini oshira oladi. "Turkchilik asoslari" kitobida "turk millat nomidir" degan muallif turkchilikdan turonchilikka borgan yo'lning buyukligi va ahamiyatidan so'z ochadi. Bu maqomda u Eron, Xorazm, Ozarbayjon, Turkiya va b. joylarda yashagan o'g'uzlarning birligi, tarixiy-madaniy o'xshashligi va b. xususiyatlarini sanab o'tadi, milliy birlik g'oyasini targ'ib etadi. Lekin Ziyo Go'kalp ushbu birlikni siyosiy birlik emas, madaniyat birligi sifatida qabul qiladi. To'g'ri, asarda va Ziyo Go'kalp ta'limotida turk siyosiy birligining muayyan chegaralari o'zini ko'rsatsa ham, nomi sanab o'tilgan konkret masalada faqat madaniyat birligidan so'z boradi: "Turkchilikdan yaqin mafkuramiz "O'g'uz birligi" yoxud "Turkman birligi" bo'lishi lozim. Bu birlikdan maqsad nima? Siyosiy birlikmi? Hozircha yo'q! Faqat bugungi

mafkuramiz o'g'uzlarning faqatgina madaniy birlashuvidir."

Ziyo Go'kalpning turkchilik va turonchilik konsepsiyasi faqat bo'lib o'tgan va hozirda kuzatilayotganlarning mohiyatini sharhlash jihatidan emas, balki kelajakda oldida turgan masalalarni dasturlash nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham "siyosatda maqsadimiz xalqchilik va madaniyatda maqsadimiz turkchilikdir" degan Ziyo Go'kalp bu yo'lda butun umid va og'irliklarning egasi va mas'uli bo'lgan turk yoshlariga shunday xitob qiladi: "Ey bugunning turk yoshlari! Bu ishlar necha asrlardan buyon seni kutmoqda."

## UMAR SAYFIDDIN



UMAR  
SEYFIDDIN  
(1884-1920)

Umar Sayfiddin o'tgan asr boshlarida yangi turk realist adabiyoti taraqqiyotida xizmati bo'lgan adiblardan biridir.

Umar Sayfiddin 1884-yilda tavallud topgan. O'z tengdoshlaridan farqli o'laroq u maktabga 4 yoshida borgan va maktabda faolligi bilan ajralib turgan. Oilasining Istanbulga ko'chishi tufayli Umar Sayfiddin tahsilini "Maktabi Usmoniya"da davom ettiradi. U tahsilini Edirnedada tamomlaydi. Umar Sayfiddin keyinchalik "Maktabi harbiya"da tahsil oladi, adabiyotga ham shu davrlarda she'r yozish bilan qadam qo'yadi. U harbiy tahsilini Turkiyaning turli shaharlarida davom ettirib, 1906-yilda Izmir jandarma maktabiga o'qituvchi etib tayinlanadi. Umar Sayfiddin bir necha mudat Bolgariyada turli vazifalarda ishlaydi. Bolqonlarda sodir bo'layotgan antiturk harakatini kuzatib, ularga qarshi kurashning ishtirokchisi bo'lgan.

Umar Sayfiddin 1910-yilda askarlikdan ozod bo'ldi. Bundan keyin esa "Yosh qalamlar" birligida ishlaydi.

Umar Sayfiddinning ilk manzumasi "Majmuayi adabiya"da nashr etilgan ham, asl adabiy faoliyatga "Yosh qalamlar" majmuasida chop etgan maqolalar bilan boshlaydi. Qisqa vaqtda u Ziyo Go'kalp bilan birga bu tashkilot nazdida "Turkchi adabiyot Jabhasi" tuzadi. 1912-yilda Bolqon urushi boshlangani uchun Umar Sayfiddin qayta armiyaga chaqiriladi. U Yunoniston bilan olib borilgan janglarning birida asir tushadi va Nafliyon qishlog'ida bir yil asirlik hayotini boshidan o'tkazadi. Asirlikdan qutulgach, Umar Sayfiddin Istanbulga qaytadi va "Turk so'zi" majmuasida bosh muharrir bo'lib ishlaydi.

Umar Sayfiddin muharrir bo'lgan majmuada Bolqon urushida va asirlikda guvoh bo'lgan hodisalarni aks ettiruvchi bir qancha asarlar chop ettiradi. Taniqli yozuvchi "Turk so'zi" majmuasida ishlash bilan birga, ayni paytda o'qituvchilik ham qiladi. Uning Istanbul Erkak O'qituvchilar maktabida o'qituvchilik faoliyati diqqatni jalb etadi. Umar Sayfiddin ijodining 1913-yildagi davri san'atining yangi bosqichi sifatida tavsiflanadi. Bu bosqichda uning hikoyalari bilan birga sodda til yo'lida kurashni o'zida aks ettiruvchi ko'p sonli maqolalari qiziqish uyg'otadi. Umar Sayfiddin rahbarlik qilgan "Bilim to'garagi" nomli adabiy jamiyat Turk tilining sofliги yo'lida kurash olib boradi, "Sarvati funun"chilarga qarshi kes-

kin e'tiroz bildirardi. Ushbu adabiy tashkilot Turk tilini buzayotganlarni, ayniqsa, "Sarvati funun"chilarni "adabiyot zolimlari" deb atar, barcha sog'lom kuchlarni Turk tilining dushmanlari deb hisoblangan bu "zolimlar bilan" kurashga chorlardi.

Umar Sayfiddin umrining oxirida gazetachilik faoliyati bilan ko'proq shug'ullangan. U "Katta majmua" va "Zamon gazetasi" kabi nufuzli matbuot organlarida ishlagan. Umar Sayfiddin ijodining eng mahsuldor davrida bedavo dardga chalilib, 1920-yilda 36 yoshida dunyodan ko'z yumdi.

## IJODI

Umar Sayfiddin asosan turk hikoya janrining yangi talablar zamini-da rivojlanishida mislsiz xizmatlari bo'lgan ijodkorlardan biridir. Uning hikoyalari ijtimoiy-siyosiy hayotning aksariyat jihatlarini o'zida aks ettirgan, turk milliy turmush tarzining xususiyatlarini ko'rsata olgan. Umar Sayfiddin ijodida ijtimoiy hayot haqiqatlariga munosabat bildirar ekan, tanqid asosiy o'rinni egallaydi. Shubhasiz, bu holat ijodkorning hayot haqiqatlariga bo'lgan to'g'ri munosabatidan kelib chiqib, uning ijodiga ta'sir doirasini kengaytirgan. "Farmon", "Ilk jinoyat", "Pora", "Har kimning ichgan suvi", "Qasam", "Karomat" va b. hikoyalari diqqatni jalb etadi. Muallif ushbu hikoyalardagi masalalarga reallik, dolzarblik va ijtimoiy-psixologik jihatdan to'xtalib o'tgan. Umar Sayfiddin ijodining eng muhim sifatlaridan biri milliy qadriyatlarning tengsiz darajada yuksak ekanligidan iborat. Turk birligi va turonchilikning targ'ibi, turk birligi kelajagiga ishonch Umar Sayfiddin ijodining asosiy g'oyasini tashkil etadi. U "Primo turk bolasi", "Harom", "Fon Sadrishaynning o'g'li" va b. hikoyalarda millatchilik va turkchilik g'oyalari targ'ib etadi. Sodda turk tili ifodasi bilan oddiy milliy turk maishatidan tortib eng yuqori ijtimoiy-siyosiy qadriyatlargacha aks ettirilishi bu yo'lda birinchilikni ta'minlay olgan. Lekin ijodidagi milliy mafkura ba'zi maqomlarda to'g'ri idrok qilinmay, "ijodining ilk davrlarida yozgan "Keraksiz zulm" va "Hurriyat bayroqlari" nomli hikoyalari shovinist karakterli" asarlar deb baholangan.

Umar Sayfiddin ijodida tarixiylik va zamonaviylik parallel shaklda o'zini ko'rsatadi. Shu sababli Umar Sayfiddin asarlarida tarixiy hodisalar bugungi jarayonlarni, zamonaviylikni o'zida namoyish etuvchi mavzuga aylanadi. "Asxobi Kahfimiz", "Bomba", "Sirli ibodatxona", "Aslzodalar", "Oq lola", "Boshini bermagan shahid", "Qochib qol" va shu kabi hikoyalarda Umar Sayfiddin turk qahramonligining, milliy-ma'naviy qadriyatlar badiiy aksini ta'minlaydi. "Bomba", "Oq lola" asarlarida milliy-axloqiy xususiyatlar fonida turk ayol va erkaklarining turmush tarzi, vatan, yurt muhabbati, tajovuzga qarshi kurashlari real tarzda ko'rsatiladi. Turkiyaga

qarshi uyushtirilgan imperialist tajovuzning fosh etilishi uning ijodida muhim o'rin egallaydi. "Chanoqqal'adan so'ng" nomli asarida Umar Sayfiddin Turkiyaga qarshi faoliyat ko'rsatuvchi xalqaro kuchlarga bo'lgan nafratini yashirmaydi. Turk xalqiga, turk davlatiga, turk tuprog'iga zarar beruvchi shartnomalarning bekor qilinishini targ'ib etardi.

Umar Sayfiddin I Jahon urushining oxirida yozgan asarlarning ak-sariyatida og'ir ahvolga tushgan Turkiyaning muammolariga to'xtalib, dushmanlarga nafratni singdirar, xalqni kurashga chorlar edi. "Hurriyat kechasi" asarida Umar Sayfiddin Turkiyaning bugungi mashaqqatlari-nining xalqning qoloqligi, "g'aflat uyqusida" ekanligida ko'radi va xalq oldida turgan muammolardan xalos bo'lish yo'llarini ko'rsatishga intiladi. Umar Sayfiddin ijodida davrning ijtimoiy muammolar, bu muammolar keltirib chiqargan ma'naviy qashshoqliklar, jamiyatda namoyon bo'lgan adolatsizliklar o'z hayotining realliklari sifatida taqdim etiladi. Realist adib o'laroq u bu kabi asarlarida nafaqat davrning kamchiliklarini ko'rsatadi, balki uni keltirib chiqargan sabablarni oshkor etib, ijtimoiy balo deb tanqid qiladi, haq, adolatning hamma narsadan ustun ekanligini tasdiqlaydi. Bu vaziyatda ijodkor shunday uslubni tanlaydiki, munosabatlari chetda qolmaydi, aksincha jamiyatning orasiga kirib ketadi, nimaning yomon, nimaning yaxshi ekanligini o'quvchi shubhasiz qabul qiladi. "Ma'qul qaror", "Qiziq, nima edi?" asarlari yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni aks ettiradi. Har ikki asarning mavzusi bir jamiyatdan olingan. To'g'rirog'i, muallif bir obraz siyomosida jamiyatning turli tabaqalariga munosabat bildiradi. Asarning bosh qahramoni Jabi afandi ruhiy kasalxonadan chiqqach, o'z qishlog'iga qaytib boradi. Mahallasi tashqi ko'rinishidan hammasi avvalgidek edi. Uylar ham, ko'chalar ham, bozorlar ham, odamlar ham va h. Lekin Jabi afandini boshqa narsa hayratga soladi. U nimaga yaqinlashsa, nimaning narxini so'rasa, tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada qimmatlashganiga guvoh bo'ladi. Shu sababli hayratga tushib, o'zidan shubhalanib qoladi. U hali butkul sog'aymaganman deb o'ylaydi. Chunki jamiyatda bunday keskin o'zgarishlar bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun shifokordan so'raydi: "Yo men sog'aymaganman, yoki jamiyat betob bo'lgan."

Muallif jamiyatdagi qashshoqliklarni ko'rsatish uchun Jabini mahallasi-ga, tanish odamlar orasiga olib keladi. Jabi bolaligida, maktabda o'qigan paytida eng farosatsiz, keyinchalik o'g'ri, muttaham bo'lgan, vatanga xiyonat qilgan odamlar endi mas'ul lavozimlarda o'tirib, jamiyatni boshqarishda yetakchi rol o'ynamoqdalar. Jabi afandi endi esa mahallada ko'rinmay qolgan nomusli odamlarga qiziqadi. Ularning bir qismi urushda o'lgani, bir qismi ro'zg'orini tebrata olmaganliklari uchun boshqa shaharga ko'chgani, bir qismi esa kasallanib, vafot etgani ma'lum bo'ladi. Adib Jabi vositasida oldiga qo'ygan maqsadga erishadi, eng keskin tanqid



yo'lini tanlab, mavjud bo'lgan egrilik va adolatsizliklarni ko'rsatadi.

Umar Sayfiddin folklorga, xalq ijodiga yaqindan tanish bo'lgan va unga katta qiziqish ko'rsatgan shaxslardan biridir. Folklor namunalari uning ijodi uchun asosiy asosiy manba bo'lgan. Shu sababli turk folklor namunalari Umar Sayfiddin san'atining yetakchi qismi bo'lgan hikoyalar uchun mavzu obyektiga aylangan. "Qurigan daraxtlar", "Minadigan narsa", "Pok yuz" va b. hikoyalarning mavzusi folklor namunalariidan olingan.

Umar Sayfiddin ijodida roman, drama namunalari bo'lsa ham, u asosan hikoya ustasi sifatida tanilgan va turk hikoya janrining yirik namoyandasi sifatida shuhrat qozongan. Lekin Umar Sayfiddin she'r ham yozib, turk poeziya an'alarining taraqqiyotida xizmat ko'rsatgan. Uning she'r yozishga ishtiyoqi bolalik davridan boshlangan. Uning xotiralarida she'riyat bilan uyidagi devon namunalari orqali tanishgach, boshlangani keltirib o'tiladi. U avvallar g'azal yozgan, lekin bu sohada ustaligini namoyish ettira olmagan uchun g'azal yozishdan to'xtab, hatto keyinchalik ushbu g'azallarni chop ettirish fikridan ham qaytgan.

Umar Sayfiddinning ilk she'rlari 1905-yildan boshlab "Bolalar bog'chasi" nomli majmuada chop etila boshlaydi. Qayd etib o'tilganidek, she'rlarini avvaliga devon adabiyoti uslubida va aruz vaznida yozgan. Lekin 1914-yildan keyin milliy she'r vazni bo'lgan barmoq vaznida yoza boshlaydi. Bunga turk adabiyotidagi jarayonlarning ham ta'siri bo'lgan. "Yosh qalamlar" birligining adabiyotni yot, begona ta'sirlardan asrab-avaylash sohasida ko'rgan ishlar va Umar Sayfiddinning bu harakat boshida turishi maqsadli ravishda san'atkorni bu yo'lga boshlar edi. Umar Sayfiddin milliy she'r yo'lini asos deb hisoblashi uchun birinchi navbatda xalq she'r shakllariga ustunlik berardi:

*Millatlarni uyg'otar uyqudan,  
Bir otashdir; olovi bor, kuli yo'q.  
Xoinlar titrab turar qo'rquvdan,  
Qutulgach yoyidan bu otash o'q!*

*...Mafkura bu: Yo'qmi, ey Turk, xabaring?  
Bu muqaddas narsa ila yonar iching,  
Och ko'zingni, ortiq uyg'on, ham silkin,  
Kel, chiqsin qalbingdan bu otash, o'q.*

Bu parchalardan ko'rinib turganidek, Umar Sayfiddin she'rlarida xalq ruhi, milliy she'r o'lchovlari asosiy o'rin egallaydi, uning she'rlari turk poeziyasining yangi an'analar zaminida rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.



## YAHYO KAMOL BAYOTLI



**YƏHYA KAMAL  
BAYATLI  
(1884-1958)**

Yirik ijtimoiy-siyosiy xodim, qudratli soʻz ustadisi Yahyo Kamol 1884-yilda Uskupda tugʻilgan. Otasi Ibrohim Hojibey hokim boʻlib, onasi Nokiya xonim esa davrining ziyoli ayollaridan hisoblanardi. Yahyo Kamol 5 yoshida Uskupda joylashgan Yangi maktab nomli mahalla maktabiga boradi. Bu maktabda oʻquvchilarga darsni faqat yoddan oʻtadi, ularning ogʻzaki nutq va oʻzlashtirish qobiliyatlarini orttirar edi. Yahyo Kamol yetti yoshida "Maktabi adab" maktabiga boradi. Bu maktabda toʻrt yil oʻqiydi va 1895-yilda u yerni tamomlab, madrasada tahsil olishda davom etdi.

Lekin oilalari Salonikka koʻchgani uchun u keyingi tahsilni bu shaharda oladi. 1898-yilda onasi vafot etadi. Otasi boshqasi bilan turmush quradi. Onasining oʻlimi va atasining yangi turmushi Yahyo Kamolni bezovta qiladi. Shu sababli u 1902-yilda Istanbulga keladi. Istanbul hayoti uning keyingi hayot va dunyoqarashida katta rol oʻynaydi. U koʻp majlislarda, ayniqsa, xalq ijodi majlislarida ishtirok etib, bilmagan, eshitmagan narsalarini oʻrganadi. Shakibbey nomli yigit bilan tanishish unga koʻproq taʼsir koʻrsatadi. Bu shaxs siyosiy aqidasiiga koʻra Parijga surgun qilinadi, u yerda fan va madaniyat bilan tanishadi. Shuning uchun ham Shakibbey Fransiya, shu jumladan, Yevropa toʻgʻrisidagi hikoyalari Yahyo Kamolni qiziqtirib, shoirni oilasidan bexabar Parijga ketishiga sabab boʻlgan. Parijda ekanligida Yosh turklar bilan tanishib, yaqin munosabatda boʻlgan. 1903-yilda Yahyo Kamol Fransiyada maktabga oʻqishga kirib, fransuz tilini oʻrganadi. 1904-yilda esa maktabni oʻzgartirib, Parijda joylashgan siyosiy fanlar maktabida oʻqiydi. Bu maktabda Albert Sorel nomli professorning taʼsiri katta boʻladi. Fransiya siyosiy hayoti, siyosiy inqiroz, milliy munosabatlar va b. toʻgʻrisida Soreldan olgan maʼlumotlari Yahyo Kamolning aynan ijtimoiy-siyosiy qarashlarining kerakli darajada shakllanishiga taʼsir koʻrsatadi.

Yahyo Kamol 1912-yilda Parijdan Istanbulga keladi. Istanbuldagi maktablarning birida tarix va adabiyot darslarini oʻtadi, turkchilikning ildizlari, taraqqiyot xususiyatlari toʻgʻrisida tasavvur va tadqiqotlarini kengaytiradi. Bu xususda Ziyo Goʻkalp bilan baʼzi ziddiyatlar mavjud edi. Yahyo Kamol 1923-yilda Buyuk Milliy Majlisga aʼzo boʻladi. Uning bu davrdan boshlab diplomatik faoliyati kengayadi. U 1925-yilda Varshavada Turkiyaning elchisi etib tayinlanadi. 1929-yilda esa bu missiyani

Madrida davom ettiradi. 1934-1943-yillarda yana Buyuk Millat Majlisining a'zosi bo'ladi. Yahyo Kamol 1947-1948-yillarda Pokiston davlatida favqulodda elchisi bo'lib ishlaydi. Endigina mustaqillikka erishgan Pokistonda ishlash bilan ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, madaniy aloqalar ortishiga muvaffaq bo'ladi. 1949-yilda betobligi tufayli Istanbulga keladi. Lekin kasalligi uzoq davom etadi. Muolaja uchun bir necha marta Fransiya borsaga ham, dardiga davo topolmaydi. Taniqli shoir, adabiyotning yirik vakili Yahyo Kamol 1958-yilda vafot etadi.

## IJODI

Yahyo Kamol XX asr turk she'riyati va nasrining taraqqiyotida katta xizmati bo'lgan shaxsdir. Bir qator nasriy va publitsistik asarlar yozishiga qaramay, adabiyot olamida qudratli shoir sifatida tanilgan. U o'z she'rlari bilan turk she'riy tilining soddalashtirilishiga, bu tilning poetik imkonlarini kengaytirishga muvaffaq bo'lgan. Yahyo Kamol poeziyaga yoshligidayoq kirib kelgan. U 5 yoshida Radifa ismli qizga ko'ngil qo'yadi, g'aroyib bo'lsa ham bu sevgi uning qalbida uzoq vaqt qoladi va 12 yoshida o'sha qiz sharafiga ilk muhabbat she'rini yozadi. Lekin bu she'r chop etilmagani tufayli asarlariga kiritilmagan. Shoirning hozirgacha yetib kelgan ilk she'ri esa Bolqon urushiga bag'ishlangan qit'a hisoblanadi. Qizig'i shundaki, bu she'rni u aruz vaznida yozgan va she'rning ohangi ma'qul bo'lgani uchun Yahyo Kamolning aruzga mayli ortadi. Yahyo Kamolning ilk chop etilgan she'ri esa Istanbulga atab yozgan "Xotira" she'ridir. Shoir bu she'rni Istanbulni ko'rmay yozsa ham, oldiga qo'ygan maqsadiga yetgan va she'r muallifiga katta shuhrat olib kelgandi. Yahyo Kamolning poeziya olamida o'ziga xos joy egallashida taniqli turk shoirlari Tavfiq Fikrat va Shahobiddinning katta roli bo'lgan. Yahyo Kamol bu shaxslar bilan Istanbulga kelganda tanishadi. Bu shaharda uning boshqa "Sarvati funun"chilar bilan ham aloqasi kengayadi. Lekin "Sarvati funun"chilardan farqli o'laroq Yahyo Kamol turk tili bilan yevropacha uslubdagi she'rlar yozmagan. U turk tili bilan she'rning o'z milliy qadriyatlariga joy ajratadi. Shuning uchun ham u boshqa shoirlardan o'zib, milliy til, milliy she'r vahdati va sintezini yaratadi.

Shoir ijodida ona tili istagi alohida o'rin egallaydi. Yahyo Kamol bu tilning barcha ifodalarini "og'zimda ona sutim" shaklida yuqori baholaydi.

Yahyo Kamol poeziyasi ko'p asrlik turk she'riyati an'analariga sodiq qolib, vatanga sadoqat hisini ilgari suradi. Bu sifat, shuningdek, shaxsning muammoga shaxsiy yondashuv va munosabatidan kelib chiqadi. Lekin Yahyo Kamol ijodida vatan mavhumi bir tomonlama olinmaydi, u "tarixiy, jug'rofiy, ijtimoiy bilim va haqiqatlarga tayangan, yuksak va realist vatan tushunchasiga" aylanadi. Yahyo Kamolning vatanga muno-

sabati konkret va balandparvoqlikdan uzoq hisoblanadi: “Vatan hech qachon nazariya emas, bir tuproqdir. Tuproq ajdodlarning mozoridir. Masjidlar qurilgan joydir. Vatandoshlarni vatan vujudga keltirgan. Vatan na faylasuf fikri, na shoir tuyg‘usidir. Vatan asl haqiqatdir.”

Yahyo Kamolning vatan tushunchasi ma’no jihatdan ham keng hisoblanadi, u yerda barcha fikrlar o‘ziga joy topadi. Shoir vatanining har qarichini sevadi, uni muqaddas deb hisoblaydi. U hech birini ajratmay, Istanbulni ham, Anqarani ham, Bursani ham, Uskupni ham, Trabzonni ham sevadi, hatto bir qarich nomsiz tuprog‘ini ham vatan deb bag‘riga bosadi. Shoirning vatanni dunyoning kichik parchasi bo‘lsa ham, vatanga bo‘lgan muhabbat, unga muqaddas deb qarashi Yahyo Kamolni “Jahon vatandan iboratdir e’tiqodimcha” deyishga undaydi. Uning she’rlarida vatanning ko‘p shaharlari madhiga joy berilsa ham, bu holat konkret munosabat bilan birga, umumiy tavsiflanadi. Masalan, agar gap Istanbul haqida ketsa, Istanbul go‘zalliklari timsolida umumiy vatan tushuniladi.

Yahyo Kamol Istanbulni Turkiyaning go‘zali deb hisoblaydi. Bu shaharni milliy me’morlik san’atining shoh asari deb nomlaydi. “Istanbul fathi” she’rida Istanbulning fath etilishi tarixiy kun va hodisa sifatida quvonch bilan kutib olinadi.

*Endi besh yuz yil o‘ti ul buyuk xotiradan,  
Ellik uch kunda ul hangoma ko‘rilgan bu yerdan.*

*Jonlanar lavhasi holga, bashar etgancha xayol,  
Ul zamon o‘rtada, har soniya haqiqiy hol.*

“Sulaymoniyada bayram tongi” she’rida vatan va millat sevgisi, bu sevgining tarixiy aspektida berilishi, shoir o‘ylarining romantik tarzda aks etishi diqqat markazidadir. She’rda tarixiy sayohat va mavjud vaziyat aks ettirilgan. Yahyo Kamol bu asarda Turkiya yo‘lida jonini fido qilganlarning ruhlariga hurmat bilan qaraydi. Ularning vatan oldidagi haqlari katta ekanligini qayd etadi:

*Vatanning ham tirik vorisi, ham sohibi u,  
Hattoki xalqqa bu kunlarda tasallidir u,  
Ham bu tuproqda bugun, bizga qolgan har yerda,  
Hamda ko‘pdan beri biz yo‘qotgan yerlarda.*

Yahyo Kamol vatanning farovon buguni va ertasida shahidlar ruhini yuksaklarga ko‘taradi, ularni bayramning eng loyiq ishtirokchisi sifatida taqdim etadi:

***Ulug' ma'badda qorishdim vatan birligiga,  
Ming shukur tangriga, ko'rdim, bu soatlarda yana.  
Tiriklar ila barobar turgan arvojni.  
To'ladir ko'nglim nurlarga bu bayram sabohi!***

Yahyo Kamol she'rlari sodda til birliklariga boydir. Yahyo Kamol klassik janrda yozgan she'rlarida ham boshqa til tarkibidan iloji boricha oz foydalangan. Turk adabiyoti tarixida aytilganidek, uning eng buyuk xizmati "turkcha eshitishni turkcha so'zlashish darajasiga ko'tarishdir." Masalan, shoirning "Mahluqa Sulton" she'rida biz sodda ifoda va iboralarni uchratamiz:

***Bu hazin yo'lchilarning eng kichigi,  
Bir zamon boqdi u vayron quduqqa.  
Va nedan so'ngra kumush uzukni,  
Barmog'idan sug'urib otdi quduqqa.***

Qayd etish lozimki, bu hol shoirning aksariyat she'rlarida o'zini ko'rsatgan sifatlardan biridir. "Mohaj turkusi", "O'q", "Oqinchilar", "Sas-siz kema", "Rindlarning oqshomi", "Rindlarning o'limi", "Ufqlar", "Ovoz" va b. she'rlarida soddalik hisobiga ichki ohang va musiqa ustunlikka ega. Yahyo Kamol she'rlarining katta qismi Istanbul lahjasida yozilgan.

Yahyo Kamol she'rlarida o'z xalqining qahramonlik solnomasini yozish, uning badiiy tarannumini berish qobiliyatini doim namoyon qilgan. Turklarning Malazgird, Chanoqqal'a, Saljuq va b. zafarlari uning ijodida o'z o'rnini egallagan. Bu kabi she'rlarda asl turk qahramonligi, turk askari zafari milliy g'ururga aylanadi:

***To Malazgird dashtidan yurgan Turko'g'li,  
Bu nafar edimi? Chuqur ko'zlari yoshlar ila to'la,  
Yuzi dunyodagi yigit yuzlarining eng go'zali,  
Katta ish ko'rish bilan horigan beli.  
Ham buyuk yurtni tuzgan, ham asragan qudratimiz,  
Har zamon borlig'imiz, ham qonimiz, ham jonimiz.***

Yahyo Kamol klassik she'r vaznining katta qismidan foydalanib, go'zal namunalar yaratgan. Klassik she'r vazni bo'lgan ruboiylarning Yahyo Kamol ijodida o'ziga xos o'rne bor. To'rt misralik kichik she'rlari bilan u ijtimoiy-falsafiy fikrning badiiy tarannumiga erishib, janrning talablariga javob bergan. Yahyo Kamol ruboiylarining markazida Sharq va G'arb tasavvufiy fikrlarning sintezi to'xtaydi. Ruboiy janrida Xayyom uslubi ustun bo'lsa ham, Yahyo Kamolda Xayyomdek yagona va tizimli e'tiqodga

aloqasi yo'q. Lo'nda qilib aytganda, shoirning ruboiylari turli falsafiy fikrlar orqali shakllanadi.

*Tevarak bahor ichinda bir yer ko'rdik,  
Farhod ila Shirinni barobar ko'rdik.  
Boqdi kechadan fajrga qadar, ellarda  
Yulduzlarga yuksalgan qadahlar ko'rdik.*

Yoki:

*Bir bosqichda quyosh ila daryo ko'rinar,  
Bir bosqichda har ikki dunyo ko'rinar,  
So'nggi bosqichda bir fasli xazondirki, surar,  
O'tmish kelajak jumlasini ro'yo ko'rinar.*

Yahyo Kamol ijodida nasriy asarlar oz, lekin ahamiyatli o'rin egallaydi. Uning nasriy asarlari janr jihatdan turfa xildir. Roman, hikoya, memuar asar, maktub va b. janrida shakllangan nasriy asarlarda ijtimoiy-siyosiy muammolar ustunlikni tashkil etadi. Yahyo Kamol o'z xotiralarida "men roman yozishni istasam ham, uni chetlab o'tganman" deydi. Shoir roman janrini chetlab o'tganining sababi she'rda erishgan muvaffaqiyatiga romanda erisha olmasligini his qilib, bu ishning unga muvaffaqiyatsizlik olib kelishini taxmin qiladi. Lekin hikoya yo'nalishida u so'z ustasi sifatida iste'dodini ko'rsatib, asarlarini "Siyosiy hikoyalar" nomi bilan chop ettiradi. Muallif bu asarlarni "Siyosiy hikoyalar" nomi bilan chop ettirishdan maqsad o'quvchilarning bu yerda aks ettiriluvchi ijtimoiy-siyosiy motivga diqqatni jalb etadi.

## RASHOD NURI GUNTEKIN

Zamonaviy turk realist adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Rashod Nuri Guntekin 1889-yilda Istanbulda harbiy xizmatchi oilasida

tug'ilgan. Otasi Nuribey harbiy doktor bo'lib ishlagan. Otasining ishi tufayli yashagan joyi tez-tez o'zgargani uchun Rashod Nurning bolaligi turli shaharlarda o'tgan. Uning Izmir va Chanoqqal'ada o'tgan kunlari bolalik xotirasida o'chmas iz qoldirgan. U ilk tahsilini Salimiya-da joylashgan mahalla maktabida olgan. Lekin 1900-yilda oilalarining Chanoq-qal'aga ko'chgani uchun u tahsilini bu yerdagi maktabda davom ettiradi. Bir muddatdan so'ng Galatasaroyga borib, mahalla maktabida bir yil o'qiydi. Rashod Nuri o'rta maktabni Izmirda tugatgach, Istanbul



**RASHOD  
NURI  
GUNTEKIN**  
(1889-1956)

Dorilfununi adabiyot fakultetiga kiradi. Bu yerda adabiyot o'qituvchisi bo'lib ishlagan Mehmet Akif Ersoy Rashod Nurida o'qituvchilikka ishtiyoqni orttiradi. Shu sababli 1912-yilda dorilfununni tamomlashi bilan avval Istanbul, so'ng esa Bursada adabiyot o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. U 1916–1917-yillarda Istanbul Fotih Vohid maktabiga direktor etib tayinlanadi. Ushbu davrlarda Rashod Nuri ko'proq pedagogik faoliyatga ustunlik beradi, xalqning maoriflanishida qo'lidan kelganicha urinardi. U Fotih maktabida bir muddat ishlagach, Vafo va Erengo'y maktablarida turk tili va adabiyotidan dars beradi, pedagogik faoliyat doirasini kengaytiradi. Rashod Nuri 1924-yilda bir guruh turk ziyolisi bilan "Kapalak" nomli satirik gazetasini chiqarishga erishadi. Bu gazetada Rashod Nurini bezovta qiluvchi ijtimoiy kamchiliklar o'z aksini topadi, turli sotsial muammolardan gap ochilar edi. Rashod Nurining jurnalistlik faoliyati faqat bu organ bilan cheklanib qolmaydi. U "Oqbobo" nomli boshqa satirik jurnal bilan hamkorlik qilardi. Qayd etish lozimki, Rashod Nuri badiiy ijodga hikoya yozish bilan boshlaydi. Birinchi jahon urushi yillari ijodining samarali bosqichi hisoblanadi. Yosh yozuvchi 1922-yildan e'tiboran "Choliqushi" romanini qismlarga bo'lib, "Vaqt" gazetasida chop eta boshlaydi. Rashod Nuri o'qituvchi, yozuvchi va jurnalist sifatida respublika miqyosida tanila boshlaydi, xalq yo'lida ko'rsatgan xizmatlariga ko'ra obro'si ortib boradi. U 1927-yilda Maorif Vakolati Taftishiga ishga olinadi. Rashod Nuri haqida yozilgan ko'pgina kitoblarda ko'rsatilganidek, bu lavozimda ekanligida u Onado'lining shahar va qishloqlarini kezib, kuchli kuzatish qobiliyati unga xalq turmush tarzini, axloq va maisha-



tini o'rganishga imkon yaratadi. Shubhasiz, Rashod Nuri ijodida bu kuzatuvlarning katta ahamiyati bo'lgan. Rashod Nuri taftishchi lavozimida 1939-yilgacha ishlaydi. 1939-yilda xalq tomonidan Buyuk Millat Majlisiga deputat etib saylanadi. 1943-yilda deputatlik muddati tugagach, qayta Maorif Vakolati Taftishiga ishga olinadi. U 1947-yilda Istanbulda chiqqan "Mamlakat" gazetasining bosh muharriri bo'ladi. Keyinchalik Rashod Nuri Parijda joylashgan Turkiyaning Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Madaniyat attashesi lavozimiga tayinlanadi. 1954-yilgacha Madaniyat attashesi vazifasida bo'lgan Rashod Nuri xalqaro miqyosda turk milliy-madaniy tarixining targ'ibida katta ishlarni amalga oshirgan. Rashod Nuri 1954-yilda Turkiyaga qaytib keladi. Istanbul Shahar Teatr adabiy hay'atida mas'ul vazifada ishlasa ham, sog'lig'ining yomonlashishi faoliyatini davom ettirishiga to'sqinlik qiladi. 1956-yilda o'pka saratoniga chalinadi, davolanish uchun Londonga boradi. Rashod Nuri 1956-yil 7-dekabrda Londonda vafot etadi, janozasi Istanbulga olib kelinadi.

## IJODI

Turk realist adabiyotining taniqli namoyandasi Rashod Nuri Guntekinning adabiy faoliyatga qadam qo'yishi Birinchi jahon urushi yillariga to'g'ri keladi. Rashod Nuri Guntekin avvalo turli xarakterli maqolalar yozsa ham, badiiy ijodini hikoya bilan boshlaydi. Uning 1917-yilda yozgan "Eski do'st" hikoyasi bu sohadagi ilk qalam tajribasi hisoblanadi. Rashod Nurining hikoyanavisligi yevropacha nasr talablariga mos shakllanishida Fotima Aliya xonimning (1864–1924) va Xolid Ziyoning (1865–1945) ta'siri katta bo'lgan. Fotima Aliya xonimning "Muhojirlar" (1892), "Rufat" (1897), "Udi" (1899) va chala qolgan "Emin" (1910) romanlari yangi realist nasrning eng mukammal namunalari hisoblanadi. Shu jumladan, Xolid Ziyoning "Hamida" (1891), "Bir marhumning daftari" (1891), "Moviy va qora" va "Siniq hayotlar" yirik hajmli nasriy asarlarida hamma narsaning yangi prinsip jihatdan o'ziga joy topishi san'at olamida bu namunalarning ta'sir doirasini kengaytiradi. Rashod Nuri bolalik xotiralarida nomlari sanab o'tilgan har ikki shaxsiyatning o'z ijodiga ta'siridan so'z ochib, qish kechalarida Fotima Aliya xonimning "Udi" romanidagi parchalarning rolini yuqori baholagan, ayniqsa, hikoya didining shakllanishida Xolid Ziyoning san'atini ahamiyatli deb hisoblagan edi.

Rashod Nurining hikoyalari mavzu jihatdan keng qamrov doirasiga ega. Bu namunalarda jamiyatning ko'p realliklari o'zining badiiy aksini topgan, muammoning ijtimoiy-siyosiy aspektidagi yechimini topishga harakat qilingan. Muallif "Tangri mehmoni" (1927), "So'ngan yulduzlar" (1928), "Layli va Majnun" (1928), "favqulodda ishlar" (1930) nomli



hikoyalar kitobida o'zi yashagan davrining kamchiliklariga tanqidiy yondashib, keskin ravishda ularga qarshi e'tirozini bildirgan. Rashod Nuri "Umidsizlik" hikoyasida qiziqarli masalaga to'xtalib o'tadi. Aslida maishiy muammolar zaminida yozilgan bu hikoyada yozuvchi jamiyatning noodatiy dunyoqarashi va axloqlarining insonlarga bergan zarbasini tasvirlaydi. Mavzu ayol va erkaklarning huquqi teng bo'lmagan jamiyat haqidadir. Bu tenglikni jamiyat butkul rad etadi. Shuning uchun ham ayollar go'yo taqdirilariga yozilgan mahrumliklarning azobini chekishadi. Muallif bu fikrlarining barini yangi qurilgan turmush timsolida ko'rsatadi. Erkak jamiyatning unga bergan huquqlaridan foydalanib, o'z ayolining uydan ko'chaga qadam bosib chiqishiga yo'l qo'ymaydi. Uning ijtimoiy faoliyatini taqiqlaydi. Lekin o'zi esa kayf-safo majlislarida kunini o'tkazib, axloqsiz ayollar sharafiga ziyofat beradi. Bir kuni turmush o'rtog'ini ko'rish uchun bu ziyofatlardan biriga borgan ayol erining iskanjalariga duch keladi. Ayolning bu yerga kelganini bahona qilgan erkak uni axloqsizlikda ayblab, taloq qiladi va bu bilan uni nohaq ma'naviy azobga duchor qiladi.

Bir oila timsolida sodir bo'lgan muammo muallif tasvirlarida umumiydashadi, jamiyatning barcha tabaqalariga ta'sir qiladi. "Beg'amning o'limi" hikoyasida sariq tukli qari it timsolida katta azob-uqubatlarda yashayotganlarning hayoti tasvirlanadi. Muallif hikoyada uning kurashuvchan va fidokor bo'lishini alohida qayd etadi. Lekin mahalla odamlarining nazarida u daydi jonzot, xolos. Shuning uchun ham uni hamma "Beg'am" deb chaqiradi. Hikoya bilan tanishganda, Beg'am na daydi, na hamma o'ylagandek g'amsiz itdir. Bir necha yil avval G'amsizning hayotida katta fojia sodir bo'lgan. Uning to'rt bolasi zaharlanib o'ladi. O'lgan bolalarini chiqindi mashinasida olib borganlari uchun u o'sha mashinaning ortidan boradi va ancha paytgacha g'oyib bo'ladi. Hamma uni qayerdadir o'lgan deb o'ylaydi. Faqat Beg'am yana qaytib keladi va maktab atrofida qayg'uli kunlarini o'tkazadi. Maktab bolalari bayram qilish uchun oldindan rejalashtirilgan joyga boradilar. Beg'am ham bolalar bilan birga ketadi. Bolalar uning yerga yiqilib, to'lg'anib uvillayotganini ko'rishadi. Birdan u oyoqqa turadi va bor kuchi bilan yugura boshlaydi. Yo'ldagi soy bo'yida o'ynayotgan ikki bola itning ular tomonga yugurib kelayotganini ko'rib qochishadi. Lekin bolalardan biri soyga yiqilib, cho'kib ketishiga oz qoladi. It esa buni ko'rib ortga qaytadi va bolani suvdan qutqaradi. O'zi esa cho'kib ketadi va oqar suv uning jasadini oqizib ketadi.

Hikoyada ko'pchilik tomonidan tushunilmagan, qabul qilinmagan jonzotning qayg'u va fojiasi o'z aksini topadi. G'amsiz aqlidir, insonlarni himoya qiladi, ularning ko'nglidan o'tganlarni tushunadi, og'ir kunlarida hayotlarini asrab qoladi. Ammo ko'pchilik uni daydi, ortiqcha maxluq deb hisoblaydi. Asarda G'amsizning o'lim ostonasida insonlardan uzoqlash-

ishga urinish sahnasi muallif ko'targan muammolarni keng muqoyasa fonida ochishga imkon beradi, hamma narsa tashqi ko'rinish mohiyatida yuzaga chiqib, ochiq-oydin idrok etiladi.

"Eski yara", "Bir qultum suv", "Askarlikdan qaytish", "Bir iste'fo" va b. hikoyalarida urush falokatlari, insonlarning ozod yashash istagi, asoratga, zulmga e'tiroz sadolari ustalik bilan qalamga olingan. "Eski yara" hikoyasi uch yoshida onasini yo'qotgan Xalilning tilidan hikoya qilindi. Xalilning otasi politsiyada ishlagan, otdan yiqilgani uchun oyog'i lat yeydi. Shu sababli ishga yaroqsiz odam deb politsiyadan haydaladi. Xalilning otasi keyinchalik harbiy gospitalda ishlaydi. Urush dahshatlari kun sayin ortaveradi. Otasi o'g'lini shaharda qoldirib, o'zi shahar chetidagi gospitalda yaradorlarga xizmat qiladi. U ora-chora vaqt topib, Xalildan xabar oladi. Xalilning otasi jasur jangchilarning dushmanga qarshi kurashi haqida so'zlab berar, ularning qahramonligini o'g'liga aytib maqtanar edi. Bir marta u qahramon askarning uch dushmani o'ldirganini hikoya qilib beradi. Janglarning birida o'sha askar dushmanlarni o'ldirishiga qaramay, o'zi ham og'ir yaralanadi. U o'lim ostonasida Xalilning otasiga xotira sifatida bitta uzuk va qonli daftarni beradi. Xalil otasi aytib bergan barcha front xotiralarini shahardagi chet ellik bolalarga aytib beradi. Bir muddat o'tgach, shahar xorijliklar tomonidan bosib olinadi. Chet ellik bolalar Xalilning gaplarini dushman zobitiga aytib berishadi. Zobit Xalilning otasidan eshitganlarini unga ham aytishini talab qiladi. Xalil ularga og'iz ochmaydi. Hikoya yakunida Xalilning otasini qamoqqa olib, otib tashlashadi. Muallif hikoyada tarixiy jarayonlar fonida dushmanga nafrat tuyg'usini singdiradi, xalqning vatanparvarlik hislarini ko'taradi.

"Bir iste'fo" hikoyasining mazmuni eng baxtiyor kunini aytib bergan o'quvchilarning insholaridan tashkil topadi. Muallif bolalarning o'zi uchun baxt deb hisoblagan o'sha hodisani aslida eng katta fojia deb baholaydi. Asarda bola fikri bilan yozuvchi munosabatlari o'rtasida katta ziddiyat bor. Shuni ham qayd etish lozimki, asarda yozuvchi munosabatlari real va sodda ifoda tarzida berilgan. Masalan, jarrohlik operatsiyasining og'riqlariga duchor bo'lgan bola kasalxonada hech bo'lmasa non yeya olgani uchun o'zini baxtiyor hisoblaydi. Doim ochlikdan azob chekkan bu bechora bola o'sha kunlarini eng baxtli kuni deb biladi. Boshqa bola esa otasining qamoqqa olingan kunni o'zi uchun baxtli kun deb hisoblaydi. Chunki kecha-kunduz mashaqqat bilan ishlagan otasi aravachilik orqali tuzuk-quruq pul topolmaydi, buning alamini esa xotini va bolasidan oladi. Ko'rinib turganidek, bu yerdagi baxt nisbiydir, ma'naviy emas, "jismoniy" xarakterga ega. Lekin muallif bola psixologiyasining mulohazalarida davrni keskin tanqid qiladi. Muallif bola mulohazalaridan vosita sifatida foydalanib, jamiyatning ba'zi muammolariga to'xtaladi. Qisqa

qilib aytganda, davrning ijtimoiy mashaqqatlarning umumiy manzarasini yaratadi.

Rashod Nuri ijodida drama asarlarining o'ziga xos o'rni bor, Uning ba'zi dramatik asarlarining mavzusi zamonaviy hayotga bog'liq. Zamonaviylik va reallik Rashod Nur dramaturgiyasi uchun asosiy sifat hisoblanadi. 1920-yilda yozilgan "Xanjar" pyesasi Rashod Nurining dramaturgiya sohasida ilk qadamidir. "Eski tush" (1922), "Tosh bo'lagi" (1926), "Boburshohning joynamozi" (1931), "Xazonrezgi" (1943), "Eski qo'shiq" (1951), "Balikesir hisobchisi" (1953), "Tangri tog'i ziyorati" (1955) nomli asarlari Rashod Nurining bu sohada samarali ijod yo'lidan o'tganini ko'rsatadi. Bundan tashqari u "Bir kecha fojiasi" (1924), "Arabcha emasmi?" (1926), "Juft karomat" (1927), "Tadbirkor" (1932) va b. sahna asarlarini taqdim qilib, zamonaviy turk dramaturgiyasining yangi an'analar zaminidagi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Qayd etib o'tganimizdek, Rashod Nurining dramalaridagi mavzu va muammosi zamonaviy hayot va uning realliklaridir. "Xanjar" pyesasida mol-davlat, pulga o'chlik oqibatida odamiylik sifatlarini yo'qotgan shaxslarning, nomusli insonlarning moslasha olmagan qonun-qoida va odat-an'analari fosh etiladi. Muallif asarda barcha nuqson va jirkanchliklarni Hoji Ali va doktor timsolida jamlashga erishadi.

"Xazonrezgi" Rashod Nurining shu nomli romanii asosida sahnalashtirilgan drama asaridir. Asarning mavzusini yot, begona odat'an'analarning ta'siri natijasida turk ma'naviyatiga tekkan zarar va milliy-ijtimoiy yaralarning tasviri tashkil etadi. Asar qahramoni Ali Rizobey nomusli insondir. U yuqori lavozimdagi davlat xodimi bo'lsa ham, lavozimini suiiste'mol qilmaydi. Halol maoshi bilan ro'zg'or tebratishni hamma narsadan ustun biladi. U yengil turmush tarzi kechiruvchi insonlarga achinadi. Buni turk jamiyati duchor bo'lgan milliy-ma'naviy yara deb hisoblaydi. Ijtimoiy hayotning begona ta'sirlardan xalos bo'lish kuchida, ma'naviy mudofaa tizimi yaratish tashabbusida emasligiga Ali Rizobey taassuf bilan qaraydi. O'z farzandlari ham begona ta'sirlar to'riga tushib, o'zgarganliklari uchun dili og'riydi. Bu manzarani milliy-ma'naviy sohada xazonrezgi shaklida tavsiflagan muallif o'sha zamonadagi turk hayotiga xos bo'lgan jihatni yuksak tarzda ifodalay olgan.

Rashod Nuri xalqning milliy-ma'naviy qadriyatlarini hurmat qiluvchi, ijodida doimo buni tarannum etgan san'atkordir. "Eski qo'shiq" drama-sida XX asrda shakllangan yoshlarning begona ta'sirlarga tushib, yuksak ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashishiga e'tiroz bildiriladi. Rashod Nuri bu dramani 1938-yilda yozgan "Eski kasallik" romani motivlari asosida qalamga olgan. Asarda eski qo'shiq tushunchasi ishq qo'shig'i ma'nosidadir. "Eski qo'shiq" dramasi turli tafakkur tarziga ega ikki yosh turmush qurgandan keyingi hayoti haqida hikoya qiladi.

Hodisalar Yusuf va Zulayho orasida sodir bo'ladi. Zulayho har narsada tuyg'u va samimiyatni inkor etadi. Shu bilan birga Zulayho ikki oshiqning muhabbatlarini zohiriy deb biladi. Uning nazarida turmush o'rtog'i bo'lish bir-biriga ruhini va ko'nglini berish degani emas. Zulayho bularni vaqti o'tgan va "urfdan tushgan hodisa" deb baholaydi. Shuning uchun ham asarda Zulayhoning oila hayoti butkul tasodifiy xarakterga ega. Bu sababdan Zulayho eri bilan sud qarori orqali ajrashadi. Muallif bu asarda ishqning yaxshi ma'noda "kasallik" sifatida qabul qilinishini targ'ib qiladi. "Ishq kasalligi"ni oila qurgan ikki shaxsning bir-birlariga bog'lanishining vojib sharti deb hisoblaydi.

Rashod Nuri bir qator hikoya va pyesalar yozsa ham, adabiyotda romanlar muallifi sifatida mashhur. U "Yashirin qo'l" (1921), "Choliqushi" (1922), "Tamg'a" (1924), "Labdan qalbgacha" (1925), "Oqshom quyoshi" (1926), "Yashil kecha" (1928), "Og'riq" (1928), "Xazonrezgi" (1930), "Osmon" (1935), "Eski kasallik" (1938), "Tegirmon" (1944), "Qon da'vosi" (1954) va b. romanlarida davrning ijtimoiy-siyosiy muammolariga to'xtalib, ko'proq Turkiya hayotiga xos bo'lgan xususiyatlarni real shaklda aks ettirgan. Uning romanlarida hayot haqiqatlari ochiq shaklda taqdim etiladi. Rashod Nuri romanlarida hayotning achchiq va shirin, quvonch va g'am jihatlarining parallellikda aks ettiradi.

Rashod Nurining romanlari mavzu bo'yicha muhabbat va ijtimoiy-siyosiy guruhga bo'linadi. Adibning ilk romani "Xarobalarning gullari" asaridir.

"Choliqushi" romani yozuvchining roman adabiyotidagi eng muvaffaqiyatli asarlaridan biri hisoblanadi. Muallifga shuhrat olib kelgan ushbu asar XX asr turk adabiyotida paydo bo'lgan bo'shliqni ham to'ldiradi. Qayd etishimiz lozimki, muallif avvalo "Istanbul qizi" nomli 4 pardali pyesa yozadi. Lekin pyesa sahnada tomoshaga qo'yish muammolari, ayni paytda yozuvchi to'xtalgan masalalarni kengroq epik planda ko'rsatish istagi Rashod Nurini "Istanbul qizi" dramasi motivlari asosida "Choliqushi" romanini yozishga undadi. "Choliqushi" romanida hodisalar Onado'lida bo'lib o'tadi. Lekin yozuvchi Onado'li timsolida butun Turkiya hayoti uchun tegishli bo'lgan ijtimoiy-siyosiy muammolarni aks ettiradi. Muallif barcha muammolarga munosabat bildirish uchun romanning bosh qahramoni Farida obrazidan vosita sifatida foydalanadi. Rashod Nuri Faridani iloji boricha faol hayotga tashlaydi. Lekin u kurashuvchanligidan ko'ra ko'proq chidamliligi bilan yodda qoladi. Eng og'ir kunlarida ham yiqilmaydi. Muallif uning "qo'lidan boladek ushlab" shaharma-shahar kezdiradi. Faridaning jamiyatda duch kelgan barcha jirkanchliklarni umumiyashtirish kuchi bilan o'zi yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy panoramasi shaklida taqdim etadi. Shu sababli ham asarda hodisalarning tasviri "sarguzashtdan" ko'ra ko'proq "mamlakat manzarasi" ta'siridadir.

Rashod Nuri romandagi jamiyatning ayollarga o'gay munosabatini aslo qabul qila olmaydi. U ayollarni butun ma'naviy huquqlardan mahrum qilgan jamiyatni ayblashdan va undan nafratlanishdan chekinmaydi. Shuning uchun ham "Choliqushi" romani faqat o'z davrining ijtimoiy-siyosiy manzarasini yaratish jihatdan emas, balki bu fonda ayol huquqlarining buzilishini aks ettirish jihatdan ahamiyatlidir.

Rashod Nuri Farida timsolida tahsil olgan va erkin yashashni xohlagan har aqlli va nomusli ayol duch keladigan qiyinchiliklarni ko'rsata olgan. Yozuvchining qaydlaridan o'lkada tahsil oluvchi ayollarga munosabatning yomonligidan hatto ular bilan turmush qurishdan ham chekinishlari ma'lum bo'ladi. "Choliqushi" romanining bosh qahramoni Farida ham erkin yashashni orzu qiluvchi savodli qizdir. Asarda Komronning Faridaga bo'lgan munosabati o'zgarishida bu omilning ta'siri ham mustasno emas.

Muallif shu tufayli ham Komron-Farida munosabatini yuksak badiiy shaklda asarning markazida saqlab, butun hodisa va voqealarni bu munosabat atrofiga keltiradi. "Choliqushi" romani Faridaning xotira daftari. Farida o'z xotiralarini yozayotganda hayotining avvalgi davrlariga ham sayohat qiladi. Biz uning sho'x, tashvishsiz bolaligiga guvoh bo'lamiz. Lekin vaqt o'tib, hammasi o'zgaradi. Farida o'z baxtiyorligi bilan vidolashadi. Bu bosqichda Faridaning dunyoqarashi bilan ijtimoiy muhitning realliklari orasida ziddiyat paydo bo'ladi. Farida va Komronning muhabbatlaridagi muammo ham shu bosqichda boshlanadi. Farida Munavvarning Komronni sevganini bilgani uchun u yerdan uzoqlashadi. Turli viloyatlarda og'ir sharoitda o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Bu davrlarda Farida turli xislatdagi insonlar bilan yuzlashsa ham, faqat yaxshi odamlarning xayrixohligi natijasida badbinlashmaydi, og'ir sinovlardan o'ta oladi. Muallif bu jihatni Xayrullobey va Farida munosabatida real aks ettiradi. Xayrullobeyning Farida bilan soxta nikohi va Faridaning xotira daftarining u tufayli Komronga yetib borishi asarda bu insonning xarakteri ochilishiga va qaysi oliyjanob sifatlarga ega ekanligi haqida yetarlicha ma'lumot beradi. Faridaning Munisa, Rashidbey, Azizbey, Shayx Yusuf va boshqalari bilan munosabatlari asarda muammolarni ochib beradi, obrazlarning o'ziga xos individual sifatlarini yuzaga chiqaradi.

Romanda Faridaning maorif vazirligidan eng uzoq qishloq maktabigacha o'tgan yo'li muallifning muammoga munosabatida tanlagan uslubiy safardir. Poytaxtdan qishloqqacha safar qilgan, keyinchalik joy alishtiravergan bu qiz har qanday poraxo'rlik, o'zboshimchalik va anarxiyaning guvohi bo'ladi. Qizig'i shundaki, muallif bularni faqat ta'lim tizimi uchun emas, butun mamlakat hayotiga mos deb hisoblaydi, jamiyat va inson muammolari ichida mamlakatning ijtimoiy hayot manzarasini aks ettiradi.



Jamiyatning ijtimoiy kamchiliklariga qarshi tanqidiy munosabat Rashod Nurining boshqa romanlarida ham uchraydi. "Tamg'a", "Labdan qalbgacha", "Og'riq", "Xazonrezgi", "Tegirmon" va boshqa romanlarida muallif turli muammolar ichida jamiyatning nuqson va kamchiliklarini ko'rsatadi, ularni keskin tanqid qiladi. Nomi aytib o'tilgan asarlarda yashash ishtiyoqi bo'lgan nomusli insonlarning jiddiy qiyinchiliklar bilan yuzlashishi ko'rsatiladi, davlat organlarida byurokratiya, poraxo'rlik, mansabdorlarning o'zboshimchaligini fosh etiladi.

Umuman olganda, Rashod Nuri romanlarining aksariyatidagi g'oya shuki, jirkanch jamiyatda nomusli va vijdonli insonlarning yashashi juda og'irdir. Ular yo jamiyatga bo'ysunib, uning quliga aylanishi, yoki hayotlari barbod bo'lishi lozim.

Rashod Nuri "Tamg'a" asarida muammoga aynan shunday yondashib, Iffatbey timsolida nomusli insonning pokiza orzulari bilan bu orzular oldiga g'ov qo'ygan, uni shikast etgan muhitni qarama-qarshi qo'yadi. "Tamg'a" asarida hodisalar, asosan, 1908-yil Turkiya inqilobidan keyingi davrlarga bog'liq. Iffatbey otasining hibsidan keyin qiyinchiliklar bilan yuzlashadi. O'z halol mehnati bilan yashashni hammasidan ustun ko'radi. Mashaqqat bilan bir savdogarning uyida ish topadi. Uning bolalariga dars berib, pul topadi. Savdogarning ayoli Vadia xonim bosim o'tkazgani uchun u bilan uchrashishga majbur bo'ladi. Bu ish fosh bo'lganda o'zini savdogarning uyiga kirgan o'g'ri deb ataydi. Bu bilan Vadianing nomusiga dog' tushishidan asraydi, o'z nomiga esa "o'g'ri tamg'asi" uriladi. Lekin qamoqdan ozod bo'lgach, umrining mashaqqatli kunlari boshlaydi, hayoti zindonga aylanadi. Iffat endi jamiyat orasida o'g'ri sifatida taniladi. Unga hech qayerda ish berishmaydi, yaqinlariga yo'latmaydilar. Muallif bu vaziyatni o'ziga xos paradoksal xususiyatlari bilan ochib bera oladi. Nomusli odamlar jirkanch jamiyatni ayblashi o'miga o'sha jamiyat nomusli insonlarni ayblab, ularni hayotda ortiqcha odamlarga aylantiradi.

Iffatbeyga do'sti Jalol qo'lidan kelgancha yordam beradi. Jalolning o'zi ham nomusli insondir. Ikkovi ham majbur qolgani uchun o'z yo'llarini o'zgartirib, chayqovchilik bilan shug'ullanishadi. To'g'ri, muallif asarda ularning bu harakatlarini oqlamaydi. Lekin Iffat va Jalolni oqlamasa ham, ayni paytda ularni aybdor deb ham hisoblamaydi. Yozuvchi olamida nuqsonli bo'lgan jamiyat, real ijtimoiy-siyosiy hayotdir.

Romantik ruhda yozilgan "Labdan qalbgacha" asarida muammo o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Asarda hodisalar Kenan va Lamiyaning atrofida sodir bo'ladi. Asar boshida Kenanning otasi, onasi, singlisi va boshqa masalalar to'g'risida boruvchi suhbatlar muayyan ma'noda ijtimoiy fonda bo'lib o'tadi. Lekin keyinchalik asarda hamma narsa maishat fonida aks ettiriladi. Kenan Yevropadan qaytgach, mashhur musiqachi sifatida diqqatni jalb etadi. Undagi hayotga bo'lgan havas dunyoga sig'maydigan

darajada kattalashadi. Muallif bu vaziyatning Kenanni o'zgartirganligini psixologik jihatdan ko'rsata oladi. 15 yoshdagi Kenan 30 yoshdagi odam ta'sirida bo'lsa, 30 yoshida esa 15 yoshdagi odam sifatida diqqatni jalb etadi. Muallif Kenanda sodir bo'lgan bu o'zgarishni ko'p marotaba ziddiyat omili shaklida mujassam etadi. Kenan chala saodatni yoqtirmagani uchun oddiy derazada qimmatbaho pardani yoki qo'pol barmoqda qimmatbaho uzukni ko'rganda ko'ngli g'ash tortadi. Uning fikricha, hamma narsa to'liq bo'lishi lozim.

Shuning uchun ham muallif "Yo butun, yo hech" falsafasi orqali Kenanning dunyoqarashidagi ziddiyatlarni to'la ko'rsata oladi, xarakterining kompleks muayyanlashtirilishini ta'minlaydi.

Kenan boy odamlarning soyasida bo'lishni hech qachon qabul qilmaydi. Shu sababli uylarda dars berib, pul topishni o'zi uchun haqorat deb biladi. Kenan qadahni oxirigacha icha olmasa, uni labga tekkizish bema'nilik deb biladi. Uning sevgiga munosabati ham shu fikrlar ta'sirida shakllanadi. Kenanning fikricha, sevgining qalbga hech qanday aloqasi yo'q. Kenan sevgining "labdan qalbga sizib, uni zaharlashiga" yo'l qo'ymaydi. Bu mantiqning davomi sifatida Kenanning Lamiyaga aytgan gapi qiziqarli eshitaladi. Bu fikrda muqoyasa tuproq va gul bilan bog'liq. Kenanning tasavvurida tuproqning lablarida gul ochiladi. Lekin u hech qachon tuproq ko'ksiga kira olmaydi. Tasavvurlarida sevgiga munosabati shunday bo'lgani uchun Kenan Lamiyaning sevgisiga bee'tibor bo'ladi. "Biz bir-birimizni sevmaymiz, ko'ngilxushlik qilyapmiz" – deb Lamiyaning qalbiga hukmronlik qilgan sevgini javobsiz qoldiradi. Muallif Kenanning muhabbatini asarda bir tomonlama ko'rsatmaydi. To'g'rirog'i, uning sevgiga munosabati to'liq emasligini tasdiqlamaydi. Kenan sevgining mukammal shaklda inson qalbiga hukmronlik qilishi mumkinligini rad etmaydi. "Qora yulduzlar" afsonasi asosida shakllangan musiqasida buning butkul tasdig'ini ko'rish mumkin. Hali tasavvurida bu o'yni asrab-avaylagan Kenan keyingi fikrlariga qarshi chiqib, asl sevgi va muhabbatni real hayotda ko'radi. Lamiya timsolida mukammal muhabbat tushunchasini qabul qiladi.

Asarning asosiy qahramonlaridan bo'lgan Lamiya o'z muhabbat "sarguzashtlari"ning qurboniga aylanadi. U asl muhabbatini Kenanda topgani uchun qallig'i Nozimni qalbidan chiqarib yuboradi. Lekin Kenan uning muhabbati qadriga yetmaydi. Lamiyaning sof muhabbat xayollarini "vaqtichog'lik" sifatida baholab, uni "javobsiz" qoldiradi. Kenan Lamiyaning nomusiga tegadi. Kenanga bo'lgan muhabbatini hech kimga aytmagan, qalbida yashirib kelgan Lamiya bu ishda uning gunohlarini yashirib, benomuslik tamg'asi bilan yashashga majbur bo'ladi. Hayoti barbod bo'lgan Lamiya mashaqqatli kunlariga qadam qo'yadi. Lekin Lamiya bunda keyin ham o'z muhabbati va iffatini asraydi. Kenan bir



paytlar uning javobsiz qolgan muhabbatiga keyinchalik javob bersa ham, Lamiya undan uzoqlashadi. Nomusiga tegmoqchi bo'lgan Rasihni o'ldiradi. Bir doktor bilan turmush quradi, bir paytlar o'zi orzu qilgan oilaga ega bo'ladi.

Rashod Nuri asarda Lamiyani begunoh inson sifatida taqdim etadi. Kenanning uni ahvolga solishining sababi o'laroq Lamiyaning tajribasizligi va sof muhabbatga ishtiyoqini ko'rsatadi. Aksincha, Kenanni o'z joniga qasd qilgani uchun uni sharafsiz o'limning qurboniga aylantiradi.

Rashod Nuri asarda hodisalarni konkret obrazlar timsolida turli ma-kon kengligida ko'rsatadu. Bu esa "Choliqushi"da bo'lganidek, ijtimoiy jarayonlar mamlakatning har tomonida bir xil vaziyatda sodir bo'lishiga ishoradir. Muallif maqsadli o'laroq asarda turli tabaqa vakillari bo'lgan obrazlar vositasida ijtimoiy muhitning barcha haqiqatlarini tasvirlab, xarakterik jihatlarni oldingi planda tutadi. Turli san'at, kasb egalari bo'lgan va turli tafakkurlarni o'zida aks ettirgan Munirbey, Vafiq posho, Soib posho, Shomiy bobo, Noil, Malak, Ne'mat xonim, Nozim, Vadodbey va boshqa obrazlar muallif qo'lida jamiyatning tipik xarakteristikasini berishda vositaga aylanadi.

Umuman olganda, Rashod Nurining roman adabiyoti mavjud hayotning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini, muhit va inson muammolarini, bu-larning o'zaro aloqa va ta'siri natijasida insonlarning tafakkur tarzini, axloqiy munosabatlarini ko'rsatadi, shuningdek, 20-50-yillar turk badiiy nasrining umumiy xarakteristikasini aks ettiradi.

## NOZIM HIKMAT

*“Nozim Hikmat dunyoni kezuvchi  
Turkiya qo‘shig‘idir.” (Aziz Nesin)*

Nazim Hikmat (Nazim Hikmat Ran<sup>6</sup>) 1902-yil 20-yanvarda hozirgi Yunonistonda joylashgan Salonikda xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Otasi Hikmatbey muayyan davrda siyosat bilan shug‘ullangan. U bir muddat Gamburgda konsul bo‘lib ishlaydi. Ittihotchilar davrida esa matbuot direktori bo‘ladi. Keyinchalik xususiy sut korxonasiga rahbarlik qiladi. O‘zi ochgan korxonada kasodga uchrab, bundan keyin u Kadiko‘yda Surayyo Posho kinoteatrining direktori bo‘lib ishlagan. Onasi Oysha Jalila xonim o‘z davrining savodli ayollaridan biri bo‘lgan.



NOZIM HIKMAT  
(1902-1963)

San‘atga, ayniqsa, rassomlikka qiziqishi katta bo‘lgan. O‘g‘lining ta‘lim-tarbiyasi bilan shaxsan o‘zi shug‘ullangan. Otasi Mehmet Nozim Posho uzoq muddat turli shaharlarda hokim bo‘lib ishlaydi. Oz bo‘lsa ham she‘rlar yozib, she‘riyat haqida bir necha asar chop etgan. Mehmet Nozim Posho Turkiyada faoliyat ko‘rsatgan Mavlono tariqatining a‘zolaridan bo‘lgan. Tariqat majlislarida faol ishtirok etgani uchun hamma uni J. Rumiyning muridi deb nomlaydi. Mehmet Nozim Poshoning hokimiyatga keskin e‘tiroz bildirgan Namiq Kamol tarafdorlari bilan yaqin munosabatlari hokimiyatning diqqatidan chetda qolmaydi. Mehmet Nozim Poshoning hukumatga qarshi odamlar bilan birlik namoyish ettirishi, albatta, Sulton Abdulhamidning ham noroziligiga olib keladi. Shuning uchun ham Mehmet Nozim Posho boshchiligida bu guruhga kiruvchilar hukumat tomonidan turli jazolarga mahkum qilinadilar.

Nozim Hikmatning shoir sifatida shakllanishida otasining katta ta‘siri bo‘lgan. Xususan, Mehmet Nozim Poshoning klassik adabiyot to‘g‘risida bergan ma‘lumotlari Nozim Hikmatning shoirlik taqdirida muhim rol o‘ynaydi. Nozim Hikmat 1918-yilda Istanbul Harbiy dengizchilik maktabiga kiradi. Turkiyaning xorijiy kuchlar tomonidan ishg‘olini yomonlab she‘r yozgani uchun 1919-yilda maktabdan haydaladi. Maktabdan hay-

<sup>6</sup> 1934-yilda Turkiyada qonun bilan tartibga solingan familiya masalasi ko‘tarilganda Nazim Hikmat familiyasini Ran deb qabul qiladi. Boshqa ma‘lumotga ko‘ra, Nozim Hikmat tanlagan bu familiya kommunistlarning qizil rang simvoliga mos ravishda “nor” (“nar”) so‘zining teskarisidir.

dalgach, armiyaga borib, vatanni himoya qilishdan faxrlanadi. 1920-yilda vatan ozodligi uchun yozgan "Yoshlik" nomli she'ri yoshlarni vatan yo'lida kurashga chorlaydi. Nozim Hikmat 1920-yilda Onado'liga kelib, bir yil u yerda yashagach, 1921-yilda maxfiy ravishda do'sti Vala Nuriddin bilan Sovet Rossiyasiga qochib ketadi. U kema bilan Batumiga borib, u yerdan poyezd bilan Moskvaga boradi. Nozim Hikmat ketayotgan Batumi-Moskva poyezdi soat oltida Boku vokzalida to'xtaydi. Nozim Hikmatning 1921-yilda Bokuga ilk bor borganini ta'kidlovchi olimlar shu faktga tayanishadi. Nozim Hikmatning Moskvada tanishib, uylangan Nusxat xonim xotiralarida shoirning 1923-yilda qisqa muddatga yana Bokuga borganligi haqida aytib o'tiladi. U 1922-1924-yillarda Moskva Sharq Mehnatkashlarining Kommunist universitetida o'qiydi. 1924-yilda Rossiyada tahsilini tamomlab, Turkiyaga qaytadi, u yerda "O'roq-bolg'a" va "Oydinlik" matbuot organlarida kommunist ideologiyasini yoygani uchun 1925-yilda 15 yilga ozodlikdan mahrum qilinadi. Nozim Hikmat 1927-yilda yashirincha Sovet Ittifoqiga qochadi. U 1928-yilda Sovet Ittifoqida o'zini erkin his qilgani uchun Bokuga keladi. Uning "Quyoshni ichganlar qo'shig'i" nomli ilk she'rlar kitobi 1928-yilda Bokuda chop etiladi. Bundan keyin Nozim Hikmatning ketma-ket chop etilgan "835 satr" (1929), "Varan-3" (1930), "1+1=1" (1930), "Ovozini yo'qotgan shahar" (1930), "Tunda kelgan telegraf" (1932), "Taranta Babuga maktublar" (1935), "Portretlar" (1935) va b. kitoblari o'quvchilar tomonidan yaxshi kutib olinadi. 1932-yilda Nozim Hikmat kommunist ideologiyasini targ'ib qilgani uchun 5 yilga ozodlikdan mahrum qilinadi. Lekin bir yildan so'ng amnistiya akti imzolanishi tufayli ozodlikka chiqadi. Tirikligida Nozim Hikmatning "Shayx Badriddin dostoni" nomli so'nggi kitobi 1936-yilda o'z vatanida nashrdan chiqadi. Uning Turkiyada kommunizm ideologiyasining targ'ibotchisiga aylanishi va tarafdorlarining kun sayin ortishi hukmron idoralarning bezovtaligiga sabab bo'ldi. Shuning uchun 1938-yilda Nozim Hikmat hech qanday dalil-isbotsiz 28 yilga qamaladi. Qamoqdaligida "Inson manzaralari" epopeyasini, "Qamoqxonadan maktublar" seriyasini, "Muhabbat afsonasi" (A. Malikov bu asar asosida shu nomdagi mashhur baletini yozgan), "Yusuf va Zulayho" pyesalarini va b. asarlarini yozadi. U 1950-yilda xalqaro jamiyat talabi bilan qamoqdan ozod bo'ladi. Nozim Hikmat 1951-yilda Sovet Ittifoqiga boradi va umrining oxirigacha bu mamlakatda yashaydi. Nozim Hikmat 1951-yilda Umumjahon Tinchlik Kengashiga a'zo bo'lishi uning xalqaro tadbirlarda ishtirok etishiga zamin yaratadi. Shubhasiz, Nozim Hikmat bu tadbirlarda kommunist sifatida nutq so'zlagan. Chunki u o'z xalqining, o'z mamlakatning emas, balki butun insoniyatning xalosini kommunizm yo'lidan borishda ko'rardi. Nozim Hikmat uchun kommunizm siyosiy aqidadan ko'ra ko'proq diniy aqidaga aylangan edi. Shuning uchun

ham bu aqida umrining oxirigacha Nozim Hikmat ruhiga hukmronlik qiladi. Shoirning Ozarbayjonga navbatdagi tashrifi 1957-yilga to'g'ri keladi. Bu safar vaqtida u Boku va Ganja shaharlarida bo'ladi. Albatta, bu Nozim Hikmatning Ozarbayjonga so'nggi safari bo'lmagan. U 1958-yil oktyabr oyida O'zbekistonga ketayotganda, Bokuda to'xtab, Boku Davlat universitetida u bilan uchrashuv tashkillashtirilgan tadbirda ishtirok etadi. Bundan tashqari Nozim Hikmat 1958-yilda M.Fuzuliy, 1960-yilda J.Jabborli, 1962-yil may oyida M.A. Sobir, 1962-yil noyabr oyida M.F. Oxundov nomiga o'tkazilgan tadbirlarda ishtirok etish uchun Boku shahriga boradi. Nozim Hikmatning Ozarbayjon sevgisi juda kuchli bo'lgan. U Ozarbayjonning ko'plab taniqli shoir, yozuvchi, olim, bastakor va rassomlari bilan ijodiy aloqada bo'lgan. XX asr turk poeziyasining yirik vakili bo'lgan Nozim Hikmat 1963-yil 3-iyunda Moskvada yurak xuruji-dan vafot etadi. U Onado'lidagi qishloq qabristonda dafn etilishini, qabr boshiga chinor daraxti ekilishini vasiyat qilsa ham, Moskvada Chexov, Gogol va boshqa mashhurlarning qabri bo'lgan Novi Devichi qabristoniga dafn etiladi.

## IJODI

Nozim Hikmat XX asr Turkiya adabiyotida o'lmas san'at asarlari yaratgan shoir, nosir, dramaturg sifatida tanilgan. Lekin poeziya Nozim Hikmat ijodining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Nozim Hikmat shoir sifatida ilk misralarini bolaligida yozgan. Ushbu misralarni yozilishi haqida Nozim Hikmatning xolasi Sara xonim o'z xotiralarida shunday deb yozadi: "Istanbuldagi katta yong'inni yuqoridan tomosha qilar ekan, Nozim birdan hayajonlanib, narvondan chiqib-tusha boshlaydi va qichqirib bu misrani takrorlaydi: Yonmoqda! Yonmoqda!.. Go'zal tarrakalar...". 1918-yilda "Yangi majmua" jurnalida chop etilgan "Sarvliklarda" nomli she'r uning poeziya sohasidagi ikkinchi qalam tajribasidir:

*Bir oh-fig'on eshitdim sarvliklarda  
Dedim bu yerda ham yig'lagan bormi?  
Yoki bir o'zi bu xilvat joyda  
Sobiq suyuklini eslagan shamolni?*

*So'zlarga tushar ekan qora pardalar,  
Umidda edim, ortiq marhumilar kular.  
Yoki hayotida sevgan murdalar,  
Hamon sarvlarda yig'laydilar mi?*

Ijodining ilk bosqichida Yahyo Kamol, Faruk Nofiz, Yusuf Ziyoy, O'rxon

Sayfi kabi taniqli shoirlar bilan yaqin munosabatda bo'ladi. 1920-yilda "Olamdor" gazetasi o'tkazgan musobaqada birinchi o'rinni egallashi she'rga bo'lgan ishtiyoqini orttiradi. Nozim Hikmat poeziyada yangilik tarafdori bo'lib, bir shoir sifatida zimmasidagi ishni amalga oshira olgan. Hamma narsadan avval u vazn va qofiya chegaralarini oshib o'tib, sarbast she'rning eng go'zal namunalarini yarata oldi. U san'atda an'anani doimo yuksak baholagan. Lekin Nozim Hikmat sinalgan, tajribadan o'tgan yo'ning takrorlanishiga qarshi bo'lgan, farqli uslublarga ustunlik beradi. Uning fikricha, uzluksiz yangi "yo'llar" kashf qilmay, poeziyani takomillashtirish, uni boyitishning iloji yo'q. Nozim Hikmatning Jumhuriyat davri buyuk shoiri Najib Fozil Kisakurakka (1905–1983) murojaatida bu mantiqning tasdig'ini ko'rish mumkin: "Sen eskisan, lekin eskining yaxshisidan, men yangiman, ammo yangining yomoniman. Shuni bilki, men uchun yangining yomoni bo'lish eskining yaxshisi bo'lishdan ming marta afzal".

Nozim Hikmat Sharq klassikasini yaxshi bilar, unga hurmat bilan yondashar edi. Faqat Nozim Hikmat devon she'ri to'g'risida bobosining fikrlaridan ko'ra ko'proq fransuz inqilobchilari to'g'risida onasidan eshitganlariga va Lamartining she'rlariga e'tibor bergan. Ehtimol, shoir lirikasida G'arb mohiyati ustunligining bir sababi ham shu bilan bog'liq. Bu fikr Nozim Hikmatning ilk she'rlarini "Sarvati funun"chilarning, shu jumladan, Tavfiq Fikratning ta'siri bilan yozishida ham o'z tasdig'ini topadi. Nozim Hikmat poeziyasi o'ziga xos sifatlari bilan ajralib turuvchi betakror adabiyot yo'lidir. Nozim Hikmat fikricha, shoir o'z xalqining ovozi bo'lishi lozim. Uning san'ati bilan tanishganda bu fikrning haqiqiylikini tom ma'noda ko'rishimiz mumkin. Qizig'i shundaki, shoir o'z poeziyasini ildizi yurt tuproqlarining tubiga, novdalari cheksiz dunyoga quchoq ochgan bahaybat daraxtga o'xshatadi. Haqiqatning tasvir, tarannum va aksining mohiyatda bo'lish talabi Nozim Hikmat san'ati uchun muhim jihatlardan biridir. Istanbul adabiy jurnallardan biriga bergan intervyusida shunday deydi: "Men poeziyada realizm uchun talpinaman. Realizm tafsiloti bilan o'tmishning harakatini bugunga, bugunlikni esa kelajakka yetkazish mumkin". Lekin shoir bu masalada o'zini tanqid qilib, bir qancha asarlarida realizmning bir tomonlama ekanligini va buning natijasida hodisalarni shov-shuvli targ'ibot bilan tasvirlaganini ta'kidlaydi. Shunga qaramay 1951-yilda Pablo Neruda Nozim Hikmat to'g'risida shunday deydi: "Uning poeziyasi ulkan, jo'shib oquvchi daryoga o'xshaydi. Ammo bu po'lat oqim kabi kurashga shoshiladi". Aslida Nozim Hikmat poeziyasidagi kurash bugunga va kelajakka munosabatda shoir tasavvurida paydo bo'lgan (G'arb adabiy yondashuv tushunchasidagi utopiya) yangi yo'nalish – romantik uslubdir. Yangi shakl va mavzuga yangi munosabat Nozim Hikmat poeziyasining o'ziga xos

xususiyatlaridan biridir. Shoir qaysi mavzuda yozishi, qaysi masalaga to'xtalishidan qat'i nazar, avvalo, inson-fuqaro nuqtayi nazaridan yondashadi. Xoh ijtimoiy-siyosiy, xoh muhabbat, xoh tabiat tasviri, xoh falsafiy mazmundagi she'rilarida nuqtayi nazari o'zgarmaydi, o'ziga xos munosabatlarida g'ayritabiiy poetik ifoda o'ziga maftun etadi.

Nozim Hikmat ruhining tamalida tarixga, o'tmishga, ma'naviy qadriyatlarga bog'liqlik, diqqat va hurmat yotadi.

*Xo'p uzoqlardan kelyapmiz,  
xo'p uzoqlardan...  
Quloqlarimizda hamon  
chaqmoqli sasi bor cho'zma toshlarning.  
O'rmonlarda asov ayg'irlar kishnagan  
tog' boshlarining  
qonli hayvon suyaklari bilan o'ralgan chegaralari  
biz kelgan yo'lning uchidir.*

U o'tmishning "muqaddas xarobazorlarini" g'ururimizning, iftixorimizning solnomasi deb hisoblashda adashmaydi.

*Yo'lchi, Sharqqa esa yo'ling, unda sen  
Har toshi muqaddas xarobaga boq!  
U yerda so'nggi tomchi qonini to'kkan  
Yarador yigitlar jang qilar har chog'.*

Nozim Hikmat xarakter jihatdan kurashuvchan inson bo'lgan. U ozodlikni, haqiqatni, tenglikni nafaqat sevgan, balki uni qo'lidagi qurolga, mash'alaga aylantirib, bayroqdek hilpiratadi va yirik maydonlarda haqiqatni targ'ib etishdan ham chekinmagan. Shu sababli Nozim Hikmatni inqilob shoiri deb atash mumkin. U 1930-yilda yozgan "O'n to'qqiz yoshim" nomli she'rida shunday deydi:

*Men  
Yana aytaman ayni nag'malarni...  
Aylantirmadi shamol meni havoda yaproqqa,  
Men oldim yonimga shamollarni...*

Lekin Nozim Hikmat "bir gul bilan bahor bo'lmas" g'oyasi orqali barcha insonlarni kurashga chorlar edi. U ozodlik hammaning huquqi bo'lsa, kurash hammaning burchi deb biladi. Nozim Hikmat "dardi ko'p, hamdardi oz dunyoda" barchaga xitob qiladi:

*Men yonmasam,  
sen yonmasang,  
biz yonmasak,  
qanday  
chiqar  
zimistonlar  
oydinlikka.*

*(“Karam kabi”, 1930)*

Nozim Hikmatni hech qanday surgun, ta'qib, qamoqxonadagi hayot, qiynoq va b. o'zgartira olmaydi. Aksincha, bu kabi mashaqqatlar uning qat'iyatini orttiradi.

“Quyoshni ichganlar qo'shig'i” (1928) she'ridagi shoirning lirik-falsafiy, siyosiy fikrlarining aksi diqqatni jalb etadi. Bu yerda hayotni o'zgartirishga uringan, kurashdan boshqa yo'lni bilmaydigan, o'lim yuziga tik boqqan insonlarning pafosli xitoblari haq ovozidek eshutiladi. Bu insonlar oddiy odam emas. Ular “yuragining suratini tuproqlardan olgan”, “chaqmoq shamollarga mingan”, dunyoni tubidan o'zgartirishga qodir bo'lgan asl qahramonlardir.

*Oqim bor,  
Quyoshga oqim!  
Quyoshni zabt etamiz,  
Quyoshning zabti yaqin  
Tushmasin biz bilan yo'lga  
uyida yig'laganlarning  
ko'z yoshlarini  
bo'ynida og'ir bir  
zanjirdek tashiganlar.  
Kelmasin ortimizdan  
o'z qalbining qobig'ida yashaganlar.*

Nozim Hikmatning “U yerda tanishganlarim” (1928) she'rida qiziqarli maqom diqqatni jalb etadi. Inqilob va kurash deb nomlangan Nozim Hikmat qafasdagi sariq bulbulning tili bilan o'z orzularini butkul boshqa mavqedan bayon etadi:

*Istardimki men  
qo'shiqlarimni kuylasinlar  
qo'l ushlab qaytar ekan  
bolalar bog'chasida bolalarimiz...*



***Istardimki men  
bir kitob bekchisi bo'lardim...  
Derazasi quyoshli bir kitob  
uyida.***

Lekin bu romantik tuyg'u shoirdagi inqilob pafosiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Nozim Hikmat bir yildan so'ng, ya'ni 1929-yilda yozgan "Yer yuzida inson" she'rida shunday deydi:

***Bilib qo'ying men uchun hayratliroq,  
g'ayratliroq  
sehrliroq va buyukdir.  
Yo'li ustida turgan  
Oyog'iga zanjir urilgan Inson!***

Insonlarning yangi dunyo orzulariga yetishini kurashda ko'rgan shoir bir qator she'rlarida "ko'hna dunyo" deb nomlagan suiiste'molchi jamiyatni tanqid etib, uning mahv bo'lishga mahkum ekanligini bildiradi:

***Ko'hna dunyo, yangi dunyo oldida egil  
Oramizdan necha yo'ldosh ayirmoq emas,  
Har ne qilsang yetamiz  
amalimizga.***

***("O'n beshlar", 1922)***

Nozim Hikmat kommunist partiyasining a'zosi va targ'ibotchisi bo'lgan. U doim Turkiya, Sovet Ittifoqi va xalqaro kommunist harakati namoyandalari bilan hamkor bo'lib, birga faoliyat ko'rsatadi. Shu sababli u vatani Turkiyada ta'qibga duchor bo'lib, vatan xoini sifatida ayblanadi. Tirikligida ham, o'limidan keyin taxminan 2001-yilgacha bu ayblovlar Turkiyada Nozim Hikmatning ijodiga ham, shaxsiyatiga ham soya soladi. Lekin Nozim Hikmatning kommunist harakatiga bog'liqligi hech qachon antimilliy xarakterda bo'lmagan. Nozim Hikmatda Turkiya sevgisi, milliy ruh va milliy g'urur tuyg'usi yuksak edi. Shoir she'rlarining birida Turkiya haqida shunday deydi:

***Mamlakatlar ichida bir shirin mamlakatdir  
Turkiya, bizning mamlakat.***

***("Mehmetga so'nggi maktubim", 1954)***

Nozim Hikmatning "dunyoning eng go'zal insonlaridan bo'lgan turk xalqini va dunyoning go'zal tillaridan biri, hatto eng ustuni bo'lgan

turk tilini begona diyorlarda tanilishiga sababchi bo'lish hayotimdagi eng katta quvonchi va iftixori bo'ladi" deyishi tasodif emas. Nozim Hikmatning o'z vatani ozodligi, millatining baxtiyor kelajagi to'g'risidagi o'ylari bilan xalqaro kommunist harakatining dunyo xalqlarini yorug' kunlar olib chiqish uchun bergan va'dalari o'rtasidagi o'xshashlik unga kommunist bo'lishida turtki bo'lgan. Uning kommunistik siyosiy aqidasi deyarli diniy aqida rolini o'ynardi. Shuning uchun Nozim Hikmat talonchilik, zulm dunyosiga qarshi kurashishga chorlashining ohangi tabiiy ko'rinadi. Biz shoirni doimo vatanparvarlik yo'lida birlashgan xaloyiqning boshida ko'ramiz, uning g'oyasiga bo'lgan ishonch va sadoqatining guvohiga aylanamiz:

*Yana biz qullarmiz, og'amiz, bekimiz bor!  
Yana har mal'un toshi yo'sinlashgan bir devor...  
Og'alari ishlatar, asir ishlaydi yana  
Yana og'alarining kumush dasturxonidan  
Oppoq nonidan, sharob to'la tosidan  
Hatto non ushog'i ham tushmaydi ishlaganga!  
Afandilar, og'alar, avliyolar, rohiblar,  
Abadiy zimistoning bo'g'ilsin qo'llarida!  
Ortiq pok ruhlarning yorqin yo'llarida  
Sodda din, bir qonun, bir haq: ishlagan tishlar!*

Bu ishonch shoirning umri oxirigacha davom etib, ijodida alohida iz qoldirgan. Nozim Hikmat "Komsomol" (1920), "Lahutinning "Kreml" kitobiga muqaddima" (1923), "1923-yil Olmoniya inqilobini kutayotganda" (1923), "Sharqlik va SSSR" (1925), "Pol Robsonga" (1949), "Kommunistlarga bir-ikki so'z" (1956), "Lenin bilan (1960), "Lenin to'g'risida Vladimir Ilich bilan suhbat" (1960) va boshqa she'rlarida nafaqat siyosiy qarashlari, balki o'zining milliy-bashariy orzu va g'oyalarini ham sanab o'tadi.

Nozim Hikmat ijodidagi vatan mavzusi keng bo'lib, u betakror obrazdir. Bu obraz har qanday vaziyatda ham konkret hisoblanadi. Turkiyaning dengizi, ko'li, daryosi, shahar va qishloqlari, o'rmonlari va h. Vatan obrazining atributlari shaklida muhabbat bilan tarannum etiladi:

*Nomusli, mehnatkash, faqir insonlarning shahri –  
mehribon Istanbulim.  
Sevgilim, sening makoning bo'lgan  
va qayerga surgun etilsam, qaysi  
qamoqda yotsam sirtimda,  
xaltam ichida olib ketganim*

*va farzand dog'i kabi yuragimda,  
sening xayoling kabi ko'zlarimda tashigan shahar...*  
(*"Maktub"*, 1945)

She'ra Istanbul nomusli, mehnatkash insonlarning shahri sifatida madh etiladi. Shoir ozodlikda, surgunda yoki qamoqxonada bo'lishiga qaramay, qalbdagi muhabbatini Istanbuldan ayamaydi, uning xayoli bilan yashaydi, uni ko'rishga talpinadi. Istanbul muhabbatining mohiyatida vatan turadi. Chunki Istanbulga sevgi va muhabbati juda kuchli bo'lgani sababli u shaharga sig'maydi, Istanbul chegaralaridan toshib chiquvchi bu muhabbat vatanning boshqa tuproqlariga ham yetib boradi.

"Da'vat" (1947) she'rida turk ellarining xaritasi jonlantiriladi va Osiyodan Oqdengizgacha bo'lgan bu tuproqlarni ipak gilamga, xarita ko'rinishini esa otga o'xshatuvchi shoir o'z mamlakatining bugunini himoya qilganidek, uning o'tmishini ham asrab-avaylaydi. O'tmishdan bugungacha bo'lgan tarixi, bahs-munozaralarini, muvaffaqiyat va saodatini o'z taqdiri deb hisoblaydi:

*Ot ustida kelib uzoq Osiyodan  
Oq dengizga bir biyaboshi kabi cho'zilgan  
Bu mamlakat bizniki!  
Bilaklar qon ichida, tishlar qulfi, oyoqlar yalang  
va ipak gilamga o'xshagan tuproq,  
bu jahannam, bu jannat bizniki!*

Nozim Hikmat katta g'oyalar shoiridir. Orzusi katta, umidi so'ngsiz, sevgisi jo'shqin bo'lgan shoir "oq yelkanli kemalarda oydin ufqlarga" borishni insoniyat uchun muhim deb hisoblaydi. Chunki Nozim Hikmat hayot bilan o'lim chegarasida to'siq ko'rmaydi. O'z orzulari nurida hasratga nuqta qo'yib, orzusiga erishishning romantik ifodasini quyidagicha taqdim etadi:

*Dengizga qaytmoq istayman  
Moviy oynasida suvlarning:  
Palak yozib ko'rinmoq istayman!  
Men suvlarda cho'kkan nur kabi  
Suvlarda so'nmoq istayman!  
Dengizga qaytmoq istayman!  
Dengizga qaytmoq istayman!  
(*"Hasrat"*, 1927)*

Nozim Hikmatning romantikasi o'ziga xos bo'lgan his va tuyg'ular

izhorida yangi sifatga erishadi. Sevgi va hasratning lirik-psixologik mohiyati Nozim Hikmat romantikasida yangi poetik ko'rsatkichga aylanadi:

Men yong'oq daraxtiman Gulxona parkida Yaproqlarim suvda baliq kabi jimir-jimir Yaproqlarim ipak dastmol kabi yalt-yalt yonar Yulib olib, gulim, ko'zlaringni yoshini art. Yaproqlarim qo'llarimdir, yuz mingta qo'lim bor.

*Yuz ming qo'l ila tegaman senga, Istanbulga,  
Yaproqlarim ko'zlarimdir, boqaman hayrat ila  
Yuz ming ko'z ila boqaman senga, Istanbulga,  
Yuz ming yurak kabi tuk-tuk urar yaproqlarim.  
Men yong'oq daraxtiman Gulxona parkida,  
Na sen buni bilasan, na politsiya bilar.*

*(“Yong'oq daraxti”, 1957)*

She'rda ildizi tuproqni quchgan, novdalari bulutlarga yetgan, Gulxona parkida salobati bilan ajralib turuvchi, lekin hech kim sezmagani katta Yong'oq daraxti vatanparvar insonning – shoirning Istanbul esa hasrat, muhabbat, vatan timsolidir. She'r Nozim Hikmatning Turkiya hasratini ifodalash jihatidan o'ziga xos xususiyatga ega. Shoir 7 yil avval ayrilib, qayta ko'ra olmaydigan vatanini Istanbul siymosida tomosha qiladi. Lekin shoir bu yerda umumiyashtirib, o'zi bilan birga, yuz minglab insonning hasrati va muhabbatini ifodalaydi. She'rda tasvirlangan daraxt oddiy daraxt emas. Bu daraxt yaproqlarining soni qadar – yuz ming qo'li, yuz mingta ko'zi, yuz mingta yuragi bo'lgan daraxt (inson)dir. Bu daraxt (inson) yuz ming qo'li bilan Istanbulga tegadi, yuz ming ko'zi bilan Istanbulni tomosha qiladi, yuz ming yuragi bilan Istanbul uchun uradi. Bu yo'l bilan u sog'inch yaralariga malham qo'yadi, visoliga yetadi, “sevgilising” ko'z yoshlarini artadi, bag'riga bosadi. Lekin buni asta bajargani uchun hech kim sezmaydi. Chunki shoir bu yerda g'olib obrazda o'zini namoyon qiladi. Mavjud rejim uning orzulari oldida g'ov bo'lsa ham, shoirning vatanga muhabbatini jilovlay olmaydi.

Nozim Hikmat poeziyasida muhabbatning mohiyati bashariyatga, insonga, ayolga, tabiatga va h. bo'lgan nozik tuyg'ulari ifodasida ochiladi. Nozim Hikmat “enini, bo'yini har qarichigacha sevgan” dunyoning barcha xalqlariga mehr qo'yadi. U hech bir dinni va irqni ajratmay, inson zotiga qalbidan joy bera oladi. “Dunyo, do'stlarim, dushmanlarim, sen va tuproq”, “Osiyo-Afrika yozuvchilariga”, “Shvetsariya tog'lari”, “Pragada may” va b. she'rlarida Nozim Hikmat dunyoga, insoniyatga bo'lgan muhabbatini namoyish etadi. U qalbida chuqur qazib, himoya qilgan, yuragidan yulib uloqtira olmagan vatani haqidagi she'rlarini jamlasak, vatanni o'zining taqdiri, tarjimayi holi, g'ururi deb bilganiga guvoh bo'lamiz. Mamlakatini umr yo'li, sochlarining oqi, peshonasidagi ajin, yurak xuruji

deb tavsiflagan shoirning sodda tili va samimiyligi shubha tug'dirmaydi:

***Sen endi qolgansan faqat  
Sochlarimning oqida, yuragim xurujida.  
Peshonamdagi ajindasan, mamlakatim!  
Mamlakatim, mamlakatim!***

Nozim Hikmat she'rlaridagi sevgan ayoliga bo'lgan muhabbati shoirning pok tuyg'ulari, samimiy hislarining nishonasidir. Bu she'rlarni o'qigan o'quvchilarning ko'z oldida dunyoning eng go'zal manzarasi jonlanadi:

***Sen ey, dildorim mening,  
toza yurakli, tilla rangli.  
Ko'zlari boldan totli arim mening.***  
(*"Ayolimga maktub"*, 1933)

Bu she'rning 1933-yilda Bursa qamoqxonasida turmush o'rtog'iga atab yozganini hisobga olsak, shoirning eng og'ir sharoitda, ruhiy mashaqqatlarda ham jozibador tuyg'ularidan voz kechmaganiga guvoh bo'lamiz. "Sensiz Parij" (1958) she'rida sensizlik yaratgan assotsiativ tuyg'ularning qiziqarli ta'siriga duch kelamiz. Jami 7 misradan iborat bo'lgan she'rda biz Parijni kezgan shoirning ichki kechinmalari bilan tanishamiz. Shoir uchun sevgan insoni hammadan go'zal, shu sababli ham go'zalliklar shahri Parijda hech nima e'tiborini jalb eta olmaydi. Aksincha, uni bezovta qilib, qalbida g'amni uyg'otadi:

***Sensiz Parij, gulim,  
Bir havo mushagidir.  
Bir quruq shovqindir, qayg'uli buloq.  
Yoqdi, ado qildi meni Parijda to'xtab,  
dam olmay Seni chaqirmoq.***

Nozim Hikmat lirikasida g'ayrioddiy poetik sentimentalizm kuzatiladi. Uning "men"i doim bezovtadir. Bu bezovtalikni tug'diruvchi sabablar esa turlicha hisoblanadi. "Qalbim" (1948), "Dunyoning eng bechora maxluqi" (1949), "Vasiyat" (1953), "Mehmetga so'nggi maktubim" (1954), "Mehmet" (1957), "So'nggi avtobus" (1957), "Munavvarga maktub yozib, aytdim-ki:" (1957) va h. she'rlaridagi emotsional "yuk" manbayini aniqlashda qiynalmaydi. Nozim Hikmat hayotda bo'lganidek she'rlarida ham naqadar bezovta bo'lsa, g'oyasiga ham shunchalar sodiqdir. "Tushlar o'lkasida o'lishni" sharaf deb bilgan shoirning quyidagi misralarida bu fikr o'z tasdig'ini topadi:

*Men meni yana bir bor qo'lga tushirsam  
...Men bu xonaga yana bir bor kirsam  
Yashardim yana shunday qo'rquv, dahshat ichida.*  
(“Men meni”, 1949)

Nozim Hikmatda haqiqatni yangi poetik tafakkur bilan tasavvur qilish imkoni katta bo'lib, uning she'rlaridagi poetik ko'rinishi yangi bo'lgan obrazlar va assotsiatsiyalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun ham Nozim Hikmatda ma'noning o'ziga xos shakl va so'z imkonlarida berilishi izchil xarakterga ega:

Men do'stlarning ko'zida o'zimni Bo'lganimcha ko'raman... (“Vido”, 1931)

*Kulding,  
Gullar ochildi derazmning panjarasida, Yig'lading,  
Hovuchlarimga to'kildi marjonlar.*  
(“Xush kelibsan”, 1949)

Yoki

*Yuksakdaman  
Uzoqlashar tubsiz-bepoyon ayriliqda  
Bir sol kabi yuragim.  
Ketar xotiralar ortiga  
Yulduzsiz, og'ir dengizgacha  
Tim qora zimistonda.*  
(“Kecha vaqti Boku”, 1960)

Nozim Hikmat qayerda yashashiga qaramay, Ozarbayjonga mehr qo'yib, unga chin dildan bog'langan edi. Albatta, bu ham besabab bo'lmagan. Avvalo, Ozarbayjon Nozim Hikmat uchun qadimiy turk yurti va turk ruhini asrab-avaylovchi insonlar yashagan muqaddas makon edi. Shoir “Bokuga ketaman” she'rida Ozarbayjonga bo'lgan samimiy tuyg'ularini quyidagicha ifodalaydi:

*Bokuga boraman, ey bolam,  
Boku-Asli, men – Karam.  
Boku yoshligim demak,  
Do'st qo'liga omonat etganim yurak.*

Nozim Hikmatning “Neft tomon” nomli she'rining mavzusi ham Ozarbayjon haqida bo'lib, unda bir qator tabiat manzaralari timsolida Boku obrazi o'z aksini topadi:

*O'ylovchi miyasi Moskva bo'lsa o'lkamizning,  
Toza qon tarqatgan qalbidir Boku!  
Iliq va oydinlik bir janub kechasi...  
Havolarda yirik toshli billur qandillar yonar...  
Har donasi ichidan porlagan  
Shaffof uzum shodalari silkinadi havolardan...*

Nozim Hikmat epik poeziyasi ko'proq ijtimoiy-siyosiy xususiyatga ega. "Jakonda va Si-ya-u", "Inson manzaralari", "Istiqlol da'vosi dostonidan", "Moskva simfoniyasi", "Zoya" va b. poemalarida muammoga obyektiv yondashuv va munosabat insonni hodisalardan to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi, keng poetik manzaralarda hayotning ijtimoiy-siyosiy manzarasi o'z aksini topadi.

Nozim Hikmatning dramaturgiyasi o'zining g'oya-mazmun kengligi va san'at sifati bilan ajralib turadi. Uning "O'choq boshida", "Toshyurak", "Piramida", "28-yanvar", "Kuch bizda" nomli ilk sahna asarlarida dramaturgiyaning zaifligi kuzatilsa ham, g'oyaning turfa xilligi, mavzuning hayotga aloqasi va b. masalalar ahamiyatli sanaladi. Nozim Hikmat dramaturg bo'lib shakllanishida xalq tomoshalarining, rus va Yevropa dramaturgiya an'alarining ta'siri katta bo'lgan. Masalan, uning "O'choq boshida" nomli ilk pyesasi Avstriya teatr truppasining Istanbulga gastroli vaqtidagi taassurotlari natijasida yozilgan. "Kuch bizda" pyesasida Istanbul zavodlarining birida ishlagan insonlarning turklar birligi va baxti yo'lida olib borgan kurashlari diqqatni jalb etadi.

"Kalla" asarida jamiyat jirkanchliklariga qarshi keskin e'tiroz va kurashga chorlov asosiy o'rin egallaydi. Ilk variantida "Tovar" deb nomlangan bu asar qayta ishlanib, "Kalla" nomi bilan chop etiladi. Asarda hodisalar "Dollaryan" shartli nomi bilan taqdim etilgan shaharda sodir bo'ladi. Drama asarida hamma narsa pulga bog'liq bo'lgan, hatto vijdon ham olib-sotilgan bu shaharda Dalbanezo siymosida nomusli insonlarning fojiasi tasvirlanadi. Nomusli inson sifatida faqat Dalbanezo emas, insoniy sifatlari bilan ajralib turuvchi Pedro ham shu qatorda turadi. Dalbanezoning kasbi doktor bo'lib, u sil kasalligi bilan og'riq qizining hayotini saqlab qolish uchun dori tayyorlamochi bo'ladi. Uning nafaqat qizi, balki barcha insonlarni qutqarishi mumkin bo'lgan silga qarshi dori haqida matbuotda tarqalgan axborot shov-shuvga sabab bo'ladi. Silni davolovchi sanatoriyalar jamiyatining a'zolari Vilyams va Paolino yolg'on va'dalar berib, Dalbanezoni dori tayyorlash uchun hamma sharoiti bo'lgan laboratoriyaga taklif qilishadi. Lekin dori tayyor bo'lishiga oz qolganda, vijdonini sotgan bu ikki odam dorini yo'q qilib, shartnomadagi shartlarini buzdi degan tuhmat bilan Dalbanezoni qamattiradilar. Dori topilmagani sababli uning qizi vafot etadi. Dalbanezo qamoq-



dan chiqqach, qashshoqlikda yashaydi va bir muddatdan so'ng olamdan o'tadi. Pulga qaram bo'lgan jamiyat a'zolari Dalbanezoning murdasidan ham tovar sifatida foydalanib, uning kallasini sotishadi. Asar jamiyat nuqsonlarining tanqidi va bu jamiyatga qarshi kurash g'oyasi targ'ibi jihatdan ajralib turadi.

Nozim Hikmatning 1935-yilda qalamga olgan "Shuhrat yoxud unutilgan odam" pyesasida "Kalla" asarida ko'rsatilgan muammo boshqacha talqin qilinadi. Qayd etish lozimki, bu asar keyingi nashrlarda "Unutilgan odam" nomi bilan chop etilgan. Professor, doktor, assistent, fotograf, xizmatchi va b. obrazlar ishtirok etgan bu asarda shuhrat kasalligi-ga yo'liqqan insonlarning achinarli qismati umumbashariy fojia o'laroq taqdim etiladi. Asarning asosiy obrazi bo'lgan jarroh o'z shuhrati uchun har qanday qadam tashlashga, hamma narsaga ko'z yumishga tayyor. U shuhratini asrab qolish uchun yosh ayolining o'z yordamchisi bilan yashirinchu uchrashib yurishiga ham ko'z yumadi, qizining bu uchrashuvdan xabardor ekanligiga ham parvo qilmaydi. Agar ayolining xiyonati jamiyat orasida tarqalsa, shuhratini yo'qotishdan qo'rqadi. Jamiyatda shuhratga erishgan jarroh har oqshom gazetalarda o'zi haqida yozilgan maqollarni ko'zdan kechiradi, undan faxrlanadi. Lekin vaqti kelib, jarroh bu haqida o'ylashga majbur bo'ladi. Chunki tasodifan gazetadagi "Unutilgan odamlar kutubxonasi" nomli hikoyani o'qiydi va hikoyadagi shuhratidan ayrilgan sartarosh, sportchi va qariya hayotidan qattiq tashvishga tushadi. Bu sahnada muallif uning shuhrat to'g'risidagi ziddiyatli, bir tomonlama qarashlarini izohlaydi. U erishilgan shuhratdan bir soniyada ajralib qolish hech gap emasligini tushunadi. Bu qo'rquv uni shuhratini asrab qolish uchun har narsaga qo'l urishga majbur qiladi. U nikohsiz homilador bo'lgan qizini o'z shuhrati yo'lidagi g'ov deb biladi va odamlar xabar topmay, jarrohlik yo'li bilan qizining bolasini yo'q qilmoqchi bo'ladi. Operatsiya vaqti qizi o'lgani uchun jarroh qamoqqa olinadi. Qamoqdan chiqqach, jarrohga jamiyatda joy topilmaydi. Chunki jamiyatning insonga bo'lgan munosabatida anormallik hukmron edi. Bu jamiyatda insonlarni iste'dodi uchun emas, lavozimi, moddiy imkoniyati va shu kabi jihatlari uchun hurmat qilinadi. Asarda muallif jarrohni xayrixoh va insonparvar shaxs sifatida tasvirlaydi. Masalan, N.Hikmat asarda jarrohning hech kimi yo'q, moddiy imkoni yo'q ayolning ko'r bolasini pulsiz davolashi va unga g'amxo'rlik qilishi sahnalarida bu insonning ko'p qirrali shaxs ekanligini namoyon qiladi.

"Yusuf va Zulayho" pyesasi mavzusi diniy afsonadan olingan. Asarning yozilish sanasi 1950-yil deb taxmin qilinadi. Chunki Nozim Hikmat 1950-yil yanvarda o'g'li Mehmetga yozgan maktubida Yusuf haqida asar yozmoqchiligini qayd etadi. O'sha yilning martida o'g'liga yozgan boshqa maktubida esa "Yusuf alayhissalom" nomli asarni tugatganini yozgan.

Bu asar 1953-yilda rus tiliga tarjima qilinganda "Yusuf va Zulayho" nomi bilan chop etiladi. Nozim Hikmat asarni yozishdan avval xalq og'zaki ijodidagi Yusuf va Zulayho afsonalari, mumtoz adabiyotda mashhur bo'lgan "Yusuf va Zulayho" poemalari bilan tanishadi. O'zining qayd etishicha, bulardan tashqari u, avvalo, Injil va Qur'ondan ko'proq foydalanadi. Lekin Nozim Hikmat yuqoridagi manbalardan foydalanishiga va hozirgacha Yusufning adabiyotda komil inson (payg'ambar) obrazida taqdim etilishiga qaramay, bu asarda Yusufga o'zgacha munosabat bildiriladi. Bu Nozim Hikmatning kommunist dunyoqarashiga, kommunist ideologiyasining markazi bo'lgan Sovet Ittifoqi bilan bevosita aloqasiga bog'liq edi. Yusufning ocharchilik paytida odamlarga bug'doyni pulga sotishi va bu kabi sahnalarda Nozim Hikmatga kommunist ideologiyasi ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Shuning uchun Nozim Hikmat mehnatkash tabaqa namoyandasi Menofisni Yusufga qarshi qo'yadi. Menofis obrazining asarga kiritilishi sababi to'g'risida Nozim Hikmat shunday deb yozadi: "Asarda Yusufga qarshi ijobiy obraz, sinfiy kurashning ilk ijobiy suratini chiqarish kerak edi. Yusuf hikoyasi Misrda ozod quruvchilar tashkil qilgan va tarixda ilk ta'til sifatida o'tkazilgan umumiy ta'til hodisasi bilan bir vaqtda sodir bo'lgani yodimga tushdi. Bu ilk ta'til rahbari sifatida men tosh yo'nuvchi Menofis obrazini yaratdim".

Ko'rinib turganidek, muallif davr talablariga mos ravishda masalalarga ideologik prizmadan yondashadi va muhabbat afsonasi motivida sinfiy kurash elementlarini aks ettiradi. Shunga qaramay Yusuf va Zulayho hikoyasi, Yusufning hokimiyatga kelishi, Misrdagi ocharchilik, Yusuf akalarining Misrga kelishi va b. asarda an'anaviy motivlar asosida tasvirlanadi.

Yusuf bilan Menofis bir-biriga zid obraz sifatida taqdim etiladi. Avvalgi asarlardan farqli o'laroq bu yerda Yusuf ideallashtirilmaydi. Menofis aqlli, kuchli inson sifatida ta'riflanib, xalqiga sodiq bo'lgani uchun uning o'limi abadiylikka sayohat sifatida namoyish etiladi.

"Yo'lchi" (1942) va "Stansiya" (1958) pyesalarida hodisalar bir xil muammolar atrofida sodir bo'ladi. To'g'rirog'i, Nozim Hikmat "Yo'lchi" asari ustida ishlab, yangi variantini "Stansiya" nomi bilan chop ettiradi. "Yo'lchi" pyesasining g'oyasi ozodlik harakati muammolaridan tashkil topadi. Asarning syujeti qizg'in davom etadi. Stansiya raisining xotinini tortib olish uchun telegrafchi uni pichoqlab o'ldirmoqchi bo'ladi. Lekin to'satdan stansiyaga hujum qilinadi. Telegrafchi ham boshqalardek bosqinchilarga qarshi kurashadi. Hatto stansiya raisini o'limdan asrab qoladi. Stansiyadagilar g'alaba qozonib, dushmanni mag'lubiyatga uchratishadi. Otishmadan so'ng telegrafchi va stansiya raisi orasida mustahkam do'stlik paydo bo'ladi. Dramada umumxalq manfaatning shaxsiy manfaatdan ustunligi targ'ib etiladi.

● Nozim Hikmat “Yo’lchi” pyesasidan so’ng “Qonli qasos” dramasi yozgan bo’lsa ham uning matni topilmagan.

Nozim Hikmat 1952-yilda “Turkiyada” nomli dramasi yozadi. Bu asar uning 1971-yilda Bulg’oristonning Sofiya shahrida nashr etilgan 8 jildlik to’plamining 6-jildiga “Fotima, Ali va boshqalari” nomi bilan kiritilgan. Asarning mavzusi Turkiya ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonida 1951-yilda Anqarada tashkil topgan Sulh tarafdorlari jamiyati atrofida yuz bergan hodisalardan olinadi. Muallif asarda real insonlarning obrazlarini yaratib, insonlarning sulh va yangi jamiyat orzularini tarannum etadi. Asarning bosh qahramonlari Fotima, Ali, Xadicha, Nuri, Guzin, Ibrohim, Hasan, Mehmet va boshqalari xalq orasidan chiqqan oddiy, ayni paytda xalq manfaatini yo’lida kurash olib boruvchi insonlardir. Asardagi hodisalar vazir va senatorlarning saroydagi majlislari va ko’chadagi xaloyiq tasviri bilan boshlanadi. Keyinchalik Fotimaning oila fojiasi o’quvchini larzaga soladi. Urush uni eridan va yagona o’g’lidan judo qiladi. Vazir va senatorlar majlisida esa turk askarlarini Koreyaga yuborishga qaror qilinadi. Fotima marhum o’g’lining yodgori Alini Koreyaga yuborishga qarshilik qiladi. Fotima o’zini ziyoli va vatanparvardek ko’rsatuvchi gazeta muharriri Komilga murojaat qilsa ham, Komil turk askarlarining Koreyaga borishini va Amerika askarlarining Turkiya hududida ta’lim o’tkazishini qo’llab-quvvatlashini bildiradi. Nozim Hikmat bu kabi obrazlar timsolida antimilliy insonlarning asl yuzini ochib, ularni tanqid obyektiga aylantiradi. Asarda barcha tinchlik tarafdorlari bo’lgan insonlar Sulh tarafdorlari jamiyati va uning sadri Xadicha xonim atrofida to’planishadi. Ular namoyish o’tkazib, turk askarining Koreyaga borishiga e’tiroz bildiradilar. Shuning uchun tashkilot a’zolari qamoqqa olinadi. Qizig’i shundaki, Ali Komilning qistog’i bilan buvisi Fotimadan sudda Sulh tarafdorlari jamiyati a’zolariga qarshi ko’rsatma berishini so’rsa ham, Fotima bu taklifni rad qiladi va tinchlikparvar milliy kuchlarning manfaatiga zid ish qilmaydi. Muallif bu asarda turk xalqidagi kurash azmining buyukligi va vatanga muhabbatning cheksizligini targ’ib etib, uni yuksak baholaydi.

Nozim Hikmat “Muhabbat afsonasi” dramasi 1948-yilda qamoqdaligida yozadi. Muallif avvaliga bu mavzuni “Farhod, Shirin, Mahmana va Temirtog’ning suvi” nomi ostida yozishni rejalashtiradi. Asar Sharqning mashhur muhabbat dostoni “Farhod va Shirin” mavzusi asosida qalamga olingan bo’lib, Turkiyada Nozim Hikmat asarlari qatoriga “Farhod va Shirin” nomi bilan kiritilgan. Nozim Hikmat ilk variantida pyesani mana shunday tugallaydi: Mahmana Bonu o’ldi. Farhodning Shirin visoliga yetishi uchun g’ov qolmadi. Farhod esa Temirtog’ni yorib, Arzenga suv olib kelgach, Shiringa uylanishini aytdi. Nihoyat, shaharga suv keladi, ammo Farhod Shirinning qo’llarida jon beradi. Lekin bu variant Nozim Hikmat tomonidan o’zgartiriladi. Buning sababini esa shoir tur-

mush o'rtog'iga yozgan maktubda izohlaydi: "Shirin bilan Farhod bizga haddan ortiq o'xshagani sababli pyesani Farhodning o'limi bilan yakunlashni xohlamadim. Farhod Shirinning qo'llarida jon bersa, biz birlashgan onimizda men o'zimni o'ldirishim mumkindek tuyuldi. Menimcha, pyesa o'zgacha yakunlanishi lozim. Suv shahar chashmalaridan oqmaguncha xaloyiq Farhod cho'kichining ovozi eshitadi. Bu mavzuni naqadar chuqur his qilishimni senga qanday tushuntirsam ekan? Asarni hayiqib yozdim. Ko'p qismlaridan ko'nglim to'lmadi. Farhodning so'zlari yodingdami? "Biz bu gulda qayg'umizning mingdan birini aks ettira olamiz". Men ham o'ylarimning mingdan birini aks ettirish uchun yonib kuyar edim. Ehtimol, mingdan birini tasvirlashga muvaffaq bo'lgandirman".

Asar boshida Arzen shahrining hokimi Mahmana Bonuning singlisi Shirinning og'ir kasalligidan so'z boradi. Mahmana Bonu kim uning suyuqli singlisiga shifo topsa, boshidan tillolar sochishi haqida jar soladi. Saroyga kelgan noma'lum shaxs Mahmana Bonu o'z go'zalligini Shiringa qurbon qilsagina, u shifo topa olishini aytadi. Hukmdor qiz bunga rozi bo'ladi. Natijada Shirin sog'ayadi, Mahmana Bonu esa tasqaraga aylanadi. Oradan vaqt o'tgach, ular birga sayr qilayotganlarida Farhod ismli suratkashga duch keladilar. Ikki opa-singil Farhodga maftun bo'lishadi. Ammo Farhod go'zal Shiringa ko'ngil berganini bayon etadi. Mahmana Bonu esa Farhod Temirtog'ni teshib, shaharga suv olib kelgandagina Shirinni unga berishini aytadi. Shirin ishqiy Farhod uchun kuch va quvvat manbayi bo'ladi. Vaqt o'tgach, Farhodning xalqqa bo'lgan muhabbati bu kuchli yanada orttiradi. Farhod tog'ni teshish bilan ham muhabbatiga, ham xalq mehriga ega bo'lishini anglab yetadi. Asarda o'quvchi qiziqarli voqeaga duch keladi. Hukmdor Mahmana Bonuning roziligi bilan Farhod tog'ni teshmasa ham Shiringa uylanish taklifiga rozi bo'lmaydi. U Shirinni naqadar sevishidan qat'i nazar, xalqini unutmaydi. Insonlarning suvsizlikdan aziyat chekayotgan bir paytda, u saroyda oltin ko'zalardan suv ichishni o'ziga ravo ko'rmaydi. Shuning uchun ishni yakunlaguncha, kutishga qaror qiladi. Asarning asosiy mavzusi muhabbat bo'lsa ham, muallif bosh qahramonlar Mahmana Bonuni, Farhod va Shirinni faqat oshiq sifatida taqdim etmaydi. Bu obrazlar bir qator sifatlari bilan o'quvchini har tomonlama o'ziga jalb etadi. Masalan, Mahmana Bonu faqat adolatli malika emas, balki mehribon opa, kelajagini o'ylovchi zukko ayol sifatida jonlanadi.

Nozim Hikmat "G'aroyib odam", "Ivan Ivanovich bo'lganmi?", "Demokratiya qilichi", "Sabohat" va b. drama asarlarida ham jamiyat uchun dolzarb bo'lgan muammolarga to'xtalib, inson omilini oldinga chiqaradi, ularning ozodligi va baxtini hamma narsadan ustun ko'radi.

Nozim Hikmatning "Benerji o'zini nega o'ldirdi?" romani xalqning eng qiyin kunlarida o'zini anglash solnomasidir. Benerji qahramon bo'lib, 15

yillik qamoq zulmidan qutulganiga qaramay, yana kurashga qatnashadi, xalq ozodligini o'zi uchun asosiy maqsad deb hisoblaydi. Qariganini sezganda esa inqilobga g'ov bo'lishidan bezovta bo'ladi va o'zini o'ldirishga qaror qiladi. Asardagi obrazlarning ko'pchiligi Nozim Hikmatning shaxsan tanigan insonlari va do'stlaridir. Yozuvchining eng yaqin do'sti Vali Nuriddin (VANU) asarda Roy Dronag nomi bilan namoyon bo'ladi. Nozim Hikmat uni o'quvchilarga "Bu Benerjining sobiq askar do'sti" deb taqdim etadi. Asarda kurash olib borgan Saftar, Samodeya Nozim Hikmatning ham, Benerjining ham yaqin do'stlaridan bo'lgan. Bu ikki hindu (Saftar va Samodeya) kommunist partiyasining a'zosi bo'lib, Moskvada tahsil olgan. Romanda asosan ishchilar va ziyolilarning birgalikda ozodlik yo'lidagi kurashlari o'z aksini topgan.

Nozim Hikmat turkning dunyoga bag'ishlagan nodir iste'dodlardan biridir. U ham Sharq, ham G'arbning adabiy taqdirida ahamiyatli rol o'ynagan, jahon badiiy so'z san'atida o'z imzosida ega buyuk san'atkordir. Uning ijodi bir she'rida aytilganidek "Intihosi yaxshilik bilan tugagan kitobdir". Bu "kitob"ni o'qish barcha uchun foydali sanaladi.




# O'ZBEK ADABIYOTI









Turkiy xalqlar o'rtasida o'z tarixi va madaniyatining qadimiyligi, boyligi bilan ajralib turuvchi xalqlardan biri o'zbeklardir. O'z adabiyoti ko'p asrlik tarixga ega. O'zbek adabiyoti tarixda nafaqat O'rta Osiyoda, balki Yaqin va O'rta Sharqning bir qator hududlarida istiqomat qiluvchi xalqlar adabiyotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Taniqli qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning qayd etishicha, Rim madaniyati Yevropa uchun naqadar ahamiyatli bo'lsa, o'zbek madaniyati ham O'rta Osiyo uchun shunchalar muhimdir.

O'zbek folklor namunalari o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. "Alpomish", "Yusuf va Ahmad", "Shayboniyxon", "Kuntug'di", "Shirin va Shakar", "Orzugul", "Rustamxon" va b. dostonlar mavzu, mazmun, g'oya va shakliga ko'ra benuqson adabiyot namunalari hisoblanadi. "Alpomish" o'rta asrlarda paydo bo'lgan qahramonlik dostonidir. Doston she'riy shaklda yozilgan bo'lib, ikki qismdan iborat. Doston nazmda yozilgan bo'lsa ham, bir nechta kichik nasriy parchalar uchraydi. Asarning konfliktini qabila boshliqlari Boybo'ri va Boysari ismli aka-ukalar o'rtasidagi ziddiyat tashkil etadi. Qo'ng'iroq qabilasi boshlig'i Boybo'ri Boysaridan soliq so'raydi. Bundan darg'azab bo'lgan Boysari Boybo'riining elchilarini qiynoqqa soladi va Bo'ybo'ridan arazlab, qabilasi bilan Qalmoq eliga ko'chib ketadi. Lekin ular qalmoq elida vatan hasrati bilan yashay boshlashadi. Boysarining qizi Barchinoyga Qalmoq shohining 3 pahlavoni sovchi yuboradi. Barchinoyning qaylig'i Alpomish bundan xabar topib, 40 bahodirni yoniga oladi va qaylig'ini xalos qilish uchun Qalmoq eli tomonga yo'lga tushadi. Lekin u yerda jodugar kampirning hiylasi tufayli 40 bahodirdan ayrilib, o'zi zindonga tushadi. Alpomish 7 yil asirlikda qoladi va Qalmoq shohining qizi yordamida zindondan ozod bo'ladi. G'urbatda yashagan qo'ng'iroq qabilasini olib, qaylig'i bilan birga vatan tomonga yo'l oladi. Alpomish vataniga hukmronlik qilayotgan g'addor va beshafqat Ultontozni taxtdan qulatib, xalqni ozodlikka olib chiqadi.

O'rta Osiyoda Somoniylar, Qoraxoniylar va G'aznaviylar hokimiyati davrida adabiyotning gullab-yashnashi uchun sharoit paydo bo'lgan edi. Buxoro, Samarqand, Bolasog'un, Koshg'ar, Xiva shaharlarining siyosiy-madaniy markazga aylanishi bu shaharlarda ilmiy-adabiy muhit paydo bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatgan. XI asrdan boshlab turk tilining poeziya tiliga aylanishi adabiy tillar orasida (fors va arab) joy olishini va yozma adabiyotda turk adabiy-badiiy til bo'shlig'ini to'ldirishni ta'minladi.

XIV asr o'zbek adabiyotining yirik vakili Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy 1311-yilda payg'ambar hayoti asosida "Qissasi Rabg'uziy" nomli asar yozgan. Asarda turkiy she'riyatga xos bo'lgan to'rtliklarning mavjudligi Rabg'uziyning "Qutadg'u bilik" dan ta'sirlangan deb baholashga asos bo'ladi. Kardariyning "Najhul-farodis", Islomning "Muinul-murid", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Durbekning "Yusuf va Zulayho"

asarlarining turkiy tilda yozilishi XIV asr o'zbek adabiyotida ushbu tilning yetakchi o'rinda ekanligini tasdiqlaydi.

Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy va boshqa allomalar sababli XV asr o'zbek adabiyotida lirik she'r uslubi yangi bosqichga qadam qo'ydi. Atoiy va Sakkokiy siyomosida o'zbek adabiyotida g'azal, qasida, ruboiy, qit'aning mukammal namunalari yuzaga keldi. Lutfiy nafaqat lirik janrda, balki epik janrda ham o'z mahoratini namoyish eta oldi. U "Gul va Navro'z" asari bilan muhabbat va qahramonlik mavzusidagi poemaning yorqin namunasini yaratdi.

XV asr o'zbek adabiyotida Alisher Navoiy ijodining o'rni bo'lakcha. Uning 50 ming misralik 4 ta turkiy devoni, 10 ming misralik forscha devoni, 25620 baytlik turkiy tilda yozilgan "Xamsa"si, turli hajmli 20 ga yaqin ilmiy-falsafiy asari Alisher Navoiy shuhratini nafaqat o'zbek adabiyotida, balki Sharq adabiyotida ham e'tirof etish uchun kifoya qiladi.

XIV asr oxirlarida o'zbek shoiri Qutb Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" poemasini, XV asr boshlarida Xorazmiy "Sirlar xazinasi" poemasini o'zbek tiliga tarjima qilishi o'rta asrlar Ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalaridan dalolat berardi.

XVI asrda Chig'atoy adabiyoti O'rta Osiyoda Shayboniylar, Hindistonda esa Boburiylar tomonidan rivojlantiriladi. Bu davrning eng katta adabiy yodgori Muhammad Solihning "Shayboniynoma" va Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlaridir. Shayboniyxonning turkcha devoni, "Bahrul xudo" diniy-didaktik manzumasini, Ubaydullaxonning "G'ayratnoma", "Sabrnoma", "Shavqnoma" kabi masnaviylari, Komron Mirzoning turkcha devoni va b. asarlar Chig'atoy adabiyotining eng go'zal namunalari.

Abulg'oziy Bahodirxon yozgan "Shajarayi-tarokima" va "Shajarayiturkiy" nomli asarlari O'rta Osiyo turkiychasi bilan yozilgan original nasriy namunalari biridir. "Shajarayi tarokima"da "O'g'uznoma"lar, turk urug'lari, ba'zi tarixiy voqealar va h. to'g'risida ma'lumotlar mavjud. "Shajarayi turkiy" esa XV asrning ikkinchi yarmidan 1663-yilgacha Xorazmga hukmronlik qilgan o'zbek xoni Yodgorxon shajarasi, Xiva xonligining muallif yashagan davrgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan.

XVII-XVIII asrlarda o'zbek adabiyoti Turdi Farog'iy, Mashrab, Maxmur va Gulxaniy siyomosida yangi bosqichga qadam qo'ydi. Bu davr poeziyasi uchun ijtimoiy-siyosiy faollik o'ziga xos xususiyatga ega edi.

O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi tufayli O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ijtimoiy-siyosiy hayot yangilangani uchun adabiyotda ham yangi mavzular, yangi g'oyalar va yangi ijtimoiy fikrlar paydo bo'la boshladi. Muqimiy, Ubaydulla Zavqiy, Furqat, Avaz O'taro'g'li va b. ijodkorlarning ijodida tanqidiy realizmning chuqurlashishi, demokratik g'oyalarning

aksi kuzatiladi. Lekin Sovet hokimiyatining g'alabasi bilan O'zbekiston butkul yangi ijtimoiy-siyosiy va adabiy-madaniy hayotga qadam qo'ydi.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti to'rt yirik bosqichga bo'linadi:

1. 1917–1929-yillar Oktyabr davlat to'ntarishi va fuqarolar urushi davri o'zbek adabiyoti.

2. 1929–1941-yillar sotsialist jamiyatning tashkil topish davri o'zbek adabiyoti.

3. 1941–1956-yillar Vatan urushi va urushdan keyingi qayta tiklanish davri o'zbek adabiyoti.

4. 1956–1991-yillar yangi davr o'zbek adabiyoti.

Sobiq Sovet ittifoqidagi boshqa xalqlar kabi o'zbeklar ham 70 yil sotsializm mustamlakasida yashab, o'z madaniyati va adabiyotini sovet ideologiyasi talablari bo'yicha takomillashtirishga majbur bo'lgan edilar. Faqat 1991-yil 31-avgustda davlat mustaqilligi e'lon qilinib, 1-sentyabr O'zbekiston Respublikasi mustaqillik kuni sifatida tarixga muhrlandi. Shuning uchun ham 1992-yildan e'tiboran yangi milliy-badiiy tafakkur va axloqiy qarashlarga, mustaqillik g'oyalariga tayangan va ularga chambarchas bog'liq bo'lgan eng yangi davr o'zbek adabiyoti shakllana boshladi.

H.H. Niyoziy, A. Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor, Sh. Rashidov, M. Shayxzoda, Mirtemir, Uyg'un, Said Ahmad, Zulfiya, O. Yoqubov, E. Vohidov, A. Oripov, H. Xudoyberdiyeva va boshqa san'atkorlar zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotida, uning milliy va bashariy g'oyalar bilan boyishida ahamiyatli rol o'ynaganlar.

## ALISHER NAVOIY

XV asr o'zbek adabiyoti va adabiy tilining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yishida alohida xizmatlari bo'lgan, ilmiy-falsafiy, siyosiy qarashlari bilan Sharqning eng yirik shaxslari qatorida turgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'zbek xalqining dunyo madaniyati xazinasiga armug'on qilgan nodir siymolaridan biridir. Alisher Navoiy 1441-yilda Hirot shahrida amaldorlar oilasida dunyoga keldi. Otasi G'iyosiddin Kichkina Abulqosim Bobur davrida Sabzavor hokimi bo'lgan. G'iyosiddinbek hokim bo'lish bilan birga, adabiyot muxlisi sifatida ham tanilgan.



**ALISHER  
NAVOIY**  
(1441-1501)

Alisher Navoiy bobosi esa saroy amaldorlaridan bo'lgan<sup>7</sup>. Shoirning tog'asi Mir Said go'zal shoir va bastakor sifatida tanilgan edi. Alisher Navoiyning bolalik yillari saroyda o'tgan. Saroy hayoti va tarbiyasi uning kelajagiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, kuchli xotirasi uni o'z tengdoshlaridan ajratib turar edi. U 3-4 yoshidan boshlab otasining mehmondorchiligida va boshqa joylarda yoddan she'r aytib, barchani lol qoldirgani haqida bir qator faktlar mavjud. Mumtoz o'zbek shoiri Lutfiy A.Navoiyni bolaligida uchratadi va undagi poetik iste'dodni yuqori baholaydi. U kichik yoshlarida XV asr Ozarbayjon shoiri Shoh Qosim Anvorning she'rlariga ham katta qiziqish bildiradi. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" nomli mashhur tazkirasining birinchi faslida Shoh Qosim Anvorni hurmat bilan yod etib, 3-4 yoshlarida yaqinlarining qistog'i bilan Anvorning quyidagi forscha baytini yoddan aytib bergani to'g'risida ma'lumot beradi:

***Rindemu oshiqemu jahonso'zu joma chok,  
Bo davlati g'ami tu zi fikri jahon chi bok.***

(Tarjimasi: Rindmiz, oshiqmiz, jahon o'rtovchilar va yoqavayronlarmiz. Sening g'aming turganda dunyo g'amini chekishdan ne foyda?!)

Alisher Navoiy bolaligida Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston",

<sup>7</sup> Firidunbey Ko'charli Alisher Navoiy hayoti haqida ma'lumot berar ekan, ("Ozarbayjon tarixi materiallari" Boku, 1925) otasining Hirot hukmdori Abu Said bilan qarindoshligi va Abu Saidning vaziri bo'lganligi, shu jumladan, Navoiyning onasi saroyga aloqasi bo'lgan ayol ekanligi haqida ma'lumot beradi. Lekin shoirning otasi G'iyosiddin Abu Saidning vaziri bo'lganligi to'g'risida hech bir manbada keltirilmagan.

F.Attorning “Mantiq ut-tayr” va Sharqning boshqa mutafakkir faylasuf va shoirlarining asarlarini mutolaa qiladi.

Uning bolaligi va o’smirliigi Temuriylar hokimiyatining parokanda davriga to’g’ri keladi. Saroyda siyosiy jarayonlarning taranglashishi tufayli Alisher Navoiyning otasi Iroqqa ketishga majbur bo’ladi. Buning natijasida Alisher Navoiyning ikki yili (1447-1449) shu mamlakatda o’tadi. 1450-yilda shoirning otasi oilasi bilan birga Xurosonga qaytadi va Alisher Navoiy tahsilini shu yerda davom ettiradi. U arab, fors tillarini bilgani uchun tahsil olgan yillarda ham, undan keyingi davrlarda ham bu tildagi manbalardan erkin foydalana oladi. Alisher Navoiy madrasadagi ta’limini tamomlagach (1456), Abulqosim Boburning yonida xizmat qiladi. Alisher Navoiyning ilk bor necha yoshida she’r yoza boshlagani haqida ma’lumot berilmasa ham, 15 yoshidan boshlab she’rlarining keng yoyilishi va shoir sifatida tanilishi to’g’risidagi fikrlar o’z tasdig’ini topgan.

1464-yilda Alisher Navoiy tug’ilib-o’sgan shahri Hirotga qaytadi. Lekin Hirot hokimi Abu Said Alisher Navoiyni uning dushmanlari bilan munosabatda bo’lganlikda ayblab, 1465-yilda Samarqandga surgun qiladi. Samarqand shahri fan va madaniyat markazi sifatida 24 yoshli Navoiyning ilmiy-nazariy saviyasi ortishida, falsafiy dunyoqarashi kengayishida muhim rol o’ynaydi. 1469-yilda Abu Saidning o’limidan so’ng Hirotda hokimiyat Husayn Boyqaroning qo’liga o’tadi. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning yaqin do’sti edi. Ularning bolalikdan boshlangan do’stligi umrlarining oxirigacha davom etadi. Husayn Boyqaro o’z hokimiyati davrida (1469-1505) Alisher Navoiy ga katta imtiyozlar beradi. Husayn Boyqaro tomonidan yaratilgan madaniy sharoit, Alisher Navoiyga berilgan imtiyoz, unga ko’rsatilgan e’tibor shoir ijodiga ta’sir ko’rsatadi. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning do’stligi, hukmdorning shoirga ko’rsatgan e’tibori dovrug’i Hirotdan tashqari boshqa viloyatlarga ham tarqaladi va bularning Alisher Navoiy ijodiga yuksak ta’siri o’sha davrdagi taniqli shaxslar tomonidan ham tasdiqlanadi. XV asr adabiyotining taniqli lirik shoiri Kishvariyning quyidagi misralari bundan dalolat beradi:

***Kishvari she’ri Navoiy she’ridan kam emas,  
Baxtiga tushsaydi bir Sulton Husayn Boyqaro.***

1469-yilda Samarqanddan Hirotga qaytgan Alisher Navoiy saroyda turli muhrdor lavozimida ishlaydi. 1472-yilda Husayn Boyqaro o’z do’stiga amir unvonini berib, uni vaziri etib tayinlaydi. Alisher Navoiy vazir bo’lib ishlagan vaqtida Hirotni obodonlashtirishga, fan va madaniyat taraqqiyotiga alohida e’tibor beradi. Avvalo uning tashabbusi bilan yaratilgan kutubxona ziyolilar ixtiyoriga beriladi. Uning vazirlik yillari

Hirotda obodonlik avj olgan, madaniyat gullab, yashnagan davr bo'ldi. Ulug' amir o'zi bosh bo'lib, suvsiz yerlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozalattirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta'mir qildirib, yangilarini qurdirdi. Qanchadan-qancha madrasalar, xonaqohlar soldirdi. Uning shaxsiy mablag'i bilan Hirot va atrofdagi maskanlarda 40 karvonsaroy, 17 masjid, 10 so'fiy xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik va h. qurilgan. Shu tufayli qisqa vaqt ichida Hirot madaniyat va ilm markazi sifatida rivojlanadi. "Hirot XV asrda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan Sharqning eng rivojlangan shaharlaridan biri edi. Davrning eng qudratli olimlari, iste'dodli san'atkorlar – shoirlar, rassomlar, xattotlar va boshqalar sulton Husayn Boyqaro saroyida, to'g'rirog'i, Navoiy atrofida to'plangan edi. Turli mamlakatlar bilan, shu jumladan, Ozarbayjon bilan adabiy aloqalar kengaytirilgan, Hirotga shoirlar kelib, adabiy majlislarda ishtirok etgan edi. XV asrda Sulton Husayn Boyqaro saroyida, umuman, Xurosonda fan va san'at xodimlarining boshida Navoiy turar edi. Navoiy o'z iste'dodi, qobiliyati va o'lmas asarlari bilan ko'tarilib, o'zidan keyin an'analarini davom ettiruvchi shoirlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan"<sup>8</sup>.

Alisher Navoiy tarixda shoir, olim, ijtimoiy-siyosiy xodim bo'lish bilan birga, ayni paytda xayrixoh inson sifatida ham tanilgan. Manbalarda 300 ga yaqin xayriya tadbiri o'tkazgani to'g'risidagi ma'lumotlar mavjudligi tasodif emas. Lekin Alisher Navoiyning muvaffaqiyati a'yonlarda uyg'ongan hasadga sabab bo'lgan. Shu sababli Alisher Navoiy Husayn Boyqaro bilan bo'lgan do'stligiga putur yetishidan cho'chib, o'z istagi bilan vazirlikdan ozod etiladi va 1487-yilda Astrobod shahriga hokim etib tayinlanadi. Ikki yildan so'ng Husayn Boyqaro Alisher Navoiyini yana Hirotga keltirib, uni saroy "muqarrabi" (hukmdorga yaqin shaxs) etib tayinlaydi. Bu vazifada ishlagan davrlarda u davlat ishlarida yaqindan ishtirok etib, ilmiy va badiiy faoliyatini keng davom ettiradi. Husayn Boyqaro Hirotidan tashqarida yuz bergan isyonlarni bostirish uchun qo'shini bilan shaharni tark etganda Alisher Navoiyini o'z o'rniga mas'ul shaxs sifatida qoldirib ketadi.

Alisher Navoiy umrining oxirigacha "Muqarrab" lavozimida ishlaydi va 1501-yilda 60 yoshida yurak xurujidan vafot etadi.

## IJODI

Alisher Navoiy boy adabiy merosga ega arbob sanaladi. Uning turkiy tilda yozilgan 50 ming misralik devoni, shuningdek, qasidalardan iborat 10 ming misralik forscha devoni, 25620 baytlik "Xamsa"si va turli hajmlarda bo'lgan 20 ga yaqin ilmiy-falsafiy (tazkira, filologiya, diniy-didaktik, tarixiy va h.) asarlari 500 yildan beri o'quvchilarni hayratga so-

<sup>8</sup> Jannat Nag'iyeva. Ozarbayjonda Navoiy. Boku, 2001, 4-bet.



lib, ularga zavq bag'ishlab keladi. Yoshligidan shuhrat qozongan Alisher Navoiy asarlarini turk (chig'atoy) tilida "Navoiy", fors tilida esa "Foniy" taxallusi bilan yozgan.

Alisher Navoiy ijodida lirika muhim o'rin egallaydi. Uning lirik asarlari 5 devon shaklida tuzilgan. Turk tilida bo'lgan to'rt devon "Ma'nolar xazinasini" nomi bilan taniladi. Alisher Navoiy ilk turkiy tildagi devonini hukmdor Husayn Boyqaroning maslahati bilan tuzadi. Shoirning yaqin do'sti Jomiy esa unga turkiy tilda yozgan she'rlarini 4 devon shaklida tuzishini maslahat beradi. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida baytlarning soni "25 mingga yaqin turk tilidagi 4 devon"i haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga 1499-yilda tugallagan "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkcha devon yozishining sabablarini keltirib o'tadi: "Chun bu tariqda himmat oliy erdi va tab' bebok va louboliy, o'targa qo'ymadi va tamoshosidin to'ymadi. Ul olam fazosida tab' sipohi turktozlig'lar tuzdi va ul sipehr havosida xayol qushi baland parvozlig'-lar ko'rguzdi va ul ganj javohiridin zamir sayrafisi nihoyatsiz qiymatlig' la'l va durrisamin oldi. Va ul gulshan rayohinidin ko'ngul gulchini had va g'oyatsiz nakhatlig' gul va yosuman qo'ynig'a soldi. Chun bu mavohib bila g'inolar va bu g'anoyim bila istig'nolar muyassar bo'ldi, munung natoyiji gullari ro'zgor ahligha behadu miqdor ochila boshladi va boshlariga beixtiyor sochila kirishdi".

"Mezon ul-avzon" asarining turkiy tilda yozilishi to'g'risida

Navoiyning quyidagi fikrlari bu yo'ldagi itfixoridan dalolatdir:

"Va bu bandaning dag'i to'rt devonig'akim, turkcha til bilan nazm topibdur va abyoti adadi yigirmi besh mingga yaqinlashibdurkim, ul Hazratning humoyun alqobig'a raqam topibdur va muzayyan bo'lubdur ham ushbu mazkur bo'lg'on dastur bila tartib berilibdur".

Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" (Yoshlik g'aroyibotlari), "Navodir ush-shabob" (Yigitlik nodirliklari), "Badoye ul-vasat" (O'rta yosh go'zalliklari) va "Favoyid-ul kibar" ("Keksalik foydaliklari") nomli 4 devon tuzgan bo'lib, "Muhokamat ul-lug'atayn"da ularning xususiyatlari va qaysi davrda yozilganligi haqida ma'lumot beradi:

"Ul jumladin, biri "G'aroyib us-sig'ar" devonidurkim, kichik yoshda taqirrim guzorish va tahririmdin nigorish topibdurkim, maoniy g'urabosidin g'arib alfoz libosig'a kiyurupmen va xalq ko'nglin g'aribiston ahli o'ti bila kuydurupmen.

Yana "Navodir ush-shabob" devonidurki, yigitlik avoilida bayonim kilkidin namoyish devonig'a va oroyish bo'stonig'a kiribdurkim, ul navodir tamoshosidin yigitlik mulkida g'avg'o solibmen va mulk yigitlari ko'nglidin orom va qarorni olibmen.

Yana "Badoe ul-vasat" devonidurkim, umr avositida xayolim xomasi aning zebig'a naqshbandlig' va ziynatig'a sehrpayvandlig' qilibdurkim,

<sup>9</sup> Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Boku, 1999. 38-bet.

ul bade'lar vositasidin shaydo ko'ngullar eshigin ishq toshi bila qoqibmen va ul uyga fitna va ofat o'tin yoqibmen.

Yana "Favoid ul-kibar" devonidurkim, hayot avoxirida taxayyulum xomasi ani rashki nigorxonai Chin va g'ayrati xuldibarin qilibdurkim, anda ulug'larga foidalar zulolin yetkurupmen va havaslari shu'lasiga nasoyih zulolidin suv urubmen."

Devonlarga kiritilgan she'rlarning yozilish sanasi bu yerda aniq ko'rsatilmasa ham, shoir "G'aroyib us-sig'ar"ni 17–20 yoshlarida, "Navodir ush-shabob"ni 20–35 yoshlarida, "Badoye ul-vasat"ni 35–45 yoshlarida va "Favoyid-ul kibar"ni 45–57 yoshlarida yozgan she'rlari asosida tuzgan.

Alisher Navoiy lirikasi janr jihatdan rang-barangdir. U g'azal, qasida, muxammas, mustazod, ruboiy, tuyuq va boshqa she'r janrlaridan foydalanish bilan o'zbek poeziyasining, hatto turk she'riyatining badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, turkiy she'riyatning Sharqda shuhrat qozonishini ta'minlagan. Uning turli janrlardagi she'rlari faqat radif, vazn, mazmun jihatdan emas, balki badiiy ifoda vositalari jihatdan ham diqqatni jalb etadi:

*Soqiy, meni xor-xordin ayla xalos,  
Gul-gul yuzung och, bahordin ayla xalos,  
Yo may beru intizordin ayla xalos,  
Yo o'turubon xumordin ayla xalos.*

Alisher Navoiy lirikasining asosi g'azallardan tashkil topgan. U o'z g'azal uslubi bilan sodda va tushunarli, ma'no chuqurligi bilan ajralib turuvchi g'azallar yaratgan. Shu tufayli u "g'azal mulkinging sultoni" deb nomlanishi bejiz emas. Uning g'azallari chuqur ma'nosi, ravon tili bilan ajralib turadi:

*O'zga bo'ldi yoru mehri manga boqiydur hanuz,  
Notavon ko'nglumda ul oy ishtiyoqidur hanuz.*

*Garchi o'zga yor istar xotirim, bordur valek,  
Jon anga manzil, ko'ngul oning visoqidur hanuz.*

*G'ayr ishq ko'nglum evinda nechuk qilg'ay nuzul,  
Kim xayoli maskani ko'zim ravoqidur hanuz.*

*Ishq ila may tarkin, ey nosiq, ne nav' aylay qabul,  
Kim ko'ngulga orzu ul turfa soqiydur hanuz.*

*Furqat o'ti dofii dog' o'rtamakdur demakim,  
O'rtagan jonim ul oy dog'i firoqidur hanuz.*

*Charx yolg'uz qilmadi Farhod qonin lolazor,  
Lola qonin to'kkuchi oning nifoqidur hanuz.*

*Ey Navoiy, garchi meni mehrsiz der erdi yor,  
O'zga bo'ldi yoru mehri menda boqiydur hanuz.*

Alisher Navoiy adabiyot tarixida "Xamsa" muallifi sifatida dong'i ketgan atoqli arbob sanaladi. U 1483-1485-yillarda "Xamsa" an'anasiga rioya qilgan holda 25620 baytdan iborat besh doston yozgan:

- 1) "Hayrat ul-abror" (1483),
- 2) "Farhod va Shirin" (1484),
- 3) "Layli va Majnun" (1484),
- 4) "Sabbayi sayyor" (1484),
- 5) "Saddi Iskandariy" (1485).

Nizomiy ijodi Sharqning buyuk arboblari uchun namuna bo'lgan. Xususan, "Xamsa" an'anasiga javob va Nizomiyning har bir asarlariga nazira yozish adabiy musobaqaga aylangan edi. Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Sheroziy, A.Ardabiliy, Marag'ali Ashraf va b. arboblari bu sohadagi qalamlarini sinovdan o'tkazib, o'lmas san'at namunalarini yaratganlar. Alisher Navoiy Nizomiy merosi bilan yaqindan tanish edi. Bu fakt ko'p manbalarda o'z tasdig'ini topadi. Ushbu faktlarga asosan Navoiy Nizomiy qo'lyozmalarini o'qib, Navoiyning nazorati ostida bu qo'lyozmalar ko'chirilib, shaxsiy kutubxonasida saqlangan. "Nizomiyning 884 hijriy (=1479) yilda ko'chirilgan mukammal va qadimiy "Xamsa"si, shuningdek, bu asarning 886 hijriy (=1481) yilda ko'chirilgan bezakli, 45 miniatyurasi bo'lgan nusxasi bir qator nusxalar kabi Navoiyning kutubxonasi durdonalaridandir"<sup>10</sup>. Ko'rinib turganidek, Navoiy Nizomiy asarlarining asl nusxasini o'qib, uning san'at sehriga rom bo'lgan va "Xamsa" yozishga kirishgan. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida bu fikr o'z tasdig'ini topadi: "Bu to'rt devon ovozasin chun rub'i maskunga yetkurupmen, "Xamsa" panjasiga panja urupmen. Avvalkim, "Hayrat ul-abror" bog'ida tab'im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy<sup>23</sup> ruhi "Maxzan ul-asror"idin boshimga durlar sochibdur."

Shu jumladan, Alisher Navoiy "Xamsa"ga kirgan asarlarida ham Nizomiy qudratining buyukligidan, san'atining mo'jizaviy kuchidan bahs etib, Nizomiyga bo'lgan muhabbatini namoyish ettiradi:

*"Ul Ganjada ganjdek nihoni,  
Besh ganj qo'yub vale nishoni".*

<sup>10</sup>Jannat Nag'iyeva. Ozarbayjonda Navoiy. Boku, 2001, 11-bet.

Alisher Navoiy “Xamsa”ni jami ikki yilda yozib tugatish bilan Sharq ilk turkiy tildagi “Xamsa”ning tamalini qo‘ydi. “Hayrat ul-abror” Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilk dostonidir. Falsafiy-didaktik mavzuda yozilgan bu asar 64 fasl, 20 maqolatdan iborat. Dostonda misralarning soni 8 mingtadir. Asar an’anaviy uslubga asosan Allohga hamd-sano va payg‘ambarning madhi bilan boshlanadi. Asarda Nizomiy, Dehlaviy va Jomiy ta’rifi ham o‘z aksini topadi, ular so‘z san’ati ustozlari sifatida taqdim etiladi. Dostonda so‘z va davr hukmdori Husayn Boyqaro ta’rifidan so‘ng Alisher Navoiy o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlariga joy beradi. Bu o‘rinda davlat, hokimiyat, jamiyatni adolatli boshqarish va b. masalalar badiiy ifodasini topadi. Falsafiy-didaktik shaklda yozilgan “Hayrat ul-abror” mavzu va g‘oya jihatdan dohiy Nizomiyning “Sirlar xazinasi” asariga mos keladi.

Alisher Navoiy dostonlari orasida “Farhod va Shirin” “markaziy ahamiyatga molik san’at asari” (H. Arasli) sifatida diqqatni jalb etadi. Asarda Farhod bilan Shirinning muhabbati, hijron onlari bayon etilgan. Asarning boshlanishi qalam ta’rifi va Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyning yodi bilan boshlanadi. Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviyga nazira yozish mas’uliyatini anglab yetgani uchun bu maydonda qalam yurg‘izishning oson emasligini qayta-qayta takrorlaydi:

*Emas oson bu maydon ichra turmoq,  
Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.*

*Tutayki qildi o‘z changini ranja,  
Nekim urdi aning panjasig‘a panja.*

*Kerak sher oldida ham sher jangi,  
Agar sher o‘lmasa, bori palangi.*

Lekin Alisher Navoiy o‘z asarida Nizomiydan farqli o‘laroq Farhodni bosh qahramon darajasiga ko‘tarib, uni shahzoda obrazida o‘z g‘oyalarining vakili sifatida taqdim etadi. Farhod bolaligidanoq zohiri, botini va aql-zakovati bilan boshqalardan ajralib turadi:

*...Ajabdur uch yoshida ko‘zga atfol,  
Nechukkim o‘n yoshida o‘zga atfol.  
...Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni,  
Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni.  
Ne so‘znikim o‘qub ko‘ngliga yozib,  
Dema ko‘ngliki, jon lavhiga qozib.*

U podshohning o'g'li bo'lishiga qaramay, mehnat qilishni sevadi va tosh yo'nish san'atini o'rganishga kirishadi. Alisher Navoiy asar boshida Farhodni shunday taqdim etish bilan uni kelajakdagi hodisalarga tayyorlaydi, dostondagi jarayonlarning tasodif emasligini ko'rsatib, ularning ta'sir kuchini orttiradi. Shu sababli Farhod toj-u taxt taklifini rad qilib, Yunon o'lkasiga safar chog'i barcha mashaqqatlarni yengib o'tishi, Iskandar tilsimini ochishi, arman zaminida qoyalarni teshib, ariq tortishi va h. tabiiy holdir. Yuqorida sanab o'tilganlar Farhodning muayyan xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Muallif Farhodni toj-taxtga, boylikka o'chlikdan himoya qiladi. U butun asar davomida mard va jasur qahramon sifatida ko'z oldimizda jonlanadi. Uning ajdarho bilan jangi va Ahrimanni o'ldirishi sahnasida asl qahramonlik shijoati yuzaga chiqadi:

*Chu ul ajdar bila qilg'onda novard,  
Tutub erdi jahonni qiyrgun gard.*

*Sirohining ko'ri borib o'zidin,  
Bu g'oyib hushluqlarning ko'zidin.*

Farhodning adolati va insonparvarligi asarda alohida o'rin egallaydi. Farhod doimo nohaqlik, yovuzlik, adolatsizlikka qarshi kurashadi. Soddaligi tufayli bir fitnachining makriga aldanib, Xusravga asir tushadi. Asirlikdan qochishga yo'l topsa ham, Xusravning soqchilarga og'ir jazo berishini o'ylab fikridan qaytadi.

Shu bilan birga Farhod, avvalo, qalbi muhabbat otashi bilan yonayotgan oshiq, Shirin ishqining asiridir. Bu muhabbat uni toj-taxtga, dunyo moliga ko'z yumishga majbur qilib, o'z o'lkasidan Arman zaminigacha kelishiga sabab bo'ladi. Lekin ularning muhabbati oldida Xusrav g'ov bo'ladi. Shirin uning muhabbatini rad qilganini ko'rgach Xusrav podshohligidan foydalanib, makr-hiylaga qo'l urishdan ham tap tortmaydi. Xusrav tomonidan yuborilgan hiylagar ayol Farhodga Shirinning o'lim xabarini yetkazadi, bu qayg'u bardosh qilolmay, Farhod o'zini o'ldiradi. Xusrav tarixiy shaxs bo'lib, Sosoniylar sulolasining yigirma ikkinchi hukmdoridir. Lekin Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida Xusravni kuch ko'zini ko'r qilgan, har qanday yovuzliklar ramziga aylangan Eron shohi sifatida tasvirlaydi. Alisher Navoiy uning siymosida tarbiyalanishi qiyin bo'lgan zolim hukmdorlarning obrazini yaratgan. Alisher Navoiy Nizomiydan farqli o'laroq Xusravni salbiy obrazda taqdim etadi. Xusrav oddiy insoniy tuyg'ulardan yiroq, hiyla va makr yagona vositasi bo'lgan shaxsdir. O'quvchi Xusravning Mahinbonu, Shirin va Farhod bilan uchrashgan sahnalarida uning beshafqat va zolimligini kuzatishi mumkin. Masalan, "Farhodning Xusrav yoniga olib kelinishi" sahnasida Xusravning Farhodga bergan qarorida bu holga guvoh bo'lamiz:

*Siyosat qilg'uluqdur bu fidoyi  
Ki, har bir tog' ila vodi gadoyi.*

*Yana ko'rguzmagay bexavfu dahshat,  
Salotin xizmatida so'zga jur'at.*

Alisher Navoiy Shirin tasvirini original uslubda qalamga olgan. Nizomiyning Shirin Xusravga sadoqati bilan ajralib tursa, Navoiyning Shirini Farhodga bo'lgan muhabbati bilan ko'zga tashlanadi. U Farhodga quyidagi tuyg'ular bilan chambarchas bog'liqdir:

*Qatilikim atongdin ko'rdi bedod,  
Bori ishq ahlining sarxayli Farhod,*

*Bo'lub ishqim kamandining asiri,  
Men oning ishq bandining asiri.*

Na Xusravning tazyiqlari, na unga erishish uchun otasi Xusravni o'ldirgan Sheruyaning takliflari Shirinni asl muhabbat yo'lidan qaytara olmaydi. U o'z sadoqatini namoyish etib, o'z muhabbati yo'lida joniga qasd qilishdan ham chekinmaydi.

Shopur va Bahrom asarda asl do'stlik timsoliga aylangan. Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" asarida Shopur Farhodning do'sti sifatida ko'rsatiladi, Xusravga Shirin haqidagi ma'lumotni ham u yetkazadi. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" asarida esa Shopur Xusravning dushmani sifatida jonlanadi. Farhod va Shopurning Yamandan boshlangan do'stligi eng og'ir sinovlardan o'ta oladi. U Farhodning yutuqlariga quvonganidek, og'ir kunlarida ham birga iztirob chekadi. Farhodning o'limi tufayli Shopurdagi kechinmalar asarda ta'sirli ifodalarda o'z aksini topadi:

*Tushub tufroqqa Shopuri jigaxun;  
Qilib qon yoshi mujgonin tabarxun.*

Bahrom esa Farhodning bolalik do'stidir. Ma'lumki, Farhodning otasi vafot etgach, taxtga Farhodning ukasi chiqadi. Bahrom esa mamlakatning sarkardasi etib tayinlanadi. Farhod bedarak yo'qolgani uchun Bahrom qattiq tashvishga tushadi. Uni izlash maqsadida Chin hukmdori bo'lgan Farhodning ukasidan ruxsat so'rab, katta qo'shin bilan Arman zaminiga yo'l oladi. Bahrom Arman zaminida Shopur orqali Farhodning o'limidan xabar topadi, do'stining o'limidan parishon bo'ladi. U Shirin o'limidan so'ng rahbarsiz qolgan Arman zaminiga Bonu naslidan bo'lgan

odamni podshoh etib tayinlaydi. So'ng esa o'zi bilan olib kelgan qo'shinni ozod qilib, vataniga yuboradi, Shopur bilan Farhod qabriga kelib, so'nggi do'stlik burchini bajaradi:

*Yetib Farhodning qabrini zohir,  
Ulu Shopur bo'ldilar mujovir.*

*Fano tufrog'ig'a chun bo'ldilar rast,  
Baqo fayzi yeta boshlodi rayvast.*

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" (1484) dostonining mavzusi Nizomiy Ganjaviyning "Layli va Majnun" asariga mos keladi. Lekin olimlar bu asarni tasvir jihatdan butkul milliy va mahalliy, hatto O'rta Osiyo turmush tarziga mos deb hisoblashadi. Chunki bu yerda obrazlarning psixologiyasi, ijtimoiy turmush tarzi tasviri va ifoda tarzi originalligi bilan ajralib turadi. Asar mavzusining tamalida ishq, iztirob, vafo va shu kabi omillar yotadi. Alisher Navoiy Layli va Majnunning ishq mojarolarida asosan romantik tuyg'ular tarannumini aks ettiradi. O'z tilidan aytganda, "mening bu abadiy ishqni yozmoqda maqsadim afsona yozmoq emasdur. Ruhim bu afsonaning ichki olamida yaqinlikni sezardi". Muallif asarda Layli va Majnunning muhabbatini haqiqiy ishq doirasida tasvirlaydi. Shu sababli asarda Majnun va Laylining o'zaro muhabbatlari "maishiy daraja"dan chiqib, ilohiy darajaga ko'tariladi.

Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni mazmun jihatdan Ganjaviyning dostonidan farq qiladi. Asarda Laylining kasallikka chalinishi, otasi uning sog'ayishi sharafiga ziyofat uyushtirishi, ziyofatda Qaysning hushdan ketishi, Nofelning o'z qizini Qaysga taklif qilishi, Qays bu taklifni rad qilishi va b. detallar ko'proq Dehlaviyning "Majnun va Layli" asari bilan hamohangdir.

"Sab'ayi sayyor" (1484) dostoni axloqiy-didaktik asardir va mavzu jihatdan N. Ganjaviyning "Yetti go'zal" asariga mos keladi. Dostonning syujeti Sosoniy hukmdori Bahromshohga yetti qasrda aytilgan hikoyatlardan iborat. "Sab'ayi sayyor" so'z ta'rifi bilan boshlanadi. Bahromga aytilgan hikoyatlargacha nazmning nasrdan ustunligi, Nizomiy va va Dehlaviy mahorati haqida so'z boradi. Asarda yetti hikoyat yetti xil saroyda aytiladi. Shanba kuni qora qasr – mushkfom qasrda shoh Bahrom Farrux va Axiy haqidagi hikoyatini, yakshanba kuni sariq qasrda Zayd Zahhob haqidagi hikoyatini, dushanba kuni yashil qasrda Sa'd haqidagi hikoyatni, seshanba kuni qizil qasrda shoh Juna va uning do'sti Mas'ud haqidagi qissani, Dehlida sultonlik qilgan Junaning saxovati qissasini, chorshanba kuni moviy qasrda Mehr va Suhayl haqidagi hikoyani, payshanba kuni sandal qasrda Muqbil va Mudbir haqidagi qissani, va ni-



hoyat, juma kuni oq qasrda xorazmlik musofirning hikoyasini tinglaydi.

Dostonda Bahrom sevgan ayoli Dilorom bilan ovga chiqadi. Dilorom ov payti uning merganligini ta'riflamagani uchun darg'azab bo'lgan Bahromshoh Diloromning qo'l-oyog'ini bog'latib, sahroga surgun qiladi. Lekin keyinchalik g'ussaga botib, dardini unutish uchun yuqorida keltirilgan saroylarni qurdiradi. Asar nihoyasida Bahrom xorazmlik sayyohning qissasidan Diloromning tirik ekanligini bilib oladi va uni saroyga qaytarib olib keladi.

Asarda shoirning maqsadi falsafiy, ijtimoiy, maishiy va b. muammolar orqali ochib beriladi. Qissalar turli g'oyalar targ'ibini asos qilib oladi. Masalan, qizil qasrdagi qissada adolat, saxovat, insonparvarlik tarannumi, zulm, adolatsizlikka nafrat, moviy qasrda ozod muhabbat, baxt va b. masalalar aks etadi, zo'ravonlik va zulm fosh etiladi.

"Xamsa"ning so'nggi dostoni "Saddi Iskandariy" (1485) falsafiy-didaktik xarakterga ega. A.Navoiy Iskandar Zulqarnayn siyomosida adolatli hukmdor va boshqaruv muammolarini ko'tarib chiqqan. Asarda Iskandar davlat arbobi va oqil inson sifatida taqdim etiladi. Uning bolaligi, tahsili, muallimlari, otasi, hokimiyatga kelishi, Mag'ribdan Hindistongacha safari va janglari hikoya qilinadi. Shuningdek, Iskandarning devor qurdirishi, dengiz sayohati haqida berilgan badiiy sahnalar bosh qahramonning hayoti va faoliyatining ikkinchi bosqichi haqidagi taassurotlarni kengaytiradi. Iskandarning asar keng badiiy talqini uning xarakterini ochib berishda katta rol o'ynaydi. Bu orqali biz Iskandarning ikki xususiyati bilan tanishamiz: hukmdor va donishmand faylasuf.

Alisher Navoiy asarda Iskandarning O'rta Osiyoga yurishini tasvirlar ekan, uning bu mintaqadagi tarixiy shaharlarga (Hirot, Samarqand) chuqur mehrini his qilish mumkin.

"Nizomiy Bardani g'urur bilan ta'riflaganidek, Navoiy ham Movarounnahrni iftixor bilan vasf etishi tabiiydir. Demak, Nizomiyning tarixiy rivoyatlarni, afsonalarni zamonasiga moslash an'anasini Navoiy davom ettirib, takomillashtirgan"<sup>11</sup>.

Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlagan 3500 baytlik "Lison ut-tayr" asarini (1498–1499) so'fiy faylasuf Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asariga nazira sifatida yozgan. Shoir insonga muhabbat orqali tasavvuf g'oyalarini targ'ib etadi va insonlarni poklikka chorlaydi. "Lison ut-tayr"ga kiritilgan 515 baytlik "Shayx San'on" mumtoz an'analar zaminida qalamga olingan mustaqil asardir. Turli tazkira va tadqiqotlarda (Som mirza Safaviyning "Tuhfayi Somiy" va F. Ko'charlining "Ozarbayjon adabiyoti tarixi materiallari") "Shayx San'on"ning Alisher Navoiy ijodidagi alohida asar ekanligi tasdiqlanadi.

"Mezon-ul avzon" (1492) ("Vaznlar tarozisi") turkiy tildagi aruz vaznli

<sup>11</sup>Xalilov P. Turkiy xalqlar va Sharqiy slavyanlar adabiyoti. Boku, 1994, 247-bet.

she'ning nazariy asoslarini yaratish va uning tatbiqini osonlashtirish, aruz vazni va nazm shakllari bo'yicha tizimli ma'lumot shakllantirish sohasida Alisher Navoiyning qimmatli asarlaridan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida faqatgina aruzning nazariy dasturini emas, balki turkiy tildagi she'r namunalarining tatbiqi bilan fikrlarining amaliy isbotiga erishadi. Asarda aruz tarixi, uning asoschisi (Xalil ibn Ahmad) va u ifodalagan ma'no haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlardan so'ng aruz nazariy asoslarining sharhi yo'li bilan turkiy tillardagi aruz qonunlariga javob berishi isbotlanadi. Alisher Navoiy bu asarni yozish orqali turkiy tillarga begona bo'lgan aruzni milliylashtirishga, "turkiy tillarni fonetik, grafik nuqtayi nazaridan aruz talablariga moslashtirishga" uringan<sup>12</sup>. Shu yo'l bilan Alisher Navoiy umumturkiy aruzdagi muammolarni tizimlashtirishni qisman amalga oshira olgan.

Alisher Navoiy Sharqda turkiy tilda ilk bor "Xamsa" yozish va ushbu tilda to'rt devon tuzish bilan insonlarni hayratga soldi va bu tilning badiiy imkoniyatlari cheksiz ekanligini dunyoga tanitdi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida esa u olim sifatida turkiy tilning fors tilidan ham adabiy-badiiy, ham so'zlashuv tili jihatdan ustun

ekanligini qiyosiy va ilmiy tahlil uslubi bilan isbotladi. Alisher Navoiyning 500 yil oldin yozgan, hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan ushbu asarda turkiy tilning ustunliklari ilmiy, tarixiy va amaliy jihatdan alohida o'ringa ega. "So'z va ifoda yaratmoq turk sartdan mohirroqdur" degan Alisher Navoiy turkiy til ustunligi sifatida uning xalq, og'zaki so'zlashuv va badiiy til ifoda imkoniyatlarining kattaligini nazarda tutadi, turkiy xalqlarning so'z yaratish qobiliyatining kengligini tasdiqlaydi: "Andoq ma'lum bo'lurki, turk sortdin tez-fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq maxluq bo'lubdur... Va turkning asli xilqatda sortdin tab'i muloyimroq erkaniga mundin bul-ajabroq tonug' yo'qdurki, hech qaysi munung muqobalasida dam ura olmaslar va sort biammahim agar turk iborati adosida ojjidur, muhiq ham bor. Nevchunki, turk alfozi vozii asru ko'p vaqtda mubolag'a izhori qilib, juzviy mafhumot uchun alfoz vaz' qilibdurki, sohibvuquf kishi to zohir qilmas, inonsa ham bo'lmas".

Alisher Navoiy mintaqadagi turkiy til mavqeyini, siyosiy jarayonlar natijasida bu tilning siyosiy va badiiy til imkoniyatlarining kengayishini, leksik-frazeologik ma'no kasb etish ustunligini va b. ilmiy-tarixiy kontekstda ochib beradi. Alisher Navoiy til taraqqiyotida siyosiy jarayonlarning rolini yuqori baholaydi. U asarda turk aslzodalarining hokimiyatga kelishini turkiy til rivojiga ta'sir ko'rsatgan muhim omil deb ta'kidlaydi: "To mulk arab va sort salotinidin turk xonlarga intiqol topti, Huloguxon zamonidin sultoni sohibqiron Temur Ko'ragon zamonidin farzandi xalafi

<sup>12</sup> Tarlon Quliyev, Amir Alisher Navoiy va uning "Mezon ul-avzon" asari, Alisher Navoiy, "Mezon ul-avzon" asariga yozilgan so'z boshi. Boku, 2006, 11-bet.

Shohruh Sultonning zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo'ldilar".

"Muhokamat ul-lug'atayn" asari turk ma'naviyati, turk tafakkuri, badiiy fikr tarzi ustunligining tasdig'i yo'lidagi eng katta va ishonarli manbadir. Asarning so'nggi qismida bu mantiq Alisher Navoiy tili bilan ifodalanadi: "...Va xayolimga mundoq kelurkim, turk ulusi fasihlarig'a ulug' haq sobit qildimki, o'z alfoz va iboratlari haqiqati va o'z til va lug'atlari kayfiyatidin voqif bo'ldilar va forsiygo'ylarning iborat va alfoz bobida ta'n qilur sarzanishidin qutuldilar".

Bulardan tashqari Alisher Navoiyning turk tili va adabiyoti, turk falsafasi, ijtimoiy-adabiy, siyosiy-tarixiy va b. to'g'risidagi ilmiy-falsafiy, estetik, ijtimoiy tadqiqotini o'zida aks ettirgan boshqa asarlari bilan mavjud. Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", "Nazm ul-javohir", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Munshat", "Mufradot" va b. asarlari bugungi kungacha ilmiy-falsafiy ahamiyatini yo'qotmagan.

## HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY

Zamonaviy o'zbek adabiyotining asoschisi bo'lgan taniqli siymolardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziydir. U 1889-yilda Qo'qon shahrida tabib oilasida tavallud topgan. Niyoziy avval eski uslubdagi ibtidoiy maktabda, so'ng esa madrasada tahsil oladi. Madrasadagi ta'lim-tarbiya uni qoniqtirmagani uchun mustaqil ravishda mutolaa qilib, bilimni boyitadi. Niyoziy Navoiy, Bobur, Furqat va boshqa arboblarning hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishib, ularning adabiy g'oyalaridan ko'p nar-sa o'rganadi va ularni o'ziga ustoz deb biladi. Niyoziy, asosan, 1905-yildan boshlab, adabiy-badiiy ijodga qadam qo'yadi. U ilk ijod yillarida ham mumtoz, ham zamonaviy uslubda asarlar yozadi. Lekin uning 1905–1909-yillardagi asarlarining katta qismi klassik uslubda yozilgan. Bu davr adabiyotida uning she'rlari shakl va mavzu bo'yicha mumtoz o'zbek adabiyotining qudratli vakillari bo'lgan Muqimiy va Ogahiy she'riyatiga o'xshab ketardi. Klassik davrga bo'lgan mehri va ishtiyoqi uning ijodida taqlidchilikka aylanmagan, aksincha g'oya jihatdan butkul original she'rlar yaralishiga olib kelgan edi. H.H. Niyoziy ilk yillarda "Nihon" taxallusi bilan she'rlar yozadi.



HƏMZƏ NIYOZIY  
(1889-1929)

1913-yilda u Afg'oniston, Hindiston, Arabiston va Turkiyaga safar qiladi. Ayni paytda Rossiyaning janubiy viloyatlarida bo'ladi.

Sayohatda turli o'lkalar bilan tanishish uning keyingi ijodiga ta'sir qilmay qolmaydi. Ushbu o'lkalarda aholining achinarli turmush tarzi, jaholat girdobida g'arq bo'lishi Hamzani bezovta qiladi, shoir bularni faqat tasvir va tanqid etadi, balki bu girdobdan qutulishning yo'llarini izlar edi. Niyoziy xalqlarning zulm va asoratdan qutulishini ularning bilim olishida ko'rar edi. U 1914-1915-yillarda yozgan "Kitob", "Qalam", "Maktab", "Toshbaqa va chayon" va boshqa she'rlarida asosan o'zining ilmiy-ma'rifiy qarashlarini targ'ib etadi.

1915–1916-yillarda H.H. Niyoziyning kitoblari ketma-ket chop etiladi. "Oq gul", "Sariq gul", "Yashil gul", "Qizil gul" va boshqa kitoblarida ba'zi she'rlari nashr qilinadi. Ayni paytda u 1915-yilda "Ilm hidoyati" va "Zaharli hayot" pyesalarini, "Yangi saodat" nomli nasriy asarini yozadi.

1905–1916-yillarda shoirning ijodi lirik va ma'rifiy-demokratik yo'nalishda rivojlangan.

Hamza 1911–1915-yillarda keng pedagogik faoliyat bilan shug'ullanib, avval Qo'qonda, so'ng esa Marg'ilonda yangi uslubdagi maktab ochadi,

har ikki maktabda ishchi bolalariga tekinga dars o'tadi. Hatto bu maktablar uchun "Qiroat kitobi", "O'qish kitobi", "Yangi adabiyot" nomli darsliklar ham yozadi. Tashqi kuchlarning maktab yopilishi uchun ko'rsatgan sa'y-harakatlari Hamzaning matonati tufayli zo'ye ketadi va maktab bir necha yil faoliyat ko'rsatadi. 1917-yil fevral burjua-demokratik inqilobini shoir katta rag'bat bilan kutib oladi. Chunki asrlar davomida xalq duchor bo'lgan balolarga inqilobdan so'ng chora topilishiga ishonar edi. Oradan vaqt o'tgach, Hamza Hakimzoda Niyoziy fevral inqilobining asl mohiyatini anglab yetadi. Shuning uchun o'z fikriga qarshi chiqib, hukumat haqida tanqidiy she'rlar yozdi. O'z g'oyalarini va asl haqiqatni xalqqa yetkazish uchun u 1917-yil mart oyida Qo'qonda "Kengash" nomli jurnalini ochdi.

1917-yildan boshlab uning poeziyasida siyosiy keskinlik ortdi. 1917-yil aprel oyidagi "Biz ishchimiz" she'ri bilan Turkistonning kelajak istiqloli yo'lida xalqni birlikka chorlab, burjua inqilobining xalqqa hech nima bermaganini bildirdi.

1918-yilda Hamza hayotida yangi davr boshlanadi. U yangi tashkil topgan Sovet hukumatiga chin dildan bog'lanadi. Yangi hukumatni tarannum etuvchi she'rlar yozadi. 1919–1920-yillarda Sovet armiyasida xizmat qiladi.

1920–1929-yillarda xalq maorifi, madaniyati va san'ati sohalarida faoliyat ko'rsatadi. H.H.Niyoziy ilk o'zbek sovet shoiri va yozuvchisi sifatida shuhrat qozonadi. Shuning uchun Niyoziy 1926-yilda "O'zbekiston xalq yozuvchisi" faxriy nomga loyiq ko'riladi. U 1929-yilda 40 yoshida Shohimardonda o'ldiriladi. O'limidan so'ng uning adabiy merosi asrab-avaylandi. Shu bilan birga, O'zbekiston Fanlar akademiyasining adabiyot institutida Niyoziy hayoti va ijodini o'rganuvchi doimiy qo'mita tashkil etildi. 1964-yilda H.H. Niyoziy nomidagi davlat mukofoti ta'sis etildi. 1988–1989-yillarda uning besh jilddan iborat saylanma asarlari Toshkent shahrida chop etildi.

## IJODI

Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z ijod namunalari bilan zamonaviy o'zbek adabiyotining tamalini qo'ygan. U badiiy ijodga 1905-yildan qadam qo'yadi. 1905–1909-yillarda Sharq an'anaviy motivi sifatida u ham didaktikaga ahamiyat berar edi. 1909–1913-yillardagi ijodiy faoliyati shakl va mazmun jihatdan farqlana boshladi. Bu Niyoziy dunyoqarashida yuz bergan o'zgarishlarga bog'liq edi. Ushbu yillarda uning ijodida haq, adolat, ma'rifat tushunchalari kuchaya boshladi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z asarlarida janrning imkoniyati va talblariga rioya qilgan holda etik-axloqiy masalalarga, do'stlik, birodar-

lik, to'g'riso'zlik va b. muammolarga to'xtalib o'tadi. Masalan, 1914-yilda yozilgan "Toshbaqa bilan chayon" she'ri pand-nasihatning targ'ibi sifatida o'ziga xos xususiyatga ega. Ushbu she'rda va'da berib, toshbaqa bilan do'stlashgan chayon va'dasiga vafo qilmaydi va daryodan o'tayotganda toshbaqani chaqadi. Toshbaqa buning sababini so'raganda, bu mening odatim, kim bilan do'st bo'lsa, oxiri unga xiyonat qilib, zaharlayman, deydi. Shuning uchun ham muallif o'z nasihatini quyidagicha ifodalab, asar g'oyasini shu yerda ochib beradi:

***Hissa: kimi g'ayrni ulfat etar.  
O'z-o'zicha boshiga kulfat yetar.***

1914–1915-yillarda esa Hamza ijodida maorifchilik g'oyalari targ'ibining ham alohida o'rni bor. Deyarli 1917-yilgacha bo'lgan ijodining asosini din, islomga e'tiqod, haqqa, adolatga, ma'rifatga chorlov tashkil etardi.

1915–1916-yillarda nashr qilingan she'riy va nasriy asarlarida ma'rifat g'oyalariga keng o'rin berilgan. "Oq gul", "Qizil gul", "Sariq gul" she'riy to'plamlari va "Yangi saodat" nomli nasriy asari shu jumladandir.

"Yangi saodat" asarida muallif Maryam va Olimjon siyomosida ilm, savodning inson hayotidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Asarda G'oziboyning o'limidan so'ng o'g'li Abduqahhor otasining boyligidan samarali foydalanmaydi. Shuning uchun ham onasi, turmush o'rtog'i va farzandlarini boqa olmay, ularni tashlab boshqa shaharga ketadi. Ayoli Maryam yuzlashgan qiyinchiliklardan qo'rqmay, farzandlarini katta qiladi va ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Ona o'g'li Olimjonni mehtin, mehnatkash qilib tarbiyalaydi. Olimjon ulg'ayib, bir muallimdan dars oladi va savodli bo'lib voyaga yetadi. Shundan so'ng u Toshkent ko'chalarida och-yalang'och yurgan otasini topib, Qo'qonga olib keladi. Oila qayg'uli kunlarini ortda qoldirib, saodatli kunlarga yetadi. Muallif ilm, savod, ma'rifatning inson hayotidagi o'rnini ko'rsatib, Olimjon o'z otasidan savodli bo'lgani uchun hayot mashaqqatlarini yengib o'tganini ta'kidlaydi. Shoir folklor janridan ham foydalanib, 30 dan ortiq she'rini xalq og'zaki ijodidagi namunalar asosida yozgan.

Shoirning "Sog'inib" (1916) she'ri Vatan sog'inchi, qayg'usi, g'am-anduhini o'zida aks ettirgan tuyg'ular asosida yozilgan. She'rda elidan, yurtidan, yaqinlaridan olisga ketgan insonning qayg'usi tasvirlanadi:

***Qachon ozod bo'lor, tangri, boshimiz?  
Vatan borib qurur ko'zdan yoshimiz,  
Ko'p qatori rahm aylag'il bu zora,  
Ado bo'ldim ellarimni sog'inib.***



1918-yildan boshlab uning poeziyasida inqilobiy g'oyalar aks eta boshladi. Niyoziy Sovet hukumatiga ishonchi baland bo'lgani uchun bu hukumat tarannumiga bag'ishlangan she'rlar ko'p uchraydi. "Uyg'oning, ishchilar", "Biz ishchimiz", "Yasha, sho'ro". "Yashasin, sovetlar", "Ishchi bobo", "Uyg'oning" va b. she'rlarida yangi jamiyatga muhabbatini ifodalaydi. 1905–1909-yillardagi ijodida diniy, islomiy aqidalarga ijobiy munosabat bildirgan bo'lsa, ijodining keyingi davrlarida kommunistik ideologiyasiga e'tiqod qilgani uchun o'z qarashlarini o'zgartiradi:

*Bu na vahshat, na jaholat er-qizu, pir-u juvon,  
Domi g'aflatdin xalos o'lmakka imkon istamas,  
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.*

*Ey Nihon, bing hayf, ey insoniyat, islomiyat,  
Millati xor o'lmag'in hech nomusulmon istamas  
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.*

Niyoziy dramaturgiya sohasida ham katta ishlar ko'rgan. U o'z dramalari bilan o'zbek dramaturgiyasining asosini qo'ygan desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning "Boy ila xizmatchi", "Maysaraning ishi", "Muxtoriyat yoki avtonomiya", "Kim to'g'ri?", "Toshkentga sayohat", "Farg'ona fojiasi", "Istibdod qurbonlari" va shu kabi 40 ga yaqin sahna asari yozgan. Uning dramaturgiyadagi faoliyati bir qancha tadqiqotchilar tomonidan 1917-yildan keyingi davrga taalluqli ekanligi ta'kidlansa ham, aslida u 1915-yildan boshlab bu sohaga qadam qo'ygan.

Qayd etish lozimki, u 1917-yilgacha 4 sahna asari yozgan bo'lib, ular "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari", "Ilm hidoyati", "Mulla Nurmuhhammad domlaning kufr xatosi" va "O'lim fojialari" pyesalaridir. H.H. Niyoziy 1915–1917-yillarda yozgan ushbu asarlarda zulm va beshafqatlikdan to'yanini va xalos yo'lining ma'rifat ekanligini ta'kidlaydi.

Niyoziy dramaturgiyaning uch janrida asarlar yozgan bo'lib, "Boy ila xizmatchi" dramasi, "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi" tragediyasi va "Maysaraning ishi" komediyasi uning o'zbek dramaturgiyasidagi xizmatining kattaligidan dalolat beradi. Bundan tashqari u "Qora soch" operasining muallifidir.

H.H. Niyoziy dramaturgiyasida "Boy ila xizmatchi" dramasi ahamiyati katta. Asarning original nusxasi topilmagan bo'lib, hozirgi nusxasi 1939-yilda K. Yashin tomonidan to'plangan varianti hisoblanadi. Chunki asarning asl nusxasi noma'lum sabab tufayli g'oyib bo'lib, asar to'g'risidagi ba'zi manbalar asosida qaytadan tuzilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, asarning so'nggi varianti uning asl nusxasidan keskin farq qilmaydi.



“Boy ila xizmatchi” dramasi inqilob arafasida o‘zbek xalqining qiyin sharoiti haqida hikoya qiladi. Asarda qarama-qarshi bo‘lgan ikki katta kuch tasvirlanadi. Bulardan biri qishloqlik mehnatkashlar bo‘lsa, ikkinchisi boylar va amaldorlardir. Bir tomonni G‘ofur, ikkinchi tomonni esa Solihboy aks ettiradi. Solihboyning barcha buyruq va talablarini so‘zsiz bajargan G‘ofur kun o‘tgan sayin boyning buyrug‘idan bosh torta boshlaydi. Chunki boyning adolatsiz va beshafqat ekanligini anglab yetadi. G‘ofurning e‘tirozlari va noroziliklarini ko‘rgan boy unga ma‘naviy zarba berish uchun turmush o‘rtog‘i Jamilani qo‘lga kiritmoqchi bo‘ladi. Muayyan vaqtdan so‘ng podshohga qarshi isyon qilgani uchun G‘ofur Sibirga surgun qilinadi. Boy uning ayoli Jamilaga uylanish payiga tushadi. Lekin Jamila o‘z nomusini himoya qilib, G‘ofurga bo‘lgan sadoqati isboti sifatida zahar ichadi. G‘ofur Sibirda siyosiy faolga aylanadi. Surgundan so‘ng vatanga qaytadi. Asar yakunida Solihboy o‘z jazosini oladi.

“Boy ila xizmatchi” dramasida G‘ofur, Jamila va Gulbahor ijobiy obrazlardir. G‘ofur asar boshida xizmatchi sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, asar oxirida siyosiy faolga aylangani kuzatiladi. G‘ofur yuksak ma‘naviyatli inson bo‘lib, o‘z muhabbatiga doimo sodiq bo‘lib keladi. Xalqning og‘ir turmush tarziga o‘z e‘tirozini bildirishdan tortinmaydi. Asarda bir necha bor xalqqa xitob qilishi bunga yorqin misoldir.

Asarda Solihboy, Qodirqul mingboshi, Xonzoda, qozi va boshqa obrazlar o‘zlarining manfur siymolari bilan nafrat obyektiga aylanadilar. Solihboy katta amaldor bo‘lishiga qaramay, xalqning to‘lib-toshgan g‘azabiga qarshi kurasha olmaydi, mag‘lubiyatga uchraydi. Muallif bu sahna orqali hayotda naqadar boy va kuchli bo‘lsang ham, o‘z zulming bilan haq, adolat oldida mag‘lubiyatga uchrashingga ishora qiladi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning 1926-yilda yozgan “Maysaraning ishi” komediyasi satirik ruhda bo‘lib, folklor namunalari asosida yaratilgan ushbu asar ma‘naviyat masalalariga to‘xtaladi. Asarda vafodorlik, sevgi, sadoqat targ‘ib etiladi, sof muhabbatga g‘ov bo‘luvchi, muhabbatga ko‘ngilxushlik ko‘zi bilan qarovchi, uni o‘yinchoqqa aylantiruvchi barcha omillarga qarshi keskin e‘tiroz bildiriladi. Asarda Oyxon va Cho‘pon sadoqat ramzi bo‘lsalar ham, asarning bosh qahramoni Maysaradir. Maysara, avvalo, zukko va ishning ko‘zini biluvchi obrazdir. Maysara o‘z zukkoligi bilan Cho‘pon va Oyxonning muhabbatlariga g‘ov bo‘lgan soxta oshiqnlarni fosh etadi va ularni kulgili ahvolga soladi. Xususan, Maysara kelini Oyxonga ko‘z tikkan Mullaro‘zi va Xidoyatxon kabi shariat vakillari va amaldorlarni fosh qilish uchun makr ishlatadi. Ularning har biri bir-biridan bexabar Oyxon bilan ko‘rishish umidida Maysaraning uyiga keladi va Cho‘ponning oldida sharmanda bo‘lib qaytib ketishadi.

Komediyada xalq qo‘shiqlari va masallaridan foydalanish obrazlarni ochib berishga, asar tilining sodda va ta‘sirchan bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

“Maysaraning ishi” komediyasi katta muvaffaqiyat qozonadi. Bastakor Sulaymon Yudakov ushbu komediya asosida “Maysara” nomli operani yaratadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy “Paranji sirlari” (1927) fojiasida esa eski odat-an’analarning ta’siri va tazyiqi natijasida saodatleri bo’g’ib qo’yilgan o’smir qizlarning fojiasini ko’rsatadi va buni asarning bosh qahramoni To’laxonim siymosida aks ettiradi. U Rustamga ko’ngil bergan bo’lsa ham, yovuz niyatli insonlarning yovuz amallari natijasida og’ir kunlardan o’tadi va uning qurboniga aylanadi. Yozuvchi bularning barini Mirza Karimga bog’laydi. Ayni paytda asarda muallif Mastura va Guljon obrazlaridan jamiyat va davrning asl yuzini ochib tashlashda foydalanadi. Hamzaning 1927-yilda yozgan “O’zbek xotin-qizlariga” nomli she’rida ham eski odat-an’analarning tanqidi va ayol ozodligi muammolarini o’z aksini topgan. Shoir she’rda ayollarni va qizlarni paranjini tashlab, maktabga borishga chaqiradi:

*Keldi ochilur chog’i, o’zliging namoyon qil,  
Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil.*

*Maktab, anjuman borg’il, unda fikr ochib gohi  
Ilm-u fan tig’i birla jahl bag’rini qon qil.*

*Soyalarda sarg’aygan yuzlaring qilib gulgun,  
Sen ham ahli donishlar bazmini guliston qil.*

Hamza Hakimzoda Niyoziy o’tgan asrning 20-yillarida ketma-ket “Yer islohoti”, “Mart qurboni Oynisa” va b. kichik hajmli sahna asarlari ham yozgan. Bu asarlarda ayol ozodligi, yangi jamiyat tarannumi va tuproq islohotlari masalalari ko’tariladi. Bu asarlar ko’proq targ’ibot xarakteridagi asarlardir. Masalan, muallif “Yer islohoti”da yangi jamiyat mohiyatini, qishloqliklarga tuproq berilishi ishining ahamiyatini ochib beradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy kommunist ideologiyasida bo’lgani uchun muammolarning yechim yo’llarini aynan shu konsepsiya doirasida izlaydi. Bu esa uning ijodida ba’zi ziddiyatlarni keltirib chiqargan. Lekin uning ijodida ziddiyatlar bo’lishiga qaramay, xalq turmush tarziga yaqinlik va xalqning kelajak orzu-umidlarining tarannumi katta o’rin egallaydi.

## ABDULLA QODIRIY

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotini yangi g'oyalar bilan boyitgan, zamonaviy o'zbek adabiyotining badiiy saviyasini ko'targan, roman

janri rivojida alohida xizmatlari bo'lgan adibdir. U 1894-yil Toshkentda bog'bon oilasida tug'ilgan. Adib avval eski uslubdagi maktabda, so'ng esa "rus-o'zbek" maktabida o'qiydi. A.Qodiriy bolaligidan badiiy adabiyotga qiziqish bildirib, 1909-yildan she'rlar va kichik hikoyalar yozadi. A. Qodiriyning 1917-yilgacha bo'lgan ijodi janr jihatdan ko'p qirrali hisoblanadi. U bu yillar davomida she'r, drama va hikoyalar yozadi va o'z asarlarida eski odat-an'analar va jaholatning avjga chiqqanini, buning natijasida odamlarning achinarli ahvolda yashashlarini tanqid qilar edi. "Ahvolimiz", "Millatimiz" she'rlari, "Baxtsiz kuyov" (1914), "Juvonboz" (1915) pyesalari, "To'y" (1915), "Jinlar bazmi" (1916) va boshqa hikoyalarda jamiyatning nuqsonlari ochib beriladi.

1915-1917-yillarda A.Qodiriy madrasada tahsil oladi. Bu yerda u adab va fors tillarini o'rganadi. Arab va fors tillarini bilgani uchun Sharq adabiyoti va madaniyati bilan yaqindan tanishadi. 1915-yilda "Baxtsiz kuyov" pyesasi chop etiladi. 1916-yilda esa yozuvchining "Juvonboz" hikoyasi nashr etiladi. Bular Abdulla Qodiriyning chop etilgan ilk asarlari hisoblanadi.

1917-yildan so'ng Abdulla Qodiriy jurnalistika sohasida ishlaydi. 1923-yilda ilk o'zbek satirik jurnali bo'lgan "Mushtum"da muharrirlik bilan shug'ullanadi. Abdulla Qodiriy 1924-yilda Moskvaga borib, Davlat jurnalistika institutiga kiradi. Moskvadagi tahsil Abdulla Qodiriy ijodiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bu yillarda u rus tilini mukammal o'rganadi, rus va Yevropa madaniyati bilan yaqindan tanishadi. Rus tilini chuqur o'rgangani uchun 1927-1930-yillarda ruscha-o'zbekcha lug'at tuzadi, rus tilidagi darsliklarni o'zbekchaga o'giradi. Chexov, Gogol, Mark Tven, Emil Zolyan, Deni Didroning bir necha asarini o'zbek tiliga tarjima qiladi. Bu sohada uning eng katta xizmatlaridan biri Abdulla Qodiriy tarjima qilgan bir qancha asarlarni tahlil qilib, bu asarlarga adabiyotshunos olim sifatida baho berishida edi. Masalan, 1936-yilda yozgan maqolasida u Chexov ijodini tahlil qiladi va adabiyotning ustun jihatlar borasida qimmatli fikrlar aytadi.



ABDULLA  
QODIRIY  
(1894-1938)

1919-yildan boshlab Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar” romani uchun material yig‘adi. 1922-yilda ushbu romanning birinchi qismini tamomlaydi va qismlarga bo‘lib “Inqilob” jurnalida chop ettira boshlaydi.

“O‘tgan kunlar” romanining birinchi qismi kitob bo‘lib 1924-yilda, ikkinchi qismi 1925-yilda, uchinchi qismi esa 1926-yilda chop etiladi.

1926-yilda Abdulla Qodiriy katta shov-shuvga sabab bo‘lgan “Mehrobdan chayon” romanini yozadi. Asar ilk bor 1929-yilda nashr etiladi. 30-yillardan boshlab Abdulla Qodiriy ko‘proq zamonaviy muammolarga e‘tibor qaratadi. Hikoya va romanlarda yangi jamiyat va u yuzlashgan muammolar A. Qodiriyning bu davrdagi ijodi asosini tashkil etadi. Yozuvchining 1934-yilda yozgan “Obid ketmon” romanida kollektivlashtirish davridagi sinfiy ziddiyatlar ko‘rsatiladi, davrning real hayot tarzi aks ettiriladi. Abdulla Qodiriy demokratik adib bo‘lib, shaxsga sig‘inish davrining qurboni sifatida 1938-yilda qatl qilinadi. 1956-yilgacha ijodining o‘rganilishi va targ‘ibi taqiqlangan edi. 1956-yilda oqlangani uchun keyingi yillarda ijodi tadqiq etilishiga imkoniyat tug‘ildi.

## IJODI

Abdulla Qodiriyning umri qisqa bo‘lishiga qaramay, ortida katta adabiy merosni qoldirib ketgan. U she‘rlar, hikoyalar, pyesa, qissa va romanlarida xalqning tarixiy o‘tmishi va bugungi hayot realliklarini aks ettirib, o‘z xalqini baxtiyor ko‘rish orzusida bo‘lgan. Mashhur o‘zbek olimi Izzat Sultonov uning ijodidagi bu xususiyatni asos qilib olib “Abdulla Qodiriyning asarlari badiiy mahorat namunasi” deb qayd etgan.

O‘zbek yozuvchisi va olimi Oybek ham Abdulla Qodiriy ijodini “avvalo hayotiyiligi bilan ajralib turuvchi san‘at” deb hisoblagan.

Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov” (1914) dramasida ijtimoiy hayotning noto‘g‘ri tarozisidan kelib chiqqan adolatsizliklarni tanqid qiladi. Solih asarning bosh qahramoni bo‘lib, u hayotdagi ehtiyojlar girdobida azob cheksa ham, kelajakka katta umid bilan boqadi. Lekin u yashagan jamiyatning chidab bo‘lmas qonun-qoidalari orzularini chippakka chiqaradi. Shuning uchun ham hodisalar Solihning fojiasi bilan yakunlanadi. Asarda sodir bo‘lgan hodisalar o‘sha davrning haqiqatlari darajasida taqdim etiladi. Abdulla Qodiriy asarda faqat tanqid yo‘lini tanlamaydi, balki hodisalarning sababini ham izlaydi.

“Shubha” (1935) hikoyasi 30-yillardagi qishloq hayoti va sinfiy nizolarni aks ettiradi. Hikoyada obrazlar ikkiga ajraladi. Bir guruh kolxoz hayotini, yangi jamiyatni qo‘llab-quvvatlaydi, ikkinchi guruh esa bularga qarshi e‘tiroz bildiradi.

Shuning uchun ham ikki qutb namoyandalari bo‘lgan To‘ychiboyev, Zuhurov, Xoliqov va boshqalar tabiiy ta‘sir bag‘ishlaydilar.

O‘zbekistonda kollektivlashtirishning olib borilishi va mamlakat

qishloqlarida yuz bergan hodisalarni aks ettiruvchi boshqa asar “Obid Ketmon” qissasidir. Muallif “Chetan” kolxozi aholisi timsolida bir-biriga yon bosmaydigan, o‘z maqsadlari yo‘lida kurashlarini tasvirlaydi. Asarda hodisalar ideologik aspektdan aks ettirilgani sababli “kolxoz baraka, kolxoz yo‘li to‘g‘ri yo‘l” ifodalarining tez-tez takrorlanishi va g‘oya shaklida yuzaga chiqishi shior ta‘hiri bag‘ishlaydi. Shubhasiz, bu sobiq sovet tuzumi ideologiyasi talablaridan kelib chiqardi. Asar qahramoni Obid o‘rtahol qishloqlik bo‘lib, mehnatsevar, tajribali odamdir. U ketmon laqabi bilan taniladi. Obid kolxozga sidqidildan a‘zo bo‘lib yoziladi va kolxozning rahbarlaridan biriga aylanadi. Asarning asosiy obrazlaridan bo‘lgan Berdi tatar, Rafiqov, Usmon, Xatib, Muhsin, Xolmirza aka, Sobirov, Sultongul va b. o‘z harakat, hodisalarga munosabati bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham diqqatni jalb etuvchi ikki mulla obrazi Xatib va Muhsin din xodimi sifatida bir xil tanqid qilinmaydi. Abdulla Qodiriy Muhsinga keskin planda yondashsa, Xatibni muloyim til bilan tanqid qiladi.

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotidagi eng katta xizmatlaridan biri roman janriga asos solgani hisoblanadi. Adabiyotshunoslar uni faqat o‘zbek adabiyotidagi roman asoschisi sifatida emas, balki butun O‘rta Osiyoda romanning shakllanishida katta ta‘sir ko‘rsatgan shaxs sifatida baholaydilar. Mashhur sharqshunos olim Bertels o‘zbek romanchilik maktabining yaratilishida Abdulla Qodiriyning alohida xizmati borligini ta‘kidlagan.

Abdulla Qodiriyga ikki asari shuhrat olib keladi. Bulardan biri “O‘tgan kunlar” (1926), ikkinchisi “Mehrobdan chayon”dir (1928).

“O‘tgan kunlar” romanida XIX asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy adolatsizlik, mavhumlik va jaholat tanqid qilinadi. Asar sobiq sovet tuzumida yashovchi ko‘plab xalqning, shu jumladan, Yevropa xalqlarining tiliga tarjima qilingan.

“O‘tgan kunlar” ilk o‘zbek romani sifatida 1968-yilda nemis tiliga tarjima qilinib, Berlin shahrida chop etildi. Hatto nemis adabiyotshunos olimi Niota Tunnin roman to‘g‘risida chop etgan ilmiy maqolasi bu asarning G‘arbda katta qiziqish uyg‘otganidan dalolatdir.

“O‘tgan kunlar” romanining mazmuni ilg‘or tafakkurli Otabek va uning tarafdorlari bilan ularning dushmanlari o‘rtasidagi ziddiyatlardan tashkil topgan.

Otabek romanning bosh obrazidir. U o‘z davrining barcha jirkanch qonun-qoidalariga qarshi kurashadi. Uning Kumush bilan muhabbat sarguzashti roman syujetining asosini tashkil etadi. Ularning bir-biriga bo‘lgan muhabbati eski odatlarga sig‘maydi, yovuz niyatli odamlarning e‘tirozlariga sabab bo‘ladi.

— Otabek Kumushni sevishiga qaramay, Zaynabga uylanishga majbur

bo'ladi. Zaynab Otabekning Kumushga bo'lgan kuchli muhabbatiga hasad qiladi, shu tufayli Kumushni zaharlab o'ldiradi. Asar yakunida na Otabek, na Kumush, na Zaynab o'z maqsadlariga yeta oladi. Kumushning o'limidan so'ng Otabek Zaynabni uydan quvib soladi, Zaynab aqldan ozadi, Otabek esa Marg'ilonga ketib, chor qo'shinlariga qarshi kurashda do'sti bilan birga qahramonlarcha halok bo'ladi. Muallif uning o'limini asar yakunida quyidagicha taqdim etadi: "1277-nchi yilning kuz kezlarida bo'lsa kerak, Yusuf-bek hoji Qanoatshodan bir xat oldi. Qanoatsho Avliyo otadan yozar edi. "O'g'lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo'shunda edi. Olmaota ustidagi o'rus bilan to'qunishmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo'ldi. Men o'z qo'lim bilan ikkisini dafn etdim..." Ko'rinib turganidek, bu yerda badiiylik yuqori emas. Ya'ni Abdulla Qodiriy faktni, hodisani hech bir bo'rttirishlarsiz, badiiy tasvir ifodalarsiz berish bilan haqiqatga sodiq qolganini namoyish ettirgan.

Abdulla Qodiriy tarixiy mavzuda yozgan romanlaridan biri "Mehron-dan chayon" asaridir. Asarda muallif hodisalarga sodiq qolib, Xudoyorxonning saroyidagi beshafqatliklarni qalamga olgan. A.Qodiriy 1928-yil 5-fevraldagi maqolasida o'z fikrini quyidagicha bayon qiladi: "Turkiston feodallarining keyingi vakili bo'lg'an Xudoyorning o'z xohishi yo'lida dehqon ommasi va mayda hunarmand - kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo'lmasin, rahmsiz jazo berishi ro'monning mavzuidir." Albatta, muallif o'z maqsadini amalga oshirayotganda davrning ijtimoiy-siyosiy xususiyatini bo'rttirib ko'rsatadi. Buning uchun avvalo, kurashayotgan kuchlarning real tasviriga ko'proq joy ajratadi va o'z qahramonlarini quyidagicha tasvirlaydi: "Xudoyorning bu yo'ldag'i birinchi istinodgohi bo'lg'an ulamolar, ularning ichki-tashqi ahvoli, axloqi, madrasa va oila hayoti, ulamoda insoniy his bitkanligi va qolg'ani ham xabosat pardasi ostida sezilmas darajaga yetkanligi mundarija sig'dirg'an qadar bayon qilinadir. Bular ro'monning nomarg'ub - manfiy qahramonlari. Ikkinchi tarafda mazkur qora kuchlarga qarshi "tuban" sinf - kambag'allar, ularning xonliq tuzilishiga, qora kuch - ulamo alayhiga chiqishi. Mehnatkash kambag'allarning axloqi, sajiyasi, oilasi, turmishi va bir-biriga aloqasi, samimiyati".

Ko'rinib turganidek, muallif o'z so'zlari bilan ziddiyatdagi kuchlarning kimligi, qaysi tabaqaga mansub ekanligi to'g'risida ma'lumot beradi. Asarning yuqori sifatlaridan biri muallif tom ma'noda tarixiy faktlardan chetga chiqmagani edi. Muallifning o'z so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, "so'ngg'i marg'ub qahramonlarni o'zbek tarixining hazmi ko'targan qadar o'z holicha olishqa" tirishgan. Chunki "shundan ortig'i soxta bo'lishi ustiga kitobning qadrini ham tushurar edi".



Bu kabi munosabat orqali yozuvchi o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixni, odamlarning turmush tarzini, axloq va xatti-harakatlarini, barcha etnografik sharoitlarini ochib bera olgan.

"Mehrobdan chayon" romanining bosh qahramoni Anvar bo'lib, uning bolaligi tasvirlangan sahnalar mavjud bo'lsa-da, saroyda ishlagan davri ko'proq diqqat markazida edi. U xayrixoh, do'stlikka sadoqat bilan yondashuvchi obrazdir. Madrasada tahsil olgan yillarida do'sti Nasimiyning o'limi Anvarning qalbida katta iz qoldirgani bevosita uning samimiyligi va vafodorligidan dalolat beradi. U saroyda mirza, so'ng esa mirzaboshi etib tayinlanadi. Aslida muallif bu yerda ikki katta farqdan, ikki katta nuqsondan so'z ochadi. Bir tomonda Xudoyorxon va uning tarafdorlari, ikkinchi tomonda o'z amallari bilan bir qancha insonlarning mehrini qozongan Anvar. Muallif Anvarning saroyda mirzaboshi etib tayinlanishi bilan Xudoyorxon xalq uchun jon kuydiruvchi insonlarga lavozim berishini aytmoqchi bo'lmagan.

Aksincha yozuvchi bu faktga tabiiy qarab, shunchaki Xudoyorxonning boshqaruvda faol xizmatni talab qilganini ko'rsatadi. Chunki Xudoyorxon Anvarning ishga mas'uliyatini va savod bilan farmon yoza olishini e'tiborga olib, bu qadamni tashlaydi. Xonning nazarida Anvardan boshqa hech kim bu ishning uddasidan chiqolmas edi. Demak, xon bu ishga qo'l urganda, uning xalqqa tegadigan yordamini emas, o'z ishining davomiyligini ko'zda tutadi. Shuning uchun ham Anvar mirzaboshi etib tayinlanishi to'g'risida quyidagicha fikr bildiradi: "Yana men mirzaboshi bo'lib qolsam bu ohu zorlarning, to'kilgan ma'sum qonlarning ichida bilfe'l suzarman. Bu vaqt manim azobim bevosita bo'lur. Balki bunda ishtirok ham qilarman. Chunki xong'a yaxshi ko'runish uchun ko'b ishlarni uning istagicha ko'rsatish, zulm pichog'ini qayrab berish, shu mansabda uzoq yashamog'imning asos shartidir".

Anvar mirzaboshi etib tayinlangandan so'ng katta mashaqqatlarga duch keladi. Asarning ushbu qismigacha saroydagi qing'ir ishlar haqida so'z ochilmaydi. Yozuvchi Anvardan saroyni yoritish uchun vosita sifatida foydalanadi. Biz uning yuqori amalga tayinlanishi orqali hokimiyat va saroyning jirkanch siyosati bilan tanishamiz. Anvar mirzaboshi bo'lgach ham avvalgi do'stlari bilan aloqani uzmaydi. Masalan, bo'zchi Safar bilan davom etgan do'stligi bunga misol bo'la oladi. Boshqa tomondan u shikoyat uchun kelgan mehnatkash odamlarga e'tibor qaratadi. Umuman olganda saroy muhiti uni o'zgartirishga kuchi yetmaydi. Aksincha, u avvalgi hayoti va prinsiplariga sodiq qoladi. Muallif asardagi hodisalarni keskinlashtira boshlaydi. Anvarning saroyga bo'lgan nafrati kun sayin ortadi, u mirzaboshilik lavozimidan ozod bo'lishga urinadi.

Muallif asarda saroyni to'rga o'xshatadi. Aslida bularni bilaturib Anvarning u yerdan qutula olmasligini yozuvchi uning to'rga tushish deb



tavsiflaydi. Boshqalarni saroy fitnalardan asrash niyatida bo'lgan Anvarning o'zi bu fitnalarning qurboniga aylanadi. Qaylig'i Ra'no badxohlar tomonidan juvonboz Xudoyorxonga tavsiya qilinadi. Xon qizning otasi Solih Maxdumning oldiga sovcilarini yuboradi. Solih Maxdum xon qaynotasi bo'lishni afzal bilib, qizning fikrini so'ramay, rozilik berib yuboradi. Anvarning azob-uqubati, qayg'usi bu hodisadan so'ng kuchayib ketadi. Avvaliga bu hodisaga munosabatini bildirmagan Anvar ichetini kemiradi: "Anvar o'zini favqulodda tekis ushlab borar, hozir unda boyag'i o'zgarishlarning' hech birisi ham ko'rinmas edi. Sultonali mirzo bu bemaza gapni Anvarning ko'nglidan chiqarishqa tirishib haligidek yupatishlarni og'zidan qo'ymas, eshitkuchi esa qisqag'ina jumla bilan uning fikriga qo'shular yoki iljayib, tasdiq ishorasini berar edi".

Hech kinga bu to'g'risida og'iz ochmagan Anvar kin-quduratini ichiga yutadi. Aslida yozuvchi bu yerda Anvarning keskin e'tirozi va isyonini ko'rsatishi mumkin edi. Lekin o'sha davrda xonning mutlaq hukmronligi va beshafqat, qonxo'r, zolim ekanligi ma'lum bo'lgani uchun Anvarning e'tirozi tabiiylikdan yiroq bo'lar va asarning saviyasi pasayar edi.

Biz asar yakunida Ra'no va Anvarning birgalikda qochib, Sultonalining uyiga kelganiga, bu voqeadan so'ng Sultonali Xudoyorxonning g'azabiga duchor bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Anvar saroyga o'z oyog'i bilan kelmasa, Sultonali osilishini ovoza qiladi. Anvar do'stini qutqarish uchun saroyga boradi. Yozuvchi bu yerda Anvarning do'stga bo'lgan sadoqatini yaqqol namoyon qilgan.

"Mehrobdan chayon" romanidagi eng hayajonli sahnalardan biri Anvarning saroyga qaytishidir. Biz bu yerda Anvarning mardligi va o'limning ko'ziga tik boqa oladigan shaxsligini ko'rishimiz mumkin. Anvarning akasi Qobilboyning yordami bilan o'limdan xalos bo'lgan Anvar qaylig'i Ra'no bilan Toshkentga qochib ketadi. A.Qodiriy romanni shu voqea bilan yakunlaydi. Lekin romanda Mirzo Anvarning keyingi taqdiri haqidagi ma'lumot juda qiziqarli maqomga ega. Bu qismda muallif o'z otasining guvohligini asos qilib olib, Mirzo Anvarning Toshkentda Ra'noga uylanishi, qaysi sharoitda va qanday yashagani haqida ma'lumot beradi. Hatto otasi Ra'no bilan Anvarning nikoh marosimida ishtirok etganini bildiradi. Muallif Anvar Xudoyorxonning afvi haqida xabar topgach, Qo'qonga qaytganini qayd etadi. Bu hodisadan so'ng A.Qodiriy Mirzo Anvarning hayoti to'g'risida ikki ehtimolni tilga oladi. Bir ehtimolga ko'ra, Xudoyorxon Anvarni yolg'ondan Qo'qonga chaqirib olib, qatl qildiradi. Ikkinchi taxminga ko'ra esa Mirzo Anvar Qo'qonga qaytgach, uzoq umr ko'radi va o'z ajali bilan vafot etadi. Abdulla Qodiriy bularni nazarga olib, Anvarning hayotini noma'lum tarzda yakunlashga majbur ekanligini qayd qiladi. Bu muallifning haqiqat asosida asar yozishning mas'uliyatini anglab yetganidan dalolatdir.

Asarning yana bir bosh qahramoni Ra'nodir. Muallif Ra'no tug'ilib-o'sgan uy va muhit to'g'risida atroflicha ma'lumot beradi. U Solih Maxdumning qizi bo'lib, oilaning to'ng'ich farzandidir. Shuning uchun ham uy yumushlari uning zimmasida bo'ladi. Asarda Ra'noning zohiriy go'zalligi bilan botiniy go'zalligi jipslashib ketadi. Muallif uni quyidagicha tasvirlaydi: "Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham quyoshda bir oz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi. Shunga o'xshash Ra'noning ko'zida ham buning asari ko'ruladir: mudavvarga moyilroq jodu ko'zi kishiga qattiq qarag'anda qoraliqdan boshqacha yana bir turluk nur sochar edi. Kipraklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi".

Ra'no 14 yoshida ibtidoiy maktabni bitiradi. U tahsilini asosan otasining maktabida oladi. Ra'no "Haftiyak", "Qur'on", "Chahor kitob", "So'fi Olloyor", "Maslaki muttaqin", adabiyotdan esa Navoiyning barcha asarlari, Fuzuliy, Amiriy, Xoja Hofiz Sheroziy va Mirzo Bedilni o'qib o'rganadi. Shuningdek, o'zi ham she'r yozadi. Bulardan Ra'no savodi o'tkir, zukko, odobli qiz ekanligi ayon bo'ladi va Anvarni maftun qilgan xislatlari ham shulardir.

Umuman olganda, Anvar bilan kelajak taqdiri uni doim o'ylantirgan bo'lib, bu yo'lda Ra'no zimmasidagi mas'uliyatni his qiladi. Ra'no jasoratli qiz bo'lib, qiyin onlarda o'zini yo'qotmaydi. Shu jihatdan Ra'no "O'tgan kunlar"dagi Kumushdan butkul farq qiladi. U Kumushga qaraganda jasoratli va dovyurak obraz bo'lib, suyuklisi Anvar bilan eng og'ir sharoitlarda ham qolishga, vaziyatdan chiqish uchun har qanday ishga qo'l urishga ham tayyor. Shuning uchun ham Ra'no asar so'ngida o'z maqsadiga yetadi.

Romandagi ijobiy qahramonlar qatorida Sultonali, Safar bo'zchi, Rahim, Sharif, Qobilboylar bor. Muallif ularning har biriga alohida to'xtalib o'tib, bu obrazlarning xususiyatlaridan so'z ochadi. Natijada nomlari aytib o'tilgan har bir shaxsning faoliyati, shaxsiyati, turmush tarzi to'liq tasvirlanadi.

Abdulla Qodiriy asarda Solih Maxdum obrazini serqirra qahramon sifatida yaratgan. Solih Maxdum o'qituvchi bo'lgani uchun adib uni keskin tanqid qilishdan chekinadi. Yozuvchi Solih Maxdumning nuqsonlari, kamchiliklari haqida yozar ekan, u ustoz bo'lgani uchun, ko'p insonlarga ta'lim bergani uchun ham uni ko'p tanqid etishning hojati yo'qligini qayd etadi. Bundan keyingi qismlarda muallif o'z fikrlariga amal qilib, Solih Maxdumni tanqid qilmaydi, shunchaki uning hayotini yoritadi. Bu jarayonda esa obrazning kimligi, xarakteri ochiladi. O'quvchi uning xassis, boylikka o'chligiga o'zi guvoh bo'ladi. Pul uchun Solih Maxdum o'z kasbiga va yoshiga yarashmagan qiliqlar qilishdan ham tap tortmaydi. O'quvchi Solih Maxdum o'zini xonning qaynotasidek tutishi sahnasi

orqali uning butkul yangi qirralariga guvoh bo'ladı. Asarning oxirida muallif Solih Maxdumning kulgili vaziyatda tushishi orqali inson aqidasining jirkanchliklariga qarshi e'tirozini bildiradi.

Asarda beshafqatligi, razil va axloqsizligi bilan ajralib turuvchi personajlardan biri Xudoyorxonidir. Taxminan 1865-yilda uchinchi marta taxtga chiqqan Qo'qon xoni Xudoyorxonning zulm va zo'ravonligi ortadi. Sirdaryo kanalining qurilishida odamlarga berilgan zulm uning beomonligining yorqin namunasidir. Kanal qurilishi vaqtida odamlar och ahvolda ishlaganlari uchun ketmonni ko'tarishga ham kuchlari qolmaydi. Bu sharoitda xonning ularni jazolashi naqadar berahm ekanligidan dalolat beradi. Xudoyorxon doimo o'z hokimiyatini kuchaytirish tashvishi bilan bo'lib, diniy ulamolarni, savdogarlarni, amaldorlarni atrofiga yig'ib oladi. Bo'sh xazinani esa og'ir ahvoldagi xalqdan yig'ilgan soliq hisobiga to'ldiradi. Muallif Xudoyorxonning hokimiyat davrini asarda quyidagicha tavsiflaydi: "Xudoyorning erkin nafas olib, Farg'ona ustida o'zi tilagancha qamchi o'ynatqan va zulm tig'ini kambag'allar qoni bilan sarbast bo'yag'an so'ngg'i davridir... Xazinaning bo'shlig'ini, o'ylang'an ishning nihoyatda ulug'lig'ini andisha qilmadi". Yozuvchi xonning ayollarga o'chligi, uning haramxonasida haddan ortiq ko'p ayollar borligiga diqqatni jalb etadi. Bu to'g'risida xonning rafiqasi Og'acha oyim bilan Gulshanning suhbatida katta ahamiyat kasb etadi. Og'acha oyim Gulshanga "mundan so'ng haramga xotin va kaniz keltirilmasin" deydi.

Xon harami, xotinlari, o'rdadagi qullar haqidagi aniq ma'lumotlar asarda salmoqli o'rin tutadi. Ular bilan tanishganda hujjatli-tarixiy, publitsistik asar o'qiyotganday bo'lasiz. Yozuvchi ba'zan qahramonlari tabiatini, xususan haramdagi qizlar fojiasini hazil-mutoyiba, o'yin-kulgi orqali ochib beradi. Ammo bu kulgili bo'lib tuyulgan hodisalar zamirida jiddiy insoniy drama va shafqatsiz haqiqat yotadi.

Xudoyorxonning atrofiga yig'ilgan insonlarning eng qabih va razili Abdurahmon bo'lib, u amal, shon-shuhratga o'ch odamdur. Yozuvchi Abdurahmonni chayonga o'xshatadi. Anvar unga yaxshilik qilsa ham, u minnatdor bo'lish o'rniga yomonlikni tanlaydi. Mulla Abdurahmonning do'stlari Kalonshoh va Shahodat mufti ham salbiy qahramonlardan sanaladi. Yozuvchi bu uch personaj timsolida qalbi xiyonat va g'arazga to'lgan odamlarning obrazini yaratib, ularga nafratini namoyon qilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Mehrobdan chayon" romani yuksak g'oyamazmuni va badiiy xususiyatlari bilan ajralib turuvchi asardir. Asarda syujet sistematikligi va dramatikligi oldinga qo'yilgan maqsadning amalga oshishida muhim ahamiyatga ega. "Mehrobdan chayon" romani "orttirmay va kamitmay" o'z holicha jamiki qirralari, tovlanishlari bilan gavdalantirgan, xarakterlar olamini, ruhiyatini o'ziga xos ohanglar, bo'yoqlar vositasida kashf etib bergan o'xshashi yo'q badiiy obidadir.

## CHO'LPON

Zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik va-killaridan biri bo'lgan, shoir, iste'dodli nosir va dramaturg Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yilda Andijon shahrida tavallud topgan. Cho'lpon uning taxallusi bo'lib, "yulduz" degan ma'noni anglatadi.

U avval eski uslubdagi maktabda, so'ng esa madrasada tahsil oladi. Uning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy dunyoqarashining shakllanishida, adabiyotga qiziqishi uyg'onishida shoir otasi Sulaymonning (1874–1929) o'rni katta bo'lgan.

Cho'lpon mukammal madrasa tahsilidan so'ng butun Turkistonda tengi yo'q zakovati bilan dong tarata boshladi. U arab, fors, turk va rus tillarini o'rganadi va bu tillardagi adabiyot namunalarini asl nusxasidan o'qishga muvaffaq bo'ladi. Firdavsiy, Hofiz, Sa'diy, Umar Xayyom, Rumiy, Fuzuliy, Nasimiy, Tavfiq Fikrat, Namiq Kamol, Abdulhaq Hamid, Abdulla To'qay, Pushkin, Gogol, Lermontov va o'nlab ijodkorlarning asarlarini o'z tillaridan o'qishi uning ma'naviy uyg'onish va rivojiga kuchli ta'sir o'tkazgan.

Cho'lpon adabiyotga 1913-yilda 16 yoshida qadam qo'ygan bo'lib, bu yillarda Turkistonda ma'rifat harakati keng yoyilgan edi. Shuning uchun ham shoirning aksariyat she'rlari ma'rifatchilik g'oyalari targ'iboti bilan ajralib turardi. Cho'lpon bu yillarda hikoya va ocherklar ham yozgan. Ijodining ilk davrida yozgan she'r, hikoya va ocherklari "Farg'ona ovozi", "Sadoi Turkiston", "Turkiston viloyati gazetasi", "Oyina", "Sho'ro" kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan.

Cho'lpon 20 yoshida Oktyabr inqilobi g'alaba qozondi. Inqilobdan so'ng bir qancha yangi gazetalar chop etildi. Cho'lpon yangi chiqa boshlagan "Qizil bayroq", "Turkiston", "Buxoro axboroti" gazetalarida ishlaydi.

U badiiy va publitsistik ijodida xalqining ozodlik, mustaqillik, saodat orzularini ifodalagan va shu sababli zolim bolshevik aqidali odamlar tomonidan ta'qibga duchor bo'lgan.

Cho'lponning she'riy asarlari "O'zbek yosh shoirlari", "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926) va "Soz" (1935) to'plamlari shoirning milliy tafakkur va g'oyalarini aks ettirish nuqtayi nazaridan diqqatni jalb etadi.

Milliy ozodlik va milliy baxt yo'lida kurashga bo'lgan ishtiyoqi tufayli Cho'lpon 1937-yil kuzda qamoqqa olinadi. U 1938-yil 5-oktyabrdagi qarorga ko'ra "xalq dushmani" nomi bilan otib tashlanadi. Ommaviy



**CHO'LPON**  
(1897-1938)

qatag'on davrida uning uyi tintuv qilinadi va bir qancha asarlarning qo'lyozmasi yo'q qilinadi. Cho'lpon 1956-yilda oqlanib, adabiy merosi o'rganilishi va targ'ib etilishiga qo'yilgan taqiqlar bekor qilinadi. Aqida bo'yicha xalqiga sodiq bo'lgan Cho'lpon nafaqat o'z yurtida, balki butun turk dunyosida hurmat-ehtiram bilan yod olib kelingan.

"Turkiyada chop etilgan "Turkiston" jurnali 1989-yildagi sonining birida XX asrda Turk dunyosining ikki darg'asini birvarakayiga yo'qotgani to'g'risida jar solishi bejiz emas. Bu shaxslardan biri Turkiyani 14 imperialist davlatning qonli changalidan xalos qilib, Turkiya Respublikasiga asos solgan dohiy sarkarda Mustafo Kamol Otaturk bo'lsa, ikkinchisi butun Turon dunyosining faxri sanalgan, nomi jahon adabiyot tarixiga oltin harflar bilan yozilishga loyiq bo'lgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir"<sup>13</sup>.

Cho'lpon shoir, nosir va dramaturg bo'lish bilan birga, adabiy tanqidiy maqolalari va mukammal tarjimalari bilan ham tanilgan shaxsdir. Uning "Adabiyot nadir?", "Muhtaram yozuvchilarimizga", "Tagor va tagorshunoslik", "Mirzo Ulug'bek", "500 yil" va shu kabi ilmiy-tanqidiy hamda publitsistik maqolalari san'at va ijtimoiy-siyosiy hayot muammolarini tahlil qilish bo'yicha hamiyati hisoblanadi. Shuningdek, Cho'lpon Aleksandr Pushkinning "Dubrovskiy", Gogolning "Tergovchi", I.S.Turgenevning "Cho'ri qiz", A.M.Gorkiyning "Ona", Shekspirning "Hamlet" va boshqa asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, o'z iste'dodini namoyish etadi. O'z xalqi va davlatining milliy mustaqilligi, milliy ozodligi yo'lida joni fido qilgan Cho'lpon ijodi hozirgacha xalq tomonidan ardoqlanadi. Cho'lponga 1991-yilda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berildi va so'nggi yillarda uning asarlari bir necha bor nashr etildi.

## IJODI

Cho'lpon keng va serqirra adabiy merosga ega. Milliy ongning uyg'onishida, milliy-ma'naviy aqidaning shakllanishi va rivojlanishida Cho'lpon ijodining ahamiyati katta.

1913-yilda ijodga qadam qo'ygan Cho'lpon she'rlarida asosan ma'rifiy qarashlarga ustunlik berardi. "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadyor" hikoyalari shoirning qullik va jaholatga qarshi kurash va isyonini aks ettiradi. Oktyabr inqilobining ta'siri natijasida o'lkada sodir bo'layotgan keskin ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar Cho'lponning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ijodidagi ma'rifatchilik g'oyalari ochiqchasiga milliy ozodlik g'oyalari targ'ibotiga aylana boshladi. Masalan, shoirning 1921-yilda yozgan "Buzilgan o'lkaga" she'ri xalqning ozodlik, saodat yo'lidagi shoirning xavotiri, orzu va niyatining aniq ifodasidir. She'rda shoir Oktyabr inqi-

<sup>13</sup>Xalil Rizo Ulug'turk. Turon gulchambari, Boku, 1992, 57-bet.

lobidan so'ng o'z baxti va saodatini topmagan, natijada parishon, g'amli o'lkasiga murojaat qiladi:

Ey, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka, Nega sening boshing uzra quyuq bulut ko'lanka?

Aslida shoir ritorik savollar bilan milliy hissiyotiga, menligiga teguvchi, mustaqilligini, davlatchiligini buzuvchi, yanchib o'tuvchi kuchlarga qarshi nafrat va isyonini bildiradi:

***Ot minganda qushlar kabi uchguvchi,  
Erkin-erkin havolarni quchguvchi,***

Ot chopganda uchar qushni tutguvchi, Uchar qushday yosh yigitlar qayerda? Tog' egasi: sor, burgutlar qayerda?

***Sening qattiq sirt-bag'ringni ko'p yillardir ezganlar,  
Sen bezsang-da, qarg'asang-da ko'kragingda kezganlar,  
Sening erkin tuprog'ingda hech haqqi yo'q xo'jalar,  
Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?***

Cho'lpon xalqining, millatining boshi ustidagi qora bulutlarni quvish yagona xalos yo'li deb hisoblaydi. Lekin buning oson emasligini, birlik va kurash namoyish ettirish bilan bu maqsadga yetish mumkinligini ta'kidlaydi:

***Nega sening qalin tovshing "ket" demaydi ularga?  
Nega sening erkli ko'ngling erk bermaydi qo'llarga?  
Nega tag'in tanlaringda qamchilarning kulishi?  
Nega sening turmushingda umidlarning o'lishi?  
Nega yolg'iz qon bo'lmishdir ulushing?  
Nega buncha umidsizdir turishing?  
Nima uchun ko'zlaringda tutashguvchi olov yo'q?  
Nima uchun tunlaringda bo'rilarning qorni to'q?***

Ko'rinib turganidek, "Buzilgan o'lkaga" she'rida shoirning milliy mustaqillik va ozodlik g'oyalari haddan ortiq yuqori bo'lib, millat boshiga qora kunlarni solgan "Ko'zi och, qorni to'q" dushmanlariga nafrat ifodalangan.

"Oktyabr" she'rida esa ijtimoiy-siyosiy va tarixiy hodisalarga obyektiv munosabat bildiriladi. Cho'lpon bu she'ri bilan Oktyabr inqilobi va natijalarining asl mohiyatini ochib beradi. Shoir Oktyabr inqilobini dunyoni o'z o'qidan chiqarib yuborgan, xalqlarning milliy mustaqilliklari yo'lidagi g'ov, milliy xalqlarni kelgindi mafkura girdobiga solgan soxta harakat, harbiy to'ntarish va millatlar uchragan yangi fojia shaklida tasvirlaydi:



*-Ey, bukun, ey bu kun  
Dunyolar sarsildi!  
Fikrlar, xayollar,  
Ro'yolar sarsildi!  
Ey, bukun olovlar  
Dunyoni yondirdi!  
Insonlar och yerni  
Qonlarga qondirdi!  
Ey, bukun ko'klarda  
Quyoshlar tutuldi.  
Ey, bukun shamollar,  
Bo'ronlar quturdi!  
Ey, bukun jahannam  
Olovlar pushkurdi;  
Ey, bukun vulqonlar  
Zulmatka tukurdi!\*,  
Ey, bukun chaqmoqlar  
Chaqdilar, chaqdilar...  
Ey, bukun to'fonlar  
Oqdilar, oqdilar...  
Ey, bukun do'l kelib,  
Olamni yiqqan kun!  
Ey, bukun kurramiz  
Mehvardan chiqqan kun!..*

Shuning uchun ham shoir she'rining so'nggi qismida inqilobning yolg'on mohiyatini ochish bilan bu siyosiy harakatni umidlarni puchga chiqishi deb tavsiflaydi:

***Do'llarning olamni yiqishi: Hechdir!  
Kurraning mehvardan chiqishi: Hechdir!***

Cho'lponning 30-yillardagi ijodida inson va jamiyat, hayot va inqilob, madaniyat va axloq muammolariga yangi munosabat aks eta boshladi. "So'z" she'rida shoir xalq qudratining, xalq azmining qudratini namoyish ettiradi. "Xalq" she'rida esa muallif mavzuga chuqurroq yondashib, insonning jamiyatdagi o'rni, uning kuch va qudrati to'g'ri yo'naltirilishi va buning bevosita jamiyatga ijobiy ta'sirini muayyanlashtira olgan.

***Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir,  
Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o'chdir...***



Cho'lpon asl milliy shoir bo'lib, asosiy mavzusi O'zbekiston bo'lsa, bosh qahramoni o'zbek xalqidir. U aqida jihatdan ham milliy qadriyatlariga bog'langan va unga sodiq qolgan arbob sanaladi. To'g'ri, uning ijodida milliy mazmun va g'oya kasb etmagan she'rlar ham mavjud. Masalan, inqilobiy g'oya va yangi jamiyatning tarannumiga bag'ishlangan "Qizil bayroq", "10 yil Leninsiz", "Ozod turk bayrami", "10 yil" va b. she'rlari bunga misol bo'ladi. Lekin bu hol Cho'lpon ijodida o'tkinchi xarakterga ega.

Cho'lpon ijtimoiy-siyosiy she'rlaridagi kabi, tabiat tasvirli she'rlarida ham xalqiga, vataniga bo'lgan chuqur muhabbatini namoyish ettira olgan. Cho'lponning "Bahorda", "Binafsha", "Bahor keldi", "Go'zal" va boshqa she'rlari tabiat va xalq hayotining tasviridan iborat.

Cho'lpon ijodida nasrning ham alohida o'rni va ahamiyati bor. "Kleopatra", "Oydin kechalarda", "Kecha va kunduz" va b. hikoya va romanlari uning nasr sohasida muvaffaqiyatga erishgan asarlaridan hisoblanadi.

1935-yilda tarixiy roman janrida yozilgan "Kecha va kunduz" asari Cho'lpon adabiyotidagi hajm jihatdan eng yirik asardir. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, romanning faqat birinchi qismi chop etilgan. "Kecha va kunduz" romani dolzarb mavzuga to'xtalgan bo'lib, birinchi jahon urushi davrida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy sharoit va yuz bergan fojialarni tasvirlaydi. Romanda mamlakatdagi adolatsizliklar, chorizmning vahshiy siyosati, mahalliy nizo va ziddiyatlar asosiy tanqid obyektiga aylangan. Asarda tasvirlangan hodisalar Oktyabr inqilobigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Cho'lpon o'sha davr muammolarini ustalik bilan tasvirlab, xalqining najot yo'lini ko'rsatishga intilgan. Romanning to'liq varianti yetib kelmagani uchun biz bu yerda hodisalar qanday yakun topishi haqida fikr bildira olmaymiz.

Zebi, Razzoq so'fi, Qurbon bibi, Miryoqub, Akbarali, Noib to'ra, Sultonxon, Valya, Mariya, Saltanat va b. romanning asosiy personajlaridir. Jamiyatning turli qutblarida o'rin olgan ushbu obrazlar orqali muallif oldiga qo'ygan maqsadini tom ma'noda ochib beradi.

Miryoqub romanning salbiy qahramonlaridir. Lekin Romandagi Miryoqub – ancha murakkab obraz. U aslida savodsiz, gazetalardan bexabar, dunyo ishlariga ko'p ham qiziqirmaydigan, rus tilini ham tuzuk-quruq bilmaydi. Shunga qaramay, ishning ko'zini biladigan o'ta tadbirkor odam. Shuning uchun "Epaga" degan laqab orttirgan. U aralashgan ish amalga oshmay qolmaydi. Pul topish yo'llarini yaxshi biladi. Miryoqub hayotning ko'pgina turfa xil voqealariga ro'para keladi va har gal ularning mag'zini chaqishga intiladi. Hayot uning qarshisida bir-biridan murakkab jumboqlarni ko'ndalang qo'yadi, Miryoqub ularga javob izlaydi.

Cho'lpon asarning boshidan oxirigacha Zebi xarakteridagi samimiyyatni, ochiqlikni eng muhim belgi sifatida ko'rsatadi. Uning tomirlarida

navqironlik jo'sh uradi, ko'nglida esa tevarak-atrofni qurshab olganlarga, dugonalariga, bahorga, hamma-hamma narsaga mehr beradi. U hali hayotning achchiq-chuchugini ko'rmagan. Zebining murg'ak qalbi dunyoda razolat va qabihlik, yomonlik va yovuzlik borligini sig'dira olmaydi. Zebi 4 devor ichida kishini erksiz qiluvchi havolardan nafas olib ulg'ayadi. U ko'proq otasidan qo'rqadi. Zebini hayotsevar qilgan omillardan bittasi – uning jarangdor ovozi. Zebida o'zbek ayollariga xos fazilatlar jamlangan. U poklik, go'zallik, tozalik va navqironlik timsolidir.

Zebi savodsiz qiz bo'lib, uni majburan Akbarali mingboshiga turmushga berishadi. Keyinchalik kundoshi Poshshaxon uni o'ldirish niyatida suviga zahar aralashtirib qo'yadi. Biroq zaharni Akbarali ichadi va o'ladi. Shuning uchun nohaq ayblangan Zebi 7 yilga Sibirga surgun qilinadi. Asarning keyingi hodisalarida bu qahramonning mashaqqatlar girdobida toblanishiga guvoh bo'lamiz. Uning otasi Razzoq so'fi, onasi Qurbon bibi hayotlari tasvirida esa ma'naviy zaharlangan insonlarning taqdirini kuzatamiz.

Cho'lpon dramaturgiya sohasida ham muvaffaqiyatga erishgan adabiyot vakilidir. U qisqa vaqt ichida "Temirchi", "Gunoh", "Cho'ringing isyoni" singari kichik sahna asarlarini yozdi. 20-yillarning boshlarida esa Cho'lponning "Yorqinoy", "Xalil farang", "Cho'pon sevgisi" pyesalari maydonga keldi.

Cho'lpon 20-yillarda ulkan shuhrat qozongan "Yorqinoy" dramasi yaratdi va 7 yil ichida 3 marta sahnalashtirildi. Ushbu drama ijtimoiy-falsafiy xususiyatga ega bo'lib, muallif bu bilan adolatsiz tuzumga qarshi o'z fikrini shu yo'l bilan yetkazishga harakat qilgan. Dramaning markazida Yorqin va Po'lat munosabatlari tursa-da, asar ishq muhabbat haqida emas. Yorqinoyning sevgisi katta psixologik muammolarni qo'yishda bir vosita, xolos. Insoniy burch va tuyg'u o'rtasidagi doimiy kurashi qahramonlar xarakterida yoritib berilgan.

Zamonaviy drama eposga ta'sir o'tkazganiday, epos ham zamonaviy dramaga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Yetakchi qahramon- Yorqinoy ko'pgina o'zbek ayollari singar mushtipar, to'rt devor ichida, o'z taqdiriga ko'ngan jabrdiyda emas, balki ko'pgina o'zbek eposlarida uchraganday erk yo'lida kerak bo'lsa erkaklar bilan tenglasha oladigan matonatli ayol sifatida tasvirlangan.

Pyasadagi markaziy qahramonlardan biri Po'latdir. Bu personaj Shekspirning Hamleti singari "Yo o'lish, yo qolish" qabilida ish tutadi. Po'lat yo burch, yo sevgi deganda ikkilanmay burchni tanlaydigan qahramon.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lpon zamonaviy o'zbek adabiyotida she'r, nasr, dramaturgiya, adabiy tanqid, publitsistikaning go'zal namunalarini yaratib, o'zining azamatli ijod yo'li bilan xalqining qalbida barhayot bo'lgan arbobga aylangan.

## G'AFUR G'ULOM

G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkent shahrida tavallud topgan. 1912-yilda otasi G'ulom Oripov vafot etgach, u amakisi bilan yashay boshlaydi. Uning otasi ham shoirlikka ishtiyoqi bo'lib, "Mirza" va "G'ulom" taxalluslari bilan she'rlar yozgan.

G'afur G'ulomning bolalik va yoshlik yillari katta moddiy qiyinchiliklarda o'tsa ham, tahsil olishni kanda qilmay, 1916-yilda rus-o'zbek maktabida o'qiy boshlagan. G'afur G'ulom bu yerda rus tilini mukammal o'rganib, rus adabiyoti va san'ati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Shoir 15 yoshida, 1918-yilda onasi vafot etgach, uying to'ng'ich farzandi sifatida oilaning barcha mas'uliyati uning zimmasiga yuklatiladi. Ana shundan so'ng mehnat faoliyatini boshlab, og'ir sharoitda bosmaxonada harf teruvchi bo'lib ishlaydi. G'afur G'ulom 1918-yilda 8 oylik boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorlov kursida o'qib, 1919-yilda ibtidoiy maktabda muallim bo'lib ishlaydi. Pedagogika sohasidagi xizmatlari e'tiborga olinib, Maorif Komissarligi buyrug'i bilan 1923-yilda unga internat maktabini tashkil etish topshiriladi. Maktab tashkil topgach, o'sha yili direktor etib tayinlanadi. G'afur G'ulomning ilk she'ri ham shu maktabda ishlagan yillarda yozilgan.

Shoir 1923–28-yillarda maktab-maorif va komsomol sohasida faoliyat ko'rsatadi. Bu yillarda G'afur G'ulom sermahsul ijodi bilan tanilgan. 1930-yilgacha shoir 500 dan ortiq she'r, hikoya, felyeton, ocherk va doston yozadi. U 1928–1942-yillarda ko'plab gazeta va jurnallarda ishlaydi. G'afur G'ulom "Sharq haqiqati", "Qizil O'zbekiston" gazetalari va "Yer yuzi", "Mushtum" jurnallari bilan hamkorlik qiladi.

G'afur G'ulom mumtoz o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Alisher Navoiy adabiyotiga yuqori baho berib, u haqida bir necha maqola va she'rlar yozadi. U 1939-yilda Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini nasriy janrda chop ettiradi.

G'afur G'ulom 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi a'zosi bo'ladi. 1963-yilda esa O'zbekiston xalq shoiri bomiga muvassar bo'ladi. 1946-yilda Davlat mukofoti va 1973-yilda Lenin mukofotiga loyiq ko'riladi.

G'afur G'ulomning tarjima sohasida ham alohida xizmatlari bor. Shoirning ozarbayjon, turk, rus va boshqa Yevropa xalqlari adabiyotidan qilgan tarjimalari o'z xususiyatlari bilan ajralib turadi. U S.Vurg'un,



G'AFUR G'ULOM  
(1903-1966)

Shekspir, Gorkiy, Mayakovskiy va boshqa bir qator arboblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. G'afur G'ulom 1966-yilda vafot etadi. 1970–1978-yilda shoirning asarlaridan iborat 12 jildlik kitob chop etilgan.

## IJODI

G'afur G'ulom zamonaviy o'zbek adabiyotida falsafiy she'riyat va yangi nasr taraqqiyotida benazir xizmatlari bo'lgan ijodkordir. Uning ijodidagi falsafiylik, novatorlik, milliylik va baynalmilalchilik, tarixiylik va zamonaviylik poetik uslubini o'zida aks ettiruvchi asosiy xususiyatlardan biridir. G'afur G'ulomning nasr asarlari ham ko'p bo'lib, 20-yillar oxiri 30-yillar boshlarida 40 dan ortiq hikoya yozgan. Bu davrdagi nasriy asarlarida eski hayot sarqitlari, jirkanchliklarining tanqidi, yangi hayotga chorlov asosiy o'rin egallaydi. G'afur G'ulom keyingi nasr nasriy ijodida asosan vatanparvarlik, qahramonlik hislarini singdiruvchi g'oyalarga e'tibor beradi, real hayotning obyektiv tasvirini jonlantirishga bel bog'lagan edi.

G'afur G'ulom vatanparvar shoir bo'lib, she'rlarining katta qismida o'z vatanining tarixi va buguniga diqqatini namoyish ettirib, xalqining kelajak saodatini aynan shu tuproqlarda ko'radi. "Toshkent", "O'zbekiston", "Shoning muborak sening", "Birinchi she'r", "Mening Vatanim" va b. asarlari shular jumlasidandir. Masalan, shoirning "Mening Vatanim" she'rida o'z o'lkasining har qarichiga bo'lgan mehr-muhabbati yaqqol namoyon bo'ladi.

*Havo salqin keng bog'da  
Sayr etaylik shu chog'da.  
Uzum, anor mevazor,  
Atrofi gul, lolazor,  
Bog'da, bog'da,  
Havo salqin shu chog'da.  
Mening go'zal Vatanim,  
U - mening aqlu tanim.  
Paxtalarining konidur,  
Jonim uning jonidur.*

20-yillarda Internat maktabi G'afur G'ulom taqdirida katta rol o'ynovchi muqaddas dargoh bo'lib qoldi. Bu joydagi mehnat va hayot uning shaxsiy va ijtimoiy tuyg'ularini avj oldirdi. Kunlardan birida boquvchisiz yetim bolalarga termilib, ich-ichidan achindi, xo'rliigi keldi, o'zining yetimlikda o'tgan umrini esladi. Tuyg'ulari junbushga keldi-yu, marjon yosh bo'lib ko'ziga emas, qog'ozga she'r bo'lib to'kildi. Bu G'afur G'ulomning birinchi she'ri edi. O'zbek adabiyotida, jahon adabiyotida yangi bir shoir tug'ildi.

30-yillarning boshi G'afur G'ulomning shoirlik dastxati aniq shakllangan, she'riy qudrati mustahkam tarkib topgan davrdir. Uning asarlaridagi notiqlik ohanglari dilovar va yoqimtoy lirika bilan qo'shilib ketadi. G'afur G'ulomning bu davrdagi she'rlarida yangi shakllarga burilish seziladi, bunga mumtoz rus tilini o'rganishi ham muhim darajada ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, sanoatning o'sishi, Turksib temir yo'l magistraling qurilishi kabi uning ona yurtida sodir bo'layotgan ajoyib o'zgarishlarni ta'riflash uchun yangi lug'at boyligi, yangi she'riy bo'yoqlar, yangi ohang va vazn talab etilgan. Zero hayotni ana shunday chuqur bilish, tomir-tomirlarini ushlab ko'rish, o'tgan ajdodlarning ijodiy merosini tinmay o'rganib borish G'afur G'ulomga birinchi besh yilliklarning qahramonona kunlari haqida ulug'vor qo'shiq- "Turksib yo'llarida" nomli she'rini yaratishida madad berdi. O'sha davr ideologiyasi esa uning zamon voqealarini idrok etishini chuqurlashtirdi, siyosiy va adabiy bilimni boyitdi, uni birdan-bir to'g'ri g'oyaviy-ijodiy yo'ldan boshlab bordi.

G'afur G'ulom 1942-yil bahorida o'zbek akademik Habib Abdullayevning rahbarligidagi namoyanda hay'ati tarkibida urushning eng qizg'in jang nuqtasida bo'lib, askar bilan ko'rishadi. Bu uchrashuv shoir ijodida chuqur iz qoldirib, vatan himoyasi, dushmanga nafrat ruhidagi she'rlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Urush yillarida shoir o'z ijodining butun haroratini fashist bosqinchilariga qarshi kurashayotgan xalqqa qaratdi, uning muqarrar g'alabasiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan she'rlar yaratdi. U "Sen yetim emassan", "Kuzatish", "Vaqt", "Sog'inish" kabi she'rlar, publitsistik ocherk va maqolalar yozib, xalqni jang va mehnat g'alabasiga otlantirdi.

Urush yillarida ota-onasiz kelib, O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan bolalar haqidagi "Sen yetim emassan" she'ri yuksak insonparvarlik g'oyasi va gumanizmi bilan ajralib turadi. Lekin bu yerda Odessada ota-onasidan ayrilgach bolaning taqdiri to'g'risida so'z boradi. Fashistlar uning onasini vahshiylarcha o'ldirgani, otasi esa so'nggi nafasigacha kurashib, oxirgi o'qni o'z chakkasiga uzgani ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham shoir bu bolani "mard ona, qahramon otaning farzandi" deb erkalaydi va unga tasalli beradi:

*Sen yetim emassan,  
Tinchlan, jigarim.  
Quyoshday mehribon  
Vataning-onang,  
Zaminday vazminu  
Mehnatkash, mushfiq  
Istagan narsangni tayyorlaguvchi  
Xalq bor- otang bor.*

“Men yahudiyman” she’ri ham bevosita urush davri taassurotlari asosida yozilgan bo’lsa-da, ko’proq insonparvarlik va xalqlar do’stligi g’oyalarning targ’ibi jihatdan ahamiyatlidir. She’rda shoir o’z fikrlarini Hitlerning irqiy nazariyasiga qarshi ayblov va e’tiroz fonida bildiradi.

Xalqlar do’stligi G’afur G’ulom poeziyasida keng tushuncha hisoblanadi. Shoir irqidan, dinidan, milliy mansubligidan qat’i nazar barcha xalqlarni jiplashishga chorlab, koinotni yagona oila maskani sifatida tarannum etadi. “Samad Vurg’unga”, “Ozarbayjon paxtachi do’stlarimga”, “Tojik xalqiga” va boshqa she’rlarida G’afur G’ulom xalqlar do’stligi va birodarligini oldinga planga olib chiqadi. Masalan, “Samad Vurg’unga” she’rida shoir o’zbek va ozarbayjon xalqlarining do’stligi aks etadi.

*Sharafli bu o’lkaning muhit kabi ko’kini  
Porloq yirik yulduzlar bezab kelmish sarbasar.  
Turlab ko’rsang tarixlar karvonining yukini  
O’z xalqi irfonidan olamga berar xabar.*

*Qadim otashkadalar muqaddas o’chog’ida  
Sarkarda Bobaklarning so’nmagan nafasi bor.  
Adirlar, vodiylarda, tog’larning quchog’ida  
Mag’lubiyat bilmagan xalqning gurros sasi bor.*

G’afur G’ulom poeziyasida baynalmilalchilik, xalqaro hayotning ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga munosabat o’ziga muayyan joy ajrata olgan. Bu mavzuda yozilgan “Qizim Jamilaga”, “Pol Robsonga”, “Livan ozod bo’ldi” va boshqa she’rlarida shoir mustamlaka va zulm zanjirlarini sindirish uchun oyoqqa turgan xalqning iroda qudratini va metin insonlarni olqishlaydi. Yana bir marta dunyo imperialist siyosatiga la’nat yog’diradi:

*Jazoir zindonining mazlumasi bo’lgan qiz,  
Biz butun Osiyomiz, Afrikamiz - hammamiz,  
Senga kelguvchi qilich mening boshimni chopsin,  
Zolimlarni qon bo’g’ib, mutlaq jazosin topsin.*

*Sen o’lmaysan, yashaysan, qotilning qo’li qisqa,  
Ozodlikning boshini zulmat qirqolmagandek.  
O’xshash tarixlaringiz, emasdir boshqa-boshqa,  
Zoya jallodlaridan tarix qasos olgandek.*

G’ofur G’ulom she’riyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyati o’ta kuchli bo’lib, shoir inson va jamiyat, inson va zamon, zamon va makonning fal-



safiy umumlashuvida poetik fikrlarini ifodalaydi. "Ikki she'r", "Salomning hikmati", "Olim do'stinga", "Vaqt", "Aql bilan qalam", "Ona" va b. she'rlari falsafiy g'oya va mafkurani o'quvchiga singdiradi. "Ona" she'rida tarjimayi hol xususiyatiga yaqinroq bo'lib, 15 yoshida onasini yo'qotgan shoir onasizlik xotiralarini tilga olib, bu og'riqning chuqurligi, ona dunyosining azamati va viqorini cheksiz muhabbat bilan tarannum etadi:

*Hoyna-hoy bir kitobsan,  
Minglab qomusdan baland.  
Hoyna-hoy oftobsan,  
Men esa, senga farzand.*

G'afur G'ulom onasini yod olishni farzandlik burchi deb hisoblaydi:

*Dunyoday alvonrang dasturxon yozib,  
Sening oilangda hammamiz obod.  
Kumush uzugingni barmoqdan olib,  
Ushbu she'rim bilan seni qildim yod.*

She'rdagi ona turmush tashvishlari va mehnat mashaqqatlari allaqachonq uning salomatligi puturini ketkazib qo'ygan edi. Sochlariga barvaqt oq oralagan ona qiyofasi shoir qalbida abadiy saqlanib qoladi. U o'zi uchun dunyodagi hamma narsadan aziz va qimmatli bo'lgan ana shu tabarruk zotga qayta-qayta qizg'in tashakkur aytib, ko'pgina she'rlarida unga murojaat qiladi.

*Rangmisan, quyoshmisan,  
Hammasidan ulug'san!  
Yetuk-yetuk so'zimni  
Sha'ningga aytguliksan.*

"Vaqt", "Aql va qalam" she'rlarida hayotiy voqealar, jamiyatdagi o'zgarish jarayonlariga falsafiy izoh beriladi.

"Salomning hikmati" esa didaktik va pand-nasihati uslubida yozilgan she'r bo'lib, uning qiziqarli mazmuni bor. Choyxonadagi keksalar suhbat qurib o'tirgan bir paytda shirakayf yosh yigit ichkariga kirib, noloyiq so'zlar bilan insonlarning dilini xira qiladi. Uni zo'rg'a choyxonadan quvib chiqaradilar. Birozdan so'ng boshqa yigit kirib, hammaga salom beradi, hol-ahvol so'raydi. Uning bu harakati bilan hammaning dili yayraydi, yuzlariga tabassum yuguradi.

Ikki xil hodisaning ta'sirini poetik uslubda aks ettirgan shoir yaxshilik, axloq, diqqat-e'tiborning inson hayotidagi ahamiyatiga diqqatni jalb etadi:



*Uchay degan gulxanni qaytadan qildi chaman,  
Suhbat ko'ngilday tinib, samimiy qilar davom...  
Keksa shoirman, deysan, buncha gapni cho'zasan,  
Salomning kuchin ko'rding, she'r bas, G'afur G'ulom!*

## MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK

XX asr o'zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkent shahrida bo'zchi oilasida dunyoga keldi. Adibning otasi Toshmuhammad Xumson va Yangibozorda baqqollik qilar edi. O'zining qaydlaridan ma'lum bo'lishicha, uning onasi dono, zukko va rahmdil ayol bo'lgan. Hatto ishlari ko'p bo'lishiga qaramay, fursat topdi deguncha, kitob o'qish bilan band bo'lgan. Oybek ilk tahsilini eski uslubdagi maktabda, so'ng esa yangi uslubdagi maktabda davom ettirgan.



**OYBEK**  
(1905-1968)

Oybek 1930-yilda O'rta Osiyo Davlat dorilfununining ijtimoiy fanlar fakultetiga kiradi. 1935-yilda bu yerni tamomlab, Davlat dorilfununida siyosiy iqtisoddan dars beradi. O'zbekiston Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat ko'rsatadi. 1938-1941-yillarda esa O'zbekistonning ilmiy-pedagogik nashriyotida adabiy tarjimon va muharrir bo'lib ishlaydi. Bir necha yil davomida Fanlar akademiyasidagi ijtimoiy fanlar bo'limiga va O'zbekiston yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qiladi. Oybek "Sharq yulduzi" va "O'zbek tili va adabiyoti" jurnallarida bosh muharrir bo'lgan.

Oybek adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. "Cholg'u tovushi" degan birinchi she'ri 1922-yil "Armug'on" jurnalida bosilgan. U adabiyotga 1926-yili chop etilgan "Tuyg'ular" she'riy to'plami bilan kirib kelgan. Shoirning "Dilbar- davr qizi" (1931), "O'ch" (1932), "Baxtigul va Sog'indiq" (1933), "Temirchi Jo'ra" (1933) dostonlari o'z davrining she'riy solnomalaridir. Oybek mohir shoir bo'lgani kabi yetuk romannavis ham edi. U yaratgan "Qutlug' qon", "Navoiy", "Ulug' yo'l", "Oltin vodiyan shabadalar", "Quyosh qoraymas" kabi epik asarlari o'zbek realistik romanchiligi taraqqiyotida muhim bir davrni tashkil etadi.

O'zbek kitobxoni Oybek tarjimasini orqali Rim adabiyoti namunalari, J. B. Molyerning "Tartyuf", Alexander Pushkinning "Yevgeniy Onegin", Mikhail Lermontovning "Maskarad", "Dovud Sosunli" arman eposi, G. Geyne, I. A. Krilov, V. G. Belinskiy, E. Verharn va boshqalarning asarlari bilan tanishdi.

Oybek adabiy faoliyatining muhim qismini adabiyotshunoslikka oid tadqiqot va maqolalar tashkil etadi. O'zbek xalqi tarixi va o'zbek mumtoz adabiyotining ulkan bilimdoni Oybek o'zining adabiy-tanqidiy faoliyatida adabiyotimizning eng qadimgi davridan to o'tgan asrning 60-yillariga qadar kechgan shakllanish va taraqqiyot yo'liga bag'ishlangan ko'plab

maqolalar e'lon qildi. Yirik adabiyotshunos Oybek "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" (1935) monografiyasi, "Lirika haqida" va boshqa maqolalarida XX asr o'zbek adabiyotining taraqqiyoti muammolarini yuqori ilmiy-nazariy saviyada o'rgandi.

Oybekning xizmatlari o'z samarasini berib kelgan. 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil topib, Oybek unga a'zo etib saylanadi. 1965-yilda u O'zbekiston xalq yozuvchisi nomiga loyiq ko'riladi. Benazir arbobning "Navoiy" romani 1946-yilda Davlat mukofoti muayassar bo'ladi. Taniqli yozuvchi 1968-yilda Toshkent shahrida vafot etadi. O'limidan so'ng O'zbekistonda 1975-1982-yillar orasida Toshkentda uning 19 jildlik tanlangan asarlari chop etiladi. 1959-yilda Oybekning "Qutlug' qon" romani ozarbayjon tiliga tarjima qilinib, nashr etiladi. Bundan tashqari uning asarlari turli tillarda tarjima qilinib, o'quvchilar e'tiboriga havola qilingan.

## IJODI

Oybek adabiy faoliyatini shoir sifatida boshlagan. "Cholg'u tovushi" degan birinchi she'ri 1922-yil "Armug'on" jurnalida bosilgan. Bu vaqtda u Cho'lpon, shuningdek, "yosh usmonlilar" she'riyati ta'sirida bo'lib, ular ruhidagi she'rlaridan iborat "Tuyg'ular" (1926) va "Ko'ngil naylori" (1929) to'plamlarini e'lon qilgan. Oybek dastlabki ijodida davrning o'tkinchi mavzulariga bag'ishlangan sərbast she'rlar yaratgan, ularning aksariyati "Mash'ala" (1932) to'plamidan o'rin olgan. Uning ijodga qadam qo'ygan yillari eng og'ir, chalkash davrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda yozilgan asarlari bilan Oybek zamonning eng muhim voqealarini javob bergan, ularga o'zining shoirona munosabatini bildirgan.

Oybekning 30-yillar ijodi mavzu va g'oya jihatdan avvalgi o'n yillikka o'xshab ketsa ham, muammoning ijtimoiy-siyosiy keskinlikda berilishi bu davr ijodining asosiy ko'rsatkichiga aylanadi. "O'zbekiston", "Kolxoz temirchisi" va shu kabi she'rlarida o'sha davrning hissiyotlari, orzu-umidlari o'z poetik ifodasini topa olgan.

Ulug' Vatan urushi Oybek ijodida ahamiyatli o'rin egallaydi. Urush mavzusi 40-yillardan boshlab umrining oxirigacha yetakchi mavzulardan biriga aylangan. Oybek 1942-yilda O'zbekiston madaniyat vakillarining katta guruhi bilan urush maydoni tomonga yo'l oladi. U to'rt oy frontda bo'lib, askarlarning dushmanga qarshi mardonavor janglariga guvoh bo'ladi. Adibning "Quyosh qoraymas" romani, "Olovli yo'llar" she'riy to'plami, "Front bo'ylab" hujjatli kundaligi bevosita jang maydonlaridagi hodisalar taassurotlarini aks ettiradi. Shoir urush davrida yozgan "Vatanni sev", "Zafar bizniki", "Yigitlarga", "Leningrad", "Alvido askar" va b. she'rlarida askarlarning mardligi va shijoatini, qahramon-

liklarini yuksak baholaydi. Masalan, "Jangchi yigitlarga" she'rida jangchi askarning qahramonligini quyidagicha ta'riflaydi:

*Ko'ksingizda yolg'iz Vatan muhabbati bor,  
Siz bossangiz ilgariga yer-ko'k larzador.  
Dillaringiz yovga nafrat bilan beqaror,  
Zafar bilan sizlar qayting bu maydonlardan.*

Bir tomondan, lirik harorat, ikkinchi tomondan, epik ko'lam Oybek she'riyatiga xos xususiyatlardir. U lirik she'riyat bilan bir qatorda dostonnavislik sohasida ham izlanishlar olib borib, "Dilbar - davr qizi" (1932), "O'ch" (1933), "Baxtigul va Sog'indiq" (1934), "Qahramon qiz" (1936), "Gulnoz", "Kamonchi", "Navoiy" (1937) singari dostonlarni yozdi. Shoir bu dostonlarida o'z davrining qahramoni obrazini yaratish va shu davrning muhim ijtimoiy-ma'naviy masalalarini ko'tarish bilan birga tarixiy o'tmish mavzusiga ham murojaat etdi.

O'zbek adabiyotshunoslari Oybek dostonlarini mavzu bo'yicha uch guruhga ajratadilar:

1) Tarixiy mavzuda yozilgan dostonlar. ("Bobom", "Guli va Navoiy", "Bobur" dostonlari).

2) Zamonaviy mavzudagi dostonlar. ("Qizlar", "Hamza" va h.).

3) Boshqa millatlar hayotiga bag'ishlangan dostonlar ("Davrim jarohati" va h.).

Zamonaviy mavzudagi "Hamza" dostoni lirik-epik janrda yozilgan bo'lib, asarda O'zbekistonning buyuk shoiri va ijtimoiy xodimi Hamza Hakimzoda Niyoziy obrazi yaratilgan. Asarda Hamza o'tgan yo'l, olib borgan kurashi va boshqa masalalar realizmga asoslangan holda aks ettirilgan.

Oybek 1949-yilda rus shoirlari N.Tixonov, A.Safronov va tojik adibi m.Tursunzoda bilan Pokistonga sayohat qilgan. Adib qardosh xalq hayotini, fikr va tuyg'ularini, kurash va intilishlarini "Pokiston xotiralari" ocherklari, qator she'rlari, "Zafar va Zahro", "Haqgo'ylar" dostonlarida, nihoyat, "Nur qidirib" qissasida tasvirlagan. "Zafar va Zuhra" dostonining asosiy personajlari kambag'al qishloqlik Zafar va taqiqlarga mahkum bo'lgan xizmatchining qizi Zuhradir. Dostonda ikki baxtsiz yoshning og'ir hayoti, orzu va umidlari o'z badiiy aksini topgan. Asar mavzusi Pokiston hayotidan olingan bo'lsa ham, insonlarning ozodlik, erkinlik, o'z taqdirlarini hal qilish yo'llarida olib borgan kurash tasvirlanishi dostonni umumbashariylikka olib chiqadi. Adib "Davrim jarohati" dostonini esa 1945-yilda Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga Amerika tomonidan tashlangan atom bombasiga e'tiroz alomati sifatida qalamga olgan. Doston ushbu shaharlarning yer bilan yakson bo'lishini, hodis-

adan ancha vaqt o'tganiga qaramay, hali ham bu fojia alomatlarini kelajakda dunyoning falokatga uchrash sababi sifatida tavsiflaydi. Asarda tinchlikka, sulhga chorlov asosiy o'rin egallaydi, yer yuzidagi insonlarning saodati faqat va faqat tinch-totuv yashashga bog'liq deb ko'rsatiladi.

30-yillardan boshlab Oybek nasr janrida muvaffaqiyatga erisha boshladi. Avvaliga u bir necha hikoya va ocherklar yozadi, keyinchalik yirik hajmli nasriy asarlarga qo'l uradi. Oybek o'zining "Qutlug' qon" romanida o'zbek xalqining ijtimoiy zulmga qarshi hayot-mamot kurashiga otlanganligini ko'rsatgan, unga o'zbek xalqi manfaatleri nuqtayi nazaridan yondashgan. Bu asarda qahramonlar xarakterlari ana shu kurash jarayonida ochilgan, toblangan. Bundan tashqari, asar g'oyasi ham kurashlar zaminida jozibali, yorqin, ta'sirli, emotsional tarzda ochilgan. Oybek "Qutlug' qon" romanini 1937-yillarda yoza boshladi. Oybek "bu romanni yozishda men hech qanday manba, materiallar to'plamadim, chunki bu asarni men yozish uchun bolaligimdan hayotni kuzatishni sevganligimdanmi, ko'nglimdan, xotiramdan "Qutlug' qon" romani quyilib kelaveribdi. Romanni qisqa fursatda yozib tugatdim" – degan edi. 1940-yilda chop etilgan "Qutlug' qon" romani – badiiy jihatdan yetuk asar. Una mamlakat o'tmishidagi hayot haqiqati mohirona ko'rsatilgan. O'zbek xalqining 1917-yil to'ntarish arafasidagi og'ir hayoti, ozodlik yo'lida olib borgan kurashlari keng va atroflicha tasvirlangan.

Romanning bosh qahramoni Yo'lchi yangi hayot kurashchisi sifatida shakllana boshlagan o'zbek mehnatkashi obrazidir. U dinamik tarzda tadrijiy o'sishda aks ettirilgan. Oybek romanda Yo'lchining ijtimoiy qi-yofasini ko'rsatish bilan birga, uning shaxsiy hayoti va insoniy fazilatlarini ham ochib bergan. Asarda Yo'lchining halol va pokligi, sof vijdonli va samimiyligi, soddaligi, rostgo'yligi, mardligi, kamtarligi, insonparvarligi, sevgiga va do'stga sodiqligi, onasiga va singlisi Unsinga mehribonligi va boshqa xislatlari yorqin ochib berilgan. Yo'lchi sodda, halol, pok qalbli, mard yigit sifatida romanda katta mahorat bilan tasvirlangan. Yo'lchi milliy xarakter darajasiga ko'tarilgan yorqin obraz. Yozuvchi Yo'lchining har bir harakatini, har bir holatini psixologik jihatdan asoslab bergan.

"Qutlug' qon" romanida Shoqosim, Qoratoy, O'roz, Shokir ota, Qambar, Yormat, Unsin kabi obrazlar ham jonli, to'laqonli bo'lib chiqqan. Bu obrazlar romanda o'z mavqega ega. Ular bosh qahramon Yo'lchi xarakteridagi yetakchi xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladilar.

Romanda ayniqsa, Mirzakarimboy obrazi ustalik bilan puxta ishlangan. Mirzakarimboy – aqlli, tadbirkor shaxs. Uning qilmishlari – jirkanchli, niyati – buzuq. Mahalla baqqolining o'g'li bo'lgan Mirzakarimbiy halollik bilan emas, balki qorovul-u xizmatkorlarni shafqatsiz, ularning ish haqidani urib qolish orqali mashhur millioner boy darajasiga ko'tarilgan.

Mirzakarimboyning ma'naviy dunyosi ham nopok. U – qarindosh-

lik tuyg'usidan mahrum. U moddiy yordamga muhtoj qarindoshi Xushro'ybibi haqida yomon so'zlar aytadi. Yo'lchiga: "...odam bo'lmoqchi esang, onang zoriga quloq solma!" – deb nasihat qiladi. Mirzakarimboy o'z jiyani Yo'lchiga zulm, adolatsizlik va insofsizlik qiladi. Bu qari chol, hatto jiyaning sevgilisi – nabirasi qatori qiz Gulnorga uylanishdan ham tortinmaydi.

Mirzakarimboy Yo'lchiga nasihat qilgan bo'lib, o'zining hayot va odamlar haqidagi "falsafa"sini bayon etadi. Mirzakarimboyning "falsafa"sig ko'ra: "Pul – hamma narsaning otasi. Pul belga quvvat, boshga toj. Puldor odam – qanotli odam. Bu qanot bilan Mag'ribdan Mashriqqa uchasan, har yerda oshna-og'ayni, do'st-yor topasan". Mirzakarimboy: "Men do'stlarga sira ishonmayman...", "Xotin erning quli, xotinning ko'ngliga, ra'yiga qarab ish qilgan erkak – odam emas", – deydi. Yuqorida keltirilgan misollardan Mirzakarimboyning yirtqich qiyofasi, uning odamgar-chilikdan mahrum ekanligi yaqqol anglashiladi.

Roman asosida yotgan ziddiyat chizig'i asosan Yo'lchi bilan Mirzakarimboy o'rtasida tortilib, boshqa personajlar bu har ikkala tevaragida guruhlasha boshlaydilar. Oybek go'yo tog'a bilan jiyani o'rtasida boshlangan bu "xonaki" ziddiyatni shunday mahorat bilan tasvir etib va rivojlantirib boradiki, u pirovardida 1916-yil qo'zg'oloni voqealari bilan uzviy ravishda tutashib ketadi. Shu ma'noda romanning asosiy qahramonlari butun o'zbek xalqi uchun ahamiyatli bo'lgan katta ijtimoiy masalalarni olg'a sura oluvchi kuchga aylanadilar.

Oybek asar qahramonlari obrazini yaratishda ikki xil yo'lakdan borgan. U Yo'lchi va Gulnor obrazlari mohiyatini ochishda ular xatti-harakatlari tasviriga e'tiborini qaratgan bo'lsa, Mirzakarimboy o'zining insoniy mohiyatini o'z so'zlari bilan ochadi. Bu so'nggi tasvir usuli Yormat obrazini yaratishda yozuvchiga yordamga keladi.

Romanda Shohqosim, Qoratoy, Shokir, O'roz, Qambar, Yormat, Unsin, Gulnor mehnatkash xalq timsolidagi personajlardir. Ular asarda katta o'rin egallamasa ham, yozuvchi o'z tasavvuridagi ijobiy qahramonlarni ular timsolida namoyon qiladi.

Kezi kelganda shuni ham qayd etish kerakki, roman ayrim qusurlardan ham xoli emas. Asarda o'sha davr taqozosiga ko'ra, sotsialistik realizm talabiga binoan rus inqilobchisi Petrov obrazi sun'iy ravishda kiritilgan, uning Yo'lchiga ko'rsatgan ta'siri ideallashtirilgan. Jadid Abdushukur esa bir tomonlama tasvirlanib, o'quvchida yoqimsiz taassurot qoldirishga urinilgan.

"Navoiy" (1944) romani faqat Oybek ijodida emas, balki o'zbek adabiyotida salmoqli o'rin egallagan tarixiy asarlardan biridir. Oybekning ushbu romanida buyuk arbob Navoiyning hayot yo'li, o'sha davrdagi hayot va murakkab siyosiy voqealar aks ettirilgan. Roman voqeasi 18



yoshli yigit - Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishi bilan boshlanadi va Navoiy hayotining eng samarali va eng sermazmun davrlarini qamrab oladi. Asar voqeasi Navoiyning o'limini aks ettirish bilan tugaydi. Demak, asarda Navoiy tarjimai holining asosiy bosqichlari hayot haqiqatiga mos holda yorqin tasvirlangan. Asarda Navoiyning olijanob fazilatlarini, ajoyib xislatlari, Vatan, xalq va adabiyot oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila boradi. Navoiy obrazi romanda el va xalq uchun qayg'uruvchi, yurtning baxt-saodati haqida jon kuydiruvchi, adolat va haqqoniyat uchun astoydil intiluvchi ulug' siymo sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy o'z do'stlariga nasihat qilib shunday deydi: "...har nechuk falokatni daf etmoqqa g'ayrat qilmoq kerak... Muborak Vatanning, el-ulusning salomatligi uchun fidokorlik ko'rsatmoq vazifamizdir. Sizdan tilagim shuki, bir-birimizga, davlatga, yurtga vafo, sadoqat, muhabbat bilan bog'lanaylik. Vafo va muhabbat - ulug' qudratdir".

Romanda Alisher Navoiyning o'z tiliga bo'lgan muhabbati, bu tilning qudrati va azamati yo'lidagi sa'y-harakatlari yuksak badiiy ifodalarda aks ettirilgan.

"Navoiy" romanida Husayn Boyqaro, Xadicha begim, Mo'min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin singari tarixiy shaxslar obrazi ham berilgan. G'oyat ustalik bilan yaratilgan bu obrazlar bosh qahramon Navoiy xarakterini ochishda muhim o'rin tutadilar. Chunki adib bu obrazlar vositasida o'sha davr hayotini haqqoniy ko'rsatgan. Asarda podshoh Husayn Boyqaroning o'z o'g'li Badiuzzamonga qarshi jang qilishi, nabirasi Mo'min Mirzoni qatl etish haqida farmon berishi, shahzodalarning bir-biriga qarshi qilich qayrashi, bir-biriga xiyonat qilishi singari fojiali voqealar, ziddiyatlar g'oyat ta'sirli qilib ifodalangan.

"Navoiy" romanida XV asr hayoti uchun tipik bo'lgan xilma-xil voqeahodisalar aks ettirilgan, rang-barang obrazlar yaratilgan. Hayot haqiqati ustalik bilan badiiy haqiqatga aylantirilgan. Bunda yozuvchi obraz yaratishda psixologik tahlildan, til imkoniyatlaridan, jumladan, har bir personajning o'ziga xos fe'l-atvorini va individual tilini berish san'atidan unumli foydalangan. Shunga ko'ra romandagi barcha obrazlar o'z xakteri va individual tili e'tibori bilan bir-biridan ajralib, o'zaro farqlanib turadi. Romanda tarixiy shaxs obrazlari bilan birga, Sultonmurod, Dildor, Arslonqul, Zayniddin, To'g'onbek singari badiiy to'qima obrazlarning ham o'ziga munosib o'rni bor. Oybek bu obrazlar orqali o'sha davrdagi ma'lum ijtimoiy guruhlar hayotini umumlashtirib ko'rsatib bergan. Shuningdek, bu obrazlar vositasida bosh qahramon Navoiy xarakterini, uning fazilatlarini yanada yorqinroq ochgan.

"Navoiy" romanida qishloqlik qiz Dildorning boshiga tushgan musibatlar Alisher Navoiyning xislatini ochib berishda kalit personaj hisoblanadi. Dildor Arslonqulga ko'ngil bergan bo'lib, zolim To'g'on uni o'g'irlab



ketishi bilan qora kunlari boshlanadi. To'g'ondan qizni olgan hiylagar vazir Majididdin Husayn Boyqaroning mehrini qozonish uchun unga sovg'a qiladi. Dildor Husayn Boyqaroning haramidan qochib ketgach, uni ushlab, zindonga tashlashadi. Keyinchalik Alisher Navoiyning yordami bilan zindondan ozod bo'lgan Dildor o'z yori Arslonqul visoliga yetadi. Ko'rinib turganidek, bu yerda asosan, A.Navoiyning xayrixohligi diqqat markazida bo'ladi va shoirning asl xarakterini ochib berishda katta rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Navoiy" romani o'zbek romanchiligining ajoyib namunasi va juda katta yutug'idir. Bu roman jahondagi rus, ingliz, ukrain, nemis, belorus, qozoq, turkman, ozarbayjon, tojik, arab, fors, eston, latish va xitoy tillariga tarjima qilingan va hamma joyda kitobxonlarga manzur bo'lgan.

## UYG'UN



UYG'UN  
(1905-1990)

Uyg'un zamonaviy o'zbek adabiyotida lirik she'r va dramaturgiyaga katta hissa qo'shgan ijodkor sanaladi. U 1905-yili hozirgi Qozog'iston Respublikasi Jambul viloyatining Marki qishlog'ida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Uyg'un uning taxallusi bo'lib, asli ismi Rahmatulla Otaqo'zi o'g'lidir. U qishlog'idagi maktabni tugatgach, Toshkent pedagogika texnikumida o'qidi. 1925-yildan boshlab Toshkent qishloq xo'jalik texnikumida o'zbek tili va adabiyotidan dars berdi. Uyg'un 1927-yili Samarqanddagi Pedagogika akademiyasiga o'qishga kirib, Mirtemir, Hamid Olimjon, Amin Umariy, Hasan Po'latlar bilan tanishadi.

Uyg'un butun umri davomida ijodni ulkan jamoat hayoti bilan uyg'unlashtirgan. U Idora va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, SSSR Yozuvchilar uyushmasi a'zosi bo'lgan, 1950-yildan 1954-yilga qadar Uyg'un O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi bo'lib xizmat qilgan. U "Sharq yulduzi" tahririyat jamoasi va "Mush-tum" jurnali a'zosi bo'lgan, Siyosiy yangiliklar agentligining O'zbekiston bo'linmasi jamoat raisi, O'zbekiston KP tekshiruv hay'ati a'zosi va O'zbek SSR Oliy Kengashi deputati kabi lavozimlarda xizmat qilgan. Uyg'un yoshligidan she'rlar yozib, vaqtli matbuotda faol ishtirok eta boshladi. 1929-yili shoirning "Bahor quvonchlari" nomli birinchi she'rlar to'plami chop etildi. "Mart kunlari", "Cho'l", "Kolxozchi qiz", "Ukraina yellari" kabi lirik she'rlari kitobxonlarning sevimli asariga aylandi. 30-yillarda shoirning "Ikkinchi kitob", "Quyosh o'lkasi", "She'rlar", "Muhabbat" kabi yangi she'riy to'plamlari va bir qator hikoya va dostonlari bosilib chiqdi.

O'ttizinchi yillarning oxirlaridan boshlab, Uyg'un dramaturgiyada ham xizmat ko'rsata boshladi. Uning ilmiy faoliyati boshlang'ichi ham shu yillarga to'g'ri keladi. Adabiyotshunos sifatida uning o'nlab ilmiy-tadqiqot asarlari mavjud.

Uyg'unning adabiy merosida tarjima asarlar alohida o'rinni egallaydi. Urushgacha bo'lgan davrda A. S. Pushkin va M.Y. Lermontov asarlari tarjimasida muayyan tajriba orttirgan shoir keyinchalik L.N. Tolstoyning "Hojimurod", A.P. Chexovning "Chayka", U. Shekspirning "Yuliy Sezar" va "Veronalik ikki yigit" asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

U shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, ijtimoiy xodim sifatida xizmatlariga ko'ra tahsinga sazovor bo'lgan. 1965-yilda xalq shoiri

nomiga muassar bo'ladi. 1967-yilda uch jildlik tanlangan asarlari chop etiladi va shu munosabat bilan Hamza nomidagi Davlat mukofotini oladi. Uyg'un 1974-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi qilib saylanadi. Uyg'un 1990-yilda olamdan o'tadi.

## IJODI

XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida Uyg'unning o'ziga xos o'rni bor. Uyg'un she'riyati markazida bahor, muhabbat, Vatan, tinchlik, do'stlik mavzulari turadi. Dastlabki she'riy to'plamining "Bahor quvonchlari" deb atalishi ham bejiz emas. Uyg'un lirikasidagi peyzaj tasviri misolida o'zining tarixiy yo'lidagi nafisliklarini namoyish qiladi. Bu nafasatda o'lka va tabiat go'zalligi bilan birga ularga hamohang va hamroz inson qalbi tamannolari ham aks etadi. 30-yillar Uyg'un she'riyatida davlat va xalq tarixiga taalluqli chuqur shaxsiyatni anglovchi yangi insoniylik chegaralari seziladi. Ayniqsa, "Nazir otaning g'azabi", "Brigadir Karim", "Jontemir" she'riy asarlarida zamondoshning ichki dunyosi boy tarzda tarannum etilgan.

Masalan, "Nazir otaning g'azabi" she'rida Nazir ota paxta dalalariga zarar beruvchi qor yog'ishidan bezovta bo'lganini ko'ramiz. Shuning uchun ham u ko'kdagi bulutdan achchiqlanadi:

***"Menga desa, qor emas, osmondan tosh yog'maydimi,  
Paxtamizni terib olamiz va davlatga topshiramiz!"***

Avvaliga bu parchalar 30-yillar adabiyotidagi shiorchilik va baland-parvozlilik ta'siriga ega bo'lishi mumkin. Lekin she'rning mazmuniga e'tibor berganimizda, she'rda mehnatga chorlov ifodasini ham kuzatishimiz mumkin.

"Jontemir" dostonida o'sha davrning siyosiy talablariga mos ravishda munosabat bildirilgan. Ushbu doston qahramoni Jontemir hayotining tasviri bevosita davlat ideologiyasiga xizmatga bog'liq.

Ulug' Vatan urushi yillar ham Uyg'unning ijodi publitsist-shoir sifatida sarmahsul bo'lgan. Uning asarlarida sovet odamlarining vatanparvarligi, dushmanga nisbatan g'azabi va nafrati yorqin namoyon etilgan, ularda fashistik kuchlar ustidan g'alaba qozonish va porloq kelajakka ishonchga chaqiriladi. Shoir bu davrda "Ona" (1942), "Alisher Navoiy" (1943, Izzat Sulton bilan hamkorlikda), "Qaltis hazil" (1944) kabi sahna asarlarini ham yaratdi. Uning "Jangchi do'stinga", "Vatan haqida qo'shiq", "Surat", "Uchrashuv", "Keladi", "Sog'inib", "Ulug' ayyom yaqin" singari she'rlarida xalqchil ruh yanada kuchaydi. Masalan, "Qasos" she'rida oq

sochli onaning dushmandan qasos olish jahdi, "Vatan haqida qo'shiq" she'rida esa mehr va ehtirom bilan yod etilgan ona vatan obrazi tasvirlanadi.

Urushdan keyingi mashaqqatli yillarga bag'ishlangan "Hayot qo'shig'i" (1947), "Oltinko'l", "Navbahor" (1949) dramalarini yaratdi. So'nggi dramasi bilan Uyg'un ijodiga qishloq hayoti mavzusi kirib keldi. Dramaturg bu asarida urush davrida vayron bo'lgan jamoa xo'jaligi qayoti misolida eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash mavzusini birinchilardan bo'lib urushdan keyingi o'zbek adabiyotiga olib kirdi.

Uyg'unning urushdan keyingi yillardagi ijodida tinchlik, urush, kurash hamda kishilarning fidokorona mehnatni motivlari xalqlar do'stligi mavzusi bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Shoirning "Armug'on" (1941) "O'zbekiston" (1942), "Hayot chorlaydi" (1954) kabi she'riy to'plamlari bosildi.

Shoir ijodida kelajakka umid, ishonchni kuzatish mumkin. "Kelajak o'tmishdan yaxshi" she'ri shu asarlar qatoriga kiradi. Asarda insonparvarlik, ezgulikka bo'lgan umid namoyon bo'ladi:

***Bora-bora jumla jahonda tamom -  
Yozuvlik o'rnini ezgulik olur.  
Go'zal kelajakda hukmron bo'lib  
Qardoshlik, muhabbat va do'stlik qolur.***

Hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan qalam sohiblaridan biri Uyg'unidir. Uning kichkintoylarga bag'ishlab yaratgan "Qorbobo", "Hadya", "Bahor va men", "Ikki ona" va boshqa she'riy to'plamlari bolalar adabiyotida yetakchi o'rinda turadi. Shoir bolalarga atab yozgan barcha katta-kichik she'rlarida o'qimishli, ona-Vatan va mehnatni jon-dildan sevgan chin do'st, rostgo'y, sofdil bolalarning his-tuyg'ularini ifodalaydi, yoshlarning Vatanimizning go'zal tabiati, boyliklari va kishilarimizning ajoyib fazilatlarini bilan tanishtiradi.

Shoir bolalarga bag'ishlab yozgan barcha she'rlarida mavzuni o'ziga xos jihatdan aks ettirishga harakat qiladi. Shoirlarimiz tomonidan kuylangan ona-Vatan mavzusini o'ziga xos tarzda ifoda etadi. Shu jihatdan uning "Ikki ona" she'ri xarakterlidir. She'r qahramonining ikki onasi bor: bin unga oq sut bergan; ikkinchisi esa o'z bag'rida avaylab parvarish qilgan. Ikkala onasi ham aziz, muqaddas va mo'tabar. Biri - uning tuqqan mehribon onasi bo'lsa, ikkinchisi - jonajon vatani. Lirik qahramon ana shu bir-biridan mo'tabar ikki onasi bilan g'ururlanadi, faxrlanadi. Uni tarbiyalagan bu ikki ona oldida bir umr qarzdor:

*Mening ikki onam bor,  
Ikkisi ham mehribon.  
Biri menga sut berdi,  
Biri esa shirin non.*

Uyg'un o'zbek dramaturgiyasini ko'pgina asarlar bilan boyitdi. U o'zbek adabiyotidagi eng sermahsul dramaturglardandir. U dramaturgiyaning deyarli barcha turlari, janrlari, shakllarida qalamini sinab ko'rdi va salkam yigirma beshga yaqin dramatik asar yozdi. "Navbahor" (1949), "Hurriyat" (1959), "Parvoz" (1963), "Qotil" (1962), "Parvona" (1966) kabi zamonaviy mavzudagi dramalari qatorida tarixiy mavzudagi "Abu Rayhon Beruniy", "Abu Ali ibn Sino", "Zebunniso", Izzat Sul-ton bilan hamkorlikda yaratgan "Alisher Navoiy" dramalari ham ijodkorga katta muvaffaqiyat olib keldi.

"Alisher Navoiy" dramasi 1941-yilda yozilib, 1945-yil may oyida Hamza nomidagi davlat akademik drama teatrida rejissyor Mannon Uyg'ur tomonidan sahnaga qo'yildi.

"Alisher Navoiy" ning muhim fazilatlaridan biri uning zamonamiz bilan hamohangligi va hamnafasligidadir.

Dramaturglar Navoiy qiyofasidagi eng muhim tomoni – insonparvarlikni topa bildilar va uni o'z asarlarida yetakchi planda katta ehtiros bilan aks ettirdilar. Bu esa dramaga chuqur hayotiylik va umrboqiylik baxsh etadi. Dramadagi barcha katta kichik voqea va hodisalar ham, bosh va yordamchi syujet va konflikt yo'llari ham ana shu asosda bo'ysundirilgan.

Zulmat bilan nur, reaksiya bilan adolat o'rtasidagi kurash pyesaning bosh syujet va konflikt yo'llarini tashkil etadi. Dramaturglarning mahorati ham ana shu hayotiy ziddiyatni o'z asarlarida haqqoniy ifoda etishlari, badiiy to'qimadan ustalik bilan foydalanishlari, syujetni kuchli dramatism asosida talqin qilishlari, xarakterlarini yorqin gavdalantirishlarni va nihoyat, tarixiy o'tmishga zamonaviy ko'z bilan yondashishlarida aniq namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyning shoir, davlat va jamoat arbobi sifatida faoliyatining gullagan payti ham ana shu tarixiy davrda bo'lgan.

Tarixiy asar uchun muhim bo'lgan tarixiy haqiqatga sodiqlik dramada o'zining to'liq ifodasini topgan. XV asr feodalizm davrida yuz bergan tarixiy hodisalarning va shu muhitda yashab ijod etgan Navoiy, Behzod, Sohibdaro, Husayn, Majididdin, Binoiy va Mo'minmirzo kabi tarixiy shaxslarning asarga asos qilib olinishi fikrimizning aniq isboti bo'la oladi. Bular esa dramaning chuqur tarixiyligini, o'tmishni bilishi jihatdan ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Dramaturglar asarning g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligini os-hirishda badiiy to'qimadan ham ustalik bilan foydalanganlar. Natijada

dramada yuqorida nomlari qayd etilgan tarixiy shaxslar bilan bir qatorda Guli, Abdumalik, Turdiboy, Qulmuhammad, Hosiyat, Qunduz, Qutbidin, Ubaydullo, Mansur, Abdulvose, Munajjim kabi personajlar ham o'rin olgan. Bu personajlar yozuvchilar ijodiy fantaziyasining mahsuli bo'lib, ular ma'lum hayotiy haqiqatga egadir.

"Navbahor" dramasiida ko'tarilgan qishloq mavzuini yana davom ettirib, xotin-qizlarning jamoa xo'jaligiga mohirlik bilan rahbarlik qilishi mumkinligi ("Hurriyat", 1959), paxta yakkahokimligi davri fojialari ("Parvoz", 1963), shaxsga sig'inishning qishloq sharoitidagi oqibatlarini ("Shubha", 1961), tibbiyot xodimlarining inson salomatligi uchun mas'ulligi ("Qotil", 1965) kabi masalalar haqida bahs yurituvchi pyesalar yozgan. "Paxta uchun kurash"ning salbiy oqibatlarini fosh etilgan "Parvoz" dramasi esa sovet voqeligini buzib ko'rsatishda ayblanib, sahnadan olib tashlangan.

Uyg'unning yoshlar ma'naviyati muammosiga bag'ishlangan "Parvona" (1966) komediyasi jamoatchilik tomondan samimiy kutib olingan. Pyesada sevgi, oila katta mas'uliyat ekanligi, ko'ngilxushlik emasligi g'oyasi ilgari suriladi. Asarda hodisalar aspirant qiz Nazokatning kurtog'iga borishi va u yerda O'tkir ismli odam bilan tanishishidan boshlanadi. Nazokat uning yolg'on va'dalariga uchib, uni chin dildan sevuvchi Murodjondan voz kechadi. Uning fojiasi ana shu yerdan boshlanadi. Keyinchalik Nazokat ko'ngil bergan odam undan avval uch ayolni ham laqillatgani ma'lum bo'ladi. Nazokat o'zini ayblab, "parvonadek o'tda yonganidan" pushaymon bo'ladi. Murodjon esa muhabbatiga sadoqat qilib, Nazokatni kechiradi. Nazokatning yana to'g'ri yo'lga qaytishida prokuror Adolatning ham alohida o'rni mavjud. "Parvona" komediyasining axloqiy-tarbiyaviy va estetik ahamiyati katta.

## MAQSUD SHAYXZODA

Aslida qondosh ozarbayjon naslidan bo'lib, keyinchalik o'zbek xalqining chinakam sevimli shoiri, yozuvchisi, dramaturgi, zabardast olimi sifatida dong taratgan Maqsud Shayxzoda 1908 yili Ozarbayjonning Ganja viloyatiga qarashli Oqtosh shahrida tug'ildi. Shoir 1957-yilda yozgan "Toshkentnoma" dostonida bu to'g'risida shunday deydi:



MAQSUD  
SHAYXZODA  
(1908-1967)

*Umrin bino bo'ldi Ozarbayjonda,  
Kechdi bolaligim u gul makonda.  
Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi  
O'pkamga tuldirdi she'r havosin,  
Kur nahrin muloyim, tinch muzikasi  
Ko'nglimda uyg'otdi kuylash havasin.*

U san'at va adabiyotni sevar, tarix va falsafaga qiziqardi, Oqtosh ziyolilari bilan turli masalalarda suhbatlashardi. Yosh Maqsud Nizomiy va Firdavsiy, Navoiy va Fuzuliy, Pushkin va Shekspir kabi buyuklar nomini ilk marotaba ana shu gurunlarda eshitadi va bu muhit unga adabiyotga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. O'n besh yoshida yozgan pyesasi Oqtosh shahar havaskorlar to'garagi tomonidan sahnaga qo'yiladi. 1926-1928-yillarda "Kommunist" gazetasida Shayxzodaning "Dog'iston maktublari" nomli maqolalari, 1927-yilda esa "Maorif va madaniyat" majmuasida shoirning "Narimon haqida xalq dostoni" asari chop etiladi.

Maqsud Shayxzoda Oqtoshda ibtidoiy maktabni bitirgach, 1921-yili Boku dorilmualliminiga o'qishga kiradi va uni tugatgach Dog'istonning Darband, Bo'ynoq shaharlarida muallimlik qilgan. U 1926-yili Adhem Fayziy tashkilotiga a'zo etilgan "Milliy firqa" tashkilotiga a'zo bo'lib, musovotchilar harakatida faol qatnashgani uchun 1928-yili hibsga olinib, Toshkentga surgun qilingan. Umrining oxiriga qadar shu yerda yashab, ijod qilgan. Muhimi shundaki, Shayxzoda "tole' doim erkalamaganiga" qaramay, umrining oxiriga qadar o'zbek xalqining sadoqatli farzandi sifatida faoliyat ko'rsatdi va O'zbekiston uning ikkinchi vatani bo'lib qoldi. Bu to'g'risida o'z ijodida ham qayd etib o'tadi:



*Lekin shoirlikning nozik tolei  
Kuldi Sirdaryoning havzalarida,  
O'zbek quyoshining chin otaligi  
Aks etdi mastoba kosalarida.  
Hazrat Navoiyning o'pib qo'lini  
O'zbek vodiysida otimni surdim,  
Ijod karvonining uzoq yo'lini –  
Aziz yo'ldoshlar-la o'toldim, yurdim.  
Yo'q, men taqdirimdan emasman xafa,  
Shoirlik unvoni baxtimdan tuhfa! . .*

Shayxzoda Toshkentga kelgach, avval Narimonov nomidagi texnikumda dars beradi, keyin “Sharq haqiqati”, “Qizil O'zbekiston”, “Yosh leninchi” gazetalarida ishlaydi.

Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida, 1935-1938-yillarda esa Fanlar qo'mitasi qoshidagi til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan to umrining so'ngigiga qadar Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining (hozirgi universitet) o'zbek klassik adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ishtirok etdi. Shoirning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlandi. Uning “O'n she'r” (1932), “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos ovoqli shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan qozonilajak g'alabaga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug'lovchi, front orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi asarlar chop etdi.

Maqsud Shayxzodaning eng og'ir davri 50-yillarga to'g'ri keladi. 1952-yilda uni sababsiz O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasidan o'chirilib, 1952-yil 22-sentyabrda qamoqqa olinadi va 25 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. Lekin 1954-yilda ozodlikka chiqib, yana Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinadi. 1956-yilda Shayxzodaning ijodidagi yangi bosqich boshlanadi.

Maqsud Shayxzoda shoir, dramaturg bo'lish bilan birga, adabiyotshunos olim sifatida ham tanilgan. U Toshkentda aspiranturani tamomlagach, ilmiy faoliyatini boshlaydi, mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyoti muammolari to'g'risida ilmiy asarlar yozadi. Uning “Genial shoir”, “Navoiyning lirik qahramoni”, “Mayakovskiy – yangi shoir” va boshqa ilmiy maqolalari shular jumlasidandir.

Shayxzoda adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz

jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muhim rol o'ynadi. U Sh.Rustaveli, Shekspir, Pushkin, Lermontov, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini o'zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi.

Shoir 1967-yilning 19-fevralida xastalikdan vafot etadi. Uning vafotidan so'ng olti jildlik "Asarlar"i (1968–1973) nashr etiladi. Shoir va dramaturgning asarlari 1973-yilda o'z ona vatani Ozarbayjonda ham ikki jildda chop etildi. Mustaqillik yillarida marhum Maqsud Shayxzoda ijodi va qilgan xizmatlari haqiqiy qadr topdi.

## IJODI

Maqsud Shayxzoda boy adabiy merosga ega, Shayxzoda, avvalo, shoir sifatida tanilgan bo'lib, uning she'rlari o'zining g'oya va badiiy xususiyatlarini hamda estetik ahamiyatining rangbarangligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham Hamid Olimjon uni "fikrlar shoiri", M.Ibrohimov esa "buyuk vatanparvar shoir" deb ataganini bejiz emas.

Maqsud Shayxzoda ijodining asosiy bosqichi o'ttizinchi yillar boshiga to'g'ri keladi. Bu bosqichgacha yozgan "Ot haqida qasida", "Simvol", "Jumhuriyat", "S.b.", "Qora taxta" kabi ilk she'rlarida bayonchilik, va'zxonlik, quruq balandparvoqlik, tasvirning yuzakiligi, shuningdek, til, qofiya va vaznga doir qusurlar mavjud edi. Lekin o'zi qayd etganidek, "Navoiy, Nizomiy, Fuzuliy, Pushkin, Nekrasov, Mayakovskiy va b. arboblarning ijodi bilan yaqindan tanishgach, san'at sirlarini o'rganadi va haqiqiy asarlar yarata boshlaydi".

Uning 30-yillar she'riyatida yangi hayot va xalqlar do'stligining targ'ibi va tarannumi alohida o'rin egallaydi. "Vatan", "Nishon", "Kreml soati", "Qonun" va b. she'rlari yangi zamon, yangi hayot, yangi muammolar to'g'risida poetik mulohazalarni, shoirning vatan sevgisi, yurt muhabbati his-tuyg'ularini aks ettiradi:

*Olam ichra Vatanimning misoli yo'q, tengi yo'q.  
Vatanim bir diyorki,  
Insonlikka bir yorki,-  
Bu manguлик oftobining so'nishi yo'q, so'ngi yo'q.*

Ikkinchi jahon urushi yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan qozonilajak g'alabaga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug'lovchi, front orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi "Kurash nechun?" (1941), "Jang va qo'shiq" (1942), "Ko'ngil deydiki..." kabi she'riy to'plamlari,

“Jaloliddin Manguberdi” (1944) tarixiy dramasi va boshqa qator publitsistik asarlarini chop etdi. Bu davrda yozilgan asarlarning aksariyati urush hodisalarini aks ettirib, jangda mardlik koʻrsatgan insonlarning obrazlarini jonlantirardi. “Kapitan Gastello” va “Semyochenko, ofarin” sheʼrlari muallif oʻz dovyurakliklari va vatanga sadoqatlarini namoyish ettirib, tarix xotirasida chuqur iz qoldirgan insonlarning shijoatidan soʻz ochadi. Maʼlumki, kapitan Gastelloning qiruvchi samolyoti urib tushirilganda, u oʻz samolyotini dushmanning qurol omboriga yoʻnaltiradi. Natijada dushmanga katta ziyon tegadi. Shoir uning qahramonligini quyidagicha madh etadi:

*Olovlar yalar edi  
Hatto qoshu-kiprigin,  
Qoʻnmoqni istamas-di  
Pastga, yerga u lekin...  
Chunki yerni izlarkan  
Uning qizgʻin nigohi,  
Koʻrinadi bir qator  
Dushmanning qarorgohi,  
...Yonayotgan qushini  
Shoʻngʻitdi yov tomonga.*

Shayxzoda ijodida Vatan mavzusi oʻzining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy tarmoqlari rang-barangdir. Bunday sheʼrlarda Vatanning tabiiy goʻzalliklari, uning oʻtmishi, buguni va kelajagi, obodlik va farovonligi masalalari oʻziga xos badiiy tasvir va ifoda shaklida namoyon boʻladi. “Soʻlmasin bu gullar”, “Vatan”, “Yurtim” va b. sheʼrlarida mamlakatning azamati va qudratini asl shoir mahorati bilan qalamga olgan.

„Oʻn birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Uchinchi oʻgʻil“ (1944) dostonlarini shoir urush davrida yozgan. “Oqsoqol” portret-doston boʻlib, asar oqil va xayrixoh inson Yoʻldosh Oxunboboyev xotirasiga bagʻishlangan. Oxunboboyev dostonida yorqin amal egasi sifatida aks ettiriladi. Shoir uning oʻlimini chuqur qaygʻu bilan qalamga olsa-da, uning amallari barhayot ekanligi umidi bilan oʻziga taskin beradi.

“Oʻn birlar” dostoni urush yillarida Stalingrad frontida strategik tepalikni dushman qoʻshinidan himoya qilib, halok boʻlgan 11 askar xotirasiga bagʻishlanadi. Qizigʻi shunda-ki, tarixning qahramonlik sahifalarida oʻziga joy topgan ushbu hodisaning afsonaviy qahramonlaridan 9 nafari turkiy yigitlar boʻlgan. Doston Vatanga muhabbat, mardlik, dovyuraklik va b. singdirish uchun ahamiyat kasb etadi.

“Jenya” dostoni ham dushmanlarga qarshi kurash maydoniga otlangan va fashistlar tomonidan oʻldirilgan yosh vatanparvar Yevgeniy Pop-

ovning qahramonliklaridan hikoya qiladi. Shoir dostonida 7-sinfga endigina qadam qoʻygan 14 yoshlik oʻquvchining dushmanga gʻazabini ochib beradi, xalqiga va eliga mustahkam rishta bilan bogʻlanganini koʻrsatadi.

Maqsud Shayxzoda “Uchinchi oʻgʻil” asarida urushning ogʻriqlari, shaharlar, qishloqlarning vayron boʻlishi, bolalarning yetim qolishi haqida soʻz boradi, shuningdek, sobiq Sovet ittifoqidagi xalqlar doʻstligining ahamiyatini koʻrsatadi. Asarning asosiy markaziy obrazi jajji bolakay Kolya boʻlib, fashistlar Ukrainaga hujum qilganda, ota-onasidan ayriladi. Yetim bolalar orasida Oʻzbekistonga kelgan Kolya Nosir akaning himoyasi ostiga beriladi. Nosir aka ikki oʻgʻli bilan birga Kolyaning taʼlim-tarbiyasiga eʼtibor beradi. Muallif asarda Ukraina-Oʻzbekiston birodarligi va doʻstligining abadiyligidan soʻz ochar ekan, aslida barcha xalqlar doʻstligini targʻib qiladi.

Maqsud Shayxzoda ijodiy balogʻatidan dalolat beruvchi asarlardan biri “Toshkentnoma” dostonidir. Adabiy jamoatchilik oʻz vaqtida bu dostonni shoirning adabiyotimizning yirik ijodiy muvaffaqiyati sifatida baholadi. Chindan ham, “Toshkentnoma” lirik-falsafiy dostoni Shayxzoda dostonlari ichida eng barkamoli boʻlib, unda shoir shaxsiyatining oʻziga xos qirralari ancha yorqin namoyon boʻlgan. Dostondagi oʻziga xoslik shundaki, asar yaxlit voqea asosiga qurilgan emas.

Maqsud Shayxzoda Toshkent shahrining badiiy obrazini yaratib, uni madh etadi. 18 fasldan iborat boʻlgan ushbu doston bir shahar timsolida butun xalqning oʻtmishi va bugunining haqiqatlarini ochib koʻrsatadi, shoirning vatan oldidagi burchi, unga boʻlgan muhabbatini muayyanlashtiradi. Shuning uchun ham shoir oʻz fikrlarini Toshkent siyomosida ochib beradi:

***Toshkentni sevmoqlik yurakning ishi,  
Shu uchun shartmikan bunda tugʻilmoq!  
Shartmi, bir romanga ishqiboz kishi  
Oʻzi u romanga qahramon boʻlmoq!***

Shayxzoda koʻpqirrali isteʼdod sohibi edi. U sheʼrlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega boʻlgan dramalar ham yaratdi. Shayxzoda umrining soʻngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasini hisobga olmaganda ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulugʻbek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi.

Shayxzoda Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan toʻrt pardalik „Jaloliddin Manguberdi“ (1944) tragediyasida oʻz yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mogʻul istilochilariga qarshi kurashgan soʻnggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan.

Jaloliddin Manguberdi – tarixiy shaxs. Xorazm shohi Muhammadning o‘g‘li. U umrining so‘nggi yilida Xorazmshohlar davlati hukmdori esa-da, Chingiz boshliq mo‘g‘ul bosqinchilarining quvg‘ini tufayli, hayotining bu davridagi asosiy qismini lashkarlari va saltanati bilan yurt sarhadlaridan olisda o‘tkazishga majbur bo‘lgan.

“Jaloliddin Manguberdi” dramasida ona-Vatan uchun, uning ozodligi uchun bosqinchilarga qarshi kurash olib borgan jasur sarkarda, buyuk hukmdor siymosi o‘zining, ayniqsa, tabiiy, jonli tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Tasvirdagi qahramon tabiiylikini ta‘minlovchi muhim hayotiy omillar bor, albatta.

Xalqni, lashkarni dushmanga qarshi birlashtirish va yurt himoyasini uyushtirish yo‘lidagi Jaloliddin ko‘rsatgan jonbozliklarini saroydagi Badriddin singari munofiq kimsalar va ular ta‘sirida dastlab otasi Xorazmshoh ham to‘g‘ri tushunmaydi. SHunda Jaloliddin “Menga koshonadan chodir yaxshiroq” deb chiqadi va yurt himoyasi uchun qo‘shin berishlarini talab qiladi. Amir Badriddin valiahdning bu mardona so‘zlari ostidagi maqsad vatanparvarlik emas, taxtni egallash deb tushunib, shoh hayot bo‘lishiga qaramay, “u taxtga ega bo‘lmoqchi” deb ig‘vo boshlaydi.

Jaloliddin – qahramon shaxs. U jasur sarkarda, elni, yurtni g‘animga qarshi birlashtirayotgan, tashabbusi bilan lashkarni ulug‘ g‘alabalarga ilhomlantirayotgan va bu yo‘lda ibrat ko‘rsatayotgan valiahd bo‘lishiga qaramay, ayni vaqtda, oddiy inson sifatida gavdalanadi. Masalan, Jaloliddin bilan singlisi Sultonbegim o‘rtasidagi oddiy insonlarga xos bo‘lgan aka-singillik mehr-oqibatlarini shu qadar samimiy va go‘zal tasvirlanadiki, kishining havasi keladi.

Vatan va xalq taqdirining eng qaltis pallalarida ularni bosqinchilardan himoya qilish uchun otlangan Jaloliddinning bu yo‘ldagi shijoatini, jur‘atini, jasoratini ko‘rsatar ekan, dramaturg o‘z qahramonining valiahd va hukmdor sifatidagi xususiyatlaridan ko‘ra oddiy inson sifatidagi iztiroblarini, har qanday insonga begona bo‘lmagan ayrim mas‘uliyatli holatlardagi ikkilanishlarni badiiy tasvirlashga alohida e‘tibor beradi. Bu esa qahramon xarakterining ishonarli, jonli va hayotiy chiqishini ta‘minlaydi.

Besh pardalik “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi Maqsud Shayxzoda ijodining shoh asaridir. Avvalgi fojia kabi bu asar ham tarixiy mavzuga bag‘ishlangan. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi XV asr tarixiy haqiqatlarining barcha ziddiyatlarini ko‘rsatishda ahamiyatli o‘rin olgan. Mirzo Ulug‘bek fojiasining markazi va bosh obrazidir.

Mirzo Ulug‘bek – Amir Temurning suyuqli nabirasi, ya‘ni to‘rtinchi o‘g‘li Shohrux Mirzoning farzandi, u bobosi Temurning barcha yurishlarida ishtirok etgan. U 1394-yilda tug‘ilib, 1450-yilda 56 yoshida o‘g‘li tomonidan qatl qilinadi. Mirzo Ulug‘bek avvaliga Samarqand,

1446-1450-yillarda barcha viloyatlarga hukmronlik qiladi. Yoshligida Ulug'bek fan va san'at turlariga, ayniqsa, matematik va astronomiyaga katta qiziqish bildiradi. Uning aqliy dunyoqarashi kengayishida otasi va bobosi to'plagan boy kutubxona zamin bo'ldi, u yerda ko'p vaqtini o'tkazardi. 1417-1420-yillar Ulug'bek Samarqandda madrasa qurdirib, Registonda barpo etilgan birinchi me'moriy ansamblga aylanadi. Buyuk astronom Ulug'bek rahbarligi va ishtirokida rasadxonaning asosiy ishi "Ziji Ko'rag'oniy", "Ulug'bekning yulduzlar jadvali" tuzilgan. Kitobda ushbu Samarqand observatoriyasidan 1018 ta yulduz joylashuvi aql bovar qilmaz aniqlikda, Gipparxdan so'ng ilk bor belgilangan. Astronomik turkum yaratilishi jahon astronomiya fani xazinasiga qo'shilgan ulkan hissa hisoblanadi.

Maqsud Shayxzoda mazkur asarni yaratishda jiddiy tayyorgarlik ko'rgani, dramani yozishda behisob ilmiy-tarixiy manbalarga tayangan ko'rinib turibdi. Adib asarda Ulug'bek yashagan davrni, u hukmronlik qilgan saroy muhitini ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalantirgan. Mirzo Ulug'bek hayotida ko'p voqealar yuz bergan. U oliy hukmdor, buyuk olim sifatida ko'p narsalarni o'z boshidan kechirgan. Bularni besh pardali tarixiy fojiaga sig'dirib bo'lmasligini bilgan M. Shayxzoda ushbu asarga asosan ikki yo'nalishdagi voqealarni, ya'ni saroy itxiloflari va buyuk olim olib borgan ilmiy izlanishlarni yoritishga jazm qilgan. Asar bilan tanishganingizda sizda ikki xil tuyg'u paydo bo'lgani aniq. Adib Mirzo Ulug'bekni bir tomondan, qattiqqo'l, butun Xurosonni o'z qo'lida saqlab qolish uchun har qanday chorani ko'rishga tayyor hukmdor sifatida, ikkinchi tomondan, ilm-fanning jonkuyari, jahonshumul kashfiyotlar qilgan olim, fan ahlini jonidan ortiq ko'radigan (masalan, Ziji Ko'ragoniyning so'zboshisida shogirdi Ali Qushchini "farzandi arjumand" – aziz farzandim deb ataydi), biroq saroydagi fisq-fasod, ig'vo ishlar oldida ojiz bir inson qabilida tasvirlaydi.

Dramada Ulug'bek qiyofasi ko'proq asardagi boshqa obrazlar orqali ochilgan. Masalan, Ali Qushchi, Sakkokiy, Shayxulislom Burhoniddin, Chin, Hind, Farang, Misr, Rus elchilari bilan bo'lgan muloqotda ilm-fan homiysi, buyuk olim, ma'rifat dohiysi kabi xislatlari namoyon bo'lsa, Abdullatif Mirzo, uning mahrami Abbos, Qozi Miskin kabi saltanat dushmanlari, ig'volarga nisbatan bo'lgan munosabatida mutaassiblikka qarshi ashaddiy kurashgan inson sifatidagi xarakteri ochilgan.

Mirzo Ulug'bek hukmdor, katta saltanat egasi bo'lishiga qara may, avvalo, insoniy fazilatlardan begona bo'lmagan, o'z farzandiga mehribon ota.

Fojia Mirzo Ulug'bekning o'limi bilan tugaydi, biroq o'quvchi yoki

tomoshabin bu manzaradan tushkunlikka tushmaydi, aksincha, buyuk olim ishlarining davom etishiga ishonadi, Abdullatif kabi padarkush g'alamislarning umri qisqa ekanligiga iymon keltiradi.

Mirzo Ulug'bek qon to'kmaslik uchun hokimiyatni topshirishga majbur bo'ladi. Shuning uchun u hokimiyatni topshirgach, do'sti Ota Murodga shunday deydi:

Yo'qotgani toj bo'ldi-yu, topganim erklik! Ota Murod, olis safar oldida birpas Samarqandning tuprog'ida o'tirmoqchimiz.

Yoki uning kelajakka bo'lgan yuksak ishonch ifodasi sifatida yuzaga chiqqan ushbu fikrlari ham misol bo'la oladi.

Sizlar beshak ko'rarsizlar. Men-chi, mabodo Umrim vafo qilsa, men ham ko'rarman albat. Bu o'g'rilar saltanati ko'p uzoq bormas. Ammo shoyad Samarqandni men ko'rmasam-da Samarqandning shahri meni albatta ko'rar.

Shekspirona ko'lam va harorat bilan yozilgan „Mirzo Ulug'bek“ tragediyasining maydonga kelishi o'zbek dramaturgiyasi va teatri tarixida katta voqea bo'ldi. O'zbek adabiyotshunoslari Sa'dulla Mirzayev va Said Shermuhammadov M.Shayxzoda „Mirzo Ulug'bek“ tragediyasini yozayotganda Shekspir asarlaridan ta'sirlanganini qayd etadilar.



## HAMID OLIMJON



(1909-1944)

XX asr o'zbek mumtoz she'riyati namoyandasi Hamid Olimjon 1909-yil Jizzaxda tug'ilgan. U 1918-yil Jizzaxda ochilgan tugallanmagan o'rta maktabda o'qiydi, so'ngra Samarqandga o'qishga ketadi. U yerda avval bilim yurtida, keyin universitetda tahsil oladi. Samarqand-dagi o'zbek pedagogika akademiyasining ijti-moiy-iqtisodiy fanlar fakultetini tamomlaydi.

O'zbek adabiyotining taniqli shaxslaridan bo'lgan Uyg'un, Oydin, Mirtemir, Jalol Akramiy bilan shu yerda tanishadi.

Umuman olganda, akademiya-dagi ilmiy-adabiy muhit uning adabiy namoyanda bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Hamid Olimjon talabalik yillaridayoq she'r yozgan bo'lib, uning asarlari 1926-yildan "Zarafshon" gazetasida chiqa boshladi. 1927-yilda shoir mazkur ro'znoma muharririyatiga ishga o'tdi. Hamid Olimjonning "Ko'klam" nomli ilk she'riy to'plami 1929-yilda bosilib chiqdi. U 1930-yilda akademiya-ni bitirib, ilmiy-tadqiqot institutida ishlaydi va adabiyotning nazariy masalalariga doir tadqiqot ishlari olib boradi. Navoiy va Muqimiy kabi san'atkorlarning ijodini tadqiq etuvchi salmoqli asarlar yozadi.

Hamid Olimjonning badiiy ijodida milliy hislarning kuchli bo'lishi uning muayyan taqiqlar bilan yuzlashishiga olib keladi. 30-yillar o'rtalaridan boshlab u millatchi va burjua ideologiyasi targ'ibotchisi sifatida ta'qib etiladi va 1937-yil 2-noyabrda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasidan chetlashtiriladi. Oradan vaqt o'tgach, u yana a'zolikka qabul qilib, o'zining ilmiy va badiiy ijodini davom ettiradi. U 1939-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga direktor etib tayinlanadi. 1939-yilda Shuhrat ordeni bilan taqdirlanadi, 1943-yilda esa O'zbekiston Fanlar akademiyasiga muxbir a'zo etib saylanadi. Hamid Olimjon 1944-yilda avtohalokatda halok bo'ladi. Hozirgi kunda O'zbekistonning bir qancha ko'cha, maydon, universitet, o'rta maktab, metro va b. joylariga uning nomi qo'yilgan. 1979-1984-yillarda 10 jildlik tanlangan asarlari chop etildi.

### IJODI

Shodlik va baxt kuychisi, iste'dodli shoir, dramaturg, olim, davlat va jamoat arbobi Hamid Olimjonning ijodi o'zbek adabiyotshunosligida yuqori baholanib keladi. U adabiyotga she'r bilan kirib kelgan bo'lib, o'z

she'rlarida yangi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni aks ettirgan. "Sharq", "O'zbekiston", "Traktor tayyor" va h. she'rlari bunga misol bo'la oladi. 30-yillarning ikki yarmidan boshlab, poeziyasining mavzu doirasi kengaydi. Uning she'rlarida vatanga, xalqqa muhabbati diqqatni jalb etadi. "O'lka", "O'rik gullaganda", "Vatan", "Baxt" va boshqa she'rlari shular jumlasidandir. "O'rik gullaganda" she'ri samimiy va jiddiy munosabatlarni namoyon etadi. She'rda hayot dinamikasi, tabiat manzarasi fonida inson hislarida katta falsafiy g'oyaning o'rin olishini kuzatish mumkin:

Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi... Novdalarni bezab g'unchalar Tongda aytdi hayot otini      Va shabboda qurg'ur ilk sahar Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror, Har bahor ham shunday o'tadi. Qancha tirishsam ham u beor Yellar meni aldab ketadi.

Hamid Olimjonning urush yillaridagi asarlarida urushga, dushmanga nafrat, haqning g'alabasiga ishonch, qahramonlik, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi va boshqa masalalar alohida targ'ib etilar edi. "Maktub", "Sevgi", "Moskva", "Oo'lingga qurol ol", "Shinel" va b. she'rlari bilan shoir dushmanga qarshi beomon bo'lish lozimligi, vatan uchun jondan kechish, vatan kelajigiga ishonch bildirish kabi masalalarni ko'tarib chiqqan edi. "Shinel" she'ri shoirning urush taassurotlarini aks ettiradi. She'rda shinel shunchaki kiyim emas, askarning vatan oldidagi burchi va mas'uliyatini anglatuvchi timsoldir. She'rda shoirning ichki olami, uning vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati, dushmanga nafratiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

*Lekin seni ustimga  
Katta bir g'am kiygizdi,  
Singlim, qarindoshlarim,  
Otam, onam kiygizdi.*

*Seni kiygach yo'l oldim  
Qonli jang bo'lgan yoqqa,  
Tushdim yoshligim o'tgan  
Daryolardan yiroqqa.*

She'rda faqatgina vatan himoyasidan so'z ochilmaydi, balki kelgusi avlodlar kerak bo'lganda vatan yo'lida jonini fido qilishi kerakligi ta'kidlanadi:

*Agar ulg'aysa o'g'lim,  
Kiygizaman unga ham,  
Tushmasin deb qaytadan.  
Elimning boshiga g'am!*

“Qo’lingga qurol ol” she’rida esa Hamid Olimjon mehnatning, kurashning inson hayotidagi o’rni haqida so’zlaydi. Shoirga ko’ra, hayotda hech nima shunchaki berib qo’yilmaydi. Cho’qqiga yetish uchun, ozodlik va farovonlikka yetish uchun faqat kurashish lozim:

*Ko’rsin desang jahonni ko’zim,  
O’ssin desang bog’imda uzum,  
Umid blan o’stirgan qizim  
Desang agar, bo’lmasin uvol,  
Qo’lingga qurol ol!*

*Bo’lsin desang dunyo senga keng,  
Qolsin desang qo’lingda erking,  
Bo’lay desang sen odamga teng,  
Bo’lmay desang yovlarga hammol,  
Qo’lingga qurol ol!*

She’rda didaktika, pand-nasihat uslubidan foydalanilgan bo’lib, hayot ishq, vatanga muhabbat, ishtiyoq tuyg’ulari juda kuchlidir.

“Roksananing ko’z yoshlari” va “Jangchi Tursun” balladalarida urush haqiqatlari aks etadi. “Roksananing ko’z yoshlari” asarida Hamid Olimjon Ukraina fuqarolarining O’zbekistonga ko’chirilishi, u yerda Roksananing chaqalog’i o’limi va o’zbek xalqining Roksanaga suyanchiq bo’lishi tasvirlangan. “Jangchi Tursun” balladasi mard, jasur, dovyurak Tursunning dushmanga nafрати, o’limdan hayiqmasligi, vatan uchun o’zini o’tga tashlashi kuzatiladi.

Hamid Olimjon qalbi va shuurini egallagan shunday nekbin tuyg’u va xayollar uning ijodida romantik tasvir metodining shakllanishiga sababchi bo’lgan. Shoir faqat lirik she’rlaridagina emas, balki shu davrda yaratgan „Ikki qizning hikoyasi“ (1937), ayniqsa, „Zaynab va Omon“ (1938) dostonlarida ham voqelikni shu metod yordamida tasvir etishga intilgan.

Hamid Olimjon „Oygul bilan Baxtiyor“ (1937) hamda „Semurg’ yoki Parizod va Bunyod“ (1939) dostonlarini xalq ertaklari motivlari asosida yaratgan. Bu asarlar erksevarlik g’oyalari, o’z taqdirini xalq va mamlakat taqdiri bilan bog’lagan qahramonlari hamda badiiy jozibasi bilan kitobxonlar e’tiborini qozongan.

Eng sara asarlari – “Zaynab va Omon” dostoni bo’lib, o’zida 30-yillar o’zbek she’riyati xususiyatlarini bog’laydi. Asar mavzusi real voqealardan olingan. Dostonning bosh qahramoni Zaynab prototipi Buxoroning Gijduvon tumanida yashovchi Zaynab Omonovadir. Hamid Olimjon ushbu dostonidan avval 1936-yilda “Zaynab” nomli ocherk yozgan.

Dostonda Zaynabning hayoti, Omon bilan bo'lgan muhabbat sarguzashtlari tasvirlanadi. Doston uch qismdan iborat. Birinchi qismda Zaynabning yangi jamiyatdagi faoliyati, uning eski odatlarga qarshi kurashi, muhabbati, ozod oila va ozod muhabbat to'g'risidagi o'y-fikrlari aks ettiriladi. Ikkinchi qismda muallif ortga qaytib, Zaynabning bolalik davrini, u tortgan azoblarini ko'rsatadi. Uchinchi qismda esa dostonning ikkinchi bosh qahramoni Omonning hayotidan so'z ochadi. Dostonning boshqa obrazlaridan Sobir va Anor xola esa yangi jamiyat qoidalarini ma'qullaydigan insonlarning timsolidir.

“Oygul bilan Baxtiyor” (1937) dostoni xalqning kuch va irodasining yengilmas ekanligini ko'rsatadi. Dostonning bosh qahramoni Oygul o'z xalqiga va o'lkasiga ozodlik baxsh etgan mard qiz timsolida namoyon bo'ladi. Zulmga qarshi bosh ko'targan qullar, shu jumladan, Oygulning otasi ham qatl etiladi. Oygul zolim xon tomonidan zindonga tashlanadi. U Tarlon ismli qul yordami bilan zindondan qochadi va dushman qo'liga tushmasin deb sandiqqa solib, daryoga tashlab yuboriladi. Uch oydan so'ng uni daryo sohilida topib olishadi. Oygul yana boshqa zolim podshoh qo'liga asirlikka tushadi. Lekin Oygul o'zida katta kuch-quvvat yig'ib, Jambil o'lkasining zolim shohini o'ldiradi va xalqni ozodlikka olib chiqadi. Asarda Oygul bilan cho'pon Baxtiyor o'rtasidagi samimiy munosabatlar, bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbat aks ettiriladi. Umuman olganda, Oygul obrazi xalq orzu-umidlarining badiiy timsolidir.

Hamid Olimjon dramaturgiyadagi xizmatlari ham tahsinga loyiq. Adib umrining so'nggi yillarida bu sohada xizmat ko'rsatib, “Muqanna” (1943) va “Jinoyat” (1944) nomli ikki drama asari yozadi.

Hamid Olimjonning “Muqanna” tragediyasini urush yillarida yozish undan o'n uch asr muqaddam bo'lib o'tgan xalq ozodlik harakatiga shu davrning “ko'z”i bilan qarashni, shu davrdagi siyosiy-ijtimoiy sharoitni, davr g'oyalari va ma'naviy ehtiyojlarni e'tiborga olishni talab etdi. Bino-barin, shoir, birinchi navbatda, Vatan ozodligi yo'lida kurashgan va shu kurashda qurbon bo'lgan Muqanna va uning safdoshlari qahramonona obrazlarini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Hamid Olimjon tarixiy haqiqatdan kelib chiqib, asarga Muqannadan tashqari, uning safdoshlari – g'irdak, Bog'iy, Xishriy, Hakim, Kulartagin singari tarixiy shaxslar va shu bilan birga oddiy xalq ommasining Otash, Gulobod va Guloyim singari vakillarining to'qima obrazlarini ham olib kirgan. Bu har ikkala toifadagi obrazlar o'zaro aloqaga kirishib, muallifga tarixiy davr haqiqatini o'z badiiy niyati doirasida mujassamlantirish imkonini bergan.

Muqanna xalq zo'rlik bilan musulmon diniga o'tkazilayotgan bir paytda Muqannaning o'z maslakdoshlari bilan kelib, vatandoshlarni zulm va zo'ravonlikka qarshi kurashga undashi bilan tragediyaning tuguni bosh-

lanadi. Va bu tugun rivojlanib, ikki ijtimoiy kuch o'rtasidagi kurash o't bo'lib olib ketadi.

Hamid Olimjon XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga dastavval lirik shoir sifatida katta hissa qo'shdi. Uning urush yillarida yozgan ikki dramatik asari, ayniqsa, "Muqanna" tragediyasi o'zbek dramaturgiyasida katta voqea bo'ldi.

## ZULFIYA



ZULFIYA

(1915-1996)

Zulfiya zamonaviy o'zbek adabiyoti-ning iste'dodli shoirlaridan biridir. 1915-yil 1-martda Toshkent shahrida Isroil temirchi oilasida tug'ildi.

1922-yildan 1931-yilgacha maktabda, so'ng 1931-1934-yillar orasida qizlar bilim yurtida tahsil oldi. Maqsadi bu yerni tamomlab, o'qituvchi bo'lish edi.

Mehnat faoliyatini juda erta boshlagan shoira deyarli bir umr jurnalistika va nashriyot soha-sida ishladi. U 1935-1938-yillarda Til va adabi-yot instituti aspiranti, 1938-1948-yillar mobay-nida Bolalar nashriyoti muharriri, O'zbekiston davlat nashriyoti bo'lim mudiri,

1953-yilgacha "Saodat" jurnalida bo'lim mudiri, 1953-yildan to 1980-yilga qadar, salkam o'ttiz yil davomida, shu jurnalning Bosh muharriri lavozimida ishlab keldi.

Zulfiya she'riyatga bolaligidan qadam qo'yadi. Taxminan 13-14 yoshlarida kichik hajmli she'rlar yoza boshlaydi. 1930-yilda uning ilk she'ri matbuotda chop etiladi. Dastlab 1932 yil „Hayot varaqlari“ she'rlar to'plami nashr etiladi. Bu kitobda o'rin olgan "Yosh traktorchiga", "Mexanik Qumri", "Ozod qiz", "Bizlar", "Maktab yo'lida" va boshqa she'rlari shoirning yangi jamiyat va ayol ozodligi yo'lidagi orzu-umidlarini aks ettirar edi.

Shundan keyin uning „Temiroy“ (1934), „She'rlar“, „Qizlar qo'shig'i“ (1939) she'riy kitoblari e'lon qilingan. Zulfiya she'riy ijodining porlashi „Uni Farhod der edilar“ (1943), „Hijron kunlarida“ (1944) va „Hulkar“ (1947) to'plamlari bilan bog'liq. Ayniqsa, Hamid Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar va qalb iztiroblari bilan to'la she'rlar Zulfiya ijodida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lganidan darak beradi. U shaxsiy fojiasi tasviri orqali Ikkinchi jahon urushidan katta talafot va yo'qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarini ifodaladi.

1956-yilda u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi.

Ijodidagi xalqlar do'stligi va dunyo xalqlarining birdamligi yo'lidagi xizmatlari uchun unga 1968-yilda J.Neru nomidagi davlat mukofoti va 1970-yilda "Nilufar" mukofoti berildi.

Iqtidorli shoira va yozuvchi inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdoni

bo'lib, turli janrlarda – dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she'rlar, hikoyalar, ocherklar, publitsistik maqolalar va b. asarlar yaratgan. Shuningdek, Zulfiya tarjimon sifatida ham tanilgan. A. S. Pushkin, M. Y. Lermontov. N. A. Nekrasov, M. Voqif, L. Ukrainka, M. Dilboziy, S. Kaputikyan, E. Ognetsvet, M. Karim, P. Amrita, Y. Bagryana va boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning asarlari ko'plab chet tillarda, shuningdek, qardosh turkiy xalqlar tillarida nashr etilgan.

Adabiyot sohasida ko'rsatgan xizmatlari uchun unga 1965-yilda O'zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berildi. Turli vaqtlarda Zulfiya turli davlat mukofotlari bilan taqdirlanadi.

1985-1986-yillarda Toshkentda Zulfiya asarlari uch jildda chop etildi. Uning bir necha she'rlari ozarbayjon tiliga tarjima qilingan. Zulfiya 1996-yilda vafot etgan.

## IJODI

Zamonaviy o'zbek adabiyotida lirik she'rning eng go'zal namunalarini yaratgan san'atkorlardan biri Zulfiyadir. Zulfiya poeziyasi Sharq va G'arb an'analari zaminida shakllanib, yuqori cho'qqiga ko'tariladi. O'zi qayd etganidek, buyuk Navoiyning g'azallari, Fuzuliy dostonlari, Pushkinning billur misralari, Bayronning isyonkor she'rlari, Lermontovning ta'sirli she'riyati, Nekrasovning samimiy va sodda obrazlari shoiraga kuchli ta'sir ko'rsatib, ijodida o'chmas iz qoldirgan.

Shoiraning turmush o'rtog'i Hamid Olimjon uning ijodiga ta'sir qilmay qolmagan. Zulfiyaning "Ulkan shoir, o'z ona tili va adabiyotining bilimdoni, kam uchraydigan qobiliyat va intizom sohibi, do'stlarga mehribon, dushmanlarga ayovsiz H.Olimjon faqat mening turmush yo'ldoshim va bolalarimning otasi bo'lib qolmasdan, ayni chog'da qalbim va ruhimga uyg'un hamrohim va sezgir maslahatchim edi. Men undan fikrlashni, mehnat qilishni va she'r yozishni o'rgandim, uning ijod maktabida ta'lim oldim",- degan fikrlarida uning ilhom jilg'asi suv ichgan chashmalarining birinchisi Hamid Olimjon bo'lganligidan darak beradi.

Shoiraning 30-yillardagi poeziyasi ijodining ilk bosqichi sanaladi. Zulfiya ijodida o'zbek ayolining taqdiri muhim o'rin egallaydi, uning mamlakat hayotidagi faol o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zulfiya uzoq o'tmishda ayol o'rni uy-ro'zg'or yumushlari doirasida bo'lganligini, uyda ham bek, ham hukmdor bo'lgan eriga itoatli cho'ri bo'lib, bosh egishi lozim bo'lganligini yashirmaydi. "Hayot varaqlari", "She'rlar" va "Qizlar qo'shig'i" kitoblarida muammoga munosabat shu aspektdan bildirilar edi.

Mashaqqatli urush yillari Zulfiyaning iqtidori butunlay ravnaq topadi va o'ta yorqin tus oladi. Shoiraning "Uni Farhod derdilar" (1943), "Hijron



kunlarida” (1944) kitoblaridagi “Mening vatanim”, “Yigitlarga”, “Hijron”, “Vafo”, “Ikki she’r”, “Hijron kunlarida”, “Gullar ochilganda” va boshqa she’rlarida vatanparvarning serg’ayrat ovozi jaranglaydi, Vatani mustaqilligi uchun qo’liga qurol olib kurashayotganlarga, har kunlik chuqur kurash ortida mashaqqatli mehnati ila frontni barcha kerakli narsalar bilan ta’minlayotganlarga nisbatan lirik iliqligi seziladi. “Uni Farhod derdilar” dostonida isyonkor fashistlarga nisbatan nafrat, g’alabaga ishonch ifodalangan. G’animga qarshi kurashga chorlov askar-o’g’il haqidagi ona qo’shig’i, xotini va onasini sog’ingan jasur frontchi, pahlavon eri uchun qayg’urayotgan ayolning qayg’uli xavotiri bilan bog’lanadi. Doston markazida qahramonning vatanparvarlik, mardlik bilan tula ma’naviy dunyosi tahlil etiladi. Asarning zamirida san’atkorning so’zi bilan ish bir bo’lishi kerak, degan fikr mavjud. Qobilqori o’zbek sahna-sida juda ko’p rollarni ijro etib, qahramonlik, insonparvarlik, vatanga jon fidolik kabi tuyg’ularni targ’ib qilgan edi. Uning iste’dodiga qoyil qolgan tomoshabinlar Farhod rolini mahorat bilan Qobilqorini Farhodning o’ziya, derdilar. Shoir xalqning mehridan kelib chiqib, dostonni “Uni Farhod der edilar” deb nomlaydi.

“Kechir, qoldim g’aflatda”, “Ne baloga etding muftalo”, “Bahor keldi seni so’roqlab”, “Xotiram siniqlari” kabi she’rlarida sadoqat va vafo tuyg’usini – insoniylikning, komillikning bosh mezoni darajasiga ko’targan. Ushbu asarlar Hamid Olimjonning o’limidan so’ng yozilgan. Qizig’i shundaki, ushbu she’rlarda shaxsiy masalalar oldinga chiqsa ham, hodisadan shaxsiy doiradan chetlab, ijtimoiy qiyofaga kiradi.

“Bahor keldi seni so’roqlab” she’rida shoir bevaqt olamdan o’tgan turmush o’rtog’ining o’limini qayg’u bilan yodga oladi. She’rda bahor kelishidagi quvonch, hayot, yangi ruh aks etsa ham, hamid Olimjonning bu sevinchga sherik emasligi uchun cho’kkan g’am-g’ussa tasvirlanadi:

*Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag’rim, bahorni,  
O’rik gullarining eding maftuni.  
Har uyg’ongan kurtak hayot bergan kabi  
Ko’zlaringga surtib o’parding uni.*

*Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so’radi seni,  
Ul ham yosh to’kdi-yu, chekindi nari.*

Lekin she'rdagi Hamidning yo'qligi, o'limi jismoniy ma'noda qabul qilinadi. Shoiraga ko'ra Hamid Olimjon o'z asarlari bilan xalqning qalbidan joy olgani uchun o'limidan keyin ham abadiy yashaydi:

*Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,  
Hayotni kuylayman, chekinar alam.  
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!*

"Men o'tgan umrga..." she'rida hayot va taqdir haqidagi qarashlari o'z aksini topadi. "Men o'tgan umrga..." avtobiografik she'r namunasidir. Bu yerda o'tgan kunlarga nazar solinadi, hayotning qayg'uli va quvonchli onlari yodga olinadi, xulosada esa hayot dialektikasi tafakkuri o'rin oladi:

*Hayot kitobimni bexos varaqlab,  
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.  
Tabassum o'rnida kuldim charaqlab.  
Suyish kerak bo'lsa – telbacha suydim.*

*Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,  
Yurak boyligidan qilmabman parvo.  
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,  
Yangi qo'shiq talab unda har saboq.*

*Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,  
Hech kimda ko'rmayin umringa o'xshash:*

*Suydim,  
Erkalandim,  
Ayrildim,  
Kuydim,  
Izzat nima – bildim.  
Shu-da bir yashash!..*

Umuman olganda, Zulfiya poeziyasida inson umri, hayotning zohiriy, jismoniy va ma'naviy qadri aks etsa ham, abadiy ma'naviylikka ko'proq joy beriladi, ya'ni yashash, umr ko'rish hayotning eng shirin ne'mati hisoblanadi.

O'lim esa hayot lazzatini tortib oluvchi dars sifatida namoyon bo'ladi. Lekin shoirning falsafiy she'rilarida o'lim hayotning jismoniy intihosi, xolos. Inson bu dunyoda jismonan o'lsa ham, ruhan yashaydi, boshqalar bilan munosabati davom etaveradi. Bu bo'yicha Zulfiya, avvalo, yo-

zuvchi va shoirlarga, ezgu amal sohiblariga joy ajratadi, o'z asarlari bilan ko'ngillarga nur soluvchi, qalbni yorituvchi insonlar abadiy yashaydilar. S.Vurg'un uy muzeyi taassurotlari asosida qalamga olingan "Bir dona papiros" she'ri shular jumlasidandir. Zulfiya uy muzeydagi shoirning so'nggi chekkan yarimta papirosdan ta'sirlanib, hayot, o'lim muammolari to'g'risidagi fikrlarini falsafiy aspektdan yoritadi. Samad Vurg'un papirosining chala qolishi aslida uning umri yarim qolganini ifodalaydi. Lekin o'lim uning hayotini yarim qoldirgan bo'lsa ham, she'riyati o'limga g'olib kelgan holda uni abadiy yashatadi, xotiralardan o'chishiga yo'l qo'ymaydi:

*Qalbdan intizorlik,  
Ko'zida maroq,  
U bilan o'pishib  
Umrining so'ngida.*

*Papirosda bo'lgan  
Ishonchga qara,  
Yarimta qolibdi  
Uning umri ham.*

*Yarimta papiros  
Qara, nellar der,  
Faqat o't so'nmagan  
Uning kulida.*

*Ey so'zning xoqoni,  
Sarrofi shoir,  
Qancha nag'ma so'ndi dudoqlaringda?!*

Zulfiya she'riyatida Vatanga muhabbat, Vatan go'zalliklarining taranumi keng o'rin olgan. Bu kabi she'rlarda el-yurtga muhabbat asosiy g'oyaga aylangan. U "Janub oqshomi", "Tojikiston xotiralari", "Yuragimga yaqin kishilar" va b. she'rlarida ham vatan, tabiat go'zalliklaridan so'z ochadi, ham xalqlar, o'lkalar do'stlik, birdamlikda yashashlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. "Yuragimga yaqin kishilar" she'ri an'anaviy uslubdagi sobiq sovet xalqlarining do'stligi va birdamligi kuchini aks ettiruvchi she'r sifatida tahlil qilinsa ham, aslida shoira shaxsan o'zining ideallaridan kuch oluvchi xalqlarning birligi va do'stligini ko'rib yashash orzusini namoyish ettiradi:

*Yurtim xaritasi - mening yuragim,  
Eng uzoq burchi ham tanish va yaqin,  
Muqaddas gavharday saqlayman unda  
Ikki yuz millionli xalq muhabbatin!  
Uzoq Sharq,  
Saxalin,  
Bokuda yurib  
Ko'raman eng yaqin qarddon do'stni.  
...Shu qalb kuyi bo'lib  
goh oqshom,  
gox tong  
Do'stlar eshigidan kirib boraman,  
Har yerda muhabbat va hayot bergan  
Yaqin kishilarni topa olaman!*

Zulfiya bolalar adabiyoti rivojida ham mislsiz xizmati bo'lgan shoiralardandir. Zulfiya bu kabi she'rlarda bolalar dunyosining o'ziga xosligi masalalaridan so'z ochadi. "Bir bola bor, oti Alisher", "Qizil maydonda", "Men tug'ilgan kun" va shu kabi o'nlab she'rlar to'plangan "Gullarim" (1959) kitobi bolalar adabiyoti namunalariidan iborat. Kitobga bunday nom berilishi tasodif emas. Chunki Zulfiya bolalarga doimo "Gullarim" deb murojaat qilib, bolalar olamining beg'uborligini tilga oladi.

Masalan, "Bir bola bor, oti Alisher" she'rida shoira jajji Alisherning hayotga ishtiyoqi va qarashlarini bola yoshi va psixologiyasiga moslashtira oladi:

*Go'zal Farg'onada, so'lim qishloqda,  
Shinam bir hovlida yashar Alisher.  
O'qiydi. Goh kolxoz, goh hovli, bog'da  
Jondan ko'maklashib ishlar xuddi sher.  
Bir savolga javob topmaydi lekin:  
"Jurnalist yo rassom yangi dunyoning  
Aktiv quruvchisi atalarmikin?"  
Shu hal qilar emish taqdirin uning.*

50-yillarning 2-yarmida u Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, jahonning ko'pgina mamlakatlarida bo'ldi. Hindiston, Misr, Yaponiya va qo'shni respublikalarga qilgan safari shoira ijodida chuqur iz qoldirdi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaga shuhrat keltirdi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. 70-yillardan boshlab uning

ijodidagi milliy hayot tasvirida yangi ranglar kamalagi paydo bo'ldi, haqqoniylik va his-hayajon kuchaydi. "O'ylar" (1965) she'riy guldastasi bilan boshlangan voqelikni falsafiy idrok etish tamoyili "Visol" (1972), "Yillar, yillar..." (1975) she'riy kitoblarida davom etib, shoira ijodida chinakam badiiy yuksalish davri boshlanganini namoyish etdi. U yana doston janriga qaytib, ustoz Oybekning so'nggi safariga bag'ishlangan "Quyoshli qalam" (1970) dostonini yaratdi.

## SHAROF RASHIDOV

Sharof Rashidov O'zbekistonning taniqli shoiri va yozuvchisi, adabiyotshunosi, publitsisti, ijtimoiy va davlat xodimi sifatida katta obro'ga ega shaxslardan biridir.

Sharof Rashidov 1917-yil 6-noyabrda Jizzaxda dehqon oilasida tavallud topdi. O'rta maktabda dastlabki ma'lumotni olgach, 1934-yilda Jizzax pedagogika texnikumida o'qidi. 1941-yilda Samarqand davlat universitetini tugatganidan so'ng, mehnat faoliyatini muallim va muxbirlikdan boshladi. 1938–1941-yillarda Samarqand viloyati gazetasida ishladi. 1941–1942-yillarda Ikkinchi jahon urushida qatnashadi.



SHAROF  
RASHIDOV  
(1917–1983)

Frontdan qaytgach, 1944–1947 yillarda Samarqand viloyati miqyosida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. 1947–1949-yillarda hozirgi "O'zbekiston ovozi" gazetasiga muharrirlik qildi. 1949–1950-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, 1950–1959-yillarda O'zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining raisi bo'lib ishladi. 1959–1983-yillarda O'zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi lavozimlarida xizmat qildi.

Ijtimoiy va siyosiy xodim sifatida uning mehnati o'z qadr-qimmatini topadi. U ikki bor Sotsialist mehnat qahramoni nomiga loyiq ko'rilib, bir qancha orden va medallar bilan taqdirlanadi.

Taniqli arbobning 1981–1983-yillarda asarlaridan iborat 5 jildlik kitob nashr etiladi.

### IJODI

Sharof Rashidov o'tgan asrning 30-yillaridan badiiy ijod bilan shug'ullanib, dastlab she'riyatda qalam tebratdi. Uning birinchi she'riy to'plami "Samarqand kuylari" nomi bilan bosilib chiqdi. Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan she'rlari 1945-yilda "Qahrim" to'plamida chop etildi. U ayni chog'da adabiyotshunos va publitsist sifatida ham qalam tebratdi. Uning "Hayot va adabiyotdagi yangiliklar", "Badiiy va g'oya yuksakligi uchun", "Yuksak g'oyalar yo'lida" va b. ilmiy-nazariy maqolalari shular jumlasidandir.

Lekin Sharof Rashidov turli sohalarda qalamini tajribadan o'tkazganiga qaramay, u qudratli adib sifatida shuhrat qozongan. Adibning "G'oliblar" (1951), "Bo'rondan kuchli" (1958), "Qudratli to'lqin" (1964), "Dil amri" (1982) va b. asarlari o'zbek adabiyotidagi eng yorqin ijod namunalaridir. Bu asarlarda realist tasvir uslubiga keng o'rin berilgan.

“G‘oliblar” romani asrlar davomida suvsizlikdan azob chekkan yerga suv tortgan qahramon odamlarning mehnatiga bag‘ishlangan. Hodisalarga tarixan yondashgan yozuvchi romanda Oltinsoy vodiyidagi ijtimoiy jarayonlarini, Oltinsoyliklarning turmush tarzi, orzu-umidlarini keng tasvirlab bergan.

Asarning bosh qahramoni Oyqizdir. U mehnatkash, tashabbuskor, tashkilotchi qizdir. Oyqiz doim olg‘a intilib yashaydi. Uning ezgu ishlariga g‘ov bo‘lishga urinuvchi borligiga qaramay, Oyqiz o‘zining metin irodasi tufayli g‘olib bo‘ladi. Romanda muallif o‘z g‘oyasi yo‘lida borib, g‘alaba qozonganlar qatorida Olimjonni, Jo‘raboyevni, Umrzoq otani, Smirnov va Bekbo‘ta kabilarni tasvirlab, mehnatkashlarni tarannum etadi. Bu odamlar turli yosh guruhlariga va turli kasbga ega bo‘lsa ham, xayrixoh amallar uchun kurash olib borganliklari sababli bir qatorda tura olishadi.

“G‘oliblar” romani qiziqarli boshlang‘ichga ega bo‘lib, o‘quvchi tongning porloq chog‘ida Oyqiz va uning vatani Oltinsoy bilan tanishadi. Roman qahramonlari dehqonlardir. Quruqshab yotgan tuproq uchun barcha qahramonlar bu ishga safarbar bo‘lishadi. Shuning uchun ham Sharof Rashidovning obrazlari real tasvirda g‘ayrioddiylik bilan ajralib turadi. Muallif barcha hodisalar va voqealarni Oyqizga bog‘laydi. Oyqizning bolalik davridan boshlangan romanda uning dovyurakligi, burgutga duch kelganda ham hayiqmasligi orqali qizdagi jasorat aks ettiriladi. Muallif asarda Oyqizni axloqiy-ma‘naviy jihatdan eng yuksak cho‘qqiga chiqaradi. Oyqiz tasavvurida xalqqa xizmat va sadoqatdan boshqa hech nima yo‘q. Shuning uchun ham kim bo‘lishidan qat‘i nazar xalqning moliga ko‘z tikkanlar, xalqqa xizmatdan bo‘yin tovlaganlar uning g‘azabiga duchor bo‘ladi. Tog‘asi G‘afurning kolxoz mulkini oyoqosti qilishi Oyqizning e‘tiroziga sabab bo‘ladi. Aslida muallif bu voqea orqali uning xarakterini ochib berishga harakat qilgan. Shuning uchun ham romanda harakatlari pardalangan, avvaliga hech qanday salbiy tomonlari ko‘rinmagan kolxoz raisi Qodirovga qarshi kurashish Oyqiz uchun osonlashadi. Ushbu kurashda Oyqiz ko‘pgina tarafdorlari, shuningdek, qaylig‘i Olimjonga suyanadi. Olimjon boy ma‘naviyatga molik obraz bo‘lib, u ilk katta imtihondan urushda o‘tgan edi. Urush mashaqqatlarini ko‘ksini kergan, dushmanga qarshi beomon bo‘lgan Olimjon Oygul bilan birlashadi. Ikki yosh bo‘lishiga qaramay, xalqning kelajagi muayyanlashishida, kolxoz mehnatkashlarining taqdirlari hal bo‘lishida o‘z qat‘iyatlarini ko‘rsatadilar, har tomonlama vakolatlari ustun bo‘lgan kolxoz raisiga qarshi kurashdan cho‘chishmaydi.

Roman g‘olib insonlarning g‘alaba qozonishi, Oltinsoyning suv hasratiga nuqta qo‘yilishi, Qodirov kabi beg‘am, ayni paytda mas‘uliyatsiz odamning fosh etilishi, va nihoyat, asardagi ikki qahramonning turmush



qurishi bilan yakunlanadi. Qiziq jihatlaridan biri esa asarda barcha ishlarning foydasi va odamlarning kelajak orzulari tarannumining badiiy aksiga bog'liq. Roman yakunida bu orzu va istaklar o'z ifodasini mana shunday topadi: "Oltinsoyliklar asrlab issiqdan kuylan tashna tuproqlarga suv olib kelishdi. Xom tuproqlarni ekib, to'g'on qurilishini davom ettirmoqdalar. Yaqinda paxta terib olishadi. Oltinsoy darasida kelasi yil katta suv havzasi quriladi, so'ng esa gidrostansiya chiroqlari yoyiladi". "G'oliblar" romanining davomi sifatida nazarda tutilgan "Bo'rondan kuchli" asari yuqoridagi his-tuyg'ularning tasvirini o'zida aks ettirish maqsadida yozilgan. Romanda qishloqliklarning paxta dalalarida chigit ekish, yangi obod qishloqlar qurish niyatlari tasvirlanadi. Romanning markazida qahramon, mehnatkash xalq turadi. Xalq kuchiga, qudrat va azamatiga katta ishonch bildiriladi. Umurzoq otaning tili bilan aytilgan "bo'ron kuchli, ammo mehnatkashlar undan ham kuchlidir" so'zlari xalq azmining nimalarga qodir ekanligiga yaqqol misol bo'la oladi. "Bo'rondan kuchli" romanida qishloq hayotida yuz bergan hodisalar yetakchi o'rinni egallaydi. Asarda obkom kotibi Abdullayev, raispalkom Sul'tonov, kolxoz raisi Qodirov, rayonda mas'ul lavozim egasi Aliqul, muxbir O'tkir, jinoyatlari bilan tanilgan G'afur va boshqalar tipik obraz sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun asar reallikdan chetga chiqmaydi. Asarda o'zining noqisligi, jirkanch, amalparastligi bilan diqqatni jalb etuvchi personajlardan biri raispalkom Sul'tonovdir. Sul'tonov poraxo'r, soxta odamlarning timsoli bo'lib, amalga o'tirishi bilan o'z niqobini yechadi va shu kungacha hech kimga ayon bo'lmagan xislatlarini namoyon etadi. Muallif shu yo'l orqali Sul'tonov shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'ygani uchun xalq nazaridan qolishini va naqadar yuqori amalga ega bo'lsa ham, inson xalq nazaridan qolganda mag'lub bo'lishini ko'rsatadi. Muallifga ko'ra, xalq katta kuch bo'lib, uning nafratiga duchor bo'lish hayoti barbod bo'lish bilan barobar. Shuning uchun bu romanda obkom kotibidan tortib eng kichik lavozimdagi odamlar asar yakunida xalq irodasiga tobe bo'lishlari yuqoridagi fikrlarning haqiqatligini isbotlaydi.

"Qudratli to'lqin" romanida ham xalq hayoti asosiy o'rinni egallaydi. Sharof Rashidov avvalgi ikki romanida qishloq hayoti va uning muammolaridan so'z ochgan bo'lsa, "Qudratli to'lqin" romanida qahramon ishchilar sinfiga joy ajratgan. Romanda Po'lat asosiy obraz bo'lib, o'zining mehnatkashligi, vatanparvarligi bilan ajralib turuvchi yigitdir. Fashistlar mamlakatga hujum qilganda, Po'lat frontga borish uchun harbiy komissarlikka murojaat qiladi. Lekin uni tibbiy ko'rikdan o'tkazib, front uchun yaroqsiz ekanligiga qaror qilishadi. Avvaliga Po'lat bu hodisadan so'ng ruhan cho'kadi. Do'sti Anvarning maslahati bilan G'alaba GES da ishlashga boradi. Mansabparast To'raxonov Po'latning bu muassasada ishlashiga to'g'onoq bo'ladi. Faqat Shermet Qosimovning yordami bilan u

beton ishiga qabul qilinadi va o'z xizmatlari bilan mamlakatga foydasi tegadi.

Asardagi obrazlar ichida diqqatni jalb etuvchilardan biri To'raxonovdir. U oz vaqt ichida rayon ijro qo'mitasi raisi lavozimiga ko'tariladi. Shaxsiy manfaatini hamma narsadan ustun ko'rishi, poraxo'rliги, hiylagarligi bilan tanilgan odamdir. Xalq nazaridan qolgan insonning mag'lubiyati muqarrarligi bu romanda ham aks etgan bo'lib, To'raxonovning Po'lat bilan bo'lgan ziddiyati uning mag'lubiyatiga sabab bo'ladi. "Qudratli to'lqin" romanida Bahor, Anvar, Rustam, Nikitin, Haydar, Sodiqov va boshqa obrazlar turli xarakterda tavsiflanadi.

"Dil amri" (1982) Sharof Rashidovning so'nggi asari hisoblanadi. Asarda urushning jang manzaralari o'z aksini topgan. Asar mavzusi Rossiyaning Berezovka qishlog'ida sodir bo'lgan voqealardan olingan bo'lib, urush hududidagi odamlarning vatanparvarlik, mardlik va jangovarligini olqishlashni oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Asar qahramonlari 12-13 yoshlardagi Seryoja, Irina va Taras ismli bolalar bo'lib, yosh bo'lishlariga qaramay, vatan yo'lida jonlarini fido qilishdan qo'rqmaydilar. Asarda e'tiborni tortuvchi maqomlardan biri shuki, Seryoja va Irinaning otalari jangda shijoatlari bilan dong taratgan jasur askarlardir. Lekin Tarasning otasi Gerasim vatan xoinidir. Shunga qaramay, Taras do'stlaridek vatanini sevadi va dushmanlardan nafratlanadi. Muallif Taras siymosida o'g'il otaning qilmishiga javobgar bo'la olmasligini ta'kidlaydi. Gerasim vatan xoini bo'lsa ham, uning o'g'li Taras vatanparvar va qahramondir.

Sharof Rashidov zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli arbobi sifatida asarlarida aks ettirgan insonparvarlik, vatanparvarlik, qahramonlik, do'stlik va b. mavzular o'quvchilar tomonidan olqish bilan kutib olingan.

## ERKIN VOHIDOV

Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilgan. Oilasi Toshkentga ko'chgani uchun, Erkinning ham taqdiri ushbu shaharga bog'lanadi.

Erkin Vohidov Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olib, "Yosh gvardiya", G'afur G'ulom nomidagi nashriyotlarda, "Yoshlik" jurnalida xizmat qildi.

1983-yildagi she'riy to'plami uchun O'zbekiston davlat mukofoti bilan taqdirlanadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi

Oliy Majlisining Xalqaro aloqalar va munosabatlar qo'mitasi rahbari, O'zbekiston Senati a'zosi sifatida faoliyat yuritdi.

Vohidov ko'plab xorij ijodkorlari, jumladan, Aleksandr Blok, Aleksandr Tvardovskiy, Friedrich Schiller, Johann Wolfgang von Goethe, Lesya Ukrainka, Mixail Svetlov, Muhammad Iqbol, Rasul Hamzatov, Sergey Yesenin hamda Silva Kaputikyan asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Xususan, shoir 1974-yil Goethening „Faust“ asarini o'zbekchaga o'g'irgan. Ayniqsa, Gyotening "Faust" asari va Yeseninning "Eron qo'shiqlari" she'ri yuksak mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Erkin Vohidovning to'rt jildlik "Saylanma asarlar"i, "Orzuli dunyo" (2010), "Tabassum" (2012), "Yangi she'rlar" (2015) she'riy to'plamlari adabiyot muxlislari uchun bebaho tuhfa bo'ldi. U 1996-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

## IJODI

XX asr o'zbek adabiyoti juda katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Asrlar davomida shakllanib, taraqqiy etib kelgan she'riyat o'tgan asrning 60-yillariga kelib, yana bir bor yuksalish jarayonini o'z boshidan kechirdi. Bu davrga kelib adabiyotda, xususan, she'riyatda yangicha talqinlar, tuyg'ular ifodasi yanada, teranroq ifodalana boshladi. Bu jarayonda iste'dodli shoir Erkin Vohidovning o'ziga xos o'rni mavjud. Shoirning "Yoshlik devoni" go'yo "mudragan aruzni uyg'otib yubordi. Erkin Vohidov she'rdagi yashirin hikmatni o'zbek g'azalxonlari qalbiga joylay oldi. "Go'zallik", "Yoshlik devoni", "Shirin", "Yoshligim, kel" va boshqa she'rlari shoirning muvaffaqiyatli asarlari qatoriga kiradi. Erkin Vohidov Navoiy va Fuzuliy poeziyasidan bahramand bo'lib, ularning so'z san'atidan o'z ijodida foydalana olgan. Shu sababli Erkin Vohidov poezi-



ERKIN VOHIDOV  
(1936-2016)

yasida falsafiylik, sodda til va musiqiylik e'tiborni tortuvchi jihatlardan biridir.

70–80-yillarda Erkin Vohidov ijodining ijtimoiy mohiyati kuchaya boshladi. Shoirning “Nido” (1965), “Hozirgi yoshlar” (1974), “Muhabbatnoma” (1986), “Sadoqatnoma” (1986) kabi kitoblarida to'plangan she'rlarida o'zbek xalqining, asosan, mehnatsevarligi, insonparvarligi va b. tasvirlanadi.

Uning “Qatralar”, “Yurak va aql”, “She'r va shaxmat” nomli she'rlari, “Nido” dostoni o'zbek yoshlarining tafakkurini aks ettiradi” (X.R.Ulug'turk). “Hozirgi yoshlar” she'rida nuroniy otaxonning o'tmishiga nazar fonida bugungi hayot realliklariga munosabat bildiriladi. She'rd a shoirni mamlakatning, xalqning kelajagi o'ylantiradi. Shuning uchun ham muallif oqil, dunyo ko'rgan keksaning fikrlarida hozirgi yoshlarni kelajakning posbonlari va loyiq avlodlari sifatida taqdim etadi. Lekin nuroniy hozir bu mas'uliyatga tayyor emasliklaridan bezovta bo'ladi:

*Yoshligini eslar,  
Uf tortar sekin.  
Salgina chimrilar oq tushgan qoshlar.  
“Biz ham yosh bo'lganmiz bir mahal,  
Lekin  
Boshqacharoq chiqdi hozirgi yoshlar.”*

She'rd a yoshlarga vatanni sevish, ilm, ma'rifatni o'rganish, xalqqa suyanchiq bo'lish kabi g'oyalar singdiriladi:

*Endi bularga ham har qalay og'ir,  
Zamon shitobi tez, parvozi tikka.  
Kecha tili chiqqan Nargiza o'qir  
Birinchi sinfda matematika.  
Bizlar haftiyakdan boshlagan edik,  
Bular iks bilan igrikdan boshlar.  
Durust, zehni o'tkir, qadami tetik,  
O'zimizga tortdi hozirgi yoshlar...*

Oqil nuroniy ajdodlarning mehnatkashligini hozirgi yoshlarga namuna qilib ko'rsatadi. Lekin asarda yoshlarning dunyoqarashi va amallari tanqid qilinsa-da, bu yerda to'g'ri yo'lga chorlash juda kuchli hisoblanadi. Shuning uchun ham “O'zbekim” qasidasida xalq obrazini yaratish orqali shoir kelajak avlodga mukammal namuna timsolini taqdim etadi. “O'zbekim” qasidasida shoir xalqning eng qadrl i yutug'i - Vatan erkinligi va mustaqilligini tarannum etadi. Erkin Vohidov “o'rdani vahshiyona

toptashdi va yer jarohatlari sezildi” misralari orqali ona diyoringning tarixiy o‘tmishiga yuzlanadi.

“Bizlar ishlayapmiz” she’rida shoir mehnatning jamiyatdagi o‘rni haqida so‘z ochadi. She’rda obyektivlik, har narsaning real baholanishi eng vojib talab sifatida ko‘rsatiladi. Shuning uchun ham muxbir ishlatgan balandparvoz so‘zlar mehnatkash odamning mashaqqatlari tasviri emas, balki nazariy aspektdan tahlili sifatida tavsiflab, tanqid etiladi:

*Bizga to‘g‘ri kelmas “chavandoz” so‘zi,  
“Jonbozlar” deganing erishroq bir oz.  
“Zafar marrasini quchmoq” ne, o‘zi?  
Bizlar ishlayapmiz,  
Bu - mehnat, xolos.*

She’rda og‘ir ish sharoitidan, mashaqqatli yo‘llardan aziyat chekayotgan o‘zbek xalqining orzu-umidlari sun‘iy poetik iboralar ifodasi emas, balki umrini mehnatga bag‘ishlagan insonlarning ma’naviy boyligining aksidir.

*Har bir mashaqqatning  
rohati ham bor,  
Har qo‘shish bir quvonch  
hadya etadi.  
Ko‘pkarida otni qamchilab bir bor  
“Hayt” desang, g‘uboring chiqib ketadi.*

“Bir tomchi yosh” she’ri esa samimiy tuyg‘ularning yuksak falsafiy ifodasini aks ettiradi. Hayotda insonning o‘rni, mavqeyi, odamlarning bir-biriga munosabatini muayyanlashtiradi:

*Cho‘qqidan bir kichik tosh yumalasa,  
Tog‘ni qulatgudek suron qiladi.  
Ko‘zingdan bir tomchi yosh yumalasa,  
Tog‘day yuragimni vayron qiladi.*

*Agar ko‘ksim uzra qulasa birdan,  
Tutmoqqa qodirman tog‘lar toshini.  
Hayhot, ko‘tarolmam kipriklaringdan  
Uzilgan bir qatra qayg‘u yoshini...*

“She’r va shaxmat” va “Olimlar va shoirlar” she’rlari Erkin Vohidovning bevosita ilmiy qarashlariga bog‘liq. Bu vaziyatda shoir she’rning maqsad-vazifalari va hayot muammolari to‘g‘risidagi ta’sirli fikrlarini o‘quvchi bilan bo‘lishish imkoniyatiga ega bo‘ladi:

*Go'zallik, nafosat, kurash va san'at  
She'r ila shaxmatga azaliy udum.  
Ming yillik umrida ular beshafqat  
Doimo shohlarga boshlagan hujum*

*Shaxmat ko'p o'ynalgan, she'r ko'p yozilgan  
Odatiy yurishlar hammamizga yod.  
Bobolar o'ynagan usullar bilan  
Ular nabirasin qilib bo'lmas mot.*

“She'r va shaxmat” she'rida ilgari surilgan g'oyalardan biri esa asarlari kelajakda barhayot bo'luvchi ijodkorlarning baxtiyor ekanligidir:

*Men orzu qilaman,  
To'rt yo'l she'r bitib,  
Elga manzur qilsam aqalli bir bor.  
Shaxmatni ilk bora ixtiro etib  
Quvongan hindidek edim baxtiyor.*

Erkin Vohidov ko'plab dostonlar muallifi bo'lib, uning “Orzu chashmasi”, “Nido”, “Palatkada yozilgan doston”, “Oo'shiq diyori”, “Ruhlar isyoni” va b. shular jumlasidandir.

“Nido” dostoni urush va u olib kelgan kulfatlar, u yetkazgan jarohatlar haqida bo'lib, bu doston qisman avtobiografik xarakterga ega, ya'ni shoirning tarjimayi holi bilan bog'liq. Chunki uning ayni qalam ushlab, savod chiqarish davri ana shu urush yillariga to'g'ri kelgan.

“Ruhlar isyoni” dostoni esa bengal shoiri Nazrul Islom haqidagi doston. Doston bir necha rivoyatdan iborat bo'lib, ularda turli tarixiy va tarixiy bo'lmagan shaxslar haqida so'z yuritiladi. Asar g'oyasi esa ozodlik, adolat va haqiqat prinsiplariga tayanadi.

Shoirning “Oltin devor” va “Istanbul fojiasi” kabi she'riy dramalari katta ijodiy mehnatining samaralaridir. Ana shunday samarali ijodi Erkin Vohidovga el-yurt e'zozini olib keldi. U tavalludining 60 yilligi munosabati bilan “Buyuk xizmatlari uchun” (1996) ordeni bilan taqdirlandi. Shoirning to'rt jildlik “Saylanma asarlar”i nashrdan chiqdi.



# TURKMAN ADABIYOTI







Turkman xalqi asrlar davomida chet el bosqinchilari zulmiga qaramay, o'z milliy tilining sofligini saqlab qoldi, milliy adabiyoti va madaniyatini taraqqiy ettirish uchun kurash olib bordi. Zahmatkash xalqning orzu-umidlarini kuylovchi ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar qatorida turkman xalq latifalarida dono va tadbirkor Kaminaning obrazi yaratilganki, u o'zining ko'p xususiyatlari bilan o'zbek xalq latifalaridagi Afandi obraziga juda yaqin. XVI asrda Turkiston, Afg'oniston va Hindistonda turkman adabiyoti namunalari paydo bo'la boshlagan. Ma'lumki, Bobur qo'shinlari qatorida turkmanlar ham ko'p bo'lgan. Bobur Shayboniyxonga mag'lub bo'lgach, Afg'oniston va Hindistonga borib, u yerda o'z imperiyasiga asos solgan. Bobur yonida turkman shoirlar o'z ijodlarini davom ettirib, o'rta asr turkman adabiyotiga katta tuhfalar berganlar. Shu qatordagi shoirlardan biri Bayramxon (1500–1561) edi. Bayramxonni bir qator manbalarda o'zbek adabiyoti namoyandasi sifatida ham ko'rsatiladi. Lekin Bayramxonning otasi Sayfalibek Badaxshonda yashovchi Bahorli turkman naslidan bo'ladi. Bayramxon Boburning o'g'li Humoyun mirzo davrida harbiy sarkarda va shahzoda Akbarning otaligi qilib tayinlangan edi. Humoyundan so'ng hokimiyat tepasiga chiqqan Akbar davrida Bayramxon davlatning muhim siyosiy yumushlarini bajardi va eng nufuzli arbobga aylandi. Lekin feodal saroyiga xos bo'lgan ichki nizolar va fitna-fujurlar tufayli Bayramxon 1560-yilda davlat ishlaridan chetlatiladi. 1561-yilda Haj ziyoratiga ketayotganda, yo'lda o'ldiriladi, jasadi esa Mashhad shahrida dafn qilinadi. U Nasimiy va Navoiy ijodlaridan ta'sirlanib, fors va turk tillarida devon yaratgan, Asarlari, asosan, ishq-muhabbat mavzusida yozilgan. XVII asr klassik turkman adabiyotining taraqqiyoti an'anaviy mavzu va g'oyalar bo'yicha davom etgan.

Turkman adabiyotining yirik vakillari Nurmuhammad Andalib (1660–1740), Davlatmamat Ozodiy (1695–1760), Maxtumquli (1730 (31)–1780), Shaydoiy (XVIII asr), Abdulla Shobanda (1720–1800) va boshqalar o'z ijodlarida yangi mazmun va g'oyalarning eng yaxshi an'alarini davom ettirdilar.

Davlatmamat Ozodiy o'z davrining taniqli shoirlaridan bo'lib, uning she'riy kitobi hamda "Va'zi Ozod" nomli asari mavjud. Ozodiy ijodi, ayniqsa, "Va'zi Ozod" kitobi, chamasi, to'liq islomiy ruhda bo'lgani bois sho'ro davrida yetarli o'rganilmagan. Bu kitobda muallif ulug' mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodini yaxshi o'zlashtirgan, ayniqsa, "Mahbub ul-qulub" asaridan ta'sir olgan adib sifatida namoyon bo'ladi.

Maxtumquli Firog'iy ijodi bilan mumtoz turkman adabiyotida realist she'riyatning poydevori qo'yiladi. Uning ijodida XVIII asr turkman ijtimoiy-siyosiy hayot o'z aksini topgan. Nurmuhammad Andalib ijodida folklor motivlari, doston janri yetakchi o'rinni egallaydi. Andalib ijodining klassik sharq adabiyoti va milliy folklorga bog'liqligi uning individual

ustunligi deb baholanadi. XIX asr turkman adabiyoti Saidnazar Saidiy (1767–1830), Qurbonturdi Zaliliy (1798–1852), Mammad Vali Kamina (1770–1840), Mulla Napas (1810–1862), Do'stmuhammad (1815–1865), Annaqilich Muhtojiy (1824–1884), Misikin Qilich (1845–1905), Davlatmammad Bolqizil (1854–1912) va b. shoirlar siyomosida yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. S. Saidiyning "Ko'rsunlar endi" she'rida vatan, el, tuproq, qon-qarindosh hasrati bilan faryod qiluvchi, vatan uchun jonidan kechishga tayyor shoirning poetik tuyg'ulari o'z aksini topadi. XIX asr turkman adabiyotida muhabbat mavzusi yetakchi o'rinni egallasa ham, ijtimoiy-siyosiy xarakterli she'rlar ham uchraydi.

Mumtoz turkman adabiyotida nasr va dramaturgiya urf bo'lmagan edi. XX asrdan boshlab turkman adabiyotida nasr va drama asarlari paydo bo'la boshladi. Turkmanistonda sovet hokimiyati o'rnatilgach, har ikki janr rivoji uchun qulay sharoit yuzaga chiqadi. Sovet hokimiyati g'alabasidan so'ng Turkmanistonning ilk matbuot organi "Turkmaniston" va "Dehqon" gazetalari, shuningdek, "To'qmoq" satirik jurnalining chop etilishi mamlakatda adabiy jarayon taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. XX asr boshlarida yozuvchi va shoirlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish ishtiyoqlari ularni davlat matbuotiga bog'ladi. Matbuotda yangi jamiyat qurish, xalq dushmanlari bilan kurash haqidagi asarlarga keng joy ajratilar edi. Ko'r Mulla (1872–1934), Turdi Qilich (1880–1950), Bayram (1871–1948), Mulla Murt (1870–1930), Nurmurod Sarixonov (1906–1944) va boshqa ijodkorlar adabiyotga sovet ideologiyasini targ'ib etuvchi mualliflar sifatida kirib kelishdi. Ayol huquqlarining toptalishiga bag'ishlangan Berdi Kerboboyevning "Qizlar olami" (1927), A. Alamishevning "Sona" (1928) dostonlari, eski dunyo bilan yangi sotsialist hayot farqlarini aks ettiruvchi Omon Kokilovning "Olg'a", Akbar Ruhining "Komsomol" dostonlari, shu jumladan Og'axon Turdiyevning "Baxtlilar" qissasi, Berdi Kerboboyevning "Qat'iy qadam" romani, "Oysulton" qissasi aynan o'sha jamiyat talablariga mos ravishda yozilgan asarlardandir. Shuni ham qayd etish joizki, B. Kerboboyevning "Qat'iy qadam" asari turkman adabiyotining ilk tarixiy romani sanaladi. XX asrning 20–30-yillarida B. Kerboboyev, A. Turdiyev, A. Qarriyev va boshqalar turkman adabiyotiga ilk drama asari yozgan mualliflar sifatida qadam qo'yishgan. Husayn Muxtorovning "Allaning oilasi", "Kim aybdor?" asarlari bilan turkman dramaturgiyasi yangi bosqichga qadam qo'yadi.

Urush yillarida va undan keyingi davrlarda turkman adabiyotida urush va barpo ishlari mavzusi asosiy o'rinni egallardi. O'rozquli Annayev, Omonturdi Jonmurodov, Rajabmurod, Ota Turdiyev va boshqalarning ijodida vatanga muhabbat, dushmanga nafrat, porloq kelajakka ishonch va h. kuchli edi. Ota Turdiyevning "Urushning oddiy kuni" qissasida

to'pchi timsolida frontdagi dovyurakliklar tasvirlanadi. Asarda turkman Komekov, ozarbayjon Mammadov va boshqa xalqlar namoyandalarining birdamligi va dushmanga qarshi olib borgan kurashlari yuksak badiiy mahorat bilan namoyon bo'ladi.

Zamonaviy bosqichda turkman adabiyotida poeziya faol va yetakchi o'rinni egallaydi. Zamonaviy turkman she'riyatida Ozarbayjonga muhabbat alohida mavzuga aylangan. Oyjamol Umarovning "Ozarbayjon", Anna Kovusovning "Ganja", Allohberdi Xayitovning "Ozarbayjon", Avazmurod Boboyevning "Quyoshli Ozarbayjon" va b. namunalar Ozarbayjonning o'tmishi va bugunining tarannumidir.

## DAVLATMAMAT OZODIY



DAVLATMAMAT  
OZODIY  
(1695-1760)

Davlatmamat Ozodiy klassik turkman adabiyotining taniqli arboblardan biridir. Arxiv va boshqa manbalarda uning hayoti to'g'risida manbalar juda oz bo'lsa ham, shoirning tarjimai holi, ijodi to'g'risida ma'lumot olish uchun o'g'li Maxtumqulining asarlaridan, shuningdek, u to'g'risidagi xalq rivoyatlaridan foydalanish mumkin. Davlatmamat Ozodiy 1695-yilda Gargaz uru-g'ining rahbari, o'z davrining ziyolisi bo'lgan

Maxtumquli Yonachining oilasida tug'ilgan. Davlatmamat uning ismi bo'lib, Ozodiy taxal-lusidir. Otasining ismini olgan uchinchi o'g'li Maxtumquli Firog'iy she'rlarining birida bu haqida aytib o'tadi:

*Munkir bilmas, muxlislarning shakki yo'q,  
Payg'ambar dastidir dasti otamning.*

U Atrok Gurgan tumanida G'arri mulla nomi bilan ham tanilgan. Davlatmamat Ozodiy ilk tahsilini o'z qishlog'ida olgan bo'lib, keyinchalik Xiva madrasasida o'qiydi. Maxtumquli ham otasi o'qigan ushbu madrasada tahsil olgan degan taxminlar bor. Xiva madrasasida o'qigan yillarida aniq va ijtimoiy fanlarni chuqur o'zlashtirib, arab, fors va chig'atoy tillarini o'rgangan. Madrasa tahsilini tamomlagach, o'z qishlog'iga qaytib, u yerda muallim bo'lib ishlaydi. Ozodiyning arab va fors tillarini bilishi uning Sharq adabiyotida tanilgan arboblardan Nizomiy, Sa'diy, Hofiz, Umar Xayyom, Fuzuliy, Navoiy va b. bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Boshqa tomondan bu tillar yordamida u Islom dini va madaniyatiga tegishli manbalarni ham o'rganib chiqadi. Albatta, bularning bari Davlatmamat Ozodiyning dunyoqarashiga ta'sir etmay qolmaydi, uning ijodidagi Sharq an'anaviyligining paydo bo'lishida aynan mana shu omil katta rol o'ynagan. Bu to'g'risidagi rivoyatlarda aytilishicha, Davlatmamat Ozodiy o'z tengdoshlaridan aqli, zakovati bilan ajralib turgan, ilm olishga doim intilgan. U o'z farzandlarining ham ilm olishlarini istaydi, ularning ta'lim olishlari uchun hech nimani ayamaydi. Bu fikrlarning tasdig'ini biz Davlatmamat Ozodiy o'g'li Maxtumqulining "ilm o'rgatgan ustoz, qiblam padardir" misralaridan ko'rishimiz mumkin.

Maxtumqulining "Otamning" nomli she'rida Davlatmamat Ozodiy haqidagi bir qancha savollarga javob topish mumkin. U boylikka bosh egmagan, bu dunyoda "oxirat uchun yashovchi", dindor va pok amal sohibi sifatida tanilgan otasi obrazini quyidagicha taqdim etadi:

*Molu davlatlarga ko'ngil qo'ymadi,  
Bu jahonning ishratini suymadi,  
Eski sholdan ortiq po'shish kiymadi,  
Oxirat uyi bo'ldi qasdi otamning.*

*Nuqabo der: uch yuz eran ko'rishdi,  
Chiltanda otamga nazarim tushdi,  
Nujabo borsam, hafttanlarga qorishdi,  
Abdollardir chin payvasti otamning.*

Umuman olganda, Davlatmamat Ozodiy to'g'risidagi ma'lumotlarni Maxtumqulining ko'p she'rlarida uchratish mumkin. "Jon ayladi", "Tark aylama bu dunyoni", "Abdulla", "Sherg'oziy", "haq uchun" va b. she'rlarida o'zi guvoh bo'lgan hodisalarni qalamga olgan. Shuning uchun ham Ozodiy hayotining tafsilotlari, oila fojialari va b. to'g'risida bu kabi namunalardan olingan ma'lumotlarni aniq deb hisoblash mumkin. Bu she'rlarga tayangan holda Ozodiyning bir o'g'li bedarak yo'qolgani, boshqa o'g'li bevaqt vafot etgani, qizi va kelini bir kunda olamdan o'tishgani, shoir umrining oxirgi kunlarida qayg'u va iztirob bilan yashaganini bilishimiz mumkin. Ishonchli manba rolini o'ynaydigan ushbu she'rlarda farzand sifatida Maxtumqulining hislarini ko'rmaslikning iloji yo'q. Masalan, "Jon ayladi" she'rida Firog'iy otadan judo bo'lishning qayg'usini quyidagicha ifodalaydi:

*To'rt yonimni sel burkabdur, qolmisham yolg'iz, manam,  
Otam – Ozod ko'chib ketdi, qolmadi Ka'bam – onam,  
Mot bo'lub, o'tmas aslo, bog' ichra asirdir siynam  
Ibrohimdek nor ichra mardi-maydon sarmanan,  
Bizni o'tg'a solib falak, norini rayhon ayladi.*

Bir rivoyatga ko'ra, Davlatmamat Ozodiyning 18, boshqa rivoyatga ko'ra esa 11 farzandi bo'lganligi aytiladi. Barcha farzandlarini suygan Ozodiy Mamadsafo va Abdulladan keyin tug'ilgan Maxtumqulining kela-jagiga umid bilan boqqan. Davlatmamat Ozodiy otasining ismini qo'yan o'g'lidagi qobiliyatni yuqori baholab, u bilan faxrlangan.

Davlatmamat Ozodiy 1760-yilda 65 yoshida vafot etgan. Bu fakt ba'zi manbalar bilan birga Maxtumqulining "Otamning" she'rida ham o'z tasdig'ini topadi:

*Oltmish yoshda, navro'z kuni, luv yili,  
Turdi ajal, yo'lin to'sdi otamning.  
Bu dunyoning ishi shundaymish, balli,  
Umrining tanobin kesdi otamning*



Lekin qayd etish joizki, she'rning tarjima jarayonida birinchi misradagi "oltmish beshda" so'zlari "oltmish yoshda" shaklida noto'g'ri o'g'irilishi Davlatmamat Ozodiyning tarjimayi holi to'g'risida turli fikrlar paydo bo'lishiga olib kelgan. Shuning uchun ham bu faktga asoslanganlar uning 65 yil emas (1695-1760), 60 yil (1700-1760) yashaganini ta'kidlab, Davlatmamat Ozodiyning 1700-yilda tavallud topganini asoslashga uringanlar. Turkman tadqiqotchilari luv yilini 12 yillik davriy vaqtga asosan 1748, 1760, 1772 va h. yillarga tegishli deb bilsalar ham, she'rda keltirilgan "navro'z kuni" so'ziga tayangan holda luv yilining aynan 1760-yil ekanligini tasdiqlaganlar. 1760-yil esa 65 yoshli Davlatmamat Ozodiyning vafot etgan sanasi hisoblanadi. Shuning uchun Davlatmamat Ozodiy 1695-1760-yillarda yashash ehtimoli kattaroqdir.

## IJODI

XVIII asr Turkman adabiyotining taraqqiyotida, uning yangi mazmun va g'oyalar bilan boyishida xizmatlari bo'lgan Davlatmamat Ozodiy taxminan 40 yillik ijod faoliyatida insoniy tuyg'ular jarchisi sifatida shuhrat qozongan. Nurmuhammad Andalib (1660- 1740), Abdulla Shobanda (1720-1800), Shaydoiy (XVIII asr), Qurbonali Marubiy (1735-1810) va b. shoirlar bilan qiyoslaganda, Davlatmamat Ozodiyning ijodi ajralib turadi. Lekin u boy ijodiy merosga ega bo'lishiga qaramay, asarlarining bir qismigina bizgacha yetib kelgan. "Va'zi Ozod", "Behishtnoma", "Besh namoz", "Jobir Ansor" dostonlari, shu jumladan, masnaviy, g'azal, murabba' va ruboiylar muallifi bo'lgan Davlatmamat Ozodiy turkman adabiyotida ilk bor milliy birlik g'oyasini ilgari surgan, adolatli davlat boshqaruvini millatning najot yo'li deb hisoblagan.

"Va'zi Ozod" dostoni Davlatmamat Ozodiy ijodining shoh asaridir. 1753-1754-yillarda masnaviyda yozilgan doston 4628 misradan iborat. Asarning turkman tilidan ozarbayjon tiliga tarjima varianti 2012-yilda chop etiladi. Doston to'rt bobdan iborat. Shoir asar yozilgan sana va uning nomi to'g'risida dostonning oxirgi to'rt misrasida quyidagicha keltiriladi:

*Ushbu nazm ichra agar so'rsang sana  
Ming yuz oltmish yetti erdi bilsana*

Bu kitob ismi nadir deya so'rsang ot, Qo'yдилar otin buning "Va'zi Ozod".

Bu yerda asar hijriy 1167-yilda yozilgan bo'lib, milodiy yilda esa 1753-1754-yillarda yozilganini aniqlash mumkin. Filologiya fanlari doktori Annaqurbon Ashurov asarning yozilishi to'g'risida qayd etishicha, Davlatmamat Ozodiy "Va'zi Ozod" dostoniga uzoq yillar sarflamay, uni



bir ikki yilda tamomlagan. Olim buning sababini shoirning ilmiy va badiiy tajribasining yuksakligiga bog'laydi.

Davlatmamat Ozodiyning ilmiy va didaktik qarashlarini aks ettiruvchi bu asarning ilmiy traktat yoki didaktik traktat deb nomlanishi tasodif emas. Chunki dostonida turkman hayoti, turkmanlarning davlat tuzish niyatlari, milliy birlik orzulari, olim, hukmdor, bek va darveshlarga munosabat kabi masalalar ilmiy, badiiy, diniy jihatdan baholanadi, mohiyat axloqiy-didaktik kontekstda ko'rsatiladi. "Va'zi Ozod" dostonidagi asosiy maqsad komil insonni shakllantirishdir. Shuning uchun ham shoir asar davomida hodisalarni Tangri-inson kontekstida jonlantiradi va fikrlarini shu uslubda ifodalaydi. Dostonning boshlang'ich qismida shoirning insonga murojaati oddiy targ'ibot emas. Bu yerda komillikka yetish, qalblarni Alloh nuri bilan to'ldirish, dargohiga yuzi yorug' borish, maqsadga yetishning shartlari sanab o'tiladi:

*Odam o'g'li, ol bulardan ibratni,  
Ayla paydo o'z-o'zingdan g'ayratni.*

*Zikrin ayg'il Tangrining sh omu sahar,  
Jumla zikrlar yuzga zahmat yog'ar.*

*Kesma umid rahmati Allohdan,  
Bo'lma g'ofil zikirilullohdan.*

*Ahli hush bo'l zikri haqsiz urma dam,  
Zor ayla, chek ishqinda dardu alam.*

*Yumshatib ko'nglingni hikmat-so'z ila,  
Dard ila haq fazlidan rahmat tila.*

*Yig'lagil shomu saharlar u ki bor,  
Yig'lasa gul, rahmatin bahri jo'shar.*

*...Qalbingni uchbu riyodan qil ori,  
Haq uchun qilg'il o'zingdan ishlari.*

*...Badgulukdan kimsani injitmayin,  
Nahyi munkar yo'llarig'a ketmayin.*

*Ham daxi qahru g'azab aylamayin,  
Ahli dillarg'a yomon so'ylamayin.*

***Joni dil ila Tangrig'a shukring yetir,  
Nahyindan qoch, barcha darmonin bitir.***

“Va’zi Ozod” dostonining birinchi bobi davlat va adolatli hukmdor masalalariga bag’ishlangan:

***Bobi avval podshohlar vasfina,  
Yori bersa vasf etar Robbi g’ani.***

Davlat, jamiyat va adolatli hukmdor masalalari Sharq adabiyotida yetakchi mavzu bo’lgan. Gurgoniy, Firdavsiy, Nizomiy, Sheroziy, Dehlaviy, Jomiy, Navoiy va boshqa yetuk arboblarning adolatli boshqaruv tarafdorlari bo’lish bilan birga, uning targ’iboti bilan shug’ullanib, asarlarida ideal jamiyat modellarini bu yoki boshqa shaklda ifodalaganlar.

Davlatmamat Ozodiyning “Va’zi Ozod” asarida adolatli hukmdor masalasi bir tomondan an’ananing davom etishi bo’lsa, ikkinchi tomondan shoir yashagan davrda qaltis siyosiy jarayonlar natijasida og’ir turmush o’tkazayotgan turkman xalqining farovonligini ta’minlovchi adolatli, oqil hukmdorga bo’lgan ehtiyoj tufayli edi. Ma’lumki, XVIII asrda turkman urug’lari nizolari, Nodirshoh davrida turkman-Eron munosabatlari yomonlashuvi Davlatmamat Ozodiy kabi xalq namoyandalarini bezovta qilgan bo’lib, ular xalq birligiga erishishni oldiga maqsad qilib qo’yg’an edilar. Davlatmamat Ozodiy dostonida oddiy hukmdor haqida so’z ochar ekan, o’z siyosiy qarashlarini va milliy manfaatlarini ham aytib o’tgan edi. Chunki uning nazarida millat odil rahbar bo’lsa, baxtiyor yashab, kelajakka umid bilan boqishlari mumkin. Bunday hukmdorlarni Allohning, payg’ambarning va xalqning suyuklisi bo’lishiga ishonchi komil bo’lgan:

***Hokim bo’lganlar jahonda adl o’la,  
Bezaya yer yuzini adli bila.  
Hokimi odil Xudo payg’ambari,  
Jonishinim deb, ulug’lab ularni,  
Podshoh kim, o’lsa gar adli uning,  
Yer yuzida soyasidir Tangrining.  
Adlidan o’lsa xaloyiq jumla shod,  
Dargohida topsa mazlumlar murod.  
Haq taoloning sevar bandasi bil,  
O’l Rasul ummatlarining xosi bil.***

Davlatmamat Ozodiy I bobning “Odil podshohlarning sifati bayoni”, “O’tgan zamonda hikoyati ikki shohning so’zlashuvi”, “Alloh taoloning shohni kechirishi bayoni”, “Bir podshohning darvesh huzuriga kelib

suhbatlashishi”, “Zolim podshohlarning azobi bayoni”, “Mahmud shohning aqldan istamasi bayoni” va b. boʻlimlarida fikrlarini rivoyat shaklida yetkazib beradi. Shoir bu uslub bilan mohiyatning toʻgʻri va oson oʻzlashtirilishiga yordam beradi, ushbu parchalarda hukmdorlar uchun vojib deb hisoblagan prinsiplarni saroy ichidagi jarayonlar bilan chegalamaydi, uni keng ijtimoiy doirada taqdim etadi. Masalan, shoir “Alloh taoloning shohni kechirishi bayoni”da hukmdorning ov payti tutgan ohuning faryodlariga chidolmay, uni ozod etishini shoir hukmdorning marhamati sifatida koʻrsatadi. Ozodiy bu detalda marhamatning saroy boshqaruvidagi tatbiqi masalasiga ahamiyat beradi, marhamatning insonlar uchun muhimligini koʻz oʻngimizda jonlantiradi. Yoki “Bir podshohning darvesh huzuriga kelib suhbatlashishi” hikoyasida darveshlar siyomosida ilm, irfon mujassam etgan shoir hukmdorning darvesh oldiga kelishini uning ilmgʻa sajdasi sifatida baholaydi:

*Ushbu soʻz dur ul paygʻambardan hadis,  
Tinglagil, jonin bila, boʻlma xabis.*

*Podshohlarning azizi boʻl ular,  
Ilm oyasiga ziyoratga kelar.*

*Ilm oyasidan yomonroq boʻl ular,  
Podshohlarga ziyorat keltirar.*

“Odillik fazilatining bayoni” hikoyasida bir podshoh Haj ziyoratiga ketishni xohlaydi. Lekin xalq hukmdor ziyoratga ketgan taqdirda qiyin ahvolga tushishini bildiradi va unga ketmaslikni maslahat berishadi. Hukmdor bunga koʻnsa ham, Haj ziyoratining savobini olish maqsadida 60 marta ziyoratga borgan valining huzuriga boradi. Lekin hukmdorning mol-davlati Haj ziyorati savobini olishga kifoya qilmaydi. Uning maʼyuslanganini koʻrgan darvesh hukmdorga odil boʻlishi lozimligini aytib, bir soatlik adolatli hukmdorlik ming Haj ziyoratidan ustun ekanligini bildiradi:

*Gar adolat aylasang bir soati,  
Ham savobing, bizga qilsang shafqati.*

*Bir soat adling savolin, ey xoja,  
Bermoq boʻlmas haq oldida ming Hajga.*

*Podshoh boʻlsang ulus uzra bu dam,  
Aylagil har yaxshi yoronga karam.*

*Olimu darveshlarga ikrom etgil,  
Ham tavozealar qilib, in'om etgil.*

*Gar bularning shuhratin etsa qabul,  
Sevar uni ul Xudo birla Rasul.*

Umuman olganda, Ozodiy asarda hukmdorlarga yuzlanib, ularni xalqning ko'nglini olishga, Alloh, payg'ambar so'zlariga tobe bo'lishga, hukm qilayotganda nafsiga g'olib bo'lishiga, johillikdan uzoq bo'lishga chorlaydi. U asarning "Zolim podshohlar azobining bayoni" nomli hikoyasida bu kabi sifatlardan mahrum bo'lgan hukmdorlarga xitob qiladi:

*Podshohlar gar adolat etmasa,  
Tangri, payg'ambar amrini tutmasa.*

*Podshohga ul ziyon aylar, ziyon,  
Har ikki olamda unga bo'lar yomon.*

*Podshohlar, qozilar johil bo'lsa,  
Hukm qilganda nafsiga moil bo'lsa.*

*Yuziga qora solib mahshar kuni  
Ko'r etarlar ularning ko'zlarini.*

*Ham daxi kesarlar ular tillarin,  
Bog'larlar orqasida ellarin.*

"Va'zi Ozod" asarining ikkinchi bob i xayrixohlik, beminnat yordam va b. prinsiplarni qamrab oladi.

*Ikkinchi bob kimsa hayrat etarlar,  
Yaxshi xayr niyat aylar ketarlar.  
Ularning vasfi holidan ayar bu,  
Kim ta'rifi jahon ichra yoyar bu.*

Bu bobning boshida berilgan maslahatlarda fazilatga chorlov asosiy o'rin egallaydi. Ibadat musulmon uchun vojib bo'lsa, "hayrat savobi"ga ega bo'lishning o'zi ham ibodatdir. Ozodiy yondashuvida bu masala ham diniy-irfoniy, ham dunyoviy mohiyatni o'zida jamlaydi. Chunki yuqorida aytib o'tilgan xislatli insonlar faqat sirot ko'prigidan oson o'tishmaydi, balki bu dunyoda Allohning suygan bandasi bo'ladilar.

Ikkinchi bobdagi "Suv berish fazilatining bayoni", "Hazrat Aliga beril-

gan savolning javobi bayoni”, “Yaxshi amallarning shaytonni shikast etishi bayoni”, “Bir qushning Hazrati Sulaymonga arzining bayoni” va b. hikoyalari qismida insonlarga Tangri soʻzlari bilan xitob qiladi:

***Tangri oʻzi bersa davlat birla pul,  
Odat et bermoqni, bergil oʻngu soʻl.***

***Yo oʻylama hech musulmonga yomon,  
Barcha moʻminlarga boʻlma badgumon.***

***Har tarafga oʻqlagil tiri niyoz,  
Barcha xalqqa qil oʻzing bandanavoz.***

Bu faslda xayrixohlik insonning oʻzi va atrofida qilgan uchun qanchalar kerakli ekanligiga guvoh boʻlamiz. Aslida Ozodiyning maqsadi bu haqiqatlardan insonlarni xabardor qilish, yoʻldan adashganlarni haq yoʻliga qaytarishdir. Bularning bari jamiyatda komil inson modelining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Chunki Ozodiyga koʻra, eng buyuk inson Alloh rozi boʻlgan insondir.

***Har kim ul miskin, faqir koʻnglin olar  
Ul kishidan Haq oʻzi rozi qolar.***

Asarning uchinchi bobi olimlarning jamiyatdagi oʻrniga bagʻishlangan. Shoir ilmdan ogoh boʻlganlarni olib deb hisoblab, bu shaxslarga jamiyatda hurmat koʻrsatilishi shart deydi. Ozodiy ilm ahli uchun toʻrt alomatni asos qilib oladi: parhez (Tangri xavfi), tavoze (takabburlikdan uzoq), zohidlik (koʻnglini mol-davlatdan asrash) va johidlik (jahd qiluvchi, haqiqatning yoʻlidan boruvchi). qayd etish lozimki, shoir xalqqa foyda bermaydigan olimi beamallarni kitob yuklangan eshakka oʻxshatadi:

***Ilmni kim koʻp bilsa, amal etmasa,  
Haq taolo buyrugʻin rost tutmasa.***

***Misli xardir unga yuklanmish kitob,  
Istasang budir sanga dedim javob.***

Ozodiy ahli ilm doimiy izlanishda boʻlishi lozim deb biladi. U agar olim oʻz ilmini doimo orttirmasa, uning harakati Allohga isyon bilan barobar deb hisoblaydi. Shuning uchun asarda beamal olimlarning mahshar kuni jahannam oʻtida yonishlari toʻgʻrisida ogohlantiradi.

Asarda asl olimlar haq yoʻlining yoʻlovchisi, amali toʻgʻri, Alloh dargo-

hida joyi bo'lgan inson sifatida taqdirlanadi. Ilmni bebaho gavhar, johil-likni darmoni bo'lmagan dard sifatida baholagan shoir so'fiy, shuningdek, o'rta asrlar ma'rifatchisi o'laroq Nizomiy Ganjaviydan tortib buyuk olimlarga o'z hurmatini bildiradi, ilmsiz jamiyatni do'zaxga o'xshatadi.

“Va’zi Ozod” asarining so’nggi – to’rtinchi bobi ham haq yo’lidagi darveshlar to’g’risidadir. Shoir, avvalo, darveshlarning kimligini ochib beradi. U darveshlarni “ko’ngli to’la”, “haq yo’lchisi”, “haq yo’lida nafsiga g’olib kelgan”, “Tangri berganiga qanoat qiluvchi” va b. sifatida tavsiflaydi. Quyidagi parchada ushbu fikrlarning guvohi bo’lishimiz mumkin:

*Ko’ngli uning balki baytulloh bo’la,  
Zikri-fikri, sanishi Alloh bo’la.*

*Ham ko’rar ko’zi uning Tangri bila  
Eshitar quloqlari Tangri bila.*

*Qo’llari uning xudo birla tutar  
Ham oyoqlari u ila sayr etar.*

*Tillarinda so’zlari haqdan kelar,  
Xayru shar na kim nafas qilsa bular.*

Ozodiy shariat va tariqat yo’lchilarini oxirat oshiq-lari deb ham hisoblaydi. Shoir bu yondashuvi bilan insonlarni dinga tashviq qiladi. Jamiyatning najotini Alloh ishqiga bog’liqlikda ko’radi:

*Oxirating qil nikohin ixtiyor,  
Har ikki olamda bo’lasan baxtiyor.*

*Ko’nglingni bor oxiratga bog’lagil  
Orizi qil ham dam uni yig’lagil.*

Faqir istlohi asarda shartli ma’noda keladi. To’g’ri, dostonning 2189-baytidagi ijtimoiy-siyosiy ma’noni inkor qilib bo’lmaydi:

*Gar faqirlar bo’lmasaydi dunyoda,  
Bas, halok bo’lardi boylar, ey dada.*

Lekin asarda payg’ambarga berilgan “xo’sh, faqirlik nima?” savoliga payg’ambarning “bir xazinadir, Allohning xazinalaridan” (2095–2096-baytlar) javobida tasavvuf maqomi ochiq-oydin ko’rinadi. Shubhasiz, bu yerda irfoniy va dunyoviy tenglikni ko’rish mumkin. Masalan:

*Bir faqirga bir kishi yetmish qadam,  
Otsa ul qilsa ziyorat bilgum.*

*Hajji maqbulin savobin der zamon,  
Yozar Alloh ularga, tutma gumon.*

*Ularga har kim tavoze aylasa,  
Lutf etib yo bir shirin so'z so'ylasa.*

*Haq berar ularga ulug' martaba  
Keltirar ularni oliy mansabga.*

Yoki:

*Bas faqirlik faxridir sarvatlarning,  
Jahd ila haq istagan rahbarlarning.*

*Bil haqiqat faqiri jon ichra jon,  
Qudsi pok bil, unga bo'lma badgumon.*

*Avliyo bil, tutgil ularning amrini,  
Joni dil ta'limi din bo'lsin kuni.*

Davlatmamat Ozodiyning “Besh namoz”, “Behishtnoma” va “Jobir Anzor” dostonlarining asosini diniy qadriyatlar tashkil etadi. Bu asarlar ichida hajm jihatdan eng kattasi “Behishtnoma”dir. 1756–1757-yillarda yozilgan “Behishtnoma” 984 misradan iborat. Shoir “Va’zi Ozod” asaridagidek bu dostonning yakunida “Behishtnoma”ning yozilish sanasini qayd etadi:

*Bahamdulla tamom bo'ldi bu takrur  
Ki ming yiz yetmish bo'lmish erdi tahrur.  
“Behishtnoma” qo'yildi ish buna ot,  
Tuzatmish nazm uni miskin Ozod.*

“Bismillahir rohmaniyr rohiym” bilan boshlangan dostonda Allohga hamd-sanolar aytiladi. Bu qismda koinotdagi barcha borliqlar Allohning mo'jizasi ekanligi ta'kidlanadi. Asar bitta syujet atrofida tashkil topmagan. Lekin jannat, namoz, vojib amallar, poklik va h. to'g'risidagi fikrlar matnlarda o'z aksini topadi. Bu fikrlarga Payg'ambar, Jabroil, farishtarlar, shu jumladan, shoirning o'z yondashuvlarida izoh beriladi. Ularning tilidan me'roj safari, namozning savobi, jannat qatlamlari to'g'risidagi izohlar o'quvchining diniy tasavvurini kengaytirishga xizmat qilish bilan birga, Alloh nuri bilan qalblarni to'ldirishga, islom axloqining mus-



tahkamlashga yordam beradi. Masalan, namoz to'g'risidagi namunalarga nazar solaylik:

*Tamom ishlar boshi bilgil namozni,  
Namoz ochay sakkiz jannatda yozni.  
Namozsiz qullarga ul kun zimiston,  
Ishi dushvor, ochilmas bandi zindon.  
Xudovando, musulmon ayla bizni,  
Muvahhut ahli iymon ayla bizni.  
Yomon yo'lda, yomon yo'ldoshdan, ey Haq,  
Senga topshirdim ishimni mutlaq.  
Chekar men har zamon dard ila ohi,  
Bu ohim qilma behuda, Ilohi.  
Xabar ichra Rasuldan dur sochildi,  
Uyg'ondi jon, ko'ngildan zan ochildi.*

“Behishtnoma” asarining ahamiyati shundaki, jannatning inson tasavvurida bo'lgan afsonaviy modeli o'zgarib, real model paydo bo'ladi. Inson haq yo'lini idrok etadi va amallarida uni tasdiqlashga urinadi. Asarning so'nggi qismidagi –

*Behisht vasfi tamom bo'ldi bu yerda,  
Salom mendan yetishsin ahli dardga.*

misralarida shoir oldiga qo'ygan maqsadga erishganiga ishora qiluvchi mamnunlik alomatlarini ham ko'rish mumkin.

Davlatmamat Ozodiy asar tili haqida so'z ochar ekan, u asarni arab yoki fors tilida emas, turk tilida yozgani bilan faxrlanishini bildiradi:

*Arab, fors tiliga hech xushim yo'q,  
Arablar, forslar bilan ishim yo'q.*

*Bu turki yorlarga nazm tuzatdim,  
Tabiat birla norlar deyib, ko'z etdim.*

*Manga ayb etmangiz, ey turki yoron,  
Chiqar o't kamtari kam tushsa boron.*

*Bu aqlim erdiyin nazm etdim ushda,  
Parishondir ko'nglin yuz ming ishda.*

“Besh namoz” masnaviyisi Davlatmamat Ozodiy ijodida muhim rol o'ynovchi diniy mavzuga bag'ishlangan. Ma'lumki, diniy ta'limotlarda

insonning Alloh oldidagi shukronasi avvalida ibodat turadi. Bu jihatni ilgari surgan shoir Alloh amri bilan musulmonlarga buyurilgan namozning vojibligini taqdim etadi:

*Besh namozin ul jahon ichra seni  
Maqsadiga yetkazgan, qo'yma uni.*

*Besh namoz har din uyining nuridir,  
Besh namoz uchmoq ichining huyridir.*

*Besh namozning ziynati dunyoyi din,  
Besh namoz o'qi, din uyin saqla amin.*

Ozodiy namoz ibodatining savobidan so'z ochishi bilan, bu amalni bajaragan bandaning gunohlarini ham e'tiborga yetkazadi. Shoir namoz o'qimagani insonni iblis bilan hamroh deb hisoblaydi:

*Besh namozni ne uchun xor aylading,  
O'zingni iblis ila yor aylading.  
Gar namozning vaqti kirsas, ey jovon,  
Tog'idor lashkarini iblis hamon.  
Lashkari iblis bu xalq ichra kelar,  
Har birin bir ish bila mashg'ul qilar.*

Bu asarda barcha diniy fikrlar namozga bog'lanadi. Namoz o'qish insonning ziynati, Alloh nuri bilan qalbini to'ldirish deb hisoblaydigan shoir bu amaldan uzoq bo'lganlarning gunohlarini boshqa shaklda ifodalaydi. Kim besh namozning birini o'qimasa, o'zini pichoqsiz so'yadi, ikkisini o'qimasa, payg'ambarlar "borini o'ldiradi", uchini o'qimasa, Ka'bani vayron qiladi, to'rtini o'qimasa "onasiga zino qiladi", beshidan ham yuz o'girsas, Alloh g'azabiga duchor bo'ladi va Allohning "jahondan chiq" hukmiga uchraydi. "va'zi Ozod" va "Behishtnoma" dostonlaridan farqli o'laroq "Besh namoz" asarida nomi ham, yozilgan sanasi ham ko'rsatilmagan. Asar namoz to'g'risidagi fikrlarning targ'ibiga bag'ishlangani uchun tadqiqotchilar tomonidan "Besh namoz" deb nomlangan.

Davlatmamat Ozodiyning "Hikoyat" deb nomlagan asari ham diniy mavzudadir. 918 misradan iborat ushbu asarda mazmun hikoyalarga mos ravishda taqdim etiladi. Bu yerda turli mavzudagi hikoyalarga joy berilsa ham, mazmun yagona g'oyaga xizmat qiladi: Alloh qudrat egasidir, hamma narsa uning irodasiga bog'liq, insonning abadiy olam najoti Alloh

irodasiga tobe bo'lishidadir. Asarning "Yetti qavat osmonning bayoni", "Jonlar manzili bayoni", "Ilm fazilati bayoni", "Qabr azobi bayoni", "Avliyolar karomati bayoni", "Payg'ambar ota-onasining bayoni", "Shaytonning dushmanligi bayoni" va b. bo'limlarda shoir ko'p masalalarga Islom ideologiyasi doirasida munosabat bildirib, insonlarning diniy ma'lumoti boyishida xizmat ko'rsatgan.

Davlatmamat Ozodiy g'azal, murabba, ruboiy va b. muallifi sifatida adabiyot tarixida o'ziga xos o'rin egallagan. Uning ruboiylari lirik-falsafiy xususiyatlariga ko'ra klassik talablarga javob bersa ham, davridan shikoyat motiviga ko'ra farqlanadi. Agar U.Xayyom va Mahshatiy ruboiylarida falakdan shikoyat motivi diqqat markazida bo'lsa, Ozodiy ruboiylarida ba'zi istisnolardan tashqari bu hol kuzatilmaydi. Uning ruboiylarida insonparvarlik tuyg'ulari, diniy g'oyalar asosiy o'rinni egallaydi:

*Tavbayi tavfiqi tamkin aylagil,  
Raxshi ishqin ularga zin aylagil,  
Tillarinda garchi taqlid etsalar  
Qalblarin fazlin bila chin aylagil.*

*G'aflat ila zikr etganlar ko'nglin och,  
Dardlidirlar, sen hakimsan qil iloj.  
Qullari tutmish umid sendan yona,  
Rahm etib, kel, rahmating dargohin och.*

*Bu Ozodiy bir qulingdir xaru xos,  
Foniy ichra umrin o'turdi abas.  
Lutf aylagil, uzatmish umid qo'lin  
Har ikki olam sen manga faryodras.*

Bir qator ruboiylarda Ozodiy Tangriga yuzlanib, gunohkor bandalarni kechirishini so'raydi:

*Aylamish qullar hamma chirki gunoh,  
Afv obin to'k ularga, yo iloh,  
Ker yomondir, ketmoqqa yo'q yerlari  
Sendan o'zga kimdir ularga panoh.*

*Jumla mo'minlar panohisan, Xudo,  
Afv ayla jurmu gunohi sen, Xudo.  
Zari hayron arasang qullaringga  
Endi ko'rgaz to'g'ri rohi, sen Xudo.*

Ozodiyning g'azallari juda oz bo'lib, u g'azallarida ilohiy ishqni tarannum etadi, oshiq-ma'shuq modelida tasavvuf uslubini orttiradi. Shoir

"Iqbol birla", "Dod, ey", "To'zar" va b. g'azallarida oshiqlarni ishq o'tida yondirish bilan ularni "o'z dunyolarining" muqimlariga aylantiradi va maqsadiga etgan oshiqlarni dunyoning eng baxtli odamlari deb hisoblaydi.

Kim yonsa ishq o'tiga, dunyodan elin uzar  
Haqdan kelgan baloga sabr ahliyoli to'zar.

*Ishq o'ti bir o't bo'lub, bo'lmas tutun ul o'tda,  
Ma'shuqining soyasi har tushgan shoyi, guzor.  
Oshiqlarning ma'shuqi jilvanamo aylayir,  
Oshiq ko'rsa ma'shuqin borindan bo'lar bezor.*

Boshqa g'azalida esa o'z ishq yo'lida oh-nola chekuvchi oshiq obrazini yaratadi:

*G'am tumani bosdi ko'nglimni, ochilmas dod, ey,  
Barq urub boroni rahmatlar sochilmas, dod, ey.*

*Boda-boda Haq sharobin, silk uzra qo'ymish,  
Yo'q xaridori uning bir kayf ochilmas, dod, ey.*

*Rahmati Haq tida-tida har qarich yerda nihon,  
Ustuna to'g'ri kelgan yo'qdir, ichilmas, dod, ey!*

Ozodiy "Yo Rab, yetish faryodimga" she'rida<sup>14</sup> o'z g'oyasiga sodiq qolgan holda diniy qadriyatlarga joy ajratib, fikrlarini ham bu aspektida o'quvchiga yetkazadi. Masalan:

*Harchandu badkor bo'lmisham,  
Oshufta afkor bo'lmisham.  
Ahvingdan umid qilmisham,  
Yo Rab, yetish faryodimga.*

*Men bilmadim bahbidimni,  
Lek uzmadim umidimni.  
Ko'rsat manga maqsudumni,  
Yo Rab, yetish faryodimga.*

Klassik turkman adabiyotida o'ziga xos o'rni bo'lgan Davlatmamat Ozodiy ijodi turk-islom madaniyati rivojida muhim rol o'ynab, o'zidan keyingi adabiy nasllarning san'atiga ta'sir ko'rsatgan.

<sup>14</sup> Shoirning turkman tilida chop etilgan kitobida (Davlatmamat Ozodiy. Asarlari, Ulug'dag' Universiteti nashriyoti, Bursa, 2012, 379 b.) bu she'r murabba' sifatida taqdim etiladi. Lekin ko'rinib turganidek, she'rning vazni, hijolari va qofiya tizimi gerayli janriga mos.

## MAXTUMQULI FIROG'İY

Maxtumquli Firog'iy XVIII asr ma'rifiy she'riyatining buyuk darg'alaridan bo'lib, butun turkiy xalqlar uchun tushunarli va sevimli shoir, ma'rifatli siymo, orif oshiq, sohibi hikmat sifatida shuhrat qozongan. U shoir Ozodiy Davlatmamat oilasida 1733-yilda tug'ilib, boshlang'ich savodni ovul maktabida oladi. Maxtumquli shoirning ismi bo'lib, Firog'iy uning taxallusidir. U Atrek daryosiga yaqin Hojigovshon degan joyda tug'ilib o'sgan.

Maxtumqulining bolaligi go'zal tabiatga ega Gurgonda o'tgan. Maxtumquli Firog'iy Gurgonning go'zal tabiatini shunday tasvirlaydi:



MAXTUMQULI  
FIROG'İY  
(1730 (31) – 1780)

*O'ngi baland tog'dir, tumandir poyi,  
Dengizdan esadi yeli Gurgonning.  
Bulut o'ynab, yomg'irga to'lsa soyi,  
Oqar bo'z bulani seli Gurgonning.*

Otasi Davlatmamat Ozodiy o'z davrining taniqli shoirlaridan bo'lib, uning she'riy kitobi hamda "Va'zi Ozod" nomli asari mavjud. Ozodiy ijodi, ayniqsa, "Va'zi Ozod" kitobi, chamasi, to'liq islomiy ruhda bo'lgani bois sho'ro davrida yetarli o'rganilmagan. Maxtumquli boshlang'ich ta'limni oilada o'z otasidan olgan. So'ng esa qishloq maktabida Niyozsolih mulla qo'lida o'qigan. Dastlab Qiziloyoq qishlog'idagi Idrisbobo madrasasida, keyinchalik Buxoroning Ko'kaldosh, Xivaning Sherg'oziy madrasalarida tahsil olgan:

*Makon aylab, uch yil yedim tuzingni,  
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal "Sherg'ozil!"  
O'tkazdim qishingni, navro'z, yozingni,  
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal "Sherg'ozil!"*

*Haqdan bizga buyruq, farz erur bilim,  
Senda ta'lim oldim, ochildi dilim,  
Kelsin deya kutar ul Karkaz elim,  
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal "Sherg'ozil!"*

Maxtumqulining hayoti mashaqqatli yo'llardan o'tgan. Uning Mengli ismli qizga ko'ngil qo'yishiga qaramay, qizning otasi Maxtumquli kambag'al bo'lgani uchun qizini boshqa yigitga turmushga beradi:

*Ayrildim g'uncha-gulimdan,  
Qora sochli sunbulimdan,  
Xushovozli bulbulimdan.  
Shirin guftordan ayrildim.*

*Ellari bor ko'k uvotli,  
Salqin suvlik, yashil o'tli.  
Yurti go'klang, Mengli otli  
Nozli dildordan ayrildim.*

Shundan so'ng Firog'iy beva ayolga uylanadi va bu ayoldan ikki farzand ko'radi. Lekin shoirning ikki farzandi ham bolaligida vafot etadi. Shoir o'g'illarining o'limidan ta'sirlanib, "baxtini qora", "jigarini pora-pora", "yuragini yara" etgan bu dardning og'irligini she'rlaridan birida ifodalaydi:

So'rog'ingda ko'zim giryon, Eturman nolayi afg'on, O'g'il dardi men har on Sargardon, ovora etdi.

Maxtumquli turkman qabilalarining birdamligi yo'lida kurash olib borgan shoir bo'lib, shu maqsadda muzokara uchun bir qator mamlakatlarga sayohat qiladi. Uning Hindistonga borish uchun otasidan ruxsat so'rashi, afg'on hukmdori Ahmadshoh bilan uchrashish orzusi, turkmanlarning taniqli siyosiy arbobi Chavdarxon bilan muzokara olib borishi bevosita turkman xalqining yot ellarning tajovuzidan himoya qilish va xalqning jipsligini ta'minlash yo'lida tashlagan qadami edi. Maxtumquli Nodirshohga (1746) va Xivada Nuralixonga (1767) qarshi turkmanlarning isyonida ishtirok etadi. Maxtumqulining aka-ukalari ham turkman xalqining farovonligi uchun kurashib, jonlarini fido qilishgan. Aka-ukalarning bevaqt o'limi shoirning "Abdulla" she'rida o'z aksini topadi:

*Toqqa arzim aytib, so'rdim xabaring,  
Lol bo'libdur tili, demas ozoring,  
Ota-onasiz nedir sening qaroring!  
Qayda vatan tutding, qardosh Abdulla!*

Maxtumqulining forslarga qarshi kurashishi va asir tushishi to'g'risida bir qator manbalarda ma'lumotlar mavjud. Taqdir taqozosi bilan Maxtumquli bir muddat o'z vatanidan yiroqda yashashga majbur bo'ladi.

Maxtumquli 1780-yilda vafot etadi. U Shimoliy Xurosonning Oq To'qay hududida joylashgan qabristonda otasi Davlatmamat Ozodiyning qabri yoniga dafn qilingan.

## IJODI

Mumtoz she'r an'analari zaminida rivojlangan XVIII asr turkman adabiyoti (Ozodiy va Andalib siymosida) Maxtumquli ijodi bilan yangi tarixiy taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ydi. Maxtumquli XVIII asr klassik turkman adabiyotida realist she'riyatning asoschisi hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning san'atini tasvir uslubi va til-uslubiy xususiyatlariga ko'ra M.P.Voqif va A.S.Pushkin ijodi bilan qiyoslaydi.

Maxtumquli ijodidagi asarlar asosan turkman xalqi hayoti haqida bo'lib, unda xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, maishati va b. o'z aksini topgan. Maxtumquli ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ishqiy, didaktik, memuar va b. she'rlarida turkman xalqining tarixi bilan tanishish, bu xalqning ma'naviy-axloqiy, ruhiy tafakkuri saviyasini ko'rish mumkin.

Shoirning hayoti XVIII asr turkman ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning eng qaltis va achinarli davriga to'g'ri keladi. Qabila va feodallarning nizolari, o'lkalar o'rtasidagi urushlarning turkman xalqiga zarbasi Maxtumqulini bezovta qilar, uning e'tiroziga sabab bo'lgandi. Shoirning she'rlarida o'z davrining jirkanchliklari asosiy mavzu bo'lgan:

*Ketgan kelmas yo'lindan,  
Yomon qaytmas fe'lindan,  
Diyonat xalq qo'lindan  
Uchdi, deya yig'larman.*

*Hozir bizning zamonda –  
Yomon so'zlar zabonda,  
Zulm ishlari jahonda  
Jo'shdi, deya yig'larman!..*

Hamisha el-yurt dardu armoni bilan yashagan Maxtumqulining yoniq she'riyatida shafqat va zulm, yaxshilik va yomonlik, mardlik va nomardlik, jo'mardlik va tubanlik kabi xususlar bir-biriga qarama-qarshi holda tavsiflanadi, yaxshi xislatlar ulug'lanib, yomon xislatlar qoralanadi:

*Dardim ko'pdir diyorimdan, davrimdan,  
Xayr qaysi, ehson qaysi – bilinmas.  
Zolimlarning jafosindan, jabrindan  
Islom qaysi, iymon qaysi – bilinmas.*

*Maxtumquli, jon mehmondir, gavda – losh,  
Yaxshiga do'st ko'p, yomonga yo'q qardosh,  
Bu ayyomda bosh oyog'dir, oyoq – bosh,  
Yaxshi qaysi, yomon qaysi – bilinmas.*



Maxtumquli o'z davrida bosqinchilar zulmi ostida qolgan xalqni birlashtirishga, yurtni tashqi va ichki dushmanlardan ozod etishga o'z iste'dodi bilan harakat qildi. Shoir asarlarining yetakchi g'oyasi – bu turkman yerlari ustiga yopirilib turadigan chet el bosqinlariga barham berish, tarqoq yashayotgan, o'zaro nifoq va ziddiyatlardan zada bo'lgan qabila hamda urug'larni birlashtirish bilan osoyishtalik va ittifoqqa asoslangan qudratli bir davlatni barpo etishdek milliy vatanparvarlik his-tuyg'udan iborat. Ana shu millat manfaatlarini yo'lida qayg'urish, ma'rifatparvarlik yo'li bilan bu g'oyani samarali kuchga aylantirish shoir ijodining asosiga aylandi. Bu yo'ldagi izlanish she'riyat kuchi bilan yuksak ufqlarga talpinish Maxtumqulini o'z davrining ko'zga ko'ringan taraqqiyparvar siyмосi darajasiga ko'tardi. Shoir yozadi:

***Ustimizdan dushman hukm suribdur,  
Mo'min bari jabru jafu ko'ribdur,  
O'g'il-qizni xor o'rniga beribdur,  
Xatarlar ul joydan surilsin endi!..***

Urushlar, feodal nizolari natijasida Maxtumquli vatandan ajralib, g'urbatda ayanchli kunlarni boshidan o'tkazadi. Shoir jahannamga teng bo'lgan musofirlikda “nomardga, zolimga muhtoj bo'lmaslik”, “asliga yetish” yo'lida kuch-quvvat berishi uchun Allohga iltijo qiladi:

***Karam ayla, yo Rab, qudratli Subhon,  
G'arib, g'amgin kechgan holimga mening.  
Aqlim hayrondadir, etibman pushmon,  
Bilmaslikda kechgan solimga mening.***

Maxtumquli “Jayhun bilan bahri Xazar” o'rtasida yashovchi, o'z tarixi va madaniyatini yaratgan turkmanlarning bugungi turmush tarzi, ke-lajakdagi orzularini o'zida aks ettiruvchi bir qator she'rlarida shoirning romantik tuyg'ulari e'tiborni tortadi. Shoir turkmanlarning birdamligi, birodarligi, xush iqboli, qahramonligi, yurtining go'zal manzaralari va h. to'g'risida to'liq inlanib yozadi. Aslida shu orqali shoir o'z orzu-umidlarini ifodalaydi:

***Ko'ngillar, yuraklar bir bo'lib boshlar,  
To'plansa eriydi tuproqlar, toshlar,  
Bir suprada tayyor qilinsa oshlar,  
Baland bo'lar baxt-iqboli turkmanning.***

*Zavqi to'lib chiqar, jigar dog'lanmas,  
Toshlarni sindirar, yo'li bog'lanmas,  
Ko'zi g'ayrga tushmas, ko'ngli to'xtamas,  
Maxtumquli - so'zlar tili turkmanning.*

Maxtumquli lirikasida tarjimayi hol xarakterli namunalar ko'p uchraydi. Bu namunalar hayotining umumiy tavsifini aks ettiradi. Biz Maxtumqulining otasi, aka-ukalari, farzandlari mahbubasi, g'urbatdagi hayoti va b. to'g'risida ana shu she'rlar orqali ma'lumot olamiz. Masalan, shoirning otasi Ozodiy 1760-yilda 65 yoshida vafot etgan. Maxtumqulining "Otamning" she'rida ana shu ma'lumot o'z aksini topadi:

*Oltmish yoshda, navro'z kuni, luv yili,  
Turdi ajal, yo'lin to'sdi otamning.  
Bu dunyoning ishi shundaymish, balli,  
Umrining tanobin kesdi otamning*

Yoki "Muftalo qildi" she'rida Maxtumquli farzand dog'ini shunday ifodalaydi:

*Ayo do'stlar, falak jabri  
Boshimni muftalo qildi.  
Ayirdi sevgan bolamdan  
Yuragimni yaro qildi.*

Quyidagi band ham uning hayotiga tegishli bo'lib, shoirning vatan hijroni, g'urbat dardi, do'st sog'inchi namoyon bo'ladi:

*Tongu to'shim har bir korga buloshdi,  
Do'stlar yiroq tushdi, hijron talashdi,  
Ixlosim, murodim g'amga ulashdi.  
Rahm etgan bo'lmadi, baxtim qoradir.*

Muhabbat mavzusi Maxtumquli ijodida o'ziga xos o'rin egallaydi. Avalo, shoirning she'rlarida muhabbat real, hayotiy va haqiqiy tuyg'ular ifodasiga aylanadi:

*Oy kabi jamoling ko'rdim,  
Nur sochilur, yor, yuzingdan.  
Bir majnunman, dalli bo'ldim  
Sening ul xush ovozingdan.*

Maxtumquli lirikasida Quyosh va Oyga o'xshaydigan va ularga qi-

yoslangan go'zal o'z zohiriy ko'rkami bilan insonlarni maftun etib, es-hushidan ayiradi:

*Ko'kdan quyosh kabi yerga nur sochgan,  
Quyosh ila bahs etgan Oy sensan, go'zal.  
Usta Jabbor naqshi, Sanjob ko'ylagi,  
Isfahondan kelgan poy sensan, go'zal.*

*Sochingga taqibsan kumush soch bog'in,  
Yel essa sochilur, o'rtur buxog'in.  
Og'zing obi hayot, Zamzam bulog'i  
Oynadek aks etgan soy sensan, go'zal.*

Maxtumquli taqdim etgan go'zal hammani o'ziga asir qilsa ham, o'zi zamona "asiridir". Shoir qahramoni bu bilan obro'sini yo'qotmaydi, aksincha qo'l yetmas darajadagi yuksak maqomga yetadi. "Qo'l yetmas, ovoz bormas" bu maqomda shoir uning "holidan" xabar oluvchi yagona insondir. Shuning uchun ham shoir bu "qobiliyati"dan rohatlanganini yashirmaydi, shu bilan birga ishq "iztiroblaridan" yaralgan qayg'uni ham o'quvchilar bilan bo'lishadi:

*Sensan oroyishi jon, bu jon Sendan bexabar,  
Sen jahonga to'lug'sen, jahon Sendan bexabar.*

*Istar Seni dengizlar, to'lqinlanib shavqingdan,  
Sen ular ichra ma'lum, ummon Sendan bexabar.*

*Zamin tilar osmonda, osmon tilar zaminda,  
Bir-biriga gumonda, gumon Sendan bexabar.*

*Maxtumquli, ko'r endi, ashyolar ne ishdadir,  
Yo'q emish bu ashyoda, hamon Sendan bexabar.*

Maxtumquli xalq she'riyati uslubida yozishiga qaramay, ba'zi holatlarda g'azalga murojaat qilib, janr imkoniyatlari doirasida poetik fikrning eng go'zal namunalarini yarata olgan:

*Bir dilbara duch keldim – g'amzasi o'q, qoshi yoy,  
Quyosh hayron ko'rkidan, xijolatda to'lin oy.*

*Joning bersang, joizdir, bo'yla sifat mahbuba,  
Hech ko'rmadim aningdek oqqush bo'yin, to'g'ri bo'y.*

*G'ulg'ula tushdi qobuz, ham tushdi changgi changga,  
Chang nolasidan nigor, ne holatga tushdi nay?*

*Ne ishratdir oshiqqa jannat ichra jamoli,  
Ayriliqning otashi tamug' ichra voyu, voy.*

Oshiq-ma'shuq munosabatlarida shikoyat motivi klassik an'anaga mos ravishda Maxtumquli lirikasida ham namoyon bo'ladi. Shoirning qahramoni "baxt otini suvda cho'ktirsa ham" "unga qo'l cho'zmagani uchun" g'ussaga botadi va mahbusining bevafofigidan chekkan azoblarini quyidagicha ifodalaydi:

*Ko'ngil berdim bir bevafo mahbusga,  
Tashlab ketdi, dog'i jonga dard bo'ldi.  
Dedim: "Qaramayman endi ul xo'bga"  
Lekin yo'lda ko'zim tushib to'rt bo'ldi.*

Maxtumquli vatanparvar shoir bo'lib, u vatanga, uning tog'i, tepaligi, suvi, tuprog'i, umuman, yurtining har qarichiga bo'lgan mehr-muhabbatini ijodida o'z aksini topadi. Uning poeziyasida tasvirlangan tabiat manzaralari eng mohir suratkash tomonidan chizilgan suratni eslatadi. Shoir bir tomondan tabiat manzarasini yaratasa, ikkinchi tomondan ta'sirli ifodalar bilan vatanga muhabbatning targ'ibotchisi rolini o'ynaydi. Buning natijasida "bulutga yopishgan qoyalarni", ohular kezuvchi cho'llarning go'zalligi o'quvchining ko'z oldida gavdalanadi:

*To'qaylari bordur sarvu qamishli,  
Go'zallari bordir oltin, kumushli,  
Qo'y-qo'zi, yilqili, qora govmishli –  
Yaylovga to'ladir moli Gurgonning.*

*Yigitlar tirmashar tog'ning beliga,  
Yo'rg'a minib, lochin olar qo'liga,  
Oq chorloq to'sh urar dengiz yeliga,  
Ohular maskani cho'li Gurgonning.*

Klassik turkman poeziyasida falsafiy she'r Maxtumquli tufayli yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yadi. Jamiyat hodisalari, inson, hayot, o'lim va b. masalalar to'g'risida shoir o'y-fikrining poetik shaklga solishi Maxtumquli falsafasining asosini tashkil qiladi. Shoirning so'fiy va dunyoviy mohiyat kasb etgan she'rlarida falsafiy ifoda uslubi ustun turadi. Shuning uchun ham Maxtumquli she'rlarida aynan axloqiy-didaktik va falsafiy she'riyat standartini qo'llash katta ahamiyatga ega emas. Chunki

har qanday holatda masalalar inson va jamiyat muammolari ichida shoir tasavvurining badiiy ifodasiga o'z ma'nosiga erishadi:

*Odam o'g'li quruq tuproq,  
Tan ichra joni bo'lmasa.  
Qora tog'dan qimmat qochar,  
Seli, tumani bo'lmasa.*

Maxtumquli ijodida didaktika o'zidan avvalgi nasl – Bayramxon, Ozodiy, G'arib Andalibning adabiy an'analari izidan boradi. Lekin Maxtumquli o'ziga xos shaklda bu uslubning rivojiga erisha olgan. Shoir didaktikadan insonlarga murojaat sifatida foydalanadi. Ularni to'g'rilikka, vatanga muhabbatga, kattalarga hurmatga, tahsilga beparvo bo'lmaslikka chorlaydi.

*Nodon so'z o'qini havoga otar,  
g'iybat qilib, o'zi gunohga botar.  
Yomonning ziyoni xalqiga yetar,  
Nokasning foydasi o'ziga tegmas.*

*Bu dunyoda bo'lgan chirkin  
Har bir yerga yetar erkin.  
Uyda osib, kesar har kim,  
Yigit jangda tanilar.*

Ayni paytda yaxshini yomondan ajratish, nomardga bel bog'lamaslik va boshqa masalalar to'g'risidagi didaktik so'zlar bo'yoqdor badiiy ifodalar bilan diqqatni jalb etadi:

*Badasilga jaf o chekmoq abasdir,  
Mis ne qadar urilsa ham zar bo'lmas.  
Ne qadar urinsang, tortsang asliga,  
Har qarg'adan go'zal kabutar bo'lmas.*

*Bo'lmas muftaxo'rning imoni, dini,  
Tor kunda tobi yo'q, tark etar seni.  
Kamfursatning, muxannatning o'n mingi,  
Iz solgan yigitning iziga yetmas.*

Maxtumquli o'zigacha adabiy an'analardan bahra olib, xalq og'zaki ijodi asosida shakllangan, yangi g'oya va mazmun kasb etuvchi original ijodi bilan turkman adabiy-badiiy fikrining rivojiga erishgan va uning betakrorligini ta'minlagan.



# QOZOO ADABIYOTI







Turkiy xalqlarning ko'p asrlik ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy, adabiy-badiiy taraqqiyot tarixida har bir turkiy urug'larning o'ziga xos xizmatlari katta bo'lgan. Bu qatorda qozoqlarning ham o'z o'rnini bor. Qozoqlar qadimiy turk tafakkuri, xarakterini o'zida mujassam etgan xalqdir. Boshqa turkiy xalqlar kabi qozoqlar ham vorislik an'alaridan ilhomlanib, umumturkiy estetik tafakkuri taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shganlar. Qozoq adabiyoti bilan umumturkiy adabiyot o'rtasida muayyan genetik-funksional aloqa doimo kuzatilib, 70 yillik bolshevizm g'oyalari ta'sirida ham o'z an'alarini asrab-avaylay olgan.

Qozoq xalqi boy madaniy merosga ega bo'lib, ayniqsa uning xalq og'zaki ijodi juda rivojlangan. Tarixda asosan chorvachilik bilan shug'ullangan qozoqlarda yozma adabiyot nisbatan keyingi asrlarda paydo bo'ldi. Bu adabiyotning paydo bo'lishida, shakllanishida qozoq xalqi folklorining roli katta bo'ldi. Qozoq folkloridagi qo'shiqlar shakl va mazmuniga ko'ra turli-tuman bo'lib, motam va to'y qo'shiqlari ko'p uchraydi. "Yor-yor", "Qiz tanis", "Bet ochar", "Ayt kelin", "Ko'ngil aytu", "Joktay", "Qo'shtasu" va b. qo'shiqlarda inson va jamiyat, oilada kattalarning o'rnini, er-xotin munosabatlari, marhumlar bilan vidolashuv va b. masalalar namoyon bo'ladi. Qozoq oqinlari kuylagan o'lanlar, dostonlar mavzusi rang-barang bo'lib, ularda xalqning tarixi, turmushi badiiy o'z aksini topgan. Qo'blandi botir, Erjarg'in va Qambar botir kabi xalq qahramonlarining sarguzashtlarini kuylovchi asarlar, tadbirkor va dono Aldarko'sa haqidagi latifalar, turli marosim qo'shiqlari, ertaklar qozoq folklorining asosini tashkil etadi.

Qo'blandi botir haqidagi dostonlarning ko'plab variantlari mavjud. Bu epos qozoq xalqining bebaho madaniy merosi hisoblanadi. Bu eposning variantlari Qrim-tatar va qoraqalpoq kabi turkiy xalqlar og'zaki ijodida ham uchraydi.

Bu eposda Qo'blandi botirning o'z yurtini chet ellik bosqinchilardan himoya qilishdagi jasoratlari kuylanadi. Qiz jibek", "Qo'zi ko'rpeshe va Bayan suluv" hamda "Suluv shash" singari ishqiy-lirik dostonlar ham juda ko'p. Bu dostonlarda pok insoniy muhabbat tarannum qilinib, feodalizm jamiyatining yaramas tomonlari ochib tashlanadi, eski urf-odatlar ayovsiz fosh qilinadi. Qayd etishimiz lozimki, qirg'iz, tatar, o'zbek, qoraqalpoqlarda ham bu dostonlarning variantlarini uchratish mumkin.

XVIII asrlarda og'izdan-og'izga o'tib yurgan dostonlarni kuylovchi xalq oqinlari, jirovlari yetishib chiqdi. Buxor jirov, Nisanboy, Dusxuja, Maxambet Utemisov, Xoliboy Mamabetovlarni ko'rsatish mumkin. O'zining ijrochilik mahorati bilan shuhrat qozongan oqinlardan biri Jambo'l Jabayev Jambil tog' etagida kambag'al oilasida tug'ilgan. Ustozi Suyumboi tarbiyasini olgan oqin "Kambag'alning sho'ri", "Shaltaboyga",

“Mirzobek volostiyaing boshligiga”, “Qodirboyning iti” kabi asarlarda xalqning hayotini real tasvirlashga intildi.

Qozoq xalq og‘zaki ijodidagi progressiv oqim XIX asrning boshlariga kelib shakllangan qozoq yozma adabiyoti uchun zamin bo‘ldi. Qozoq klassik adabiyotining asoschilari Cho‘qon Valixonov (1838-1865), Ibroy Oltinsarin (1841-1889) va Abay Qo‘nonboyev (1845-1904) ijodi qozoq xalqi og‘zaki ijodi bilan yozma adabiyotining o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tadi. Bu shoirlar bir tomondan, mashhur oqin bo‘lgan, ikkinchi tomondan esa buyuk ma‘rifatparvarlar edi. Ular demokratik yo‘nalishdagi qozoq adabiyotining asoschilari edi. Cho‘qon “Manas” eposining mazmunini qadimgi qo‘shiqlarni, afsona va rivoyatlarni birinchi bo‘lib yozib oldi. Qirg‘iz xalqining o‘sha davrdagi iqtisodiy ahvolini, maishiy turmushini atroflicha o‘rgandi.

XIX asr qozoq adabiyotining, umuman, qozoq klassik adabiyotining eng yirik arbobi Abay Qo‘nanboyev hisoblanadi. Abay ijodi qozoq adabiyotining cho‘qqisidir.

Qozoq xalqi Abay yaratgan asarlar orqali birinchi bo‘lib dunyoning falsafiy fikrlari bilan tanishishga muvassar bo‘ldi. Shoir ijodi Sharq va G‘arb adabiyotining sintezlashgan holatidagi novator adabiyotdir. U qozoq adabiyotining asoschisi bo‘lish bilan birga, qozoq adabiy tilining ham asoschisidir.

Cho‘qon Valixanov, Ibrat Oltinsarin va Abay Qo‘nanboyevlar ijodi qozoq yozma adabiyotining shakllanishiga katta hissa qo‘shdi. Bu yozma adabiyot realizm san‘at yo‘nalishida vujudga keldi va XX asr qozoq adabiyotining rivojlanishiga poydevor bo‘lib xizmat qildi. S.Kubayev, S.To‘rayg‘irov, S.Dunentayev, M.Seralin, B.Kuleyev, B.Utetileuov, T.Iztileuov, G‘.Qarash, N.Ormanbot o‘g‘li, T.Jo‘martboyev va boshqa ma‘rifatchi demokratlarning realizm an‘analarini davom ettirdilar. XX asrning 20-yillarida qozoq adabiyotida Saken Sayfullin yetakchi o‘rin egalladi. Ushbu yillarda qozoq adabiyotida roman janrining asosi qo‘yildi. Isfandiyor Kubayevning “Qolin” va Sultonmahmud To‘rayg‘irovning “Go‘zal qiz Qamar” asarlari qozoq adabiyotining ilk roman namunalari hisoblanadi. XX asr boshlarida “Aykap”, “Qozoq” va boshqa davriy matbuotlarda ijtimoiy-siyosiy muammolar, adabiyot, madaniyat va b. masalalar to‘g‘risida maqolalarning chop etilishi qozoq milliy ruhi va demokratik g‘oyalarning rivojiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Yangi ruhdagi milliy g‘oya va milliy tafakkur qozoq sovet adabiyotida ham turli shakllarda namoyon bo‘la boshladi. Jambo‘l Jo‘bayev, Sobit Mukanov, Muxtor Avezov va boshqalarning ijodlarida sovet ideologiyasi o‘lchovlari aks etish bilan bir qatorda milliy-ma‘naviy qadriyatlar ham saqlanib qolgan edi.

Zamonaviy qozoq adabiyotining taniqli vakillari Muxtor Avezov, Xolixon Bekxo‘jin, O‘ljas Sulaymonov va boshqalarning ijodida milliy qadri-

yatlarga katta o'rin berildi. Atoqli qozoq adibi Muxtor Avezovning nomi ham juda mashhurdir. Uning ijodi ham asosan 20-yillarda boshlanib, dastlab dramatik asarlar yozgan. "Yenlik kebek", "Qora ko'z", "Xon kene" singari pyesalarida yozuvchi qozoq xalqi hayotining muhim qirralarini tanlab oldi. Keyinchalik "Abay" va "Abay yo'li" kabi romanlar vujudga keldi.

Hozirgi kunda boshqa turkiy xalqlar adabiyoti singari qozoq adabiyoti ham rivojlanib, turkiy adabiy-badiiy epoxaga tuhfalari bermogda.

## ABAY QO'NONBOYEV

XIX asr qozoq adabiyotining, umuman, qozoq klassik adabiyotining eng yirik arbobi Abay Qo'nonboyev hisoblanadi. Abay qozoq poeziyasini yangi realistik yo'nalishga boshlagan novator shoirdir. Shoir ijodining an'anasi sifatida keyinchalik qozoq adabiyotida tanqidiy realizm tomir otdi. U 1845-yil 10-avgustda Tobikdi qabila rahbari oilasida dunyoga kelgan. Otasi Qo'nonboy jiddiy, qattiqqo'l odam bo'lib, bu qattiqqo'llik Abayga munosabatida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Abayning asl ismi Ibrohim bo'lib, onasi O'ljon xonim uni Abay (ma'nosi xushmuomala, mehribon) deb erkalagani uchun qabiladagilar uni shu ism bilan chaqirishar edi. Keyinchalik u bu ismni taxallus sifatida tanladi. Abay onasini kichik yoshlarda yo'qotadi, bu yayg'u to'g'risida o'z she'rlarida ham so'z ochadi:



*Yo Rab, axir menga naqadar  
Achchiq ko'z yoshini ravo ko'ribsan.  
Hali murg'ak edim, bir oydin sahar  
Aziz onamni berib qo'ydim man.*

Abayning otasi qattiqqo'l bo'lishiga qaramay, o'g'lining tahsil olishini xohlagan va shu sababli 1857-yilda uni Semipalatinsk dagi Ahmar Rizo madrasasiga yuborgan. U madrasada arab, fors va chig'atoy tillarini o'rgandi. Lekin Abay madrasa tahsilini chala qoldirib, u yerdagi rus maktabiga boradi. Bu esa Abayning rus va Yevropa madaniyati bilan tanishishiga sharoit yaratadi, uning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi. Abay u yerda 5 yil o'qigach, otasining qistog'i bilan Tobikdiga qaytadi. Otasi uni qabila boshlig'i etib tayinlamoqchi bo'ladi, ota bilan o'g'il o'rtasidagi kelishmovchiliklar 1873-yilda Abayning uyni tark etishiga sabab bo'ladi. Bu kelishmovchiliklar tub zamirida otasining feodal dunyoqarashi, Abayga nisbatan bemehrligi va qattiqqo'lligi yotardi.

Abay zamondoshlari Ch. Valixonov, I. Oltinsari, Shal Kuleke o'g'li, Muhambet O'temish, Suyunboy Aran o'g'li, J. Jobayev kabi shaxslar bilan tanishib, o'zaro ijtimoiy-madaniy fikr shakllanishida ahamiyatli rol o'ynaydi.

Abay o'z qabilasida madaniy hayotning yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatadi. U Sharq va G'arb adabiy-falsafiy tafakkur tarixining yetakchi siymolari ijodi bilan tanishib, ulardan ba'zi namunalarni og'zaki va

yoza shaklda yoyishga muvaffaq bo'lgan. Markaziy Osiyo allomalarini, xususan, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdu-rahmon Jomiy, Navoiy, Bobur, Nodira asarlarini mutolaa qildi. Ulardan ta'sirlanib "Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy" nomli she'riy asarini yaratdi. Qozoqlar Ozarbayjon adabiyoti namunalaridan "Layli va Majnun" va "Ko'ro'g'li" asarlarini uning mehnati tufayli o'zlashtira olgan. Abay I. I. Dolgoplov, Ye. P. Mixaelis hamda V. G. Belinskiy, Chernishevskiy, Dobrolyubov, Saltikov-Shchedrin, L. Tolstoy, A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov, I. A. Krilov asarlarni o'qib puxta o'rgandi. Ba'zilarini qozoq tiliga tarjima qildi. Ularning asarlari orqali rus, jahon adabiyoti namoyandalari asarlari bilan yaqindan tanishdi, tarjimalar qildi, nasriy asarlar yozdi.

Faqat uning dunyoqarashi bilan jamiyat o'rtasidagi ziddiyat Abayga qarshi hujumlarning boshlanishiga sabab bo'ldi. Lekin bu uni cho'chitmay, o'z demokratik fikrlarini aytishdan chekinmadi. Abay jamiyatdagi kamchiliklarni ko'rsatib, boylarning ochko'zligini, xalqni talagan siyosatchilarni fosh etadi, asl haqiqatlarni xalqqa yetkazadi. Unga qarshi bir necha marta suiqasdlar uyushtirilgan bo'lsa ham, natijaga erisha olishmaydi. 1895-yilda katta o'g'lidani, 1904-yilda esa san'atkor bo'lgan kichik o'g'lidani bevaqt judo bo'lgan Abay farzand dog'iga chidolmay, 1904-yilda kichik o'g'lining o'limidan qirq kun o'tgach vafot etdi.

## IJODI

XVIII asr qozoq ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'zida aks ettirgan Abay ijodi o'z xalqining o'lmas badiiy merosidir. Abay Qo'nonboyev 200 ga yaqin she'r, 3 poema va 45 nasriy asar muallifidir. U ilk she'rini 1855-yilda 10 yoshida yozadi. Abay Qo'nonboyev o'z she'riy va nasriy ijodi hamda ma'rifatparvarlik faoliyati bilan demokratik tendensiyadagi qozoq adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U qozoq xalq og'zaki ijodidagi ilg'or an'analar ta'siri ostida xalq manfaatini kuylovchi asarlar yaratgan atoqli shoir va ma'rifatparvar darajasiga ko'tarila oldi. Abay she'riyatni xalq hayotiga yaqinlashtirdi, o'z lirikasida ilg'or g'oyalarni tarannum etdi, xalq hayotining turli-tuman muhim ijtimoiy masalalarini o'z zamonasining ilg'or ziyolisi sifatida hal qildi. Demokratik g'oyalar jarchisi bo'lgan shoir yagona chorani o'qishda, tahsilda ko'radi va buning targ'ibini she'rlarida ilgari suradi:

*Madrasaga berdim men adab uchun,  
Bilim uchun, nainki mansab uchun!  
O'zim ham yuksaklarga qanot qoqdim.  
Ayb bo'lmas orzu uchun – talab uchun...*

Abay asarlarida xalqiga pand-nasihah qilib, ularni ezgu yo'lga boshlaydi. Xalqiga xitobida ularni kamtarlikka, mehnatkashlikka, haq yo'lidan borishga chorlaydi:

*Ilm topmay maxtanma  
O'rin topmay boplanma,  
Xumorlanib shodlanma,  
O'ynab bekor kulishga!  
Besh narsadan sochiq bo'l!  
Besh narsaga oshiq bo'l,  
Odam bo'laman desangiz.  
Tilaging, umring oldingda,  
Unga qayg'u yesangiz.  
Yolg'on-yashiq, maxtanchoq,  
Erinchak, bekor mol chochmoq,  
Besh dushmaning bilsangiz!*

Lekin jamiyatning nodon tabaqasi Abayni tushunish uyoqda tursin, unga suiqasd qilishdan ham tap tortmaydi. Biroq shoirning xalqiga bo'lgan mehri shunchalar kuchliki, bu yo'lda o'limga ham tik boqishini bildiradi. Abay doimo xalqiga xitob qilib, ularning muammolarini sanab o'tadi, zolimlarni fosh qiladi:

*Qozog'im, sho'rlik yurtim, vayron yurtim!  
Qorong'ida yo'l topmay, hayron yurtim!  
Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,  
Og'zida ham qon, ham moy sarson yurtim.  
Tunda uyqung buzilar kunduz kulging!  
Dardingga em bo'lmadi moli-mulking  
Ochko'zsan, tamagarsan, qurumsoqsan,  
Bor sovlating boshingga kiygan tulating...*

Shoir o'z she'rlarida xalqni bu ko'yga solganlarga nafrat bilan qarab, ularni xalqning beparvoligi shu darajaga olib chiqqanini ta'kidlaydi:

*Biy bo'ldi qiyqim boylar bosh-boshiga,  
Dog' soldi, zahar soldi yurt oshiga,  
Qo'rqaman, asosi yo'q ko'r singari,  
Elim unar buzuqlar aldashiga!..*

Tanqidiy realizm adabiyotining buyuk namoyandasi sifatida shoir quturgan boylarning obrazini yaratar ekan, ularning xarakteridagi barcha jihatlarni ochib berishga muvaffaq bo'ladi. Uning bir qancha she'rlari bu holning poetik ifoda uslubiga duch kelamiz:





*Boylar yurar yiqqan molin qo'rg'alatib,  
O'z yuzin, rangin berib olar sotib.  
O'nni olib, to'qsondan ta'ma qilib,  
Bu yurtni qo'ymaganmi xudo otib.  
Borib kelsa Ertishning suvin totib,  
Berib kelsa bitta arz butab-chatib.  
Elni olib, Edilni olib gerdayadi,  
Shishib-qurib, qavarib kelayotib.*

Abay she'riyati rang-barang va turli mavzularda yozilgan. Qozoq xalqi og'zaki ijodidagi o'lanlar, aytishuvlar bilan hamohangdir. Uning muhabbat lirikasi Sharq she'riyatining go'zal namunalaridan ta'sirlanib yozilgan. Unda xalqchilik va dardchilik kuchli ko'zga tashlanadi. Olti va sakkiz qatorlik qisqa va mazmunli go'zal she'rlarda shoir o'quvchiga ta'sir qiladigan, uning his-tuyg'usini qo'zg'atadigan fikrlarni bayon etadi. Shoirning bunday she'rlarida rus, umuman, Yevropa she'riyatining an'alarini sezamiz. "Jim-jim ko'nglim, jim ko'nglim" degan misralar bilan boshlanuvchi she'rlari esa qandaydir tomoni bilan Sharq tasavvuf she'riyati an'alarini eslatadi. Chunki bu she'rda shoir insonning ko'ngli, nafsi nimalarni tilamaydi. Uni jilovlash lozim, aks holda insonni xarob qiladi, degan fikrlarni aytadi. Abay she'riyati sinchiklab tahlil qilinsa, unda Ahmad Yassaviy she'riyatining an'alarini ham anchagina ekanligiga iqrar bo'lamiz.

*Jim-jim ko'nglim, jim ko'nglim,  
Soyalamay soy topmay,  
Ne kun tushdi boshingga  
Kuni, tuni joy topmay?  
Shunday yurganing bilan  
Qiz o'larmi boy topmay?  
Tunda kezgan ma'qulmi,  
Chor atrofga jovdiray?  
Ulaman deb yurdingmi,  
Bundan boshqa joy topmay!*

Abayning ikki o'g'lidan judo bo'lgani, bu qayg'u uning hayotida bitmas jarohatga aylangani barchaga ma'lum. Shoir katta o'g'li Abayning o'limiga bo'lgan munosabatini bir necha she'rida ifodalab, bu achchiq qismat tug'dirgan qalb faryodini qog'ozga to'kadi.

*Goho o'ldi, goh bo'ldi yov  
Kimni sevsu bu yurak!  
Bari dushman, yo'lga g'ov,  
Suyanishga yo'q tirgak.*

*Ey, yuragi dardli odam,  
Qalbindan sen xabar ol:  
Unda ne bor, qanday g'am  
Tilga kirar, quloq sol.*

Ma'lumki, Iskandar Zulqarnayn haqida Sharq adabiyotida juda ko'plab asarlar yaratilgan. Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Navoiylarning Iskandar haqidagi dostonlari bunga misol bo'la oladi. Shoir Abay ham ana shu an'analarni davom ettirib, "Iskandar" nomli doston yozgan. Muallif asarda Iskandarning otasi Filippning o'limi, 21 yoshli Iskandarning taxtga chiqishi, imperiya yaratishi, donishmand Aristotelning unga maslahatchi bo'lishi va b. hodisalarni ko'rsatish orqali tarixiylik prinsipiga amal qiladi. Abay asar boshida Iskandarni quyidagicha tavsiflaydi:

*Iskandarni hamma ham bilarmikan?  
Aytib bersam ishonmay kularmikan?  
Filipp poshsho farzandi, dongi ketgan  
Hech bahodir unga teng kelarmikan?  
Yoshi ham yigirma bir, raso bo'ldi;  
Filipp o'ldi, o'rniga poshsho bo'ldi.  
O'z davlati, o'z yurti kam ko'rinib,  
Qo'shni ellar boshiga balo bo'ldi.*

Lekin Abay bu dostonida Iskandarni maqtamasdan, uni tanqid qilish yo'lidan bordi. Asarda Filipp o'g'li Iskandarning qo'shni mamlakatlarni bosib olgani bilan qanoatlanmay, katta qo'shin to'plab butun dunyoni bosib olish uchun harakat qilgani, biroq oqibatda bu ishning uddasidan chiqmagani hikoya qilinadi:

*"Suv boshida badavlat el bor o'xshar,  
Hammang ichib, darmon yig' va yuzing yuv!  
Darmon yig'ib, suv bo'ylab ketishim bor,  
Suv boshida – qal'aga yetishim bor.  
Bosh egmasa – qilichim boshidadir,  
Shahrin ham tosh-talqon etishim bor".*

Iskandar o'z qo'shini bilan jazirama cho'lni kesib o'tib, bir tog'ga duch keladi. Tog'ning darasiga kirishda katta oltin darvoza unga to'siq bo'ladi. U qancha urinmasin bu darvozani buzib, narigi tomonga o'tolmaydi. Iskandarning jahli chiqib, darvozani och, men butun dunyo hukmdori Iskandar bo'laman, deydi. Darvoza ortidan esa, bu xudoga olib boriladigan yo'ldagi darvoza, senga esa mumkin emas, degan sado keladi va Iskandarga darvoza ortidan suyak tashlaydi. Bu suyak juda og'ir edi. Uni hech narsa ko'tara olmaydi:

***Yig'ildi qo'shinda bor oltin butkul,  
Bosardi suyak yotgan palla nuqul.  
"Xazinam yetmadi-ku! Suyak og'ir...  
Chorasini top!" dedi eng keyin ul.***

Bu sirning ma'nosini Iskandarning ustoz Aristotel yechadi. U tarozi pallasining bo'sh qismiga bir qisim tuproq tashlaganda, suyak turgan pallasi yuqoriga ko'tarilib ketadi. Abay insondagi ochko'zlikni, dunyoga to'ymaslikni tanqid qilib, uni bir qisim tuproq to'ydiradi, degan naql bilan dostonni tugallaydi. Ana shu Iskandar hayotidan olingan bir lavha juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ham buyuk shoir Abayning ko'p qirali olmos iste'dodidan xabar beradi:

***"Ko'z suyagi – bu suyak! – deb boshlar so'z, –  
Tiriklikda hech qachon to'ymaydi ko'z,  
Bir siqim tuproqqa ham to'yar – o'lsa,  
G'azablanma, shahanshoh, bo'lma dilso'z!"***

U "Mas'ud" nomli dostonida "Ming bir kecha" ertagidagi afsonalarga murojaat qildi. Asar voqealari Bog'dod va uning atrofiga bo'lib o'tadi. Dostonda Mas'ud nomli halol va pokiza yigitning bir qariya cholni qarochilardan himoya qilib mardlik va jasorati ko'rsatgani, buning evaziga qariya unga pul taklif qilganda, u rad etib bu ishni savob uchun, odamgarchilik uchun qilganini aytadi. Mas'udni qariya yaxshi tilaklar bilan duo qiladi. Xalqdagi "oltin olma, duo ol" degan maqolga rioya qilgan Mas'ud keyinchalik adolatli shoh bo'lib yetishadi. Aslida bu duo qilgan qariya Xizir edi.

Xizir Mas'udni chaqirib, unga uch rangli – oq, sariq va qizil mevasi bo'lgan daraxtni ko'rsatadi va faqat bittasini tanlashi mumkinligini aytadi. Oq meva aqlni, sariq meva boylikni, qizil meva esa ayol muhabbatini orttiradigan sehrli kuchga ega bo'ladi. Mas'ud qizil mevani tanlab, shunday deydi:

*Qizilni yesam meni ayol suyar,  
Odamlikka yurmasa ne jon kuyar.  
Ayollar ham ko'p jon-ku, do'stim bo'lsa,  
Deb edim bir foydasi menga tiyar.*

Dostonda ana shu rivoyat asosiy mavzu qilib olinib, Abay uni o'z zamoniga moslab o'zgartirishlar kiritgan. Mas'ud qandaydir arab yigiti emas, balki o'quvchi ko'z oldida oddiy, mard, qozoq yigitiday gavdalangani. Shoir o'z gumanistik g'oyalarini shu tarzda targ'ib qildi.

Uning "Azim afsonasi" nomli dostoni ham "Ming bir kecha" syujetidan olingan. Ertakdagi "Hasan zargar qissasi" shoir tomonidan o'zlashtirilib, Hasan ismi o'rniga Azim nomi berilgan. Bunda ezgulik bilan yovuzlik, haqiqat bilan yolg'on, ma'rifat bilan jaholat o'rtasidagi konfliktlar ko'rsatilgan. Yovuz chol yosh yigit Azimni jodu qilib, boshiga ko'p kulfatlar soladi. Azimdagi oq ko'ngillik, mardlik, to'g'rilik barcha yovuz kuchlar ustidan g'olib kelishiga yordam beradi:

*O'qishdan so'ng ushladi ota yo'lin,  
Oshirdi martabasin, kasbu korin.  
Shul kunlar ajal yetib, Mustaf o'lib,  
Yirtiq-etim bo'lmasdan topdi o'ruin.*

Azim siymosida mehnatsevarlik, insoniy hislar, sabr-bardosh, aqidaga bo'lgan sadoqat, vatanga muhabbat va b. badiiy bo'yoqlar bilan namoyish etiladi va yuksak tarzda o'quvchiga yetkazib beriladi.

## O'LJAS SULAYMONOV

Taniqli qozoq adibi O'ljas Sulaymonov 1936-yil 18-mayda Qozog'istonning Olmaota shahrida tug'ildi. Otasi Umar harbiy xizmatchi edi. O'ljas o'rischa maktabda o'rta ma'lumot oldi. So'ng Qozog'iston davlat universitetining geologiya fakultetini bitirdi. U 1955-yilda adabiyotga kirib keladi. Badiiy ijodga katta muhabbat qo'ygan O'. Sulaymonov 1961-yilda Moskvadagi M. Gorkiy nomli Jahon adabiyoti institutida ham tahsil oldi.



SULAYMONOV  
(1936)

Uning "Ko'chmanchilar va rus" nomli ilk maqolasi 1962-yilda chop etiladi. 1959-yil iyun oyida O'ljas Sulaymonovning "Literaturnaya gazeta" da chop etilgan tanlangan she'rlari shoirning markaziy matbuotda nashr qilingan ilk asari hisoblanadi.

O'. Sulaymonov badiiy ijodning turli jabhalarida mehnat qildi. 1962–1971-yillarda "Qozoqfilm" studiyasida bosh muharrir, "Prostor" jurnalida bo'lim mudiri, 1972-yildan boshlab Qozog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi kotibi lavozimida ishladi. 1972-yildan Osiyo va Afrika yozuvchilari bilan Qozog'iston aloqa qo'mitasining raisi etib tayinlanadi. 1975-yilda O'ljas Sulaymonov "Az i Ya" asarini yozadi. Asar faqatgina filologiya, tarix sohasida emas, siyosiy tasavvurga ta'siriga ko'ra ham katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Asarning ruhi o'sha vaqtdagi ideologiyaga zid bo'lgani uchun O'ljas Sulaymonovning "Az i Ya" kitobi to'g'risidagi Qozog'iston KP ning 1976-yil 17-iyuldagi qarorida kitob "ideologik va metodologik" jihatdan nuqsonli deb topiladi.

O'ljas Sulaymonov 1971–1981-yillarda Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi kotibi lavozimiga tayinlanadi. 1981–83-yillarda Qozog'iston SSR Kinematografiya qo'mitasiga rahbarlik qiladi. U 1983-yilda Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining birinchi kotibi etib saylanadi. O'ljas Sulaymonov 1989-yilda "Nevada Semipalatinsk" ijtimoiy harakatiga asos soladi.

O'ljas Sulaymonov 1990-yil 20-yanvar fojiasi bo'yicha hamdardlik bildirish maqsadida Bokuga boradi va Kremlning Qurultoylar saroyida fojining gunohkori bo'lgan Gorbachov rejimini tanqid qiladi. 1991-yilda Qozog'istonda milliy mustaqillik e'lon qilingach, O'ljas Sulaymonov mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida yaqindan ishtirok etadi. Hozirda YUNESKO da Qozog'iston namoyandasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. 2011-yilda Ozarbayjon Respublikasining "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

## IJODI

Ijodida ko'proq milliy-estetik normalarni tatbiq etgan, dunyo miqyosida tanilgan zamonaviy qozoq adabiyotining mashhur shaxslaridan biri O'ljas Sulaymonovdir. "O'ljas Sulaymonov dunyoning bizga ma'lum bo'lgan tafakkurni ayni paytda ham boy etnografik potentsialga, ham zamonaviy poetik "diplomatiya"ga ega yagona shoirdir – naturalizm bilan analitizmning bunday vahdatini beruvchi boshqa shoirni tasavvur qilishning iloji yo'q..."<sup>15</sup>. O'ljas Sulaymonov ijodida bugundan o'tmishga va kelajakka ko'prik qurgan shoir hisoblanadi. Uning ijodida "Az i Ya" asarining alohida o'rni bor. Asar turkiy xalqlar tarixiga, tiliga, ijtimoiy-siyosiy maqomiga original yondashuv jihatdan o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Ikki qismdan iborat, barcha masalalarga ilmiy va milliy-tarixiy prinsiplar doirasida obyektiv munosabat bildirgan ushbu asar qadimiy turkiy xalqning madaniyati, san'ati, tarixini o'rganish, ayni paytda Yevrosiyoda yashovchi xalqlarning madaniy va siyosiy tarixlaridagi ba'zi maqomlarini yoritish jihatdan muhimdir.

Lekin O'ljas Sulaymonov tarixchi olim, etnograf bo'lish bilan birga, zamonaviy qozoq she'riyatining mashhur namoyandasidir. Uning poeziyasi mavzu va shakl jihatdan original sanaladi. Uning poeziyasida sovet rejimi taqiqlagan mavzu chegarasining bo'lmasligi, turli fikr uslubi va buning poetik tafsiloti shaklida aks etishi tabiiy holga aylangan. Shu sababli O'ljas Sulaymonov lirikasida siyosiy motiv va tasvir oldingi planda turadi, shoir g'oyasining asosiy ko'rsatkichi sifatida diqqatni jalb etadi.

*Yilqisi bilan mashhur,  
Qadim qipchoq yerida  
Oqib boradi uyur  
Kuygan o'tlar selida.  
Tomirimda qaynar qon,  
Tulporidan saylab ber.  
Yeldiray misli bo'ron,  
Ostin-ustin bo'lsin yer.  
Yellar alanga solsin  
Arg'umoqning qoniga.  
Qiyoyq, alafklar qolsin  
Tuyoqlar to'zonida.  
Hujum, yashash – bu nadir,  
Arg'umoq bilib qo'ysin.  
Jasorat bizga taqdir,  
So'qmoqlar guldurasin!*

O'ljas Sulaymonov ijodida tarixiy o'zlikni anglab yetish doirasi katta

<sup>15</sup> N. Jafarov. Turk dunyosi: Xaos va kosmos. Boku, 1998, 204-bet.

hisoblanadi. Bu she'rlarida shoir bezovtaliklarini o'quvchi tom ma'noda idrok etadi, unga sherik bo'ladi. Shoir ham o'z navbatida milliy-etnik o'y ta'sirida tarixiy sayohatga ustunlik beradi: "Men shahar o'g'liman, cho'p-biyobon bilan jangga yo'llanmog'im shart. Nuroniy keksalar, bilmoqchiman, ayting, mening shaharlarim qanday mahv bo'ldi?" – jumlasini bilan tarixiy savolga javob izlaydi:

*Oppoq O'tror shahrim,  
Qani qal'a devorlaring?  
Yorim ila o't tutashib yondimi?  
Chidamadimi janglarga?  
Ikki yuz kun, kecha-kunduz?  
Uzoq davom etdi qamal.  
Yerosti yo'llar kesildi,  
Na non bor, na go'sht, na o't.*

O'ljas Sulaymonov ijodida turkning tarixiga sayohat va unga bo'lgan sog'inchni ifodalovchi munosabat diqqatni jalb etadi. O'z tarixiga dildan bog'langan shoirning bu "sayohat"da dunyoni "mo'ljal" sifatida tanlashi tasodif emas. Bunday keng hajmni ko'zlagan shoirning maqsadi tarix xotirasida turkning izlarini ko'rish va muayyanlashtirishdir. Bu holda O'ljas Sulaymonov haq bo'lib chiqadi. Kezgan joylarda o'z xalqi to'g'risida so'z ochishni burchi deb biladi:

*Derlar menga – ko'rkam imoratlar qur,  
men esa  
dunyoni kezaman masrur,  
qulay imkoniyat tug'ildimi, bas,  
yana o'tlanaman yo'lga shu nafas.  
Nyu-Yorkda dostonlar o'qiyman jo'shib,  
Misrda she'r bitgum anduhim qo'shib.*

"Dostonlarni jo'shib o'qigan" shoir g'olib ham emas, mag'lub ham emas. U shunchaki dilida bashariy tuyg'ularni mujassam etgan, tuprog'iga mustahkam rishta bilan bog'langan vatan o'g'li, xolos.

O'ljas Sulaymonov totalitar davrni ko'z oldida jonlantirib, uning dahshatli kunlarini eslaydi. Surgun joyi sifatida tanlangan Qozog'istonning "millionlarga qabr uyi" bo'lishini afsus-nadomat bilan qayd etadi. Tuprog'i, vatani va millatining bu fojialarda begunoh ekanligini bilsa ham, boshqalardan uzr so'rashni vojib deb biladi. Aslida O'ljas Sulaymonovning bu poetika isyonkorligida katta rejim, ulkan imperiya, uning qonunlarini ayblash oldingi planga o'tadi:



**Qozog'iston!  
Faqat senda joylashgan  
Butun yer yuzidagi  
Poytaxtlarning turmasi  
Sen cheksiz-bepoyon surgun yerisan  
Kichik xaritada.**

“Bir etikdo‘z bor edi bizning ovulda” she‘rida shoir umumsovet poeziyasi uchun xos bo‘lmagan uslubda analitizmga keng joy berish bilan “inqilobchi” ta‘sirini bag‘ishlaydi:

**Etikdo‘z barchaga tikardi etik o‘ziga moslab,  
hammani teng qilmoq istardi,  
sho‘rlik, nazdida boplab.**

Ushbu she‘rda mavjud rejim, shu jumladan, aniq “ideolog” obrazi e‘tiborni tortadi. O‘quvchi ortda qolgan yaqin o‘tmishning realliklarini yana bir bor “boshidan o‘tkazadi”.

**Bonapart bo‘yiday edi bo‘y-basti,  
lek biz darozlarga etigi  
to‘g‘ri kelmasdi.  
Etikni xudo yaratgan deb o‘ylardi hamma,  
musulmonlar tez-tez deb namoz o‘qishi uchun  
(Bilasanku, namoz vaqti  
etigingni yechmog‘ing tayin)  
Demak, namoz bu -  
uvushgan oyoqlarning rohati, baxti.**

“...O‘ljasning poetik tafakkuri qadimiy manbalarga borib taqaladi – XI-XII asrlardan boshlab turk poeziyasida: Markaziy Osiyo, Ural-Volgabo‘yi, Kavkaz-Kichik Osiyo mintaqasida Eron motivlari, metaforalari, intonatsiyalari va h. kuchaydi, turkiy she‘riyat erkinligini yo‘qotdi va poetik ifoda aruz qoidalariga tobe bo‘ldi”<sup>16</sup>.

Lekin keyingi asrlarda epos erkinligiga erishgan turk she‘riyati avvalgi an‘analarga yetarlicha yaqinlasha olmadi. To‘g‘ri, XX asrda umumturkiy poeziya milliy-ijtimoiy jihatdan taraqqiyotini barpo eta oldi. Epos tafakkur va madaniyatga qaytish O‘ljas Sulaymonov ijodida o‘z aksini topdi. “Men seni...”, “Bolalik, bog‘, saraton”, “Ko‘chmanchi” va b. she‘rlari maz-

<sup>16</sup> N.Jafarov. Turk dunyosi: Xaos va kosmos. Boku, 1998, 207-bet.

mun, shakl, tuzilish jihatdan epos tafakkuriga juda yaqin kelgan:

*Yo'q, sakkizga kirmagandim o'sha payt,  
Bolalik. Ayni yoz.  
Xilvat qishloqda  
Eski aravalar g'ijirlar faqat,  
Jazirama.  
Changdan oqargan bog'lar.*

Shu sababli uning muhabbat, falsafiy lirikasi tom ma'noda original mazmun va g'oyaga tayanadi. Chunki bu yerda "zamon talabi" bilan "san'atkorning san'at talabi" o'rtasida yangi aloqa uslubi yuzaga keladi:

*Men seni sevaman,  
beva - oh urishni,  
baliq - tez suzishni  
sevsqa qanchalik;  
men seni sevaman  
ojiz - shuhrat-shonni,  
quyosh - keng osmonni  
sevgani kabi.*

Diqqat bilan kuzatganimizda O'ljas Sulaymonovning "muhabbat she'rlari"da har narsadan ozod bo'lgan pok muhabbat haqida so'z bor-maydi. So'zning ma'nosi ilk qavatda emas, chuqurroqda oshkor bo'ladi:

*Dildan o'tinaman,  
Mag'rur bo'l loaqal yolg'iz men bilan.  
Men seni sevmasman ojiz, xafahol.  
Yillar uchib o'tar yillar ortidan,  
Barcha mag'rurliging sening -  
Men uchun,  
Mag'rur bo'lib qol.*

O'ljas Sulaymonovning poetik "men"i ko'p qirrali aspektida namoyon bo'ladi. "Men" uning she'rlarida yetakchi va tabiiydir. Barcha iqrorlari samimiy ta'sir ko'rsatadi. Shoirning "men"i konkret va umumiy qadriyatlarini o'zida mujassam qila oladi:

*Bir so'zim ikki bo'lmagan hali,  
Bekorga  
Qo'l cho'zmabman xanjarga.*

*Topibman  
Ne yo'qotganim bo'lsa,  
Taqdir berganiga  
Rozi bo'libman.*

Muammoga bu tomondan yondashuv uning she'rlarida inson omilini asosiy obyektga aylantiradi. Hodisalar markazida turgan inson shoirning etnografik tafakkurga bog'liqligining ko'rsatkichidir. Ushbu inson shoiring ajdodi, o'zi va zamondoshlaridir. Mana shuning uchun ham O'ljas Sulaymonovda inson obyekt sifatida kuchli hisoblanadi. U o'tmishning achchiqlariga chidagan, muvaffaqiyatlaridan faxrlanuvchi, kelajakka umid bilan boquvchi shaxsdir:

*Sevaman seni, Fransiya.  
Sening noming-la atashgan barcha  
bosqinchilarni -  
"Faranglar" deb.  
Sening askarlaringni  
Otda sudraganman arqon bilan  
Va oltin-kumushlar uyumi ustida o'tirib  
Zargarlik qilganman,  
Tillalarga naqshlar chizganman,  
Endi esa ko'zlarimda  
G'ussa va sog'inch.*

Inson bir mamlakatning emas, balki bashariyatning farzandi bo'lish masalalari O'ljas Sulaymonov ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir, asosan, milliy omillar kuchaygan san'atdagi bashariy g'oyalarning tajasumi milliy-etnik va bashariyat tarixi takomili masalalari sintezidan kelib chiqadi.

O'ljas Sulaymonov o'tgan asrning 80-yillarigacha bo'lgan ijodida insonni ham milliy, ham bashariy platformada ushlab turgan bo'lsa, 80-yillardan keyingi poeziyasida insonni "milliy-etnik muayyanlashuvda" taqdim etadi. Albatta bu holat O'ljas Sulaymonov ijodi uchun butkul yangi sifat ko'rsatkichi emas. Uning avvalgi ijodida ham ma'lum darajada o'zini ko'rsatib, dolzarb mavzuga aylangan. Lekin XX asrning 80-yillardan e'tiboran insonning etnik mazmuni, uning etnik-psixologik, etnik-madaniy omillari shoir poeziyasida tarixiy jarayonlar darajasida taqdim etiladi:

*Milliardlar shukuhi bo'lib kunbotar  
sarg'aygan cho'llarning ostida yotar -  
no'g'aylar,*

*bulg'orlar,  
sahroyi qozoq  
bilmasdan Osiyo -  
G'arbdan ham g'arbroq!  
Chorladi G'arb mudom tilsim yaratib,  
va bizni ko'mdilar g'arbga qaratib!  
Tegrangda charx urib tinmadim bir on,  
Aylanayin sendan,  
Zamin-onajon!*

Shoir poetik izlanishlar natijasida butkul yangi fikrlar, yangi g'oyalarni yuzaga chiqaradi. U ba'zi she'rilarida mavzu va shakl imkoniyatlaridan keng foydalanadi:

*Bag'ring dog'lanmishdir bu kun shunchalik,  
hech kim tushunolmas seni menchalik -  
dardlaringni olay,  
bo'lma g'amga g'arq,  
kezgum yo'llaringda  
mudom urib charx...*

O'. Sulaymonovning badiiy asarlarida qozoqlarning o'ziga xos turmush tarzi, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari aks ettirilsa, ilmiy asarlarida turkiy xalqlarning dunyo madaniyati taraqqiyotidagi ulkan o'rni tarixiy dalillar asosida yorqin ko'rsatib berilgan. O'. Sulaymonov "Az i Ya" asarida, yevropaparastlar aytganlariday, turkiylar qadimiy madaniyatga ega bo'lmagan qavm emas, balki dunyoning eng qadimiy madaniyatli millatlaridan ekanligini asosladi. Muallif rus tilida yozgan ushbu asariga qiziqarli nom tanlagan. "Az i Ya" asari faqat nom originalligi bilan cheklanib qolmay, masalalarga chuqur yondashish, muammolarning ilmiy-analitik sharhi jihatdan ham ajralib turadi. "Az" eski slavyanchada "men", "Ya" esa hozirgi rus tilida "men" degani bo'lib, asar nomi ma'nosi "Men va men"dir. Ayni paytda "az" kiril alifbosining ilk, "ya" esa so'nggi harfidir. Lekin bu yerda ma'no shartli ravishda "sen va men" shaklida izohlanadi. Bu shartlilik doirasida rus adabiyoti va turkiy xalqlarning tarixi, madaniyati, etnik kimligi to'g'risida muayyan ma'lumotlar beriladi, qiyosiy tahlil olib boriladi. Bu qiyoslashda ilmiy-tarixiy asoslash yo'li bilan turkiy xalqlarning qadimiyligi, tarixi va madaniyatining ustunligi, boshqa madaniyatlarga ta'siri yuzaga chiqadi. Muallif turk madaniyatining Shumer madaniyati vorisi ekanligini isbotlaydi. "Igor polki haqida so'z" dostonida til, uslub va ideologiya jihatdan turkiy xalqlar ta'sirining bo'lishiga alohida to'xtalib o'tiladi. Asarda joy olgan turkchilik g'oyalari o'sha vaqtning ideologik talablariga mos bo'lmagani uchun rasmiy shaklda muallifga nisbatan ayblovlar ilgari surilishiga olib keldi. 1976-yilda

Fanlar Akademiyasida o'tkazilgan muzokara va sud qarorlar natijasi o'laroq "Az i Ya" ideologiyaga zarar beruvchi, ilmga hech qanday foydasi bo'lmagan asar sifatida taqiqlanadi.

Asar qadimgi turk madaniyatining ikki taraqqiyot cho'qqisi bo'lgan Turk-Shumer va Turk-Sibir bosqichlarining necha ming yillik tarixini kuzatishi, ularning dunyo madaniyati va sivilizatsiyasidagi rolini aniqlashi, turk haqiqatlarining vaqti-vaqti bilan nohaq hujumlarga duchor bo'lishi va b. aks ettirishi bilan ajralib turadi. Bu masalalarga muallif obyektiv ilmiy tahlil va tadqiqlarida izoh beradi. O'ljas Sulaymonov ushbu tadqiqotlarida noxolislikdan uzoq turadi. Fikrlarini dunyo ilmi "kurrasida" yuritadi, hech qaysi xalqning tarixiy haqlarini toptamaydi. Ikki asosiy qismdan ("Qizilqushlar va G'ozlar", "Shumernoma") iborat "Az i Ya" asarida turkning taraqqiyot yo'li asosiy markazi hisoblanadi. Shuning uchun ham hodisalarga, ilmiy-madaniy jarayonga tarixiy va zamonaviy prizmadan yondashish, turklarning tarixdagi o'rnini, ularning dunyo madaniyatidagi hissasining tasdig'i va inkori muammolariga munosabat katta qiziqish uyg'otadi: "Qadimiy turk madaniyatining ikki taraqqiyot cho'qqisi o'rtasida necha ming yillik jarlik bor. Tanazzul jarligi! Tarix fanida ko'chmanchilarning madaniy qoloqligi ko'p bor yozilgan. Biz bu ma'lumotni inkor qilmagan holda, unga dialektika jihatdan batafsil so'zni qo'shimcha qilmoqchimiz: horg'inlik. Nodon manbalar tarixiy grafikaning juda kichik qismini kuzata olgan va nodon tarixchi bu qism asosida go'yo turklarning taraqqiyot relyefi doim zaif bo'lganini da'vo qiladi. Demak, turkiy xalqlar paydo bo'lgan kundan beri badnom vaziyatda, ya'ni Yevropa tarixchisi hozir ko'rib turgan, to'g'rirog'i, ko'rishni istagan Vahshiy urug' qiyofasida bo'lgan.

Har bir xalq tarixining grafikasi kardiogrammani eslatadi. Tibbiyotda to'g'ri chiziq o'limni bildiradi. Tarixda esa xalqning yangi sapchish uchun kuch yig'gan vaqtni bildiradi. Turklarning hayot grafikasi hali nihoyasiga yetmagan."<sup>17</sup>

O'ljas Sulaymonovning ajnabiy-xristian tadqiqotchilarining turkni ko'chmanchi, vahshiy qabila deb hisoblashlariga, ko'chmanchilarning esa bunday madaniyat namunasi yaratish imkoniyatlarining bo'lmasligiga e'tirozi so'zga emas, faktga va mantiqqa tayanadi, hind-Yevropa madaniyatining boyishida bu madaniyat baza rolini o'ynaganini alohida qayd etadi: "Biz Old Osiyoda paydo bo'lgan So'z va Ishoraning Misr san'atida yetilgach, Hind-Yevropa madaniyatini qanday boyitganining guvohi bo'ldik. Lekin sivilizatsiyalarning qaynar qozonidan hind-yevropaliklar ham bevosita bahramand bo'lar edilar."<sup>18</sup>

Olim turkiylarga qarshi adolatsiz fikrlarda bo'lgan, uning tarixi va

<sup>17</sup> O'ljas Sulaymonov. Az-Ya. Boku, 1993, 217-bet.

<sup>18</sup> O'sha manba. 249-bet.

milliy hissiyotiga tekkan xorijiy tadqiqotchilardan farqli o'laroq obyektiv ilmiy muhokamalarni ilgari suradi, har bir xalqning tarixiy-madaniy huquqini xolis baholaydi:

"1791-yilda A.I.Musin Muqaddas Sinodning ober-prokurori etib tayinlandi. O'sha yilning 11-avgustida II Yekaterinaning farmoni bilan Sinodamonastr arxivlaridan va kutubxonalaridan rus tarixi uchun qimmatli bo'lgan qo'lyozmalarni musodara qilishga ruxsat berildi.

Bu ish A.I.Musinga topshirildi. Taxminan 1792-yilda u XVI asrga tegishli majmuani topdi, "Igor polki haqida so'z" dostoni nusxasi ham o'sha yerda edi.

1812-yil Moskva yong'ini paytida grafning uyi ham, kutubxonasi ham kulga aylandi. XVI asrga tegishli nusxa ham o'sha yerda yonib ketdi. Hozirda fan olamida Musin nashridan va Yekaterina uchun surati ko'chirilgan nusxadan foydalaniladi.

XVI asr nusxasi to'g'risidagi ushbu voqea o'sha davrda rus olimlarida ham, xorijiy mutaxassislarda ham dostonning haqiqiylikiga shubha uyg'otdi. Hozirgi nusxa soxta ekanligi va bundan maqsad o'tmishdan olingan dalillar bilan Yekaterinaning imperialist siyosatini qo'llab-quvvatlash ekanligidan gumon qilinadi. Hatto soxta nusxaning mualliflari ham taxmin qilinardi (shu jumladan, Musin)<sup>19</sup>.

"Igor polki dostoni" tarixiga doir" tadqiqotlarida O'.Sulaymonov fikrlari ilmiy prinsiplarga tayanadi. Bu yerda "Igor dostoni" chindan ham bo'lganmi yoki bu XVIII asrda yozilgan soxta qo'lyozmami?" – savoliga javob topishda O'ljas Sulaymonov parallel fikrlarni ifodalaydi, aniq javob berishga shoshilmaydi. Maqsad esa asl olim sabri va obyektivligi bilan aniq faktlarni yuzaga chiqarish, boshqa xalqning madaniyatiga soya solmaslik edi.

Shuning uchun ham muallif "Igor polki dostoni" to'g'risidagi ko'plab tadqiqotchi olimlarning fikr-mulohazalariga diqqat bilan nazar soladi, ularni elakdan o'tkazib, xulosasini bildiradi. Ma'lumki, doston XII asrdan boshlab, turli asrlarda (XVIII asrgacha) shakllangani ta'kidlanadi. O'ljas Sulaymonov fikricha, "hech bo'lmasa faktni qabil qilish kerak. "Igor polki dostoni" kamida ikki davr kesishmasining – XII va XVI asrlar mahsuli, adabiy obidasidir". Albatta, bu yerda juda nozik masala yuzaga chiqadi. O'ljas Sulaymonov bu fikrlari bilan kotiblarning dostonga qo'shgan soxta qo'shimchalarini ko'zdan qochirmaydi. "U (kotib nazarda tutiladi – E.Q.) nafaqat dostonning ruhiga xristian havosini singdiradi, eng achinarlisi shundaki, o'z davrining ruhiga mos ravishda ba'zi qismlarga vatanparvarlik libosi kiydirishga jahd etar edi"<sup>20</sup>.

O'ljas Sulaymonov ushbu dostonning ko'chirilgan uch nusxasi

<sup>19</sup> O'. Sulaymonov. Az-Ya. Boku, 1993, 5-bet.

<sup>20</sup> O'sha manba. 153-bet.

to'g'risida ma'lumot beradi: "Bu nusxalardan birini XVIII asrda Musin-Pushkin qo'lga kiritadi. Ikkinchi nusxa XX asrda Pechorada g'oyib bo'ladi. Uchinchisini esa Hashtarxon bozoridan noma'lum qozoq olib, qayergadir olib ketadi".

O'ljas Sulaymonov ushbu dostonni nodir obida deb hisoblaydi. U asarda turkizm masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Turkizmning mavjudligi "Igor polki dostoni"ning XII asr slavyan dialekti asosida yaratilganini isbotlovchi asosiy dalil deb baholaydi: "Menimcha slavyan-turk tarixining qiziqarli epizodlaridan biriga bag'ishlangan "Igor polki dostoni"ning muallifi ham turk tilining ob-havosi, poeziyasi singgan muhitda yashab, ijod qilgan.

U o'z davrining farzandi edi va matnda muomaladan chiqib ketgan turkizmdan emas, o'quvchilar tushunmasligidan qo'rqmas, jonli turkcha terminlar va leksemalardan foydalangan. Chunki u o'z asarini XII asrning ikki tilli o'quvchisiga mo'ljallagan"<sup>21</sup>.

Ko'rinib turganidek, bu yerda muallif dostonida turkizmlarning ishlatilishiga ehtiyoj tug'dirgan muhitning manzarasini qisman bera olgan. Asar davomida bir necha so'z guruhlarining etimologik variantlari berilishi, bu so'zlarning boshqa tillardagi so'z ijodida o'ynagan rolini ko'rsatilishi diqqatdan chetda qolmaydi. Masalan: batir-batur-bootur, bogatur-bogatir va buy-biy-bay-bey-boy va h.

Lekin O'ljas Sulaymonov tahlil va tadqiqatlarida "bir necha asrdan so'ng Rossiyada turk tili o'z ahamiyatini muayyan darajada yo'qotgani sababli" turkiy so'zlarning ishlatish imkoniyatlari toraya boshlaydi. Shuning uchun ham XVI asrda ushbu dostonni ko'chirgan kotib asardagi turk so'zlarining ko'pchiligini tarjima qilib, ularni shimoliy rus shevalarida ishlatiluvchi so'zlar bilan almashtirgan. O'ljas Sulaymonov bu holga afsus bilan boqsa ham, tasodifan tarjima qilinmagan turkiycha so'zlarning mavjudligini yuqori baholaydi: "Biroq ko'chirmalar vaqtida tasodifan qolib ketgan turkiycha so'zlar dostoniga alohida kolorit bag'ishlaydi. Dnepr suvida erigan Baskanchuk tuzi kabi. Yoki qon kabi. Yoki ko'z yoshi kabi"<sup>22</sup>.

Shumer-turk tili va tarixi aloqalarining, shumer madaniyati izlarining, bu madaniyatning dunyo madaniyatiga ta'siri masalalarining o'rganilishi O'ljas Sulaymonov ijodida alohida o'rin egallaydi. "Az i Ya" kitobiga kiritilgan "Shumernoma" qismida muallif turkiy ajdodlarning bir paytlar Markaziy Osiyoning "madaniyat qozonida pishganliklarini" va "Osiyo cho'llariga chekinib, shumer leksemasini ham o'zlari bilan olib ketganliklarini" qayd etadi. Bu yerda turkiy so'zlar, uning shumer leksemasiga bog'liqligi, shumer davrida turkiy tillarning mavjudligini aniq dalillar bilan isbotlanadi. O'ljas Sulaymonov Shumerlar to'g'risida yozilgan

<sup>21</sup> O. Sulaymonov. Az-Ya. Boku, 1993, 153-bet.

<sup>22</sup> O. Sulaymonov. Az-Ya. Boku, 1993, 154-bet.



soxtalikka qarshi chiqib, manbalarga ko'r-ko'rona munosabat bildirmaydi. Shumerlar to'g'risidagi ba'zi manbalarda xatolikka yo'l qo'yilganini isbotlab beradi. Haqiqat esa Shumer-Turk aloqasini ko'rsatishdadir. Albatta, Shumer-turk etnik aloqasi fikrlari oldida har qanday to'siq qo'ygan totalitar rejimning taqiqlari davrida bunday mavzuni ochish juda qiyin edi. Lekin O'ljas Sulaymonovning etnik-tarixiy muammolarga bo'lgan ishtiyoqi barcha qiyinchiliklarga ko'ksini kerishiga sabab bo'ldi. Bu to'g'risida O'ljas Sulaymonovning o'z fikrlari bor: "Agar Shumer tufayli sening jigarini sug'urib olsalar, sen uning yo'lida Vatan uchun kurashgandek jang qilmog'ing darkor. Uning oldida Vatan oldida javob bergandek turishing kerak. Bas, Shumer bilan shug'ullangan yillarimda yig'ilib qolgan o'y-fikrlarimni qog'ozga ko'chirishim kerak".

Qayd etish lozimki, muallifning Shumerlar to'g'risidagi fikrlari yillar davomida izlanib, tadqiq etgan arxeologik topilmalarga, mil.av. tegishli Xitoy solnomalariga, Yevropa, rus va sharq olimlarining fikrlariga, Avesto va qadimgi turkiy yozma manbalarga tayanadi. Natijada "Shumer" so'zining etimologiyasidan boshlab, Shumerlarning qadimiy xalq sifatida tarix maydonida o'tgan yo'lining "harakat jadvali" gacha bo'lgan ko'plab masalalarni yoritadi.



# TATAR ADABIYOTI



